S. QORAYEV

TOPONIMIKA



S. Qorayevning «Toponimika» qo'llanmasi toponimikaning ilmiy-nazariy asoslariga hamda O'zbekiston toponimiyasiga bag'ishlangan va shubhasiz, ijtimoiy hamda gumanitar fanlarning eng dolzarb, bir-biriga tutashib ketgan muhim masalalari majmuidan bahs etadi. Soha bo'yicha ko'p yillik ilmiy-tadqiqot tajribasiga ega bo'lgan muallif toponimikaning asosiy qonuniyatlari va tadqiqot yo'nalishlari kabi muhim muammolariga o'ta sinchkovlik bilan yondoshgan. Ko'p qatlamli va nihoyatda boy daliliy materiallar to'plagan va ularni ma'lum bir qolipga solib umumlashtirgan hamda o'quv qo'llanmasi shakliga keltirgan. Bu asar shubhasiz, O'rta Osiyo, xususan O'zbekistonda toponimika fanining rivojiga qo'shilgan arzugulik hissadir.

Muallif haqida ikki og'iz so'z.

Suyun Qorayev sinchkov, zaxmatkash va serqirra olim. Muallif yarim asrdan beri toponimika bilan shug'ullanib, bir necha lug'at, monografiya va risola, ikki yuzdan ortiq ilmiy maqolalar chop etgan. Taniqli toponimist olim T.Nafasov aytganidek, S.Qorayevning toponimik lug'atlari, risolalari, maqolalari xalq mulkiga aylangan. O'zbekistonda toponimika fani bo'yicha dastlabki o'quv qo'llanmasiga respublikaning yetakchi toponimisti S.Qorayevning muallif bo'lishi qonuniy bir holdir.

Maxsus muharrir, akademik A.R.Muhammadjonov.

Qo'llanmada toponimikaning umumiy qonuniyatlari bayon etilgan. Hududiy toponimlar, geografik nomlarni hosil qiladigan so'zlar izohlangan, amaliy toponimika haqida tushuncha berilgan hamda ayrim yozma yodgorliklar toponimik jihatdan tahlil qilingan.

O'qituvchilar, shuningdek, etimologiya havaskorlari ushbu kitobdan talay qiziqarli ma'lumotlar topa oladilar, degan umiddamiz.

81.2Uzb
Q 59

Qorayev S.

Toponimika: O'quv qo'll./ S.Qorayev. – T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006. – 320 b.

BBK 81.2Uzb-2

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti», 2006.

SO'ZBOSHI

Kishilar oq-qorani tanib tirikchilik qila boshlashibdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko'llarni, tog'laru qir-adirlarni, o'tloq-yaylovlarni ma'lum bir nom bilan atab kelganlar. Dastlabki toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar edi. Atrof tabiiy muhiti haqidagi tasavvur kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o'tloqni boshqasidan, yaqindagi tepalikni narigisidan ajratish ehtiyoji tug'ila boshladi. Shundan so'ng *Kattabuloq – Kichikbuloq, Qiziltepa – Ko'ktepa, Tuyayaylov – Echkiyaylov* singari murakkabroq joy nomlari paydo bo'lgan. Ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablasha borgan. Hali yozuv paydo bo'lmagani sababli birdoiy zamondagi geografik nomlar bizgacha yetib kelmagan.

O'rta Osiyoning, jumladan O'zbekistonning xorazmiy, sug'diy, qadimgi turkiy yozuvlarda yetib kelgan toponimlari ko'p emas. Yunon manbalarida tilga olingan geografik nomlarimiz ham sanoqli. Eramizning birinchi ming yilligi oxiri – ikkinchi ming yilligi boshlari bizdan taqamiz uchun yozma manbalarda ko'hna toponimlar ko'plab qayd qilingan davr edi. «Devonu lug'otit-turk», «Buxoro tarixi», «Hudud al-olam», «Arab geograflari kutubxonasi» jildlari so'zsiz, benazir toponimik manbalardir. Bu yodnomalarda tilga olingan geografik nomlarning anchasi hamon o'zining shakl-shamoyilini saqlab qolgan.

O'rta asrning oxirlari toponimik materiallarni qamrab olishda ikkinchi oltin davr bo'ldi. Xususan, Amir Temur va Temuriylar tarixi, birinchi galda Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»lari, Zahiriddin Boburning xotiralari – «Boburnoma», Shayboniylar tarixi, Hofiz Tanishning «Abdullanoma» asari va boshqa yodnomalarda ko'plab shahar va qishloqlar, daryo, soylar, mavze va maskanlar tilga olingan. Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai tarokima», «Shajarai turk» asarlarida bir qancha geografik nomlar bilan birga ko'plab etnonimlar – qabila-urug' nomlari keltirilganki, bu materiallar toponimchilar uchun bebaho manbalardir.

Xiva, Buxoro, va Qo'qon xonliklari hujjatlarida, vaqfnomalarda, vasiqalarda ko'plab joy nomlari, shuningdek toponimlarning kaliti bo'lib xizmat qiladigan talay geografik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa materiallar uchraydiki, bunday boy manbalarni o'rganmasdan turib, O'zbekiston toponimikasi haqida fikr yuritish ko'ngildagidek samara bermaydi.

Xiva, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Toshkent hujjatlarining onimik va terminologik xazinalarini o'rganishda Ya. G'.G'ulomov, I. Yo'ldoshev, V. V. Bartold, P. P. Ivanov, V. L. Vyatkin, A. A. myonov, O. D. Chexovich, O. A. Suxareva, A. B. Ahmedov, A. R. Muxamadjonov, R. G. Muqminova kabi olimlar katta ishlarni amalga shirgan.

Qo'llanmada ana shu boy tarixiy meros hamda mo'l toponimik material zamonaviy toponimik tadqiqot «tegirmonidan» o'tkazildi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, toponimika, xususan O'zbekiston toponimikasi oson soha emas. Shuning uchun bo'lsa kerak, Respublikamizdagina emas, balki butun Hamdo'stlik mamlakatlarida ham toponimikadan bironta turg'un darslik yaratilgani yo'q. Faqat Belarus Respublikasida A. V. Juchkevichning oliy o'quv yurtlarining geografiya fakultetlari uchun mo'ljallangan «Obqaya toponimika» («Umumiy toponimika») o'quv qo'llanmasi (Minsk, 1968, 429 s.)bir necha marta nashr etildi.

Qo'lingizdagi qo'llanmaning arxitektonikasiga qarang: toponimik tadqiqot tarixi va asosiy toponimik qonuniyatlar qisqacha yoritilgach, har bir viloyat (shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi) uchun o'lkashunoslik materiali bo'lib xizmat qiladigan hududiy toponimiyaga, so'ngra toponimlarning «qurilish materialllari» hisoblangan toponimik leksikaga, undan keyin amaliy toponimikaga boblar ajratilgan. Oxirgi bobda ayrim yozma yodgorliklar toponimik jihatdan tahlil qilingan.

Kitobxon matndan toponimika haqida har taraflama ma'lumot topa oladi deb ishonamiz. Shu bilan birga u geografik, lingvistik va tarixiy yo'nalishlardagi toponimika bo'yicha birinchi qo'llanma bo'lgani bois ma'lum bir kamchiliklar bo'lishi tabiiy.

Mazkur qo'llanma jamoatchilik nazaridan o'tib, tegishli fikrlar to'plangach, toponimikadan maxsus darslik yaratish uchun negiz bo'lib xizmat qilishi mumkin deb umid qilamiz.

I-bob
TOPONIMIKANING UMUMIY QONUNIYATLARI

KIRISH

Har bir kishining o'z nomi — ismi bor. Bir xil ismli kishilar ya'ni adashlar ko'p bo'lgan holda, ularni laqab bilan farq qilganlar. Familiyalar ham aslida kishilarni bir-biridan farq qilishga xizmat qiladi.

Umuman, inson narsalarga nom qo'ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. O'simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud. Har qanday o'simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi.

Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg'ani boshqa bir jilg'adan, bir ko'chani yonidagi ko'chadan, tog'-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o'ylab chiqargan. Joy nomlari, ***geografik nomlar*** yoki ***toponimlar*** deb ataladi. Toponimlarni **t o p o n i m i k a** fani o'rganadi.

Toponimika yunoncha *topos* — ***joy*** va *onoma* (yoki onima) — ***nom*** so'zlaridan tarkib topgan.

Joy nomlari, ya'ni ***toponimiya*** bir necha turga bo'linadi. Bular ***gidronomiya*** (yunoncha gidro — ***suv***), ya'ni daryolar, ko'llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo'ltiqlar, bo'g'ozlar, sharsharalar nomlari. ***oronimiya*** (yunoncha oros — ***tog'***), ya'ni yer yuzasining relef shakllari — tog'lar, cho'qqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; ***oykonimiya*** (yunoncha oykos — ***uy***), ***polinimiya*** (yunoncha polis — ***shahar***) yoki ***urbanonomiya*** (lotincha urbos — ***shahar***), ya'ni qishloq hamda shaharlarning nomlari, ***mikrotoponimiya*** (yunoncha mikros — ***kichik***), ya'ni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar daraxtzorlar, jarlar, yo'llar, ko'priklar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar ***etnotoponimlar*** (yunoncha etnos — ***xalq***) deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa ***antropotoponimlar*** (yunoncha antropos — ***odam***) deb atash mumkin.

Toponimikani qaysi fanlar qatoriga kiritish kerak, degan munozara uzoq davom etdi.

Toponimika shaharlar, qishloqlar, daryolar, ko'llar, tog'lar kabi geografik nomlarni, ularning kelib chiqishini, tarixini o'rganar ekan, bu fan tilshunoslarga ham, tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi.

Geografik nomlar, ya'ni toponimlar til lug'at tarkibining bir qismi bo'lib, til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Albatta, so'zni tilshunoslik — lingvistika fani o'rganishi kerak. Demak, toponimika atoqli otlarni o'rganadigan ***onomastika*** fanining bir qismi bo'lib, tilshunoslik fanlari qatoriga kiradi.

Ikkinchi tomondan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida biron mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini aks ettiradi. Ana shu nuqtai nazardan toponimikani geografik fanlar jumlasiga kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda, joy nomlari jamiyat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Joylarga qanday nom berish avvalo jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Joy nomlari tarixini bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish kutilgan natijani bermaydi. Ana shuning uchun ham toponimika tarix fanlari qatoridan o'rin oladi.

Demak, toponimika uchta katta soha: tilshunoslik, geografiya, tarix oralig'idagi fandir. Shu bois toponimikaning talaygina faktlari xarakter jihatdan xilma-xil bo'lgan lingvistik, tarixiy va geografik material jalb qilingandagina to'g'ri izohlab berilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, biron-bir geografik yoki bir guruh nomning kelib chiqishi va tarixini mumkin qadar aniqroq tushuntirib berishni maqsad qilib olgan toponimik tadqiqot oson ish emas, balki talay vaqt hamda katta kuch talab qiladi.

TOPONIMIKA VA TILSHUNOSLIK

Toponimlar til lug'at fondining bir qismidir. Shu bilan birgalikda joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan anchagina farq qiladi. Bu farq toponimlarning uzoq yashashida, ularning ***polikomponentli***, ya'ni ko'p komponentlardan — tarkibiy qismlardan iborat bo'lishida, har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra, toponimlar yasashda turdosh otlar (apellyativlar) ishtirok eta olishida o'z aksini topadi.

Toponimlarni yasashda shu til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalaniladi. Lekin shu bilan birgalikda har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar paydo bo'ladi, ya'ni muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar faqat yoki aksari toponimlar yaratishga ixtisoslashib qoladi.

Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'zlarning dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarni bilib olishimiz mumkin.

Masalan, hozirgi ***Nurota*** nomini ba'zi birovlar mo'g'ulcha ***nuru*** va o'zbekcha ***tov*** so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, har ikkala so'z ham «tog'» degan ma'noni bildiradi deyishadi. Holbuki, bu nom bundan ming yildan ham ko'proq oldin qayd qilingan.

Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida (934-944 yillarda yozilgan) ***Nur*** degan joy nomini tilgan oladi. Uni boshqa viloyatlarda ***Nuri Buxoro*** deb ataydilar, deb yozadi Narshaxiy. ***Nuri Buxoro***, ya'ni Buxoro Nuridan boshqa Nurlar ham bo'lgan. Masalan, Zarafshonning ikkita tarmog'i — Qoradaryo bilan Oqdaryo oralig'idagi Miyonkol orolida ham ***Nur*** degan qishloq bo'lgan. Uni boshqalardan farq qilish uchun Nuri Miyonkol deb atashgan. Shunday qilib, Nur bora-bora ***Nurota*** bo'lib ketgan: ***nur*** so'zi (arabcha) «yorug'lik», ***ota*** esa geografik nomlar tarkibida «aziz avliyolarning qadamjosi» degan ma'noni bildiradi.

Samarqand shahri Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) yilnomalarida ***Marokanda***, sug'd yozuvlarida ***Smarakans***, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond (XV asr), Amir Temur saroyiga kelgan ispan elchisi Ryui Gondales de Klavixo (XV asr) asarlarida ***Semizkent***, Chingizxon haqidagi mo'g'ul hikoyasida ***Semizgen*** kabi bir qancha variantlarda uchraydiki, bularning hammasi Samarqand nomi juda qadimiy ekanligini va uning kelib chiqishi (etimologiyasi) hamon uzil-kesil hal bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Toponimikaning tilshunoslik, til tarixi hamda dialektologiya uchun ahamiyati juda katta va xilma-xil. Biz bu masalalarning hammasiga

alohida to'xtalib o'tish imkoniyatiga ega emasmiz. Shu sababli bu o'rinda kitobxonning e'tiborini faqat bir narsaga – O'zbekiston toponimiyasida ko'plik kategoriyasi masalasiga jalb qilmoqchimiz. Chunki toponimiyada ko'plik masalasi tilshunosligimizning tesha tegmagan va muhim masalalaridan biri sanaladi.

Nemis tilshunosi V.Shperberg, rus toponimisti V.A.Nikonov tadqiqotlari roman va slavyan toponimlarida ko'plik shakli juda keng tarqalganligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham rus toponimlarida ko'plik affiksi ko'plab ishlatiladi. Masalan, *ko'prik* so'zining bir o'zi o'zbek tilida hech vaqt toponimga aylanmaydi, buning uchun ko'prik so'ziga biron sifat qo'shilishi kerak, chunonchi ***Beshko'prik***, ***G'ishtko'prik***, ***Taxtako'prik***, ***Ko'prikboshi*** va hokazo. Rus tilida esa most (ko'prik) so'ziga ko'prik qo'shimchasi qo'shilsa bas, ***Mosto*** shaklida toponim yasaladi. Bunda ko'prikning ko'p bo'lishi shart emas. Mosto toponimi o'zbekcha *ko'prikli* ma'nosini beradi. ***Qarshi***, ***Mari*** kabi joy nomlarini ham ruslar ko'plik shaklidagi so'zlar kabi tushunadi va shunday turlaydi. Bularning hammasi rus tilining xususiyatidan kelib chiqadi. Rus tilida ko'pgina so'zlar faqat ko'plik shaklida ishlatiladi (chaso', nojnitso' va boshqalar).

Turkiy tillarda, jumladan o'zbek tilida toponimlarda ko'plik qo'shimchalari u qadar keng tarqalgan emas, o'zbek toponimlari tarkibida bir necha ko'plik affiksini uchratish mumkin. Biz ulardan har biriga to'xtalib o'tamiz.

-lar affiksi

Professor A. G'ulomov bu affiksni so'z yasovchi morfemalar qatoriga kiritmaydi. Bu qo'shimcha noma'lum ko'plikni, hurmatni, biron fikrni ta'kidlashni, mavhum tushunchani konkretlashtirishni, umumiylikni, takrorni bildiradi. Mazkur affiks ***Oylarxon, Qizlaroy*** kabi kishi ismlari tarkibida ham uchraydi hamda bu o'rinda ism yasash funktsiyasinigina o'taydi. U so'z mazmuniga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Biroq toponimiyada tamoman boshqa manzarani ko'ramiz: ***-lar*** affiksi ko'plab toponim yasaydigan topoformant hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ***-lar*** affiksi faqat kishilar bilan bog'liq bo'lgan toponimlar yasaydi: ***arablar, beklar, boylar, zargarlar, moxovlar, shayxlar*** va hokazo. 1959 yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra,

Xorazm viloyatidagi 720 ta aholi punktidan 80 dan ortig'i – lar qo'shimchasi bilan tugaydi. Shunisi qiziqki, bu nomlar orasida ***Ko'paklar, Shag'allar, Echkilar, Qarg'alar*** kabi toponimlar uchraydi. Bunday qaraganda, bu toponimlar hayvon nomlaridan tarkib topganga o'xshaydi. Aslida esa shunday emas: *ko'pak, shag'al* (chiyabo'ri), *echki, qarg'a* degan urug' nomlari bor. Hali zikr etilgan toponimlar ana shu urug'lar nomi bilan atalgan. Masalan, ***Qarg'alar*** «qarg'a urug'idan bo'lgan kishilar yashaydigan joy» demakdir.

-on affiksi

Bu tojikcha affiks O'zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir sotsial guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga – ***Arabon*** (arablar), ***Qirg'izon*** (qirg'izlar), ***O'zbekon*** (o'zbeklar); 2) qandaydir urug'-aymoqqa – ***Mang'iton*** (mang'itlar), ***Minggon*** (ming urug'idan bo'lgan kishilar); 3) ma'lum tabaqaga – ***Mirzoyon*** (kotiblar), ***Tarxonon*** (oliq-soliqdan ozod qilinganlar); 4) hunar-kasbga – ***Bo'yrabofon*** (bo'yra to'quvchilar), ***Kosagaron*** (kosa ustalari), ***So'zangaron*** (igna ustalari); 5) diniy e'tiqodga mansub ekanligini bildiradi: ***Mug'on, Mug'iyon*** (otashparastlar), ***Hinduyon*** (hindular) va hokazo.

Toponimist A.L.Xromov (Dushanbe) fikricha, ***-o'n*** (on) affiksi ***Matcha*** (Mastchoh) shevalarida, shuningdek barcha tojik shevalarida kam ishlatiladi. Shu affiksli toponimlar ancha qadimiy hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ***-on*** o'rniga ko'proq ***-o (ho)*** ko'plik qo'shimchasi qo'llaniladi.

O'zbekiston sharoitida esa, ***-ho*** (o) ko'plik affiksi toponimlar tarkibida nihoyatda kam uchraydi va bo'lsa ham toponimning asosiy tarkibiy qismi bilan shu qadar qo'shilishib ketganki, aksari uni payqab olish qiyin.

-ot (t) affiksi

Toponim yasovchi bu affiks *ikki xil yo'l* bilan paydo bo'lgan: biri arabcha bo'lsa, ikkinchisi sug'diychadir. Bundan tashqari, ***-t*** qadimgi turkiy tilda va mo'g'ul tilida ham ko'plik o'rnida keladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur birgina toponimni ikki shaklda yozgan: ***Badaxshon – Badaxshonot, Lamg'on – Lamg'onot, Xuroson – Xurosonot, Hinduston – Hindustonot.***

Shuningdek, Erondagi Gilon va Garmser o'lkalari **Gilonot** va ***Garmserot*** shakllarida yozib kelingani ma'lum.

Akademik V.V.Bartold Badaxshon tarixi to'g'risida so'z yuritar ekan, bu tog'li o'lka tarixiy manbalarda arabcha ko'plik shaklida ***Badaxshonot*** tarzida ham uchraydi, degan edi.

Haqiqat ham shunday. Yuqorida keltirilgan misollarda arabcha ***-ot*** affiksi ruscha ***-kina*** (Kievkina, Smolenkina) qo'shimchasini eslatadi va shu joyning tevarak atrofini ham bildiradi.

Chunonchi, Bobur Hindistonni ***Hindistonot*** shaklida yozganda, bundan oldin albatta «tomam» (butun) so'zini ishlatadi va binobarin, «tomam Hindustonot» deganda, butun Hindiston va uning atrofini tushunadi.

Afg'onistondagi ***Hirot*** shahri nomini ham shu jumlaga kiritish mumkin. Bu shahar nomi dastlab ***Hiri*** shaklida bo'lgan. Hiri poytaxtlik davrida tobora kengaya borgan va Navoiy zamonida daryo bo'ylab 15-16 km ga cho'zilgan. Hiri shahri tevarak-atrofi bilan ***Hirot*** (Hiri Hot) deb atala boshlagan va bora-bora shu nom qonunlashib qolgan, deb hisoblaymiz.

Zarafshon daryosining Qoradaryo va Oqdaryo deb ataluvchi tarmoqlari oralig'idagi ***Miyonkol*** oroli tevarak-atrofi bilan birgalikda ***Miyonkolot*** deb ham yuritilgan. ***Bog'ot, Rabotot*** kabi toponimlar haqiqatan ham ko'plik ma'nosini bildiradi. Bog'ot – «bog'lar», Rabotot – «rabotlar». Pomir ham ***Pomirot*** shaklida yozilganligi ma'lum, chunki Pomirlar juda ko'p bo'lgan (ingliz mualliflari asarlarida to'qqizta Pomir qayd qilingan).

Yana shuni aytib o'tish o'rinliki, ba'zi bir turkshunoslar arabcha ***-ot*** ko'plik affiksi turkiy, jumladan, o'zbekcha so'zlar tarkibida uchramaydi, degan fikrdalar. Biroq shu narsa ma'lumki, ***-ot*** qo'shimchasi ko'plik ma'nosida XIII-XV asrlardayoq, o'zbekcha **qishloq, qo'shin** so'zlari oxiriga qo'shilib **qishloqot, qo'shinot** tarzida ishlatilgan. Ayni vaqtda ***-ot*** qo'shimchasi toponimlar ham yasagan.

Biz ***-t (-ot)*** affiksi sug'd tilida ham ko'plik affiksi ekanligini aytib o'tgan edik. Olimlar (M.S.Andreev, A.A.Freyman, V.A.Livshits, M.N.Bogolyubov, A.L.Xromov) sug'd tilining hozirgi davomi hisoblangan yag'nob tilining grammatik xususiyatlarini o'rganib, bu har ikkala tilda ham ***-t*** ko'plikni bildiruvchi orqa qo'shimcha ekanligini isbot qildilar. Masalan, yag'nob tilida **aka** so'zining ko'pligi **akot** (akaot), **jo'ra** (sherik) so'zning ko'pligi **jo'rot, g'ar** (tog') so'zining ko'pligi – **g'arot** va h.k.

A.L.Xromov Yag'nobdagi **Sitkt, G'uddant, Regdont, G'ajje Tobot** kabi toponimlar tarkibidagi ***-t*** harfini ko'plik suffiksi deb biladi, hatto **Zoyti, Xramti** kabi so'zlardagi ***-t*** harfini ham ko'plik belgisi deb hisoblaydi. ***-i*** harfi esa yag'nobcha bosh kelishikdan boshqa kelishiklar ko'rsatkichi bo'lsa kerak, deydi.

Agar shunday bo'lsa, «Boburnoma» va boshqa tarixiy yodgorliklarda uchraydigan **Olmati, Chilti, Shiberti** kabi toponimlarning morfologik xususiyati muayyan darajada tushunarli bo'lib qoladi va ularning tarkibidagi ***-t*** ham ko'plik affiksi bo'lib chiqadi.

Shundan ko'rinadiki, toponimika tarixiy tilshunoslikning ko'pgina masalalarini yechib berishda tilshunoslarimizga yordamga keladi.

TOPONIMIKA VA GEOGRAFIYA

Toponimika ayniqsa, geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponim – geografik obyektning aniq manzilidir. Nomlar joyning geografik o'rnini aniqlash uchun ham, geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarur. Geografik xaritada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o'rin tutadi.

Geografik obyektlar shu qadar ko'p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so'zlar, ya'ni nomlar bo'lishi kerak.

Geografik nomlarni geografiyaning o'ziga xos tili desa bo'ladi. Geografik nomlar muayyan geografik tushunchalarni ifoda etar ekan, bir qancha hollarda atamaga aylanib qoladi. Masalan, yonar tog'larni ifoda etuvchi *vulkan* atamasi Italiyadagi *Vulkano* tog'i nomidan olingan. Toponimlar biron geografik tushunchani ifoda etadi, shuning uchun geografiyani bilmasdan turib joy nomlarini o'rganish ko'pincha katta ilmiy xatolarga olib kelishi mumkin. Joy nomlarida geografik muhitning xususiyatlari – relef shakllari, o'simlik va hayvon nomlari aks etgan bo'ladi. Shu bilan birgalikda joylarga nom berishning o'ziga xos bir xususiyati bor. Masalan, o'rmonli rayonlarda «o'rmon» so'zidan tarkib topgan joy nomlari, tog'li o'lkalarda «tog'» so'zidan tuzilgan toponimlar u qadar ko'p emas. Agar bor bo'lsa ham, ular ko'pincha qo'shni hududlarda yashaydigan xalqlar tomonidan berilgan nomlar bo'ladi.

Toponimikada *nisbiy negativlik* deb ataladigan bu qonunning asosiy sababi shundaki, hammayoq *cho'l* bo'lgan joylarda cho'l kishi e'tiborini tortmaydi. Kishilar nom qo'yish uchun boshqalardan qandaydir farq

qilib turadigan tabiiy geografik obyekt qidirishadi. Shuning uchun ham cho'llarda quduqlar, ayrim qirlar nomlari ko'proq uchraydi. Chunki bu quduq va qirlar yo'lovchilar hamda cho'ponlar uchun mo'ljal, o'tloq va suvloq bo'lib xizmat qilgan.

Tog'lar to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Tog'lar orasida yashaydigan kishilar *tog'* so'ziga nisbatan *tosh* so'zini ko'proq ishlatadi. Masalan, tog'li yerda «Tog' tepasiga chiqib ketdi» deyish o'rniga «Toshga chiqib ketdi» deyishadi. Yana. ***Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh*** deganda, ko'pincha qandaydir ayrim tog'lar nazarda tutiladi. Ural va Sibir tog'larida ham xalq tog' cho'qqilarini *kamen* (tosh) deb ataydi. Tog' piyozini ko'pincha toshpiyoz, tog' hayvonlaridan kaklik va suvsarni ruslarning ***kamennaya kuropatka, kamennaya kunitsa*** deb atashlarining sababi ham shunda bo'lsa kerak.

Shunday bo'lsa ham, geografik nomlarda geografik qonuniyatlarning aks etganiga juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Demak, joy nomlari tasodifiy paydo bo'lmaydi, aksincha, ***Eshakhangraganqir, Qo'yqirilganqala*** kabi tasodifiy nomlar kamdan-kam uchraydi. Binobarin, toponimlarning aksari qismi ma'naviy jihatdan tabiat hodisalarini aks ettiradi.

Xalq biron tabiat hodisasini geografik atama bilan ifoda etadi va binobarin, geografik nomlar tarkibida geografik atamalar ko'p uchraydi. Bunday atamalar toponimiya negizi, ya'ni murakkab geografik nomlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalq geografik atamalarini bilmasdan turib joy nomlari etimologiyasini to'g'ri aniqlab bo'lmaydi.

Geografik atama (tog', cho'l, ko'l, qishloq va h.k.) hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo'lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani bildiradi. Biroq har qanday geografik atama atoqli otga, ya'ni geografik nomga aylanishi mumkin.

Geografik atamalar, shuningdek o'simlik va hayvon nomlari biron qo'shimchasiz yoki aniqlovchisiz toponimga aylanmaydi. Masalan, O'zbekistonda o'n minglab quduq bor va har biri o'z nomiga ega. Bunda quduq so'zi yonida biron kishining ismi yoki aniqlovchi so'z (**chuqur, katta, uch, to'rt** va h.k.) yo bo'lmasa — **cha, -li** kabi qo'shimchalar bo'ladi. Agar bordi-yu **Quduq, Cho'qqi, Ariq, Yantoq, Qulon** kabi bir atama yoki birgina o'simlik, hayvon nomidan iborat toponim uchraydigan bo'lsa, u holda bunday toponimni

izohlashda juda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki hech qanday tarkibiy qismsiz birgina so'zdan iborat toponim uzoq talaffuz davomida butunlay o'zgarib boshqa bir ma'noni anglatishi yoki toponimning qisqartirilgan varianti bo'lib chiqishi mumkin. Masalan, **Toshkent**dagi **Zaxariq**ni ko'pincha **Zax** deyishadi. Tevarak-atrofda boshqa xuddi shunday obyekt bo'lmaganda ham ba'zan qo'shimchasiz atamaning bir o'zi toponimga aylanadi. Chunonchi **Quduqqa** borib kelaylik deyishadi.

Toponimlar tarkibida ***adir, ariq, bel, buloq, dovon, jar, ko'l, tog', cho'l, qum*** kabi hammaga ma'lum atamalar bilan birgalikda ***arna, bo'ktar, g'aza, dayravot, jol*** *(yol)*, ***jona-yona*** *(qiya)*, ***jo'na, zayak, zov, kam, kom*** *(ariq)*, ***kamar, novur, saqo, sang'aloq, supa, tomchi, tangi, tarma, to'la, tuz, chalqa chag'at, chem, shag'il, shiber*** *(botqoqlik)*, ***shirdon, qo'ton, qirmon*** *(xirmon)* kabi kichik bir hududdagina saqlanib qolgan atamalar ham uchraydi. Har bir atamaning o'z ma'nosi bor. Masalan ***aqba*** (aqaba) arabcha so'z bo'lib, O'rta Osiyoda «dovon» ma'nosida keladi. IX-X asrlardagi arab tilida yozgan geograflarning asarlarida ***aqba*** (ko'pligi ***aqabot***) atamasi ko'p ishlatilgan. Bu atama X asrda fors tilida yozilgan «Xudud-ul olam» va «Tarixi Tabari» asarlarida ham uchraydi. Tojikiston bilan O'zbekistonning tog'li joylarida, ayniqsa, Pomir, Hisor, Zarafshon tog'laridagi o'nlab toponimlar, xususan dovon nomlari tarkibida ***aqba*** so'zi uchraydi. Bu atama O'rta Osiyoning turli joylarida ***axba, ag'ba, avg'a*** shakllarida turli ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, Samarqand viloyatining ba'zi joylarida dovonga **chiqiladigan** tik yo'lni ***ovg'a*** deyishadi.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida baland tog' yaqinidagi tepasi yassi qir **baraz** deyiladi. Masalan, ***Kattabaraz, Kichikbaraz, To'pchiboybaraz*** degan joylar bor. *Baraz* («baland») so'zi qadimiy sug'd tilidan qolgan bo'lib, hozir juda katta hududlarda mustaqil yoki toponimlar tarkibida uchraydi. Masalan, Zarafshon daryosining bosh tomonidagi **Yag'nobda Burozo, Pushti baroz, Sari baroz, Sibaroso, Vanjda Borazgo** kabi toponimlar bor. Olimlarning yozishicha, Rossiyaning Yevropa qismidagi **Berezanka, Berezan** gidronimlari ham o'sha baraz («baland») so'zidan kelib chiqqan. Arman tilidagi **bardzr** ham o'sha **baraz** bilan o'zakdosh va ma'nodosh.

Bu misollar geografiyani yaxshi bilmasdan turib toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermasligini ko'rsatadi.

TOPONIMIKA VA TARIX

Geografik nomlar juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi bois tarix uchun juda katta ahamiyatga ega. ***Damashq*** shaharining shu nom bilan atalganiga uch ming yil bo'ladi. Uni dunyodagi eng keksa nom deb bo'lmaydi. ***Buxoro, Samarqand, Xorazm*** kabi toponimlar ham juda qadimiy nomlardan. Shuning uchun ham ularning kelib chiqishi hamon uzil-kesil hal bo'lgan emas. Qanchadan-qancha nomlar yozuv paydo bo'lmasdan oldingi davrlardan qolgan. Xalqlar yo'q bo'lib ketgan, tili unutilgan bo'lishi mumkin, lekin geografik joy nomlari saqlanib qolaveradi. O'simlik yoki hayvon yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, nom yashayveradi.

Tomsk davlat pedagogika institutining professori A.P.Dulzon Sibir gidronimlarini tahlil qilib qadimda ket xalqi yashagan hudud juda keng bo'lganini aniqladi. Hozir esa Sibirda, xususan Ob daryosi yoqasida hammasi bo'lib 500 kishiga yaqin ket qolgan. Toponimik ma'lumotlar bir vaqtlar ketlar juda ko'p sonli xalq bo'lganini ko'rsatdi.

Toponimning muqim yashashiga asosiy sabab shuki, so'zning toponimga aylanmasdan oldingi ma'nosi to'g'risida kishilar ko'pincha o'ylab ham o'tirmaydilar. Shunday qilib, so'z biron obyektning nomigina bo'lib qoladi.

Bordi-yu bu toponimni sinchiklab tekshirsangiz, hatto mikrotoponimlar deb ataladigan kichik obyekt nomi ham aksari muhim bir tarixiy voqeani o'zida mujassamlashtirgan «makroguvoh» bo'lib chiqishi mumkin.

Yerga bo'lgan xususiy mulkchilik, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, mayda yer egaligi toponimiyada sezilarli iz qoldirgan.

Misollarga murojaat qilaylik. 1909 yilda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida nashr etilgan ro'yxatga ko'ra Qo'qon va Marg'ilon uyezdlarida, shuningdek, Andijon va O'sh uyezdlarida ***chek*** so'zini 50 dan ortiq qishloq nomi tarkibida ko'ramiz. Andijon viloyatida va xususan Farg'ona viloyatida ***chek*** so'zidan tarkib topgan joy nomlari hozir ham anchagina uchraydi.

Andijon tumanida ***Obtobachichek*** degan qishloq bor. Bu nom Xudoyorxon davridan qolgan. Abdurahmon ismli bola (Musulmonqulning o'g'li) xonning qo'liga suv quyuvchi – obtobachi bo'lgan.

Xudoyorxon Abdurahmon obtobachiga bir necha yuz tanob yerni chek qilib bergan. Abdurahmon obtobachining yeri ***Chek Obtobachi*** deb atalgan, keyinchalik ***Obtobachichek*** bo'lib ketgan. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysida ***Alibekchek, Bobochek, Isoavliyochek, Muhammad Aminchek, Nasriddinbekchek*** kabi yerlar bo'lgan. Keyinchalik bu yerlarda qishloqlar bunyod etilgan. Xo'sh chek yer olgan bu kishilar kimlar bo'lgan? Bularning hammasi tarixiy shaxslardir. Chunonchi Muhammad Amin va Nasriddinbek Xudoyorning o'g'illari bo'lgan. Isoavliyo esa xonning ishonchli kishisi va maslahatchisi hisoblangan.

Chek so'zining o'zi nima? Chek deganda, xon va uning oila a'zolari, amaldor, ruhoniylar va mashhur shaxslarning, umuman har qanday kishilarning xususiy yerlari tushunilgan. Shu bilan birga Farg'ona vodiysida ***chek*** so'zi muayyan yer o'lchovi ham hisoblangan. Bu nomlar tarkibida esa chek atamasi toponim yasovchi formant bo'lib, feodalizm yer egaligidan darak berib turadi.

Toponimlarda turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslarning ismlari, ko'chib yurgan urug' nomlari aks etgan bo'ladi.

Buxoro viloyatida ***Abumuslim*** degan tepalik bor. Abumuslim 747-749 yillarda arab xalifaligining sharqiy qismida – Movarounnahr bilan Xurosonda ummoviylar hukmdorligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Uning asl ismi Abdurahmon ibn Asad bo'lib, Abumuslim uning laqabidir. Bu tepalik VIII asr o'rtalarida Buxoroning hozirgi Qiziltepa qishlog'i yaqinida Abumuslim qurdirgan istehkomning xarobasi. Xaroba Abumuslim kanalining bosh tomonidadir. Bu kanalni buxoroliklar ***Jo'yi Abumuslim*** deb ataydilar. Kanal Zarafshondan boshlangan.

Turli davrlardagi ijtimoiy-siyosiy atamalar ham toponimiyada iz qoldirgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi davrida iste'molda bo'lgan ***kutval*** yoki ***katovul*** (komendant), ***otaliq*** (eng katta amaldor – vazir), ***naqib*** (harbiy mansabdor), ***to'qsoba*** (oliy harbiy mansab), ***chandovul*** (qo'shinning eng orti), ***shig'ovul*** (elchini boshlab yuruvchi) kabi atamalarni hozir hamma ham bilavermaydi, lekin ular toponimlar shaklida saqlanib qolgan.

Toponimiyaga qarab qayerlarda, qaysi o'zbek urug'lari yashaganini bilib olish mumkin. Masalan, respublikamizda ***Jaloyir*** degan bir qancha qishloq bor. Ohangaron havzasi hamda Xo'jand atroflarida XIII asr boshidan to 1375 yilgacha jaloyir qabilasi yashagan. O'sha yili qattiq qarshilik ko'rsatgani uchun Amir Temur

'aloyirlar sarkardasini qatl ettiradi va jaloyirlarni turli tomonlarga ko'chirib yuboradi.

Ana shu davrdan boshlab chinakam jaloyirlardan tashqari ularning qo'l ostidagi bir qancha etnik guruhlar ham jaloyirlar deb atala boshlaydi. Hozirgi ***Jaloyir*** qishloqlarining tarixi ana shunday.

Demak, toponimlar har doim ham biron tarixiy sharoit taqozosi bilan dunyoga keladi.

TOPONIMIKAGA OID BA'ZI BIR LINGVISTIK ATAMALAR

Antroponim (yunoncha **antropo** – odam, **onoma** – nom) – kishi ismi, laqabi, familiyasi.

Antroponimika – kishi ism-familiyalarini o'rganadigan fan.

Affiks (lotincha **affikus** – yopishgan) – nutqda mustaqil ishlatilmaydigan va o'zakka qo'shilib, uni o'zgartiradigan formant, **suffiks** (orqa qo'shimcha), **prefiks** – (old qo'shimcha).

Gidronim (yunoncha **gidro** – suv, **onoma** – nom) – suv obyektlarining, masalan, kanal, ariq, anhor, daryo, soy, jilg'a, irmoq, buloq, quduq, dengiz, ko'l, qo'ltiq va bo'g'oz, sharsharalarning nomi.

Diminutiv – kichraytirilgan shakldan toponim yasalishi. O'zbekistonda **-cha** va **-ak**, ba'zan **-ik** affikslari diminutiv shakldagi toponimlar yasaydi. Bunday toponimlar otlardan **(Hisorak, Xumdonak, Ro'dak),** sifatlardan (**Ko'kcha, Oqcha, Qoracha, Saricha**), etnonimlardan (**Do'rmoncha, Naymancha**) yasalishi mumkin, ba'zi hollarda esa biron toponimga taqlid qilib nom qo'yilganda ham diminutiv shakldagi toponimlar yasaladi. Chunonchi **Buxorcha, Samarqandak, Bog'dodik, Registonak** va hokazo.

Kalka (fransuzcha kalqua – kopiya) biron so'zning aynan tarjima qilib berilishi.

Komponent (lotincha komponent – qism) – so'zning tarkibiy qismi.

Makrotoponimiya (grekcha **makro** – katta, **topos** – joy, **onoma** – nom) – yirik obyektlar, yirik tabiiy geografik obyektlarning nomlari; qarang: **Mikrotoponimiya.**

Metateza (yunoncha **metatesis** – joy almashtirish) – so'zdagi tovushlarning o'rin almashishi (Beshog'och – Bechog'osh, Sayram – Saryom).

Metafora (yunoncha – «ko'chirish») so'zning ko'chma, majoziy ma'noda ishlatilishi (***Tuyatosh*** – katta qoya, ***Mingbuloq*** – ko'p buloq).

Metonimiya (yunoncha – **qayta nom qo'yish**) – toponimiyada joy nomining qo'shni obyekt nomiga o'tishi. Masalan, daryo nomining shahar nomiga aylanishi (**Zarafshon daryosi – Zarafshon shahri, Chirchiq daryosi – Chirchiq shahri**), daryo nomining tog' nomiga aylanishi (**Ko'ksuv daryosi – Ko'ksuv tizmasi, Vaxsh daryosi – Vaxsh tizmasi**). O'zbekistonda metonimiya hodisasi juda keng tarqalgan.

Mikrotoponimiya (yunoncha **mikro** – kichkina, **topos** – joy, **onoma** – nom) – kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, o'tloqlar, jarlar, yo'llar, kichik tepalar, ko'chalar va hatto atoqli otga ega bo'lgan ayrim daraxtlarning nomlari. Mikrotoponimiya bilan makrotoponimiya orasida muayyan chegara yo'q, masalan, ba'zi bir tadqiqotchilar ko'chalarni mikrotoponim desalar, boshqa birovlar makrotoponim deb hisoblaydilar.

Oykonim (yunoncha oykos – uy, turar joy) – turli aholi punkti: shahar, qishloq, ovul nomi.

Oronimiya (yunoncha **oros** – tog', **onoma** – nom) yer yuzasining relef shakllari-tog'lar, cho'qqilar, qirlar, daralar, tekisliklar, jarlar nomlari.

Semantika (yunoncha **semantikos** – anglatadigan) – so'zning ma'nosi.

Sinonimlar (yunoncha **sinonimos** – bir ismli) – ma'nosi bir xil, lekin shaklan turlicha bo'lgan so'zlar (**bel, dovon, ko'tal, ort, oshuv, aqba**).

Substantivatsiya (lotincha **substantivus** – mustaqil) biron gap bo'lagining, masalan, sifatning otga aylanishi.

Suffiks (lotincha **suffikus** – qo'shib qo'yilgan) – o'zakning orqasiga qo'shilib yangi so'z (toponim) yasaydigan qo'shimcha (**Xum-don-ak**).

Toponim (yunoncha **topos** – joy, **onoma** – nom) – joy nomi, geografik nom.

Toponimiya – joy nomlari majmui.

Formant (lotincha **formans** – hosil qiladigan) – o'zi mustaqil holda ishlatilmaydigan, lekin so'zning old yoki orqa tomoniga qo'shilib toponim yasaydigan qo'shimcha (**Tallig'ulon, Terakli, Toshloq, Olmazor** va hokazo).

Etimologiya (yunoncha **etimon** – haqiqat, so'zning asosiy ma'nosi, **logos** – fan) – so'zning kelib chiqishi.

Etnonim (yunoncha **etnos** – xalq, **onoma** – nom) – biron xalq, millat, qabila, urug'-aymoq nomlari.

Etnotoponim (yunoncha **etnos** – xalq, **topos** – joy, **onoma** – nom) – qabila, urug'-aymoq nomiga qo'yilgan toponimlar: ***Qo'ng'irot, Nukus, Mitan*** va hokazo.

TOPONIM NIMA?

Dunyoda hamma narsaning nomi bor. «Tog'» deganda balandmi-pastmi, kattami-kichikmi umuman tog' tushuniladi. Ko'l ham shunday umumiy atama, turdosh ot. Bunday so'zlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, obyektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, ***Samarqand*** deganda, respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. ***Buxoro*** deyish bilan O'zbekistonning ko'hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, toponim (geografik nom) – avvalo so'zdir. Biroq u oddiy so'z emas, birinchidan, atoqli ot. Ayni paytda ko'pgina toponimlar, hatto tilshunos olimlar uchun ham tushunarsiz. ***Xorazm, Samarqand, Farg'ona, Namangan*** kabi nomlarning kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham, ularning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon noma'lum.

Joy nomlari shu qadar ko'pki, hamma toponimlarning ham ma'nosiga yetib bo'lmaydi. Nom qancha ko'hna bo'lsa, uning etimologiyasini bilish shuncha qiyin bo'ladi. Hamma nomlardan ma'no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o'zgartirib, boshqacha atash minglab yillarning mahsuli bo'lgan ma'naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir.

Biz uchun noaniq bo'lgan geografik nomlar ma'nosini kelajak avlodlar tushunib oladi.

Ma'nosidan qat'iy nazar, barcha nomlar manzil vazifasini bajaradi. Shunday qilib, toponimlarning kishilik jamiyati uchun eng muhim va zaruriy funktsiyasi manzil bo'lib xizmat qilishdir. Demak, joy nomlari bir obyektni ikkinchi obyektdan farq qilish uchun, bu obyektning o'rnini aniq ko'rsatish uchun zarur.

Geografik nomlar manzilgina emas, balki ko'pdan-ko'p axborot (tarixiy, geografik, lingvistik ma'lumot tashiydi. Har qanday geografik nom muayyan mazmunga ega, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Lekin ko'pgina joy nomlarining ma'nosi yo'qolgan, aniqrog'i hozirgi kishilar uchun tushunarsiz bo'lib qolgan.

Toponimlar turli asrlar mevasi bo'lib, uzoq davrlar yashaydi. Qadimiy tillarda qo'yilgan nom keyingi xalqlar uchun oddiy toponimdan boshqa narsa emas, uning qanday ma'noni anglatishi haqida har doim ham o'ylab o'tirishmaydi.

Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari – tilshunoslar, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnograflar toponimikaga murojaat qiladilar.

Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin.

Turli davrlarda yashagan va turli tillarda gaplashgan xalqlar O'rta Osiyo, jumladan o'zbek halqining etnogenezida muayyan darajada ishtirok etgan va o'lkaning tarixiy toponimiyasida iz qoldirgan. Buni O'rta Osiyoning o'tmishda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lgan aholisining hozirgacha saqlanib qolgan urug'-qabila nomlarida ham ko'rish mumkin.

Sarmat, Sirak (Siroq), To'xar, Alan, Mitan kabi toponimlar o'lkada turli davrlarda yashagan qadimiy xalqlar va qabila nomlarining in'ikosidir. Har bir mamlakatda, viloyat, har bir tumanda, shaharda va hatto qishloqda qanchadan-qancha toponimlar bor.

1966 yilda Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Tamtum qishloq atrofidan 300 dan ortiq toponim va mikrotoponim yozib oldik. Bular chek yerlar, dalalar, bog'lar, qo'nish joylari, tabiiy obyektlar – qoyalar, qirlar, tepaliklar, dalalar, soyliklarning nomlaridir.

Ana shu toponimlarga qarab qishloq tarixini, unda kimlar yashagani, yerga bo'lgan xususiy mulkchilik haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Maydoni O'zbekistonnikidan sal katta bo'lgan Shvetsiyada 12 million toponim qayd qilingan. Respublikamizda ham kamida shuncha toponim bor deyish mumkin. Butun dunyoda esa bir necha milliard toponim bo'lishi kerak.

Geografik nomlar – xaritaning muhim elementidir. Joy nomlari obyektlarning manzillari bo'lish bilan birga hududning tabiati, tabiiy boyliklari va boshqa geografik xususiyatlari haqida ma'lumot bera oladi.

Toponimika geologik qidiruv ishlarida ham katta yordam beradi. Geologiya-minerologiya fanlari doktori R.A.Musin o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyatida qadim zamonlarda ishga solingan konlarning o'rinlarini toponimika ancha aniq ko'rsatib bera olishini isbot qiladi. ***Konsoy, Kontepa, Oltinbel, Oltintog', Simob, Kumushkon, Miskon, Ko'hila'l, Qo'rg'oshinkon*** kabi daryo va soylar, tog'lar va tepaliklar, yo'llar va dovonlar, maydon va mavzelar bu joylardan yer osti boyliklari qazib olinganidan dalolat beradi.

Masalan, Parkent qishlog'i yaqinida joylashgan ***Kumushkondan*** qadimda ham, yaqin – yaqinlarda ham qo'rg'oshin qazib olingan. Nima uchun Kumushkon Qo'rg'oshinkon deb atalgan emas? Buning siri yaqindagina aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, Kumushkonning qo'rg'oshin rudalari boshqa kon rudalaridan o'zining kumushga boyligi bilan ajralib turarkan.

Ko'hisim o'rta asrlarda Iloqdagi mashhur konlardan bo'lgan. Arxeologlar va geologlar Qurama tog'larining shimolida, Angren shahrining shimoli – g'arbida joylashgan ***Lashkarak*** polimetall rudalari koni o'sha Ko'hisim (tojikcha «Kumush tog'») ning o'zginasi ekanligini aniqladilar. Bu kondan qadimgi davrlarda ko'plab kumush qazib olinganligi ma'lum bo'ldi.

Geografik nomlar juda qadim zamonlarda, ibtidoiy tuzum davrida paydo bo'la boshlagan. Joy nomlari ming – ming yillar davomida to'plana borgan va hozirgi vaqtda Yer sharida behisob toponimlar bor. Lekin hammasi bo'lib, dunyoda qancha geografik nom bor ekanini hech kim bilmaydi, buni hisoblab chiqishning iloji ham yo'q. Har bir qishloqda va uning yon-verida bir necha quduq, kichik jar, ayrim qoya, hovuz, uvat bilan chegaralangan chek yer, buloq, tepalik, xirmonjoylar, yolg'izoyoq yo'llar uchraydiki, ularning nomlari shu qishloqdagi bir guruh odamdan boshqa hech kimga ma'lum emas. Bunday kichik obyektlarni eng mukammal topografik xaritadan ham topib bo'lmaydi.

Geografik nomlar dunyoga keladi, yashaydi, ma'lum bir davr davomida ko'pincha shakli hamda talaffuzi o'zgaradi va nihoyat nomnishonsiz yo'qoladi. Toponimlarning umri turlicha. Ba'zi bir toponimlar bir necha yil yoki bir necha o'n yil yashasa, boshqa bir geografik nomlar asrlar bo'yi ham tildan tilga o'taveradi. Samarqand yunon tarixchilari asarida ***Marakanda***, sug'd yozuvlarida ***Smarakans,***

Toshkent esa dastlab ***Choch***, keyinchalik ***Shosh***, X asrdan e'tiboran Toshkent shaklida qayd qilingan.

Qayd qilingandek, toponimlar turli davrlarning va turli tillarning mahsulidir. Xalqning tili bilan tarixi chambarchas bog'liq.

Nom qo'yish jarayoni o'z qonuniyatlariga ega bo'lib, birinchi navbatda tarixiy voqealar taqozosi bilan dunyoga keladi. ***Gadoytopmas, Qulqishloq, Namozgoh, Oqmachit, Maddohlar, Xonobod, Taxti Sulaymon, Eski Vaqf, Mirshabxona, Boylar, Bevatan, Moxovqishloq, Eshonlar, Xaros*** (aynan «Eshak tegirmon») jamiyat turli tabaqalarga bo'lingan tarixiy davr mahsulidir.

O'ZBEKISTON TOPONIMIYASI

Geografik nomlar muayyan hududda ajralgan holda emas, balki o'sha hudud bilan, u yerdagi tabiiy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Ayni vaqtda tevarak-atrofdagi hudud, o'lkalarning tabiati, tarixi hamda toponimiyasi ham hisobga olinishi kerak. Chunki geografik nomlar uzoq davrlar mahsuli bo'lgani bois vaqt o'tishi bilan ozmi-ko'pmi shaklan va mazmunan o'zgarishi, xalqlarning ko'chib yurishi natijasida esa bir joydan ikkinchi bir joyga o'tib qolishi mumkin.

Toponimlar til lug'at fondining bir qismi, biroq ular lug'at tarkibidagi boshqa so'zlardan uzoq vaqtgacha o'zgarmasdan turishi bilan farq qiladi. Iste'moldan butunlay chiqib ketgan yoki kichik bir hududda uchraydigan so'zlar ko'pincha geografik nomlar shaklida saqlanib qolgan bo'ladi. Bir vaqtlar keng iste'molda bo'lgan *bulan* (los), *do'lta* (sirtlon), *buqalamun* (xameleon), *kish* (sobol) kabi hayvon nomlari, *baraz* (tog' tepasidagi kichikroq tekis maydoncha), *bo'ktar* (tog' etagi), qo'l (soy), *qasaba* (shaharcha), *qora suv* (buloq suvi), *chordara* (qorovul budkasi), *hisor* (qo'rg'on), *to'rtko'l* (aynan-chordevor) «shahar vayronasi» kabi geografik atamalar hozirgi davrda O'zbekistonda butunlay ishlatilmaydi yoki kichik-kichik hududlardagina saqlanib qolgan. Biroq bu so'zlardan tuzilgan toponimlarni topsa bo'ladi. Ana shuning uchun ham joy nomlari tilning turli tarixiy davrlardagi lug'at tarkibini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

O'zbekistonning geografik nomlari, ya'ni toponimiyasi O'rta Osiyo toponimiyasining bir qismi sanaladi. O'rta Osiyodagi geografik nomlarning asosiy qismini hozirgi o'zbek, turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq hamda tojik tillari yordamida osongina tushunish mumkin.

E.M.Murzayev qayd qilganidek, toponimlar hozirgi ma'muriy yoki etnografik chegaralarni tan olmaydi. Buning ma'nosi shuki, tojikcha toponimlar O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'iziston hududlarida, o'zbekcha va qirg'izcha nomlar esa Tojikiston xaritasida ham ma'lum miqdorda mavjud.

O'rta Osiyoga turkiy xalqlar kelmasdan oldin, hozirgi O'zbekiston hududidagi vohalarda yashagan mahalliy xalqlar va qabilalar-xorazmiylar, sug'diylar Choch (Toshkent) atroflari hamda Farg'ona vodiysi (qadimgi Parkan) aholisi saklar (shaklar) o'zbeklarning eng qadimiy ota-bobolari hisoblangan va sharqiy eron tillarida so'zlashganlar. Shunday qilib, O'zbekiston hududida eroncha nomlar substrat toponimlar, ya'ni o'zbeklar tomonidan assimilyatsiya qilingan tub nomlar hisoblanadi. *Samarqand, Xorazm, Jizzax, Qo'qon, Pishag'ar, Bog'iston* kabi ko'p sonli qadimiy nomlar ana shunday substrat toponimlardir.

Yunonlarning O'rta Osiyoga kirib kelishi toponimiyada biron bir sezilarli iz qodirmagan. Tojikistondagi ***Iskandarko'l*** nomining Iskandar Zulqarnayn ismiga hech aloqasi yo'q. Chunonchi, Bobur bu ko'lni tilga olganda uning biron-bir nomini keltirmaydi. Bundan tashqari, ***Iskandar, Iskandarariq, Iskandardaryo, Iskandarquduq*** kabi toponimlar anchagina uchraydi. Tarixchi A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda Iskandar nomli quduqlar anchagina bor. Xalq bu quduqlarni makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog'laydi.

Aslida bu nomlarning ko'plari keyingi paytlarda paydo bo'lgan. Masalan, Toshkent yaqinidagi ***Iskandarariq*** xalq orasida Iskandarto'ra laqabi bilan mashhur bo'lgan chor Rossiyasining knyazi Nikolay Nikolayevich nomi bilan ma'lum.

Turkistonda arablarning uzoq davr davomida hukmronlik qilishi joy nomlarida o'z aksini topgan. Bunda arab tilining adabiy til bo'lib xizmat qilishi katta rol o'ynagan.

Arabcha nomlar orasida avliyolar, payg'ambarlar va har xil diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar alohida o'rin tutadi. Arablar zamonidan qolgan toponimlarning eng ko'p sonlisi ***Rabotlar***dir. Arablar o'zlari bosib olgan joylarda harbiy punktlar – ko'pdan-ko'p rabotlar (ribotlar) qurgan. Chunonchi Buxoro biqinidagi ***Boykand*** (Paykand) yaqinida 1000 dan ortiq rabot bo'lgan. Bu rabotlarda turkiy xalqlarning hujumlariga qarshilik ko'rsatadigan qo'shinlar turgan. Rabot nomli toponimlar O'zbekiston hududida hozir ham kam emas. Masalan, Chor Rossiyasining harbiy olimi

...Sitnyakovskiyning 1899 yilgi «Ro'yxat»ida Zarafshon vodiysining ...gi Buxoro qismida ***Balandrabot, Beshrabot, Yettirabot, Jarrabot, Deganrabot, Kaltarabot, Kattarabot, Oltirabot, Oqrabot, Toshrabot, Changrabot, Chorrabot, Chuqurrabot, Qo'tirrabot, Qo'shrabot, Rabot, Rabotio'zbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Navrabot, Yangirabot*** kabi ...dan ortiq qishloq, bundan tashqari, shu qishloqlar nomi bilan ...lgan bir necha o'n ariq qayd qilingan. Shuningdek, *bob* (bobil), ...*tal* (tepa), *masjid* (machit), *madrasa* kabi arab atamalari ...grafik nomlar tarkibida ko'p uchraydi.

Shuni aytish kerakki, aslida arabcha bo'lsa ham turkiy xalqlar ...larining lug'at tarkibidan o'rin olgan bu kabi so'zlardan tarkib ...pgan toponimlarni turkiy nomlar deyish to'g'ri bo'ladi.

Turkiy geografik nomlar O'zbeistondagi toponimlarning asosiy ...mini tashkil etadi. Lekin, o'zbekcha geografik nomlarning ko'pchiligi ...yingi asrlarda vujudga kelgan.

Shu bilan birga O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda arab...rdan oldin paydo bo'lgan nomlar ham bor. Masalan, Narshaxiy...ing «Buxoro tarixi» kitobida tilga olingan bir qancha nomlar Buxoro ...troflarida hozirgi kunlarda ham uchraydi. ***Shopurkon, Romitan, Kar...nana, G'ijduvon, Ishtixon*** kabi qadimiy ariq hamda qishloqlar ana ...shular jumlasidan.

O.D.Chexovich XIV asrdagi Buxoro shayxi Sayfiddin Boxarzi ...xotirasiga bag'ishlangan vaqf hujjatlarini o'rganib, Buxoro atrofidagi ko'pgina geografik nomlar hozir ham mavjud ekanligini aniqladi.

Mo'g'ullarning kirib kelishi O'rta Osiyo toponimiyasini yanada murakkablashtirib yubordi. ***Bulung'ur, Darxon, Norin, Norinko'l, Norinkapa, Shiberti*** kabilar mo'g'ulcha nomlardir. Shunisi qiziqki, Norinko'l degan ariq N.F. Sitnyakovskiyning «Ro'yxati»da ham uchraydi. *Dovon, ko'tal, to'qay, shiber, qapchig'ay* kabi mo'g'ulcha atamalar O'rta Osiyo turkiy xalqlari tillari leksikasidan va toponimiyasidan mustahkam o'rin olgan.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistondagi ruscha nomlar turli yo'llar bilan paydo bo'lgan. ***Vannovskiy, Vladikino, Vrevskaya, Obruchevo, Ursatevskaya*** kabi temir yo'l stantsiyalari chor hukumati hokimlarining qarorlari bilan qo'yilgan rasmiy nomlar edi.

Rus dehqonlari ko'chirib keltirilgan joylarda anchagina ruscha nomlar paydo bo'lgan. Mirzacho'lga rus dehqonlari dastlab 1886 yilda ko'chirib keltirilgan. O'sha yili bu yerda to'rtta posyolka vujudga kelgan.

Bular Zaporojskiy, Nadejdinskiy, Romanovskiy va Sretenskiy posyolkalari edi. 1898 yilga kelganda Sirdaryoning har ikkala sohilida 9 ta rus posyolkasi bunyod etildi. Bundan keyin paydo bo'lgan ruscha geografik nomlar ham Rossiyadagi nomlardan farq qilmas edi, boshqacha aytganda, ruslar o'zlari yashab kelgan yoki o'zlariga tanish bo'lgan joy nomlarini qo'ygan edilar.

Sho'rolar davrida paydo bo'lgan geografik nomlar aksari sobiq proletariat dohiylari, sho'ro davlati va kommunistik partiyaning rahbarlari va partiya hamda davlat yugurdaklarining nomlaridan iborat mafkuraviy nomlar edi. Mustaqillik yillarida «qizil» toponimlar bekor qilinib, joylarning tarixiy nomlari tiklandi va sof xalqona toponimlar paydo bo'ldi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, O'zbekiston toponimiyasi bir necha davr mahsuli bo'lib, har bir davrning o'ziga xos toponimlari mavjud.

Ma'lumki, ko'pgina toponimlar zaminida oddiy atamalar, turdosh so'zlar yotadi. Shu bilan birga bir qancha joy nomlari ayrim shevalargagina xos so'zlardan tarkib topgan. Professor Ye.D. Polivanov turkiy tillardan hech birida shevalar o'zbek tilidagichalik ko'p emas deb yozgan edi. O'zbek shevalarida shunday so'zlar uchraydiki, deb davom etgan edi olim, ularning bir qismi adabiy tilda yoki boshqa shevalarda muqobili yo'q bo'lib, bir qismining esa boshqa so'z bilan ifodalanadigan variantlari mavjud. O'zbekiston toponimiyasining xarakterli xususiyatlaridan biri ana shu «muqobili yo'q» so'zlardan tarkib topgan toponimlarning ko'pligidir.

Chunonchi, Samarqand va Jizzax viloyatlarining bir qancha tumanlarida *tangi* (tor dara), *gaza* (tog' qirrasi), *zov* (tik qoya), *qashqa* (yo'l o'tgan tepalik, tog' suvi), *tagob* (takob – suv yoqasi, o'zani, dara), *shiver* (botqoqlik), *aqba – ovg'a* (tog' dovoni) kabi geografik atamalar xalq shevalarida juda faol ishlatiladi va ayni vaqtda bu tumanlarda ana shu so'zlardan tuzilgan toponimlar uchraydi. Shu narsa e'tiborga molikki, yuqorida qayd qilingan so'zlarning ko'pchiligi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda, chunonchi, Mahmud Koshg'ariy «Devoni»da, «Boburnoma»da uchraydi. Demak, bu atamalar ilgari vaqtlarda hozirgiga nisbatan ancha keng doirada ishlatilgan.

O'zbekiston toponimiyasining xarakterli xususiyatlaridan yana biri unda etnotoponimlarning, ya'ni turli millat, xalq, elat, qabila va urug'-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlarning nihoyatda keng

[illegible] ko'pligidir (etnotoponimlar haqida quyida to'laroq ma'lumot [illegible])

[illegible] publikamiz joy nomlari xususan mikrotoponimlar ichida antropotoponimlar, ya'ni kishilarning ismi, familiyalari hamda laqablari bilan ataladigan toponimlar son jihatidan etnotoponimlardan [illegible] ikkinchi o'rinda turadi.

[illegible] bir kishi ismlarini bilib olish oson emas. Kishi ismlari [illegible] sarimsoq, piyoz, hatto yovshon (shuvoq) kabi o'simlik nomlari, [illegible]bars, sher, bo'ri, to'ti, qo'zi, to'qli, xo'roz kabi hayvon nomlari uchraydi.

[illegible]larning laqablari ayniqsa, xilma-xil bo'lgan. Laqab ko'pincha, familiya rolini o'tagan deyish mumkin. Bir xil ismli (adash) kishilarning har birining o'z laqabi bo'lgan. Zomin tumani Tamtum qishlog'idagi kishilar laqablaridan misollar keltiramiz: Boy Sariboy – [illegible] mesh (semiz kishi bo'lgan), Sariboy do'shi keng (ko'kragi [illegible] ekan), Sulton dev – Sulton qayqi, Bo'ronboy beparvo – Bo'ronboy ko'zi yomon (shilpiq ko'z), Musa teshik (oqma) – Musa it yetmas (chopqir), Abdi yo'g'on (o'jar odam bo'lgan) – Abdi desona (bechoragina kishi bo'lgan) – Abdi zarang (garang-[illegible] og'ir kishi o'tgan).

Toponimchilar Rossiya materiallari asosida shu narsani aniqladiki, joylar ko'pincha, kishilarning laqablaridan nom olgan ekan. [illegible]mik S.B.Veselovskiy Moskva shahri yaqinida joylashgan va asosan [illegible]alarining laqablaridan nom olgan 50 ga yaqin rus qishlog'ining [illegible]atini keltirgan; masalan, Pushkino qishlog'i XIV asrning ikkinchi yarmida yashagan Pushka laqabli Grigoriy Alekseevich Morozov sharafiga, Sobakino qishlog'i XIV asrning o'rtalarida o'tgan Sobaka laqabli Ivan Fedorovich Fominskiy nomiga, ***Tushino*** qishlog'i XV asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan Tusha laqabli Vasiliy [illegible]ovich Kvashkin xotirasiga qo'yilgan va hokazo.

O'zbekistondan ham xuddi shunday faktlarni topish mumkin. Chunonchi, o'sha Tamtum qishlog'ida ***Itetmas*** degan joy bor. Asli bu Musa itetmas ismli kishiniki bo'lgan. ***Nebo'sa*** nomli joy esa *nebo'sa* [illegible]'idan bo'lgan Xolboy ismli kishining yeri bo'lgan. Xolboy [illegible]o'sadan Sariboy ismli kishi sotib olgan, lekin hozir ham bu joy [illegible]'sa deb ataladi.

Demak, bir-biridan juda uzoqda bo'lgan va ijtimoiy-tarixiy jihatdan bir-biridan katta farq qiladigan hududlarda ham joylarga nom

qo'yish printsipi deyarli bir xil bo'lgan. Toponimik tadqiqotlarda ana shu xususiyatlarni hisobga olmaslik mumkin emas.

O'zbekiston tomonlarining grammatik xususiyatlari to'g'risida shuni aytish kerakki, toponimlarning ko'pchiligi ikki va uch komponentdan tuzilgan. ***Bo'z, Yom, So'x, Pop*** kabilar bir komponentli elliptik, ya'ni qisqargan toponimlardir. Antropotonimlar, ayniqsa, etnotoponimlar ham bir komponentli bo'lishi mumkin. ***Qo'ng'irot, Chinoz, Boyovut, Beruniy, Navoiy*** ana shunday nomlar jumlasidan.

Boshqa turkiy toponimlar kabi, o'zbekcha toponimlar orasida ham fe'l shakllari keng tarqalgan. ***Kuyganyor, Qolgan Sir, Qolgan Chirchiq, Shomurot yorgan.*** Fe'llar mikrotoponimlar tarkibida ayniqsa, ko'p uchraydi: ***G'ajiruchti, Takasakragan, Qatiqto'kildi*** va hokazo.

O'zbekcha toponimlarda geografik atama (indikator, nomenklatura atama, turdosh so'z) toponim oxirida, aniqlovchi esa so'z boshida keladi: ***Toshkent, Mirzacho'l, Dehqonobod, Oyoqquduq*** va hokazo. Geografik nomlar, ayniqsa, mikrotoponimlar ba'zan butun-bir gaplardan iborat bo'ladi: ***Qozoqoldi kalonyuqori, Qozoqoldi kalono'rta, Mulla Qoraning yeri, Yo'ldoshning oti yiqilgan*** (qoya) va hokazo. Boshqird olimi J.G.Kiekboev ana shunday toponimlarga ***Amin Mulla besen sapkan*** – «Mulla Amin pichan chopgan (er)» degan toponimni misol qilib keltiradi.

Bu misollar A.V. Nikonovning «Mikrotoponimlar atoqli otlar bilan turdosh so'zlar o'rtasida oraliq mavqeni egallaydi» degan fikrini isbotlaydi.

O'zbekcha toponimlar orasida suffiksli toponimlar ham bor. Biroq o'zbekcha toponimlarda suffiks slavyan xalqlari yashaydigan mamlakatlardagi kabi katta o'rin tutmaydi. Masalan, rus aholi punktlarining 90 foizidan ko'prog'i suffikslidir.

O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p keladigan affikslar (topoformantlar): *-zor* (*Marg'zor, Olmazor*), *-kat, -kent* (*Navkat, Binkat, Parkent*), *-iston* (*Guliston, Bog'iston*), *-loq* (*Toshloq, Sangloq, Qumloq*), *-obod* (*Dehqonobod, Dashnobod, Xalqobod, Xonobod*), *-li, -lik, -liq, (Gazli, Tolli, Soylik, Ohaklik, Bo'stonliq, Qo'yliq)*, *-on* (*Ohangoron, Childuxtaron, So'zangaron*), *-xona* (*Arabxona, Bo'rixona, Ufganjixona*), *-goh, go* (*Namozgoh, Janggoh*), *-chi* (*Sho'rchi, O'qchi, Chiroqchi*), *-cha* (*Sho'rcha, Ko'kcha, Shoxcha*),*-ak,* -ik (*Hisorak, Jizzax, Bog'dodiq, Xumdonak*), *-kor* (*Paxtakor, Lalmikor*) va boshqalar. Shuni alohida

qayd qilib o'tish kerakki, *-li, -chi* kabi affikslar etnonimlar tarkibida ham uchraydi. Masalan, *bolg'ali, jag'albayli, oytamg'ali, qo'shtamg'ali, uchtamg'ali, to'rttamg'ali, qanjig'ali, qaychili, qarg'ali, sirg'ali, so'loqli, tuyoqli, tuyoqli, bo'zachi, qutchi* kabi etnonimlar ana shular jumlasidan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, O'zbekiston toponimlarini affikslariga qarab tasnif qilganda atamalar toponimga aylanmasdan oldin ularning tarkibida affiks bor-yo'qligini uzil-kesil aniqlab olish shart.

TOPONIMLARNING PAYDO BO'LISHI

Toponim-geografik nom ham so'z. Lekin toponimlar atoqli otlardir. Atoqli otlar til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar)dan kelib chiqqan. Qadimiy tillarda atoqli otlar bo'lmagan deyishadi. Avstraliya, Afrika va Amerikaning tub joy xalqlari – aborigenlar tillarida atoqli otlar juda kam ekan. Bunday tillarda turdosh otlar, qandaydir so'z birikmalari atoqli otlar vazifasini bajarar ekan. Ana shunday so'z birikmalari tobora turg'un shakl oladi. Odamlar tevarak-atrofidagi o'zlariga tanish kichik hududdagi joylarni «Baliq tutiladigan ko'l», «Sel keladigan soylik», «Qo'y qirilgan yaylov», «Cho'chqali soy» kabi butun bir gaplardan iborat so'z birikmalari bilan ataydilar.

Konkret geografik obyektlarni ifodalaydigan bunday so'z birikmalari va turdosh otlar ko'p bo'lmaganidan bora-bora atoqli otlarga aylanadi.

Geografik nomlarning paydo bo'lishi umumiy tushunchaning konkretlashishi va individuallashishi oqibati.

Turdosh otlar ana shu yo'l bilan toponimlashadi, ya'ni toponimlarga aylanadi. Masalan, olma so'zi umuman olma bog'larini ifodalaydigan umumiy tushuncha ekan, turdosh otligicha qolaveradi. Bu tushuncha individuallashsa, konkret bir obyektni ifodalay boshlasa va shunday qilib ayrim bir tushunchani bildirsa, atoqli otga aylanadi qoladi.

Katta jar so'zlari individuallashmas, konkretlashmas, ya'ni biron obyektni ifodalamas ekan, salbiy relef shakllarini bildiradigan turdosh ot. apellvativ bo'lib qolaveradi. Shunday qilib, toponimlar geografik tushunchalarning konkretlashishi hamda individuallashishi jarayonida turdosh otlardan paydo bo'lgan va paydo bo'laveradi.

Toponimlashish odatda dastlabki umumiy tushunchaning muayyan bir obyektga bog'lanishi jarayonida ro'y beradi. Shuning uchun bir so'zning o'zi yoki so'z birikmasi ayni vaqtda turdosh ot bo'lishi ham (agar tushuncha konkret bir obyektni ifodalamasa) yoki toponim ham bo'lishi mumkin (geografik obyektni bildirsa). Masalan, *bug'doyzor* bug'doy ekilgan har qanday dala, *Bug'doyzor qiri* esa konkret bir joyning nomi kabi.

Geografik nomlar turdosh otlar leksikasidan ajralib chiqqan paytdan boshlab o'zi ifodalagan geografik obyektning belgilaridan uzoqlasha boradi. Toponimlar nutqda shu obyektning boshqalardan farqli nishonalarini ta'kidlashga emas, balki konkret obyektni boshqalardan ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Toponimga aylangan so'z yangi ma'no kasb etadi, endi bu so'z konkret, yagona, yangi bir tushunchaga aylanadi.

Geografik nomlar ko'pincha geografik obyektni ifodlaydigan tushunchadan boshqa ma'no anglatmay qo'yadi. Masalan, ***Qoraqishloq*** deganda, kichikroq aholi punkti tushuniladi. Qishloq ham qora rangda bo'larmikan degan savol hammada ham paydo bo'lavermaydi. Bu qishloqning nomi *qora* degan urug' nomidan kelib chiqqanini o'zbek urug' qabilalarini mayda tarmoqlarigacha biladigan etnografgina aytib bera olishi mumkin.

Yoki ***Chorshanba*** qishlog'ining nega shunday atalganligi to'g'risida ko'pchilik o'ylab o'tirmaydi, uning qayerda, qaysi viloyat, qaysi tumanda, qanday qishloq ekanligi muhimroq. Shu yerda chorshanba kuni bozor bo'lgani haqida tushuncha elas-elas esga kelishi mumkin.

So'zning odatdagi ma'nosidan uzoqlashishi va muayyan obyekt bilan bog'liq *konkret, individual* tasavvurning paydo bo'lishi *toponimlashish jarayoni sanaladi.*

Toponimga aylangan so'z yangi ma'no kashf etish bilan ko'pincha tipik toponim shakl oladi, toponimlar uchun xos bo'lgan qo'shimchalar (suffikslar) paydo bo'ladi. O'zbekiston toponimlari, xususan oykonimlari uchun – *iston* (***Sho'riston, Bog'iston***),-*iya* (***O'zbekiya, Mingiya***), -*kor* (***Paxtakor, Lalmikor***), -*cha* (***Quduqcha, Buloqcha***) kabi affikslar xarakterlidir.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarning toponimlashish darajasi turlicha. Ba'zi bir toponimlarda so'zlarning toponimga aylanmasdan oldingi ma'nosi aniq bilinib turadi, boshqa bir xil toponimlarda qisman saqlanib qolgan, uchinchi bir xil nomlarda bilinar bilinmas seziladi.

yana bir xillarida esa umuman yo'qolib ketgan. Shuning uchun ham ma'nosi tushuniksiz bo'lgan toponimlarni bir oz o'zgartirib tushunarli qilish to'g'ri emas, bunday nomlar qadimiy tillardan qolgan qimmatli lisoniy va tarixiy yodnomalar bo'lishi mumkin.

Ko'pincha toponimlar grammatik va semantik jihatdan hozirgi shaklga kelgunga qadar talay o'zgarishlarga uchragan. Toponimlarni paydo bo'lishiga qarab ikki turga bo'lish mumkin: tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan, xalq tomonidan qo'yilgan toponimlar va sun'iy yo'l bilan hosil qilingan, qaror bilan qo'yilgan toponimlar.

Asli geografik nomlar xalq ijodi mahsulidir. Ko'pincha toponimlar dabdurustdan paydo bo'lmaydi. Datlabki geografik obyektlar, masalan, qishloq turlicha atalishi mumkin. Aytaylik, relefiga, suv manbaiga uni o'zlashtirishga hissa qo'shgan kishilarning ismlariga, qarab «falonchi qishloq», «falonchining qishlog'i» deb yuritilishi mumkin. Bora-bora shu nomlardan biri yutib chiqadi. Masalan, u *nayman urug'ining qishlog'i* nomini oladi. Bunda chinakam toponimga aylanish jarayoni tugamaganidan toponim butun bir gapdan iborat va ishlatish uchun qo'pol bo'ladi va tilning leksik vositalarni tejash qonuniyatiga ko'ra bu toponim nihoyat ***Nayman*** shaklini oladi.

Geografik nom uzoq tarixiy vaqt davomida turdosh ot shaklidagi qiyofasini butunlay o'zgartirib yuborishi ham mumkin.

Masalan, otashparast – zardo'shtiylarni musulmonlar *mug'lar* deyishadi. O'zbekistonda ***Mug'on, Mug'xona*** kabi toponimlar ana shu otashparastlardan qolgan. ***Miq, Miqtepa*** singari nomlar ham o'sha mug' so'zining jonli tildagi in'ikosidir. Yoki *xonaqoh* ***Xonqa, Dizak*** (*diz,* sug'd tilida «qo'rg'on») ***Jizzax,*** *aqba* (arabcha dovon) *ovg'a* shaklini olgan va hokazo.

Bir qancha toponimistlar geografik nomlar leksikaning boshqa qismlaridan farq qilib, sezilarli bir ma'noga ega emas va geografik obyektni boshqalardan ajratib ko'rsatish uchungina xizmat qiladi degan fikrda.

Fonetik o'zgarishlarni lisoniy tadqiqot yo'li bilan aniqlasa bo'ladi. Lekin geografik nomlar hech qanday ma'no tashimaydi, deyish to'g'ri emas. Bunday fikr toponimlarning qimmatli ma'naviy yodgorliklar sifatidagi rolini inkor qiladi. Geologlar qanchadan qancha qimmatbaho yer osti boyliklarining toponimlarga qarab topilganini isbotlab berdilar.

Shunday qilib, geografik nomlar konkret geografik tushunchalar-

ni ifodalaydi. Vaqt o'tishi bilan geografik nomlarning umumlashish va yirikroq obyektlarni ifodalash jarayoni ro'y beradi. Hozirgi katta bir hududning nomi dastlabki paytlarda kichik bir maydonni bildirgan va asta-sekin butun bir hududning nomi bo'lib qolgan. Masalan, assuriyliklar Ege dengizining sharqiy sohilini miloddan avvalgi ikki minginchi yillarda *osu* – «kun chiqish», «sharq» deb atay boshlagan. Keyinchalik butun bir qit'a shu nom bilan ataladigan bo'lgan. ***Pomir, Tyanshan*** kabi yirik tog'li o'lkalarning nomlari ham dastlab biron cho'qqi yoki kichikroq tog'ni ifodalagan: xaritalar paydo bo'lib, kishilarning geografik tasavvurlari kengaygandan keyin esa beqiyos tog'li hududlarga nom qo'yish ehtiyoji tug'ilgach, hozirgi tushunchani anglata boshlagan.

Ana shu aytilganlardan toponimika o'rganadigan obyektlarning ko'lami haqida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, mikrotoponimiya, mezotoponimiya va makrotoponimiya degan tushunchalar mavjud.

Mikrotoponiya kichik yer maydonlari, tabiiy yoki sun'iy chegara bilan ajralgan ekin dalalari, qabriston, quduq, tepalik kabi kichik obyektlarning nomlaridir, bunday nomlar hali uzul-kesil toponimga aylanib bo'lmagan bo'lishi mumkin: ***Isoning yeri, Mullaning qizi uchgan*** (qoya), ***Yo'ldoshning oti uchgan*** kabi mikro toponimlarni rasmana toponimlar deb bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda ham grammatik, ham semantik jihatdan toponimlik huquqini olgan mikrotoponimlar ham kam emas. 1966 yilda Jizzax viloyati Zomin tumanida o'zim tug'ilib o'sgan Tamtum qishlog'i atrofidagi mikrotoponimlar orasida ***Katta yo'lning osti, Boltaboyning mo'lasi*** (mo'la-tosh terib qilingan belgi), ***Andizning teskayi*** (Andiz o'simligi o'sib yotgan kun tegmas yonbag'ir), ***Orziboyning yolg'iz toli, Yeryong'oq*** chiqqich («Yeryong'oq unib chiqadigan joy») kabi chala toponimlar uchraydi.

Shu bilan birgalikda ***Yusupning yeri***, ***Turdiqulning chorbog'i*** kabi toponimlashish arafasida turgan mikrotoponimlar ko'proq uchraydi. Bunda ko'pincha antroponim – kishi ismidan boshqa qo'shimchalar tushib qolib, ellips toponimlar hosil bo'lishi mumkin. Yuqorida qayd qilingandek, bu ro'yxatda ***It yetmas*** (chopqir bo'lganidan «It yetolmas» deb laqab olgan Muso ismli kishining yeri bo'lgan), ***Nebo'sa*** (o'zbeklarning nebo'sa urug'idan bo'lgan Xolmat ismli kishidan Saribo bobo sotib olgan yer), Qalek (Xolbeksart ismli kishiga qarashli yer) kabi haqiqiy toponimlar ham bor.

Shunday qilib,mikrotoponimiyani toponimlarning beshigi deyish mumkin. Unda toponim hosil bo'lishining barcha bosqichlarini kuzatsa bo'ladi.

TOPONIMIK FORMANTLAR, TIPLAR VA MODYELLAR

Geografik nomlar tarkibida bir xil elementlarning takrorlanishini olimlar allaqachonoq payqagan. Masalan, XII-XIII asrlarda ijod qilib, 10 jildlik «Mu'jam ul-buldon» («Mamlakatlar lug'ati»)ni tuzgan arab geografi va filologi Yoqut Hamaviy shahar-qishloqlarning nomlari tarkibida keladigan *obod* unsuri fors tilida «aholi punkti» ma'nosini bildiradi, masalan, **Asadobod** «Asad qishlog'i» demakdir, deb yozgan edi.

Bundan bir yarim asrdan ko'proq muqaddam rus tilshunosi akademik A.X.Vostokov Rossiya suv obyektlari nomlarining oxirida keladigan – *ga, -ma, -va, -ra, -ta* kabi bo'g'inlar takror-takror uchrashiga e'tibor bergan edi.

Rus olimi A.Orlov ham (1907) Rossiyaning Yevropa qismidagi daryolarni nomlaridagi oxirgi qo'shimchalariga qarab bir necha guruhga bo'lgan. Keyinchalik olimlar ana shunday bir xil qo'shimchalar bilan tugaydigan qatorlarni aniqlash uchun ularning oxirgi qo'shimchalariga ko'ra teskari lug'atlarni tuzishgan. Ana shunday qo'shimchalar qandaydir ma'noga ega bo'lsa kerak deb o'ylab, ularni *formant* yoki *topoformant* deb atay boshladi.

Toponimlarni formantlarga qarab o'rganish sohasida keyingi o'n yilliklarda katta ishlar qilindi. Bu usulning ko'pgina tarafdorlari uni juda muhim va ishonchli usul deb hisoblaydi. Bunday olimlarning fikrlariga ko'ra, nomlar tarkibida ko'plab takrorlanadigan elementlar bir xil ma'noni anglatadi va aholining ko'chib yurishi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi. Chunki bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib borgan xalq joylarga o'zi bilgan va tanish bo'lgan modellar asosida nom beradi

Chunonchi, Zarafshon vodiysida *kat* (kass), *kent* (kand) komponentli toponimlar keng tarqalgan, shu bilan birga bu komponent butun O'rta Osiyoda va hatto Xitoy Xalq Respublikasining Shinjan viloyatida ham uchraydi. Olimlar ***kat*** (kass) va ***kent*** (kand) aslida sug'dcha bir so'zning sheva shakli ekanligini aniqlashdi. Bu esa sug'dlar ancha ko'p sonli xalq bo'lgan va sug'd tili milodning dastlabki asr-

larida ancha sharqqa – Yettisuvga va Sharqiy Turkiston vohalariga kirib borgan degan fikrni isbotlaydi. Chunki sug'dlar O'rta dengizning sharqiy sohili bilan Xitoyni bog'lagan «Buyuk ipak yo'li» yoqasida bir qancha savdo manzillari (jamoalari) barpo qilganlar.

Masalan, o'sha davrda Samarqand nomi ham ko'chib yurgan. XIII asrdayoq Yettisuvda Samarqand shahri bo'lgan, Qozog'istondagi Temirtov shahri 40-yillargacha Samarqand deb atalgan, o'rta asrlarda Movarounnahrning janubi-sharqida Samarqandak nomli katta qishloq bo'lgan. Farg'ona vodiysida bir necha qishloq Samarqand deb atalgan. Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyatining Batken tumanidagi Samarqandiq qishlog'ini «Hudud ul-olam» asarida tilga olingan Samarqandak qishlog'i bo'lsa kerak deb hisoblaymiz. Chunki qishloq ahli tojiklar bo'lib, uni Samarqandak deb ataydilar. Bular hammasi sug'dlarning «ijodi» oqibati edi. Zarafshon vodiysida *duvon-juvon* (tuvon) unsuridan tarkib topgan nomlar anchagina bo'lgan: ***Buzunduvon, Qoqishtuvon, Pinjduvon, Ovarduvon*** va hokazo Shimoliy Qirg'izistondagi ***Juvan, Xarranjuvan*** ham sug'diylar obod qilgan shaharlar bo'lgan.

O'rta Osiyoda, xususan O'zbekiston bilan Tojikistonda sermahsul formantlardan biri – ***iston*** qo'shimchasidir. Bu komponent mamlakat, o'lka nomini yasaydi yoki biron narsaning ko'p ekanligini bildiradi. Afg'oniston – «Afg'onlar mamlakati», O'zbekiston – «O'zbeklar mamlakati», Tojikiston – «Tojiklar mamlakati», Guliston – «Gullar maskani», Registon – «qumloq» (Afg'onistonda Registon degan qumli cho'l bor) kabi. O'rta Osiyo shaharlarida, jumladan, Buxoro, Samarqandda qum to'shab tekislangan markaziy maydon (ko'pincha bozor) Registon, o'zbekcha varianti *Qummaydon* deb atalgan. Respublikamizda Anoriston, Shaftoliston, Xariston («Tikanzor») degan qishloqlar ma'lum.

O'rta Osiyoda (jumladan Xorazmda, Turkmanistonda) Shahriston nomli bir necha shahar bo'lgan. Shahriston fors-tojik tilida «ichki shahar» degan ma'noni anglatadi (arabcha – madina). Bu atama O'rta Osiyoga arablar kelmasdan oldin paydo bo'lgan. O'sha davrlarda shaharlar devorlar bilan ichki (markaziy) qismga, ya'ni shahristonga va tashqi qismga (rabod – raboz yoki berun) bo'lingan.

Rossiyada geografik nomlarni formantlarga qarab o'rganish usulining afzalliklari ayniqsa V.N.Toporov bilan O.N.Trubachevning Yuqori Dnepr bo'yi gidronimlarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan asarida

namoyon bo'ldi. Keyinchalik O.N.Trubachevning shu tipdagi tadqiqoti O'ng sohil Ukraina gidronimlariga bag'ishlandi. Bu asarlarda formantlar bilan bir qatorda toponimlarning yasalish shakllariga va daryo nomlarining etimologik tahliliga ham katta o'rin berilgan.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, toponimlar muayyan qonuniyatlarga ko'ra paydo bo'ladi. Bunday qonuniyatlar nom yasashda ishtirok etadigan so'zlarning ma'naviy jihatdan o'xshash ekanligida ham, grammatik jihatdan tuzilishida, ya'ni ularning qaysi gap bo'laklari sifatida ishtirok etishida ham, nihoyat, toponimlarning tuzilishida geografik nomlarni hosil qilishda ko'proq ishtirok etadigan so'z bo'laklarining tarkibida ham ko'rinadi.

Masalan, ruscha toponimlar orasida ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan nomlarga nisbatan bir so'zdan iborat nomlar ko'proq uchraydi. Bir so'zdan iborat toponimlar, odatda, otlar va kamdan-kam hollardagina sifatlar shaklida bo'ladi. Shunday qilib, geografik nomlar muayyan qoliplar shaklida hosil bo'ladi. Ana shular *toponimik modellar* deyiladi. Har bir til toponimlar hosil qilishda o'z xususiyatlariga va toponimik modellarga ega. Masalan, o'zbek toponimlari ko'pincha birdan ortiq unsurlardan iborat bo'ladi, qo'shimchalar o'zakdan keyin keladi, sifat otdan oldin turadi. Tojik tilida aksincha bo'lishi, ya'ni otdan keyin fe'l ham kelishi mumkin. Biron bir joyning toponimlari ro'yxatida, ko'pgina geografik xaritalarda bu qonuniyat yaqqol ko'rinadi.

Aslida mantiqsiz, pala-partish so'zlar majmuidan iboratday tuyuladigan qadimiy toponimlar diqqat bilan ko'zdan kechirilsa, ularning shaklan va mazmunan bir-birlariga o'xshash ekanligini payqash mumkin. Bunday nomlar boshqalardan ozmi-ko'pmi ajralib turadigan guruhlar, ya'ni *toponimik tiplar* hosil qiladi. Har bir guruhga kiradigan toponimlar grammatik tuzilishi, kelib chiqishi va ma'nosining umumiyligi bilan farq qiladi.

Chunonchi, jumladan ruscha toponimik tizimi uchun orqa qo'shimchalar, ya'ni suffikslar (***-ov, -in, sk, -ich, -ka, -ichi*** va b.) xarakterlidir.

O'zbekistonda – *li* (Alamli, Olmali, Burganli, G'umayli, Machitli); *-lik* (Andijonlik, Pistalik, Zargarlik, Qo'qonlik); *-loq* Qumloq,Toshloq,Sangloq); *-ak* (Xumdonak, Hisorak, Zovurak, Hovuzak); *-cha (Q*uduqcha, Buloqcha, Qoracha, Naymancha) qo'shimchali toponimlar toponimik tiplarga misollar bo'la oladi.

Maxsus lingvistik adabiyotlarda toponimik tip deb ba'zan muayyan toponimik yasalish modeli, ayrim hollarda formant ham tushuniladi. Biroq toponimik tip deganda grammatik shakl bilan bir qatorda so'zning ma'nosini tushunish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda har bir joy, har bir tarixiy davr va har bir til uchun o'zining toponimik tiplari aniq ko'rinadi.

Toponimik tip model va formantga nisbatan xususiy tushunchadir. Birgina toponimik model bir necha toponimik tipni qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga ba'zan toponimik tiplar bir model doirasidan chiqishi, model va formant lingvistik tushunchalar bo'lsa, toponimik tip kompleks tushuncha bo'lib, toponimikaning barcha aspektlarini o'z ichiga oladi.

Biron hududda ko'p uchraydigan toponimik tiplarda geografik landshaftning xususiyatlari (*qum, jar, qir, buloq, quduq*) ham, muayyan tarixiy davrning xarakterli alomatlari ham (*vaqf-vaqim, yom-jom, chek*) o'z aksini topgan. Morfologik-semantik tiplar ajratilsa, har bir joy toponimiyasining o'ziga xos xususiyati yaqqol ko'rinadi. Demak, toponimik model toponimik tipdan farq qilib, toponimlarning tuzilishini bildiradi. Masalan, ot-ot: Qo'rg'ontepa, Toshquduq, Jarbuloq; sifat-ot: Oqdaryo, Qoraqum, Yangibozor; son-ot: Uchquduq, Beshariq, Qirqqiz; ot-fe'l: Qizketgan, Suvyorvan, Qumbosti va hokazo.

Toponimik formant va toponimik modelga ikkita qo'shimchadan iborat misollar keltiramiz.

XONA SO'ZLI TOPONIMLAR

Xona so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «Uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi, bo'lma» deb ta'rif berilgan. Aslida forscha-tojikcha bo'lgan *xona* so'zidan biron narsa turadigan, saqlanadigan joy ma'nosidagi ko'plab so'zlar yasalgan: *choyxona, oshxona, otxona* va hokazo.

Toponimiyada *xona* so'zining funktsiyasi keng. Biron xalq yoki qabila – urug' yashaydigan qishloq nomlariga ham *xona* so'zi qo'shilgan. Zarafshon vodiysida arablar yashaydigan ***Arabxona*** degan qishloqlar ko'p. Bular juda qadimiy aholi punktlaridir. Chunki arablarning ancha qismi O'rta Osiyoga VIII-IX asrlarda, bir qismi esa keyinroq kelgan. Bu affiks o'zbek urug'lari yashagan qishloq nomlariga ham qo'shilgan: ***Bahrinxona, Do'rmonxona, Uyshunxona, Urganjixona*** va boshqalar.

Xona qo'shimchasi «biron narsa ko'p» degan ma'noni ham anglatadi. **Bo'rixona**- «Bo'ri ko'p joy», **Jayraxona** – «Jayra ko'p joy», **Jayronxona** – «Jayron ko'p joy», **Laylakxona** – «Laylaklar maskani». Surxondaryo viloyati Temirdarvoza darasining mahalliy nomi **Bo'zg'olaxona** – «Yovvoyi echkilar maskani» bo'lgan.

Boyovut tumanida **Sherxona** degan qishloq bor. Sher, ya'ni arslon Afrikada, Osiyoning ba'zi joylarida (Arabiston, Eron, Hindistonda) yashaydi. O'zbekistonda esa uchragan emas. Demak, ***Sherxona*** «Sher urug'i vakillari yashaydigan qishloq» demakdir.

Shunday qilib, *xona* «devor bilan bo'lingan bo'lma»gina emas, o'zining «biron xususiyati bilan ajralib turadigan joy» ma'nosini ham anglatadi. Bu so'zning ana shu xususiyatidan foydalanib, zapovednik o'zi o'zbekchada qo'riqxona deb yuritilgan. Hozir o'zbek tilidagi darsliklarda va rasmiy hujjatlarda ham bu so'z keng ishlatilmoqda. Bu so'zni bizdan turkmanlar ham qabul qilishdi.

-CHI QO'SHIMCHALI NOMLAR

Bu qo'shimcha otga qo'shilgach, biron kasb egasini bildiradi: **ravvachi, bo'yrachi, tanobchi, taqachi, temirchi, etikchi, qoshiqchi** va boshqalar. Bunday geografik nomlar orasida ***ayuvchi, baliqchi, qaropchi, qutchi, o'tarchi*** kabi urug'-aymoq nomlaridan yasalgan toponimlar ham bor.

Bu suffiks kishilarning qayerdan kelganini bildiradigan – *lik* qo'shimchasi o'rnida ham ishlatiladi («qishloqi», «qishloqlik» ma'nosidagi *dalachi* so'zini eslang). Denov tumanida Farg'ona vodiysidan ko'chib kelganlar bunyod etgan **Farg'onachi** qishlog'i, Sherobod tumanida Tojikistonning tog'li hududlaridan kelganlar yashaydigan **Qorateginchi** qishlog'i fikrimizning dalili deyish mumkin.

Janubiy O'zbekistonda yashagan duobachi avlodi Duoba qishlog'idan chiqqan kishilardir. Niluchilar Nilu qishlog'idan, pannomachilar Pannoma qishlog'idan chiqqan kishilar avlodlaridir.

O'zbekistonda qayd qilingan tog'chi (jonli tilda toqchi) qabilasi tog'larda, hatto baland joylarda yashagani uchun shunday nom olgan. Bu etnonimlar ayniqsa Janubiy O'zbekistonda toponimlarga aylangan.

Respublikamizda **Sho'rcha** nomli joylar uchraydi. Bunday yerlarning suvi sho'r yoki tuprog'i sho'rxok bo'lgan. Surxondaryo viloya-

tidagi Sho'rchi shahrining asli nomi ham **Sho'rcha** bo'lgan (sho'rchi – degan hunar-kasb yo'q). Toponimik qo'shimchalarning toponimlar hosil bo'lishidagi ahamiyatini shundan ham tushunsa bo'ladi.

TOPONIMLAR VA AFSONALAR

Kishilar odatda o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan nomlardan ma'no axtara boshlaydilar va o'z tillariga moslashtirib talaffuz qilishga intiladi. Xalq etimologiyasi, aniqrog'i soxta etimologiya shu yo'sinda paydo bo'ladi va shu tariqa rivoyatlar ham to'qiladi.

Xorazm viloyatidagi tuman markazi Hazorasp juda qadimiy shahar bo'lgan. U X-XI asrlardagi arab geograflari Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida «mustahkam qal'a» deb tilga olingan.

Rivoyatga ko'ra, qal'ani bahaybat dev qurgan ekan. Dev bu yerga suv ichgani keladigan 1000 ta qanotli otni ushlab olib, qanotlarini kesib tashlagan emish. Otlar tufayli mashhur bo'lgan qal'a **Hazorasp** «ming ot» (forscha-tojikcha) deb atalgan.

Bu rivoyatning haqiqatga to'g'ri kelmasligi o'z-o'zidan ravshan. Hozirgi Hazorasp qishlog'i nomini mahalliy xalq Hazaras shaklida talaffuz qiladi. Bu esa asliga yaqin. Qal'a milodning boshlarida Sharqiy Yevropada, jumladan Volganing quyi oqimida yashab xoqonlik barpo qilgan turkiy xalq – hazarlar nomi bilan atalgan bo'lsa ajab emas. ***-as*** qo'shimchasiga kelganda shuni aytish kerakki, etnograflardan R.G.Kuzeev va B.X.Karmishevaning fikricha, tarkibida ***-as*** (az) komponenti bo'lgan etnonimlar va toponimlar nihoyatda katta hududda -Oltoydan Uralgacha, Kavkaz va Qrimgacha uchraydi. Ba'zi bir olimlar ***-as*** II-IX asrlarda quyi Volga bo'yi, Shimoliy Kavkazda yashagan alan qabilasining ikkinchi nomi yoki qabila ajdodlari bo'lgan deb hisoblasalar, boshqa bir tarixchilar *as* Orxon-enisey yodgorliklarida tilga olingan az (as) xalqi nomining in'ikosi bo'lishi mumkin deb biladi. Boshqird etnografi, tarix fanlari doktori R.G.Kuzeev har ikkala holda ham azlar (aslar) VIII-IX asrlarda turkiy qabilalar bo'lgan deydi.

Qo'qon shahri X asrda bitilgan «Hudud ul-olam» qo'lyozmasida, arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Ho'kan (Xuvoqand), Ho'kand (Xuvoqand) shakllarida qayd qilingan. «Boburnoma»da Xo'qon o'rchini (viloyati) tilga olingan. Hozirgi Qo'qon shahri tarixiy Xo'qand o'rnida XVIII asrda o'zbeklarning

ming urug'i boshlig'i Shohruh tomonidan barpo etilgan. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, shaharning adabiy nuqtai nazardan to'g'ri shakli Xo'kand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir.

Xorazm toponimi haqida ham rivoyatlar bor. Chunonchi, o'rta asr arab olimlaridan Muqaddasiy va Yoqut Hamaviy asarlarida bu haqda shunday rivoyat keltirilgan. Podsho g'azabnok bo'lib, o'zining bir qancha bebosh fuqarolarini kimsasiz uzoq joyga badarg'a qilishni buyuradi. Lekin bu yerda o'tin va go'sht (ya'ni Amudaryoda baliq) ko'p bo'lganidan ular omon qoladilar. Musofirlar bu o'lkani obod qilib, Xorazm deb atadilar (xovar – go'sht, azm – o'tin).

Farg'ona so'zi haqida ham rivoyatlar bor. Masalan, Farg'onani Nushirvon (Anushirvon) bunyod qilgan va podsho bu yerga har bir joydan bittadan qabila olib kelgan ekan. Shunday qilib, turli joylardan kelgan kishilar imoratlar qurib, ekinlar ekkan. Kishilar ularni turli joylardan kelganligidan *Az har xona* «turli xonadonlardan kelganlar» (qurama) deb atay boshlaganlar. So'ngra ***az*** qo'shimchasi tushib qolib, Harxona bo'lib ketgan, bu esa bora-bora Farg'ona shaklini olgan emish. Huddi shu rivoyat arab geografi Ibn Xurdodbehning «Kitob ul-masolik val-mamolik» asarida (X asr), Hamidullah Qazviniyning «Nuzhat ul-qulub» asarida (1340 yil) va boshqa tarixiy yodgorliklarda ham keltirilgan.

Samarqand, Andijon, Jizzax, Xiva, Termiz, Buxoro kabi qadimiy shaharlarning, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolarning nima uchun shunday atalgani haqida ham turli afsonalar mavjud. Ko'pgina qishloqlarning nomlari to'g'risida ham qancha-qancha cho'pchaklar bor. Tog' – qirlar, soylik-jarliklarning nima uchun shunday atalishini xalq o'zicha tushuntirib berishga harakat qilgan.

Buxoro viloyatida Chandir degan bir necha qishloq bor. Xalq buni «chandir go'sht» so'zidan deb izohlaydi. Aslida ***chandir*** turkmanlarning bir urug'i (Zarafshon vodiysining etagida anchagina turkmanlar yashaydi).

Tog' daralarining eng tor joyi hamma tillarda «Temir darvoza» deyiladi (tojikchada Darbandi ohanin, arabchada Bobul hadid, ruschada Jeleznoe vorota, qadimiy turk tilida Temur Qapug'). Oddiy xalq buni bu yerda «temir darvoza bo'lgan ekan» deb tushunadi. Aslida bu majoziy o'xshatma, metaforik nomlar. Baxmal tumanida Qirqqiz, Kuyovtosh degan toshlar bor. Bu haqda shunday rivoyat eshitasiz: Kuyov qaylig'iga kelayotgan ekan, birdan g'ayridin yovlar kelib

qolibdi. Halqumi pok kuyov ham, kelin ham dugonalari bilan kofirlarga tutqun bo'lgandan ko'ra Xudoga iltijo qilib tosh bo'lib qolgan ekan. Odam shaklidagi bu toshlar aslida nurab ulgurmagan qumtosh qoyaning qoldiqlaridir.

Zahiriddin Bobur Markaziy Farg'onadagi qumli cho'l haqida bir rivoyatni keltirgan. Bir necha darvesh qumli cho'lda ketayotgan ekan, birdan qumli bo'ron (tund yel) ko'tarilib, darveshlar bir-birini topolmay, «ho, darvesh», «ho darvesh» deya halok bo'lubturlar, andin beri bu bodiyani (cho'lni) Hodarvesh derlar».

Bunday xildagi rivoyatlarni ko'plab qishloqlar to'g'risida eshitish mumkin. Zomin tumanidagi Achchi qishlog'i yonida ***Kallali*** degan toshloq soyliq bor. O'sha yerl aholisi laganni lali deyishadi. Shu soylikda yovlar bir kishini o'ldirib kallasini kesib olib laganga qo'yib ketgan ekan. Shundan so'ng bu yer Kallali, ya'ni «lagandagi kalla» deb atalgan emish.

G'orlar, ungurlar haqida ayniqsa rivoyatlar ko'p. Zomin tumanida Tamtum qishlog'i yaqinida **Kattakamar, Oqchepkanning kamari** degan g'or, kamarlar (qoyadagi bo'shliklar) bor. Bunday kovaklarda ibtidoiy odamlar yashagan. Har xil voqealar bo'lib o'tgan, natijada xilma-xil cho'pchaklar to'qilgan. Masalan, o'sha Oqchepkan kamarida Oqchepkan laqabli (oqchakman kiygan) o'g'ri yashagan ekan. Ba'zi bir g'orlarni qandaydir dahshatli mahluqlar, devlar, parilar vatan qilgan edi deyishadi. Shu sabab bunday g'orlar **Shaytong'or, Devkamar** kabi nomlar bilan atalgan. Ana shundan har xil afsonalar, asotirlar kelib chiqadi.

TOPONIMIKA TARIXIDAN

Atoqli otlar, jumladan geografik nomlar, ayniqsa ularning ma'nolari qadimdan olimlar e'tiborini tortgan. Toponimika atamasining paydo bo'lganiga hali bir asr bo'lgani yo'q. Lekin toponimika masalalari tarix,geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda qadim zamonlardan boshlab uchraydi.

Har qanday fan amaliyot talablari ta'sirida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari asosida vujudga keldi. Dastlabki sayyohlar o'zlari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq o'lkalar va shaharlarning nomlarini hammaga ma'lum qildi. Geografik nomlarni to'plab o'rganganlar xam geograflar edi.

Professor H.Hasanov «O'rta Osiyoda atoqli geograf olim va sayyohlar ozmuncha bo'lmagan, ular ajoyib asarlar yozganlar», deydi. U «O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar» asarida (Toshkent, 1964) shu mintaqada tug'ilib o'sib ijod qilgan 28 allomaning geografiyaga, toponimikaga qo'shgan hissasi, sayohatlari haqida keng ma'lumotlar bergan.

O'rta Osiyo geografiya fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan matematik va geograf Muhammad **Xorazmiy**, astronom va geograf Abu Zayd **Balxiy** (850-934), tarixchi Abu Bakr **Narshaxiy** (899-959) O'rta Osiyo geografiya fanida maktab yaratgan alloma Abu Rayxon **Beruniy**, geograf-filolog Mahmud **Koshg'ariy**, astronom va matematik Mirzo **Ulug'bek** (1394-1449), geografik terminologiya, toponimikaga qimmatli hissa qo'shgan mashhur sayyoh va lug'atchi Shayx Sulaymon **Buxoriy** (1821-1880) kabi allomalar shular jumlasidandir.

Bu olimlardan ayrimlarining toponimika fani sohasidagi xizmatlari haqida quyiroqda so'z yuritiladi.

Boshqa o'lkalarda ham dunyo kezgan, yangi-yangi yerlarni kashf qilgan, kishilarning geografik tasavvurlarini va toponimik ma'lumotlarini kengaytirgan sayyohlar, geograflar ko'p bo'lgan. Toponimikaga katta hissa qo'shgan geograf olimlardan nemis olimi **A.Gumboldni**, rus geograflari **P.P.** va **V.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy**, akademik **L.S. Berglarni** aytib o'tish mumkin.

XIX asr oxirlaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, Angliyada 1923 yilda dunyoda birinchilar o'laroq mamlakatdagi barcha tomonimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun Toponimika jamiyati tuzildi. Keyinchalik G'arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda ham xuddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo'lgan edi.

Rossiyada toponimik tadqiqotlar tarix, geografiya va filologiya fanlari vakillari tomonidan olib borildi. Akademik **Shegren** (1794-1855), mashhur tarixchi va etnograf **N.I.Nadejdin** (1804-1856), tilshunos **A.Kastrenlar** (1813-1852) rus toponimikasining dastlabki tadqiqotchilaridandir. 1847 yilda Rossiya Geografiya jamiyatida tuzilgan geografik terminologiyani o'rganish komissiyasi va Rus tili va adabiyoti havaskorlari jamiyati (1811-1930) toponimikaga katta ahamiyat berdi.

Rus toponimikasini o'rganishga akademiklardan **V.V.Radlov** (1837-1918), **A.I.Sobolevskiy** sezilarli hissa qo'shdilar.

1904 yilda Rossiya geografiya jamiyati qoshida Kartografiya komissiyasi tuzildi. Komissiyaning geografik nomlarni transkripsiya qilish bo'limida tilshunoslardan **A.A.Shaxmatov, I.A.Boduen Kurtene, A.D.Rudnev** va boshqalar ishladilar.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng toponimik tadqiqotlar keng quloch yoydi. Toponimik materiallarni to'plash va qayta ishlash sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Toponimika bo'yicha maxsus mahkamalar, Butunittifoq geografiya jamiyatining filiallarida va bo'limlarida toponimika komissiyalari tuzila boshladi. 1965 yilda Leningradda SSSR toponimikasi bo'yicha Birinchi butunittifoq konferensiyasi o'tkazildi. Sobiq ittifoqdosh respublikalarning tilshunoslik institutlari, sobiq SSSR Geografiya jamiyati, Moskva filialining toponimika komissiyasi geografik nomlarni o'rganishga katta ahamiyat bera boshladi.

Atoqli otlarni (onomastika), jumladan geografik nomlarni (toponimika) o'rganishga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlar, jumladan maxsus toponimik asarlar nashr etildi.

Toponimikaning fan sifatida tarkib topishida Rossiya olimlarining xizmati katta.

Rus toponimikasi bo'yicha **A.P.Dulzon, A.K.Matveev, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, A.I.Popov, A.V.Superanskaya, Ye.M.Pospelov, A.A.Reformatskiy, B.A.Serebrennikov, V.N.Toporov, O.N.Trubachev**ning asarlari ma'lum va mashhur.

Dunyoda eng yirik toponimistlardan biri atoqli geograf **E.M.Murzayevdir** (1908-1998). Olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarning, jumladan O'zbekiston toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan mahalliy geografik atamalar haqida ko'plab qimmatli asarlar, maqolalar, monografiyalar, lug'atlar yaratdi. E.M.Murzayev ko'p yillik ilmiy faoliyatida toponimikaning nazariy masalalari bilan bir qatorda geografik atamalarga alohida ahamiyat berdi. Masalan, 4 mingga yaqin xalq geografik atamalarini o'z ichiga olgan lug'ati (Slovar narodnix geograficheskix terminov. M.,1984) jahon toponimistlari va tilshunoslarining e'tiborini tortdi. Bu asar 1999 yilda to'ldirilib 2 jildda qayta nashr etildi. E.M.Murzayev geografik atamalar ko'pchilik toponimlar etimologiyasining universal kalitidir, degan xulosaga kelar ekan, toponimikani tadqiq qilishda geograflarning roli katta ekanligini qayd qiladi. Olim katta-katta hudud-

lardagi mahalliy geografik atamalar va toponimlar semantikasining nozik jihatlarini boshqa har qanday mutaxassislardan ko'ra geograflar yaxshi ilg'ab oladilar deb hisoblaydi.

Moskvalik yirik toponimistlardan biri **V.A.Nikonov** sobiq Ittifoqda toponimikaning fan sifatida oyoqqa turishiga katta hissa qo'shdi. Olimning eng yirik toponimik asarlari «Toponimikaga kirish» (Vvedenie v toponimiku. M.,1965) va «Qisqacha toponimik lug'at»dir (Kratkiy toponimicheskiy slovar, M., 1966). V.A.Nikonov toponimlar tarix taqozosi ila vujudga keladigan ijtimoiy hodisa ekanligini, geografik nomlarning tarkib topishida suffikslarning – grammatik qo'shimchalarning (ayniqsa slavyan toponimiyasida) katta o'rin tutishini alohida uqdirdi. U toponimlarning bir-biri bilan bog'liq holda (katta-kichik,eski-yangi, yuqori-past, oq-qora) paydo bo'lishining *qator qonunini* hamda geografik obyektlarning kam uchraydigan xarakterli xususiyatlarga qarab nom olishining *nisbiy negativlik* qonunini kashf etdi (hammayoq qarag'ayzor bo'lgan joylarda **Qarag'ayzor** toponimining bo'lishi shu yer uchun xarakterli xususiyat emas).

V.A.Nikonov o'zining toponimik lug'atida dunyodagi 4 mingga yaqin yirik geografik obyektlar nomlarining kelib chiqishini izohlab bergan.

Moskvalik yirik tilshunos toponimistlardan biri **A.V.Superanskayadir**. Olima toponimlarga, xususan atoqli otlarga bag'ishlangan ko'plab asarlar yozgan. Uning geografik nomlar lingvistik qonuniyatlaridan bahs etadigan eng yirik asari «Toponimika nima?» (Chto takoe toponimika? M., 1985) kitobidir. Asarda toponimikaning nazariy asoslari bayon etilgan, geografik nomlar tarixidan ma'lumotlar keltirilgan.

Hamdo'stlik tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf toponimistlardan **V.A.Juchkevich** (Belarus) bu sohada ayniqsa katta ishlar qildi. Uning «Umumiy toponimika» (Obshaya toponimika) nomli talabalar uchun o'quv qo'llanmasi 1965 yildan buyon bir necha marta nashr qilindi. Ukraina toponimitlaridan respublikada urushdan keyingi davrda toponimik tadqiqot tashkilotchisi **K.K.Tseluyko**, gidronimlarni sinchiklab o'rgangan **A.S.Strijak**, regional toponimiyani mukammal o'rganishdan tashqari toponimika nazariyasi va metodologiyasining umumiy masalalariga alohida ahamiyat bergan **Yu.A.Karpenkoning** nomlarini aytib o'tish mumkin.

Qardosh qo'shni respublikalar toponimistlaridan Tojikistonda Yag'nob

toponimlarini o'rganishda **A.L.Xromov**, Pomirning mikrotoponimlarini tadqiq qilishda esa **R.X.Dodixudoev** asarlarining ahamiyati katta.

Qozog'istonda toponimlarni ham lingvistik, ham geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Respublikada toponimlarni, xususan geografik atamalarni o'rganishda **G'.Q.Qo'nqashpayevning** xizmatlarini alohida qayd qilish kerak (bibliografiyaga qarang – G'.Q.Qo'nqashpayev). Qozog'istonlik toponimistlardan **A.A.Abduraxmanov, T.Januzaqov, V.N.Popova, Ye.Qo'ychiboev** (Ye.Qo'ychiboyev)ning ilmiy ishlarida toponimikaning umumiy masalalari bilan bir qatorda joy nomlarining etimologiyasiga katta o'rin berilgan.

Turkmaniston Respublikasida toponimikaning rivojlanishi akademik **S.Otaniyozovning** nomi bilan bog'liq. Olim toponimikaning metodologik masalalarini yoritish bilan birga toponimlarning, etnonimlarning kelib chiqishi sohasida tadqiqotlar olib borib, toponimlar va etnonimlarning lug'atlarini tuzgan (bibliografiyaga qarang – S.Ataniyazov). Turkman geografik atamalarini yig'ish va izohlash borasida **M.Geldixanov** ancha jiddiy ishlarni amalga oshirdi.

Qirg'iziston toponimikasining yutuqlari geograflardan **S.Umurzoqov**, tilshunoslardan **Q.Qo'nqaboev** (K.Konkobayev), **D.I.Isayev** nomlari bilan bog'liq.

Qardosh Ozarbayjon Respublikasida ham toponimika sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Toponimlarni va geografik atamalarni yig'ish hamda o'rganish bo'yicha **R.M.Yuzbashev**, Respublikaning shimoliy rayonlari toponimlarini tadqiq qilishda **S.M.Mullazoda**, g'arbiy rayonlar toponimiyasini o'rganish bo'yicha **A.A.Aliev**, toponimikaning nazariy masalalarini ishlab chiqishda **T.A.Axmedovning** xizmatlari katta.

O'ZBEKISTON TOPONIMLARINING O'RGANILISHI HAQIDA

O'rta Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda yunon olimlari asarlarida uchraydi. «Tarix fani otasi» deb nom olgan **Gerodot** (miloddan avvalgi 485-425 yillar) **Girkand** (Kaspiy) dengizidan sharq tomondagi hududni «bepoyon tekislikdan iborat» deb atagan, **Araks** daryosini (Amudaryoni) tilga olgan.

Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn)ning bostirib kelishi (miloddan avvalgi 334-325 yillar), shuningdek savdo aloqalarining avj olishi qadimgi dunyo olilarining geografik tasavvurlarini kengaytirishga imkon berdi. Aleksandr Baktriya bilan Sug'diyonada sakkizta shahar, boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra o'nta shahar qurgan, shulardan **Aleksandriya** deb atagan (masalan, **Aleksandriya Esxata** «Chekka Aleksandriya», – hozirgi Bekobod shahri yaqinida), **Kiropol** (Tojikiston Respublikasidagi Shahriston dovoni yaqinidagi Shahriston qishlog'i o'rnida bo'lgan degan fikr bor). Shu bilan birga fotih bir qancha shaharlarni, jumladan Marakandni (Samarqandni) vayron qilgan.

Aleksandr Makedonskiyning buyrug'i bilan yozib borilgan mukammal kundaliklar ham, uning urushlari tarixiga oid birinchi manbalar ham bizgacha yetib kelmagani boic geografik ma'lumotlarda ko'p narsalar noma'lum bo'lib qolayotir.

O'rta Osiyoning, jumladan O'zbekistonning daryolari, tabiiy geografiyasi, shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi I asrga kelganda aniq bir tus oladi.

Masalan, qadimgi yunon geografi va tarixchisi, 17 jildlik «Geografiya» asarining muallifi **Strabon** (miloddan avvalgi 64/63-23/24 yillar), tarixchi va yozuvchi, 7 jildlik Aleksandr Makedonskiy yurishlari tarixi muallifi **Flaviy Arrian** (95-175 yillar), 10 jildlik «Aleksandr Makedonskiy tarixi»ni yozgan **Ruf Kurtsiy** (I asr), **Yaksart** (Sirdaryo), **Politimet** (Zarafshon) haqida ma'lumotlar berganlar. Arrian Sirdaryo bo'yida sug'diylarning **Vasileyya** shahrini tilga olgan. Astronom **Klavdiy Ptolemey** (taxminan 90-160 yillar) O'rta Osiyo geografiyasi haqida keng ma'lumotlar berib o'lka hududlarini, daryolari, shaharlarini tasvirlab yozgan.

Shunday qilib, antik dunyo olimlarining asarlarida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda bir qancha nomlar, chunonchi **Girkand** dengizi, **Araks** (Amudaryo), **Oks** (Oksos – Amudaryo), **Xorasmiya** (Xorazm) shahri, **Qang'** (Kangxa,Qanguy) davlati, **Yaksart** (Sirdaryoning eng qadimiy maxalliy nomi), Marakand (Samarqand), **Politimet** (Zarafshon) va boshqalar tilga olingan.

Milodning VII-asridan e'tiboran arab xalifaligi mamlakatlarida ham fan rivojlana boshladi. Arablar bosib olgan O'rta Osiyo ham ana shu xalifalik tarkibida edi. O'rta Osiyodagi, avvalgi mustaqil bo'lgan mamlakatlar o'sha vaqtda o'z yozuviga ega yuksak madaniyatli davlatlar edi. Ularda ta'lim tizimi, sug'orma dexqonchilik rivojlangan, yirik shaharlarda boy kutubxonalar bo'lgan.

O'rta asrlarda Turkistonda buyuk olimlar ijod qilganlar va jahon fanini, jumladan toponimikani rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Masalan, Beruniyning geografik va toponimik merosi «At-tafxim», «Hindiston tarixi», «Al-osorul boqiya», «Qonuni Ma'sudiy» asarlarida keltirilgan. Olim xorazmliklarda Vaxsh suvlarini, jumladan **Jayxun** daryosini nazorat qilib turgan malak nomi ekanligini aytgan. Demak, Amudaryoning o'ng irmog'i bo'lgan **Vaxsh**, Surxondaryo viloyatidagi **Vaxshivor, Vaxshivordara** kabi toponimlar o'sha suv parisi nomi in'ikosidir. «Geodeziya» asarida Beruniy o'sha vaqtdagi **Sariqamish ko'lini Xiz tengizi**, ya'ni «Qiz dengizi» deb atagan. Olim toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlar bildirgan. Masalan, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib o'z tillariga moslab talaffuz qilganliklari oqibatida bir qancha so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini, (masalan, turkiycha *tosh* so'zini arablar *shosh* deb talaffuz qilishlarini) aytdi. Beruniy o'zining «Saydana» asarida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va o'rolar, «Qonuni Ma'sudiy» kitobida 600 dan ortiq joy nomlarini tilga olgan. Shundan 85 tasi O'rta Osiyo va Xurosonga tegishlidir.

O'rta asrlardagi barcha tarixiy, geografik va lingvistik asarlar orasida toponimika uchun hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asar bu **Mahmud Koshg'ariyning** uch jildli «Devonu lug'otit turk» kitobidir. O'zbekistonning tarixiy toponimiyasi uchun yana bir o'ta qimmatli asarlaridan biri **Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning** «Buxoro tarixi» kitobi sanaladi. Kitob 934-944 yillarda arab tilida yozilgan. 1128-1129 yillarda forschaga qisqartirib tarjima qilingan. Noma'lum muallif kitobga mo'g'ullar bosqinchiligigacha bo'lgan voqealarni qo'shgan. Kitob o'zbekchaga tarjima qilingan (Toshkent, 1966).

Bu asarda O'rta Osiyoning VIII-XII asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shu bilan birga eski Buxoro va uning yaqinidagi bo'lib bir necha yuz geografik nom tilga olingan. Shunisi qiziqki, X-XI asrlardagi ko'pgina geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Shulardan **Nur** (hozirgi Nurota), **G'ijduvon, Romitan, Shopurkom, Karmana** qadimiy nomlardir. Varaxsha (Faraxsha), **Poykand** Buxorodan ham keksa shaharlardir, deb yozadi Narshaxiy. Tarixchining ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning **Numijkat, Bumiskat, Madinat-us-sufriya** («Mis shahri»), **Madinat-tujjor** («Savdogarlar shahri»), **Foxira** degan nomlari bo'lgan.

Shopurkom arig'i (hozir qishloq ham) Eron shahzodasi Shop-

...ing nomi bilan atalgan ekan. Shopur buxorxudotdan (Buxoro ...kimidan) yer olib, qasr qurgan va **Vardona** qishlog'ini barpo ...ib, ariq qazib keltirgan. **Shopurkom** – «Shopur arig'i» demak. ...opur ismi o'z navbatida ikki so'zdan iborat: **shox, pur** – o'g'il, ...hzoda.

Kom atamasi qadimdan Buxoro atrofida iste'molda bo'lgan va ...zir ham ancha-gina geografik nomlar tarkibida uchraydi: **Komi Zar, ...omi Akka** (Zarafshonning bir nomi), **Haramkom** va hokazo.

O'zbekiston joy nomlarining o'rganilishiga *«arab geograflari»* nomi ...lan mashhur olimlar katta hissa qo'shgan. Shu narsa e'tiboga sazovorki, ...ngi qo'shib olingan hududlarning ma'muriy tuzilishini o'rniga qo'yish ...anosabati bilan «Soliq daftarlari» – «Kitob al-xaroj» va ...Yo'lnomalar» paydo bo'ladi. Bunday nomalarda viloyatlar va aholi ...unktlari, dexqonchilik va kasb-hunar mahsulotlari, bekatlar, ular ...rasidagi masofa, aloqa sharoiti ko'rsatib qo'yilar edi. Asli eronlik ...o'lgan arab geografi **Abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurodbexning** (XI asr) «Kitob al-masolik va memolik» – «Yo'lnomalar ...mamlakatnomalar»kitobi shunday geografik asarlarning dastlabkisi ...di. Bunday ma'muriy-statistik yo'nalish **Al-Yaqubiyning** «Kitob al-...eldon» («Mamlakatlar kitobi»), Ibn Ja'far Qudamaning «Soliqnoma» («Xaraj kitobi») asarlarida o'z rivojini topdi.

Arab geografiyasi ayniqsa X asrda keng rivojlandi. **Ibn Rusta** (Abu Ali Axmad ibn Umar) geograflar orasida alohida o'rin tutadi. Uning «Kitob al-alak an-nafisa» («Durdonalar kitobi») asarida O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonga bag'ishlangan qismi Vatanimiz toponimikasi uchun juda muhim. Ibn Rusta, chunonchi, **Buttam** tog'laridan oqib keladigan **Qumrud** va **Xovarrud** daryolarini **Romid** (hozirgi Kofirnihon) daryosining irmoqlari deb ataydi. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, bu daryolar hozirgi Surxondaryoning **Qoradaryo, To'polondaryo, Sangardakdaryo** nomli irmoqlari bo'lishi kerak. **Buttam tog'lari** esa **Birinchi Buttam** (Hisor tizmasi), **O'rta Buttam** (Zarafshon tizmasi) va **Tashqi Buttam** (Turkiston tizmasi) tog'laridan iborat bo'lgan.

X asrda **Istaxriy** (Abu Isxoq Ibrohim ibn Muhammad al-Farisiyning «Kitob al-masolik va al-mamolik» asari (930-933 yillar) arab geografiyasining katta yutug'i edi. Keyinchalik (976-977 yillar) Movarounnahrga sayohat qilib, uni tasvirlab yozgan **ibn Havqal Istarxiy** asarini yanada to'ldirdi. Masalan, ibn Havqalning guvohlik berishicha,

Sag'onrud (Chag'onrud), ya'ni Surxondaryo Termiz shahridan pastroqda Amudaryoga quyilgan. Xalifalik tarkibidagi o'lkalar, jumladan Movarounnahr geografiyasi, tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati, jumladan toponimiyasi xaqida **Muqaddasiy** (Shamsiddin Abu Abdallox Muhammad ibn Ahmad) ayniqsa to'liq ma'lumot bergan.

Muqaddasiy ma'lumotlariga ko'ra, Chag'oniyonda (Surxondaryo vodiysida) 16000 ga yaqin qishloq bo'lgan. Sayyoh Farg'onada **Axsikat, O'zgand, O'sh, Qubo** (Quva), **Marg'inon, Rishton, Koson, Bob**(Pop), **Asht, Avval, Andukon** (Andijon), **Xuqand** (Qo'qon) kabi 40 ta shahar hamda jome masjidli qishloqni sanab o'tadi. Muqaddasiy va boshqa arab geograflarining asarlarida nomlari hozirgacha saqlanib qolgan toponimlar tilga olingan: **Zomin, Jizzax, Sobot, Xovos, Kurkat, Samg'ar, Xo'jand** va boshqalar.

Bu kabi ma'lumotlar Vatanimiz toponimiyasining qadimiy ekanligini ko'rsatadi. **Axsikat, Samarqand, Farg'ona, Choch** (Toshkent) kabi nomlar VIII asrga oid sug'd hujjatlarida va undan ham oldin, **Andigon** (Andijon), **Zomin, Isfara, Ishtixon, Karmana, Kesh** (Shahrisabz), **Marg'inon** (Marg'ilon), **Miyonqol, Miyonrudon** («ikki suv orasi») – Norin bilan Qoradaryo oralig'i, **Narpay, Naxshab** (Qarshi), **Parak** (Chirchiq), **Barsket** (Parkent), **Biskat** (Piskent), **Biskom** (Piskom), **Pishag'ar, Bob** (Pop), **Rishton, Sobot, Soyliq, Tavovis, Usrushona, Farg'ona, Forob, Xotunkat, Jadg'al**(Chotqol), **Chag'oniyon** (Surxondaryo vodiysi), **Chinachkat – Jinanjkat** (Chinoz), **Shovdor, Qalqonqud, Quva, Qurshob** (Xurshob), **Xuqand** (Qo'qon), G'**ijduvon, Xuzor** (G'uzor), **Hazorasp** kabi nomlar IX-X asrlar manbalarida – arab geograflarining asarlarida, «Hudud al-olam»da, Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da tilga olingan.

XIII asrda ijod qilgan **Yoqut** (Yoqut ibn Abdulloh ar-Rumi al-Hamaviy) «Mu'jam al-buldon» nomli ko'p jildli lug'atida geografiyaga oid barcha ma'lumotlarni jamlab katta toponimik meros qoldirgan. Yoqut O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonning ma'lum va mashhur **Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Zomin, Naxshab** (Nasaf-Qarshi), **Farg'ona, Uzkand** (Yuzkand-O'zgant), **Axsikat, Xuqand** (Qo'qon), **Xo'jand, O'sh, Dabusiya, Shosh** (Toshkent), **Usrushona, Farob, Termiz, Asfijob – Isfijob** kabi shahar va qishloqlari haqida mukammal ma'lumot qoldirgan. Yoqut geografik nomlarni hozirgi ilmiy til bilan aytganda topoformantlarga qarab tasnif qilgan. Masalan, *obod* so'ziga kelganda shuni aytish kerakki, deydi Yoqut, bu unsur sha-

harlar, qishloqlar va viloyatlar nomlari tarkibida ko'p uchraydi: **Asadobod, Rustamobod, Husnobod** kabi. Asad kishing ismi, *obod* esa forscha «aholi punkti» degan ma'noni bildiradi, demak, Asadobod «Asad shahri yoki qishlog'i» demakdir.

Umuman olganda, arab geograflari asarlarida respublikamiz toponimiyasi haqida ko'plab ma'lumot topsa bo'ladi.

Turkiy tarixiy va lisoniy manbalardan toponimika uchun eng ahamiyatlilari sifatida **Mahmud Koshg'ariyning** «Devonu lug'otit turk» va **Zahiriddin Muhammad Boburning** «Boburnoma» asarlarini alohida tilga olish mumkin.

«Devonu lug'ot-it turk»ning toponimika fani uchun ahamiyati shundaki, asarda 200 ga yaqin turkiy toponimlar **(Olayig'och, Badalart, Qargalik**), ko'plab etnonimlar – o'sha vaqtdagi turkiy qabilalarning nomlari *(yag'ma, chigil, sug'dak «sug'diy lar»)* va ularning geografiyasi, bir necha o'nlab qadimiy turkiy ismlar **(Bektur, Arslontegin, Turumtoy)**, ko'plab geografik atamalar *(art, dovon, yozyozi «dasht», baliq «shahar»)*, shuningdek o'simlik va hayvonlarning qadimiy turkiy nomlari (*avya* behi, **so'kso'k** – «saksovul», *qazin* – qayin, *yag'an* – fil, *qoz* – g'oz, *chabaq* – mayda baliq keltirilgan. «Devonu lugot-it turk»ning uchta jildida keltirilgan boy toponimik materiallar joy nomlarining etimologiyasini tadqiq qilishda, toponimlarning qadimiy fonetik shakllarini aniqlashda o'ta qimmatli manbalar bo'lib xizmat qiladi. (Bu asar haqida yanada to'laroq ma'lumot olish uchun V bobga qarang).

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida tarix, etnografiya, geografiyaga oid qimmatli ma'lumotlardan tashqari, toponimika sohasida ham boy materiallar keltirilgan. «Boburnoma»ning bu boradagi ahamiyati shundaki, undan toponimlarning qadimiy shakllarini bilib olish mumkin: **Dizak – Jizzax, Ko'hak – Zaraf-shon, Sayxun, Xo'jand suyi** yoki **Sir suyi – Sirdaryo, Chir- Chirchiq** va hokazo.

Bobur tilga olgan ko'plab geografik atamalar toponimlarning kelib chiqishini aniqlashda va o'zbekcha ilmiy terminologiyani ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega, masalan: *band* – to'g'on yoki «bekat», *jazoir* – orol, *jangal* – o'rmon, *qo'l* – daryo tarmog'i, *tangi* – tor dara *quruq qo'l* yoki *suvsiz qo'l* – soylik, *parcha tog'* – qoldiq tog, *tagob* – o'zan, *tuz* – tekislik, *to'qay* – daryo muyulishi, *ushoq tog'lar* – past tog'lar, *yayloq* – yaylov, *obgir* – botqoqlik, *ko'tal*

– dovon, *qasaba* – shaharcha, *pushta* – tepalik, *qo'ruq* – qo'riqxona, *uchma* – tik yonbag'ir, *yoz* – bahor, *yozi* – dala, *obshor* – sharshara va boshqalar. (Bu haqida to'laroq ma'lumot olish uchun V bobga qarang).

Keyingi ikki asr davomidagi tarixiy, lingvistik, geografik asarlardan O'zbekiston toponimikasiga oid ko'plab materiallar topish mumkin. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimikasiga oid dastlabki asarlardan biri vengriyalik olim **Arminiy Vamberining** (1832-1913) O'rta Osiyoga maxfiy sayohati mahsuli bo'lmish «Markaziy Osiyoning geografik nomlari» (nemis tilida) deb atalgan asaridir. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atama alifbo tartibida berilgan. Bu esa o'sha davr uchun katta yutuq edi. Biroq geografik nomlar izohlarida xatoliklar ham uchraydi. Masalan, Jizzax – «issiq», Andijon – *ont,* qasam va *jon,* jonday inoqlik, *Sariosiyo* – «sariq tegirmon», *Sirdaryo* – «jildirab oqadigan» degan ma'noni bildiradi deb yozgan.

Rus sharqshunoslaridan **N.V.Xanikov, L.N.Sobolev, N.F.Sitnyakovskiy, V.L.Vyatkin** asarlarida bir qancha ma'lumotlar O'zbekiston toponimikasiga bag'ishlangan. Masalan, N.V.Xanikovning «Buxoro xonligi tasviri» (Xanikov N. Opisanie Buxarskogo xanstva. SPB, 1843) asarida o'sha davrda iste'molda bo'lgan *otaliq, qo'rchi, tunqotar, shig'ovul* kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy atamalar tilga olinganki, ular hozirgi vaqtda bir qancha toponimlarning ma'nosini tushunib olish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Kitobda 92 o'zbek qavmlarining dastlabki ro'yxati keltirilgan.

L.N.Sobolevning «Zarafshon okrugi haqida geografik va statistik ma'lumotlar»(Sobolev L.N.Geograficheskie i statisticheskie svedeniya o Zeravshanskom okruge. ZRGO, t. IV, 1874) kitobida Zarafshon vodiysidagi qishloq, shaharlarning ro'yxati berilgan. Unda qishloqning qaysi ariqdan suv ichishi va aholisining qaysi qabila yoki urug' vakillari ekanligi ham aytib o'tilgan.

Chor armiyasining ofitseri N.F.Sptnyakovskiyning Zarafshon vodiysiga bagishlangan tarixiy-geografik asarida (Sitnyakovskiy N.F. Zametki o Buxarskoy chasti dolino Zeravshana. ITORGO, t. I, vup. II, 1900, S. 121-314) Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da (X asr) tilga olingan ko'pgina ariqlar hamon o'sha eski nomlari bilan atalishi qayd etilgan.

Kitobga Zarafshon vodiysidagi bir necha yuz ariq, shahar va qishloq nomlarining ro'yxati ilova qilingan. Bu esa toponimika fani uchun qimmatli boy tarixiy-geografik material bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning tarixiy geografiyasini, jumladan toponimiyasini o'rganishda inqilobdan oldin va sovet davrida ijod qilgan tarixchilar orasida V.L.Vyatkin alohida o'rin tutadi. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan tarixiy-geografik asarlarida ko'pgina toponimlarning kelib chiqishi haqida so'z boradi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijod qilgan rus sharqshunoslari orasida O'rta Osiyoning, jumladan O'zbekistonning tarixiy geografiyasini va toponimikasini o'rganishda akademik V.V.Bartold ijodi alohida o'rin tutadi. Bartold asarlarida O'zbekistondagi yuzlab tarixiy geografik nomlar tilga olingan, bir qancha toponimlarning etimologiyasi keltirilgan, olim, masalan, **Bag'dod** shahri (Iroq) nomini «Xudo in'omi» deb izohlagan. Chunki qadimgi eroniy tillarda, jumladan sug'd tilida *bog* (fag-bag) «xudo», «yaratuvchi» degan ma'noni ham bildirgan. Birgina shu misol vaqt o'tishi bilan atamalarning ma'nosi o'zgarib turishini ko'rsatadi. Yana bir misol. Ilk o'rta asrlarda *dehqon* (dehigon) deganda «zamindor», «katta yer-mulkka ega bo'lgan boy» tushunilgan.

V.V.Bartold asarlarining 9 jildli har birida (Moskva, 1963-1977) *berun, vaqf, varg', vixara, diz, qarshi, rabod, rabot, rustaq, to'rko'l, chorsu, shahriston, hisor, o'rchin* kabi yuzlab qadimiy geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy atamalar tilga olingan va imkon qadar zohlangan.

O'zbekiston toponimiyasini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan har bir mutaxassis M.S.Andreev, S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, B.A.Ahmedov, A.R.Muxammadjonov, M.Ye.Masson, O.D.Chexovich, A.A.Semenov, O.A.Suxareva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan O'zbekiston toponimlarining ma'nosi, kelib chiqishi haqida talay materiallar topadi.

O'zbekiston toponimiyasini o'rganishda geograflar ham katta hissa qo'shganlar. Professsor N.G.Mallitskiyning ayrim atamalar to'g'risidagi maqolasi, xususan Toshkentning mahallalari va mavzelari nomlari haqidagi asari toponimika uchun qimmatli materiallardir.

O'zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H.H.Hasanovning xizmatlari katta. Olimning «Geografik nomlari imlosi» (1962) «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965) «Geografik nomlar siri» (1985), «Yer tili» (1977), «Geografiya atamalari lug'ati»(1966), «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «Sayyoh olimlar» (1981) kabi asarlarida, ko'plab

risolalari va maqolalarida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda joy nomlarini o'rganishga qadimdan ahamiyat berib kelinganni qayd qilingan. Ayrim toponimlarning etimologiyasi aniqlangan. Olim tarixiy, geografik nomlarni izohladi, dunyodagi ko'plab nomlarning hozirgi o'zbek tilida yozilishi (transkripsiyasi) qonuniyatlarini ishlab chiqdi, eski o'zbek geografik terminologiyasini zamonaviy, ilmiy terminologiya asosida qayta ishladi: Masalan, *uqiyonus* – okean, *ota* – orol, *yonartog'* – vulkan, *ko'rfaz* – qo'ltiq, *jug'rofiya* – geografiya kabi.

Tilshunos toponimistlardan professorlar T.Nafasov, Z.Do'simov, dotsent N.Oxunov O'zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nomlanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo'shdi va ko'plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar.

O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri T.Nafasov O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik sohaga oid bir qancha risola, maqolalar chop etdi. Uning «O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati»da (1988) asosan Janubiy O'zbekistondagi mikrotoponimlar etimologiyasi yoritilgan. Shu bilan birga mintaqadagi **Boysun, Kesh, Chag'oniyon, Qarshi** kabi ba'zi tarixini toponimlarga ham etimologik izoh berilgan.

Z.Do'simov Xorazm toponimiyasini o'rganib joy nomlarining tarixi va etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasida ishladi. «Xorazm toponimlari» monografiyasida (1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi.

OYKONIMIYA

Oykonim deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlari tushuniladi. Shahar yirik aholi punkti bo'lib, iqtisodiy, ma'muriy va madaniy markaz sanaladi. Shahar so'zi sanskritcha «davlat», «mutlaqi hokimning qarorgohi» ma'nosini anglatadi. Qadimda har qanday yirik aholi punkti, xususan shahar atrofi devor, hatto ichma-ich ikki qavat devor bilan o'ralgan edi. *Ichki shaharning* (Xorazmda Ichangal'a) – *shahri darun, tashqi shahar* (Xorazmda Dishan qal'a) – shahar berun deyilishi shundan.

Qadimgi turk tilida shahar – *baliq* deyilgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy tilda «shahar» o'rniga *kend* so'zi ishlatilishini, lekin o'g'iz qabilasi vakillari *kend* deganda qishloqni tushunishlarini aytgan, hozir ham o'g'iz guruhiga kiradigan ozarboyjon tilida qishloq o'rniga ***kend*** so'zi ishlatiladi.

Qishloq aslida kichikroq aholi punkti. Qishloq «qishlanadigan joy» ma'nosida bo'lib, *yayloq* (yaylov) – «yozda turiladigan joy» so'zining aksi.

Aholi punktlari aholisining soni va iqtisodiy ma'muriy ahamiyatiga qarab *shaharcha* (posyolka), *ovul* (kichik qishloq yoki chorvadorlar qishlog'i), *qo'rg'oncha* (katta qishloqdan ajralib chiqqan qishloq), *mahalla* (mustaqil qishloq yoki katta qishloqning bir bo'lagi) kabi turlarga bo'linadi.

O'zbekistonda taxminan 13000 aholi punkti bor. Bundan bir necha o'n yil ularning soni bundan ancha ko'p bo'lgan. Ko'pincha qishloqlar yiriklashtirilgan yoki aholisi boshqa joylarga ko'chirilgan. Biroq «ko'l qurisa ham nomi qurimaydi» deganday, bunday maskanlarning nomlari turli yozma yodgorliklarda, arxivlarda saqlanib qolgan.

Shunday qilib, O'zbekiston oykonimlarining umumiy soni 25-30 mingga yetgan. Bunday katta miqdordagi toponimlarni ilmiy tahlil qilish oson emas.

Oykonimlar toponimiyaning eng o'zgaruvchan tarmog'idir. O'lka tabiatining xususiyatlari, jamiyat hayotida asrlar davomida ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa-voqealar, aholining kasb-hunarlari nomlari, aholi punktini birinchi bo'lib o'zlashtirgan yoki unga asos solgan kishining ismi, yoyinki, unda qanday qavm vakillari yashagani yoki yashayotganiga qarab urug'-qabilaning nomi – etnonim shahar-qishloq nomlarida o'z aksini topadi. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston qadimiy dunyo madaniyat markazlaridan biridir. Tarixi uzoq mamlakatlarning toponimlari ham qadimiy bo'ladi. *Buxoro, Samarqand, Romitan, Choch, Termiz, Xiva, Zomin, Ishtixon, Shopurkon* kabi shahar va qishloqlarning nomlari ming yilliklar bilan o'lchanadi.

Oykonimlar barcha toponimlar orasida tarixiy, lisoniy (lingvistik) jihatdan eng qimmmatli yodgorliklar sanaladi. Bu nomlarning ma'nosi, qaysi tilga oidligi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham kelib chiqishi uzil-kesil hal qilingan deb bo'lmaydi. Toponimlarning etimologiyalari haqida bayon etilgan fikrlar soni ularning

aniqlik darajasiga to'g'ri mutanosib emas, degan qarash bor. Buning ma'nosi shuki, aytilgan mulohazalar ko'paygan sari etimologiyaning aniqlik darajasi ham orta boradi.

Aholi punktlari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Shuning uchun ham shahar-qishloqlarning tarkib topishi, joylashishi, atalish qonuniyatlarini konkret tabiiy-tarixiy va siyosiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Qishloq-shaharlar nomlarini ayrim-ayrim o'rganishdan ko'ra, ularni guruh-guruhlarga bo'lib, tasniflash va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Aholi punktlari nomlarini asosan 2 yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. *Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar.*
2. *Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.*

1. *Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar* deganda, suv obyektlari nomlariga, joyning geomorfololik shakllariga, o'simlik-hayvon nomlariga va boshqa tabiiy-geografik sharoitga qarab atalgan aholi punktlari tushuniladi.

a) **gidrooykonimlar,** ya'ni suv obyektlariga qarab atalgan aholi punktlari nomlari tarkibida *anhor, nahr, arna, ariq ajdoq, bodoq, buloq, gurillovuq* («sharshara»), *daryo, jo'y, jo'ybor, jo'yak, kanal, koriz – keriz, ko'l, mashat – bashat, ob, ro'd, ro'dbor, sardoba, sel, soy, suv, tagob, chashma, sharshar (sharshara, sharloq, sharillovuq), o'zak, qoq, quduq* kabi atamalar uchraydi. Bunday oykonimlarni Respublikaning hamma joyida uchratish mumkin, chunki aholi punktlari suv bor joyda barpo etiladi. Qishloq va shaharlarning ariq-soylar bilan atalashi ham shundan. *Ariq, buloq, ko'l, soy, suv, quduq* kabi atamalar aholi punktlari nomlari tarkibida 50 martadan 100 martagacha takrorlanadi.

Suv obyektlaridan nom olgan *gidrooykonimlar: anhor – nahr – Anhor, Ulug'nor, arna – Arna, Arnaovul, Arnasoy, ariq – Ariqboshi, Beshariq, Jarariq; buloq – Jarbuloq, Oybuloq, Oqbuloq; daryo – Daryobo'yi, Daryoliq, Sirdaryo; yop – Bo'zyop, Kattayop, Qumyop; jo'y, jo'ybor* «ariq», «anhor» – *Jo'yimulk, Jo'ysafed, Jo'ybor (jo'yak* ham *jo'y* so'zining kichraytirilgan, diminutiv shaklidir); *kanal-Kanalbo'yi, Kanalobod, Kanalpasti, koriz – Saksonkoriz, Koriz, Keriz; ko'l – Ayronko'l, Oydinko'l, Oqko'l; mashat* – (asli-boshot) «suvi qumga singib ketadigan kichik buloq» – *Mashat, Uchmashat; ob – Labiob, Duoba, Obiravon, ro'd, ro'dbor «daryo», «kanal» Ro'dak, Labiro't, Ro'dasoy; sardoba – Sardoba* (bir necha qishloq nomi); *saqa* «kanalning bosh

qismi» – *Toshsaqa, Saqachi; soy – Bo'stonsoy, Honsoy; suv – Ko'zsuv, Bo'laksuv, Qorasuv; chashma – Sarichashma, Chashma; sharshara* (sharilloq, sharillovuq) «sharshara» – Sharshar, Sharilloq; *o'zak* «suvi ba'zan qurib qoladigan kichik ariq» – *Ko'ko'zak, Qizilenero'zak, Sario'zak; qoq* «cho'ldagi katta ko'lmak suv» – Toshqoq, *Qizilqoq; quduq – Botirquduq, Oltinquduq, Otquduq* va hokazo.

b) *Orooykonimlar*, ya'ni rel'ef shakllari nomlarini bildiradigan oykonimlar tarkibida *adir, bel, dara, dahana, do'ng, jar – yor, kamar, ko'tal, tall, tepa, teva, tosh, tog' – tov, chosh, o'y, qapchig'ay, qo'ton, qiya, qir, qum* kabi atamalar (indikatorlar) qayd qilinadi. Jar terimini 60 martadan ko'proq, tosh atamasi esa qariyb 100 marta takrorlanadi. Ko'p borada tepa atamasi «rekord» qo'ygan; buning asosiy sababi shundaki, urug' – aymoq ma'nosida *to'p – to'pa – to'ba* atamasi jonli holda *tepa* bo'lib ketgan (masalan, Do'rmonto'pa, Naymanto'pa Do'rmontepa, Naymantepa shaklini olgan).

Rel'ef shakllaridan nom olgan orooykonimlar: adir – *Bo'lakadir, Qirmoq; bel – Beltov, Beltepa, Belariq; dara – Omondara, Palandara; dahana – Oqdahana, Qoradahana; do'ng – Do'ng, Do'ngariq, Do'ngovul; jar (yor) – Ko'kjar, Omborjar, Jomonjar, Ko'yganyor, Oqyor, kamar – Tarkamar, Kamar* (10ta), *Kamarqishloq, Qorakamar; ko'tal – O'zbekko'tal, Tojikko'tal; tal – Tallak, Tallashqon; tepa – Bo'ritepa, Oqtepa, Zartepa; tosh – Dovtosh, Qoratosh; tog' (tov) – Bobotog', Yetimtog', Qiziltov, Saritov; Choshtepa «sun'iy tepalik» – Oqqapchig'ay, Qapchug'ay;* qo'ton («shamol kam tegadigan chuqurroq soylik») – *Qirqo'ton, Qoraqo'ton; qiya – Ayriqiya, Qoraqiya; qir – Jetimqir, Qoraqir* va hokazo.

v) fitooykonimlar, ya'ni o'simlik nomlari bilan atalgan opkonimlar tarkibida yovvoyi o'simliklardan *ajriq, archa, bodom, bodomcha, burgan, lolalana, lola, pista, so'kso'k (saksovul), turang'i, shilvi, shuvoq, evalak, arman, yulg'un, jing'il, yantoq, qamish, g'umay;* madaniy o'simliklardan *anjir, anor, arpa, beda, bodom, gujum jida – jiyda, lola, olvoli, olma, paxta, pista, tarvuz, tariq, terak, tol, tut, uzum, shaftoli, qovoq, qovun* kabilar nomlari uchraydi. Fitooykonimlar u qadar ko'p emas. Respublikadagi barcha aholi puntlari nomlarining 1 foizidan sal oshadi va bu tushunarli holdir. Chunki bog'-rog', paxta, g'alla va ekinlar bilan band vohalarda paxtazorlar ham, mevazorlar ham, polizlar ham kishining e'tiborini alohida tortadigan va toponim hosil qiladigan darajada farqi bilan ajralib turmaydi. Shunga qaramasdan, sobiq It-

tifoq davrida Respublikada 50 dan ortiq aholi punkti *Paxta, Paxtakor, Paxtakon, Paxtakesh, Paxtakurash, Paxtachi, Paxtaqaynar, Paxtaqishloq* kabi nomlar bilan ataladigan bo'ldi.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, *ajriq (Ajriqti)*, archa (*Archazor*), bodom, bodomcha (*Bodomzor, Bodomcha, Bodomchali*), burgan (*Burganlik*), *do'lana* (*Do'lana*), *pista* (*Pistamozor), so'kso'k* (*Saksovul, So'kso'k*), shilvi (*Shilvi*), shuvoq (*Shuvoqzor*), evalak (*Evalak), erman* (*Erman*), *yulg'un* (*Yulg'unzor*), *yantoq (Qorayantoq), qamish* (*Oqqamish, Sariqqamish*), *qiyoq (Qizilqiyoq), qo'g'a (Qug'ali), g'arov* (G'arovli), *g'umay (G'umayli)* kabi yovvoyi o'simliklarning nomlari bilan atalgan shahar va qishloqlargina tarixiy, tabiiy geografiya bo'limining obyekti bo'lishi kerak.

Lekin toponimistlar har qanday madaniy o'simliklardan nom olgan aholi punktlarini fitooykonimlar jumlasiga kiritadi. Bu unchalik to'g'ri emas, chunki madaniy o'simliklar, turli ekinlar va daraxt-butalar dehqonchilik hamda bog'dorchilik manbai bo'lib, iqtisodiy geografiyaning obyekti hisoblanishi lozim edi.

Lekin biz ham an'anaga amal qilib, madaniy o'simliklar nomlari negizida yasalgan oykonimlarni tilga olib o'tamiz: *Anjirdi, Anorzor, Arpa, Arpako'l, Arpaliko'l, Arpapoya, Bedazor, Bedapoya, Beshterak, Beshtol, Beshqovoq, Bodomzor, Galatut, Gujumli, Gujumdi, Jigdazor, Jiyda, Jiydabuloq, Jiydamahalla, Jiydamozor, Jiydaqishloq, Jiydali, Lola, Lolazor, Mingo'rik, Mingchinor, Mirzaterak, Nayzaqayrag'och, Olvolizor, Olmazor, Olmali, Olchali, Oqterak, Paxtazor, Paxtakesh, Paxtakor, Paxtakurash, Paxtako'l, Paxtafront, Paxtachi, Paxtaqaynar, Paxtaqishloq, Pistali, Pistalik, Sertut, Tariq, Terak, Terakzor, Terakli, Teraktagi, Tol, Toldi, Toldiquduq, Tolzor, Tolli, Tolliovul, Tollisoy, Tolliq, Tolliqishloq, Tolliqo'rg'on, Tolmazor, Tut, Tutzor, Tutli, Uzumzor, Shaftoli, Shaftolizor, Yakkaarcha, Yakkatol, Qatorterak, Qatortol, Qartortut, Qizilgul, Atirgul, Qiziltol, Qiziltut, Qorayog'och, Qorajiyda, Qoratol, Qushyog'och, Qo'shchinor* va h.k. Bundan tashqari *bog'* (Bog'zor, Bog'obod, Bog'iston kabi), *gul* (Gulzor, Guliston, Gulshan) kabi so'zlardan tarkib topgan oykonimlar ham anchagina uchraydi.

Umuman olganda, gidrooykonimlar hamda orooykonimlarga nisbatan fidooykonimlar kamroq uchraydi.

Buning asosiy sababi shundaki, inson o'z hayoti uchun birinchi galda qandaydir suv manbai yaqinidan makon tanlagan va manzilni ham ko'proq shu suv manbai nomi bilan atagan, aholi punktining

tevarak-atrofdan farq qiladigan geomorfologik xususiyati shahar-qishloq nomi uchun muhim ko'rsatkich hisoblangan. Hamma joy tog'u toshlardan iborat bo'lgani hududda *tog'* so'zi joy nomi shaklida ko'p uchramaydi yoki hamma maydonda bug'doy ekiladigan o'lkada ***bug'doyzor*** toponimi xarakterli hisoblanmaydi. Bog'u-rog'lardan iborat. O'zbekistonda ***bog'*** so'zi oykonim shaklida son-sanoqsiz takrorlanavermaydi.

g) *Zootoponimik oykonimlar* – hayvon nomlari bilan atalgan aholi punktlari. Bunday oykonimlar tarkibida *ayg'ir, baliq, bahrin, bedana, biya, burga, burgut, buvra, bug'ra, bo'ri, do'lta («sirtlon»), ilon – jilon, karp, laylak, malax*(tojikcha, tumanday yopirilib keladigan chigirtka galalari), *ot, tuya, chag'a, chigirtka, chovli, shag'ol, echki, eshak, qarsak, qarchig'ay, qarg'a, qulon, g'ajir* (g'ajimoq-fe'lidan o'limtikxo'r beso'naqay qush, tasqara ham deyiladi)kabi nomlar uchraydi. Bunday nomlar hammasi bo'lib, 1 foizdan oshmaydi.

Zootoponimlarni farqlashning qiyinligi shundaki, bir qancha urug'-aymoq vakillari falon hayvondan tarqalganmiz deb, ularni muqaddas bilishgan. Bu toponimik hodisa «totem» deb ataladi. Masalan, *bahrin* (lochinning eng olg'ir turi) *bug'ra* – buvra, *ilon, chovli* (ov qushi), *shag'ol* (chiyabo'ri), *echki, qarsaq* (cho'l tulkisi), qulon (yovvoyi ot) kabi urug'lar ma'lum. Burqut degan urug' ham asli «burgut» ma'nosini bildirsa kerak. Masalan, qozoyoqli degan o'zbek urug'i bor; uning tamg'asi shaklan g'ozning panjasiga o'xshaydi. G'oz qadimgi turkiy tilda, hozirgi qozoq, qirg'iz va tojik tillarida ham qaz deyiladi. Etnonim inobatga olinsa, burqut urug'ining nomi burgutdan olinganini payqash qiyin emas.

Uzoq o'tmishda kishi hayoti tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lganini esga olsak, tabiiy geografik nomlar ilgarilari hozirgiga nisbatan katta o'rin tutganini tasavvur qilish mumkin. Hayvonlarning nomlaridan kelib chiqqan aholi punktlari – zooykonimlarni esga olaylik: *Ayg'ir, Ayg'irtepa, Baliqli, Baliqliko'l, Bahrin, Bedana, Beshechki, Biya, Burgali, Burgalik, Burgutqala, Bo'risoy, Bo'ritepa, Do'lta, Do'ltali, Ilonli, Karpko'l, Laylaklar, Laylakon, Laylako'ya, Laylakxona, Oqbo'yra, Oqechki, Malaxteza, Chag'ali* (chag'alay), *Chigirtkali, Chovli, Chovlisoy, Shag'ol, Shag'olak, Qarsaqli, Qarchig'a, Qarchig'ay, Qarg'a, Qarg'alar, Qarg'atepa, Qulonxona, Qulonchi, Qulonqoq, G'ajir* va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, hayvon nomlari bilan yuritiladigan qishloq va shaharlar ko'p emas. Bundan tashqari bu tipdagi oykonimlarning chindan

ham biron hayvon turi nomi bilan atalganini to'la ishonch bilan aniqlash qiyin. Buning sababi shundaki, har qanday hayvon nomi boshqa, ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lishi mumkin. Masalan, *ayg'irtepa* deganda «katta tepalik» tushunilishi mumkin, yoki ***baliq*** so'zining qadimiy ma'noda «shahar» bo'lgani, *bahrin, burqut* (burgut), *ilon* (jilon), *shag'ol* (shaqol), *qarg'a, qulon, oq qo'yli, qora qo'yli*, kabi urug' nomlari ham bo'lgan. Alqor, Karkidon kabi oykonimlarning *arxar* (alqor), *kark* (karkidon) singari hayvon nomlaridan kelib chiqqanini paleozoologik tadqiqotlar isbotlashi mumkin.

2. *Kishilarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.*

Toponimika tarixiy – iqtisodiy geografiyaga xo'jalik faoliyatining qadimiy turlari geografiyasini, qadimda keng rasm bo'lgan kasb – hunar nomlarini, ko'hna savdo yo'llari va o'tmishda qazib chiqarilgan yer osti boyliklari geografiyasini aniqlashda katta yordam berishi mumkin. Kishilarning xo'jalik faoliyatini, mehnat taqsimotini ko'rsatadigan qadimgi kasb-hunar nomlari bilan bog'liq oykonimlardan misollar keltiramiz: *Aravakashlar, Aravachilar, Asalchi, Astarbof, Attoron, Ayoqchi*, (idishhtovoq ustasi) *Ayoqchiovul, Bog'bon, Bojbon, Baydoqchi*, («bayroqchi») *Baqirchi*, («miskar») *Baliqchi, Baliqchilar, Baliqchimahalla, Bordonchi, Baxmalbof, Baxshilar, Baxshiyon, Baxshitepa, Bofondalar*, («to'quvchilar») *Bilamixchi* («atala – bo'lamiq sotuvchilar»), *Binokor, Bichoqchi*, («pichoq ustasi» – bir qancha turkiy tillardagi kabi Buxoro atroflarida ham pichoqni bichoq deyishadi. Aslida ham shunday, ya'ni bichoq so'zi bichmoq fe'lidan kelib chiqqan), *Bo'zachi, Bo'zchi, Bo'yrabof, Bo'yrabofcha, Bo'yrachi, Bo'yoqchi, Vaximkor* (vaqfkor, vaqf yerlarda ishlaydigan dehqon), *Gilambof, Go'spandjallob* (qo'y olib sotuvchi savdogar), *Dabboqi* (kunchi) *Darg'a, Darg'aovul, Darg'alilar* (darg'a – kema kapitani) *Darbozlar, Dorigar* (dori-darmonlar tayyorlovchi mutaxassis), *Dodxo* (dodxo), *Dasturxonchi Devorzan* (paxsachi), *Degrez, Dehqon, Dehqonobod, Dugdo'z, Dukchi, Dukchilar, Dukchilik, Jevachi* (sovutchi), *Yomchi* (yamshik), *Zargar, Zargarlar, Zargaron, Ipakchi, Ishchi-xizmatchi, Ishchilar, Kamongaron* (o'q – yoy ustalari) *Konchilar, Kirakashxona, Karvonboshi, Karvonguzar, Karnaychi, Kosagar* (kosa ustasi) *Kosagaron, Ketmonchi, Kigizchilik, Kulol, Kulolo, Kulolon, Kuloltepa, Kundakor* (kunda ustasi), *Ko'nchi, Ko'nchiboy, Mokusozon*, (moki ustasi), *Mamiqgul* (Paxtakor) (Qoraqalpog'iston), *Mergan, Mergan-*

lar, Mergancha, Miltiqchi, Mirob, Miroblar, Mixchagar (mix yasovchi usta) *Mixchagoron, Mizado'zon* (etikdo'zlar), *Murdasho'ylar, Navkar, Nag'orachi, Naqqosh, Nalbandon* (taqachilar) *Namadgaron* (kiyiz ustalari) *Nonvoyon* (nonvoylar), Nospurush, Nurchilar (elektrchilar) (yangi oykonim), *Olachabof* (olacha to'quvchi), *Podachi, Polizchi, Ponsat* (tojikcha ponsad «beshyuz»-amaldor), *Paxtakesh, Paxtakor* (ko'p uchraydi), *Paxtachi, Pillakor, Pillakesh, Pichoqchi, Piyozkoron, Piyozchilik, Po'latchi, Po'stindo'z, Sabzikor, Sobungaron, Sovungar, Saqachi* (kanalning bosh inshooti ustasi – Xorazm), *Salloq* (mol so'yib terisini shilib oladigan qassob), *Sartaroshlar, Somsapaz, Sohibkor, Surmachi, Sutchilar, Tabib, Tandirchi, Tanobchi, Taqachi, Taqido'z* (do'ppi tikuvchi), *Temirchi, Tirgaron* (o'q-yoy ustalari), *Tovoqchi, Tovuqchi, Ustaovul, Ustalar, Ustaliq* (ustalar ma'nosida), Boyliq (boylar), Xo'jaliq (xo'jalar) degani, *Harrotlar* (taroqchilar), *Charmgar* (ko'nchi), *Charmgaron, Chegarachi, Chig'irchi, Chiqirchi, Chitgaron* (chitga gul bosuvchilar), *Chitkarlar, Cho'yinchi* («degrez» – cho'yanchi), *Sholikor, Sholikorlar, Sholichi, Shifokor, Egarchi, Elchi, Yuzikchi, Yumushkor, O'qchi, O'roqchi, O'rmonchi, Qamchinbof, Qamishchi, Qassoblar, Qassobon, Qiymado'z* (qiyqimlardan quroq buyumlar tikuvchi), *Qushbegi, Qushchilar, Qutisozon* (sandiqchilar), *Qo'rchin* (o'q-dorilar ombori qorovuli), *Qo'chqorchi, G'aznachi* (xazinachi), *G'allakor, G'allachi, G'ishtchilar. Arpapoya, Anorzor, Anjirbog', Bog'zor, Bozorboshi, Sarbozor, Bozorjoy, Bedazor, Galaosiyo, Qo'shtegirmon, G'allakor, Lalmikor, Paxtakor, Karvonsaroy, Madrasa, Machit, Shakarqamish, Sholipoya* kabi ko'pdan-ko'p oykonimlar o'tmishning iqtisodiy, sotsial-iqtisodiy geografiyasi namunasi sanaladi.

GIDRONIMIYA

Barcha suv obyektlarining nomlari *gidronimlar* deyiladi (yunoncha «hidro» – suv, «nom» – nom). Okean, dengiz, ko'l, soy, jilg'a, quduqning har biri suv obyektidir. Suvsiz hayot yo'q. Yer sharida dastlabki hayot ham suvda, okeanda paydo bo'lgan degan fikr bor.

Toponimikaning bo'limi – gidronimika suv obyektlarining nomlarini, ularning kelib chiqishini, atalish qonuniyatlarini o'rganadi.

Yer shari yuzasining qariyb 71 foizini 4 ta – *Tinch, Atlantika, Hind* va *Shimoliy* muz okeanlari egallagan. Okeanlarning ayrim qismlari *dengiz* deyiladi. Quruqlikda suv to'lib qolgan chuqurliklar *ko'llar*

deb ataladi. Ba'zan o'ta katta ko'llar *dengizlar* ham deb yuritiladi (Kaspiy dengizi, Orol dengizi, Shimoliy Amerikadagi *Buyuk ko'llar*, Rossiyadagi *Baykal ko'li*).

Oqar suvlar katta-kichikligiga qarab bir necha turga bo'linadi. Yer osti va yer usti suvlaridan hosil bo'ladigan katta oqar suvlar *daryolar* deyiladi. Dunyodagi eng katta daryolar sifatida Janubiy Amerikada *Amazonka*, Shimoliy Amerikada *Missisipi*, Xitoyda *Yantszi*, Rossiyada *Ob, Yenisey, Volga*, O'rta Osiyoda *Amudaryo, Sirdaryo* qayd etilgan.

Kichikroq daryolar *soylar*, kichik soylar esa *jilg'alar* deyiladi. Daryo yoki soyga qo'shiladigan suvlar *irmoqlar*, daryo yoki soydan ajralib chiqadigan ariq yoki suvlar esa *tarmoqlar* deb yuritiladi.

Qo'lda qaziladigan katta suv yo'li *kanal* yoki *anhor* (Xorazmda ***arna***) deb, kichik sun'iy suv yo'li *ariq, rud* (ro'd) deb ataladi.

Bu so'zlardan har biri Respublikamiz hududida bir qancha gidronimlar tarkibida uchraydi. Masalan, *nahr* atamasi *nar* yoki *nor* shaklini olgan. Hozirgi Samarqand viloyatidagi Zarafshon daryosidan boshlangan *Narpay* kanali o'rta asrlarda *Nahri Fay* deb atalgan, undan sal yuqoriroqdan suv oladigan bir kanal hozir *Payariq* deb yuritiladi, bu – Nahri Fay gidronimining o'zbekcha shaklidir.

Andijon viloyatida *Shahrixon* soyidan suv oladigan *Ulug'nor* kanali asli *Ulug'nahr* demakdir.

Toponimistlar gidronimlarni eng qadimiy toponimlar deb baholashadi. Haqiqatan ham shunday. Masalan, **Amudaryo** bilan **Sirdaryoning** qadimiy nomlari har qanday osori atiqa yodgorliklarining yoshi bilan bellasha oladi.

O'rta Osiyodagi eng yirik daryo – Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot** (miloddan avvalgi V asr) asarlarida **Araks** deb, keyinroq (miloddan avvalgi I asr – milodning I asrida) o'tgan yunon tarixchilari asarlarida *Oks* (yoki Oksos) deb atalgan. Olimlar ana shu Oks (ba'zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi – *O'kuz* «daryo» so'zining o'zginasi deb hisoblaydi. *Avesto* va boshqa tarixiy manbaalarda Amudaryoning *Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa* degan qadimiy nomlari ham uchraydi. Arablar uni **Jayxun** «jo'shqin (daryo)» deb atashgan. Jayxun yahudiylarning muqaddas kitobi **«Tavrot»da** tilga olingan **Jixon** daryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor.

Rus olimi V.V.Bartold arablar Jayxun bilan Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi **Jayxon** va **Sayxon** daryolari nomlari bilan atashgan bo'lsa kerak deydi. O'rta asr tarixchisi **Gardiziy** «Jayxun har qanday katta daryoni bildiradigan turdosh ot» degan edi. Bu to'g'ri fikrga o'xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta'minlab turgan *Shahrud* (Shohrud emas) – «rudi shahri Buxoro»ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud («shaharga suv beradigan anhor») ning quyi qismi Jayxun deb atalgan, Shahrud kanalidagi uchta to'g'on boshining biri ham Jayxun deyilgan.

Amudaryoning qadimiy eroniy nomi **Vaxsh** (Vaxshob) bo'lgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Abu Rayhon Beruniy Vaxsh xorazmliklarda suv parisi – malak nomi deb yozgan. Professor H.Hasanov ma'lumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoni hozir ham *Vakshu-nada* deb atashar ekan. O'rta Osiyoda *Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara* degan bir nechta joylar bor.

Amudaryoning hozirgi nomi O'rta asrlarda mavjud bo'lgan **Omul** (Omuy, Omuyya) shahri (hozirgi Chorjo'y) nomidan olingan deyishadi. Shahar daryodan nom olgan bo'lishi ham mumkin. Akademik V.V.Bartold «Bu so'z ariylardan ham oldingi amard xalqi nomidan kelib chiqqan bo'lsa kerak» degan farazni oldinga suradi.

Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaror, turg'un narsaning *amul* deyilishini aytib o'tish mumkin («Devonu lug'at-it turk», I tom, 104-bet).

Tarixiy manbalarda Amudaryoning *Termiz daryosi, Kalif daryosi, Arang, Raxa, Aranga, Urganch daryosi, Xorazm daryosi* kabi nomlari uchraydi.

Sirdaryoning nomlari ham ko'p bo'lgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida *Yaxartes* (Yaksart), ba'zan *Tanais*, zardushtiylarning muqaddas kitobi «**Avesto**»da Danu, Yaosha, X asrda yozilgan «Hudud ul-olam» qo'lyozmasida Xashart, Runik turkiy yozuvlarda **Yenchuo'guz,** Firdavsiyning «**Shohnoma**» sida va Hamdalloh Qazviniyning «**Nuzhat al-qulub**» («Qalblar huzuri» 1339 yil) asarida *Gulzarriyun*, arablar kelgandan keyingi ko'pgina solnomalarda *Sayxun*, arab geografi Ibn Xurdodbeh asarlarida (IX asr) *Xishart* yoki *Qanqar*, Beruniyda *Xasart* shakllarida tilga olingan. Shu bilan birgalikda u qaysi yerdan oqib o'tishiga qarab, *Obi Farg'ona* (Farg'ona daryosi), *O'zgan daryosi*, *Obi Xo'jand*, *Nahr ash-Shosh* (Shosh yoki Choch daryosi), *Banokat daryosi* kabi nomlar bilan atalgan. Shuni aytish

kerakki, *Yaxartes* va *Yaksart* ham, *Xashart* va *Yenchuo'guz* ham Marvarid (Inju) daryosi degan ma'noni anglatgan.

Xo'sh, daryoning hozirgi nomi – Sirdaryo qachon paydo bo'lgan? Rim tarixchisi **Pliniy** (I asr)-daryoni skiflar (saklar) *Silis* deydilar deb yozgan edi. Ba'zi olimlar (V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanov) Silis – *Sir* so'zining aynan o'zginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondanoq, o'rta va yuqori oqimlarida **Yaksart,** quyi oqimida **Silis(Sir)** deb atalgan. XIII-XIV asrlarda Sirdaryo etagida **Jand** shahri yaqinida *Jo'jixonning* o'g'illari va nabiralarining o'rdasi **Siro'rda** deb atalgan. Bu faktlar daryoning qadimiy nomlaridan biri 2000 yil davomida xalq og'zida saqlanibgina kelmasdan, ko'chmanchi o'zbek qabilalari *Movarounnahrni* bosib olgach, asta-sekin daryoning asosiy nomi (Sirdaryo) bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Sirdaryo so'zining ma'nosi nima? Daryo nomi sir, ya'ni «rang, bo'yoq», **«Sariq daryo»** (loyqa suvli daryo), «Serob» (Sersuv), **«Sirt-daryo»** (tog' sirtlaridan, tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma'noni bildiradi deyuvchilarning fikri noto'g'ri ekanligini professor H.Hasanov aytib o'tgan edi. Bu azim daryo shu atroflarda yashagan *Sar* (silis – sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin.

Zarafshon haqiqatan «Zar sochuvchi» daryo. Daryo o'zanidagi qumda oltin zarralari bo'lganidan daryo shunday nom olgan. Po'stak yoki uzun patli gilam ustiga qum to'kib, bosim bilan yuvganda, oltin zarralari jun oralarida qolgan. Shu yo'l bilan qumdan oltin ajratib olishgan. Lekin Zarafshon daryoning keyingi asrlarda paydo bo'lgan nomi. Miloddan oldingi yunon tarixchilari asarlarida *Politimet*, o'rta asrlarda *Obi Ko'hak* – Ko'hak suvi deb atalgan.

Ko'hak – Samarqand shahri yaqinidagi **Cho'ponota** tepaligining tojikcha nomi (ko'hak – tog'cha, qir). Bu tepalik arab geograflaridan *Ibn Havqal* (X asr) asarlarida **Jabali Ko'hak** deb atalgan (arabcha jabal – «tog'»). Daryoning Namik, Ro'di Masof, Nahri Sug'd (Obi Sug'd), Ro'di Sharh, Haramkom, Rudi Somjon kabi nomlari ham bo'lgan.

Qashqadaryo gidronimi katta suv obyektlarining nomlari qadimiy bo'ladi degan fikrning to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Bu daryo nomining kelib chiqishi haqida qancha fikrlar bildirilgan bo'lsa ham gidronim etimologiyasi to'g'ri aniqlangan deb bo'lmaydi. *Qashqa* so'zining ma'nosi ko'p. Akademik V.V.Bartoldning Qashqadaryo **Kesh** (Shahrisabz) shahri nomining fonetik o'zgarishi oqibatidir, degan fikri to'g'riga

'xshaydi. Kesh shahri nomi asli Kash bo'lgan, chunki shaharning piteti «**Kashi-dilkash**» edi. Arab geograflari asrlarida *Qashqadaryo* (X sr) *Keshkiro'd* deb, Temur davrida **Xashqa** (Xashqaro'd) deb yuritilgan va keyinchalik *Qashqadaryo* bo'lib ketgan.

Surxondaryo nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha olayotir. Tojikcha «Qizil suv» ma'nosida bo'lsa, *surxob* deyilishi kerak di (daryoning bosh qismi – **Denov** shahrigacha *Qizilsuv* ataladi). *urx* yoki *surxi* degan turkman urug'i ham bor. O'rta asrlarda, Amir emur tarixida ham **Chag'onrud** deb atalgan. V.V.Bartold mo'g'ul ilida chag'on «oq» ekanini aytgan (ro'd-daryo).

Respublikamiz daryolarini havzalarga bo'lsak, ko'pchilik daryolar rdaryo (*Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, Kalas, Aravonsoy, Oqbura, Isfayramsoy, Shohimardon, So'x, Isfara, Xo'jabaqirg'an, Oqsuv, Poshshota, Oqsuv, Kosonsoy, G'ovasoy*) va Amudaryo havzasiga (*Zarafshon, Qashqadaryo, G'uzordaryo, Surxondaryo, To'polondaryo, Sherobaddaryo*) kiradi.

Bu daryolar, soylarning qancha irmoq va tarmoqlari bor. Bulardan shqari, qancha ko'llar (*Orol dengizi, Arnasoy ko'llari* va b.), suv mborlari (*Kattaqo'rg'on, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Chorvoq, shkent dengizi, Quyimozor* va b.), son-sanoqsiz quduqlar ham mavjud.

Quduqlarni hisobga olmaganda ham qolgan gidronimlardan har rining etimologiyasi haqida to'xtalib o'tishning iloji ham hojati am yo'q deb hisoblaymiz.

Bundan ko'ra suv obyektlari nomlarini hosil qilgan so'zlarni ab o'tish va iloji boricha, ularning ma'nosini tilga olish maqsadga uvofiqdir.

SUV OBYEKTLARI NOMLARINI – GIDRONIMLARNI HOSIL QILADIGAN ATAMALAR:

Akvatoriya (lotincha aqua – suv) – suv bilan qoplangan maydon.

Akveduk (lotincha aquaedustus – suv quvuri) – ariq, jar, yo'llar stidan o'tkazilgan osma quvur.

Anhor (arabcha, birligi nahr) – katta ariq.

Arashon (sanskritcha rasayana – obi hayot) – issiq mineral suvli uloq.

Ariq (ar – qadimiy eroniy tillarda *oqmoq* fe'lining o'zagi, ya'ni suv») – suv yo'li.

Arna – katta kanal (Mirzacho'l regionida esa – jar).

Artezian quduq – parmalab kovlangan va suv otilib chiqadigan teran quduq.

Afdoq – katta ariqdan chiqarilgan tarmoq (Buxoro).

Badoq, bodoq – ariqdan boshlangan tarmoq (q. *afdoq).*

Balchiq – suyuqroq loy (q. *chalchiq).*

Band – to'g'on.

Botqoq – doimo yoki uzoq vaqt zax bo'lib yotadigan joy.

Boshot (bashat, tosh boshot – tosh orasidan chiqadigan buloq) buloqcha (mashat shakli ham bor – Farg'ona vodiysi).

Buloq – yer ostidan chiqadigan suv manbai.

Bo'gat, bo'g'ot – ariqdagi to'siq, ko'tarma.

Bo'g'oz – ikki suv havzasini birlashtiradigan suv yo'li (to'g'risi – bo'g'iz);

Vodoprovod – tindirilib, xlorlangan va kislorodga boyitilgan hamda ichishga yaroqli suv oqiziladigan truba;

Guzar – daryodan kechib o'tiladigan joy, kechuv.

Guldirama, guldurovuk, guldurov, gurullovuk, gurkirov – katta sharshara.

Dayravot – daryo bo'yidagi joylar.

Dam – suv ravon oqmaydigan, damlanib qoladigan joy.

Daryo – tabiiy o'zandan oqadigan katta suv.

Daryoliq – bir zamonlar daryo oqqan soylik.

Darg'ot – suv taqsimlagich inshoot.

Dengiz – O'zbekistonda keng maydonni egallagan suv havzasi (Orol dengizi). suv ombori (Toshkent dengizi).

Duob, duoba, dug'oba, duvova – ikki suv qo'shilgan joy.

Dyuker (nemischa duker)- yo'l, kanal, daryo tagidan o'tkazilgan bosimli suv quvuri (Yana q. *qaynama*).

Do'lob – suvni balandga ko'tarib beradigan moslama.

Yob, yop, yab, yap – ariq (Xorazm).

Jayxun – jo'shqin daryo, azim daryo; Amudaryoning arabcha nomi; mashhur daryolar-Amudaryo (Jayxuni Xorazm); Sirdaryo (Jayxuni Chochiy); Furot va Dajla.

Jilbuloq, jilibuloq – iliq suvli buloq (qishda).

Jilg'a – jiidirab oqadigan soy.

Jimbuloq (jinbuloq) – kam suvli buloq.

Jinnisoy (jinnisuv) – o'qtin o'qtin kuchli toshib turadigan soy (tentaksoy).

Jonabuloq – qiyaroq yerdan chiqqan buloq.

Jorma, yorma – yerni yorib ochilgan ariq, quduq.

Je (jenov «Yangi ariq») q. Juy.

Juy; jo'y – soy ariq.

Jo'ybor – ariqsoy, ariq soylar ko'p joy.

Jo'yak (jo'yHak) – ikki pushta orasidagi ariqcha.

Zax, zak (Xorazmda – zey) – sernam joy.

Zaxkash 1) sernam zax joy, 2) zovur – zaxni qochirish uchun qazilgan ariq (tojikcha zah – kash – «zax tortqich») (Buxoro).

Zag'orkash – zovur, oqava tushadigan ariq, q. Zaxbur.

Zaxbur – zax suvi oqadigan ariq zovur; zovur (tojikcha zah – zax, buridan «kesmoq», bu o'rinda «tortmoq») – zax suvini tortib olish uchun qazilgan ariq.

Izza – sernam, zax joy.

Irmoq – daryoga qo'shiladigan soy, jilg'a.

Kavsar – toza, zilol suv.

Kechik – kechuv – daryodan, katta soydan kesib o'tiladigan joy.

Kom – ariq (Buxoro).

Koriz – bir-birlari bilan yer ostida birlashtirilgan quduqlar, yer osti kanali.

Ko'k suv – zilol suv, tiniq suv.

Ko'l – kichikroq tabiiy suv havzasi.

Ko'lmak – halqob suv.

Ko'lob – q.*Ko'lmak.*

Ko'rbuloq, so'qirbuloq – yog'in kam yillari qurib qoladigan buloq.

Nahr – katta ariq (nar, nor shakllarida ham uchraydi, masalan, Narpay, Ulug'nor kabi).

Naynova – qamish, g'arovdan yasalgan nov; nov-suv oqadigan o'zan, tarnov.

Nova – suv oqadigan ariq, mol suv ichadigan yog'och ariq (q.nov).

Novadon – yopiq nov.

Ob – suv, daryo, soy.

Obdon – ko'lmak, qoq.

Obi rahmat, obi naysan – rahmat suvi, navro'zdan 2-3 kun oldin yog'adigan barakali yomg'ir (ziroat uchun obi hayot hisoblanar ekan).

Obi siyo – qora suv, tekislikdagi bir necha buloqning suvidan hosil bo'lgan qoramtir suv *(q.Qorasuv)*.

Obod (aynan «suvli joy») – o'zlashtirilgan sersuv joy.

Obxona – quduq yonidagi hovuz.

Obshor (obshar-sharshara) – sersuv joy.

Odoq – suvning etagi.

Olish, alish – katta ariqning qulog'i, ariqdan suv olinadigan joy.

Osma quvur – q. Akveduk.

Otquduq – suvi ot yordamida tortib olinadigan quduq.

Oqdaryo eski o'zandan oqib turgan daryo (kanaldan-yangi ariqdan oqqan daryo qoradaryo).

Oqova – partov suv.

Oqsuv – qor-muzliklardan suv olib ko'pirib tez oqadigan oqish suv.

Poynov – ariq, hovuz kabi suv obyektlarining suv oqib chiqib ketadigan tomoni, etagi.

Rud – q.ro'd.

Rudak – q.ro'dak.

Rudxona – q.ro'dxona.

Ro'd – soy daryo.

Ro'dak – kichik soy.

Ro'dxona – daryo,soy o'zani.

Sel – toshqin suv.

Selbur – sel urib ketgan joy.

Selga – q.selgoh.

Selgoh – sel oqadigan soylik.

Seldara – sel kelib turadigan dara.

Selroha – sel yo'li, sel o'zani.

Selxona – toshqin suv to'planib qoladigan soylik.

Soy – kichik daryo.

Suv – tabiiy suyuqlik; daryo, soy (tarixiy asarlarda *su* varianti ham bor: Ko'hak suvi – Zarafshon, Xo'jand suvi – Sirdaryo).

Suv ombori (obi ombor) – ko'p suv to'planadigan chuqur joy.

Suvlik – akvatoriya.

Suvot, suvlot – chorva mollari suv ichadigan joy.

Tagob, takob, tagop – er osti suvi chiqib turgan joy, soylik, o'zan; bir ariqdan suv ichadigan maydon.

Tezob – tez oqadigan soy.

Telba suv – o'zanini o'zgartirib turadigan soy, jilg'a.

Tomchi – suvi qoyadan tomchilabgina tushadigan buloq.

Tosh qoq – tog'larda, qoya o'yiqlarida to'plangan suv *(q.Qoq)*.

Toshqin – daryo, soy suvining o'zandan chiqib tevarak-atrofni suv bosishi.

Xotinsuv – suvi miqdori bir oz o'zgarib turadigan kamsuv soy, jilg'a.

Chalchiq – suyuq balchiq.

Chashma – buloq.

Sharaqsoy – sharillab tez oqadigan soy.

Sharildoq, *shaldiroq, sharilloq, sharillovuq, sharlovuq, sharshar* – sharshara.

Sharsharak – tepadan sharillab tushadigan suv, sharshara.

Shalola (kitobiy so'z, xalq og'zaki ishlatilmaydi).

Shaxob, shaxob, shaxobcha – daryo yoki soyning tarmog'i.

Shahrud – shaharni suv bilan ta'minlaydigan kanal, nahr (Zarafshon daryosining Buxoroga suv berib turadigan bir tarmog'i Shahro'd, Shahrro'd-Ro'di shahri Buxoro deb atalgan).

Shohro'd – katta daryo, kanal.

Ersuv (erkak suv) – suvi yil bo'yi kamaymaydigan, uzoqqa oqib boradigan soy jilg'a (q.*Xotinsuv)*.

Yuguruksoy – tez oqadigan soy;

O'jar suv-tez-tez toshib turadigan suv, soy, o'zak (o'kuzHak «daryocha») – jilg'a, tarmoq; o'zan-soy, daryo vodiysi, suv yo'li;

O'kuz, o'giz, o'g'iz – katta oqar suv, daryo, 2) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi.

Qayirma – suv qayrilib oqadigan joy, muyulish.

Qayir – suv labiga yaqin pastlik yerlar.

Qaynama – 1)girdob; 2)yo'l tagidan o'tgan quvurdan qaynab chiqqan suv; q.Dyuker.

Qaynar buloq – suvi otilib qaynab chiqadigan buloq.

Qora daryo – sun'iy o'zandan oqizilgan daryo, kanal, q.*Oqdaryo.*

Qora suv – tekis yerlarda buloqlardan, sizot suvlaridan hosil bo'lgan qoramtir suv.

Qoq – cho'llarda bahorgi yog'ingarchilik vaqtida suv to'ladigan sayoz botiq.

Quvur – suv oqiziladigan truba.

Quduq – yer ostidan suv olinadigan chuqurlik.
Quduqcha – quduq ko'p joy.
Quloq – ariqdan, anhordan suv chiqariladigan joy.
Qo'l – soyning irmog'i yoki tarmog'i.
Qo'lat – soylik.
Havza – suv to'ldirilgan katta maydon, suvlari bir daryoga qo'shiladigan hudud.
Hangi suv – jala yoqqanda soylik jarlikdan toshib oqadigan suv.
Hovuz – kichik suv ombori.

ORONIMIYA

Oronimlarga, tog'u toshlargina emas, balki re'lefning salbiy shakllari – vodiylar, daralar, jarliklar, soyliklar, o'yiq-o'ypotlar, shuningdek tekislik, past tekisliklar va qumliklar ham kiradi.

O'zbekiston yer yuzasi tekisliklar va adir-tog' qismlardan iborat. Tekisliklar (shimoli-g'arbda) *Turon tekisligining* bir qismidir. Orol bo'yidagi janubi-sharqda (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida) Qizilqum cho'li joylashgan. Qizilqumning g'arbiy chekkasida *Sulton Uvays* tizmasi, markaziy qismida esa *Bo'kantov, Tomditov*, undan janubda *Muruntov*, janubi-g'arbda Quljuqtov va boshqa pastak tog'lar bor. Qizilqumda berk botiqlar va soyliklar ham uchraydi (Mingbuloq, Oyoqog'itma botiqlari va boshqalar).

O'zbekiston hududidagi tog'lar *Tyanshan va Hisor – Oloy* tog' masistlariga kiradi. G'arbiy Tyanshan tizmalaridan *Qorjontov, Ugom, Piskom, Chotqol, Qurama* tizmalari O'zbekiston hududida. Farg'ona vodiysining sharqida *Farg'ona tizmasi*, janubida Oloy tizmasi va uning g'arbiy davomi – *Turkiston tizmasi* joylashgan. Turkiston tizmasining tarmog'i bo'lgan *Molguzar* tizmasi *Nurota* tog'laridan *Ilonutti darasi* orqali ajralib turadi. Nurota tog'laridan janubdagi tog'lar *Zarafshon tizmasiga* kiradi. Respublikaning eng janubidagi *Hisor tizmasi* Tojikiston bilan bo'lgan chegara bo'ylab cho'zilgan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida *Yakkabog', Chaqchar, Boysuntog', Qo'hitang*, Surxon, Bobotog' tizmalari bor.

Barcha tog' tizmalari va tizmalarini pasttekisliklar, soyliklar, daryo vodiylari ajralib turadi.

Bundan tashqari tekisliklarda ham ko'plab adirlar, jarliklar, tepaliklar bor.

Toponimlarning boshqa turlariga qaraganda oronimlar eng kam o'rganilgan sohadir.

Ma'lumki, toponimlar zamirida mahalliy geografik atamalar yotadi. Tog'lik o'lka, xususan aholi yashaydigan va xo'jalikda keng foydalaniladigan past tog'lar, orografik atamalarga boy bo'ladi. Bunday atamalar esa tekislikda yashovchi aholi uchun jumboq bo'lishi mumkin.

Tog'-tosh nomlarida *adir, aqba – ovg'a, bel, buloq, gaza, dara, dovon, jaylov – yaylov, jar, kam – kamchik, kamar, ko'l, ko'tal, nov, qova, nura, oshuv, sang, soy, suv, tangi, tepa, tov – tog', tosh, chag'at, cho'qqi, qir, qiya, qoq, qo'l – g'o'l (tog' tarmog'i, kichikroq dara, soy ma'nosida), qashqa, qo'rum, qo'rg'on, qo'ton, ungur* kabi atamalar ko'p uchraydi.

Tog'larning atalish (nominatsiya) qonuniyatlaridan biri shuki, tog'liklar yon-veridagi ayrim cho'qqi, qoya, yonbag'ir, zovlarning nomlarini yaxshi bilganlari holda butun bir ulkan, tog'lar tizimining umumiy nomini bilishmaydi. *Tog'* so'zini deyarli ishlatishmaydi. Tog' so'zi o'rniga «tosh» atamasi ishlatiladi. *Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh* deganda cho'qqi, ayrim qoya katta tog'ning bir bo'lagi tushuniladi.

O'zbekiston hududining 1/5 qismi tog'lardan iborat. 1: 200000 masshtabli topografik xaritalarda mamlakatlarimizdagi 700 dan ortiq oronimlar – tog'li o'lkalar, ayrim tog'lar, cho'qqilar, qoyalar, dovonlarning nomlari qayd qilingan (biz bunda tog'lardagi daralar, soyliklar, jarliklar, tekislik o'lkalardagi tepaliklar, do'ngliklar, salbiy re'lef shakllarini hisobga olmadik).

Respublikamizda G'arbiy Tyanshan tog'lari tarmoqlari bo'lgan *Hisor-Oloy* tog'lari (*Hisor, Zarafshon, Turkiston* tizmalari tarmoqlari) o'rin olgan.

Surxondaryo viloyati oronimlarga boyligi jihatidan (150 ga yaqin oronim) birinchi o'rinda turadi (mashhur *Hisor tizmasi* va uning tarmoqlari *Boysuntog', Qo'hitangtog', Bobotog'*). Qashqadaryo viloyatida 145 oronim, Navoiy viloyatida 105, Toshkent viloyatida 103, Samarqand viloyatida 59, Jizzax viloyatida 52 ta oronim qayd qilingan. Boshqa viloyatlar aksari tekislikda joylashganidan oronimlarga boy emas. Xorazm viloyatida 1 oronim uchraydi; Sirdaryo viloyatida esa umuman tog', binobarin oronim yo'q.

Oronimlar leksikasida, yuqorida aytilganidek, geografik atamalar katta o'rin tutadi. *Oq, qora, sari(q), qo'ng'ir* kabi rang simvolikasi ham keng tarqalgan. O'simlik nomlaridan *archa, betaga, gujum, anjir, yong'oq,*

jusan, zardolu, olma, piyoz, pista, sarimsoq, terak, tol, o'rik, irg'ay, hayvon nomlaridan *ariston (arslon), baliq, do'lta, do'ng'iz-cho'chqa, jayron, chivirtka (chig'irtka), qoplon, quyon, qoraqush (burgut), qarchig'ay,* etnonimlardan *afg'on, qurama, olchin, turkman, chandir, chig'atoy* qayd qilingan.

Oronimlar orasida metaforik-majoziy nomlar ayniqsa, keng tarqalgan; *egar (egarbel), dastar* «salla» (Dastarqozi), *moya* «urg'ochi tuya» *(Qatormoya), qizemchak, bukir (Bukritog'), Yetimtog'* (kichikroq yolg'iz tog'), *semiztepa, belisiniq, tuyatosh,* o'choq *(Ucho'choq)* va h. Aziz-avliyolarning qadam joylari sifatida *bobo, ota* atamalari ishlatilishini ham aytib o'tish kerak.

Oronimik leksikada sinonimlar keng tarqalgan, aytaylik, «tog'dan oshib o'tish uchun qulay yo'l» ma'nosida *dovon* so'zining *aqba-ovg'a, bel, ko'tal, oshuv* variantlari bor. Bu atamalar joyiga qarab ma'nosi jihatidan bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Masalan, Baxmal va Zomin tumanlarida dovonni *bel* deyishadi, *dovon* deganda esa tog'dan oshaverishga yaqin dam olinadigan tekisroq maydoncha tushuniladi («Sangzorning beli katta bel, dovoni bordir»), *ovg'a* deganda dovonga tik ko'tariladigan yo'l tushuniladi (Qoramozor belining ovg'asi buzuq, ya'ni xavfli).

Tog'larni kishilarning nomlari bilan atash O'zbekistonda, umuman O'rta Osiyoda qadimdan keng rasm bo'lgan emas. Butun O'zbekistonda bir necha oronimik obyektgina kishi nomlari bilan atalgan (*Xo'ja Axchaburun, Xo'ja Gulsuyar, Xo'ja Buzbarak, Ashurko'l, Sultonsho*).

Biroq kishi ismlaridan nom olgan va topografik xaritalarda aks etmagan mikrooronomik obyektlar kam emas. Zomin tumani Tamtum qishlog'ining tepasida *Mullaning qizi uchgan, Nodir uchgan, Saodat uchgan, Yaxshiboy uchgan* kabi qoyalar bor. Ana shunday qoyalardan odamlar yiqilib, uchib tushib halok bo'lgani uchun obyektlar shunday nom olgan. Xuddi shunday ataladigan tik qoyalar Janubiy O'zbekistonda, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham uchraydi. Masalan, *Xuk parida* «Cho'chqa yiqilib, uchib tushgan» (qoya).

Bir qancha tog'lar suv obyektlarining nomlari bilan atalgan. Masalan: *Yonabuloq, Zarafshon, Ko'kbuloq, Ko'ksuv, Sovuqbuloq tog'lari* va b. Tog' obyektlari nomlari bilan atalgan gidroobyektlar ham uchraydi: *Chotqol tog'lari Chotqol daryosi, Obi Ko'hak* (Zarafshon daryosi) Samarqand biqinidagi *Cho'ponota* qirlari qadimdan Ko'hak «tog'cha», «tepalik» deb atalgan, shu yerdan oqib o'tadigan Zarafshon esa *Ko'hak suyi, Obi Ko'hak* deb yuritilgan. Bunday misollarni yana keltirish mumkin.

Oronimik obyektlarning nom olish qonuniyatlari qisqacha aytganda shulardan iborat. Yana shuni aytish mumkinki, barcha geografik obyektlarda bo'lgani kabi, oronimik obyektlarning nomlari orasida ham semantikasi tiniq bo'lmagan oronimlar kam emas. Bu esa etimologik tadqiqotni talab qiladi.

Respublikamizda toponimik tadqiqotlar eng murakkab va mas'uliyatli pallaga kirdi. Mustaqillik munosabati bilan topografik xaritalarning yuz minglab geografik nomlarini ruschadan o'zbekchaga o'tkazish, ularning mahalliy, milliy shakllarini aniqlash, standartlashtirish, qat'iylashtirish qonuniylashtirish kerak bo'ladi.

O'zgeodezkadastrning Geoinformatika va kadastr milliy markazi ana shu ishga qo'l urdi. Bu nihoyatda qiyin vazifa bir guruh, hatto bir jamoaning emas, balki vatanparvar barcha o'zbek ziyolilarining, birinchi galda geograf, tilchi va tarixchi o'qituvchilar va olimlarning yumushidir.

Bu oson emas. Masalan, Ohangaron daryosi bo'yida *Iyartosh* degan oronim bo'lib, uni *Yertosh* deb ham yozishadi. Aslida *Egartosh* bo'lishi kerak. Shevalarda, jumladan qurama shevasida *egar* deyish o'rniga *iyar* deyishadi. Alisher Navoiy ham bu so'zni *iyar* deb yozgan. Buning ustiga tog' qirrasining pasaygan, egilgan qismi *egar, egarbel, egartosh* deyiladi. Bunday misollar ko'plab uchraydi.

Tog' buyuklik, mangulik ramzi. Inson panoh, sihat, yemish istab doimo tog'ga intilgan. Insoniyatning yarmidan ko'pi tog' etaklarida va tog' oldi tekisliklarida yashaydi. Tog'lar yer osti qazilmalarigina emas, leksik boyliklar koni hamdir.

Tog' nomlari oronimlar, oronimlarni hosil qilgan va o'r-qir re'lef shakllarini bildiradigan so'zlar esa *oronimik atamalar* deyiladi.

O'zbekiston oronimik atamalari haqida adabiyotlarda deyarli hech qanday yaxlit ma'lumotlar uchramaydi. Qirg'iz geografi S.Umurzoqov Qirg'iziston tog'lik o'lka bo'lgani bois respublikada kamida 200 ta oronimik atama bor deb yozadi. Olim faqat tog'larda uchraydigan atamalarni inobatga olgan. Aslida tekislikda qayd qilingan o'r-qirlarni ifodalaydigan so'zlar ham oronimik atamalardir. Biz quyida tog'u dashtlarda tilga olingan oronimik atamalardan 200 ga yaqinini sanab o'tdik. Ba'zan oronimik atamani farqlash qiyin. Masalan, Tamtum

qishlog'i tepasida (Zomin tumani) Ko'ldisoy degan soylikda umuman ko'l yo'q. O'sha Zomin tuman markazi tepasida gir atrofi tog'lar bilan o'ralgan katta soylik *ko'l* deb ataladi; ehtimol bu yerda qachonlardir ko'l suvi chayqalib turgan bo'lishi mumkin. Demak, ko'l asli re'lef shakli. Shuning uchun ham xalq *ko'l qurisa ham nomi qoladi* deydi. Sharshara gidronimik atama, lekin suv yo'lida jarlik, tik qoya bo'lmasa suv otilib tushib sharshara hosil qilmaydi. Shuning uchun biz sharsharani shartli ravishda oronimik atamalar jumlasiga kiritdik va bu atamaning variantlarini keltirdik *(guldirov, guldirovuk, gurkirov, sharildoq, sharlovuq, sharshar, sharqirama, shovva, sharloq).*

Shuningdek *reg, regzor, registon* (qumlik) aslida re'lefni ifodalaydigan atamalar sanaladi.

Yer-suv nomlarini hosil qiladigan barcha so'z-atamalar *toponimik leksika* deyiladi. O'zbekiston toponimik leksikasining bir sohasi haqida qisqacha ma'lumotlarni o'quvchilar diqqatiga havola qilayotirmiz.

Biz uchun mavzu bo'lib xizmat qilgan titul so'z O'zbekistonda ***tog'*** va ***tov*** shakllarida uchraydi. Shunisi qiziqki, tog'liklar *tov* deb talaffuz qiladilar. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarning g'arbiy qismlarida (Afg'oniston, Qrim, Kavkazda, Ozarbayjon, Turkmaniston) *dog' (dag),* O'zbekistonda *tog' (tov),* Qozog'istonda *tau,* Qirg'izistonda *to'o',* Sibirda *tu, tuu, tia* shakllarida talaffuz qilinadi. O'zbekiston orografik atamalarga nisbatan boy. Buni yuqorida keltirilgan raqamlardan bilsa ham bo'ladi. Aslida biz soha atamalarining hammasini ham qamrab ololganimiz yo'q. Qanchadan-qancha geografik atamalar, jumladan or, pografik atamalar hamon «yashirinib» yotibdi. Bunga misollar keltiramiz.

Mashhur geograf Ibrohim Mirzaboev Zomin tumanidagi Uvol qishlog'ining geografik atamalarga naqadar boy ekanini aytib, jumladan *qir* atamasining *qirang, qirpang* kabi hosilalarini tilga olib edilar. Folklorshunos olima, shoira Muzayyana Alaviya Denov tumani Sina qishlog'i yaqinidagi *Sina* tog'ining ayol ko'ksiga o'xshab ketishini ta'kidlagan bo'lsa, mashhur tilshunos professor Sobirjon Ibrohimov «zov» atamasining «zovlin» shakli ham borligiga misol ham keltirgan.

Biz yuqorida keltirgan misollarning ko'plari Zomin, Baxmal tumanlarida o'zimiz bilib-ko'rib yurgan «ko'rsatmali» materiallar, shuningdek, shevalardan hamda toponimlarning tarkibidan «yulib» olingan atamalardir.

Nemislar hatto uch kishi bilgan so'zni izohli lug'atga kiritishar ekan. Geografik terminologiyamizni yanada boyitish uchun lahja – sheva leksikasini, arxiv materiallarini, tarixiy yodnomalarni, xususan mukammal topografik xaritalardagi geografik nomlarni saralash kerak. Quyida oronimik atamalar ro'yxati keltiramiz.

Aydar – tepasida bir uyum tosh terilgan qir, balandlik. *Ayloq* – tog' yaylovi (Qrimda – yayla); *ayri, ayrilish* – ikkiga ajralgan (tog', qir); *ayrit* – suv bo'lingan yer, suvayirg'ich; *ayg'ir* – ulkan, katta (qoya, tosh); *alan* – ariq chetiga chiqarilgan tuproq uyumi (Xorazm); *anna* – jar, q. *Arna; arna* – jarlik; *atav* – orol (Xorazm); *asqa, asqar* – baland, yuksak tog'; *aqba, ag'ba, ovg'a* – dovon, tog' yo'li; *bayir* – qir, balandlik; *balqan, bolqon* – past tog', qir; *baroz* – tog' yonbag'ridagi, tepasidagi kichik yassi tekislik; *bel* – tog' qirrasining pastroq qismi, dovon; *belas* – yassi tog' tarmog'i; *belchagach* – beli past tog'cha, qir; *bet, betkay* – yonbag'ir; *beshiktosh* – shaklan beshikka o'xshagan qoya; *bitov* – boshi berk, yo'l yo'q dara; *boldir* – do'ng, tumshuq; *burum* – muyulish; *burun, murun* – tumshuq, muyulish; *bo'g'at, bo'g'ot* – ariq, suvning bo'g'ilgan joyi; *bo'ynoq* – tog' bo'yni, dasht, qir; *bo'm* – tor dara, tog' yo'li; *gadik* – 1) chuqurlik; 2) dara (Xorazm); *gaza* – 1) tog' qirrasi; 2) ov qushlari tutadigan, ovchilar yashirinadigan chayla; *gazaxona* – ov qushi ovlanadigan chaylalar ko'p joy; *guldirama, guldirov, guldirovuk, gurillovuk, gurkirov* – sharshara; *gum, gumsoy* – chuqur, gir atrofi baland soylik; *dalvarzin, dilvarzin, do'lbo'rjun* – choldevor, imorat vayronasi; *darboza* – daradan o'tgan tog' yo'lining kambar joyi; *do'lan* – ulkan tog'; *do'ng* – yassi tepalik; *do'ngsov* – past yassi tepalik; *yetimtov* – yakka turgan pastroq tog'; *yetimqum* – yakka qumlik; *yol,jol* – tog' qirrasi, qir tepasi; *yona, jona* – qiya yonbag'ir; *yor* – jar; *yorma, jorma* – yerni chuqur yorib ochiladigan kanal, ariq;*yormish, jormish* – q. Yorma; *jilg'a* – kichik soylik; *jirindi* – suv o'ygan kichik jarlik (ruschasi ro'tvina); *jo'na* – cho'zinchoq tepalik qirrasi; *jo'nag'ar – jo'na* (q.) va g'ar (sug'dcha-tog'), – tog' qirrasi; *jo'robtepa* – tuproq to'plab yasalgan tepalik; *zakan* – zovur; zaxbar, *zaxbur* – zovur; *zey* – q. *Zax; zov* – yalang tik qoya; *zovlin* – jarlik (zovlinga tushib ketdi); *zovur* – zaxni qochirish uchun qazilgan chuqur ariq (asli zahbur); *izbir* – zovur; *iloq* – q. Ayloq; *kamchik* – kemtik, tog' qirrasining past joyi; *keragatosh* – o'tovning pastki qismi – keragaga o'xshash cho'zinchoq qoya; *kindik* – adir-qirlarn-

ing markaziy qismi; *kunas, kunash* – seroftob joy; *kungaboq* – oftobro'y, kunga qaragan joy; *kungay* – kunga qaragan, oftobro'y yonbag'ir; *kunchiboq, kunshuvoq* – janubga, oftobga qaragan (betkay); *ko'l* – shakli yumaloq katta soylik; *ko'tal* – dovon; *ko'tarma* – tuproq, toshdan yasalgan tepalik; *ko'h* – tog'; *ko'hak* – tepalik, qir; *ko'histon* – tog'lar o'lkasi; *marza* – chegara, uvat; *mag'ara* – qadimiy imoratlarning do'ppayib turgan qoldiqlari (Janubiy Qozog'iston); *mo'la* – 1)toshtuproqdan yasalgan «qorovul», 2) tepacha, 3) mozor (mo'lla, mulla deb yozilishi xato); *narvon* – zinapoyasimon yonbag'ir, shoti ham deyiladi; *nishab* – qiya; *nov, nova* – ariq, tarnov; *novur* – nov shaklidagi toshloq tik soylik; *odamtosh* – shaklan odam gavdasiga o'xshagan qoya; *oynatosh* – kuzgiga o'xshash yaltiroq tosh; *olatov* – 1) olachalpoq qorli tog', 2) yuksak tog'; *oftobro'y, oftobro'ya* – oftobga qaragan, kungay yonbag'ir; *oshuv* – dovon; *oqtepa* – 1)oq tuproqli tepalik, 2) oqsuyaklar, to'ralar yoki oq urug'i vakillar yashaydigan mahalla (oqto'pa); *oqtosh* – kvarts, dala shpati kabi oqish toshlar, oqish qoya; *oqqum* – o'simliksiz yalang ko'chma qum; *parida* – odam yiqilib uchib tushishi mumkin bo'lgan tik qoya (tojikcha paridan – uchmoq, sakramoq; *parranda* – qush «uchqich,» q. *Uchma*); *pitov* – boshi berk dara, soylik, q. *Bitov; rash, irash* – ariq chetiga uyulgan tuproq; *reg* – qum; *regzor* – qumlik; *registon* – qumli cho'l; *rosh* – uvat (Buxoro); *sakirtma* – pog'ona-pog'ona yonbag'ir (sakrab tushiladigan joy); *sang* – tosh, qoya; *sangzor, sangsor* – toshloq maydon (relef shakli); *sangiston* – toshloq soylik (relef shakli); *sangloq* – g'o'la toshli soylik (relef shakli); *sandiqtosh* – shaklan sandiqqa o'xshash tosh, qoya; *sang'aloq* – q. *Sangloq; sag'anoq* – q. *Sangloq; sekirtma* – q. *Sakirtma; selga, selgoh* – sel suvi to'planadigan soylik; *selroha* – sel ko'p keladigan o'zan; *selxona* – sel suvi yig'iladigan pastqam joy, yana q. *Selga; sengir* – tik qoya, o'simlikli baland tog' qirrasi; *sina, siyna* – ko'krak, ko'ks shaklidagi balandlik, qir, tog'; *singir* – cho'qqi, qoya, istehkom (q. *Sengir*); *soy, soylik* – dara; sochtepa, chochtepa, choshtepa, shoshtepa – sun'iy tepalik; *supa* – tog'da tekis maydon; *tag'ob, tagop, takop* – soylik, o'zan, yer osti suvi chiqib yotadigan joy; *taypoq* – yassi, yalpoq maydon; *tal* – tepalik; *tallak* – tepacha; *tangi* – tor dara; *tarnov* – ariqcha; *teva* – tepa, tepalik; *temirqovuq* – «temir darboza», serqatnov daraning eng kambar, qoyali qismi, q. *Darboza, Qahlag'a; tepaqo'rg'on, qo'rg'ontepa* – qorovulxona bo'lib xizmat qil-

gan, ko'pincha sun'iy tepalik; *tov* – tog'liklar tilida tog'; *tosh* – alohida turgan qoya; *toshzor* – toshloq yer; *toshloq* – sertosh maydon; *toshqoq* – tog'lardagi tosh o'yiq va unda hosil bo'lgan ko'lmak, q. *Qoxti; tuz* – tekislik; *tumshuq* – muyulish; *tuproqqo'rg'on* – tuproq uyib yasalgan qorovulxona; to'sh, do'sh – tog' bag'ridagi do'ppaygan balandlik; *tuyabo'g'iz* – tuya bo'g'izi – tuya bo'yniga o'xshagan ilang – bilang suv, soylik, q. *Tuyamo'yin; tuyamo'yin* – tuya bo'yniga o'xshash egri-bugri soylik va anhor (meandr); *tuyatosh* – tuyadan ham katta xarsang tosh; *to'man* – pastki, quyi, etak; *to'rtko'l* (aynan to'rtkil «to'rtburchak») – choldevor, qadimiy imorat vayronalari, q. *Dalvarzin; uvat* – ekin maydoni chegarasi, marza; *uloqchopar, uloqchopqich* – ko'pkari chopish uchun qulay tekis maydon; *uchma* – tik qoya, odam yiqilib tushadigan buzuq jarlik; *xandak* – uzun chuqurlik, transheya; *chalqa* – adirlardagi tekis maydon; *chat* – q. *Chot,*; *chag'at* – oftobga qaragan chag'ir toshli tik yonbag'ir; *chel* – marza (Xorazm); *chem* – ariq-daralardagi to'g'on, qo'rg'on; *chep* – g'ov, to'siq; *ching, chink* – jarlik; *chig'anoq* – daryo tirsagi; *chot* – tog' tarmoqlari tutashgan joy; *chotqol* – tog' yoki daralarning qo'shilgan yoki tarmoqlarga ajralgan joyi; *choch* – q. Chosh; *chosh* – uyum, xirmon; *chosh, choch, shosh, shish unsurlari* – choshidan «uymoq», to'plamoq fe'lidan chiqqan va «tosh-tuproqdan yasalgan tepalik» ma'nosini bildiradi; *choshko'h* – tosh-tuproq uyib yasalgan tepalik; *choh* – chuqur, o'ra, quduq; *cho'nag'ar* – jo'na, ya'ni cho'zinchoq tepalikning qirrasi, q. *Jo'nag'ar; sharildoq, sharilloq, sharillovuq, sharlovuq* – sharshara; *sharlama* – sharshara (Xorazm); *sharshar* – sharshara; *sharqirama* – sharshara; *shaqshaq* – qalin-qalin tosh qatlamlari «taxtakach» (relef shakli); *shiram* – tog' etagidagi cho'zinchoq qir; *shirdon* – suvab yoki tuproq bosib qo'yilgan o'tov shaklidagi somon uyumi; *shovva* – sharshara; *shovqor* – qora tog' (sug'dcha shov «qora», g'ar «tog'»); *shorloq* – sharshara; *shosh* – q. Chosh; *egarbel* – dovon; *egartosh* – egar shaklidagi qoya; *enkayma* – nishab qiyalik; *o'gaytosh* – yalang yerda cho'qqaygan kichikroq qoya; *o'zak* – soy, jarlik, suv tarmog'i; *o'zang* – soy, tog' suvi (Janubiy Qozog'iston); *o'y* – pastlik, botqoqlik; *o'ydiq* – chuqur joy; *o'ypot* – pastlik, tevarak atrofdan chuqurroq joy; *o'lahat, o'laat* – vodiy, obod yer, voha; *o'r* – chuqurlik, xandaq, jarlik (oldingi qator, lablangan yo'g'on o' unli bilan); *o'r* – balandroq joy (o'rlamoq – balandlikka ko'tarilmoq, oldingi qator, lablanmagan ingichka *o'*

unli bilan); *qazg'anaq* – chuqurlik (Xorazm); *qayirma* – yo'l, soy burilib ketadigan joy, muyulish; *qamrov* – atrofi tog'-qir bilan o'ralgan berk joy; *qapchig'ay* – tor dara; *qarim* – do'nglik, tepalik (Xorazm); *qatlamatosh* – yupqa qatlamlardan iborat tosh, gilli slanets (relef shakli); *qashat* – jarlik yoqasi; *qahlag'a, qohlug'* – serqatnov daraning eng tor joyi (mo'g'ulcha), q. *Darboza*, temirqovuq; *qiz, quz g'uz* – oftob kam tushadigan betkay; *qir* – balandlik; qirang, *qirpang* – qirning qirrasi; *qisiq, qisilish* – daraning o'tish qiyin kambar qismi; *qiya* – nishab yonbag'ir; *qovoq* – baland qirg'oq, yalang jarlik; *qoratov* – past tog', yozda qor yotmaydigan tog'; *qoratepa* – asli qorovultepa – 1)yovni kuzatib turadigan tepalik, 2)qora urug'i vakillari yashaydigan qorato'pa (qorato'bi) qishlog'i; *qoxti* – tog'lardagi tosh o'yiq va unda to'plangan qor-yomg'ir suvi, q. *Toshqoq; quyt* – pastlik, quyilik (Janubiy Qozog'iston); *qo'l* – soylik, dara, tog' tarmog'i, soy shoxobchasi; *qo'lat* – jarlik, chuqurlik (O'zgan); *qo'ton* – tog' adirlarda qo'y otarlari qishlashi uchun qulay pana joy; *g'o'rum, qo'rum* – tog' tepasidan qulab tushgan toshlar uyumi (qurum deyish to'g'ri emas); *ho'r* – tepalik.

ETNONIMLAR VA ETNOTOPONIMLAR

Etnonim nima?

Insoniyat biologik jihatdan bir butun bo'lsa ham umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy eta borib, son-sanoqsiz guruhlarga bo'lingan. Yer sharida kishilarning xilma-xil guruhlari, jamoalari, mavjud. Ikki kishini ham bir jamoa, shu bilan birga butun bir mamlakat aholisini ham bir jamoa deyish mumkin.

Jamoalar juda katta va juda kichik hududni ham qamrab olishi mumkin. Urug'lar, qabilalar eng qadimiy jamoalardir. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan qabila, elat, xalq, millat kabi jamoalar etnik birlashmalar, ya'ni etnoslardir.

Qabila nima? Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Qabila a'zolari bir-birlari bilan qon-qardosh bo'lgan hamda urug' va boshqa mayda guruhlarga bo'lingan. Qabila a'zolari muayyan birlikka ega umumiy hududda yashashgan, iqtisodiy birlikka ega bo'lishgan. Ya'ni jamoa bo'lib ov qilishgan, bir-birlariga yordamlashishgan, yagona til (sheva)da gaplashishgan. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida qabilalar birlashib elat hosil qiladi. Qabilachilik qoldiqlari sinfiy jamiyatda ham saqlanib qolishi va quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar bilan qo'shilib ketishi mumkin.

Shunday qilib, elat kishilarning til jihatdan hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo'lib, millatdan oldingi sanaladi. Elatlar qabilalar ittifoqi vujudga kelgan davrda tarkib topa boshlagan. Bunda qabilalar bir-birlari bilan asta-sekin aralashib, qon-qardoshlik aloqalari o'rnini hududiy aloqalar egallay boshlagan. Elatlar odatda kelib chiqishi va tili bir bo'lgan bir necha qabilalardan yoki ularning birini ikkinchisi bosib olishi natijasida aralashib ketgan va tillari turlicha bo'lgan qabilalardan tarkib topgan. Elatning tarkib topishi jarayonida, uning ayrim guruhlari o'rtasida aloqalar kuchaygan sari eng ko'p sonli va eng taraqqiy etgan etnik komponentning tili elatning umumiy tili bo'lib qoladi; boshqa qabilalarning tillari esa shevalarga aylanadi yoki ba'zan umuman yo'qolib ketadi. Shu tariqa kishilarning umumiy nom bilan ataladigan hududiy, madaniy va iqtisodiy birligi vujudga keladi.

Kapitalistik munosabatlarning taraqqiy etishi va iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar millatlarga aylanadi.

Millat – kishilarning barqaror tarixiy birligi. U umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hududiy birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir. Millat qon-qardosh va qardosh bo'lmagan qabila, irq va xalqlardan shakllanadi. Millatlarning iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va xalq og'zaki tilining yaqinlashishi negizida yagona milliy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Shevalar o'rnini asta-sekin milliy til egallaydi.

O'zbek elati turli urug' va qabilalardan ilk o'rta asrlarda shakllana boshlangan. Oktyabr to'ntarishidan oldingi o'zbeklar tarkibiga kirgan barlos, nayman, saroy, qo'ng'irot kabi urug'-qabilalar o'z navbatida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod, qavm kabi tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir bo'limning o'z nomi bor. To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat nomlari *etnonimlar* deyiladi. Etnonim yunoncha *etnos* – «xalq» va *onim* – «nom» so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmui *etnonimiya*, etnonimlarni o'rganadigan fan *etnonimika* deyiladi.

Etnonimlar etnonimika, etnografiya, tarix, tilshunoslikning hali yaxshi o'rganilmagan sohasi bo'lib, xalqlar, millatlar etnogenezini yanada chuqur tahlil qilishga katta yordam beradi.

ETNOTOPONIMLAR

Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. O'zbekistonda etnotoponimlar juda katta o'rin tutadi.

V.A.Nikonov o'zi ta'riflab bergan *nisbiy negativlik* qonuniga amal qilib, ***etnotoponimlar*** biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida. ya'ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo'ladi deb yozadi. Masalan, *Rossiyada Russkie Lipyagi – Mordovskie Lipyagi – Chuvashskie Lipyagi; Russkiy Brod – Tatarskiy Brod; Russkaya Gvozdevka – Panskaya Gvozdevka; Russkaya Konopelka – Cherkasskaya Konopelka; Russkoe Porechnoe – Cherkasskoe Porechnoe* kabi juft nomlar ruslar bilan ikkinchi bir xalq aralash yashaydigan hududda paydo bo'lgan.

Urug', qabilalar allaqachon tugab ketgan va asosan nuqul ruslar yashaydigan Rossiyaning markaziy qismida ba'zi bir tarixiy etnotoponimlar juda siyrak uchraydi.

O'zbekiston etnotoponimiyasi to'grisida esa bunday deb bo'lmaydi. Chunki bu yerda urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtlargacha ham mavjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan.

Manbalarda 92 o'zbek urug'i bor deb qayd etilgan. Bundan tashqari, har bir urug' o'z navbatida yanada mayda guruhlarga bo'linib ketadi. Etnograf K.Shoniyozovning ta'kidlashicha, birgina *qo'ng'irot* urug'i 200 dan ortiq kichik shox – to'plarga ajralib ketadi.

Shunday qilib, o'zbek millati turli qabila va urug'lardan tarkib topgan.

Bu qabilalardan *turklar* qabilasi Xonaqodaryo havzasida, Kofirnihonning yuqori oqimida, Qizilsuv, Yaxsuv daryolarining vodiylarida hamda ularning irmoqlari bo'ylarida, Qoradaryo vodiysida, Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimlarida, Buxoro yaqinida esa Shahrud kanali bo'yida, Samarqand atrofidagi tog'larning etaklari hamda yonbag'irlarida yashagan. Turklarning ancha qismi Andijon viloyatining Xo'jaobod va Marhamat tumanlari, O'sh viloyatining Aravon rayonida, O'ratepa atroflarida, Qashqadaryo vodiysidagi O'radaryo bo'ylarida, Sheroboddaryo atroflaridagi tog'larda yashab kelganlar.

Movarounnahr turklarining talay qismini *qarluqlar* tashkil etgan.

Ular Surxondaryo bo'ylarida, Qoratog'daryoning bo'ylarida, Kofirnihon, Vaxsh vodiylarida, Yovonsuv boshlarida, Vaxsh bilan Qizilsuv oralig'ida, Ko'lob vodiysi hamda Panj daryosining o'ng sohilida, Qashqadaryoning quyi oqimida, Zarafshonning quyi oqimida (Shahrud kanali bo'ylarida) yashashgan.

Barlos Qoratog'daryo vodiysida, Surxondaryo vodiysining ayrim joylarida, Qashqadaryoning bosh tomonlarida, Shaxrisabz atroflarida istiqomat qilib kelganlar. Bundan tashqari, barloslar Zarafshon vodiysidagi sobiq Samarqand uezdining Qoratepa, Mog'iyon, Forob, Panjakent voloslari, Nurota va Molguzar tog'larida, Turkiston tog'lari etaklarida yashardilar.

Kaltatoylar Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimlarida, Nurota va Molguzar tog'lari yonbag'irlarida, Turkiston tog'lari etaklarida, Qashqadaryo vodiysidagi Kitob shahri atroflarida istiqomat qilganlar.

Musobozorlar Hisor vodiysida, Hisor tog'larining shimoliy yonbag'irlarida (Xonaqodaryo va Qoratog'daryo havzalarida), Qashqadaryoning bosh tomonidagi Forob, Denov, Sumsar qishloqlari atroflarida, ulardan pastroqda – Miraki qishlog'i yaqinida ham yashashgan.

Mo'g'ullar kamroq bo'lib, Panj daryosining o'ng sohilidagi Chubak qishlog'i atroflarida, Jilg'asoy vodiysida o'rnashib qolganlar. Hisor vodiysida, Janubiy Turkistonning ba'zi bir joylarida ham mo'g'ul qishloqlari unda-bunda uchraydi. Mo'g'ullarning ko'pchilik qismi Shimoliy Afg'onistonda ham mavjud.

Qo'ng'irotlar Amudaryo bo'ylarida, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylarida yashab kelganlar. Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalarida ham yakkalanib qolgan qo'ng'irot urug'i guruhlari bor.

Mang'itlar, asosan, Zarafshon vodiysida, qisman esa Xiva xonligida, so'ngra Qarshi vohasida, shuningdek Amudaryoning chap sohilida – Chorjo'y yaqinlarida yashab kelgan. Mang'it bir qancha yirik va mayda urug'larga bo'lingan. Eng yirik urug'lar: oq mang'it, qora mang'it, och mang'it, chala mang'it, boyg'o'ndi mang'it. Bulardan tashqari, yana temirxo'ja, isoboy, gavlak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg'ali mang'it, qozoq, o'n ikki, cho'qay, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay kabi urug'lar ham bo'lgan.

Naymanlar, asosan, Zarafshon vodiysida, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida

o‘rnashib qolganlar; Xiva vohasi va Farg‘ona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar bo‘lgan.

XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urug‘dan iborat bo‘lgan. Bular – qo‘shtamg‘ali, sadirbek va uvox-tamg‘ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi ag‘ran, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, boltali, bo‘qalay, burunsov, jag‘albayli, jastavon, jilonli (ilonli), jumaloq-bosh, oltio‘g‘il, oqto‘nli, po‘lotchi, segizuruv, sarinayman, to‘rttuul (to‘rto‘g‘il), to‘rttamg‘ali, urguch, ukrash, changali, cho‘michli, g‘ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak, qarg‘ali, qiltamg‘ali, qo‘ltamg‘ali kabi tarmoqlarga ham bo‘lingan.

Saroy qabilasi Buxoro, Karmana, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Jizzax atroflarida, Qarshi, Shahrisabz vohalarida, qisman Farg‘ona vodiysida yashagan. Saroylar tarkibida bir qancha katta-kichik qabilalar bo‘lgan: azsaroy, qipchoqsaroy, qirg‘izsaroy, qo‘ng‘irotsaroy, majarsaroy, qorabog‘saroy, naymansaroy va boshqalar. Bularning har biri o‘z navbatida yana bir qancha urug‘larga bo‘lingan.

Kenagaslar, asosan, Shahrisabz, Buxoro, Karmana, Denov vohalarida, *laqaylar* Kofirnihon, Vaxsh, Qizilsuv havzlarida zich yashaganlar. Kenagaslar ochamayli, kirey, abak kirey, ovoqli, taroqli, chuyut, qayri soli kabi kichik qabila va urug‘larga; *laqaylar* esa esonxo‘ja, bodroqli, bayram, to‘rtovul kabi urug‘larga (bo‘laklarga) bo‘lingan.

Qataganlar birmuncha keng maydonda- Farg‘ona vodiysining Namangan bilan Qo‘qon shaharlari orasidagi tumanlarida o‘rnashib qolganlar. Qatag‘anlarning asosiy qismi Ko‘hitang tog‘larining sharqiy yonbag‘irlarida, Sheroboddaryo havzasida, Surxondaryoning o‘ng sohilida, Vaxsh daryosi etaklarida, Panjning o‘ng sohilida va Yaxsuv vodiysida g‘uj yashagan. Qashqadaryo havzasida, Zarafshon etaklarida, Buxoro hamda Karmana yaqinlarida ham qatag‘anlar bo‘lgan. Shimoliy Afg‘anistonda ham talay qatag‘anlar yashaydi.

Qipchoqlar Samarqand bilan Kattaqo‘rg‘on o‘rtasidagi tumanlarda, Amudaryoning o‘ng sohilida, Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy va shimoli-g‘arbiy qismlarida o‘troqlashib qolganlar.

Quramalar Ohangaron havzasida, Andijon bilan Namangan orasida turib qolganlar.

Yirik o‘zbek urug‘larining «geografiyasi» ana shunday. Bulardan tashqari, O‘zbekistonning turli joylarida qirq, yuz, ming, qo‘shchi, tuyoqli, qovchin, qangli, do‘rmon, yurchi, chimboy, mitan kabi ko‘plab urug‘lar bor.

O‘zbek urug‘larining qayerlarda yashashi umumiy tarzdagina bayon etildi. Yuqorida aytib o‘tilgani kabi, har bir urug‘, o‘z navbatida, yana qancha-qancha mayda guruhlarga bo‘linib ketadi. Urug‘ – qabilalar shu qadar murakkab joylashganki, biron yirik hududda faqat bir urug‘ vakillarining o‘rnashish hollari deyarli kuzatilmaydi. Urug‘larning ana shunday aralash-quralash bo‘lib yashab kelishi toponimiyada o‘z aksini topgan.

Respublikaning turli tumanlarida ko‘chmanchi o‘zbeklarning o‘troqlikka o‘tishida farq bo‘lgan. Masalan, Zarafshon vodiysida bir xil urug‘ yoki to‘p, shox nomlari bilan ataladigan mayda qishloqlar juda ko‘p. Buning sababi shuki, Xiva xonligiga qarshi o‘laroq, Buxoro xonligida ko‘chmanchilar butun urug‘i bilan emas, balki kichik-kichik bo‘laklarga bo‘linib o‘troqlikka o‘tishgan. Buxoro xonligida bekliklarga nom bergan yirik shaharlar orasida urug‘ nomi bilan atalgan bironta ham shahar yo‘q, holbuki Xiva xonligida bunday shahar uchta – Mang‘it, Qipchoq, Qo‘ng‘irot. V.V.Bartold bu shaharlarning paydo bo‘lishiga Xiva xonligida urug‘chilikning kuchli bo‘lganligini sabab qilib ko‘rsatadi va ular jumlasiga Nukus shahrini ham qo‘shadi.

O‘zbek urug‘larining Buxoro xonligida o‘rnashib qolishini V.L.Vyatkin shunday ta’riflaydi: Uning fikricha unumdor Zarafshon vodiysiga kelgan o‘zbeklarda urug‘chilik yo‘qolmagan edi va ular urug‘-urug‘, shox-shox bo‘lib joylashdilar. Bu urug‘ yoki shoxlarning har biri muayyan bir tumanni egallab olgan. Shu bilan birgalikda o‘zbeklarning biron urug‘i yoki shoxi kelib o‘rnashgan qishloqlar (ular ilgaridan bo‘lganmi yoki yangidan o‘zlashtirilganmi, bundan qat’iy nazar), ko‘pincha shu urug‘ yoki shoxning nomi bilan ataladigan bo‘lib qoldi. Hozirgi vaqtda ba’zi bir hududlarda Bahrin, Qitoy, Nayman kabi qishloqlarning ko‘p bo‘lishiga sabab ana shu.

Ta’kidlash joizki, etnonimlarni bilmasdan turib, O‘zbekiston toponimikasi bilan shug‘ullanish mumkin emas. Chunki urug‘, qabila nomlari ko‘pincha muayyan ma’noni anglatadi. Masalan, o‘zbek urug‘larini bilmagan kishi O‘roqli, Cho‘michli, Qarg‘ali, Oytamg‘ali, Qaychili, Uchtamg‘ali kabi etnonimlarni «li» affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. *Ming, yuz* urug‘lari joy nomlari tarkibida kelganda sonni bildirmaydi, albatta. Holbuki, Jizzax viloyatining Zomin tumanida o‘zbek urug‘larining ***kuchukboy, tog‘ayto‘pi, oqtosh, yantoq, kal,*** kabi kichik guruhchalari, qirg‘iz urug‘laridan esa ***chopon*** (asli – Xonkel chapani), ***birquloq, eshqora, qozoq, jinni, to‘qim*** kabi to‘plari bo‘lganligi ma’lum.

O'zbek etnonimlari to'grisida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor.

Bu jihatdan Zarafshon vodiysi xarakterlidir. Rus harbiy olimi N.F.Sitnyakovskiyning ma'lumotlariga ko'ra, vodiydagi 2800 dan ortiq qishloqning qariyb uchdan bir qismi etnotoponimlar, ya'ni urug'-aymoq nomlari bilan atalgandir. Bu yerda 150 dan ortiq millat, elat, urug'-aymoq va boshqa mayda bo'limlarning nomlari uchraydi. Biz ana shu etnonimlarning eng xarakterlilarini sanab o'tmoqchimiz: *Arab* – 78 (raqamlar necha qishloq shu etnonim bilan atalganini ko'rsatadi), shundan *Arab* – 12, *Arabla(r)*- 4, *Arabon* (14), *Arabxona* (40) bundan tashqari *Arabtepa*, *Qo'ldosharab*, *Milkiarab*, *Chilonguarab* kabi etnoponimlar ham uchraydi); *Afg'on* (4), *Arg'un* (3); *Baxrin* (24) jumladan *Bahrinbayot* – I, *Bahrincha* – I, *Bahrinboz* – I); *Bolg'ali* (I); *Do'rman* (15, jumladan *Do'rmanon* – I, *Do'rmantepa* – I; *Yobu* (24); *Jag'albayli* (2); *Jaloyir* (9); *Kenagas* (2); *Qalmoq* (13, jumladan, *Qalmoqon* – 3, *Ravoti qalmoq* – 2, *Qalmoqkendi* – I, *Qalmoqbevazanon* – I va hokazo); *Qangli* (1); *Qarliq* (16), *Qatag'an* (9), *Qirg'iz* (20, jumladan, *Qirg'izon* – 4, *Qirg'izsaroy* – *1; Qiyot* (7, jumladan *Qiyoton* – 1), *Qozoq (8, jumladan Qozoqon* – 1, *Maydaqozoq*-1, *Qozoqqoldikalono'rta* – 1, *Qozoqqoldikalonyuqori* – 1, *Qozoqqoldixurd* – 1, *Beshqozoq* – 1, *Qozoqoldikalonpast* – 1); *Qoraqalpoq* (14); *Qorayo'li* (2); *Qo'ng'irot (8); Qipchoq* (9, jumladan *Qipchoqon* – 1, *Qipchoqxo'ja* – 1, *Qipchoqbolo* – 1); *Qitoy (8,* jumladan *Qoraqitoy* – 1, *Qitoyon* – 3); *Qurama (2), Quramapoyon, Quramabolo); Qo'shtamgali* (1), *Mojor* (4, jumladan, *Mojorpast, Mojoryuqori), Mang'it* (12, jumladan, *Mang'iton* – 5, *Mang'itpoyon* – 1), *Masit* (5); *Mo'g'ul* (8, jumladan, *Mo'g'ulon* – 6, *Mo'g'ulkenti* – *1), Ming* (7, jumladan, *Mingla(r)* – 1, *Mingon* – 2); *Saroy* (26, *Uygursaroy* – 2, *Saroypoyon, Saroybolo* – 1); *Sulduz* (2), *Tatar* (4, *jumladan, Tataron* – 1, *Tatarcha* – 1, *Tatarmahalla* – 1); *Tojik* (11, jumladan, *Tojikon* – 6, *Tojiklar* – 3); *Turk* (7, jumladan *Turkon* – 6); *Turkman* (5), *Uyg'ur* (5), *Uyrat* (1); *Urganji* (23, jumladan, *Urganjiyon* – 6, *Urganjilar* – 4); *O'zbek* (19, jumladan, *O'zbekon* – *12, Yuqori O'zbekon* – *1, Quyi O'zbekon* – *1, Raboti o'zbek* – 1); *Chig'atoy* – (12), *Yuz* (3) va hokazo. Bulardan tashqari, Habash, Xo'ja, Jukut kabi toponimlar ham aslida etnonimlarning o'zginasidir. Bu esa Zarafshon vohasida aholining etnik tarkibi nihoyatda xilma-xil bo'lganligini ko'rsatadi.

Zarafshon vodiysi toponimiyasi butun O'zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi sanaladi. Shu sababli bu ma'lumotlar butun respublika toponimiyasi uchun xarakterlidir.

Shunday qilib, Zarafshon vodiysi, shuningdek, Janubiy O'zbekiston etnotoponimlar soni jihatidan eng oldingi o'rinda, Farg'ona vodiysi esa eng oxirgi o'rinda turadi.

Ma'lumki, Zarafshon vodiysida yashaydigan xalqlar orasida o'zbeklardan so'ng tojiklar son jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Ana shuning uchun ham etnotoponimlar soni vohaning turli joyida turlichadir. Asosan o'zbeklar yashaydigan tumanlarda etotoponimlar, ayniqsa ko'p. Masalan, Xatirchi bekligida 174 aholi punktining yarmidan ko'prog'i turli xalqlarning urug'-qabilalari nomlari bilan atalgan; tojiklar ko'p bo'lgan G'ijduvon bekligida barcha qishloqlarning taxminan 1/10 qismigina etnotoponimlardir. O'zbeklar bilan tojiklar qo'ni-qo'shni yashaydigan oraliq zonalarda esa *O'zbek-O'zbekon* (18), *Tojik-Tojikon* (14) kabi etnotoponimlar uchraydi.

Endi biz ikkinchi bir manbani, ya'ni 1959 yil aholi ro'yxatida tilga olingan aholi punktlarini ko'rib chiqaylik. Bunda Zarafshon vodiysidagi Samarqand va Buxoro viloyatlarini hisobga olamiz. O'sha yili Samarqand viloyatida 3700 ga yaqin aholi punkti bo'lgan, shulardan bir qismi sovxoz bo'limlari, xutorlardir. Ana shu aholi punktlaridan 800 ga yaqini etnotoponimlar. Ular Ishtixon (90 ga yaqin), Bulung'ur (80 ga yaqin), G'allaorol (70), Pastdarg'om (80), Xatirchi (70) tumanlarida ayniqsa ko'p; Jizzax (15), Nurota (20 ga yaqin), Paxtakor (25 ga yaqin) tumanlarida etnotoponimlar kamroq.

Quyidagi etnonimlar eng ko'p uchraydi. *Oytamg'ali* (5 marta), *Arlot-Allot* (3), *Olmasuvon* (3), *Olchin* (4), *Arab-Araba-Arabtepa-Arabxona* (15), *Achamayli-Ochamayli* (2), *Baday* (4), *Bag'anali* (3), *Baymoq-Baymoqli* (3), *Bolg'ali* (10), *Bolta-Boltali* (9), *Barlos* (4), *Bahrin* (7), *Beshbola* (16); *Beshkal* ( ), *Beshkubi* (8), *Burqut-Burgut* (7), *Do'rman* (7), *Jag'albayli* (2), *Jaloir* (10), *Ilonli-Jilontamg'ali* (8), *Qovchin-Qovchinon* (2), Qatag'an (6), *Qozoq-Qozoqovul, Qozoqqishloq-Qozoqlar* (13), *Qangli-Yemonqangli* (18), *Qoraqalpoq* (5), *Qorakesak* (3), *Qoraqitoy*-Qitay-Xitoy (8), *Qorasiyroq* (2), *Qorliq* (2), *Qiyot* (9), *Qo'ng'irot-Qoraqo'ng'irot-Yomonqo'ng'irot* (12), *Quralas* (2), *Qurqozon* (3), *Ko'rpa* (4), *Qutchi-Quchchi* (5), *Qo'shtamg'ali*

(7), *Mang'it-Oqmang'it* (12); *Ming-Minglar* (2), *Mesit* (2), *Mitan* (9), *Mo'g'ul* (8), *Nayman-Naymancha – Qoranayman* (24), *Nebo'sa* (2), *Saroy* (20), *Sartyuzi* (3), *So'loqli* (4), *Tojik* (7), *Toz*, *Tortuvli* (6), *Tig'iriq* (3), *Turkman* (4), *Turk – Turklar* (5), *Turkman* (14), *Tuyoqli* (7), *O'zbek -O'zbekiston* (5), *Uzun* (6), *O'ymovut* (3), *Uyshin (2)*, *Urganji* (7), *O'roqli – Sario'roqli* (3). *Chandir* (4), *Chaparashli*(3), *Chelak – Oqchelak* (2), *Chig'atoy* (5), *Chirqirovuq* (4), *Cho'michli* (4), Chuyut (3), *Shirin* (4), *Erganakli* (4), *Yuz-Kenjayuz* (6), *Yobu – Jobi* (5) va hokazo. Buxoro viloyatida aholi punktining 1/3 qismi etnotoponimlardir (3000 dan ortiq).

Quyidagi etnonimlar ko'proq uchraydi: *Adoq-Odoq* (6), *Ayronchi*(4), *Arlot-Allot-Olot-Olotxona* (7), *Olchin* (2), *Arg'un* (2), *Afg'on – Afg'onon* (3), *Arab – Araba – Arabobod – Arabon – Arabqishloq – Arablar – Arabxona – Arabxonacha – Arabcha* (72), *Bahrin* (6), *Burqut – Burgut* (6), *Do'rman* (11), *Jaloir* (5), *Qozoq – Qozoxon – Qozog'iston* (4), *Qozon* (4), *Qalmoq* (8), Qorliq – Qolluq – Qolliqon (9), *Qoraqalpoq* (2), *Qatag'on* (10), *Kelachi* (3), *Kenagas* (2), *Qipchoq* (7), Qirg'iz (5), *Qiyot* (4), *Qulonchi – Qoraqulonchi* (7), *Qo'ng'irot* (6), *Qurama* (3), *Mang'it – Qoramang'it – To'qmang'it* (10), *Ming – Minglar – Mingon* (4), *Mirishkor* (8), *Mitan – Metan* (8), *Nayman* (8), *Po'lati – Po'latchi – Oqpo'lat* (4), *Saroy – Oqsaroy – Ko'ksaroy* (23), *Sayot* (2), *Tojik* (5), *Tayloq* (3) *Turk – Turkon* (3), *Turkman* (5), *O'zbek* (14), *Urganji* (29), *Xalach – Xalijayon* (3), *Chandir* (9), *Chig'atoy* (3), *Chuyut* (2), *Shag'al* (3), *Yobi – Jobu* (6).

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Etnotoponimlarni respublikaning hamma joyida uchratsa bo'ladi. Etnograflar (S.M.Abramzon, P.P.Ivanov, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov va boshqalar) O'rta Osiyoda xalqlarida «qabila» va «urug'» qon-qardosh kishilar guruhlari bo'lmay, balki xududiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy manfaatlari umumiy bo'lgan xilma-xil sotsial va iqtisodiy guruhlarning birlashmalaridan iborat ekanligini aniqladilar.

L.N.Sobolev o'tgan asrning o'rtalarida Zarafshon vodiysida biron urug' yoki to'p nomi bilan atalgan qishloqlarda endi ko'pincha boshqa urug' vakillari yashashini aniqlagan. Masalan, o'zbek urug'lari nomi bilan *Qatag'on*, *Chunchuqli*, *Tuyoqli* deb atalgan qishloqlarda turk qabilasi vakillari, Qiyot qishlog'ida naymanlar va qoraqalpoqlar, *Tatar* qishlog'ida qoraqalpoqlar yashagan.

O'zbek xalqining ko'plab urug'-qabilalari nomlarining bizgacha yetib kelishida Rashididdin, Abulg'ozi Bahodirxon va kabi tarixchilar asarlari, shuningdek, N.V.Xanikov, A.P.Xoroshxin, N.A.Aristov, D.N.Logofet, A.D.Grebenkin, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, I.I.Magidovich, B.X.Karmisheva, K.L.Zadixina, K.Sh.Shoniyozov, B.A.Ahmedov, I.Jabborov, X.Doniyorov kabi mehnatkash olimlarning ilmiy ishlari katta manba bo'lib xizmat qiladi.

O'tgan asrning 20-yillarida aholi ro'yxati natijasida O'zbekiston aholisining urug'-qabilalari to'g'risida, mukammal materiallar to'plandi. Bu ma'lumotlar O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi.

Quyida O'zbekiston xaritasida hozirgacha qishloqlarning nomlari nomlida uchraydigan etnooykonimlarning qisqacha ro'yxatini keltiramiz: *Abdal, Abiz, Avg'on, Avg'onbog', Avg'onon, Aday, Adayko'l, Aliovul, Ayronchi, Aleli, Alelicha, Andi, Arab, Arabon, Arablar, Arabxona, Arg'in, Arlot, Afg'on, Afg'onon, Axtachi, Axtachi, Axtixona, Achamayli, Achchi, Ishamayli, Ayuchi, Bag'anali, Bag'ish, Baday, Badal, Badroqli, Boy, Boyovul, Boymoqli, Bahrin, Boyqut, Boyto'pi, Boyo'g'li, Boqabachcha, Bolg'ali, Boldir, Balqi, Bolta, Boltako'l, Boltali, Boltaqir, Balxi, Baliqchi, Baroq, Barlos, Botosh, Baxmal (Baxmon), Bahrin, Baxshi, Bachqir, Boyovut, Beglar, Begaviot, Bektemir, Beshog'och, Beshbola, Beshqozon, Beshkal, Beshkaltak, Beshkapa, Beshkubi, Beshsari, Beshtentak, Boltali, Bolg'ali, Burqut, Bo'ston, Bo'g'ajeli, Gala, Galaboitir, Gumbaz, Gurlan, Dalvarzin, Darxon, Do'rmon, Duvlat, Dumar, Yettiqashqa, Yetimshox, Yettiurug', Yobu, Yobi, Yovi, Yovu, Jabag'li, Jabag'i, Jobi, Jag'alboyli, Jag'altoy, Jadigir, Jakis, Jaloyir, Jalmat, Jastobon, Jatta, Jelkillak, Jilonli, Jilontamg'ali, Jilonchi, Juz, Jo'g'i, Juyrat, Juriyat, Zarmas, Ilonli, Kal, Kallar, Kaltatoy, Kapa, Kapsasaroy, Kasovli, Kelachi, Kenagas, Kepe, Kerayt, Kerey, Kesaklar, Kesakli, Kesavli, Kesamir, Ko'kjar, Ko'kqarg'a, Ko'ktirnoq, Ko'kto'nli, Koreysovul, Ko'lobi, Ko'rpa, Ko'sa, Lag'mon, Laqay, Langar, Lug'umbek, Lo'li, Mavlish, Mazang, Maydayobu, Moylibolta, Molish, Mang'it, Mang'itlar, Marqa, Marqayuz, Maschai, Machchai, Machay, Mergancha, Merkit, Mesit, Metan, Ming, Minglar, Minjir, Mirzai, Mirzamitan, Mirzato'p, M'rishkor, Misit, Mitan, Mo'g'ol, Mug'ul, Mo'g'olon, Mug'ot, Mo'g'lon, Mug'ulon, Mug'ulkent, Mug'ultoy, Muytenovul, Muqimi, Multoni, Munduz, Murotali, Musobozori, Nayman, Naymanovul, Naymanbo'ston, Naymansaroy, Norin, Nebo'sa, No'kis, Nukusovul, Nukusqala, Nukuslar, Nukusli, Nekuz, Nukusyop, Oboqli, Ovoqli, Ovchi, Odoq, Oytamg'ali, Oyinli (Oyinni), Og'or, Oybek, Oriq,*

Oqbosh, Oqbo'yra, Oqqo'yli, Oqqipchoq, Oqmang'it, Oqtana, Oqto'nli, Oqtumar, Oqchelak, Oqchepkan, Olabaytal, Olaqarg'a, Olot, Oldoshmon, Ollot, Olmasuvon, Olmachi, Oltiog'ayni, Oltio'g'il, Olchin, Orol, Parchayuz, Patas, Pashqurt, Po'loti, Po'lotchi, Po'stinli, Puchug'ay, Ramadon, Ramit, Savoy, Sayot, Sayid, Sayidobod, Sayidkent, Sayidlar, Salim, Sanchiqul, Sanchiqli, Saroy, Saroykerayit, Saroyqishloq, Sart, Sartsaroylik, Saroycha, Saroyon, Sartjuzi, Sartyuz, Saribag'ish, Sari, Sario'ymovut, Sayoq, Sayot, Sirgali, Sulduz, Suyunduk, Tobin, Tog'ay, Tog'liq, Toqchi, Tojik, Tojikobod, Tojikqishloq, Tojiklar, Tojikmahalla, Tojikravot, Toz, Tait, Tayloq, Tayloqon, Tayloqlar, Tama, Tamabahrin, Tamayrat, Tamg'ali, Tarag'ay, Taroqli, Torttuvli, Tatar, Tatarlar, Tatarqishloq, Tatarmahalla, Tatarto'pi, Toti, Totkent, Tegana, Telov, Tig'iriq, Tilovmat, Teliming, To'g'ali, To'qboy, To'qmon, To'qsoba, To'par, Turbat, Turkibolo, Turk, Turkiston, Tupqora, To'ja, Tulangit, Tulkichi, Tumor, To'par, Turkipoyon, Turkovul, Turkon, Turkman, Turkmanovul, Turkravot, To'rtog'ayni, To'rtota, To'rtayg'ir, Tuyoqli, Tuyachi, Tudamali, Uzun, Uyg'ur, Uyshin, Uyshun, Uysun, Ultarma, Ungut, Urganji, Urganjibog', Urganjtyon, Urganjilar, Urganjixona, Uchuyli, Uyuvli, Uyali, Uyas, Xalach, Xidirsha, Xitoy, Xitayuz, Xo'ja, Xo'jalar, Chovli, Chag'atay, Chaqar, Chaqmoqli, Chalaqozoq, Chalaqarg'a, Cholmang'it, Choljuvit, Chang'aroqchi, Chandir, Chandirqiyot, Chaparashli, Chig'atoy, Chiljivut, Chimboy, Chimboyliq, Chinoz, Chirkoy, Chirqirovuq, Chibolonchi, Chubar, Chubat, Chuvalanchi, Chuvalachi, Chuvilloq, Chuvit, Cho'llilar, Cho'mbog'ish, Cho'mishli, Chumchuqli, Cho'ngbog'ish, Cho'ntak, Chuyut, Shag'al, Shag'alon, Shag'alqala, Shag'allar, Sheyxlar, Shirin, Shirinlar, Shirintepa, Shixlar, Shuyit, Shiljuit, Eloton, Yuzlar, Yuzqishloq, Yuziya, Yambaroq, O'ymovut, O'ris, O'risqazg'an, O'risqishloq, O'tarchi, O'yuvli, Qozoq, Qozoyoqli, Qayirma, Qaychili, Qayshili, Qalluq, Qalmoq, Qalmoqon, Qalmoqlar, Qalmiq, Qangli, Qandi, Qandekli, Qanjig'ali, Qatag'on, Qashqar, Qora, Qoraabdal, Qorabog'ish, Qorabotir, Qorabo'yin, Qorabo'ra, Qoramang'it, Qoramirishkor, Qoraqalpoq, Qoraqalpoqiya, Qorakaltak, Qoraqasmoq, Qoraqitoy, Qorakesak, Qoraqursoq, Qorako'sa, Qoraqutchi, Qoraqushchi, Qoramurcha, Qoraqipchoq, Qoramang'it, Qoraqishloq, Qoramo'yin, Qoramurt, Qoranayman, Qorao'ymovut, Qorapchi, Qorapichoq, Qorasadoq, Qorasoqol, Qorasiyroq, Qorateri, Qorato'nli, Qoratuxum, Qoraxoni, Qoraxitoy, Qoracha, Qorayantoq, Qarg'alar, Qarg'atepa, Qorliq, Qarmish, Qarsoqli, Qatag'on, Qovchin, Qashg'ar, Qashtamg'ali, Qipchoq, Qiyqim, Qirg'iz, Qirg'izovul, Qirg'izqo'rg'on, Qirg'izlar, Qirg'izmahalla, Qirsadoq, Qitoy, Qiyoli, Qiyonni,

Qiyot, Qiyoton, Qiyotovul, Qo'qoni, Qo'ldovli, Qo'shtamg'ali, Quva, Quvondiq, Qo'g'a, Qo'g'ay, Qulvachcha, Qullar, Qo'ng'irot, Qo'ng'irotovul, Quraysh, Quralas, Qurama, Qurg'ozon, Qutchi, Qo'shtamg'ali, Qushchi, Quyonquloqli, Qiziloyoq, Qirq, Qirqovul, Qirqqishloq, Qirqlar, Qishliq, Qiyot, G'alcha, G'o'lba.

Bu etnonimlar joy nomlari shaklida qayta-qayta uchraydi, Masalan, ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshbola, burqut, g'alabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'ali, sayat, tortuvli, o'ymovut, o'tarchi, uyas, qutchi kabi etnonimlar qishloq-shahar nomlari tarkibida 5 martadan 10 martgacha, bolg'ali, bolta, bahrin, bo'ston, qangli, qoraqalpoq, uyg'ur, qashqar, qiyot, qurama, qirq, mirishkor, mug'ul kabi etnonimlar 11 – 20 martagacha, beshkapa, do'rman, jaloyir, tojik, turkman, qirg'iz, qozoq, qo'ng'irot, mang'it kabi etnonimlar 21 martadan 30 martagacha, qipchoq, saroy etnonimlari 31-40 martagacha takrorlanadi. Arab etnonimi esa 80 dan ortiq oykonim hosil qilgan.

ETNONIMLAR MA'NOSI

Har qanday etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi bir etnonimlar juda qadimiy so'zlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'irot, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O'zbek – «o'ziga bek», qirg'iz – «qirq qiz», qozoq – «qochoq», mitan – «mo'ytan» (serjun), qangli – «qanqli» (aravali), qorluq – «qorliq» (qorda qolgan), xalaj – «qol och» (och qolgan), qalmoq – «chetda qolgan» (islom diniga kirmay qolgan) degan ma'noni bildiradi deyish g'ayri-ilmiy, asossiz izohdir.

Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashiydi. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kishilar bir necha ming yillar davomida ayrim-ayrim holda urug' bo'lib, keyinchalik esa hududiy-dialektal umumiylik hosil qilib, qabila-qabila bo'lib yashaganlar. «Odam», «inson», «o'zimizning kishilar» kabi ma'nolarni anglatgan *ar* (er), *man* (men) kabi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo'lgan. Bir qancha etnonimlar chindan

ham odam», «rostakam inson» degan ma'nolarni bildiradi. Masalan, udmurtlar (janubiy udmurtlar) tarixiy manbalarda *ar* «odam» shaklida tilga olingan. *Tatar, hazar, arlat, ag'ar, majar, mishar, avar, bulg'or* kabi xalq va qabila nomlari tarkibidagi *ar (er), ir* qo'shimchasi eroniy tillardan birida «odam» degan ma'noni bildirgan va keyinchalik turkiy tillarga o'tgan. ***Ariy*** (oriylar), ***iron*** (osetinlarnign bir qabilasi) va hatto ***eron*** so'zlari ham o'sha *ar* (ir) «odam» so'zidan tarkib topgan bo'lsa ajab emas. Turkman, qaraman, aqman, sarman, quman kabi etnonimlar tarkibidagi *man* qo'shimchasini olimlar ayrim hind-evropa tillaridagi *man — men* «odam» so'zidan kelib chiqqan, deydi. Masalan, D.Ye.Yeremeev va boshqalar fikricha, qipchoqlar tarixiy manbalarda qumanlar shaklida ham, tilga olingan (boshqa fikrlarga ko'ra, quman yoki quban qipchoqlar tarkibiga kirgan qabila). Quman «qum-man», ya'ni «qumrang (och sariq) odam» degan ma'noni bildirar ekan, bu esa qipchoqlarning ruscha nomiga aynan to'g'ri keladi. Ya'ni ***polovets*** — sarg'ish demakdir. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, qipchoqlar (polovetslar, qumanlar) ko'zi ko'k, sochi sarg'ish kishilar bo'lgan.

Yaqin vaqtlargacha *nemis* etnonimi «gung, soqov», ya'ni «tilga tushunmaydigan» ma'nosidagi ruscha *nem* so'zidan tarkib topgan deb hisoblanar edi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nemis so'zi qadimgi germanlarning *nemetes* qabilasining nomidan olingan bo'lib, «ko'chmanchilar» degan ma'noni anglatar ekan.

Shu bilan birga bir qatorda ko'pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon ma'lum emas. Masalan, «o'zbek» so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli fikrlar bor. Ko'pchilik olimlar ko'chmanchi o'zbeklar Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1340) ismi bilan atalgan deyishadi. Holbuki, O'zbekxon Oltin O'rda (Ko'k O'rda)da xonlikka ko'tarilgan, o'zbek atamasi esa Oq O'rdada paydo bo'lgan. Ya'ni XIV-XV asrlarda Eron hamda O'rta Osiyo tarixchilari Oq O'rdaning barcha turk-mo'g'ul qabilalarini o'zbeklar deb atashgan. Bundan tashqari, O'zbek ismi O'zbekxondan oldin bitilgan asarlarda ham uchraydi. Demak, *o'zbek* etnonimi O'zbekxon ismidan kelib chiqqan, degan fikr to'g'ri emas. Bu so'z «o'zi bek» degan ma'noni bildiradi, deyish ham ilmiy dalil emas. O'zbek o'z (uz) qabilasi nomi bilan bog'liq degan fikr ham isbot talab. Umuman, hozircha «o'zbek» so'zining etimologiyasi ham aniq emas.

Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila-

urug'lardan tarkib topgan. Akademik V.V.Bartold so'zlariga qaraganda, dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin XVI asrdayoq farg'onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy «Majmuat — tavorix» asarida 92 o'zbek urug'i (elatiya) ni tilga olgan. XIX asrning 60-yillarida bitilgan «Tuhfatit-tavorixi xoniy» qo'lyozmasida ham (muallifi farg'onalik Mulla Avaz Muhammad Attor) o'zbek urug'larini 92 ta deb ko'rsatilgan. N.Xanikov o'zining «Buxoro xonligi tasviri» kitobida (1843 yil) «Nasabnomai o'zbekiya»ga asoslanib, 97 o'zbek urug'ining ro'yxatini keltirgan.

O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar)ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem-ongon) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, *jilondi* (ilonli), *jilontamg'ali* (ilontamg'ali), *qulon, oqbura, qorabura,* (bura,buvra,bug'ra — bichilmagan erkak tuya), *qarg'a, shag'al* (shaqal — chiyabo'ri), *echki, ho'kiz* etnonimlari shular jamlasidandir. Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba'zan shu urug' ajdodining laqabi ham bo'lishi mumkin.

Ko'pgina etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Ya'ni har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg'alab qo'yishgan. *Bolg'ali, kosovli, qaychili, taroqli, cho'michli, qirg'ili* kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or asboblariga o'xshash bo'lgan.

Etnonimlar orasida kishi ismlari ham uchraydi: *amir — temir, bo'ronboy, jalmat, ollaberdi, fozil, chig'atoy*; joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar ham bor: *beshqo'ton, buloqboshi, soylik, urganji, qayirma, qorabuloq, sharqiyalik* (Shohruhiyalik — Shohruhiya — Ulug'bekning otasi Shohruh nomi bilan atalgan shahar nomidan) va boshqalar. O'zbek etnonimlarini semantik *jihatdan* bir necha guruhga bo'lish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: *qirsadoq* (sadoq — o'qdon), *iyarchi* (egarchi — egarsoz), *gilambofli* — (gilam to'quvchi), *sayot* — (sayyod — ovchi), *tulkichi, zargarlik, mirishkor, po'latchi* va boshqalar.

O'zbek urug'larining o'ziga xos etimologiyasi bor. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Shuni aytish kerakki, etnonimlar etimologiyasi haqida keltirilgan fikrlar turli manbalarga suyanib yozilgan. Binobarin, uzil-kesil variantlar emas, chunki har qanday etimologiya ham nisbiydir.

Abdal urug'i Hindiston, Afg'oniston va xususan O'rta Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o'ynagan qadimiy xalq – eftalit, ya'ni xaytallarning avlodidir. Xaytallar (eftalitlar) suriya, yunon manbalaridayoq *abdel* deb atalgan.

Tarixchi Bal'amiy (X asr) fikricha, *xaytal* so'zi Buxoro tilida «pahlavon», «jasur odam» degan ma'noni bidiradi.

Shu bilan birga keyingi vaqtlarda *abdal* deganda «gadoy», «darvesh» kishi tushuniladi. Shuningdek, artistlar, sozandalar, qalandarlar, maddohlarning jargoni «abdal (abdol) tili» deyilgan.

Avshar qadimiy urug'lardan biri. Arab geograflari o'z asarlarida Buxoro yaqinida *Avshar* degan qishloqni tilga oladi. Abulg'ozi Bahodirxon *avshar* so'zini «ishni ildam ishlamoqchi» deb izohlaydi.

Arg'in – bu urug' O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qayd qilingan *arg'u* qabilasi ham shu bo'lsa kerak. «Boburnoma»da, o'zbek urug'larining dastlabki yozma shajarasi hisoblangan va Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat-*tavorix*» asarida keltirilgan o'zbek elatlari ro'yxatida bu urug' *arg'o'n* shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo'g'ulcha arg'in (o'zagi arg' – «duragay») so'zidan kelib chiqqan. *Arg'in* (arg'un) so'zi qirg'iz tilida hozir ham ana shu ma'noni anglatadi.

Asaka etnonimi O'rta Osiyoda qadimdan yashagan *sak* (saka) qabilasi nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ba'zi bir mulohazalarga ko'ra, *asaka* «otliqlar» degan ma'noni bildiradi. *Asaka* so'zi joy nomlari shaklida ham uchraydi. Masalan, Andijon viloyatidagi **Asaka** shahri. Qoraqalpog'iston respublikasi hududida **Asakaovdon** botig'i bor. Geologlar Asakaovdonning o'rni yuqori to'rtlamchi davrda ko'ldan iborat bo'lganligini aniqladilar (ovdon, to'g'risi obdon «suv ombori», «hovuz»).

Axtachi – qadimgi urug'lardan biri. Bu urug' vakillarini Bobur ham tilga olgan. *Axta* mo'g'ul tilida, umuman «ot» (jumladan «bichilgan ot») demak. *Axtachi* esa «otboqar», «jilovdor» (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma'nosini beradi.

Bag'anali – o'zbek urug'larining tarmog'i. Bag'ana «qorako'l teri», «yosh qo'zi terisi» demakdir. Uning «stun» ma'nosi ham bor.

Barlos – O'zbekiston hududida, asosan Qashqadaryo vohasida ko'chmanchi o'zbeklardan (XVI asrdan) oldin yashab kelgan qabilalardan biri. *Barlos* so'zi Abulg'ozixonning fikricha «qo'mondon», Alisher Navoiy asarlarida yozilgan «Badoeul – lug'at»ga ko'ra esa «bahodir» degan ma'noni bildiradi.

Boyovut – respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug'lardan biri. Rashididdinning «Jome ut – tavorix», Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham *boyovut* urug'i tilga olingan. Boyovut so'zi «boy» demakdir.

Dug'lat, Duvlat – dastlab mo'g'ul qabilasining nomi bo'lgan. Dug'latlar Duklan degan kishidan tarqalgan. *Duklan* (dogolan) mo'g'ul tilida «cho'loq» degan so'z, *dug'lat* esa bu so'zning ko'pligini anglatadi.

Irg'anoqli (erganakli) – irg'oqli urug'i ham qayd qilingan. Ehtimol, bu ikkalasi bir urug'ning turlicha talaffuz qilinishidir. Irg'anaq «katak», «shox-shabbadan to'qilgan chavra». Demak, bu urug'ning tamg'asi katak shaklida bo'lgan.

Ko'rpa, Ko'rpanali, Ko'rpasoy, Ko'rpaqishloq, Ko'rpacha, Yangiko'rpa kabi nomlarning «yopinchiq» ma'nosidagi asli forscha *ko'rpa* so'ziga hech qanday aloqasi yo'q.

Qadimiy turkiy tilda **ko'rpa** so'zining «barra o't», «yosh bola», «qo'zichoq», «uloqcha», «buzoqcha», «kepak» ma'nolari borligi qayd qilingan. Lekin **ko'rpa** so'zining ko'pgina ma'nolari unutilgan, shunga qaramasdan, ba'zi joylarda barra bedani «beda ko'rpa bo'lib qolipti» deyishadi. Qirg'ischada ***ko'rpo'*** – barra qo'zi terisi ma'nosini bildiradi.

Urug'lar hayvon nomlari bilan atalganini hisobga olsak *ko'rpa* etnonimi «qo'zichoq» degan ma'noni bildiradi. Chunonchi, mashhur tilshunos Abu Hayyon al-Andalusiy (XIII asr) asarlarida *ko'rpa* so'zi ana shunday izohlangan.

Kerayt (Kerayit) o'zbek millati tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Turli manbalarda *kerayit* so'zi «qora qo'y», «qora odam» yoki «qarg'a» deb izohlangan (to'g'risi ham «qarg'a»). Etnonim oxiridagi – «t» harfi ko'plik affiksidir.

Marqa – yuz urug'ining bir tarmog'i. Marqa – «katta, ulkan» degan so'z. Marqa qo'zi – ertaroq, martdan oldin tug'ilgan qo'zi, egiz qo'zilarning oldin tug'ilgani. Gavrilov fikricha, *marqa* (marqa yuz) – yuz urug'ining eng katta tarmog'i, urug' boshining katta xotini – boybichadan tarqalgan.

Naymanlar – mo'g'ul urug'i deb hisoblanar edi. Bunda olimlar *naim* so'zi mo'g'ulcha («sakkiz») ekanligiga asoslangan.

Etnograf N.A.Aristov *nayman* so'zi Sibirdagi *Nayma* daryosi nomidan olingan deydi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, naymanlar asli

turkiy qabila bo'lib, *sakkiz o'g'uz* nomini mo'g'ullar o'z tillariga moslab *nayman* deb ataganlar.

Ochamayli (Achamayli) – yuz urug'ining bir bo'lagi. Ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan yoki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ***ochamay*** deyilgan. Demak, bu urug'ning tamg'asi egar shaklida bo'lgan. Etnograf A.Aristov ochamayli urug'i *och (ach)* degan qadimgi qabila nomi bilan atalgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi.

Solin – yuz urug'ining bir tarmog'i. Solinlar Zarafshon vodiysida, Jizzax viloyatining Jizzax, Zomin, G'allaorol tumanlarida qayd qilingan. Quloqning uchki yumshoq qismi *solin* (solinchoq, solinchak) deyiladi.

So'loqli – yuz qabilasining tarmoqlaridan biri. *So'loq* so'zining bir necha ma'nosi ma'lum – 1) qora jigar, taloq; 2) qo'y-echki qulog'ining biron joyini kesib en solish, tamg'alash usullaridan biri. Quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, *oldingi suloq*, keyingi tomoni o'qib kesilsa, *keyingi so'loq* deyilgan; 3) aravaning o'qiga solinadigan temir.

Tobin – mo'g'ulcha so'z bo'lib, «ellik» demakdir. Umuman turk-mo'g'ul qabila va urug'larida raqam (son) bilan ataladigan nomlar uchraydi. Masalan, yuz, ming, do'rman (durbo'n-mo'g'ulcha do'rt – «to'rt») va hokazo.

Tobin urug'idan bo'lgan qozoqlar XIX asrda Sirdaryo bilan Ustyurt yaylasidan Tobol daryosi va Orenburg dashtlarigacha bo'lgan hududda yashaganlar. Tobinlar, shuningdek, o'zbeklar, boshqirdlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibida ham uchraydi.

Tortuvli – qanjig'ali urug'ining bir tarmog'i. *Tortuvli* urug'i qo'ng'irot urug'ining ajdodi Qo'ng'irot otaning kichik xotinidan tarqalgan ekan; Qo'ng'irotota keksayganda kichik xotini o'g'il tug'ib, tortuv (tortiq – sovg'a) qilgani uchun, undan tarqalganlar *tortuvli* deb atalgan ekan.

Uyaz (uyas) marqa urug'ining 16 tarmog'idan biridir. Uyaz boshqa urug'lar tarkibiga ham kirgan. Masalan, solin urug'ining bir shoxi *uyazsolin* deyiladi. Uyaz (uyas) joy nomlari shaklida ham uchraydi. Qadimiy tilshunos olimlardan Abu Hayyon al-Andalusiy va Jamoliddin Tusiy asarlarida uyaz so'zi «pashsha, chivin» deb izohlangan

Chinoz asli (chinas, chinos) – mo'g'ullar hukmronligi davrida bo'lgan qabila. Chin – mo'g'ul tilida «bo'ri» demakdir; – »s» esa

ko'plik qo'shimchasi bo'lib, bo'ri chinoslarning totemi (ongon) hisoblangan.

O'zbekistonda, xususan Buxoro vohasida **Chandir** degan qishloqlar uchraydi. Mahalliy xalq qishloq nomini «chodir» (chayla), «chandir go'sht» degan so'z deb izohlaydi. Aslida esa *chandir* turkman urug'i bo'lib, o'zbeklar tarkibida ham tilga olingan. Abu Hayyon chandir so'zini «duragay, qurama» deb izohlagan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, ko'pgina etnonimlar, chunonchi, qalmoq, arg'in «duragay, qurama» degan ma'noni anglatgan. Aslini olganda boshqalar bilan aralashib, chatishib ketmagan bironta ham xalq yoki qabila yo'q. Barcha ellar, urug'lar bir-biriari bilan aralashib, qo'shilib ketgan.

O'tarchi bir qancha ro'yxatlarda, chunonchi Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmuat – tavorix» asarida qayd qilingan urug'. *O'tarchi* so'zi qadimiy turkiy tilda «vaqtincha yashovchi» (ko'chmanchi) ma'nosini anglatgan. Bu so'zning «sinchi», «ot tabibi» degan ma'nolari ham bor.

Qalmoq (qalmoqlar) ko'chmanchi o'zbeklardan oldin ham Movarounnahrda yashagan va turkiylashgan mo'g'ul qabilalarining avlodlari bo'lsa kerak. Muhammad Solihning «Shayboniynoma»sida aytilishicha, qalmoqlar Shayboniyxonga qarshi Buxoro hokimi Boqitarxon tomonida turib jang qilgan.

Qalmoq so'zi turkiy «qolmoq» fe'lidan olingan, bu so'z islom dinini qabul qilmasdan majusiylar holida qolgan o'yrotlarni anglatgan, deyilar edi. V.P.Darbakova *qalmoq* so'zi mo'g'ulcha «duragay», «aralash», «qurama» degan ma'nodagi *xalmig* so'zidan kelib chiqqanligini aniqladi. Haqiqatan ham aslida o'yrotlardan ajralib chiqqan qalmoq urug'i juda ko'p urug'-qabilalar aralashmasidan iborat bo'lgan.

Qarapchi urug'i ba'zi bir ro'yxatlarda 92 bovli o'zbek urug'laridan biri qatorida tilga olingan; Surxondaryo viloyatida qarapchi 16 uruqqa bo'linadi, ba'zan esa yuz urug'ining katta bir bo'lagi sifatida qayd qilingan. Ba'zi birovlar *qarapchi* so'zini «qarovchi», nazorat qiluvchi «qo'mondon» deb izohlaydilar. Qarapchi so'zining «qashshoq» ma'nosi ham bo'lgan.

Qiyot Abulg'ozi Bahodirxon fikricha, mo'g'ulcha «tog'dan oqqan sel ma'nosidagi *qiyon* so'zining ko'pligidir.

Bu fikrni V.V.Radlov ham isbotlaydi. Bundan ko'rnadiki, *qiyon-*

ni (qiyonli) urug'ining etimologoyasi ham o'sha mo'g'ulcha *qiyon* so'zi bilan ma'nodosh.

Qovchin – o'zbek urug'laridan biri. Ba'zi fikrlarga ko'ra qovchin, qutchi yoki qushchi bir urug'dir. Akademik V.V.Bartold fikricha qovchin so'zi dastlab urug' yoki qabila nomi bo'lgan emas, balki «qo'shin qo'mondoni» yoki «qo'shin» ma'nosini anglatgan. Qovchin so'zining «xo'jayin», «mehmon» degan ma'nolari ham bor. Qovchin joy nomlari shaklida uchraydi. Chunonchi, Yangiyo'l shahrining oldingi nomi *Qovunchi* ham aslida *qovchin* bo'lgan bo'lsa kerak. Shuningdek, Samarqand tumanida *Qovchinon* (qovchinlar) nomli qishloq ham bor.

Qurqozon – o'zbeklarning bir urug'i Samarqand va Jizzax viloyatlarida qayd qilingan. Qurqozon asli qoraqozon bo'lgan, degan fikr bor. Qoraqozon so'zi ikki ma'noda ishlatilgan: 1) bir necha qishloqni o'z ichiga olgan jamoa, bu qishloqlar hashar, ariq tozalash kabi ishlarni birgalashib bajarishgan; 2) harbiy xizmatga chaqirilgan kishi. No'kar (navkar)lar muntazam armiya hisoblangan, qoraqozon (yoki qora cheriklar) esa harbiy xizmatdan tashqari o'z qo'mondonlarining ekin-tikin ishlariga yordam bergan, mol-hollariga qaragan.

Zambarakning qadimiy, kaltaroq bir turi *qozon* deyilgan. Bobur «qozon qurdik», «qozon bilan tosh otdi» deganda ana shu to'pni nazarda tutgan («Boburnoma» tarjimoni Sale ham bu so'zni rus tiliga ana shu ma'noda tarjima qilgan.).

Biz yuqorida etnonimlar haqida, etnonimlarni o'rganadigan etnonimika fani to'g'risida, O'zbekistondagi ba'zi bir urug'-qabilalar geografiyasi va ayrim etnonimlar etimologiyasi, ma'nosi haqida qisqacha to'xtalib o'tdik. Har qanday etimologiya, xususan aksari qadimiy so'zlar bo'lgan etnonimlar etimologiyasi murakkabdir. Tobora unutilib borayotgan urug'-aymoq nomlarini to'plash, yig'ish, shu etnonimlar bilan atalgan joy nomlarini, etnonimlar bilan toponimlar munosabatini aniqlash, ya'ni etnonimlardan nom olgan toponimlar bilan birgalikda ***Urganji***, ***Qo'qoni*** (qarapchi) kabi joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlarni alohida qayd qilish etnonimika oldida turgan vazifalardandir.

Tarixiy manbalarda *dalvarzin* qabilasi tilga olingan. O'zbekistonda *Dalvarzin* degan joylar ko'p (Toshkent, Andijon, Surxondaryo viloyatlari). Xo'sh, bu joylar etnonimdan nom olganmi yoki aksinchami? Bu etnonimning ma'nosi nima? Dalvarzin asli atama. Bunday

deyish uchun quyidagilarga asoslanamiz. Qozog'istonda va Qirg'izistonda *Do'rbo'ljin* degan joylar bor. Afg'onistondagi tarixiy bir joy *Dilberzin* deyiladi. Sirdaryo bo'yidagi *Dalvarzin cho'lini* tojiklar Dilvarzin deyishadi. Bu cho'lning mahalliy talaffuzi ham asli mo'g'ulcha do'lbo'rjin, ya'ni «choldevor» (shahar xarobasi) so'zidan kelib chiqqan deb hisoblaymiz. Demak, *dalvarzin* qabilasi joy nomi bilan atalgan.

O'ZBEKISTON TOPONIMLARINING BA'ZI GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Toponimlarning qanday gap bo'laklaridan iborat ekanligi, shakl shamoyili *modellar* deyiladi.

O'zbekiston geografik nomlari grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga bo'linadi.

Sodda toponimlar o'z navbatida, qo'shimchasiz toponimlarga va qo'shimchali toponimlarga ajratiladi.

Qo'shimchasiz, affikssiz toponimlar deganda birgina otdan iborat, boshqa biron unsur qo'shilmagan geografik nomlar tushuniladi.

Bunday topnimlar bir necha xil bo'ladi:

a) oddiy geografik yoki ijtimoiy-iqtisodiy atamalar shaklidagi toponimlar: *Anhor, Asbob* (Aspop shaklida ham uchraydi – «ko'chmas mulk»), *Gaza* (tog' qirrasi), *Yom* (pochta stantsiyasi), *Ko'l, Orol, Reg, Supa, Taqir, Uchma, Chim, Sharshara, Quduq kabi.*

b) urug'-aymoq, el-elat nomlari bilan ataladigan geografik nomlar (etnonimlar): *Arab, Bayot, Do'rmon, Mang'it, Misit, Nukus, Sayot, Turk, Chandir.*

v) kishilarning ism-familiyalari, laqablaridan iborat toponimlar: *Abdulla, Avaz, Karim, Mustafa, Navoiy, Nazar, Tursun;*

g) o'simlik va hayvon nomlaridan kelib chiqqan geografik nomlar: *Bodom, Do'lta* (adabiy tilda sirtlon deyiladigan badbashara o'limtikxo'r hayvon), *Yong'oq, So'kso'k* (saksovul), *Terak, Chinor, Yantoq;*

Qo'shimchali toponimlar deganda, otga qandaydir qo'shimcha – affiks qo'shib yasalgan geografik nomlar tushuniladi. Quyidagi qo'shimchalar joy nomlari tarkibida ko'proq uchraydi:

-goh – *Janggoh* (jang maydoni), *Namozgoh* (hayitda va juma kunlari namoz o'qiladigan katta hovlisi bor masjid), *Sayilgoh, Shamolgoh, Korizgoh* (koriz ko'p joy);

-zor – *Bedazor, Bodomzor, Kavarzor, Olmazor, Regzor* (qumloq), *Sangzor* (Toshloq), *Terakzor, Chilonzor*;

-iston – *Bolutiston* («bolut – dub ko'p joy»), *Bog'iston* (bog'lar o'lkasi), *Sebiston* (olmazor), *Turkiston* (turk qabilasi vakillari yashaydigan qishloq), *Sho'riston*;

-iya – *Mingiya* («ming qabilasi vakillari yashaydigan qishloq»), *Yuziya* (yuz qabilasi nomidan, Yuzuya deb yozish to'gri emas»), *Shohruhiya* (Shohruh – buyuk olim Ulug'bekning otasi), *Qodiriya* (Qodir – kishi ismi);

-kor – *Lalmikor, Paxtakor, Sabzikor;*

-lar – *Arablar, Beklar, Boylar, Zargarlar, Shayxlar, Shag'allar* (shag'al urug'i yashaydigan qishloq), *Echkilar* (Echki urug'i vakillari qishlog'i), *Qarg'alar* (qarg'a urug'i vakillari yashaydigan qishloq);

-li – *Aiamli, Anjirli, Burganli, Olmali, Piyozli* (yovvoyi piyoz uchraydigan joy), *Tolli, Chayonli*;

-lik – (- *liq*) – mahalla, qishloq ahlining asli qayerdan ekanligini bildiradi (*andijonlik, jizzaxlik, qo'qonlik*), bu aholi punktida kimlar yashashini ko'rsatadi (*Attorlik, Zargarlik* – «zargarlar mahallasi», *Boylig* – «boylar mahallasi», Xo'jaliq – «xo'jalar mahallasi»), relef shaklini bildiradi (*Soyliq, Tepalik*);

-loq (*-lov*) – *Garlox* (mozor), *Sangloq* (toshloq), *Toshloq, Qumloq;*

-on – *Arabon* (*Aravon* shakli ham bor – «arablar»), *Mang'iron* (mang'it qabilasi vakillari), *Kosagaron* (kosa ustalari mahallasi), *Mingiron* (ming qabilasi vakillari), *Namatgaron* («kigizchilar»), *Sayidon* («sayyidlar mahallasi»), *Xudoyon* («xokimlar», islom dinidan oldin xudo deganda «hokim», «hukmron» tushunilgan);

-ot – *Bog'ot* («bog'lar»), *Rabotot* («rabotlar»), *Qishloqot* («qishloqlar»);

-cha – kichkirayitirish belgisi: *Buloqcha, Deycha* (tojikcha ***deh*** – «qishloq»), *Rabotcha, Qo'rg'oncha*: eski qishloq yonida yana shu nomda qishloq paydo bo'lganini bildiradi; *Bahrincha «Ikkinchi Bahrin», Do'rmoncha «Ikkinchi Do'rmon», Naymancha «Ikkinchi Nayman»*; sifatdan ot – toponim yasovchi affiks sifatida: *Oqcha, Saricha, Yangicha, Qizilcha*;

-chi – kasb egasini bildiradi: *Aravachi, Bo'yrachi, Temirchi, Tuyachi, Etikchi, Qoshiqchi*. Aholi qayerdan kelganini bildiradi va -lik qo'shimchasi funktsiyasini bajaradi: *Zominchi, Farg'onachi, Oloychi*.

Qo'shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat. Bunday geografik nomlar ham grammatik jihatdan bir necha turga bo'linadi:

a) ot – ot. Ko'pchilik hollarda toponimning ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'ladi: *Yozyovon, Yorqishloq, Kuyganjar, Maydonqum, Moybuloq, Toshravot, Toshquduq;* kishilarning laqablari, kasblaridan nom olgan toponimlar: *Abdukarimdivon, Qurbonmirob, Mamatyasovul, O'rozbaxshi*. Toponim antroponimdan, bir yoki ikkala komponenti ham urug' – aymoq nomlaridan iborat bo'ladi: *Arabqiyot, Murotbag'ish, Mirzamitan, Esonshix, Bo'ribatosh*.

b) sifat – ot. Ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'ladi: *Yomonovul, Kattako'rpa, Ko'korol, Oqdaryo, Oqsuv, Oqtog', Pastqishloq, Uzunorol, Qoradaryo, Qorasuv, Qoraqum, Qizilqum, Qizilqiya, Qizilzov*. Ikkinchi tarkibiy qismi urug'-aymoq nomidan tarkib topgan: *Yomonqangli, Kattako'rpa, Maydaqangli, Parchayuz*;

v) ot – sifat. *Juidam, Juinav, Oxunboboyuqori, Sulduzbolo, Sulduzpoyon, Talisafed*;

g) son – ot: *Beshariq, Yettikechuv, Mingchuqur, Oltiariq, Sakkiztom, To'qsonkoriz, Qirqqiz, Biroq Mingqishloq, Yuzqishloq, Qirqqishloq* toponimlari shaklan son – ot tipiga o'xshasa ham, ular ot – ot modelida (ming, yuz, qirq o'zbek qabila nomlari).

d) fe'l – ot: *Keldixayot, Uyg'antosh, Uchganjar, Qolgandaryo, Qaynarbuloq*.

e) ot – fe'l: *Jarko'chgan, Selkeldi, Suvyorgan, Qumbosdi, Qatiqto'kildi, Borsakelmas, Gadoytopmas*.

DETOPONIMIZATSIYA

Har qanday tilning so'z zahirasi bir qancha manbalar hisobiga boyib boradi. Ana shunday manbalardan biri toponimiya, ya'ni geografik nomlardir. Toponimlarning leksikaning boshqa turlariga o'tishi ya'ni atoqli (ism-familiyalarga) yoki turdosh otlarga aylanishi ***detoponimizatsiya*** (toponimlikdan voz kechish) deyiladi. Toponimlarga nom bergan so'zlar inson faoliyatining barcha sohalarini (fan, texnika, san'at, adabiyot, iqtisodiyot, kundalik hayot sohalarini), tevarak-atrofdagi narsalar hamda hodisa-voqealarni qamrab olgan. Bunday so'zlar minerallar va tog' jinslarining, kimyoviy elementlarning, o'simliklar va hayvonlarning, kiyim-kechak, asbob-uskunalarning, kasalliklarning, tarixiy voqelarning nomlari bo'lishi mumkin.

Xilma-xil toponimlar haqida tasavvur berishdan oldin bir necha misol keltiramiz.

Sibir deganda g'arbda Ural tog'laridan sharqda Tinch okeani sohili bo'ylab joylashgan tog' tizmalarigacha, shimolda Shimoliy Muz okeani sohilidan janubda Qozog'iston dashtlari hamda Mo'g'uliston Respublikasi chegaralarigacha bo'lgan ulkan hududni egallab yotgan past tekislik tushuniladi.

Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olgandan keyin, uning qonunlaridan bosh tortgan fuqarolar qishi qahraton sovuq, yozda chivin-chirkaylar nafas olishga ham kun bermaydigan qattiq tabiatli o'lkaga badarg'a qilinar edi va bu *sibir qilmoq* deyilgan. Ushbu atamadan bir qancha narsa-buyumlar ham nom olgan. Masalan, yashil tusdagi bir buyoq, tik yoqali kamzul, qog'oz pul, sovuqqa chidamli olma, sovuq xonali avaxta *sibirka* deb atalgan. Geologlar qizil tusdagi qimmatli toshni *sibirit* deyishadi. Toponimlarning leksikani boyitishda *eponim* bo'lib xizmat qilishini, ya'ni, o'z nomini berishini shu misollardan bilsa ham bo'ladi.

Aholi punktlari, ayniqsa shaharlar *(bordo, kagor, xeres* vinolari, *borjomi* suvi, *satin* gazlamasi, qo'qonarava, *chustdo'ppi* va hokazo.). Davlatlar, mamlakatlar, o'lkalar, xududlar, turli joylarning nomlaridan kelib chiqqan turdosh otlar juda ko'p.

Masalan, *alebastr* Misrdagi shu nomli shahar, ***andezit*** Janubiy Amerikadagi tog', *boksit* Frantsiyaning janubidagi Boks degan joy nomidan, *kaolin* (chinnigulning ilmiy nomi) *Xitoydagi* Kaolin Izyansi viloyatidagi joy nomidan, *muskovit* Moskvaning *Moskoviya*, *to'yamo'yinit* Farg'ona viloyatdagi To'yamo'yin koni, *xibinit* Rossiyaning shimolidagi tog'lar nomidan olingan. Yer tarixidagi devon, kembriy, perm *toponimlardan* nom olgan geologik davrlardir. Daryolarning buralib oqadigan qismining *meandr* atalishi kichik Osiyodagi Meandr daryosi nomidan kelib chiqqanini geograflar yaxshi bilishi kerak.

Ameritsiy, balxashit, germaniy, yevropiy, yerevanit, indiy, kaliforniy, fransiy kabi kimyoviy elementlar va moddalarning qanday toponimlardan nom olganini bilish qiyin emas. O'simliklardan apelsinning gollandcha «xitoy olmasi» degani, kofening Afrikadagi *Kaffa* o'lkasi, *shpanka* Ispaniya, *qirmiska* uzumi va *qirimsag'iz* o'simligi *Qrim*, *kanareyka* zotli sayroqi qush Atlantika okeanidagi *Kanar* orollari nomidan, *sardina* (sardinka)balig'i. O'rta dengizdagi *Sardiniya* oroli

nomidan olingan. Shuningdek gazlama turlaridan boston movuti AQSh dagi *Boston* shahri nomidan, nafis gazlamalar *kashemir* Xindistondagi Kashmir viloyati kelib chiqqan. Krepdeshin «Xitoy matosi» degan so'z. Boshqa sohalardan misollar ketiradigan bo'lsak, *limuzin* avtomobili Fransiyaning Limoj departamentining nomidan, *mayonez* sousi O'rta dengizdagi Menorka orolining markazi Maon shahri nomidan, *plombir* muzqaymog'i Fransiyadagi shu nomli shahardan, *konyak* Fransiyadagi shu nomli shahardan, *feska, fes* bosh kiyim Marokashdagi Fets shahri nomidan olingan. Dollar so'zini oling, u Germaniyadagi Ioaximstal shahri nomidan olingan bo'lib ioxamstaler so'zining amerikacha qisqarib o'zgargan shaklidir. *Akademiya* Gretsiyaning Afina shahri yaqinidagi *Akademiya* o'rmonzori nomidan, *roman* – asli lotincha *romanus* so'zidan kelib chiqan (Rumniki – Rimniki). *Shpingalet* (tamba) Ispaniya nomidan, *fara* chirog'i Iskandariya shahri yaqinidagi (Misr) *Faros* oroli nomidan, Bibliya (Injil – Bibliyaning bir qismi) nomi yunoncha biblos (papirus o'simligining po'stlog'i) so'zidan yasalgan bo'lib, asli Suriyadagi Bibl shahri nomidan, *fujer* ryumkasi Fransiyadagi *Fujer* shahri nomidan, ryumka Rum (Rim) so'zidan, satin, satinet – Xitoydagi *Tsyotung* porti nomidan, vulkan – Tirren dengizidagi *Vulkano* oroli nomidan kelib chiqqan.

Biz quyida turli sohalarga oid toponimlardan misollar keltiramiz.

Minerallar va tog' jinslari

Avstralit – mineral, Avstraliya qit'asi nomi.

Amazonit – mineral, kaliyli dala shpatining ko'k-yashil turi. Zebu-ziynat buyumlari yasashga ishlatiladi. Amerikadagi Amazonka daryosi nomidan olingan.

Andaluzit – olovga va kislotaga bardoshli yashil yoki kul rang qattiq mineral. Ispaniyaning Andaluziya viloyati nomidan kelib chiqqan.

Arkanzas – qayroq tosh sifatida ishlatiladigan donador oq tosh (AQShning Arkanzas shtati nomidan).

Baykalit – Baykal ko'li yaqinidan topilgan mineral.

Vezuvian (Vezuviy vulkani nomidan) – xilma-xil rangdagi mineral; zebu-ziynat buyumlari yasashda ishlatiladi.

Kimberlit – tarkibida olmos uchraydigan ultraasosiy tog' jinsi. Janubiy Afrika Respublikasidagi *Kimberli* shahri nomidan yasalgan.

Labrador – zebu-ziynat buyumlari yasashga ishlatiladigan mineral. Shimoliy Amerikadagi *Labrador* yarim oroli nomidan.

Magnezit – mineral, Gretsiyadagi *Magneziya* viloyati asosida nomlangan.

Sibirit – qizil rangli qimmatli tosh (*Sibir*).

Sienit – donador otqindi tog' jinsi. *Misrdagi Asvon* shahrining qadimiy nomi.

Yerning geologik davrlari nomlari

Devon – paleozoy erasining to'rtinchi davri. Angliyadagi Devon grafligi nomidan kelib chiqqan.

Kembriy – paleozoy erasining birinchi davri (Buyuk Britaniyaning ma'muriy-siyosiy qismi Uelsning Kambriya degan qadimiy nomidan).

Perm – paleozoy erasining oxirgi davri (Rossiyadagi Perm shahri).

Yura – mezozoy erasining ikkinchi davri. Shveytsariya va Fransiyadagi Yura tog'lari nomidan.

Kimyoviy elementlar va buyumlar

Ameritsiy – kimyoviy element. Kashf qilingan joyi (Amerika) nomidan.

Galliy – kimyoviy element. Fransiyaning qadimiy atamasi – Galliy bo'lgan.

Yevropiy – noyob kimyoviy element (*Yevropa* qit'asi).

Kaliforniy – sun'iy yo'l bilan hosil qilingan kimyoviy element (AQShdagi shtat nomi).

Skandiy – noyob metall (Skandinaviya yarim oroli).

Fransiy – radioaktiv kimyoviy element (Fransiya Respublikasi).

O'simlik nomlari

Kashtan – qora qayinlar oilasidan bo'lgan daraxt (Kichik Osiyodagi Kastana shahri nomidan).

Kofe (arabchasi qahva) – Afrikadagi *Kaffa* viloyati nomi (Efiopiya).

Maxorka – jo'n tamaki. Niderlandiyadagi *Amersfort* shahri nomidan olingan.

Sudanka – boshoqdoshlar oilasidan bo'lgan bir yillik o't o'simligi. Sharqiy Afrikadagi Sudan mamlakati nomidan kelib chiqqan.

Qrimsag'iz – kauchukli o'simlik. *Qrim* yarim oroli nomidan.

Qirmiska – uzum navi. *Qrim* yarim oroli nomidan (ruschasi-krumskiy).

It nomlari

Nyufaundlend – uzun junli yirik it. Shimoliy Amerikadagi Nyufaundlend oroli nomidan.

Senbernar – yirik it. Shveytsariyadagi Senbernar monastiri nomidan.

Spanieli – ovchi itlar zoti. Ispaniya mamlakati nomi asosida kelib chiqqan.

Gazlama nomlari

Jerse yoki *jersi* – ipak va junli trikotaj gazlama. Fransiyaning Normandiya viloyati yaqinidagi *Jersi* oroli nomidan.

Muslin – nafis gazlama. Iroqning *Mosul* shahri nomidan.

Tyul – pardabop gazlama. Fransiyaning *Tyul* shahri nomidan.

Bu ro'yxatnini yana davom ettirish mumkin. Masalan, har xil ovqatlar (*mayonez* – Monarxa oroli poytaxti Maon shahri nomidan, *plombir* – Fransiyaning *Plombir* shahri nomidan), *ichimliklar* (*bordo, kagor* – Fransiyaning shaharlari), *portveyn* – Portugaliyaning Oporto shahri), xeres – Ispaniyadagi shahar, *shampun* – Fransiya viloyati, *borjomi* – Gruziyadagi kurort nomi, *yessentuki* – Shimoliy Kavkazdagi shahar nomi), *kiyim-kechaklar* (*bolonya-* Italiyadagi shahar, *gamashi* – Liviyadagi *Gadamesh* shahri, *qorako'l* – *Buxoro* viloyatidagi joy nomi).

Toponimlar bilan atalgan ismlar va nisbalar

Joy nomlari eponim bo'lib xizmat qilgan, ya'ni toponimlardan nom olgan so'zlar inson faoliyatining barcha sohalarini va tevarak-atrofdagi xilma-xil narsa-hodisalarni qamrab olganini ko'rdik.

Kishilarning ism va familiyalari ham bundan mustasno emas. O'rta

Osiyoda, jumladan O'zbekistonda farzandlarni joy nomlari bilan atash qadimdan rasm bo'lgan. Ko'pincha bola aytaylik, boshqa bir mashhur muzofotda, shaharda tug'ilsa o'sha joy nomi ism bo'lib qilgan. *Buxorboy, Toshkanboy, Qo'qonboy, Sayramboy* ismlari ana shular jumlasidandir (biroq Qarshiboy ismi bundan mustasno, bola tug'ilayotganda teskari kelib qolsa, *Qarshiboy* deb ism olgan). Bunday ismlarda o'sha joy nomining imlosiga amal qilinmagan, Buxoroboy, Toshkentboy deb talaffuz qilinmagan. Qo'qon qadimda Xuqand, Xuvaqand deb atalgan. Shuning uchun ham, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida chet elga ketib qolgan o'zbeklar uchun chiqariladigan gazetalarda u shahar hozir ham *Xuqand* deb yoziladi.

Toponimlardan nom olgan ismlar ko'p emas, biroq joy nomlarini o'zlariga nisba, ya'ni nisbiy familiya qilib olgan mashhur kishilar tarixda juda ko'p bo'lgan.

Shu narsa xarakteriki, O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda joylarni ma'lum va mashhur shaxslarning nomlari bilan atash rasm bo'lmagan.

Kishilar hammaga tanilib, xususan qo'liga qalam olib yuksak ijod sohibi bo'lgandan keyin o'zlari tug'ilib o'sgan shaharlar, viloyatlar nomlarini o'zlariga *nisba*, ya'ni nisbiy familiya qilib olganlar. Tarixda *Andijoniy, Buxoriy, Nomongoniy, Samarqandiy, Termiziy, Toshkandiy, Xorazmiy* singari ko'plab allomalar o'tgan.

Hozirgi davrda kishilar familiyasiz bo'lishi mumkin emas. Ilgari zamonlarda esa odamlar kam bo'lgan. Buning ustiga ularning laqabi, taxallusi, xususan qaysi urug'dan ekanligi familiya vazifasini o'tagan. Buni «Boburnoma» kabi tarixiy asarlarda uchratish mumkin. Masalan, biron shaxsning nomi yoniga «nayman», «qovchin», «minglig'» deb yozib qo'yilgan.

II-bob.
HUDUDIY TOPONIMIYA

O'zbekiston Respublikasi mustaqil, yaxlit bir mamlakat. Lekin uning ayrim mintaqalari o'zaro nimalari bilandir boshqalaridan farq qiladi. Har qanday kattaroq xududning mahalliy xususiyatlari bo'ladi. Har bir mintaqa o'zining tabiiy sharoiti, iqtsodiyoti, geografik atamalari bilan ozmi ko'pmi tafovut qiladi, aholining tili va shevalari, etnografiyasi ham o'zgacharoq bo'lishi mumkin.

Masalan, Xorazmda katta kanal, ba'zan daryo *arna* (Qashqadaryoda – *anna*) deyiladi. Jizzax viloyatida *arna deganda «jar»* tushuniladi. Jilovchi shevalarning vakillari *tog'* so'zini *tov* shaklida talaffuz qiladilar. Farg'onada *tepa* o'rniga *teva*, *jo'xori* o'rniga *juvori*, *chillaki* o'riniga *chilgi*, *olcha* o'rniga *olvoli* (Zarafshon vodiysida – *chiya*), *mo'myo* so'zini Qashqadaryo, Zomin, Baxmal tumanlarida *mumilay*, Jizzax va Samarqand viloyatlarining bir qancha xudularida *kuz* (*kuzgi*) o'rniga *tiramo* (*tiramoyi)* deyishadi. (tojikcha *tiramoh* «*kuz*»). «Tor dara» Jizzax, Samarqand viloyatlarida, Afg'onistonda, Eronda *tangi* (forscha-tojikcha *tang «kambar, ensiz»*), Qashqadaryo viloyatida esa shu ma'noda *qapchig'ay* (mo'g'ulcha *xavtsagay «tor dara»*) deyilada.

Uy, qishloq, shahar ma'nolaridagi sug'dcha *kat* atamasi turli joylarda *kat, kent, kend, kas, kash, qat, qand* shakllarida ko'plab toponimlar hosil qilgan. Ayniqsa urug'- aymoq nomlari respublikaning turli joylarida xilma-xil fonetik variantlarda etnotoponimlar shaklida uchraydi: *Arg'in-Arg'un, Achamayli-Ochamayli, Misit-Mesit-Masit, Mirishkor-Murushkor-Merishkor, Sanchiqli-Chanchiqli-Chanchiqul, Chig'atoy-Chig'atoy* kabi.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, har bir yirikroq ma'muriy va tabiiy – geografik hududlarning toponimik materiallari boshqalarnikidan har holda tafovut qiladi.

Ana shuni inobatga olib mazkur bobda, Toshkent shahri, barcha viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi geografik nomlarining o'ziga xos belgilari ko'rsatildi, shu hudud uchun xos bo'lgan atamalar va etnonimlar tilga olindi.

TOSHKENT SHAHRI TOPONIMLARI

Shaharni davlat ichidagi davlat deyishadi. Har bir shahar o'zi bir dunyo. Shuning uchun bo'lsa kerak – shahar so'zi sanskritchada «podshohning qarorgohi» ma'nosini anglatadi. Shahar ham odamga o'xshaydi. Har bir shaharning o'z qiyofasi, o'z tarixi va qismati bor. Ma'lum va mashhur shaharlar bilan bir qatorda kichik shaharlar ham mavjudki, ularni ko'pchilik bilmasligi ham mumkin. Har qanday shaharning shon-shuhrati, avvalambor, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Toshkent mamlakatimiz hayotida katta o'rin tutadi. Avvalambor, u Vatanimizning poytaxti, ulkan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik markaz. Poytaxtimizni turlicha ulug'laydilar: «Toshkent – non shahri», «Toshkent – tinchlik shahri», «Toshkent – bog'-rog'lar shahri», «Toshkent – do'stlik shahri», «Toshkent – jasorat shahri» va hokazo.

Toshkent haqida qancha-qancha kitoblar, risolalar, maqolalar yozilgan. Lekin yana bir muhim ahamiyatga ega kitob bor. Bu poytaxtdagi joy nomlari – ko'cha-ko'ylar, mahallalar, bozorlar, maydonlar, bog'lar, ariq-hovuzlar, qabristonlar, jarliklar va boshqa obyektlar nomlari haqida.

Poytaxtimiz ko'chalar soni jihatidan respublikamiz shaharlari orasida birinchi o'rinda turadi. Toshkentda 3000 ga yaqin katta-kichik ko'cha bor.

Quyida **Toshkent** so'zi, shahar obyektlarining nomlari (urbonimlar) hamda ularning kelib chiqishi to'g'risida so'z boradi.

Toshkent toponimini ko'p adabiyotlarda «Tosh shahar» deb izohlanadi. Shu so'zda ma'lum ma'noda shahar tarixi ham o'z aksini topgan. Shahar hududida tosh asriga oid buyumlar uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haftjo'sh (bronza) ko'zgular, turli mamlakatlarning tangalari shaharning kamida 2000 yillik tarixidan darak beradi.

Toshkent haqidagi birinchi tarixiy ma'lumotlar milodning dastlabki asrlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, shaharning geografik o'rniga oid ma'lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning «Geografiyadan qo'llanma» asarida uchraydi. Ptolemey bu asarida yer sharining obod qismini, ya'ni o*ykumenani* 26 xaritada tasvirlagan. Shu xaritalardan birida O'rta Osiyo va uning atrofidagi o'lkalar tasvirlangan. Unda Xi-

toyga boradigan savdo yo'li ustida, aniqrog'i Yaksart (Sirdaryo) havzasining sharqida *Terri Lapideya* degan joy ko'rsatilgan. Olimlar ana shu yunoncha nomni «Tosh qo'rg'on» deb tarjima qilib, Toshkentga nisbat berishgan.

Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda **Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent** shakllarida ham uchraydi. *Choch* so'zi ham sug'd tilida «tosh» demak. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan.

X asrda noma'lum muallif tomonidan fors-tojik tilida yozib qoldirilgan «hudud ul-olam» («Dunyoning hadlari») nomli asarda bunday deyiladi: «Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va sahiydir. U yerda o'q-yoy tayyorlanadi. Binkat Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning qarorgohidir»

Arabinavis olimlardan Istahriy, Ibn havqal, Muqaddasiy va boshqalar (IX-X asrlar) o'z asarlarda Shosh viloyatining markazi Binkat shahri deb ko'rsatganlar. **Binkat** hozirgi Eskijo'va va Chorsu oralig'ida bo'lgan. Binkat nomi forscha-tojikcha bo'lib, «ko'rimli shahar» demakdir (*bin* – ko'rinish, ko'zga tashlanish, *kat* – sug'dcha «shahar, qishloq, manzilgoh» degan ma'noni bildirgan).

Buyuk Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qonuni Mas'udiy» asarida «Binkat – bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda «Toshkand», yunonchadan arabchaga tarjima qilsang, – «Burj al-hijori» («Tosh minora») deb yozgan. Beruniyning so'zlarini boshqa olimlar ham tasdiqlagan. Masalan, Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida «Tarkan – Shoshning nomi, uning asli nomi Toshkand bo'lib, «toshdan qurilgan shahar demakdir», deb yozgan. Demak, poytaxtimiz nomining «Toshkent» shakli birinchi bor Beruniy asarlarida uchraydi va shahar boshqa nomlar bilan ham atalgan, nihoyat hozirgi nomi tilimizda qat'iy o'rin olgan.

Toshkent haqida ozmi-ko'pmi ma'lumotlar XIV-XIX asrlarda o'rta Osiyoning siyosiy, harbiy va madaniy hayoti haqidagi asarlarda uchraydi.

Shaharning XIX asr tarixi, topografiyasi (geografiyasi), jumladan uning toponimlari haqida ma'lumotlar Muhammad Solihning «Tarixi jadidayi Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi») asarida uchraydi. Qo'lyozma fors-tojik tilida bitilgan bo'lib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Asar asli Toshkent viloyati tarixi haqida bo'lib, muallif shahar tarixini butun o'lkada kechgan voqealar ko'lankasida yoritgan.

Toshkent shahrining tarixi va toponimiyasiga oid mukammal ma'lumotlarni O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgandan keyingi davrdagi rus mualliflari Ye.T.Smirnov («Drevnosti v okrestnostyax Tashkenta», 1895), A.Mayev («Aziatskiy Tashkent», 1876), I.I.Dobrosmo'slov («Tashkent v proshlom i nastoyaqem», 1912) N.Lokoshin (Poljizni v Turkestane, 1922), A.Shishov («Sarti», 1911) kabilar asarlaridan topish mumkin.

Poytaxtimizning joy nomlari, xususan mahalla va mavzelarining nomlari sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlaboq olimlarning e'tiborini jalb qila boshlaydi. N.G.Mallitskiyning «Tashkentskie maxallya i mauza»(1927), V.Shishkinning «O nazvaniyax tashkentskix maxallya», M.Ye.Massonning «Proshloe Tashkenta» (1954), F.Azadayevning «Tashkent vo vtoroy polovine XIX veka» (1959), Yu.A.Sokolovning «Tashkenti, tashkenttsi», (1965), Yu.F.Buryakovning «Istoricheskaya topografiya Tashkentskogo oazisa» (1975), O'zbekiston FA Arxeologiya instituti tomonidan tayyorlangan «U istokov drevney kulturi Tashkenta» (1982) kabi asarlarda, shuningdek «Toshkent» entsiklopediyasida (1982) Toshkent va uning atrofidagi ko'plab obyektlarning nomlari, ularning kelib chiqishiga doir talaygina qiziqarli ma'lumotlar bor.

Toshkent ichidagi tabiiy va madaniy obyektlar nihoyatda xilmaxil, ular shahar tarkib topgan davrdan tortib hozirgi kungacha paydo bo'lib, bir qanchasi esa yo'qolib ketgan. Shahar o'zining devorlari, tashqi istehkomlari, xandaq, darvoza, qabriston, machit-madrasa, ariq-zovurlari, hovuzlari, maydonlari, mahalla-mavzelari, bozor-rastalari, bog'u xiyobonlari bilan mashhur bo'lgan. XIX asr oxirlarida Toshkentda 12 darvoza, 40 ga yaqin qabriston (hatto yaponlar qabristoni), 150 machit, 26 madrasa, 5 mingga yaqin do'kon, 200 mahalla, 500 hovuz, 1500 bozor-rasta, ikki yuzga yaqin mavze (shahar chetlaridagi bog' hovlilar mahallalari) bo'lgan.

«Ko'l qurisa ham nomi qoladi». Ana shu obyektlarning aksari qismi yo'qolib ketgan bo'lsa ham xalq xotirasida, qo'lyozmalarda va boshqa manbalarda ularning nomlari saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Toshkent XX asrning boshlarigacha to'rt dahadan (ma'muriy hududiy birlikdan) iborat bo'lgan: **Beshog'och, Ko'kcha, Sebzor, Shayxontohur**. Dahalar mahallalarga bo'lingan. 1865 yilda shaharda 140 mahalla bo'lgan, XX asr boshlariga kelganda mahallalar

soni 200 dan ortiq edi va shahar atroflarida har bir dahaga qarashli dala bog' mahallalari – mavzelar bo'lgan.

Tarixiy toponimlar o'tmish guvohlari. Toshkentning eski mahallari nomlari esa shahar tarixining ajralmas qismi sanaladi. Toshkent shahrining XX asr boshlaridagi mahalla va mavzelarining professor N.G. Mallitskiy tomonidan tuzilgan ro'yxatini (1927) asliyatdagi tartibda keltiramiz.

Shayxontohur dahasi mahallalari

Oqmasjid (Oqmachit)
Olmazor
Otinlikmasjid
Orqako'cha
Balandmasjid
Bodak
Ganchtepa (Ganchlitepa)
Govkush
Darxon
Devonbegi(Do'mbegi)
Devonaburx
Degrez (Deroz)
Jangoh (Jangob)
Katta Janob
Jarko'cha
Jartegirmon
Zanjirlik
Egarchi
Ilamahalla
Eski-yangibozor
Qoziko'cha
Kaltatoy
Qoryog'di
Qatorterak
Qashqar
Qishloqtepa
Qiyot
Qiyotkattako'cha (Koxota ko'chasi)
Qiyottorko'cha
Qiyottepa
Quduqboshi
Qo'rg'onorqasi
Qo'rg'ontegi
Lo'liko'cha
Maraimxalfa
Merganchi (Mergancha)
Mo'g'ulko'cha
Padarkush
Pastak
Pushtibog' (Pushtuak)
Raisko'cha
So'galmasjid
Tojik
Tarloq
Tarnovboshi
Turk
Turktepa
Tursun Sulton
O'qchi
O'qchi-Merganchi
O'rko'cha
Xadra
Hovuzbog'
Hovuzlik
Ho'jako'cha
Ho'jaro'shnoyi
G'ishtmasjid

Chalmoq(Charmoq)
Chuqurqishloq
Shatak
Shayxontohur
Sho'rtepa
Yangishahar
Ganchtepa
Yangishahar-Darvoza
Yangishahar-Yerteshkan
Yangishahar-Qiyot
Yangishahar-Labzak
Yangishahar-Minor
Yangishahar-Sirlimasjid
Yangishahar-Turk
Yangishahar-Shohidontepa
Yopug'liqmozor

Shayxontohur dahasi mavzelari

Avayxon (Ablayxon)
Oqqo'rg'on
Bo'zariq
Damariq
Darxonariq
Jangaltepa
Injiqobod
Yerteshkan
Qozitarnov
Qalmoqqamagan
Qoramurt
Qo'shchi
Mingo'rik
Mirobod
Mirzayusuf
Posira
Pixna (Paxina)
Sariqo'l
Toshariq
Turkariq
O'rtato'qay
Shoyunusxalfa
Shivli (rus mualliflarida – Chovli)
Sho'rtepa
Yalang'och
Yangitarnov
Yopug'liqmozor

Sebzor dahasi mahallalari

A'lamshohid
Attorlik
Oxunguzar
Bazzozlik
Bandakbozor
Botir
Bedabozor
Beshog'ayni
Bulg'orbozor
Janggoh
Jinko'cha
Zargarlik
Egarbozor
Eskijo'va
Eski Misgarlik
Kodubod yoki Koduvot
Qozoqbozor
Qoziko'cha
Qangliko'cha
Qorasaroy
Qoratut
Qassobbozor

Kovushfurushlik
Koxota
Kaxta)katta) ko'cha
Qoshiqchilik
Kulohbozor
Qumloq
Kunjak
Ko'rpabozor
Labzak
Laylakuya
Mozorxon
Mahkama
Mahsido'z
Parchabof
Poyakilik
Pushtihammom
Rabotak
Registon
Sandiqbozor
Sarixumdon
Sebzor
So'kpurush
Tabibko'cha
Taqachi
Tarnovboshi
Taxtapul
Teshikqopqa
Tinchob
Tuzbozor
To'ppibozor
To'pqayrag'och
Uchko'cha
Hasanboy
Hastiimom
Xotinmasjid
Hovuzbo'yi
Ho'jagon
Ho'jako'cha
Ho'jataroshkan
G'ishtko'prik
Chaqar
Cholvorbozor
Choponbozor
Charxiko'cha
Chigitboshi
Chitbozor
Chuvalachi
Chuvildoq
Shoxunguzar
Yuganbozor
Yakkatut
Yangishahar
Yov (balki Yovu – Yobu)

Sebzor dahasi mavzelari

Ayrilish
Oqota
Oqtepa
Alvastiko'prik
Almatqo'shchi
Omonbaqqol
Otchopar
Bog'ko'cha
Boyqo'rg'on
Baqachtepa
Boltamozor
Besho'choq
Guruncharig
Darvozakent
Darxon
Dovultepa
Jangal
Jumamasjid
Zakotxona
Ivish
Kalkovuz (Kaykovuz)

Qorasaroy
Koriz
Koxota
Kengirak
Kichikqo‘riq
Kuloltepa
Ko‘mirxona
Ko‘rxo‘jaota
Ko‘tarma
Kuyukxo‘ja
Qizilko‘prik
Qizilqo‘rg‘on
Labzakariq
Magazinobod
Mozorariq
Moyqo‘rg‘on
Miroqijon
Mo‘g‘ol
Sandiqqo‘rg‘on
Sovurariq
Savsarariq
Taxtako‘prik

Taxtapul
Teshikqopqa
Tikanlibozor
To‘ychiobod
Tuyabo‘g‘iz
O‘nqo‘rg‘on
Xoncharbog‘
Hasanboy
G‘ishtko‘prik
Changalzor
Chordara
Charxchi
Chilto‘g‘on
Chimboy
Chimzor
Chuvalachi
Yo‘lariq
Yunusobod
Yakkatut
Yangiariq
Yovu (Yovi)

Ko‘kcha dahasi mahallalari

Obinazir
Ayrilish
Oqilon (yoki Allon)
Oqtepa
Guzarboshi
Do‘moq (Do‘moqboshi)
Ishkavat
Qozoqbozor
Qoziko‘cha
Kallaxona
Qoraqiyoq
Qassobbozor
Qatorterak
Kesakqo‘rg‘on

Ketmonbozor
Kilbelbog‘
Qo‘shtut
Ko‘kcha
Kunjak
Ko‘nchilik
Kovushfurushlik
Langar
Malharam
Mahkama
Miskarlik
Namatbozor
Podaxona
PichoqchilikSovunbozor

Sag‘bon
Saqishmon (Saqichmon)
Sarixumdon
Torko‘cha (Tolko‘ch)
Tepa
To‘xlijallob
O‘zgant
O‘rikzor
Xodabozor
Halimqul
Xonaqo
Xotinmasjid
Hofiz Kuyaki(Ko‘hakiy)

Xo‘jako‘cha
Xo‘jamalik
Xo‘japarixon
Xiyobon
Chig‘atoytepa
Chig‘atoychaqar
Chig‘atoy-Yangishahar
Chaqar
Charxchi(Charxchilik)
Chuqurqishloq
Sharshintepa
Shayx Zayniddinbobo
Yangishahar

Ko‘kcha dahasi mavzelari

Oqlon (Oqilon, Allon)
Oqtepa
Achavot (Achchiobod)
Bekobod (Begovat)
Beklarbegi
Beshqayrag‘och
Beltepa
Jarariq
Jarkechik
Jarquloq
Ingichkaqo‘riq
Eron
Eshonko‘prik
Kampirduvol
Qorasuv
Ko‘kto‘nliota
Quloqliktepa
Qulko‘cha
Qurvaqavot (Quruqravot)
Qirg‘izko‘prik
Mehtarmalik

Nodirxon qulog‘i
Nishabariq (Nishabquloq)
Sag‘bon-Oqtepa
Sag‘bon-Qorasuv
Taxtako‘prik
Toshliqtepa (Choshtepa)
Tuyatortar
Uzuntepa
Xotinko‘prik
Xiyobon
Chig‘atoy-Beltepa
Chig‘atoy-Qoraqamish
Chig‘atoy-Nodirxonqulog‘i
Chig‘atoy-Selkechar
Chillamozor
Chimboy
Chimirota
Shopayziquloq
Sholiquloq (Sholiariq)
Yumaloq
Yangiko‘nchilik

Beshyog'och dahasi mahallalari

Andijon
Arpapoya
Badalboy
Boyko'cha
Boltaboy
Balandko'prik
Balandmasjid
Bordonbozor
Bo'yrabozor
Qoziguzar
Ganchxona
Gurunchbozor
G'o'zabozor
Gulbozor
Darxon
Jomimasjid
Zayebak
Zangiota
Ziyorat
Eski Namozgoh
Eski o'rda
Etikbozor (Chorsu)
Eshonguzar
Eshonmahalla
Qozi Nizomiddin
Kalavabozor
Kamolon
Qandolatbozor
Kapponbozor
Qoratosh
Qassoblik
Kattamahalla
Quvurariq
Qug'irmoch
Ko'kmasjid
Laylakxona
Mayizbozor
Mahkama
Moshbozor
Mirzag'oziota
Mirlar
Murod (Eshonmahalla)
Mo'rkanko'cha (Chaqar)
Nonvoyguzar
Nongorguzar
Nosvoybozor
Paxtabozor
Poyakilik
Sarparoz
Sarichopon (Sarichabon)
Sirlikmasjid
Suzukota
Sabzibozor
Tamakibozor
Temirchilik
Tepa
Teshaboy
Tikanlikmozor
O'zbak
O'qchidarvoza
Unbozor
O'roqchilik
Xabsota
Xonaqo
Xo'jamahalla
G'ishtko'prik
Chaqar
Chorsu
Chinnibozor
Chuqurko'prik
Chuqurko'cha
Cho'ponota
Yalankar
Yangi Qalandar xona
Yangimahalla
Yangixonaqoh

Ko'kcha dahasi mahallalari

Asilbobo
Askiyaguzar
Bo'rjar
Zax
Zangiota
Qoziravot
Qonqus
Qatortol
Korxona
Qo'shqo'rg'on
Qo'g'aytepa
Kuloltuproq
Qutirgansoy
Qushbegi
Moxovguzar
Novza
No'g'aytoshtepa (Choshtepa)
Polvonariq
Rakat
Sariqo'l
Sarichopon
Taxtako'prik
Tersariq
Teshikliktepa
To'qay
O'rikzor
Xirmonso'xta
Chala
Changalariq
Chopontiqti
Charx
Chilonzor
Cho'ponota
Shaimko'prik
Sho'rxona
Yopug'liqmozor

N. G. Mallitskiy ro'yxatida keltirilgan mahalla-mavzelar ana shular. O'z-o'zidan ma'lumki, ro'yxat rus tilida tuzilgan, biz uni o'zbekchalashtirdik. Nomlar ko'pchilikka tushunarli. Bu toponimlar shaharning tabiati, iqtisodiy, madaniy hayoti, aholisining ijtimoiy tarkibi haqida ozmi-ko'pmi tasavvur beradi.

Toshkent pasti-baland hududda joylashgan. Shuning uchun ham poytaxtimiz haqida «Yetti o'r, yetti qirdan iborat» deyilgan. Shunga ko'ra shahar toponimiyasida *tepa, jar, ko'prik* so'zlaridan tarkib topgan nomlar ko'p uchraydi. Ruslarda ham «Yetti tepalikka qurilgan shahar» degan ibora bor. Italyanlarda ham xuddi shunga o'xshash matal bor. Demak, shahar hamma yerda strategik maqsadlarda past-baland joylarga qurilgan. **Beltepa, Ganchtepa, Kuloltepa, Oltintepa, Uzuntepa, Uchtepa, Sho'rtepa** kabi nomlar muayyan ma'noni anglatgan. Oqtepa bunday toponimlar orasida alohida ahamiyatga ega.

Toshkentda sakkizta **Oqtepa** bo'lgan(Ko'kcha Oqtepasi, Chilonzor Oqtepasi, Yunusobod Oqtepasi va boshqalar). Oqtepa degan joylarda

zamindor boylarning qasrlari bo'lib, tevarak-atrofdagi pastak binolar orasida yuksalib turgan.

Poytaxtimizda **Shoshtepa** tepaligi alohida o'rin tutadi. Bu tepalik **Toshliqtepa** deb ham atalgan. N.G.Mallitskiy Toshkentning qadimiy nomi shu tepalik nomida saqlanib qolgan bo'lsa ajab emas degan edi. Professor M.Ye.Masson fikricha, *shosh (choch, shish)* atamasi deyarli butun O'rta Osiyo hududida, Afg'onistonda va hatto Hindistonda uchraydi va sun'iy, uyma tepalikni bildiradi.

Toshkentda qadimiy turkiy so'z – *ariq* atamaidan tuzilgan suv nomlari (gidronimlar) ham kam emas: **Bo'zariq, Guruncharig, Damariq, Darxonariq, Yo'lariq, Labzakariq, Mozorariq, Nishabariq, Savsarariq, Suvariq, Tersariq, Toshariq, Turkariq, Changalariq, Quvurariq** va boshqalar. Beshog'och dahasida ariq va mahalla **Quvurariq** deb atalgan.

Bu – biron qismiga quvur yotqizilgan ariq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, lahm (tunnel) bilan birlashtirilgan qator quduqlar, ya'ni koriz «quvurariq» deb atalgan bo'lsa ajab emas. *Koriz* suvkam joylarda bo'ladi. Lekin Toshkentda ham koriz qazilgan. Sebzor dahasining mavzelaridan birining *Koriz* deyilishi buning isbotidir.

Kattaroq ariqdan ochilgan joy *quloq* deyiladi. *Jarquloq, Shofayziquloq, Sholiquloq* ana shunday kichik ariqlardir.

Toshkentda relef o'r-qir, ariq-kanallar serob bo'lganidan ko'prik ko'p qurilgan: **Balandko'prik, G'ishtko'prik, Chuqurko'prik, Xotinko'prik.** Islom dini hukmron bo'lgan mamlakatlarda joylarni xotinqizlarning ismlari bilan atash keng rasm bo'lgan emas.Samarqand shahrida mashhur madrasalardan biri va masjid Amir Temurning katta xotini nomi bilan **Bibixonim** madrasasi va **Bibixonim** masjidi deb atalsa ham aslida bu o'sha ayolning asl ismi emas, balki taxallusidir. Toshkentda ham **Qizmozor, Xotinariq, Xotinmachit** kabi nomlar paydo bo'lgan.

Burungi xaritalarda **Chaqar** arig'ining ikkinchi nomi **Toshariq** deb ko'ratilgan. Bu gidronim «Toshloq ariq» ma'nosida bo'lishi mumkin. Yana shuni aytish mumkinki, *Chaqar* deganda ichki shahar emas, tashqi shahar, rabod tushunilgan. *Chaqar* so'zini Bobur «tosh qo'rg'on» ya'ni «tashqi shahar» deb izohlagan. Demak, Toshariq «shahar tashqarisidagi ariq» degan ma'noda bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Chaqar toponiming *chokar «xizmatchi», «askar» so'ziga aloqasi yo'q.*

Ko'kcha mahallasidagi mavze va ariq **Tuyatortar** deb atalgan. Bunday gidronimlar Respublikamizda bir necha joyda qayd qilingan. Bular ko'tarma ariqlardir. Ariqqa suv daryodan chig'ir orqali chiqarilgan. Chig'ir esa tuya kuchi bilan aylantirilgan.

Shaharlar toponimiyasida hunar-kasb leksikasi katta o'rin olgan. Bunday nomlarga qarab shaharda qanday hunarmandchilik, kosibchilik turlari rivojlanganini bilib olish mumkin. Bunday toponimlarni sanab o'tamiz: **Attorlik, Bazzozlik, Degrez, Zargarlik, Kovushfurushlik, Ko'nchilik, Maxsido'z, Misgarlik, Nonvoyguzar, Parchabof, Poyakilik, So'kpurush, Tabibko'cha, Taqachi, Temirchi, To'xlijallob, O'roqchilar, Charxchi, Egarchi, O'qchi, Qassobguzar, Qoshiqchilik** va boshqalar.

Shaharda rasmiy bozor va rastalardan tashqari, turli kasb egalari yashaydigan mahalla, ko'cha-guzarlarda ham oldi-sotdi avjida bo'lgan. Ko'pincha rastalar bilan hunarmandchilik ustaxonalarini farq qilib bo'lmagan. Ko'cha yuzida hunarmand hammaning ko'z o'ngida turli mahsulot ishlab chiqarar ekan, oldi-sotdi bilan ham shug'ullangan, ustaxonaning orqa tomonida esa oila a'zolari yashagan.

Masalan, **Degrez** yoki **Deroz** (tojikcha *degrez* «qozon quyish») mahallasida cho'yandan qozon, omoch tishi, uzangi kabi asbob-uskunalar yasalgan, **Parchabopda** atlas-kimxob to'qilgan, **Poyakichilik** (yoki Poyakilik)da chilim uskunalari tayyorlangan. **Zargarlik, Ko'nchilik, Misgarlik, Nonvoyguzar, Temirchi(lik), Charxchiko'cha, Egarchi, O'roqchilik, Qoshiqchilik** kabi nomlar bu yerlarda qaysi kasb egalari yashaganligini aytib turibdi.

Tabobatcha, To'xlijallob, Xo'jako'cha, Xo'jamahalla, Xo'jagon, Qalandarxona, Qozko'cha, Qushbegi kabi joylarning qaysi ijtimoiy tabaqadan nom olganligini bilib olish mumkin.

Lekin, **Qulko'cha** Erondan qul qilib keltirilgan pirsiyonlar nomi bilan, **Merganchi** mahallasi esa sarbador o'qchilar nomi bilan atalganini tarixiy manbalardangina bilish mumkin.

Bozorlar oldi-sotdi, savdo-sotiq qilinadigan joy bo'lishi bilan birga shu hudud iqtisodiyotining ko'zgusi hamdir.

Toshkentda bozor ko'p bo'lgan. Eskijo'va atroflari **Registon** deb atalar edi. «Tarixi jadidayi Toshkand» kitobida Muhammad Solih ham shaharning asosiy savdo markazi sifatida Registondagi bozorni ko'rsatgan: «Bozorning do'kon-rastalari Chorsudagi qandolatpazlik do'konigacha davom etadi. Ramazon oyida bu yerda kechasi ham bozor bo'ladi».

XX asr oxirlarida shahardagi bozor va rastalar soni 1500 taga yetgan, bulardan tashqari karvonsaroylarda ham rastalar bo'lgan.

Toshkent bozorlarining qisqacha ro'yxatini keltiramiz: **Attorlik, Bazzozlik** (gazlama bozori), **Bandakbozor** (bandak – paranji yengi, kishan), **Bedabozor, Boltabozor, Bulg'orbozor** (bulg'ori teri bozori), **Bo'yrabozor, Gulbozor, Gurunchbozor, Do'ppibozor, Ipakbozor, Kalavabozor, Kapponbozor, Ketmonbozor, Kovushbozor, Ko'mirbozor, Ko'rpabozor, Mayizbozor, Moshbozor, Namatbozor, Nosvoybozor, Paxtabozor, Pichoqbozor, Sabzibozor, Sandiqbozor, Saxxobbozor** (muqova bozori), **Somonbozor, So'kfurush, Tamakibozor, Tovoqbozor, Tuzbozor, To'ppibozor, Unbozor, Xodabozor, Chinnibozor, Chitbozor, Cholvorbozor, Choponbozor, Shombozor, Egarbozor, Eskibozor, Eskiyakkabozor, Etikbozor, Yuganbozor, Qandbozor(Qandolatbozor), Qassobbozor, Qozoqbozor, Qulfbozor, Qo'ybozor, G'o'zabozor.**

G'afur G'ulomning «Shum bola»sida **Juhudrasta, Uzunrasta, Qaymoqbozor** kabi rastalar tilga olingan. Shoir eyniqsa **Bitbozorni** yaqqol tasvirlagan.

Toshkentda 150 ga yaqin masjid bo'lgan. Shaharning mahalla-mavzelaridan bir nechtasi masjidlar nomlari bilan atalgan edi: **Balandmasjid** (Bolomasjid), **Jomimasjid, Jumamasjid, Ko'kmasjid, Otinlikmasjid, Sirlikmasjid, So'galmasjid, xotinmasjid.**

Shahar ichi nomlari orasida anchagina etno-urbonimlar – urug'-aymoqlar, turli xalqlar va elatlar sha'niga atalgan ko'cha-ko'ylar va mahalla-mavzelar ham kam emas edi: **Yovu** (Yobu – qabilasi), **Kaltatoy** (etnik guruh), **Lo'li, Mo'g'ulko'cha** (Mo'g'ol), **No'g'aytepa Tojik, Turk, Turkariq, Chiboy, Chig'atoytepa, Chig'atoychaqar, Chuvalachi, Chuvildoq, Qalmoqqamalgan, Qangli, Qashqar, Qiyot** va boshqalar.

Toshkentning Sebzor dahasida **Qorasaroy** degan mahalla bo'lgan. Hozir **Qorasaroy ko'chasi** bor. Professor Yu.Sokolov o'zining «Toshkent, toshkentliklar va Rossiya» kitobida Qorasaroy nomini oliq-soliq to'lanadigan mahkamani xalq nafrat bilan shunday atagan deydi. Aslida qorasaroy – saroy qabilasining (ko'k saroy, oq saroy) bir shaxobchasi bo'lgan.

Sebzor dahasining bir mavzesi **Boltamozor** deb atalgan. Ko'pgina turkiy xalqlarning bir necha qabilasi tarkibida *bolta, boltali* degan

urug' bo'lgan. Ularning chorva mollariga bosadigan tamg'asi shakli boltaga o'xshagan.

Xuddi shuningdek, Shayhontohur dahasida **Darxon** degan mahalla va **Darxonariq** degan mavze qayd qilingan. Hozir ham shaharda Darxon degan ko'cha va torko'chalar, Darxon arig'i bor. Bu toponim «oliq-soliqdan ozod qilingan nufuzli amaldor» ma'nosidagi tarxon so'zining fonetik varianti bo'lishi ham mumkin.

Shu bilan birga *darxan – darxan – darqan* degan etnonim ham bo'lganini e'tibordan qochirmaslik kerak. Masalan, qozoqlarning shanshqli qabilasining *darxan* degan urug'i bo'lgan (bu urug' vakillari Toshkent shahri atrofida hozir ham bor). Yana qirg'izlarda *darqan*, o'zbeklarda *tarxon,* turkmanlarda *tarxan*, boshqirdlarda *tarxan – darxan* urug'lari bo'lganligi ma'lum.

Buning ustiga «imtiyozli» ma'nosidagi *darxon* so'zi tarixiy adabiyotlarda ko'proq *tarxon – tarxan* shaklida tilga olingan. Yana qadimiy turkiy manbalar bu so'zning dastlabki turkiy shakli *tarqan* bo'lganligini ko'rsatadi («Qadimgi turk tili» lug'ati, M., 1969, 538 bet).

Endi *antropourbonimlar* haqida. Hozirgi vaqtda shahar obyektlarida kishilar ismi-familiyalari bilan atalgan ko'cha-ko'ylar katta o'rin tutadi. Lekin ilgarilari bunday bo'lgan emas. Chunki chor Rossiyasi istilosidan oldin Toshkentning keyinchalik Eski shahar deb atalgan qismida hozirgi ma'nodagi ko'chalar bo'lgan emas. Uylar reja asosida bir tekisda qator qilib solinganmagan. Uylar orasidagi nomsiz jin ko'chalar qing'ir-qiyshiq bo'lgan. Taxminan hozirgi Navoiy ko'chasi o'rnida qo'y va boshqa chorva podalari haydab o'tiladigan uzunroq ko'cha **Tuproqko'cha** deb atalgan. Demak, kishilarning nomlari bilan atalgan ko'chalar to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas edi. Lekin kishilarning nomlari bilan yuritilgan obyektlar bo'lgan: **Almatqo'shchi, Badalboy, Boltaboy, Marayimxalfa, Miroqijon, Mirzayusuf, Omonbaqqol, To'ychiobod, Shayxzayniddinbobo** (shu nomli maqbara **Shiziddinbobo** deyiladi), **Shoyunusxalfa Yunusobod, Hasanboy** kabi.

Shaharning eski mahalla-mavzelari haqida yana shuni aytish kerakki, bu nomlarning ko'p shahar xaritasidan o'chib ketgan, ba'zi ko'chalar nomlarigina saqlanib qolgan.

SHAHAR DARVOZALARI

Har qanday yirik shahar kabi Toshkent ham qadimda mudofaa devori bilan o'ralgan. Shahar darvozalarini XIX asr oxirlarida ham ko'rish mumkin edi. Darvozalar soni o'zgarib turgan. XVIII asrda 8 ta darvoza bo'lgan bo'lsa, XIX asrda 12 ta edi. Tarixchi Muhammad Solih (XIX asr) quyidagi darvozalarni sanab ko'rsatgan: **1) Qiyot darvozasi; 2) Turklar darvozasi; 3) O'zbeklar darvozasi; 4) Taxtapul darvozasi; 5) Qorasaroy darvozasi; 6) Chig'atoy darvozasi; 7) Su'boniyon (Sag'bon) darvozasi; 8) Ko'kcha darvozasi; 9)Kamondaron (Komondorlar) darvozasi; 10) Qangli darvozasi; 11) Beshog'och darvozasi; 12) Qatag'on (Qo'ymas-Kenagas) darvozasi.**

Darvozalarni himoya qilish o'zbek qabilalari vakillarining zimmasida bo'lgan. Qo'riqchilar uchun darvoza yaqinida boshpana ajratilgan. Masalan, Qiyot qabilasi vakillari Qiymas darvozasini himoya qilganlar va Qiyot nomli mahallada yashaganlar. Bu mahalla hozirgi Navoiy ko'chasi, O'rda yonida bo'lgan.

Ko'kcha darvozasini Yobu qabilasi vakillari qo'riqlagan, shuning uchun shu darvozaning sharq tomonidagi mahalla **Yobunazir** deb atalgan.

Chig'atoy darvozasi Qo'shchiota darvozasi deb ham atalgan. Bu darvozani muhofaza qilish o'zbek millati tarkibiga kirgan chig'atoy qabilasining zimmasida bo'lgan, qabila vakillari shu darvoza atroflarida yashagan, keyinchalik bu yerlar Chig'atoy mahallasi nomini olgan.

Chig'atoy toponimi Chingizxonning ikkinchi o'g'lining nomidan olingan emas. Chingizxonning o'g'li XIII asrda yashagan, turkiy chig'atoy qabilasi undan ancha oldin mavjud edi. Chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti atamalari o'sha qabila nomidan olingan.

Toshkentning uzun ko'chalaridan biri **Chig'atoy**, shu ko'cha yoqasidagi mozor **Chig'atoy qabristoni** deb ataladi.

Yuqorida ta'kidlangani kabi shahar darvozalaridan ko'pchiligi etnik nomlar bilan atalgan. Tarixchi Muhammad Solih **Qorasaroy, Beshog'och, Kamondaron** darvozalari ham urug'-qabila nomlari bilan atalgan deydi. (Kamondaron keyinchalik **Kamolon** bo'lib ketgan).

Darvozalarning nomlari o'zgarib turgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent darvozalari quyidagicha nomlangan: **1) Samarqand darvozasi; 2) Ko'kcha darvozasi; 3) Chig'atoy darvozasi; 4) Sag'bon darvozasi; 5) Qorasaroy darvozasi; 6) Taxtapul darvozasi;**

7) Labzak darvozasi; 8) Qashqar darvozasi; 9) Beshog'och darvozasi; 10) Qo'qon darvozasi; 11) Qo'ymas darvozasi; 12) Kamolon darvozasi. Ko'rinib turibdiki ba'zi bir darvozalar yo'l qayerga borishiga qarab nomlangan. Ayrim darvozalarning nomlari hozir ham saqlanib qolgan.

Shahar darvozalarini ramziy bo'lsa ham tiklash, o'sha joylarda biror yodgorlik lavhalari o'rnatib belgi qo'yish maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda Samarqand darvozasi o'rniga pishgan g'ishtdan chinakam darvoza arki o'rnatildi.

AYRIM URBONIMLAR IZOHI

Toponimlar ko'pincha qadimiy so'zlardan iborat bo'ladi. Buning ustiga joy nomlari uzoq davr davomida iste'molda bo'lganidan grammatik, fonetik jihatdan o'zgarib ketishi ham mumkin. O'zi uchun tushuniksiz bo'lgan toponimdan ma'no qidirib xalq uni «milliylashtiradi». Masalan, Beshog'ochdagi **Arpapoya** nomining o'zbekcha *arpa* so'ziga, Qoryog'di urbonimining esa *qor* so'ziga hech bir aloqasi yo'q ekan. Qoryog'di arabcha **qarya** «qishloq» so'zidan kelib chiqqan ekan. Yoki Qurvaqavot asli *Quruqravot*, Yunusobod esa asli Yunusravot bo'lgan. (Hazrati Imomni hastimom, Shayx Zayniddin boboni Shiziddinbuva degani kabi).

Toshkentda arabcha, hususan, forscha, tojikcha so'zlardan tarkib topgan geografik so'zlar uchrab turadi. Masalan, XVI asrga oid vaqf hujjatlarida **Bo'zsuv** (shahar o'rtasida) tojikcha **Jui shahar** deb atalgan, keyinchalik **Shahararіq** deyiladigan bo'lgan. Bo'zsuvning shahar hududidagi bir qismi va Kalkovus kanalining quyi qismi arab so'zi bilan **Anhor**, deb yuritilgan. o'zbekcha-tojikcha «adash» nomlar ham bor: **Taxtako'prik – Taxtapul, Olmazor – Sebzor, Temirchilik – Chilangar** yoki **Oxunguzar** (aslida – **Ohanguzar**), **Qumloq – Registon.**

Geografik nomlarni (toponimlarni) Yerning tili deyishadi. Chindan ham oddiy xalq tomonidan qo'yilgan eski nomlarga qarab biror hudud tabiati, iqtisodiyoti va etnografiyasi to'g'risida ko'p narsani bilib olsa bo'ladi. Toshkentning eski mahalla va mavzelari nomlari ham o'tmish haqida talay ma'lumotlarni so'zlab beradi.

Shahardagi yana bir guruh toponimlar turli xalq-elatlardan olingan: **Lo'liko'cha, O'zbek, Tojik, Qashqar mahalla** (Uyg'ur), **Qirg'izko'prik, Qozoqbozor, Eron, Juhudbozor, Qalmoqqamalgan** va

boshqalar. Boshqa bir guruh mahallalar o'zbek urug'-qabilalarining nomlari bilan atalgan: **Yobu, Yoviariq, Kaltatoy, Qiyot, Mo'g'ol, Mo'g'ulcha, Turktepa, Chimboy, Chig'atoy, Chuvalachi, Qangli, Qoramurt** va hokazo.

Endi ayrim nomlarning kelib chiqishiga to'xtalib o'taylik.

Arpapoya – Beshog'och dahasidagi mahallalardan biri. Professor H.Hasanov mazkur toponimni shunday izohlaydi. O'rda chetidagi xondoq *aropa*, shu xondoqning etagi esa *aropa poyi* deyilgan. Bu bora-bora arpapoya bo'lib ketgan.

Beshog'och – Toshkentning eski urbonimlaridan bo'lib, daha nomi – *og'och* (yog'och, yig'och) yetti-sakkiz kilometrga teng uzunlik o'lchovi. Asli ma'nosi – «daraxt» (*xon shunday og'ochki, qon bilan ko'karur.* Fitrat).

Tarixchi Muhammad Solih Beshog'och qavm, toifa nomi deydi. Chindan ham o'zbek qo'ng'irotlarining *beshog'och* urug'i ma'lum. Shahrisabz tumanida **Beshog'och** qishlog'i ham bor.

Boltamozor – Sebzor dahasi mavzelaridan biri. **Bolta** urug'i vakillarining mozori. O'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlar tarkibida *bolta, boltali* urug'i qayd qilingan.

Bulg'orbozor – Sebzor dahasi mahallalaridan biri. Bulg'ori teri (ko'n) sotiladigan bozor.

Bo'rjar – Beshog'och dahasi mavzelaridan biri. Bo'zsuv kanalining chap tarmog'i ham Bo'rijar deb ataladi. Bo'ri jar – «bo'ri ko'p jar» deb ham izohlangan. Ilgarilari qo'shin yurishga otlanishdan oldin to'plangan manzil *buljor* deb atalgan. Jarlik qo'shinning to'planishi uchun qulay bo'lganligidan shunday atalgan bo'lsa ajab emas. Janubiy Qozog'istonda ham **Bo'rjar** degan joy bor. Bo'rjar «bo'z jar» degan taxmin ham bor.

Do'mbirobod – ko'cha va mahalla nomi. Qariyalarning gaplariga qaraganda bu yerda Mirsoat do'mbira degan qassob o'tgan. Qorni do'mbiradek katta bo'lganidan shunday laqab olgan. Keyinchalik shu yer Do'mbirobod bo'lib ketgan.

Yovi, Yovu – Sebzor dahasidagi mahalla va mavzelardan biri. O'zbek qabilalaridan biri *yovi (yovu* – jobu, yobu) deb atalgan. Qoraqalpoqlar, turkmanlar tarkibida ham yobi (jabi) urug'i bo'lgan.

Jangoh, Jangob – eski mahallalardan biri. Aytishlariga qaraganda, Toshkentning to'rtta dahasining polvonlari shu yerda kurashishar, jang

qilishar ekan. Shundan joy **Jangoh** deb atalgan. Yana bir fikr ham mavjud. Xalq bu yerni **Janggob** deydi.

Zaxariq – kanali. Vaqf hujjatlarida **Zog'** shaklida tilga olingan. Ba'zan **Zolariq** ham deyishadi. Kanal Firdavsiyning «Shohnoma»sida tasvirlangan Zol podshosining nomi bilan atalgan degan taxmin bor. Toshkentdagi ba'zi bir toponimlarning kelib chiqishini klassik fors adabiyoti qahramonlarining nomlari bilan bog'lashadi (Kalkovus – Kaykovus, Bo'zsuv – Barzu, Zax – Zol va hokazo).

Shu bilan birga «sernam», «zaxkash» ma'nosidagi **zax** so'zini ham nazardan qochirmaslik kerak.

Ko'kaldosh – madrasa (Shayxontohur tumani). Madrasani Buxoro xonining noibi Qulbobo Ko'kaldosh XVI asrda qurdirgan (Toshkent 1532 yilda Buxoro tarkibiga qo'shib olingan). Ko'kaldosh – ko'krakdosh, ya'ni asli begona bo'lsa ham bir onani emib qarindoshlashgan kishilar ma'nosini anglatadi.

Labzak – Sebzor dahasidagi mahalla. Dastlab shaharning 12 ta darvozasidan biri shunday deb atalgan. Labzak asli **Labi Zax** (Zax arig'ining bo'yi) demakdir.

Posira – Shayxontohur dahasidagi mavze. Katta yer egalari batraklarga vaqtincha foydalanish uchun bergan yer uchastkasi *posira* deyilgan.

Sarichopon – Beshog'och dahasi mahallalaridan biri. Qo'lga o'rgatiladigan ov qushlaridan biri *sor* yoki *sariqsor, soricha* deb ham atalgan. Soricha asrovchilar sorichabon deyilgan. Bu so'z keyinchalik sarichopon bo'lib ketgan.

Sag'bon – Ko'kcha dahasidagi mahalla. U Sakbon – «itboqar» so'zidan olingan deyilardi. Keyingi vaqtda Sag'bon arabcha *suq* – «bozor» va forscha-tojikcha *bon* – «qarovchi», «boquvchi», ya'ni *suqbon* «bozor qorovuli» deb izohlanmoqda.

Sergeli (Sirg'ali) – Toshkent viloyati tumanlaridan biri. Sergeli qozoqlarning qabilalar ittifoqi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sergeliliklarning ko'pchiligi Janubiy Qozog'iston hududida, qisman Toshkent vohasida yashagan. *Sirg'ali* urug'i o'zbeklar tarkibida ham bo'lgan.

Salor – Bo'zsuvdan boshlanadigan kanal. Bu kanal XV-XVI asrlar vaqf hujjatlarida **Ro'dak,** ya'ni «daryocha» deb ham atalgan. Professor H.Hasanov kanal (ariq) nomi uni *sipohi salor* – lashkarboshi qazdirganidan dalolat beradi deydi. *Salor* degan urug' xam bo'lgan.

Tarloq – Shayxontohur dahasidagi mahalla. Qadimgi turk tilida *tarlag'* (*tarlaq*) – «ekinzor», «ekin maydoni» ma'nosini anglatadi.

Toshkent toponimning kelib chiqishi hamon uzil-kesil hal qilinmagan. Toshkent vohasi (demakki shahar) birinchi bor Choch (Chochiston) shaklida Eron shohi Shopur I ning «Zardo'sht ka'basi»da milod boshlarida tilga olingan. Xitoy manbalarida **Shi, Chje-shi, Tashi-xan** (o'rta asrlarning boshlarida) deyilgan.

Toshkent so'zining etimologiyasi haqida turli fikrlar bayon etilgan. Shulardan eng ko'p tarqalganlari toponimning Tosh (arabcha – *hijara*, yunoncha – *petros*) so'zi bilan aloqador, ya'ni Toshkent – toshqal'a demakdir. Ptolemeyning «Geografiya» kitobida u Lifivos Petros – «Burj ul hijora» (Tosh qal'a) deb atalgan (Beruniy). «Tarkan – Shoshning ismi. Uning asli **Tosh kand** bo'lib, toshdan qilingan shahar demakdir» (Mahmud Koshg'ariy).

Xadra – Shayxontohur dahasidagi mahallalardan biri, endilikda eski shaharning markaziy maydoni.

Tarixchi Y.G'. G'ulomov va folklorshunos H.T. Zaripovning fikricha, *haddi roh* «yo'lning chekkasi, chegarasi», ya'ni shaharning chekkasi degan ma'noni bildiradi. Tilshunos F.A. Abdullayev esa xadra «notekis, past-baland, adirlik (yer) demakdir» deydi (*adrang – adra – xadra*).

Chilonzor – Beshog'och dahasi mavzelaridan biri. N.G. Mallitskiy fikricha, **Chinorzor** keyinchalik Chilonzor bo'lib ketgan. Ba'zilar bu joy **chilon** (jiyda) o'simligidan nom olgan deydi. Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida ham **Chilonzor** degan qishloqlar bor.

Chig'atoy – Toshkent mahalla va mavzelari ro'yxatida bir necha marta takrorlanadigan nom. Chig'atoy – Chingizxonning ikkinchi o'g'li. Chig'atoy ulusi aholisi *chig'atoylar* deyilgan. Chig'atoy nomini G'arbdagi va o'rta Osiyodagi xalqlar Chag'atay, Jag'atay shaklida talaffuz qilib keladi. O'zbekiston va Tojikistonning janubidagi katta bir qavm (o'zbeklar va tojiklar) o'zlarini *chag'atay* deb hisoblashadi. Respublikamizda Chag'atay nomli bir necha qishloq bor. Demak, bu so'z asli chag'atay (chaqatay) shaklida bo'lgan. Zomin tumanidagi qirg'izlar tilida *chaqatoy* «janjalkash», «jangari», «urishqoq» degani. Bu ham mazkur so'zning o'zbekcha shakli haqida o'ylab ko'rish kerakligini ko'rsatadi.

Chuvildoq – Sebzor dahasi mahallalaridan biri. Qo'ng'irot qabilasining *chuvildoq, chuvulloq* degan urug'i bo'lgan. Toshkentda

92 bovli o'zbek qavmlarining vakillari bo'lgan degan ma'lumotlar bor.

Shayxontohur – Toshkentning to'rt dahasidan biri. Urbonim Shayx Umar Bog'istoniy o'g'li Shayx Xovendi Tohur (janobi pok shayx) ismli avliyo nomi bilan atalgan.

Shivli yoki **Shivlimozor** – Shayxontohur dahasi mavzelaridan biri. Bu yerlar hozir ham **Shivli**, shu yerdan o'tadigan ariq **Chovli** deyiladi. Shivli bilan Chovli ikkalasi bir nom (bu fikrni Muhammad Solih ham, N.G. Mallitskiy ham aytgan). Dastlab mahalla **Shivli**, to'g'rirog'i **Shibli** deb yuritilgan. Shibli (asli shayx ismi, mozor nomi) bora-bora **Chovli** bo'lib ketgan. *Shibli* ismli ulug' zotlar, avliyolar , olimlar ko'p o'tgan. Shibli so'zi arabcha bo'lib «sherbachcha» (arslon bolasi) demakdir.

Eski jo'va – Sebzor dahasidagi mahalla. H. Hasanov bu nomni eskirgan harbiy aslahalar (jo'va) ombori ma'nosidadir deydi. Chindan ham jiba (juba) «sovut» degani. Fikrimizcha, *jo'ba* (jo'va) «bozor, rasta» degan so'z. Buxoroda *Jo'bai baqqolon* – «baqqollar bozori» bo'lgan. Eronda **Jo'bai jadid** – «yangi bozor» degan toponim bor.

Yalang'och – Shayxontohur dahasi mavzelaridan biri. Yalang'och laqabli avliyo nomidan kelib chiqqan.

O'rda – O'rta Osiyo xonliklarida xonning qarorgohi. Toshkentning Navoiy ko'chasi boshidagi **O'rda** degan joyda XIX asr boshlarida Qo'qon xoni noiblari o'rda qurdirgan.

Qashqar – Shayxontohur tumanidagi mahalla nomi. Qashqardan kelgan qashqarliklar – uyg'urlar yashagan.

Qoramurt (Qoramurtqopqa) – Shayxontohur dahasi mavzelaridan birining nomi. *Qoramurt* o'zbek urug'laridan biri, ma'nosi «qora mo'ylovli» demak.

SHAHAR KO'CHALARI

Toshkent shahridagi tabiiy va madaniy, sun'iy obyektlar nihoyatda xilma-xil. Shahar ichki obyektlarining nomlari *urbonimlar* deyiladi. Bunday obyektlar shahar tarkib topgan davrdan boshlab paydo bo'lgan.

Ana shu obyektlarning aksari qismi yo'qolib ketgan bo'lsa ham xalq xotirasida, qo'lyozmalar va boshqa yozma yodgorliklarda ularning nomlari saqlanib qolgan. Ularning har biri shahar tarixining zarralaridir.

Shahar toponimlarining eng ko'p sonlisi ko'cha-ko'ylar nomlaridan iborat. Toshkent ko'chalarining soni va nomlari har doim o'zgarib turgan. Poytaxt ko'chalari nomi va sonini Toshkent shahar Obodonlashtirish Bosh boshqarmasi tomonidan 1978 yilda nashr etilgan ma'lumotnoma bilan oradan chorak asr o'tgandan keyingi ro'yxat materiallarini solishtirsak, katta tafovutni ko'rish mumkin.

1978 yilgi nomlarning ko'pchiligi kommunistik mafkura, ruslashtirish siyosati ruhi bilan sug'orilgan edi. Ma'lumotnomada jami bo'lib 3253 ko'cha soni keltirilgan. Lekin mustaqil nomlar soni 1500 dan oshmaydi. Buning sababi shundaki, katta ko'cha ham, tor ko'cha ham, berk ko'cha ham bir nom bilan atalgan; masalan, bitta ko'cha, 2 ta tor ko'cha, 2 ta berk ko'cha **Ashrafiy** nomi bilan atalgan. **Botumi** ko'chasining 1-liniya, 2-liniya, 3-liniya tarmoqlari, shuningdek, **Botumi tor ko'chasi, Botumi berk ko'chasi** bo'lgan, demak, hammasi bo'lib 6 ta ko'cha Botumi deb atalgan. Yoki **1-Oqsoy, 2-Oqsoy, 3-Oqsoy, 4-Oqsoy, 5-Oqsoy, Oqsoy** berk ko'cha va **Oqsoy** tor ko'chalari ham bo'lgan.

Guliston nomi ko'chalar bo'yicha eng ko'p takrorlangan. Bosh Guliston ko'chasining yonida 1-Guliston, 2-Guliston, 3-Guliston, ... 10-Guliston ko'chalari, shuningdek, 4 ta Guliston tor ko'chalari va bitta Guliston berk ko'chasi mavjud bo'lgan.

1500 nomning uchdan bir qismi antropotoponimlar – kishilarning ism-familiyalari, laqablari, taxalluslari bilan atalgan toponimlar edi. Shu 500 nomdan aksari qismi – 280 ga yaqini rus familiyalari edi, ular orasida partiya va davlat arboblari, fan va madaniyat arboblari, qahramonlar, chor generallari asosiy o'rin tutar edi. Jumladan, Aleksandrov, Babushkin, Blyuxer, Budyonniy, Vereshchagin, Vrevskiy, Vishinskiy, general Petrov, Grishin, Dejnev, Dzerjinskiy, Dobrolyubov, Jdanov, Jukovskiy, Ilich, Kadishev, Kalinin, Karbishev, Kirov, Kollontay, Kosmodemyanskaya, Kotovskiy, Kuropatkin, Krenkel, Krupskaya, Kuybishev, Kutuzov, Lazo, Lenin, Lunacharskiy, Malinovskiy, Shumilov, Shchors va hokazo.

Toshkentda kishi nomlari bilan atalgan 500 ko'chada o'zbekcha antroponimlar soni 130 dan oshmagan. O'zbek tarixi, madaniyati va adabiyotida ulkan rol o'ynagan shaxslardan anchagina qismining nomlari poytaxt ko'chalarida o'z aksini topgan. Lekin o'sha vaqtdagi hukmron mafkura va siyosat nuqtayi nazaridan o'nlab buyuk namoyandalarning nomlari Toshkent ko'chalaridan o'rin olmagan.

O'zbekiston poytaxti ko'chalaridan 250 tasi ruscha so'zlar bilan atalgan edi: Abrikosoviy, Agroshkola, Bogarnaya, Vishnevaya, Vodopadnaya, Vostochnaya, Golubaya, Gornaya, Groznaya, Dalnaya, Duboviy, Jarkiy, Zapadnaya, Zelenaya, Zimnyaya, Zolnaya, Industrialnaya, Kalinovoy, Kishechniy kabi.

Bu kabi toponimik nomuvofiqlikka mustaqillik yillarida chek qo'yildi.

CHUCHMAL TOPONIMLAR

Nom – xalq ijodi, nom qo'yish – san'at. Shahar, qishloqlarimiz nomlariga e'tibor bering xoh tog'u tosh, soy – jilg'a, ko'chalarimiz nomi: **Andijon**, *Buxoro, Bo'stonliq, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm,* **,Beshog'och, Ganchtepa, G'ishtmasjid, Shayxontohur, Qoramurt, Choponbozor.** Bir-biridan chiroyli, grammatik jihatdan mukammal haqiqiy tarixiy toponimlardir.

Bir xil nomlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'lsa, boshqalarini mutaxassislargina bilishadi, ba'zilari esa umuman tushunarsiz. Demak, ular qadimiy, binobarin qimmatli toponimlardir. Joy nomlarining ayrim tovush, harflarini o'zgartirib bo'lmaydi. Masalan, Beshog'ochni Beshyog'och deb o'zgartirish to'g'ri emas. Birinchidan, *beshog'och* urug' nomi, ikkinchidan, *yog'och* so'zining og'och – «daraxt» ma'nosi ham bor. Daraxt forscha-tojikcha, *ag'ach* (jag'ach, jig'ach, ag'ach, og'och, yog'och) esa turkiy so'z.

Toshkent ko'chalarining atigi bundan chorak asr oldingi ro'yxatini sinchiklab ko'zdan kechirsak kommunistik mafkuraning, siyosatining toponimiyada ham naqadar chuqur ildiz otganini ko'rish mumkin.

Poytaxtning so'nggi bir necha yil ichida qo'yilgan ko'cha nomlari, bunday qaraganda tushunarli, sharqona, chiroylidek ko'rinadi. Lekin chuqurroq nazar solsangiz ularning ayrimlari joy nomlari emas, ya'ni atoqli otlar emas, balki, oddiy turdosh otlar, har xil chaqiriqlar, shiorlar, chala toponimlar, chuchmal nomlar ekanligini payqab olasiz.

Toponim oddiy so'z bilan aytganda shu joyning biror xususiyatini yoki shu yerda bo'lib o'tgan voqea-hodisani ifodalashi lozim. Haqiqiy toponim odatda ikki komponentdan – tarkibiy qismdan iborat bo'lishi kerak. Masalan, Toshkentda **Bahor** degan ko'cha ham bor, **Bahoriston** degan ko'cha ham bor. Bahor toponim emas, balki yil faslini

bildiradigan atama, uni *ko'klam* desa ham bo'ladi. Bahoriston esa toponimga aylanishi mumkin. Chunki bu so'zning «yer», «joy» ma'nosi bor. Bahoriston deganda «yashnagan go'sha» tushuniladi. **Vijdon, Visol, Go'zal, Dadil, Jonon** kabi sharqona nomlar ham aslida atoqli otlar emas, balki toponimlik «immuniteti» yo'q, zo'rma-zo'raki, toponimlik «pasporti» berilgan geografik nomlardir. Bunday so'zlarni atoqli otlarga, joy nomlariga aylantirish uchun ularga toponimlik «to'n» kiydirish kerak.

Aloqa, Baxt, Visol, Dadil, Jonon, Izzat, Zaytun, Zamon, Korxona, Lochin, Madaniyat, Marvarid, Maqola, Mahorat, Muloyim, Musobaqa, Musaffo, Muhokama, Nilufar, Odob, Oftob, Palma, Parvoz, Tabassum, Tabrik, Uylanish, Fazo, Yashna, Hurmatli kabi chuchmal turdosh otlar ko'chalarga nom sifatida sovet davrida tanlangan.

Bunday mujmal toponimlar mustaqillik yillarida ham paydo bo'ldi: **Ixlos, Kurash, Mag'rur, Ma'suma, Savr** (yulduzlar turkumi), **Lochig'** («chayla» ma'nosida bo'lsa, *olachiq* shaklida yoziladi), **Cho'ldaraxt, Hamal** (yulduzlar turkumi),..

Shuni aytish kerakki, hamma so'zdan ham joy nomi yasalavermaydi, boshqacha aytganda toponim so'z tanlaydi. Falsafadagi *zamon* va *makon* tushunchalari joylarga, jumladan ko'chalarga nom qo'yishda ham bosh tamoyil bo'lmog'i kerak. Yana ham aniqroq aytganda, shu yerdagi real voqelikdan, real hayotdan, mavjud tabiiy, iqtisodiy, madaniy turmushdan kelib chiqib nom tanlash zarur. Ko'cha-ko'ylarga balandparvoz nomlar qo'yish, mafkuraviy lof urishning hayotiy siyosat emasligini tajriba ko'rsatdi.

MUSTAQILLIK TOPONIMLARI

Ilmiy poydevori chuqur bo'lmagan har qanday ustqurma bir kun barbod bo'ladi.

Sovet davlati parchalanib ketgandan keyin joy nomlari milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida qaralib, mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi, xalq, tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bo'lmagan shahar va qishloqlar, ko'chalar va boshqa geografik obyektlarning nomlari o'zgartirila boshlandi, tarixiy nomlar tiklandi, qayta nomlandi.

Toponimlar xalq ijodi mahsulotlari o'laroq xalq kabi sodda,

oddiy, hamma uchun tushunarli bo'lmasa, real haqiqatni aks ettirmasa uzoq vaqt yashay olmaydi.

1989 yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash siyosatida ham burilish nuqtasi bo'ldi, toponimlarni milliylashtirish harakati boshlandi. 1990 yilda «Moskva» mehmonxonasining shu joyning tarixiy nomi bilan «**Chorsu**», Kalinin deb atalib kelingan ko'chaning azaliy nomi **Eski jo'va** deb nomlanish bu borada qo'yilgan dastlabki qadam bo'ldi.

Toshkent shahar hokimligi qoshida Toponimiya komissiyasining tuzilishi, unga taniqli olimlar – toponimshunoslar, tarixchilar, tilshunoslar, shuningdek, yozuvchi-shoirlar va boshqa jonkuyar mutaxassislarning jalb qilinishi (1992) komissiya ishining jonlanishiga imkon berdi.

1989 yildan 2003 yil oktabr oyigacha Toshkentdagi mustaqil nomlarga ega bo'lgan ko'chalardan 1000 ga yaqin ko'cha qayta nomlandi.

Nomi o'zgartirilgan ko'chalarning qariyb uchdan bir qismiga **Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, Husayn Boyqaro, Temur Malik** kabi buyuk shaxslarning nomlari berilib poytaxt toponimiyasida abadiylashtirildi. Shu bilan birga **Muxtor Avezov, Betxoven, Maxatma Gandi, Lohutiy, Neru, Firdavsiy, Lev Tolstoy, Chexov** kabi jahon klassiklarining nomlari Toshkent ko'chalarini bezab turibdi

Fikrimizcha, ko'chalarga mashhur kishilarning nomlarini qo'yish tomoyiliga katta o'rin berilmaslik kerak. Toshkent ko'chalarida **Afrosiyob, Belariq, Beshqo'rg'on, Boyqo'rg'on, Bo'zbozor, Jarariq, Posira, Taxtapul, Tepamasjid, Turkariq, Tuyatortar, Xirmontepa, Childituron, Chuqursoy, Shohidontepa, Sho'rtepa, Yakkachinor, Yalang'och, Qichqiriq, Qo'shqo'rg'on** kabi 150 dan ortiq tarixiy nomlarning tiklanishi shahar Toponimiya komissiyasining nom qo'yish sohasidagi katta amaliy yutug'idir.

TOSHKENT VILOYATI TOPONIMLARI

Toshkent viloyati respublikaning shimoli-sharqida. Shimoldan va shimoli-g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg'iziston respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston respublikasi, janubi-g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan che-

garadosh. Tarkibida 15 tuman (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq), 15 shahar, 20 shaharcha bor. Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida vohaning tekislik va tog'li yerlarida yashagan o'troq aholi ko'chmanchi va yarim o'troq chorvador qabilalar bilan yonma-yon va aralash yashagan. Tub aholisi asosan o'zbeklar bo'lib, shuningdek, qozoqlar, quramalar, tojiklar va qirg'izlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Toshkent viloyati hududi qadimgi madaniyat o'chog'i bo'lgani bois qadimgi tarixiy nomlar ko'p uchraydi.

Toshkent deganda qadimdan katta shahargina emas, balki shu nomdagi tarixiy-madaniy mintaqa ham tushunilgan. Shu bilan birga shahar hamda uning tevarak-atrofi tarix davomida turlicha nomlar bilan atalgan. Toshkent vohasining eng qadimiy nomi **Choch** (Chochiston) ilk bor 262 yilda Eron podshosi Shopur I ning «Zardushtiy Ka'basi» toshida qayd qilingan. Ayni vaqtda Toshkent vohasini o'rab turgan tog'lar ham *Choch* deb atalgan (Choch arab manbalarda Shosh shaklini olgan). Shahar va mintaqaning **Toshkand** deb atala boshlaganiga 10 asrdan oshdi.

Choch milodning dastlabki asrlarida Qang' (Qanguy) davlati tarkibiga kirgan, bir necha asr davomida esa haytallar (eftalitlar) davlati tarkibi bo'lgan. VI asr oxirlarida Turk xoqonligi haytallarni tor-mor qilib, Movarounnahr qatorida Chochni ham o'z tasarrufiga oladi.

Xilma-xil xalqlar yashagan uzoq o'tmishli o'lkaning toponimlari lisoniy va xronologik jihatdan turlicha bo'lishi tabiiy. O'lkada eroniy, so'g'diy nomlar eng qadimiy sanaladi.

Hozirgi Toshkent shahri va viloyati toponimlarining aksari qismi turkiy (o'zbekcha) nomlardir.

Mintaqadagi turkiy toponimlarning bir qismi bundan 10 asr oldingi yozma manbalarda tilga olingan: Toshkand, Obliq (Abrlig'), Iloq (Ayloq), Itlox, Jadg'ol (Chatqol), Sobliq (Soyliq), Jabg'ukat (Jabg'ukas), Xotunkat (Xotunkas) va boshqalar shular jumlasidandir.

Toshkent viloyati toponimiyasining xarakterli xususiyati shundaki, bu mintaqada etnotoponimlar anchagina uchraydi. Bu mintaqada yashagan etnik guruhlarning aksariyati vaqt o'tishi bilan turg'unlashib, etnik nomlarini unutganlar, lekin ularning nomlari joy nomlari etnotoponimlar shaklida bizgacha saqlanib qolgan.

Viloyat hududida o'zbeklardan tashqari qozoq, tojik, qirg'izlar zich yashashgani uchun shu tillardagi toponimlar ham uchraydi.

Oykonimlari. Shahar-qishloq nomlari – oykonimlar toponimiyaning axborotga boy, mafkuraga qarab eng ko'p o'zgaradigan toifasidir. Toshkent vohasi va Ohangaron vodiysi (Iloq) qadimiy madaniyat va iqtisodiyot markazi, ko'hna shaharlar o'lkasi bo'lgan.

Joy nomlari tarixini o'rganishda yozma yodgorliklar qimmatli manba sanaladi.

Miloddan avvalgi qadimgi sharq manbalarida ta'kidlanishicha Toshkent vohasi **Yuni** deb atalgan va Qang'uy davlati tarkibiga kirgan. Vohaning markazi ham *Yuni* shahri deb nomlangan.

Toshkent vohasi Xitoy manbalarida Shi – «tosh» deb, arab manbalarida Shosh deb transkripsiya qilingan. Bu o'lka haqidagi ma'lumotlarni ayniqcha arab geograflari asarlarida ko'p uchratish mumkin. Masalan, Abu Is'hok al-Istaxrning «Kitob masalik al-momolik» asarida (X asr) Choch (Shosh) viloyatidagi 27 shahar va qishloq tilga olingan (shundan 14 tasi *kat* qo'shimchali nomlar). Ohangaron vodiysida qayd qilingan 14 ta shahar-qishloqning 7 tasi *kat* qo'shimchali nomlardir.

«Hudud ul-olam» asarida (XI asr) bu mintaqada o'ttizdan ortiq toponim qayd qilingan: jumladan, **Chadg'al (Chotqol), Iloq (Ohangaron** vodiysi), **Xashart (Sirdaryo), Navkas, Navkat (To'ytepa** yaqinida bo'lgan), **Ko'hisim, Dahkas, Dahkat, Abrlig' (Oblig'), Samisirak (Bo'ka), Kalashijak (Sijjak), Xambarak (Xumson), Ardlonkas- Ardlonkat (Burchmulla), Satbag'vo (Bog'iston), Naxnax (Nanay), Gazak (G'azalkent), Farnkas (Parkent), Jabg'ukas (Jabg'ukat), Tunkat, Choch, Nujkas, Nujkat (Xonobod), Xotunkas-Xotunkat, Jinajkat (Chinoz), Shuturkas, Shuturkat** va boshqalar.

Shuni aytish kerakki, *kat* unsuri asli sug'dcha bo'lib, dastlab *kas* shaklida talaffuz qilingan va bora-bora arabcha *te* (t), ba'zan *dol* (d) harfi bilan yoziladigan bo'lgan.

Toshkent viloyati hududida *kat* qo'shimchali ayrim shahar va qishloqlar nomini keltramiz. *Ardlankat, Banokat* (Banunkat), *Binkat* (asli Toshkent), *Biskat* (keyinchalik Pistkent), *Danfag'ankat, Dahkat, Jabg'ukat, Jinajkat* (Chinoz), *Zaltikan, Zarankat* (Zarkent), *Nujkat, Nukat, Tunkat, Unjakat, Farnkat* (Parkent), *Xarashkat, Xotunkat, G'azarkat* (G'azalkent).

Shunisi qiziqki, eski qo'lyozma manbalarda aksari *kat, ket* shaklida

yozib kelingan nomlar sho'rolar hokimiyatining dastlabki yillarida *kent* shaklida yoziladigan bo'ldi: **Zarkent, Parkent, Piskent, G'azalkent** kabi.

Temuriylar davri yozma manbalarida O'zbekiston toponimiyasi maxsus yoritilmagan bo'lsa ham Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizi Abruning «Geografiya» va «Zubdat at-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn» kabi asarlarida talaygina joy nomlari tilga olingan. Ularda qayd etilgan Toshkent viloyatidagi toponimlardan quyidagilarni aytib o'tish mumkin: Toshkand, Sayxun suvi, Ohangaron, Oqqo'rg'on, Toshkent cho'li, Shohruhiya, Chinos mavzesi, Farkat (Parkent), Xumrak mavzesi (Ohangaron daryosining etagida bo'lgan), Porsin kechigi (Sirdaryodagi Kechik, Ohangaron daryosi quyilishi yaqinida bo'lgan), Chanoqbuloq mavzesi.

Hofiz Tanish ibn Muhammad Buxoriyning (XVI asr) «Abdullanoma» asarida Toshkent shahrining Ko'kcha, Farkat, Shibli, Samarqand, Turkiston, Registon nomli darvozalari nomi, Piskat, Sayxun (Sirdaryo), Farak (Chirchiq), Choch, Shohruhiya, Qaraqamish kabi toponimlar uchraydi. Sirdaryoning irmog'i haqida: «Chirchiq nomi bilan mashhur Chir daryosi» deydi. Ko'rinadiki, Toshkent tegrasida turkiy nomlar ham qadimdan uchray boshlaydi, chunonchi, sof turkiy nom bo'lgan Toshkent so'zining tarixiy manbalarda qayd qilina boshlaganiga ming yildan oshdi. O'rta asrlarda Toshkent yaqinida Xotunkat va Jabg'ukat nomli shaharchalar bo'lgan. Bular ham turkiy nomlardir. Sharqiy Turk xoqonligida *jabg'u* degan unvon bo'lgan. *Xotun* so'zi arabcha bo'lsa ham bu so'z turklarga «xonning rafiqasi» yoki «xon ayol» ma'nosida ilk o'rta asrdardayoq o'tgan. Bo'stonliq tumanida **Soyliq** degan qishloq bor. Bu nom X–XI asrlarda ijod qilgan arab geograflarining asarlaridayoq uchraydi. Bir qancha manbalarda, jumladan, buyuk Firdavsiyning «Shohnoma»sida Chirchiq daryosi Obiturk, ya'ni «turklar daryosi» nomi bilan tilga olingan. Bundan tashqari, Ohangaron vodiysi qadimda Iloq yoki Ayloq deb atallar edi. Arab yozuvida bu so'zlar bir xil yoziladi. Biz *ayloq* degani to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki ba'zi bir manbalarda alif ustiga qo'shimcha belgi qo'yilib yozilgan, shunda **Ayloq** deb o'qiladi, ayloq «yayloq», ya'ni «yozgi yaylov» degani.

Shuningdek, bu vodiyda Imloq, Obliq (ba'zi bir manbalarda Aparliq yoki Arpaliq) kabi turkiy nomlar bundan 1000–1100 yil oldingi manbalarda ham qayd qilingan. Bularning hammasi Chirchiq–Ohangaron vodiysida qadimdan turkiy qabilalar yashaganini ko'rsatadi. Shuni aytish kerakki, O'zbekiston hududida bo'lgan va ko'p asrlardan buyon mahalliy aholi talaffuziga moslashgan barcha nomlar kelib chiqishidan qat'i nazar o'zbek toponimlari hisoblanadi. Chunonchi, etimologiyasi qorong'ilashgan Samarqand, Buxoro, Chorsu kabi toponimlar o'zbek tili leksikasidan o'rin olgan va bu toponimlardan ko'plab hosila so'zlar yasalgan, masalan, hatto rus tilida «Buxarskaya storona» (Buxoro tomon) degan tushuncha bo'lgan. Bunda Ural (qadimgi Yoyiq) daryosining chap qirg'og'idan berigi tomondagi yerlar (Qozog'iston va o'rta Osiyo) tushunilgan.

Viloyatdagi bir qancha aholi punktlari nomlarining kelib chiqishi haqida ma'lumotlar bo'lim oxiridagi lug'atda keltirilgan.

Oronimlari. Toshkent viloyati hududining shimoliy va shimoli-sharqiy qismi G'arbiy Tyanshan tog'larining tarmoqlari – Chotqol, Qurama, Piskom va Ugom tog'lari bilan band. Bu tog'larning har biri o'z navbatida yana qancha tizmalarga va mayda tarmoqlarga bo'linib ketadi.

Yirik daryolarning nomlari kabi ulkan tog' tizmalarining nomlari ham qadimiy bo'ladi. Masalan, Tyanshan oronimi qadimiy xitoycha nom bo'lsa ham, hozirgi zamon faniga rus olimlari tomonidan kiritilganiga ikki asr bo'lgani yo'q. Bu atama o'zbek tilida sovet hokimiyati yillarida rasm bo'lgan. «Tyanshan yo'lbarsi» degan ibora bu so'zning ma'lum ma'noda o'zbekchalashib ketganini ko'rsatadi.

Bu tog'larning turkiy nomi Xontangri yoki Tangritov bo'lgan degan fikrda jon bor, chunki xitoycha Tyanshan – «osmon tog'lari» demak. Tangri, ko'k, osmon so'zlari sinonimi.

Qirg'izlar Tyanshanni **Olatov** deyishadi. Akademik V.V. Radlov turkiy *al-ol (ulu, uluq)* so'zi «yuksak», «buyuk», «dahshatli» ma'nolarini anglatishini ta'kidlagan. Olatovni «ola-bula», «qorli tog'» deyish ham mumkin. Lekin doimiy qorli tog'lar ko'pincha *Oqtog'* deyiladi. Masalan, Ohangaron vodiysidagi tog'lardan birining nomi Oqtog'. G'arbiy Tyanshandagi Piskom, Ugom, Chimyon oronimlari ham qadimiy nomlardir. Bu o'rinda *kom (gom), kam, kem* eroniy tillarda «daryo», «soy», «kanal» yoki «kiraverish» («og'iz») ekanini aytib o'tish joiz.

Chimyon toponimi va umuman Toshkent viloyatining tog'li qismidagi ko'pgina joy nomlari Farg'ona vodiysidan ko'chib kelgan aholi tomonidan qo'yilgan degan ma'lumot bor. Zarkat (Zarkent), Parkat

(Parkent), Nanay, Burchmulla, Sijjak kabi nomlar shular jumlasidan. Farg'ona tumanida Chimyon shaharchasi, Qo'rg'ontepa tumanida Chimyon qishlog'i bor. Farg'onadagi Chimyonni tojikcha talaffuz asosida ruslar Chimion, Bo'stonliqdagi Chimyonni esa o'zbekcha talaffuz asosida Chimgan yozib kelishadi.

Chim-chem unsuri o'zbekchada ko'p marta takrorlanadi. Chem (chim) sug'd tilida «g'ov», «to'siq», «ihota», «qo'rg'on» degani. H.Hasanov «Devonu lug'otit turk»dagi «o'tloq» ma'nosidagi *chimgan* so'ziga nisbat berib, Chimyon toponimini «serchim joy» deb izohlagan. Tyanshan tog'larining viloyat hududidagi qismida **Dodekatim, Pidar, Shabrez, Chodak, Shavvoz, Yaxak, Hovla** kabi o'zbeklar uchun tushuniksiz forscha-tojikcha oronimlar ham uchraydi. Bulardan ba'zilarini tojikcha turdosh otlar yordamida tushunsa bo'lar. Masalan, *shabrez* oronimini *shab* «oqshom», «kecha», «g'ira-shira» va *rez, rextan* fe'lining hozirgi zamon negizi unsurlari yordamida «kech kirishi» deb, **Dastorqozi** oronimini *dastor* – «salla» va *qozi* turdosh otlari yordamida «Qozining sallasiday» (metaforik-majoziy nom) deb, *shavvoz* oronimini *shavvas* so'zlari yordamida «jildirab oquvchi» (suv) yoki shahboz-shahboz turdosh oti yordamida «lochin» deb izohlash mumkin (gidronimning oronimga o'tishi yoki oronimning gidronimga aylanishi tabiiy bir hol). Buning ustiga, bu materiallarning hammasi ruscha topografik xaritalardan olingan. Ma'lumki, bunday xaritalarda *a* va *o* tovushlari farq qilinmagan, boshqacha aytganda aksari nomlarning yozilish shakli mahalliy talaffuzdan katta farq qiladi.

1:200 000 masshtabli xaritada viloyat hududida 80 dan ortiq oronimik obyektlar – tog', tizma, dovon nomlari qayd qilingan. Shulardan 1/4 qismi dovonlar, qolganlari tog'lar va tizma tog'lardir. Oronimlarning ko'pchiligi turkiy nomlardan iborat. Shunisi qiziqki, oronimlar orasida asosiy hisoblangan *tog'-tov* atamasi bir necha martagina uchraydi: **Bobotog', Qoratog', Bukirtov, Oqtov, Toshtov, Charxtov** (charx qumi yasaladigan tosh). Tog'da yashaydigan aholi ko'proq tosh so'zini ishlatadi: **Odamtosh** (shaklan odam gavdasiga o'xshaydigan qoya), **Tektosh, Oynatosh** (yaltiroq qoya), **Toshtepa, Uchtosh** (uchta cho'qqi), **Qayirtosh, Qoratosh** (Qora qoya), **Toshtov** (qoyali tog') kabi. Qoyada o'sadigan piyoz *toshpiyoz*, qoya o'yiqlarida uchraydigan ko'lmak suvlar *toshqoq* deyiladi (Rossiyada ham ayrim qoyali cho'qqilar *kamen* deyiladi; kamennaya kunitsa – «tog' suvsari», kamennaya kuropatka – «tog' kakligi»).

Yana *qopchig'ay* – «tor dara» (Oqqapchig'ay), *qurum-qurum* – «g' yonbag'irlaridagi toshlar uyumi» (Qo'rumjo'l) kabi oronimik ... nalarni aytib o'tish mumkin.

Yuqorida tilga olingan indikatorlardan tashqari oronimik leksikada o'simlik nomlari ham anchagina uchraydi: **Archali, Gulikam, Piyozak, Terakli, Yakkapista, O'rikbel, Qoratutboshi, Eshakoshuv, Qoraqush, Qoraqushxona, Qo'ng'irbuqa** va hokazo. Topoleksemalar tarkibida rang nomlari ko'p takrorlanadi: **Ko'kbeles, Ko'klak, Ko'ksuv, Oqko'l, Oqtaxta, Oqtov, Oqqapchig'ay, Saritepa, Qizilbuloq, Qiziljar, Qiziljilg'a, Qiziljon, Qizilnura, Qorabel, Qoramozor, Qoratepa, Qoratosh, Qoratog', Qoratutboshi, Qoraunchur, Qoraqiya, Qo'ng'ir, Qo'ng'irbuqa** rang nomlari ba'zan ko'chma ma'noda keladi. Masalan, *oq ko'l* «oqma ko'l» – suv quyilib yana oqib chiqib ketadigan ko'l, *oq tov* «qorli tog'», «yuksak tog'», *qoratepa* – «qorovultepa»ning qisqargan shakli va boshqalar.

Metaforik (majoziy) nomlar ham uchraydi: **Bukurtov** – «egilgan tog'», **Dastarqozi** – «Qozining katta sallasiga o'xshagan qoya», **Tuyatosh** – «Tuyaday katta xarsang», **Oynatosh** «Yaltiroq qoya» kabi.

Gidronimlari. Toshkent viloyati respublikada suv resurslariga eng boy viloyatdir. Sirdaryoning o'rta oqimi, uning yirik irmoqlari – **Chirchiq** (irmoqlari Chotqol, Piskom, Ugom, Ko'ksuv), Ohangaron viloyat hududidan oqib o'tadi. Bu daryolarning har biriga yana qancha soy-jilg'alar qo'shiladi.

Umuman olganda viloyat hududida juda ko'plab katta-kichik daryo, soylar, jilg'alar bor. Bo'sa chashmalar, quduqlar ham anchagina. Tabiiy geografik obyektlar katta-kichik bo'lsa ham, toponimlarning katta-kichigi bo'lmaydi. Makrotoponim ham, mikrotoponim ham muayyan bir ma'noni anglatadigan so'zlar.

Gidronimlarning ko'pchiligining ma'nosi tushunarsiz bo'lishi mumkin. Buning birinchi sababi shundaki, topografik xaritalar mahalliy tillarni yaxshi bilmaydigan rus topograflari tomonidan tuzilgan; ikkinchidan, borish qiyin bo'lgan tog'li joylarda qadimiy nomlar saqlanib qolgan. Masalan, Bo'stonliq tumanidagi **Dodekatim, Paltov**, Ohangaron tumanidagi **Jiblon, Urgaz** daryolarini izohlash qiyin.

Shunday bo'lsa ham ayrim gidronimlarning ma'nosini izohlash mumkin.

Viloyatning eng katta daryosi **Chirchiq** nomining «Kichik Sir» deb izohlangani ma'lum (lug'atga qarang).

Aslida ko'pgina uzoq tarix davomida til va talaffuz o'zgarishlariga uchrashi boic hozir tushunish qiyin shaklga kelib qolgan. Gidronimlar orasida metaforik – majoziy nomlar ko'p uchraydi. Masalan, Parkent tumanida *Haromzodasoy* degan soy bor. Ma'lumki, haromzoda yoki *haromi* nikohsiz ota-onalardan tug'ilgan bolani bildiradi va bu so'z «yaramas», «iflos», «ablah» ma'nolarini ham anglatadi. Tez-tez toshib tevarak-atroflarni vayron qilib turgani sababli, xalq bunday soyni nafrat bilan haromzoda deb atagan bo'lishi mumkin.

Respublikamizda **Tentaksoy** degan bir necha suv obyekti bor. Parkent tumanidagi bir soy ham shunday ataladi. Bunday soylar, oshib-toshib yo'l-ko'priklarni buzib, ekinzorlarni bosib ketishgan. Xuddi shunday **Yuguriksoy** (Parkent tumani) «shoshib-pishib tez oqadigan», **Sargardonsoy** (Bo'stonliq tumani) o'zanini tez-tez o'zgartirib turadigan soy ma'nosini anglatadi. Navoiy tumanida **Sargardonqum** degan qumlik bor, bu yerda qum tepalari – barxanlar tez-tez o'z o'rnini o'zgartirib turadi.

Bo'stonliq tumanidagi **Kelinchaksoy**ning suvi hech toshmasdan bir maromda oqadi. Uning nomi shu xususiyatidan kelib chiqqan.

Shovvozsoy (Ohangaron tumani) – sersuv bo'lsa ham tevarak atrofga zarar yetkazmasdan obi hayot bilan ta'minlab turadigan soy.

G'alvasoy (Bo'stonliq tumani) – shovqin-suron ko'tarib sharillab oqadigan soy.

Qorabov (Ohangaron tumani) – «qora urug'i vakillari yashaydigan joy». Bov «urug'-qabila», «to'p» ma'nosida. **Uchbov, Bo'stonbov, Qorabov** degan qishloqlar bor. *Bov* asta-sekin *bog'* shaklini olgan.

Tovoqsoy (Bo'stonliq tumani). Bu nomning kelib chiqishiga shaklan ulkan tovoqni eslatadigan chuqurlikdagi buloqdan chiqadigan suv sabab Baxmal tumanida **Tovoqbuloq** degan buloq bor.

Bo'stonliq tumanidagi bir soy ruscha xaritalarda **Navalisay** deb yozilgan. To'g'risi **Novalisoy** bo'lishi kerak. *Nov* yoki *nova* yog'ochtaxtadan ishlangan sun'iy ariq, jarlik yoki soylik ustidan o'tkazilgan tarnov ma'nosini anglatadi.

Bu misollar ham yer-suvlarga nom berishda xalqdan o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

Joy nomlari tarkibida uchraydigan ayrim so'zlar. Obiqashqa (Bo'stonliq tumani), **Qashqasoy** (Ohangaron tumani) gidronimlari tarkibida uchraydigan *qashqa* atamasi suv nomlari safida «zilol tog'

uvi» (ko'k qashqa suv) ma'nosini bildiradi. **Beshto'r, Qizilto'r** (Bo'stonliq tumani) gidronimlari tarkibidagi *to'r* atamasi qo'shimchasi qirg'izchada «baland tog' yaylovi» demakdir («uyning to'ri», «tog' vodiysining to'ridagi yaylov»). Bo'stonliq tumanidagi **Tunduksoy** nomi tarkibidagi *tunduk* so'zi qirg'izchada «shimol», «shimoliy» degan ma'noni anglatadi. **Cheptoshsoy** gidronimini olib qaraydigan bo'lsak, *chep* atamasi «g'ov», «to'siq», «qo'rg'on», *qapchig'ay* atamasi esa «tor dara» demakdir. Yana bir misol, tegirmon uchun tosh olingan joy **Toshkeskan** (soy) deb atalgan (Toshkeskansoy – Bo'stonliq tumani). Aytishlaricha, bu erda aholi qadimda qoyada tegirmon uchun mo'ljallangan toshlarning atrofi yumaloq qilib chuqur o'ygan, o'rtasidan teshiklari ham ochgan. Aziz-avliyolarga chiroq yoqib, iltijolar bilan duolar o'qilgan, so'ngra tegirmon toshlarning ustiga o'tin yoqib ketishgan. Ertalab xabar olishsa, tegirmon toshlar tagidan ajralib ko'chib sayqallashga tayyor bo'lib qolgan ekan. Aslida o'tin yoqilishi natijasida toshlar issiqdan kengaygan va sovuqdan torayib o'rnidan ko'chgan.

Viloyat gidronimlarida o'simlik nomlari anchagina uchraydi: **Arpapoyasoy** (Bo'stonliq tumani), **Yong'oqlisoy, Jilg'insoy** (Ohangaron tumani), **Jiydalisoy** (Bekobod tumani), **Zig'irak, Kandirsoy** (Ohangaron tumani), **Kovuldisoy, Olmaliqsoy** (Ohangaron tumani), **Olmashoxsoy** (Bo'stonliq tumani), **Sariboshsoy** (Bo'stonliq tumani), **Teraklisoy** (Ohangaron tumani), ***Shashirsoy*** (Bo'stonliq tumani).

Bu nomlarning ko'pchiligi tushunarli bo'lsa-da, ba'zi birlariga izoh berish o'rinli.

Jilg'insoy gidronimi tarkibidagi *jilg'in* so'zi o'zbek tili shevalarida, shuningdek, qozoq, qirg'iz tillarida ko'pincha cho'llarda zax suvli yerlarda o'sadigan *yulg'un* o'simligi nomidan olingan. *Zig'irak* (Zig'iraksoy) esa zig'irga o'xshagan o't o'simlik. ***Saribosh*** sariq gullaydigan o'simlik. ***Shashir*** katta yaproqli yirik o't o'simlikni bildiradi. Bo'stonliq tumanida Badalsoy degan suv bor. Badal qirg'iz tilida «chakalakzor», «butazor» degani.

Respublikamizda **Qurusoy, Quruqsoy, Qursoy** degan gidronimlar bor. *Quruqsoy* – suvsiz soylik, suv oqmaydigan, yozda qaqrab yotadigan soylik (*qursoy, qurusoy* esa quruqsoyning fonetik variantlari). Suvlisoy esa qishin-yozin suv oqib yotadigan soylikni anglatashi o'z nomidan ko'rinib turibdi.

Oq suv bilan **oq buloq** bir narsa emas. *Oq suv* burnida tog'lardan ko'pirib, oqib keladigan, oqish tog' jinslari zarrachalari, hatto muz parchalari aralash chindan ham oq rangdagi suv. *Oq buloq* deganda esa suvi oq rangdagi buloq tushunilmaydi. Kichkina bo'lsa ham suvi yerga singib ketmasdan doimo oqib turadigan buloq *oq buloq* deyilgan. *Qora suv* bilan *qora soy* ham farq qiladi. *Qora suv* sizot suvlar, bunday suvlar ko'p to'plansa qoramtir ko'rinadi. *Qora suvlar* oqib chiqadigan joylar ko'pincha botqoqlik bo'ladi. *Qora soy* deganda suvning rangi emas, balki soylikning, vodiysining rangi nazarda tutiladi. Suv oqib o'tadigan soylik qoramtir jinslardan tarkib topgan bo'lsa, *qorasoy*, oqish jinslardan iborat bo'lsa, *oqsoy* deyilgan.

Toshkent shahri va viloyati toponimlariga oid ko'plab qo'lyozmalar, kitoblar, risolalar va maqolalar mavjud. Shu mavzu yuzasidan to'laroq ma'lumot olish uchun quyidagi manbalarni mutolaa qilish tavsiya etiladi:

N.G.Mailitskiy. Tashkentskie maxalla i mavze/ V.V.Bartoldu. Turkestanskie druzya. Ucheniki i pochitateli. Tashkent, 1927, s 108-121.

Sh.M.Kadireva. Mikrotoponimi Tashkenta. AKD (Institut yazika i literaturi im A.S.Pushkina). Tashkent, 1970.

Sh.Qodirova. Toshkent mikrotoponimiyasining etimologik xarakteristikasi. «O'zbek tili va adabiyoti», Toshkent, 1969, №3, 56-59 b.

A.Muhammadjonov. Toshkentning qadimgi nomlari. «Fan va turmush», 1982, №12, 7 b.

M.N.Ramazanova. O slovare toponimov Tashkentskoy oblasti. Sbornik nauchnix trudov Tashkentskogo universiteta. 1980, №629, 90-93 b.

K.Sh.Shaniyazov. Ob istoricheskom toponime Tashkenta. Obxestvennie nauki v Uzbekistane. Tashkent, 1982, №7, 34-40 b.

S.Qorayev. Toshkent toponimlari: Toshkent. Shopayziquloq, Bo'rjar, Darxonariq, Arpapoya, Eskijo'va, Chaqar, Sog'bon. «Mehnat va turmush», 1972, №9, 23 b.

S.Qorayev. Toshkent toponimlari. Toshkent «Fan», 1991.

S.K.Karayev. Toponimi Toshkenta. «Zvezda Vostoka», Tashkent, 1985, №10, 155-159 b.

Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. Ilmiy-amaliy konferentsiya dokladlari tezislari. Toshkent, 1994.

VILOYATNING QISQACHA TOPONIMIK LUG'ATI

Angren – viloyat tasarrufidagi shahar. Ohangaron «temirchilar» so'zining buzilgan shakli. Ko'plar buni ruscha talaffuz oqibati deyishadi. Aslida quramalar shunday talaffuz qilganlar. Zomin tumanida xam **Angren** degan joy bor; q. *Ohangaron*

Appaq – q. O'rta Chirchiq tumani. Qozoqlarning alimuli qabilasining bir urug'i *appaq* (oppoq) deb ataladi.

Arashon – Ohangaron daryosining irmog'i. Gidronim sanskritcha rasayana so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «obi hayot», «xudolar ozig'i» demak. Arashon shifobaxsh issiq suvli buloqlardir. Bu atama O'rta Osiyodan Uzoq Sharqqacha, Buryatiyadan Tibet tog'larigacha bo'lgan hududlarda *arashan, arasan, arshan* shakllarida ko'plab gidronimlar hosil qilgan.

Arg'inchi – (q. Yuqori Chirchiq tumani), o'zbek, qozoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kirgan qabila. Arg'inchi – «arg'in qabilasi vakili», «arg'inlik».

Aqcha – q., Ohangaron tumani. Shu yerda **Aqcha** nomli soy bor. Respublikada **Aqcha, Oqcha** degan joylar ko'p. To'g'risi *oqcha*. *Oq* so'zining rangdan tashqari «oqib turgan, qurib qolmaydigan» ma'nosi ham bor, *Oqsoy* bora-bora **Oqcha, Aqcha** bo'lib ketgan bo'lishi ham mumkin.

Ag'anay – q., Qibray tumani. Qirg'izlarning saruu qabilasining bir urug'i *ag'anay* deb atalgan.

Bamardak – Parkent tumanidagi qoya, *Odamtosh* ham deyiladi. Bomardak tojikchada *Boboi mardak* – «buva» degani. Qoya odam shaklida bo'lgani uchun shunday atalgan. Kofirlar bosib kelganda bir qariya toshga aylanib qolgan ekan. Bu – toponimiyada keng tarqalgan rivoyat.

Burgalik – q. O'rta Chirchiq tumani. Ko'chmanchi o'zbeklar tarkibida *burga* degan urug' bo'lgan. Saroy qabilasining bir urug'i *burgali saroy* deb atalgan.

Bo'ka – sh., Bo'ka tumani. Qadimgi turk tilida, hozirgi ba'zi bir turkiy xalqlar (qozoqlar, qirg'izlar) tilida *bo'ka* «pahlavon» degan ma'noni anglatadi. *Bo'ka* degan urug' ham bo'lgan, masalan, qanglilarning bo'ka-qangli urug'i qayd qilingan.

Bo'rjar – Toshkentdagi, Anhor kanalining davomi bo'lgan ariq. Chiyabo'ri ko'p bo'lganidan **Bo'rijar** deb atalgan degan faraz bor. Filologiya fanlari doktori F.Abdullayev *bo'r* elementi *bo'z* so'zining o'zgargan shakli (Bo'zjar) deb ta'kidlagan edi. Chunki Bo'rjar Bo'zsuvning bir shaxobchasi. Ilgarilari qo'shin yurishga otlanish oldidan to'plangan joy *bo'ljor* deyilgan. Extimol, bu jarlik harbiy qo'shin to'planadigan manzil bo'lgandir. Janubiy Qozog'istonda ham Bo'rjar degan joy bor.

Bo'ston – q., Bo'ka, Qibray, Parkent tumanlari. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Burchmulla – q., Bo'stonlik tumani. Tojik tilida Burji Mullo shaklida yoziladi. Burj – istehkom devorining muyulishidagi minora. Akademik A.R. Muxammadjonov fikricha, mo'la ham «minora» ma'nosini bildiradi.

Darxan – q., Toshkent, o'rta Chirchik, Quyi Chirchiq tumanlari. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Duret – q., Quyi Chirchiq tumani. Qozoqlarning qo'ng'irot qabilasi tarkibida *duret* urug'i bor.

Yovariq – q., Toshkent tumani. «Yobu qabilasi vakillari ochgan ariq».

Jabg'ukent – o'rta asrlarda Toshkentdan ikki farsax yuqorida bo'lgan shahar. «Hudud al-olam»da,arab olimi Muqaddasiy asarida qayd qilingan. *Jabg'u* yoki *yabg'u* g'arbiy Turk xoqonligida qabila, urug' boshligi bo'lib, «hokim» demakdir. V.V.Bartold **Jabg'ukent** sobiq Niyozbek qal'asi o'rnida bo'lgan deydi.

Jaloyir – q., Qibray tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Jagalbayli – q., Bo'ka tumani. Shu kitobning «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Zarkent – q., Parkent tumani (Yangiqo'rg'on tumanida ham Zarkent qishlog'i bor). Arab geograflaridan Muqaddasiy (X asr) o'z asarida Shosh viloyatida tilga olingan **Zarankent** qishlog'ini V.V.Bartold hozirgi Zarkent bo'lishi mumkin, degan. Etimologiyasi noma'lum. Agar *zar* bo'lsa, «oltin», *zer* (zerin) bo'lsa, «quyi», «etak» degani. Zerinkat «pastdagi qishloq», «tog' etagidagi qishloq» ma'nosini anglatadi.

Zomin – q., Bekobod tumani, **Zominovul** – q., Piskent tumani. Jizzax viloyatidagi Zomin tumanidan ko'chib kelgan yashaydigan qishloq.

Izzaovul – q., O'rta Chirchiq tumani. Izza – zax joy, namlik sizib turgan yer.

Iskandarariq – Toshkentdan yuqoriroqda Chirchiqdan chiqarilgan ariq. 1883-85 yillarda buyuk knyaz Nikolay Konstantinovich qazdirgan va uning nomi bilan atalgan kanal. Xalq orasida chor knyazi Iskandarto'ra deb atalar edi.

Kavkazovul – q., Piskent. Ikkinchi jahon urushi vaqtida Kavkazdan ko'chirib keltirilgan xalqlar vakillari, aksari mesxeti turklari yashaydigan qishloqlar **Kavkaz, Kavkazovul** deb atalgan.

Kaykovus (Kalkovuz) – Toshkent shahridagi ariq. Shayboniylardan Suyunchxo'jaxon hijriy 917-936, milodiy 1511-1530 yillarda Toshkentda chorbog' barpo etib, uni **Kaykovus chorbog'i** deb atagan. Kaykovus qadimiy Eron Kayoniylar sulolasidan bo'lgan hukmdor. Ariq ana shu bog' nomi bilan atalgan. Kaykovus jonli tilda *Kalkovuz* bo'lib ketgan.

Kaberli – q., Chinoz tumani. Ilmiy geografik adabiyotda *kavir*

«sho'rxok» ma'nosida izohlanadi. Qozog'istonda va Qoraqalpog'istonda *kabir* deyiladi. Kaberli (keberli) «sho'rxoq yer» degani. Zomin tumanida yerni sho'r bossa «kavar boylabdi» deyishadi; k. *Yallama.*

Keles (Kalas) – daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i (Qozog'iston Respublikasi Chimkent viloyati va O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati). Arab geograflaridan Istaxriy, Ibn havqal asarlarida Qalos dashti, «Abdullanoma»da (XVI asr) **Kalas suvi** tilga olingan. V.V.Bartold Qalos dashti hozirgi Keles (Kalas) nomi bilan atalgan deydi. Qalos dashti «hudud ul-olam»da ham qayd qilingan. Demak, dastlab Qalos, keyin Qalas, so'ngra Kalas, qozoq tili ta'sirida Keles bo'lib ketgan. Qozoq toponimisti Ye.Qo'ychiboev fikricha, *kele* «til», *-s* esa «suv» so'zining qiskargan varianti: Keles – «til suv», «uzun suv» degani.

Kerayit – q., Oqqo'rg'on tumani, «o'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lugat kismiga qarang.

Kerovchi – q., Piskent tumani. *Kerovchi* (kereuchi) qurama o'zbeklar tarkibidagi urug'lardan biri. Urug vakillari asosan Toshkent vohasida yashagan.

Kuchak – q., Quyi Chirchiq tumani, o'zbeklarning saroy qabilasi tarkibida *kuchak* (kuchakto'pa) urug'i bo'lgan.

Ko'kmo'yin – q., o'rta Chirchiq tumani. Qipchoq o'zbeklarning bir urugi, qirg'izlarning bag'ish qabilasining bir urugi *ko'kmuyun* deb atalgan.

Ko'ksaroy – q., Toshkent tumani. Saroy qabilasining bir tarmogi – *ko'ksaroy.*

Ko'hisim – o'rta asrlarda Shosh viloyatida qayd qilingan kon va qishloq. Dastlab arab geograflari Ibn Hurdodbex, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. *Ko'hi sim* «kumush tog'» demakdir. Konning arabcha nomi *Ma'dani Shosh* «Shosh koni». V.V.Bartold *Ko'hisim* Ohangarondan janubda, Obliq kishlogi ro'parasida bo'lgan deydi. Konning Shosh viloyatida bo'lganini hisobga olsak, u Yuqori Chirchiq tumanidagi Kumushkonning o'zginasi.

[illegible] Qozoqlarning [illegible] qabilasining bir bir [illegible] deb atalgan.

Masteba – q., bekobod tumani. Tojikistonning tog'li qismidan – Sirdaryo daryosining bosh tomonidan bo'ch Yetgan tog'lik tojik [illegible] Masteba nomli tirka Machcha-Masteba bo'lib ket-

[illegible] q., Quyi Chirchiq tumani. Qozoqlarning alimuli [illegible] urug'i bo'lgan. Qozoqlar [illegible] qishlashni masha boshlaydi.

Mi[illegible] – q., Oqqo'rg'on tumani. Shu kitobning «O'zbekiston geografik [illegible]larining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Mirishkor – q., Yangiyo'l tumani. Shu kitobning «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lugat qismiga qarang.

Muratali – q., Piskent tumani. Qirg'izlarning bug'u, saroy qabilalari tarkibida *muratali* urug'i bo'lgan.

Mo'g'ol – q., Piskent tumani, o'zbeklar (*yuz* qabilasi) va qirg'izlar (*avat* qabilasi) tarkibida *mo'g'ol* urug'i qayd qilingan.

Nayman – q., Bekobod, Zangiota, Quyi Chirchiq tumanlari. *Nayman* – o'zbeklar tarkibiga kirgan qabila. Mo'g'ulcha *nayma* «sakkiz» (urug) degan so'z. Qabila tarkibidagi urug'lardan biri *sagizuruv* («sakkiz urug'») deb ataladi.

Namdanak – q., Zangiota, Parkent tumanlari. *Namdon* «sernam», «sersuv», «suv ombori» – ak – toponim yasovchi qo'shimcha.

Nanay – q., Bo'stonlik, Yangiqo'rg'on tumanlari. Nanay (Nanayni, Nanayya, Nani) – o'rta Osiyo zardo'shtiylarida hosildorlik xudosi.

Nebitdog – q., Oqqo'rg'on tumani. Turkmaniston Respublikasidagi Nebitdog shahri atroflaridan ko'chib kelgan aholi o'z qishlog'ini shunday atashgan.

Nov – q., Yangiyo'l tumani. Nov – yog'och tarnov, oxur, osma quvur, ariq.

Obirahmat – q., Bo'stonliq tumani. Qishloq yonida shifobaxsh buloq bor. Obirahmat «rahmat suvi» demakdir. O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan tojik xalqida yangi yil – navro'z bayramidan 2–3 kun oldin yog'adigan yomg'ir *obi rahmat*, *obi naysan* deyilgan. Navbahor yomg'iri ziroat uchun obi hayotdir. Obi rahmat suvi kirgan chig'anoq gavharga aylanar emish.

Oqqovoq – q., Qibray tumani. Qozoqlarning *suvan*, qirg'izlarning *chekirsayaq* qabilalarining bir urug'i oqqovoq (aqqabaq) deb atalgan. *Qovoq* (qoboq) degan geografik atama «tik qirg'oq» ma'nosini anglatadi.

Ohangaron – sh., Ohangaron tumani markazi, daryo, vodiy. Forscha-tojikcha *ohangar* «temirchi» degani, -on – ko'plik affiksi (Ohangaron «temirchilar»); q. *Angren*.

Ohangaron – daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i. Dastlab Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida **Soyi Ohangaron, Obi Ohangaron, Daryoi Ohangaron** shakllarida tilga olingan. Bobur **Ohangaron julgas**i (vodiy-s.) deb yozgan. Mo'g'ullar kelmasdan oldingi manbalarda **Iloq** daryosi deb atalgan. Bu vodiyda qadimdan temirchilik rivojlangani uchun daryo Ohangaron – «temirchilar» deb nom olgan.

Parak – Chirchiq daryosi nomlaridan biri. Dastlab «Hudud ul-olam»da, so'ngra arab geograflari (Istaxriy, Muqaddasiy) asarlarida qayd qilingan. Arab geograflari bu daryoni **Nahri Turk** deb atashgan. Chirchiq daryosi Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham Turk shaklida qayd qilingan. Istaxriy **Nahri Turkiston** deb aniq yozgan. Keyingi manbalarda (XV–XVI asrlar) ham daryoning **Obi Turk** (Sharafiddin Ali Yazdiy, «Zafarnoma», Toshkent, 1972 y.) va **Obi Farak** (hofiz Tanish Buxoriy, «Abdullanoma», Toshkent, 1969 y., I tom) variantlari uchraydi.

Demak, mazkur daryo XVI asrdan **Chirchiq** deb atala boshlagan bo'lsa ham, qadimda va so'nggi davrgacha **Parak** va **Turk** deb ham yuritilgan. Keles daryosining bir irmog'i **Oq Parak**, Nishboshsoyning (Chirchiq havzasi) bir irmog'i **Parak** deb ataladi. Demak, *parak* (to'g'risi, *par*) qadimiy geografik atama bo'lishi kerak (**Parkent** toponimini eslang). Ayrim olimlar *par* so'zi «yuqori», «yuksak» degan ma'noni bildiradi degan fikrni bildirishadi. *Par* qadimgi eroniy tilda *var* – «qal'a» so'zining talaffuz shakli bo'lishi ham mumkin

Parkent – sh., Parkent tumani markazi. Mahalliy talaffuzi **Parkat**. Arab geograflari asarlarida (IX–XI asrlar) **Barskat** shaklida tilga olingan. Yoqut Hamaviyning «Mu'jam ul-buldon» lug'atida (XII–XIII asrlar) qayd qilingan **Barskat** shahrini V.V. Bartold hozirgi Parkent bo'lsa kerak, deydi. *Bars* (tog' yo'lbarsi) nomidan olingan degan fikr ham bor. Parkent tarixiy manbalarda **Farnakas** holida ham uchraydi.

Parchayuz – q., Bekobod tumani. *Parchayuz* – yuz qabilasi tarkibidagi urug, «yuz qabilasining bir parchasi, bo'lagi» demakdir. Boshqa qabila, urug'lar tarkibida ham *parcha* etnonimi uchraydi.

Piskent – sh., Piskent tumani markazi. Dastlab arab geograflari Istaxriy, Ibn Halqal, Muqaddasiy (X–XI asrlar) asarlarida **Biskat** shaklida tilga olingan, mahalliy xalq hozir ham **Piskat** deydi. U *bis* (tojikcha) «yigirma» so'zidan kelib chiqqan degan fikr ham bor.

Piskom – soy, Chirchiqning o'ng irmog'i (Bo'stonliq tumani). **Piskom** qishlog'i Ibn Havqal asarida **Biskom** shaklida tilga olingan. Ikkinchi komponenti – *kom* «daryo» demakdir (yonidagi Ugom daryosi).

Ramadon – q., Toshkent, Chinoz, Bo'ka, Zangiota tumanlari. *Ramadon* – ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi urug'lardan biri, qozoqlarda ham ramadan urug'i bo'lgan.

Sazbaqa (Sasbaqa) – q., Qibray, Yuqori Chirchiq. *Sazbaqa* degan qozoq urug'i bo'lgan (soz – botqoqlik). Cazbaqa («botqoqlik baqasi») urug'ning totemi (muqaddas jonivori). Qirg'izlar tarkibida *sasbaq* urug'i bo'lgan.

Samarqand – q., Oqqo'rg'on Yangiyo'l. Bo'ka tumanlari. 40–50 yillarda tog'lik va adir tumanlaridan paxtakor xo'jaliklarga ko'chirish siyosati yurgizilgan. O'shanda Samarqand shahri va viloyatidan ko'chib kelganlar o'zlari bunyod etgan qishloqlarni **Samarqand** deb ataganlar.

Samg'arovul – Bo'ka tumanida shu nomda 2 ta qishloq bor. Tojikistonning Asht tumanidagi Samg'ar qishlog'idan ko'chib kelgan kishilar obod qilgan qishloq.

Sarjayloq – q., Ohangaron tumani. Ma'lumki, o'rta asrlarda Ohangaron vodiysi **Iloq**, to'g'risi **Ayloq** «yaylov» (yaylov-jaylov-yayloq-ayloq). Professor M.Y. Masson **Sarjayloq** qadimgi **Iloq** (**Aylo**)ning hozirgi toponimiyada qolgan izi bo'lishi mumkin degan. Shu tegrada **Jaylovga**, ya'ni «Yaylovgoh» degan joy ham bor.

Saritamg'ali – q., Ohangaron tumani. Etnotoponim.

Sartyuz – q., Bekobod tumani. **Sartyuz** (sartjuzi) – yuz qabilasining urug'laridan biri.

Sag'ana – q., Piskent tumani. *Sag'ana* (sog'ona) – maqbara, qabr. Aziz-avliyoning mozori yonida bo'lganidan shunday nom olgan.

Sergeli – q., Quyi Chirchiq. O'rta Chirchiq. **Sirg'ali** – q. Toshkent tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Soyliq – q., Bo'stonliq tumani. Arab geografi Ibn Havqal asarlarida (X asr) hozirgi Chirchiq daryosi bo'ylaridagi **Sobliq** yoki **Soyliq** tog'lari tilga olingan. O'sha tog'lar yaqinida hozir **Soyliq** qishlog'i joylashgan. Akademik V.V. Bartold buni de Gue kabi men ham Soyliq deb o'qidim deydi.

So'qoq – q., Parkent tumani. *So'qoq* – «*suvi oq*» yoki «*so'qmoq*» so'zlaridan olingan degan fikr bor. Tarixiy manbalarda **So'xoq** shaklida tilga olingan. Farg'ona vodiysidagi So'x daryosi atrofidan ko'chib kelganlar qishloqni *So'xak* «Kichik So'x» deb atagan bo'lishlari mumkin.

Tamaovul – q., Bekobod tumani, «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Telov (tilov) – q., Ohangaron tumani, o'zbek-quramalar tarkibidagi urug'lardan biri. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Teyit – q., Yuqori Chirchiq tumani. Qirg'izlarning *teyit* qabilasi bo'lgan (tarmoqlari: boyteyit, qorateyit, sariteyit, o'griteyit va b.).

Tortuvli – q., Oqqo'rgon tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Tuyabo'g'iz – O'rta Chirchiq tumanidagi shaharcha, Bo'ka, Piskent tumanlaridagi qishloqlar. Daryoning tuya bo'g'iziga – bo'yniga o'xshab buralib oqadigan joyi *tuyabo'g'iz* yoki *tuyamo'yin* deb ataladi. *Tuyabo'g'iz* degan urug' ham bo'lgan.

To'qboy – q., Bekobod, Quyi Chirchiq tumanlari. *Yuz* qabilasining urug'laridan biri *to'qboy* deb atalgan.

To'qimboy – q., Yuqori Chirchiq tumani. *To'qum* (to'qim) so'zi urug'lar nomlari tarkibida ko'p uchraydi. Shu bilan birga *To'qimboy* degan ism ham bor.

Uvoq – q., Ohangaron tumani. *Uvoq* (parcha, ushoq) – etnonim. Masalan, qozoqlarda uvaq (uvoq) degan urug' bor.

Uyshun – q., Quyi Chirchiq tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Uyshunovul – q., O'rta Chirchiq tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Ungut – q., Ohangaron tumani. O'zbeklar tarkibida, qozoqlarning *boyuli* qabilasi tarkibida *ungut* (ungut) urug'i qayd qilingan. Asli ungutlar (o'ngutlar) – ilk o'rta asrlarda Mo'g'ulistonning janubida, Xitoyning chegara qismlarida yashagan turkiy xalq. Keyinchalik

mo'g'ullashib, XIII asrda mo'g'ul qo'shinlari tarkibida O'rta Osiyoga kelib, mahalliy xalqlar tarkibiga singib ketgan.

Uchbov – q., Bo'stonliq tumani. Turkmanlarning *chovdur* qabilasi tarkibida *uchbag'li* degan urug' qayd qilingan. O'zbeklarda bu uchug uchbov(li) deb atalgan. Qipchoq o'zbeklarida q*abila* «bov» deyilgan. «92 bovli o'zbek» iborasi shundan. Bo'stonliq tumanida **Bo'stonbov** degan qishloq bor. O'zbekistondagi **Qorabog'** nomli qishloqlar asli Q*orabov* bo'lgan.

Uyuvli – q., Bekobod tumani. Qarapchi qabilasining bir urug'i *uyuvli* deb atalgan.

Forish – q., Boyovut tumani. Fashizmga qarshi urush yillaridan keyin Forish tumanidan ko'chib kelib o'rnashgan kishilar qishlog'i.

Xonariq – To'ytepa yaqinida Chirchiqdan boshlangan kanal. Bu kanal XIX asrning 40-yillarida Qo'qon xoni Madalixon (Muhammad Alixon) davrida qazilgan va xon sharafiga shunday nom olgan.

Xotunkat – O'rta asrlarda Binkat (Toshkent)dan 2 farsax narida bo'lgan shahar. Arab geograflari (Istaxriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy) asarlarida tilga olingan. Xotun qadimiy turk tilida «oyim, xonim» ma'nosida bo'lgan (kat – qishloq, shahar).

Xo'jatarashkan – Toshkentning Sebzor dahasida bo'lgan mahallalardan biri. Aniqrog'i **Xo'jai tarozu shikan** «noto'g'ri tarozi ishlatgan xo'ja».

Chaldar – q., Bo'stonliq tumani. Qirg'izlar adigine qabilasining bir urug'i – *chaldar* (chollar), qozoqlarning sergeli qabilalar uyushmasiga kirgan 12 qabiladan biri *shaldar* (chollar) deb yuritilgan.

Chanoq – q., Bekobod tumani. Qo'ng'irot qabilasi tortuvli urug'ining bir tarmog'i – *chanoq*.

Chimyon – q., Bo'stonliq tumani. Shu tumanda **Chimyon tog'i**, **Chimyon soyi** bor. Bu nom asli Farg'ona vodiysidan «kelgan»: Farg'onada **Chimyon** shaharchasi, Qo'rg'ontepa tumanida **Chimyon** qishlog'i bor.

O'sha tomondan kelgan kishilar yangi hududni o'zlari yashagan joy nomi bilan atashgan. Farg'onadagi Chimyonni *Chashmadamiyon* – «suvi (buloqlari) ko'p» yoki *Chilkon* – «konlari ko'p (joy)» deb izohlashgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida *chimgan* – «chimzor» ekanini aytib o'tish mumkin.

Chimqo'rg'on – q., Parkent tumani. Respublikamizda Chimqo'rg'on degan joylar ko'p. Qo'*rg'on* «istehkom», «qal'a» degani. Chimdan mustahkam qal'a qurib bo'lmaydi. Bu o'rinda *chim* so'zi asli sug'dcha *chem* «qo'rg'on» ma'nosida bo'lsa kerak.

Chinoz – sh., Chinoz tumani markazi. Arab geograflari Istaxriy, Ibn havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan **Jinanjkat** (Chinochkat) shahrini V.V. Bartold hozirgi Chinoz deb biladi. Manbalarda **Chinos** varianti ham uchraydi. *Chinos* degan urug' bo'lgan (mo'g'ulchada *chin* – «bo'ri», *-s* ko'plik affiksi).

Chirchiq – Sirdaryoning o'ng irmog'i. Chirchiq gidronimi dastlab Temur tarixida tilga olingan. Bobur bu daryoni **Chir suyi** degan. Mug' tog'idan topilgan sug'd hujjatlarida (VIII asr) Shosh shahridan janubdagi hududlar haqidagi axborotlarda **Chiirchiq** degan nom tilga olingan. Shu hujjatlarni nashrga tayyorlagan V.A. Livshits bu – Chirchiq daryosining qadimiy nomi emasmikin degan mulohazani o'rtaga tashlaydi.

Chirchiqni *Sir – chiq*, ya'ni «Kichik Sir (daryo)» deb izohlash to'g'ridir.

Chig'atoy – q., Toshkent tumani. Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyning saltanati Chig'atoy ulusi deyilgan. Shu hududdagi Temuriylar davlatining turkiy aholisi chigatoylar deyilgan. Keyinchalik urug' nomiga aylangan. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismidagi *Chig'atoy* maqolasiga qarang.

Chotqol – Chirchiqning bosh irmoqlaridan biri. Arab geograflari asarlarida **J.dg'.l,** «Hudud ul-olam»da **Jadg'al** shaklida qayd qilingan. Etnograf M.S. Andreyev Darvoz tojiklari qayinni *chotg'ol* deyishlarini aytgan. Shayx Sulaymonning chig'atoycha – usmoniy turkcha lugatida *chotqol* «notekis yer, dara», hozirgi qirg'iz tilida chatqal – «ikki tog'

orasidagi dara, soylik» demak. Bu so'z o'z navbatida ikki tarkibiy qismdan iborat. Ya'ni *chat* – ikki daryo bir-biriga qo'shilgan joydagi oralik, q*al* (qol) «soyliq, jilg'a» ma'nosidagi *qo'l* so'zining fonetik varianti bo'lishi kerak.

Chuvalachi – q., Toshkent tumani, Toshkent shahri mahallasi. Qurama o'zbeklarning tama qabilasiga kiradigan oytamg'ali urug'ining bir tarmog'i *chuvalachi* (*chubalanchi)* deb atalgan.

Chuvulloq – q., Bo'ka tumani; Chuvuldoq – q., Ohangaron, – o'rta Chirchiq tumanlari. Naymanlar, qo'ng'irotlar va boshqa qabilalar tarkibida *chuvulloq* (ch*uvuldoq*) urug'i qayd qilingan. *Chuvuldoq* – urug' vakillarining laqabi: "qiy-chuv ko'tarib, tartibsiz chug'urlaydigan urug'" degani.

Cho'yanbo'qsoy – Yuqori Chirchiq tumanidagi Chovlisoyning irmog'i. Bu soyning o'ng qirg'og'ida shlak va archa ko'miri ko'p topilgani uchun soy shunday atalgan. Demak, bu yerda temir ajratib olingan.

Shampan – q., Parkent tumani. Shu yerda shampan ishlab chiqaradigan zavod bo'lganidan qishloq shunday atalgan.

Sherxona – q., Boyovut tumani. Boyovut atroflarida sher (arslon) hech qachon bo'lgan emas. Sherxona – etnotoponim. *Sher, sherdan tuqqan, shervachcha, sherto'pi* kabi urug' shoxobchalari bor.

Shova – q., Bekobod tumani. Shova (shovva) – sharshara. *Tegirmon shova yotibdi.* Ma'nosi: un tortish uchun don yo'qligidan tegirmon ishlamay yotibdi: suvi teparoqdan sharshara bo'lib oqib turibdi.

Sho'ralisoy – q., Yangiyo'l tumani "Sho'ra o'simligi ko'p joy" ma'nosini bildiradi.

Evalak – q, Bo'ka, Piskent, O'rta Chirchiq tumanlari. *Evalak* (hevalak) degan o'simlik bor. *Evalak* aslida etnonim.

Eltamg'ali – q., Oqqo'rg'on tumani. Etnotoponim.

Yuzuruq – q., Parkent tumani. *Yuz urug'* – "yuz qabilasining bir urugi".

Yuqoriyuz, Pastkiyuz – q., Qibray tumani. *Yuz* – qabila nomi. Yuz qabilasi vakillari yashaydigan bir necha qishloq bo'lsa, bu qishloqlar bir-birlaridan *yuqori, o'rta, pastki* yoki *katta, o'rta, kichik* yoyinki *eski* (ko'hna), *yangi* kabi sifatlar bilan farqlanadi.

Yallama – q. Chinoz tumani. V.V. Bartold XIX asr oxirida Chinoz yaqinida **Jaldama** qishlog'ini tilga olgan (aniqrog'i **Jalama** bo'lsa kerak). Yer yuzini sho'rxok bossa, *yalama* (shevalarda – *jalama* deyiladi) – shunki chorva mollarida sho'r narsaga ehtiyoj bo'lsa bunday yerlarni izlab yuradi. Jomboy tumanidagi **Yalama** qishlog'ining nomi ana shundan.

Yangiyo'l – viloyat tasarrufidagi shahar. Asli nomi **Qovunchi**. *Qovchin* etnonimi *qovunchi* bo'lib ketgan bo'lishi mumkin.

O'ymovut – q., Chinoz, Qibray tumanlari. O'*ymovut* ko'chmanchi o'zbeklar, shuningdek qozoqlarning do'lat qabilasi tarkibidagi urug'.

O'rtabo'z – q., O'rta Chirchiq tumani. Musobozori qabilasining bir urugi *o'rtabo'z* (o'rtabo'zi) deb atalgan. Etnograf B.H. Karmisheva *o'rtabo'zi* etnonimi *o'rta* va *bo'z*, qo'riq so'zlaridan olingan bo'lib, «dala yoki botqoqlik o'rtasida haydalmay qolgan baland joy» ma'nosini anglatadi.

O'choqli – q., Bo'ka, O'rta Chirchiq tumanlari. O'zbeklarning uyshun qabilasi tarkibida *o'choqli* urug'i bo'lgan. Qirg'izlar, qozoqlar tarkibida *o'choq* – o'cho'q, o'shaq(li) degan urug'lar qayd qilingan.

O'yuvli – q., Bekobod tumani. O'zbeklarning do'rmon, qo'ng'irot qabilalari tarkibida o'*yuvli* urug'i bo'lgan.

Qanqa – Oqqo'rg'on tumanidagi qishloq. Miloddan avvalgi II asrdan milodning IV asrigacha Sirdaryo bo'yida, jumladan, Toshkent vohasida mavjud bo'lgan Qanqa (Qanguy) davlati nomining izi. Yana Qanqatepa degan tepalik ham bor.

Qarapchi – q., Bekobod tumani. «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang.

Qiziltu – q., Yuqori Chirchiq, Qibray tumanlari. Qozoqcha bayroq, tug' «tu» deyiladi

Qibray – shaharcha, Qibray tumani markazi. Qozoqlarning dulat qabilasining bir urug'i *qibiray* deb atalgan. Bu urug' vakillari afsonaviy Qibiray botirdan tarqagan ekan. Sadir Sadirbekovning 1994 yilda «O'zbekiston» nashriyotida qozoq tilida bosilgan «Qozoq shajarasi» kitobida shu haqda gap boradi.

Qirsadoq – q., Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, Yangiyo'l, Oqqo'rg'on tumanlari. *Qirsadoq* (qirqsadoq) – etnonim, masalan, laqay qabilasining bir urug'i *qirqsadoq* deb atalgan. Sadoq – o'qdon (kamalak o'qlari joylashtirilgan belbog') degani.

Qodiriya – q., Qibray tumani. Abdulqodir Giloniy (XI–XII asrlar) asos solgan tasavvuf tariqati *al-qodiriya*, shu tariqat muxlisi esa *qodirlik* deyilgan. Qodiriya qishlog'i Qodirliq deb ham ataladi.

Qolgan Sir – q., Bekobod, Chinoz tumanlari. Sirdaryoning eski o'zanida paydo bo'lgan qishloqlar.

Qorabaliq – q., Ohangaron tumani. Qorabaliq – chuchuk suvli daryo-ko'llarda yashaydigan baliq (ruschasi marinka).

Qorasiyroq – q., Bo'ka, Oqqo'rg'on tumani. O'zbeklarning laqay qabilasining bir urug'i *qorasiyroq* deb atalgan. Qoraqalpoqlar, no'g'oylar tarkibida ham qorasiyroq etnonimi bo'lgan.

Qoratuxum – q., Yuqori Chirchiq tumani. *Qoratuxum* etnonim. Qozoqlarda, qirg'izlarda va quramalarda q*oratuxum* urug'i qayd qilingan. Tuxum (tuqum) – «urug'», «avlod».

Qoraxitoy – q., Ohangaron tumani. O'zbeklar, qirg'izlar tarkibidagi urug'lardan biri *qoraxitoy*. Ilk o'rta asrlarda q*orakidan* xalqi keyinchalik qoraxitoy (xitoy) deb atala boshlagan.

Qoraqishloq – q., Ohangaron tumani. «Qora urug'i vakillari yashaydigan qishloq» yoki Qoraqishloq tumani (hozirgi Baxmal tumani) dan ko'chib kelganlar obod qilgan qishloq.

Qoraqo'yli – q., O'rta Chirchiq tumani. O'zbek qabilasining bir urug'i *qoraqo'yli* deb atalgan («O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang).

Quyonquloq – q., Oqqo'rg'on tumani. Yuz qabilasining bir urug'i *quyonquloqli* deb atalgan.

Qurayish – q., O'rta Chirchiq tumani. 1924 yilda o'tkazilgan tekshirishlarga qaraganda, Buxoro atroflarida turkmanlarning *ersari* qabilasi tarkibida *qurayish* to'pi qayd qilingan. Bu etnonim arablarning quraysh qabilasi nomi bilan atalgan bo'lsa, bu urug' vakillari O'rta Chirchiq tumani hududlariga kelib qolgan bo'lishi mumkin.

Qo'yliq – Toshkent shahri mavzelaridan biri. H. Hasanov Qo'yliqni «quyilik», «pastlik» deb izohlagan. Yana shuni aytish mumkinki, o'zbeklarda ham, qozoqlarda ham *qo'yli* degan urug' bo'lgan. Qo'yli keyinchalik Qo'yliq bo'lib ketgan bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, mo'g'ul sarkardalaridan birining ismi Qo'yliq bo'lgan ekan. Mo'g'ul sarkardalarining nomlari O'rta Osiyo toponimiyasida uchrab turadi (Chig'atoy, Ko'kcha, Bo'ka va b.).

Qo'riq – q., Chinoz tumani. Shu kitobning «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang

Qo'rg'oncha – q., Quyi Chirchiq tumani. Qo'*rgon* – atrofi mustahkam devor bilan to'silgan qishloq, shahar. Qo'*rg'oncha* shu aholi punkti yonida paydo bo'lgan kichik qishloq.

Qo'shtamg'ali – q., Oqqo'rgon tumani. Qo'ng'irot, nayman, yuz, turkman qabilalarining bir tarmog'i *qo'shtamg'ali* deb atalgan.

G'azalkent – sh., Bo'stonliq tumani markazi. Ayrim olimlar arab geograflari asarlarida qayd qilingan **Gazak** shahri hozirgi **G'azalkent** bo'lsa kerak, degan fikr bildirishadi. Professor H. Hasanov G'azalkent toponimi g'*izol* «ohu» so'zidan tarkib topgan degan.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TOPONIMLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasi maydoni 166,6 ming kv.km. Aholisi 1 mln 530,2 ming kishi. Poytaxti – Nukus shahri.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat. O'zbekistonning shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika tarkibida 15 tuman (Amudaryo, Beruniy, Bo'zatov, Kegayli, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a, Qonliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'irot), 12 shahar, 16 shaharcha bor.

Qoraqalpog'iston hududi geografik jihatdan Qizilqumning shimoli-g'arbiy qismi, Ustyurt platosining janubi-sharqiy qismi va Amudaryo deltasidan iborat. Orol dengizining janubiy qismi ham Qoraqalpog'iston hududida. Ayrim tog'li joylari ham bor. Ulardan eng kattasi Sulton Uvays tog' tizmasidir. Amudaryo deltasida ko'pdan ko'p daryo tarmoqlari, kichik-kichik ko'llar, botqoqliklar, changalzorlar, qamishzorlar bor. Deltaning o'ng sohil qismida asosiy sug'oriladigan yerlar, sug'orish kanallari joylashgan.

Yagona daryosi – Amudaryo (quyi oqimi). Daryoning keng deltasida to'qayzorlar ko'p. Sulton Uvays tog'lari etagida Badayto'qay qo'riqxonasi joylashgan.

Toponimlar xalq tili va tarixi mahsulidir. Qoraqalpoq xalqining etnogenezi Sirdaryo va Orol bo'ylarining delta va cho'l hududlarida yashagan qabilalar bilan bog'liq. Qoraqalpoqlarning aksari qismi XVII asrdan XVIII asr o'rtalarigacha Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan va XVIII asrning ikkinchi yarmida Sirdaryo deltasiga ko'chib o'tgan. 1811 yilda qoraqalpoqlar Xiva xonligiga tobe bo'lib, Amudaryo deltasiga ko'chirilgan. Shu sabab Qoraqalpog'istonning qoraqalpoqcha nomlarini ancha yosh toponimlar deyish mumkin.

Oykonimlar har qanday o'lkaning axborotlarga boy, davlat siyosati-yu hukmron mafkurasi bilan hamohang toponimlardir.

Respublikada 1200 chamasi oykonim – shahar, ovul, qishloqlar bor.

Toponim ham so'z, atoqli ot, atoqli ot bo'lganda ham barcha turdagi atoqli otlar orasida grammatik jihatdan eng takomillashgan turidir. Tipik toponimlar ko'pincha ikki tarkibiy qismdan (komponentdan) iborat bo'ladi. Lingvistik vositalarning tejalishi qonuniga

ko'ra ko'pgina joylarda dastlab toponim tarkibida bo'lgan komponentlarning o'zak qismidan boshqalari tushib qoladi.

Leksik jihatdan Qoraqalpog'iston toponimlarining 1/5 qismi etnotoponimlardan iborat. Qoraqalpog'istonning asosiy aholisi qoraqalpoqlar bo'lsa ham, o'zbeklar bilan qozoqlar son jihatidan qoraqalpoqlardan salgina kamroq. Turkmanlar ham bu erda ko'p sonli.

Jaloyir, qo'ng'irot, kerayit, kenagas, qiyot, mang'it, qipchoq, qatog'on, nayman kabi urug', qabilalar bilan bir qatorda oykonimlar tarkibida qoraqalpoq urug' nomlaridan tashqari o'zbek, qozoq va turkmanlarning urug'-aymoq nomlari oykonimlar shaklida Respublika xaritasidan katta o'rin olgan. Bu esa shu xalqlar vakillarning mamlakat hududida yonma-yon yashaganliklarini ko'rsatadi.

Qoraqalpoq urug'lari nomlari bilan atalgan etnooykonimlardan misollar keltiramiz. *Anna* – qtay qabilasidan (**Anna**, Chimboy tumani, **Annaovul**, Taxtako'pir, Chimboy tumanlari), *aralbay* – qtay qabilasidan (**Aralboy, Orolboy**: Chimboy tumanida 7 ovul, Kegayli tumanida 4 ovul), *aranshi* – keneges qabilasidan (**Aranshi**, Kegayli tumani), *arshan* – mang'it qabilasidan (**Arshan**, Chimboy, Kegayli tumanlari), *bo'zaq* – keneges qabilasidan (**Bo'zaq**, Kegayli tumani). *do'bal* – keneges qabilasidan (**Do'bal**, Bo'zatov tumani), *yesibi* – mang'it qabilasidan (**Yesibi**, Kegayli tumani), *yeshkili* «echkili» (jaung'ir, qipshaq) qabilalaridan (**Yeshkili**, Kegayli tumani), *jag'altay* – qipshaq qabilasidan (**Jag'altayovul**,Chimboy tumani), *jaman* (**Jaman, Jamansha, Jamanshaq**, Kegayli tumani, **Jamansha**, Chimboy, Nukus tumanlari), *jarimbet* – jaung'ir qabilasidan (**Jarimbetovul**, Chimboy tumani), *irg'aqli* (**Irg'aqli**, Qorao'zak tumani), *kepe* – qtay qabilasidan (**Kepe**, Kegayli, Qorao'zak, Chimboy tumanlari, **Kepeovul**, Taxtako'pir tumani), *qo'yin* – qandekli, qipshaq, qtay qabilalaridan (**Quyin**, Chimboy tumani), *moylibolta* – qipchoq qabilasidan (**Moylibolta**, Kegayli, Chimboy, Qorao'zak tumanlari), *mamiqshi* – mang'it qabilasidan (**Mamiqshi**, Kegayli, Nukus tumanlari), *manjuli* – qtay qabilasidan (**Manjuli**, Kegayli, Chimboy tumanlari), *muyten* (**Muytenovul**, Qonliko'l tumani), *no'kis* – keneges qabilasidan (**No'kisovul**, Amudaryo, Chimboy tumanlari, **No'kisqala**, Amudaryo tumani), *saltir* – qipshaq qabilasidan (**Saltir**, Kegayli tumani, **Saltirovul**, Qonliko'l tumani), *umbet (ay)* – qtay qabilasidan (**Umbet**, Qorao'zak tumani), *sherushi* – qtay qabilasidan (**Sherushi**, Kegayli, Chimboy tumanlari, **Sherushiovul**, Chimboy tumani).

Bu misollar qoraqalpoq urug'larining geografiyasi haqida ham tasavvur beradi, deb o'ylaymiz.

Qoraqalpog'iston etnotoponimlari orasida *ayuchi*, *oqmang'it*, *yeshteke*, *irg'aqli*, *qishliq*, *sag'ir*, *tuyoqli* kabi kichik o'zbek urug'lari nomlari ham uchraydi.

Qozoq urug'laridan *aday* – (**Adayovul** – Shumanay, Qonliko'l tumanlari, **Adayko'l** – Nukus tumani), *aytimbet* – (**Aytimbetovul** – Qorao'zak tumani), *qorabotir* – (**Qorabotir**- Taxtako'pir tumani), *quan*, *mamit* (**Mamito'va** – Qo'ng'irot tumani), *o'tegen* – (**O'tegen** – Kegayli tumani, **O'tegenovul, O'tegenqo'rjin** – Qorao'zak tumani), *sarman* – (**Sarmanovul** – Chimboy tumani), *to'nmo'yin* – (**To'nmo'yin** – Kegayli, Chimboy tumanlari), *shege* – (**Shege** – Mo'ynoq tumani) kabi etnonimlarni, turkman urug'laridan esa *ayritam* – (**Ayritam** – Qo'ng'irot tumani), *ata* – (**Atako'l** – Taxtako'pir tumani, **Atao'ba** – To'rtko'l tumani), *garga* – (**Garga** – Chimboy tumani), *do'nguzli* – (**Do'nguzovul** – Xo'jayli tumani) kabi etnonimlarni aytib o'tish mumkin.

Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning qon-qardoshligini shundan bilsa ham bo'ladiki, o'zbek, qozoq, qirg'izlarning tarkibida uchraydigan bir qancha urug'-qabilalar ular uchun mushtarakdir. Masalan, *achamayli* urug'i o'zbeklarning kenagas, saroy, yuz, qo'ng'irot qabilalari tarkibida, *ashamayli* shaklida esa qozoqlarda, jumladan, kirey qabilasi, qoraqalpoqlarning qo'ngrat qabilasi tarkibida qayd qilingan. Jaloyir (jalayir) qabilasi esa ko'chmanchi o'zbeklar tarkibida, yuz qabilasi, so'ngra quramalar tarkibida, qozoqlar tarkibida va qirg'izlarning so'lto' qabilasi tarkibida uchraydi.

Qo'ng'irot, Qonliko'l, Kegayli tumanlarida **Ashamayli**, Qonliko'l tumanida **Ashamayliovul** oykonimlari bor.

O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'izlar tarkibida uchraydigan *qang'li* qabilasi nomi Qoraqalpog'iston xaritasida **Qangli** (Kegayli, Chimboy, Qo'ng'irot tumanlari), **Qangliovul**, **Qanglijapovul** shakllarida (Chimboy tumani) oykonimlar hosil qilgan.

O'zbek, qoraqalpoq, turkmanlarning *kenagas* (kenegez, keneges) qabilasi Kegayli va Xo'jayli tumanlarida **Keneges** oykonimi shaklida, *kerayit* (kereyit) qabilasi esa Nukus tumanida **Kereyit** ovuli nomida o'z aksini topgan.

Qo'ng'irot (qo'ngrat, qo'ngrad) etnonimi o'zbeklarning kenagas, qutchi qabilalari tarkibida, qozoqlarning *qipshaq*, qirg'izlarning *adigine*

qabilasi tarkibida qayd qilingan, Qoraqalpog'iston oykonimlari tarkibida esa **Qo'ng'irodovul** (Amudaryo tumani), **Qo'ng'irotko'l** ovullari nomlarida o'z aksini topgan.

Nayman qabilasi o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy xalqlar tarkibida uchraydi va Qoraqalpog'iston oykonimlari orasida **Nayman** (Qonliko'l, Xo'jayli tumanlari), **Naymanovul** (Xo'jayli, Shumanay tumanlari), **Naymanto'ba** (Xo'jayli tumani), **Naymanyap** (Beruniy tumani) ovullari nomlarida o'z aksini topgan.

O'zbek, qirg'iz, turkmanlar tarkibida qayd qilingan *sayat* etnonimini Shumanay, Qo'ng'irot tumanlaridagi **Sayat** ovullari nomida ko'rish mumkin.

Tama qabilasi qozoqlar, o'zbeklar, qirg'izlar, quramalar orasida uchraydi va Amudaryo, Ellikqal'a tumanlarida **Tama** ovuli nomida aks etgan.

Uyshun toponimi o'zbeklar, qoraqalpoqlar tarkibida qayd qilingan va Amudaryo tumanidagi bir ovul shunday nomlanadi.

Taylaq (tayloq) etnonimi qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, o'zbek, turkmanlar orasida uchraydi va Chimboy tumanidagi **Taylaq** ovulida o'z ifodasini topgan.

Qipchoq etnonimi ko'plab turkiy xalqlar orasida qayd qilingan. Qoraqalpog'istonda 15 ga yaqin ovul shu nomda (**Qipchaq, Qipshaq** shakllarida).

Nukuz (nukus) urug'i qo'ng'irot qabilasi hamda qoraqalpoqlarning keneges qabilasi tarkibida uchraydi (nekuz shakli ham qayd qilingan) va Amudaryo, Chimboy tumanlarida **Nukusovul**, Amudaryo tumanida **Nukusqal'a** oykonimlarida o'z aksini topgan. Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti **Nukus** shahri (qoraqalpoqcha – **No'kis**) nomi ham shu etnonimdan.

Nukus shahri nomi, umuman *nukus* etnonimining kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bor. Bu nom ayrim tadqiqotchilar fikricha, forscha-tojikcha nu+kas «to'qqiz kishi» degan ma'noni bildiradi. Nukuslar asli mo'g'ul qabilasi bo'lganini e'tiborga olsak, bu etnonimning etimologiyasi haqidagi fikrlar uzil-kesil hal bo'lmagan deyish mumkin.

Shahar-qishloqlarning nomlarida o'lka tabiati ham o'z aksini topadi.

Oykonimlarda relyef shakllarini bildiradigan quyidagi oronimik atamalar uchraydi: *tov* (tog') – **Jumurtov, Oqtov, Po'rlitov, Tozaqulatov**;

qum («qumlik», «qumli cho'l») – **Jalg'izqum, Jindiqum, Juvanqum, Oqqum, Oqqumovul**; *jar* – **Qiziljar, Qorajar**; *shung'il* («chuqur joy», «botiq») – **Muratshung'il, Oqshung'il**; *o'y* («chuqur joy», «kichik botiq») – **Dumaloqo'y, Mamiro'y, Tajeno'y, Qorao'y, Qorao'yovul, Qorao'ysolma**; *so'r* («sho'rxok») – **Qoraso'r**; *taqir* – **Qorataqir**.

Suv obyektlarini ifodalaydigan gidronimik atamalarga misol: *arna* – **Paxtaarna, Tentekarna**; *ariq* – **Shuqurariq, Yangiariq**; *buloq* – **Ashibuloq, Sutbuloq**, *sag'a-saqa* («kanalning boshi») – **Kanalsag'a, O'rjapsag'a, Uchyapsag'a**; *o'zek* («jildirab oqadigan jilg'a») – **Ko'ko'zek, Moylio'zek, Qirqo'zek**; *soy* – **Uchsoy**; *solma* («kichik ariq») – **Bo'zsolma;** *jap-yap* («o'rtacha ariq») – **Dusenbayjap, Jalpaqjap, Qonlijapovul, Qorajap, Mayyap, Naymanjap, Qumyap**, *quduq* – **Oqquduq**; *jag'is* (Xorazmda – yoqish) – «joy», «pristan» – **Oqjag'is**.

Ko'l gidronimik atamasiga mufassalroq to'xtashga to'g'ri keladi. Gap shundaki, Qoraqalpog'iston hududida mayda-chuydalarini hisobga olmaganda, 150 dan ortiq ko'l bor edi. Respublika Amudaryoning etak qismida bo'lgani bois daryo suvi toshib son-sanoqsiz ko'llar hosil qilgan edi. Ko'llarning ko'plari qurib qoldi, lekin xaritalarda, odamlarning xotiralarida bu obyektlarning nomlari saqlanib qolgan.

Bundan tashqari 40 dan ortiq ovul-qishloqning nomlari tarkibida ham *ko'l* atamasi uchraydi, jumladan, **Adayko'l, Oqko'l, Turkmanko'l, Uyg'urko'l, Sho'rko'l, Qorako'l, Qo'ng'irotko'l** va b.

Respublikada gidronimlar tarkibida *ko'l* atamasi o'rniga *aydin* (oydin) so'zi ham ishlatilgan: **Uzunoydin, Uyrekoydin, Qoraoydin** va b.

Qoraqalpog'iston ko'llarini nomlariga qarab bir necha turga bo'lish mumkin.

1) kishi ismlari bilan atalgan ko'llar: **Davitko'l, Do'sanko'l, Zakirko'l**;

2) rangiga qarab nomlangan ko'llar: **Ko'kko'l, Qorako'l, Qoraoydin, Sariko'l**;

3) parranda nomlari bilan atalgan ko'llar: **Birqozonko'l, Quvliko'l, Qo'tonko'l.** Bu qushlarning nomlari haqida shuni aytish kerakki, o'zbek zoologik adabiyotida *birqozon, saqoqush* deb ataladigan suv parrandasining ikkinchi nomi. Qoraqalpoq tilida esa o'zbekchada *qoraboy* (ruschasi – baklan) deb ataladigan qush *birqozon* deyiladi. Qoraqalpoqlarning aytishlaricha bu yirik parrandani so'ysangiz bir qozon go'sht qilar ekan. ***Quv*** o'zbek adabiy tilida *oqqush* deyiladi («sochim bo'ldi quvning patiday», «sochim quvning patiga o'xshab oqardi»).

4) suv o'simliklari nomlari bilan atalgan ko'llar (**Jekenlioydin, Shilimko'l, Qamisliko'l**). *Jeken* o'zbekchada *yakan* deyiladi. Undan savat, bo'yra va boshqa buyumlar yasaladi. *Shilim* (chilim) – qamishga o'xshash ichi kovak o'simlik. *qamis* esa qamish.

5) majoziy-metaforik nomlar bilan atalgan ko'llar: **Oltinko'l** u qimmatli baliq zotlari ko'p bo'lganidan shunday nom olgan. **Gavmisko'l** – «katta, ulkan, yirik» degani. **Davkempir ko'li** yo'lbarsning oyog'iga kirib ketgan katta zirapchani qo'rqmasdan chiqarib olgan kampir sharafiga shunday atalgan ekan. **Maqbalko'l** – baxmalday tovlanib turgani uchun shunday nomlangan.

Aholi punktlari nomlarini hosil qiladigan oykonimik atamalar.

Qoraqalpog'istonda bunday atamalar atigi bir necha: *ovul, qal'a, obod, ko'pir.*

Bular orasida eng ko'p takrorlanadigani *ovul* (aul) atamasidir. Qariyb 200 ga yaqin aholi punkti (ovul) nomlari tarkibida uchraydi: **Avezovul, Bo'zovul, Darg'aovul, Kepeovul, Maxremovul, Naymanovul** va b. (*ovul* so'zi haqida ma'lumot «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismida berilgan).

Qal'a atamasi 30 ga yaqin shahar va ovul nomlari tarkibida keladi: **Ayozqal'a, Burgutqal'a, Jambasqal'a, Mamiyqal'a, Nukusqal'a, Tozaqal'a** va boshqalar.

Respublikamizning o'zga hududlarida, xususan, Farg'ona vodiysida *qala* so'zi o'rniga ko'proq *qo'rg'on* atamasi ishlatiladi (qal'a: «O'zbekiston geografik nomlarining toponimik leksikasi» bo'limining lug'at qismiga qarang).

Boshqa oykonimik atamalardan faqat *obod* komponenti bir necha marta takrorlanadi: **Amirobod, Mehnatobod, Paxtaobod, Xalqaobod, Chinobod, Yangiobod, Qirqqizobod**.

Hovli (**Bo'zhovli**), *tom* (**Uchtom, Fermatom**) atamalari oykonimik indikatorlar sifatida juda kam namoyon bo'lgan.

RESPUBLIKANING QISQACHA TOPONIMIK LUG'ATI

Ayozqal'a – Beruniy tumani hududidagi me'moriy yodgorlik. Miloddan avvalgi IV–II asrlarga oid uchta qal'a xarobadan iborat. Bir necha turkiy xalqlar folklorining qahramoni **Ayoz** nomi bilan atalgan.

Ajimovul – ovul (Nukus, Kegayli tumanlari). Qozoqlarning jetiruv, qirg'izlarning sayoq qabilalarining bir urug'i *ajim* deb atalgan.

Ayran – ovul, Qo'ng'irot tumani. O'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi tarkibida *ayron*, nayman qabilasi tarkibida *ayronchi*, qozoqlarning nayman qabilasi tarkibida *ayram* urug'lari bo'lgan.

Ayteke – ovul, Chimboy, Kegeyli tumanlari. Kegeyli tumanida ovul *Ayteke* deb ataladi. Qoraqalpoqlarning *qtay* qabilasi tarkibida *Ayteke* degan urug' ham bo'lgan.

Anna – ovul, Kegeyli, Taxtako'pir, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarning *qtay* qabilasi tarkibida *anna* (sart-anna) urug'i bo'lgan.

Aralbay – ovul, Chimboy, Kegayli tumanlari. Qoraqalpoqlarning *qtay* qabilasida *aralbay* (orolboy) urug'i bo'lgan. Urug' vakillari ana shu ikki tumanda yashagan bo'lsa kerak. Chimboy, Kegayli tumanlarida 15 ga yaqin ovul shu urug' nomi bilan atalgan.

Arshan – ovul, Kegayli, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarning mang'it qabilasi tarkibida *arshan* urug'i bo'lgan.

Atavavul – ovul, Amudaryo tumani. *Atav* (atau) – «orol».

Ayuchi – ovul, o'zbek qipchoqlarining bir urug'i *ayuchi* (ayuvchi, ayiqchi) deb atalgan.

Aqto'g'in – ovul, Bo'zatov, Kegayli, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarning keneges qabilasi tarkibidagi bir urug' nomi *aqto'g'in* (oqto'g'in) bo'lgan.

Badayto'g'ay – Amudaryoning o'ng sohilidagi qo'riqxona. Xorazm viloyati Urganch tumani, Qoraqalpog'istoning Beruniy tumani hududlarida chorvachilik bilan shug'ullangan *baday* o'zbek urug'i. XIX asr boshlarida Surxondaryo vodiysi, Bekobod bilan Zomin orasidagi dashtlarga tarqalgan. Ishtixon, Paxtakor tumanlarida **Baday** (Boday), Ishtixon tumanida **Badayovul, Qo'riqbaday** qishloqlari bor.

Baqanlijap – ovul, Shumanay tumani. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot qabilasi tarkibida bir urug' *baqanli* deb atalgan; *jap, yab* (yob) – «kanal», «ariq».

Beksiyiq – ovul, Kegayli, Xo'jayli, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarning qtay qabilasining bir urug'i *beksiyiq* deb atalgan.

Birqozonko'l – ovul, Qo'ng'irot tumani. Birqozon ayni paytda saqoqush deb ham ataladigan suv parrandasi. Amudaryo etagida ko'p bo'ladi. Birqozonko'l – Saqaqush ko'li.

Boyterak (Bayterek) – Qo'ng'irot tumanidagi joy, quduq. Boyterak – chinor, tayanch, muqaddas daraxt. Turkiy xalqlarda Boyterak, Bayterek degan ismlar bor. Boyterak etnonim bo'lib, qozoqlarning qanli qabilasi va qirg'izlarning saribag'ish qabilasi tarkibida boyterek (bayterek) urug'i qayd qilingan.

Borsakelmas – Orol dengizidagi katta orol. Orolning nomi haqida turli rivoyatlar bor. Shulardan birida aytilishicha ilgarilari Orol atrofidagi boylar qish paytlarida chorva mollarini muz ustidan sero't orolga hayday borib, muz erishi oldidan chorvalarini qayta olib ketishar edi. Bir yili bahor erta kelib muz erib ketganidan mollar o'sha orolda qolib ketgan ekan. Shu-shu Orol **Borsakelmas** deb atalar ekan.

Burlaq – Amudaryo bo'yidagi bir necha qishloq va ovul nomlari. Bu so'z Volga daryosida kemalarni oqimga qarshi tortib kun ko'rgan ishchilarni anglatgan *burlak* atamasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Zarafshon bo'yida ham **Burlaq** degan qishloqlar bor. Ko'chmanchi o'zbeklar ulusida *burlaq* degan urug' qayd qilingan.

Bo'zatov – ovul, Chimboy tumani. Xorazmda, Qoraqalpog'istonda *atav* – 1) o'tov, bo'z uy; 2) daryo o'rtasidagi kichikroq orol; 3) qamishzor, to'qay.

Duvana – buloq, Qo'ng'irot tumani. «Devona, gadoy, savdoyi».

Yestek – ovul, Kegayli, Taxtako'pir tumanlari. Qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan qipchoqlarning bir urug'i *yestek* deb atalgan.

Yeshkili – ovul, Kegayli tumani. Qoraqalpoqlarning qo'ng'irot qabilasining bir urug'i *yeshkili* (echkili) deb atalgan.

Jamansha – ovul, Kegayli, Chimboy, Nukus tumanlari, Jaman, Jamanshaq – Kegayli tumani. Qoraqalpoqlarning qiyat, qtay qabilalari tarkibida *jaman*, qoraqalpoqlarning mang'it qabilasi tarkibida *jamansha* urug'lari bo'lgan. Ko'pgina turkiy etnonimlar orasida *jaman, yomon* laqabli urug'-aymoq nomlari bir necha marta takrorlanadi.

Jetkinshek – ovul, To'rtko'l tumani. **Jetkinshek** qoraqalpoq tilida «o'smir, yosh avlod» degan ma'noni bildiradi.

Kepe – ovul, Kegayli, Chimboy, Qorao'zak tumanlari. Qoraqalpoqlarning qtay qabilasi tarkibida *kepe* urug'i qayd qilingan.

Ko'lsag'a – ovul, Chimboy tumani. *Sag'a* – arabcha *saqo* so'zining talaffuz shakli, Xorazmda, shuningdek, Qoraqalpog'istonda «kanal yoki ariqning boshi» ma'nosini bildiradi. **Ko'lsag'a** – kanal boshlanadigan joydagi ko'l.

Manjuli – ovul, Chimboy tumani. Qoraqalpoqlarning *qtay* qabilasining bir urug'i *manjuli* deb atalgan.

Moylibolta – ovul, Kegayli, Qorao'zak tumanlari. Qoraqalpoqlarning *qipshaq* qabilasi tarkibida *moylibolta* (maylibalta) urug'i qayd qilingan.

Muytenovul – ovul, Qonliko'l tumani. Qoraqalpoqlarning bir urug'i *muyten* deb atalgan.

Mo'ynoq – shahar, Mo'ynoq tumani markazi. **Mo'ynoq** ikki tarkibiy qismdan iborat: *mo'yin* – bo'yin, *-oq* kichraytirish qo'shimchasi. Mo'ynoq «kichik bo'yin», «bo'yincha» demakdir.

Nukus – shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti (qoraqalpoqcha – **No'kis**). Nukus, no'kis, nekuz degan urug' bo'lgan. Rivoyatga ko'ra Nukus (no'kis) surgun qilingan to'qqizta qizning o'g'illaridan tarqalgan kishilarning avlodi bo'lib, «to'qqiz kishi» demakdir (tojikcha *no'h* – to'qqiz, *kas* – kishi). Bu rivoyat, xolos. Toponimning etimologiyasi hamon noma'lum.

Nukus qabilasi *neko'z* shaklida turk-mo'g'ul urug'lari tarkibida qadimgi tarixiy manbalarda, chunonchi, Rashid ad-dinning «Jome at-tavorix» asarida ham tilga olingan. Nukus urug'i nukas («yangi-qishloq») degan ma'noni anglatadi degan fikr xam bor. **Nukus** (Nikuz) degan joy nomlari Respublikamizning boshqa yerlarida ham uchraydi.

Orol dengizi. Bu gidronimning kelib chiqishi haqida bir qancha fikrlar bayon etilgan. Nega dengiz (katta ko'l) Orol deb atalgan? Orol suv o'rtasidagi quruqlik-kul Xiva xoni, yirik tarixchi olim Abulg'ozi Bahodirxon Amudaryo dengizga quyiladigan joyni, deltani **Orol** deb atagan. Ana shu yerda orollilar degan xalq yashagan. L. Berg o'zining «Orol dengizi» degan asarida (1908) **Orol** o'sha yerda yashagan xalq – orollilar nomidan kelib chiqqan deb yozadi va Richkovning (1755) «Ko'lda orollar ko'p bo'lganidan u shunday atalgan» degan fikrini o'rtaga tashlaydi. Chindan ham ushbu dengizda 300 dan ortiq orol bo'lgan.

Tevarak-atrofdagi o'zbeklar, qozoqlar dengizni Orol (Aral) deb atasa, qoraqalpoqlar **Aral** yoki **Atau** deb atashar ekan. Qoraqalpoq toponimisti Q. Abdimuratov Orol dengizi chindan ham *orol* «suv o'rtasidagi quruqlik» so'zidan kelib chiqqan degan fikrni bildiradi.

Oqshung'il – ovul, Xo'jayli tumani. Qoraqalpoqchada *shung'il* – «chuqurlik», «botiq», «daryoning chuqur qismi».

Pilqal'a – Beruniy shahri yaqinidagi shahar xarobasi. Pilqal'a qadimgi Xorazm poytaxti **Kot** shahrining ichki qal'asi – **Fir** (Fil)ning vayronasi.

Saltir – ovul, Chimboy tumani. Qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan qipchoqlarning bir urug'i *saltir* deb atalgan.

Sario'ymovut – ovul, Kegayli tumani. *Sari(q) o'ymovut* – o'ymovut urug'ining bir tarmog'i.

Sazanjap – ovul, Chimboy tumani. *Sazan* – «sozda – balchiqda yashaydigan (baliq)», *jap, yap (yop)* – kanal.

Sudoche – Mo'ynoq tumanidagi ko'l. Qoraqalpoq toponimisti Q. Abdimurotov **Sudoche** qoraqalpoqcha «suvi dushshi», ya'ni «suvi chuchuk (ko'l)» so'zlaridan kelib chiqqan deydi. Agar shunday bo'lsa bu nom **Dushshiko'l** (Chuchukko'l) bo'lar edi. Turkiy toponimlar tarkibida *suv* so'zi toponim oxirida keladi: **Achchisuv, Shirinsuv, Qorasuv, Oqsuv.**

Ilgarilari So'rko'l (Sho'rko'l) deb atalgan. Bu yerlarda Uraldan kelgan ruslar yashagan. Ular mahalliy xalqqa baliq tutish, tuzlash yo'llarini o'rgatgan va ko'lni **Sudoche** – «sudak balig'i ko'li» deb atagan (qoraqalpoqlar bu baliqni sila balig'i deb ataydi).

Suyenarim – Mo'ynoq tumanidagi ko'l. Ruslar usach («mo'ylovli») deb ataydigan baliqni Amudaryo etagida *suyen* (suvan, so'gen) deyishadi. **Aqrim** qoraqalpoq tilida «pastlik, chuqurlik, soylik» demakdir.

Sulton Uvays tog'lari – Amudaryoning o'ng sohilida. O'rta Osiyoda tasavvuf targ'ibotiga asos soluvchilardan biri arab Uvays Qorniy nomi bilan atalgan (VII asr). *Sulton* unvoni unga keyinchalik O'rta Osiyo xalqlari tomonidan berilgan. Tizmaning janubiy-g'arbiy yonbag'rida Sulton Uvaysning ziyoratgoh afsonaviy qabri bor.

So'rja – Qo'ng'irot tumanidagi joy. «So'r» – sho'r, sho'rxok, «so'rja» – sho'r joy. O'zbekistonda – *Sho'rchi*.

Tazg'ara – Chimboy tumanidagi eski o'zan. Qoraqalpoq toponimisti Q. Abdimuratov bu joy Tajiqara degan kishi ismi bilan atalganligini ta'kidlaydi. Jizzax tumanida **Tazg'ara** (Tasqara) degan joy bor.

Ko'rimsiz, xunuk narsani *tasqara* deyishadi. **Tasqara** (ba'zi joylarda g'ajir) deb ataladigan o'limtikxo'r qush haqiqatan ham juda badbashara bo'ladi.

Taylaqovul – ovul, Chimboy tumani. Endigina tug'ilgan tuya bolasi, bir yoshgacha *bo'ta* (bo'taloq), bir yoshdan oshsa *tayloq* deyiladi. **Taylaqovul** – qoraqalpoqlarning *taylaq* (toyloq) urug'i nomi bilan atalgan.

O'zbek, qozoq, qirg'izlar, turkmanlar tarkibida ham *taylaq*

(toyloq) urug'i bo'lgan. Orol dengizida bir orol **Taylaqjegen** (Toyloq yegan) deb atalagan.

Tarli – Kegayli tumanidagi quruq o'zan. Q. Abdimuratov bu toponimni «tariqli, tariqpoya» deb izohlagan. Haqiqatan qoraqalpoqlar va boshqa bir necha turkiy xalqlar, jumladan, jelovchi o'zbeklar tariqni *tari* deyishadi. Dastlab bu yer Tarili deb atalgan, keyin **Tarli** bo'lib ketgan.

To'nmo'yin – ovul, Kegayli, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarda mang'it qabilasining bir urug'i shunday atalar edi.

To'rtdival – ovul, Ellikqal'a tumani. Aynan «choldevor, vayrona»; To'rtko'l ham shu ma'noda.

Shag'al – ovul, Nukus tumani. Turkmanlarning taka, ersari, o'zbeklarning qo'ng'irot qabilalari tarkibida *shag'al* qabilasi qayd qilingan.

Sherushi – ovul, Kegayli, Chimboy tumanlari. Qoraqalpoqlarning qtay, qozoqlarning kerey qabilalariga mansub *sherushi* urug'i bo'lgan.

Egizqum – Chimboy tumanidagi joy. Egiz so'zi «qo'shaloq»dan tashqari «baland, yuksak» degan ma'noni bildiradi. **Egizqum** – «baland qum tepaligi».

Qandekli – ovul, Shumanay, Qorao'zek tumanlari. Qoraqalpoq va o'zbeklar tarkibida *qandekli* urug'i qayd qilingan.

Qaraman – ovul, Amudaryo tumani. Turkmanlar, qozoqlarning bir urug'i *qaraman* deb ataladi. Xorazmda esa qayrag'och daraxtining bir turini *qaraman* (qora eman) deyishadi.

Qoplonqir – Ustyurt chinkining bir qismi. Bu yerlarda bir paytlar chindan ham qoplon yashagan, hozir qolmagan.

Qoraboyli – Mo'ynoq, Xo'jayli tumanlaridagi joy. Qoraboy (qoraqalpoqcha – qarabay) – turnaga o'xshagan qush (ruschasi – *baklan*). O'zbeklarning yuz, qirg'izlarning munduz qabilasida *qarabay* (qoraboy) degan urug' bo'lgan.

Qulontaqir – tog', Bo'zatov tumani. Ilgari shu atroflarda ham qulon bo'lganini ko'rsatuvchi dalil (Qulontaqir – qulonlar suv ichadigan ko'lmak).

G'arg'a – ovul, Chimboy tumani. G'arg'atubek – Kegayli tumani. Turkmanlarning go'klen qabilasi tarkibida *g'arg'a* urug'i bo'lgan. Boshqird, qoraqalpoq, qirg'iz, o'zbeklar tarkibida *qarg'a* urug'i qayd qilingan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

K. Abdimuratov. «Nega shunday atalgan (Qoraqalpog'iston toponimiyasi materiallaridan)». Nukus, 1970 (Qoraqalpoq tilida).

K. Abdimuratov. «О происхождении развания «Нукус». Вестник карапалкаского филиала АН УзССР». Nukus, 1965, №1. 93–94-b.

K. Abdimuratov. «Nega shunday gapiramiz? (Qoraqalpog'iston toponimiyasi tarixidan)». Nukus, 1965 (Qoraqalpoq tilida).

B.V. Andrianov. «О некоторых географических названиях Каракалпакии. Совехание по топонимике Востока». Тезисы. M., 1961, 7–8-b.

B.V. Andrianov. «О некоторых географических названиях Каракалпакии. Топонимика Востока». M., 1962, 37–40-b.

S. Qorayev. «Qoraqolpog'iston ASSR toponimlari». «Mehnat va turmush». Toshkent, 1973, №9, 12–13-b.

U. Begbaulov. «Топонимы Приаралья как источник для изучения истории каракалпакского народа. Ономастика Средней Азии». M., 1978.

III bob.
O‘ZBEKISTON GEOGRAFIK NOMLARINING TOPONIMIK LEKSIKASI

Atoqli otlarning eng takomillashgan turi bo‘lgan toponimlar grammatik jihatdan bir va undan ortiq tarkibiy qismlardan (komponentlardan) iborat bo‘ladi.

Bu tarkibiy qismlar mustaqil so‘zlar yoki **toponimik formantlar** (qo‘shimchalar)dir. Geografik obyektlarga nom qo‘yish uchun aholi tomonidan foydalanadigan barcha so‘zlar majmuyi **toponimik leksika** deyiladi.

Toponimlarni hosil qilgan ana shu so‘zlar **toponegizlar** deb ataladi. Toponimlarni toponegizlarga qarab o‘rganish ishini Yevropa mamlakatlari olimlari (F. Bazlay, V. Shmilaer va b.), sobiq SSSR hududida esa rus toponimistlari (N.V. Podolskaya, A.V. Superanskaya) boshlab berganlar. Turkiy toponimlarni toponegizlariga qarab o‘rganish usulini Tog‘li Oltoy toponimlari bo‘yicha O.T. Molchanova, boshqird oykonimlari bo‘yicha F.G. Xisamutdinova asarlarida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston toponimlari tarkibida uchraydigan leksik birliklarning aksari qismi turdosh otlar, ya’ni apellyativlar – geografik va boshqa atamalar, hunar-kasb leksemalari, o‘simlik va hayvon, urug‘-aymoq nomlaridir.

Quyida respublikamizning geografik nomlari tarkibida keladigan bir qancha geografik, ijtimoiy-iqtisodiy atamalar, etnonimlar va boshqa so‘zlar lug‘ati keltirilgan. Bu so‘zlar ko‘plab toponimlar semantikasini (ma’nosini) bilib olishga yordamlashadi.

Abdal – ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibidagi qabilalardan. O‘zbeklarning loqay qabilasining bir urug‘i ham *abdal*. Turkmanlarda *abdal* qabilasi bor; shuningdek, chovdur, ersari, ota, sariq qabilalari, qozoqlarning boyuli, qirg‘izlarning adigine qabilalari tarkibida ham *abdal* urug‘i qayd qilingan.

Abdal qabilasi Hindiston, xususan, O‘rta Osiyo xalqlari etnogenezida muhim rol o‘ynagan xalq – eftalit, ya’ni haytal (abdel)larning avlodlaridir. Tarixchi Bal’ami (X asr) fikricha, haytal so‘zi buxoroliklar tilida “pahlavon”, “jasur odam” demakdir. Keyingi asrlarda **abdal** deganda “gadoy, darvesh” tushunilgan.

Abiz – qo‘ng‘irot va uz qabilalarining bir urug‘i (*abiz-aviz*). Qozoqlarning jetiruv, qoraqalpoqlarning ashamayli qabilalarining bir urug‘i ham *abiz* (uyshun qabilasi urug‘i esa *abis*) deb atalgan.

G‘allaorol, Jarqo‘rg‘on tumanlarida **Abuz (Abiz)** qishloqlari bor.

Adirlar – O‘rta Osiyo tog‘larining etaklaridagi cho‘l va chala cho‘l qirlar. Adirlar past-baland bo‘ladi. Adir “ajralgan”, “bo‘linib-bo‘linib ketgan” ma’nosidagi “ayir” so‘zidan kelib chiqqan degan fikr bor. Jizzax viloyati Zomin tumanida, Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida **Bo‘lakadir**, Zomin tumanida **Changnatir** (“Changli adir”), Qirg‘iziston Respublikasida **Maydaadir, Oqadir, Cho‘ladir,** Tojikistonda **Oqboshadir** degan toponimlar bor.

Aymoq – urug‘, elat. Bu so‘zning ma’nolari ko‘p. Akademik B.Y. Vladimirsov fikricha, mo‘g‘ulcha **aymag** “o‘xshash narsalar majmui” degan ma’noni anglatgan. O‘rta asrlarda Mo‘g‘ulistonda muayyan hududda ko‘chib yurgan qon-qardosh oilalar ittifoqi, ba’zan katta bir oila yoki qishloq ham **aymoq** deb atalgan.

Hozirgi mo‘g‘ul tilida **aymak** so‘zi ma’muriy birlik, qabila-urug‘, tur, xil, bo‘lim, gap bo‘lagi ma’nolarini anglatadi. Qozoq, qirg‘izlarda bu so‘zning “hudud” ma’nosi ham bor. Akademik V.V. Radlov bu so‘z “yot kishi”, “boshqa mamlakatdan kelgan odam” ma’nosini ham anglatishini qayd etgan.

Masalan, Zomin tumanida baland tog‘ bag‘ridan o‘tkazilgan **Aymoqariq** devqomat kelgindilar tomonidan qazilgan deyishadi. O‘zbeklarda, turkmanlarda *aymoq* urug‘i bo‘lgan. Etnograf B.X. Karmisheva fikricha, *aymoq* so‘zi “asl dehqon”, “tub-joy xalq” ma’nosidadir. Aymoq degan bir necha qishloqlar bor.

Ayritam. Respublikamizda **Ayritam** (Ayritom) degan qishloqlar ko‘p. Turkmaniston, Qoraqalpog‘istonda ham Ayritam toponimlari uchraydi. O‘zbekiston bilan Afg‘oniston o‘rtasida Amudaryoga qurilgan ko‘prikning Afg‘oniston tomoni **Hayraton** deb ataladi, O‘zbekiston tomonida **Ayritom** degan joy bor. Ikkalasi bir toponimning talaffuz shakllari bo‘lish ehtimoli bor. Etimologiyasi noma’lum. Turkmanlarda *ayritam* urug‘i bo‘lgan.

A'lam (arabcha) – aziz-avliyolarning qadam joylarida o'sgan daraxtlarning shox-shabbalariga yoki shahid bo'lgan kishilarning mozoriga qoqilgan tayoqlarga osilgan latta-puttalar. Ma'nosi (arabchadan) "bayroq" demak. **A'lam, A'lamdor, A'lamli** degan joy nomlari "aziz avliyolar mozori" yoki "shahid bo'lgan kishi ko'milgan joy" degan ma'noni bildiradi.

Amin – O'rta Osiyo xonliklarida daha boshlig'i yoki qishloq oqsoqoli; bozorda soliq undiruvchi amaldor, bozor oqsoqoli. *Amin* so'zi asli arabcha bo'lib, ma'nosi "ishonchli" demak. Qorako'l tumanida **Aminlar**, Jondor tumanida **Aminobod**, Romitan tumanida **Amino** ("aminlar") degan qishloqlar bor.

Amlok (mulk so'zining ko'pligi) – katta yer-mulk, yer-suv. Mikrotoponimlar shaklida uchraydi.

Angor – hosili yig'ib-terib olingan ekinzor, mas, bug'doypoya, arpapoya, ang'iz; qadimiy maydon o'lchovi. Odatda atrofi uvat bilan o'ralgan yaxlit ekin maydoni bir *angor* deyilgan. Angor tumanida **Angor** qishlog'i bor.

Anhor (arabcha *nahr* so'zining ko'pligi) – katta kanal, ariq. Xorazm shevasidagi *arna* so'ziga to'g'ri keladi.

Toshkent shahrida **Anhor** kanali, Zangiota tumanida **Anhor** qishlog'i bor.

Arlot – Chingizxon o'z o'g'li Chig'atoyga taqdim etgan to'rtta mo'g'ul qabilasidan biri. Bu qabila hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismida o'rnashib qolgan.

Arlot qabilasi 92 bovli o'zbek "qavmlari" qatorida "Jome at-tavorix", "Ravzat us-safo", "Shayboniynoma"da, "Abdullanoma", "Shajarai turk" yodnomalarida, Navoiy asarlarida tilga olingan. Arlotlar nufuzli qabilalardan hisoblangan.

Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida qabila nomi – etnonim va toponimlar holida saqlanib qolgan. Masalan, Peshku tumanidagi **Allot**, Qorako'l tumanidagi **Olot** qishloqlari ham *arlot* etnonimining talaffuz shaklidir. Abulg'ozi Bahodirxonning fikricha, *arlot* so'zining asl ma'nosi "o'z onasining sevgan o'g'li" demakdir.

Art, ort – qadimiy georafik atama "dovon", "tog' yo'li". Geografik nomlar tarkibida, xususan, Qirg'izstonda saqlanib qolgan: **Ayiqart, Qayinart, Qizilart.**

Arg'in, arg'un – o'zbek, qozoq, boshqirdlar tarkibida uchraydigan urug'. Bu urug' O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd qilingan *argu* qabilasining davomi bo'lishi kerak. "Boburnoma"da, o'zbek urug'larining dastlabki yozma shajarasi – Mulla Sayfiddin Axsikandiyning "Majmuat-tavorix" asarida urug' **arg'un** shaklida qayd qilingan. Bu etnonim mo'g'ulcha **arg'in** (o'zagi arg' – "duragay") so'zidan kelib chiqqan. Arg'in (argun) so'zi qirg'iz tilida ham ana shu ma'noni anglatadi.

Respublikamizning Asaka, Qibray, Zangiota, Navoiy, Qorako'l, Denov tumanlarida **Arg'in** qishloqlari bor.

Asaka – ko'chmanchi o'zbeklar orasida tilga olingan urug'lardan biri. Qirg'izlarning sayaq qabilasi tarkibida ham *asaka* degan urug' qayd qilingan bo'lib joy nomlari shaklida uchraydi. Masalan, **Asaka** shahri (Andijon viloyati). Oltinko'l tumanidagi **Asakalik** qishlog'i ham shu urug' nomi bilan atalgan bo'lsa kerak – ***lik*** qo'shimchasi toponimlar tarkibida, jumladan, etnonimlar oxirida shunday funksiyani bajaradi. Boyliq – «boylar», Xo'jaliq – «xo'jalar», Taqachilik – «taqachilar», Asakalik – «asaka urug'i vakillari» yashaydigan qishloqni anglatadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida **Asakaovdon** degan botiq bor. Geologlar fikricha, bu yerda yuqori to'rtlamchi davrda katta ko'l bo'lgan (**ovdon**, to'g'risi **obdon** «suv havzasi», «suv ombori»).

Arashan, arashon, arasan – issiq mineral suvli buloq. Masalan, Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryosining bir irmog'i **Arashon** deb ataladi. Qirg'izistonning Issiqko'l vodiysida **Oqsuv-Arashan** kurorti bor. O'rta Osiyoda, Sibirda **Arashan, Arasan, Arshan** nomli suv obyektlari, kurort joylar juda ko'p. Bu atama G'arbiy Xitoy, Oltoy, Sharqiy Sibirda ham keng tarqalgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining Irkutsk oblastida mineral buloqlar yaqinidagi bir qancha aholi punktlari **Arshan** deb ataladi. Rus tilshunosi N.A. Baskakov yozishicha, oltoyliklar tilidagi **arjan** so'zi «shifobaxsh suv» demakdir.

Akademik V.V. Radlov **arashan** oltoyliklar, tobolliklar tillarida «issiq buloq», «shifobaxsh buloq» ekanini aytgan edi. Hozirgi mo'g'ul tilida **arshan** «muqaddas suv», «mineral suv», «shifobaxsh buloq» ma'nosini bildiradi.

Ba'zan biron narsa, masalan, go'sht ezilib qaynab pishsa

«arashan bo'lib ketibdi», ya'ni juda mazali, yoqimli bo'lib pishibdi» deyishadi.

Arashan atamasi sanskritcha *rashiani* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «obi hayot», «xudolar ozig'i» degan ma'noni bildiradi. Bu so'z O'rta Osiyoga, Sibirga buddizm (lamaizm) dini orqali kirib kelgan.

Arashan so'zi bilan **narzan** suvi nomi bir negizdan kelib chiqqan degan fikr bor. Ammo narzan asli «nordon» degani. Shunisi qiziqki, Shimoliy Kavkazdagi Kislovodsk shahrining mahalliy nomi **Achisuv** bo'lib, qorachay-balqarlar esa **Narsana** deyishadi.

Arna – juda qadimiy so'z. Akademik V.V. Radlov *arna* so'zini «daryo yo'li», «daryo o'zani» deb izohlaydi.

Akademik V.V. Bartold fikricha esa bu so'z xorazmchadir. Biroq *arna* so'zining ma'nolari va areali ancha keng. Qadimgi xet tilida *arna* «buloq», «chashma» degan ma'noni anglatgan. Xorazmda katta kanallar *arna* deb ataladi. Sun'iy kanallarning bu atama bilan atalishiga sabab bu kanallar hajmi jihatidan daryoning bir qismi deb hisoblanadi. Masalan, **Paxtaarna, Shovotarna, Polvonarna, Otaliqarna** xuddi shundaydir. Shu bilan birga, Amudaryoning **Bog'lanarna, Kesikarna** kabi shoxobchalari ham shu atama bilan yuritiladi.

Demak, Xorazmda *arna* so'zining asl ma'nosi «daryo tarmog'i», «shoxobchasi» bo'lib, keyinchalik bu atama kanallarga nisbatan ham ishlatilgan. Qadimgi eron tilida **ar (ir)** «suv» demak. *Arnas* sanskrit tilida «oqim» «suv oqimi» ma'nosini anglatadi.

Bu so'zning arealiga kelganda shuni aytish kerakki, arna turli ma'nolarda Xorazmdan boshqa hududlarda, Qozog'istonning ko'pgina joylarida, hatto Kavkazda ham qayd qilingan. Jizzax viloyatida suv o'yib ketgan jarni *arna* deyishadi. Sirdaryo yaqinidagi **Arnasoy** ko'li ana shunday jar o'rnida hosil bo'lgan. Ba'zi bir joylarda arna *anna* deb talaffuz qilinadi.

Demak, *arna* qadimiy xorazmcha so'z bo'lsa ham, hozirgi vaqtda juda katta hududlarda suv bilan bog'liq turli ma'nolarni anglatadi. Bir joyda (Xorazm, Turkmaniston) «katta kanal» yoki «daryo shoxobchasi», boshqa bir yerda (Jizzax, Samarqand viloyatlari) «jar», Janubiy O'zbekistonda (Qashqadaryo viloyatida) «dara» (anna), Qozog'istonda «daryo o'zani», qaysidir hududlarda «daryo», hatto «buloq» tushuniladi.

Arna so'zidan tarkib topgan toponimlarga quyidagilar misol bo'la oladi: **Arna** qishlog'i (Buxoro viloyati), **Arnabo'yi** (Xorazm viloyati), **Arnasoy** (Sirdaryo, Jizzax viloyatlari), **Arnaqapchig'ay** darasi (Qashqadaryo viloyati), **Kattaarna, Kichikarna** soylari (Qirg'iziston), **Arnabuloq, Arna-Gvay** ("Arna yaqinidagi joy", Kavkaz), **Xo'jaarna** qudug'i (Surxondaryo viloyati). *Arna* atamasi Xorazm viloyatida ayniqsa ko'p uchraydi: **Arnao'tkan, Bog'lonarna, Kesikarna, Nazararna, Otaliqarna, Paxtaarna, Urgancharna, Shovotarna** va b.

Bulardan tashqari **Arna, Arnaboshi, Kattaarna, Kichikarna** kabi mikrotoponimlar ham bor.

Asbob – Buxoro viloyatining Vobkent, Romitan, Buxoro tumanlarida qishloq nomi shaklida uchraydigan qadimiy atama (ko'pincha *aspop* shaklida talaffuz qiladilar). XI–XII asrlarda biron kishiga qarashli yer *asbob* (**asbob** arabcha *sabab* so'zining ko'pligi). XVI–XVII asrlarda esa yerdan tashqari mulk *asbob* deb atala boshlagan. Demak Buxoro viloyatidagi **Asbob** nomli qishloqlar bundan 6–7 asr oldingi davrdan qolgan atamalardir. Buxoro yaqinida yashab o'tgan Jo'ybor shayxlari arxivlarida **Asbobi Ali Yomchi, Asbobi Bog'ikalon, Asbobi Ibrohim, Asbobi Kofiron, Asbobi Sho'rcha** kabi bir qancha joy nomlari tilga olingan. *Asbob* so'zidan keyin bu yer kimniki yoki qanday joy ekanligini bildiradigan aniqlovchi bo'lgan, chunonchi, **Asbobi Kofiron**, ya'ni «kofirlar yeri» va hokazo. Keyingi davrlarda aniqlovchi tushib qolib, *asbob* atamasi joy nomiga aylangan.

Asqar – yuksak tog', qishin-yozin qor bilan qoplanib yotgan tog'. O'rta Osiyodagi turkiy xalqlarning deyarli hammasida *asqar tog'* (tov, too) – «buyuk tog'», «chiqib bo'lmaydigan baland tog'» ma'nosini anglatadi.

Bu so'z o'zbek dostonlarida ham shu ma'noda uchraydi. Qirg'iz tilida **asqa** (asqatosh) «yuksak cho'qqi» ma'nosini anglatadi. Qashqadaryo viloyatida **Asqarcho'qqi, Asqartepa, Asqarqir** degan toponimlar bor.

Axtachi – qadimgi urug'lardan biri. Bu urug' vakillarini Zahiriddin Bobur ham tilga olgan. Qirg'iz qipchoqlarining bir urug'i hozir ham **axtachi** deb ataladi. *Axta* mo'g'ul tilida «ot» (jumladan, «bichilgan ot») demakdir. Axtachi esa «otboqar», «jilovdor» (xon oti jilovini ushlab yuruvchi kishi) ma'nosini beradi.

Andijon viloyatining Asaka, Bo‘z tumanlarida **Axtachi** degan qishloqlar bor. Jizzax viloyati Zomin tumanida bir qishloq **Axtaxona** (Axtixona) deb ataladi. Bu toponim ham o‘sha *axtachi* (axta) etnonimining in’ikosi bo‘lsa kerak. Urug‘-qabila nomlari tarkibidagi -chi, -li qo‘shimchalari bir qancha hollarda tushib qoladi: chimboyli – chimboy, -po‘latchi – po‘lat kabi. *-xona* affiksi urug‘-aymoq nomlariga qo‘shilib toponim yasaydi: yobu (qabila) – **Yobuxona** (yobular yashaydigan joy), do‘rmon (qabila) – **Do‘rmonxona** (do‘rmonlar yashadigan joy).

Achamayli, ochamayli – o‘zbeklarda yuz qabilasining bir bo‘lagi, qo‘ng‘irotlar, saroylar tarkibida ham qayd qilingan; qozoqlar, qoraqalpoqlarda **ashamayli** urug‘i bor. Etnograflar *achamayli* urug‘i *ach* (och) nomli qabila nomi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak deydi. *Achamaylilar* O‘zbekistonda Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand viloyatlarida, Tojikistonda esa O‘ratepa tumanida qayd qilingan. Nurobod, Urgut, Qumqo‘rg‘on, Bulung‘ur, Bo‘ka, Bekobod, Kitob tumanlarida **Achamayli** qishloqlari bor.

Ho‘kizga yoki qo‘tosga uriladigan yoki bolalar uchun mo‘ljallangan egar ochamay (achamay) deyilgan. Demak, urug‘ tamg‘asi shaklan ana shu egarga o‘xshash bo‘lgan.

Achchi – achchiq, nordon, taxir, sho‘r (suvlar). Turkmanlarda *aji*, qozoqlarda *ashi* (ashshi), qirg‘izlarda *achu*. **Achchisoy, Ajiko‘l, Ashibuloq** toponimlari shu atamadan kelib chiqqan. Toshkent yaqinidagi **Damashi** toponimi qozoqcha Sho‘rkul degani (*dam* – suv damlanib qolishidan hosil bo‘lgan ko‘lmak).

Aqba, aqaba (ko‘pligi *aqabot*) – joy nomlari tarkibida saqlanib qolgan geografik atama. *Aqba* arab tilida «dovon», «tog‘ yo‘li» demakdir. IX–X asrlarda bitilgan asarlarda (masalan, muallifi no’malum forscha «Hudud ul-olam» asarida, «Tarixi Tabariy»da) ko‘p uchraydi. Tojikiston va O‘zbekistonning tog‘li hududlarida, ayniqsa Pomir, Hisor, Zarafshon tog‘larida o‘nlarcha toponimlar tarkibida, xususan, dovon nomlari tarkibida *aqba* so‘zi uchraydi: **Aqba, Ag‘ba, Aqbaboshi, Aqvavodif, Aqbai Gishxun, Aqbai Farob, Choshi Aqba, Aqbai Surxat, Axba-Ispan, Aqbai Obburdon** va hokazo. Bu atama hozir ham O‘rta Osiyoning tog‘li hududlarida **aqba, axba, ag‘ba, avg‘a, ovg‘a** shakllarida turli ma’nolarda ishlatiladi. Masalan, Jizzax viloyatining Zomin,

Baxmal, G‘allaorol tumanlarida dovonga chiqiladigan tik yo‘l **ovg‘a** deyiladi.

Aqor (arabcha «ko‘chmas mulk», «er-suv») – ijtimoiy atama. O‘rta Osiyoda Temuriylar davlatida, shuningdek Eronda yer-suv, bog‘, tegirmon, kanal, do‘kon, ustaxona va bozorlar kabi qo‘zg‘almas mulk.

Zarafshon vodiysida (Romitan, Jondor, Buxoro tumanlarida) **Oqar, Og‘ar** kabi toponimlar uchraydi.

Ag‘ar – ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibida qayd qilingan urug‘. Turkmanlarning bayat, yomut, teke qabilalari tarkibida ham *ag‘ar* urug‘i bo‘lgan. **Ag‘ar** (Og‘ar), **Oqar** shaklidagi toponimlar bor. Masalan, Bobur Zomin yaqinida **Oqar tuzini** tilga olgan (tuz – tekislik). Bu joy hozir ham Og‘ar (Oqar) deb ataladi.

Bag‘is – qozoqlarning arg‘in qabilasi tarkibidagi urug‘ (qirg‘izlarda bag‘ish). Qibray tumanida Bag‘is degan ovul bor.

Baday – ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibidagi urug‘. Asosan Amudaryoning quyi oqimida, Xorazm viloyatining Urganch, Qoraqalpog‘istonning Beruniy tumanlarida yashagan. XIX asrning boshlarida Surxondaryo vodiysiga, Bekobod, Zomin dashtlariga tarqalgan. Amudaryoning o‘ng sohilidagi **Badayto‘qay** qo‘riqxonasi shu urug‘ nomi bilan bog‘liq.

Badoq – kanal tarmog‘i, ariq, soy. Buxoroda *afdok* deyilgan. Bo‘stonliq tumanida **Badoqsoy** gidronimi shu atamadan hosil bo‘lgan.

Bayot – qadimgi turk-o‘g‘uz qabilalaridan biri. O‘zbek, turkman, ozarbayjon xalqlari tarkibiga kirgan. *Bayot* so‘zining ma’nosini Rashid-ad-dinning «Jome ut-tavorix» asarida «baxtli va marhamatli» deb, Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida «baxtli va boy» deb izohlagan. 20-yillarda bayotlar Buxoro shahri va Qorako‘l tumani atroflarida, Xorazm viloyatining ayrim joylarida yashagan. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida **Bayot** degan qishloq bor, yana q. *Boyovut.*

Baydoqchi – harbiy bayroqni ko‘tarib yuruvchi askar. *Baydoq* – bayroq so‘zining qadimiy talaffuzi (turkmanlar hozir ham bayroqni baydaq deyishadi). *Baydoqchi* degan urug‘ ham bo‘lgan. Muborak, Kasbi tumanlarida **Baydoqchi** degan qishloqlar bor.

Bayir, boyir – tepalik, do‘nglik, jarlik. Cho‘llarda shamolning o‘yishi natijasida paydo bo‘lgan botiq yerlar. Chiroqchi tumanida **Boyirgaza** toponimi uchraydi.

Baymoqli, boymoqli – qo'ng'irotlar tarkibidagi urug'lardan biri. Baymoq – egri oyoq yoki oyoq kafti, maymoq. Dasht kemiruvchilaridan sug'urni qadimgi turkiy tilda *baymoq* deyishgan, chunki sug'urning oyoqlari ham *maymoq* bo'ladi. Bu so'z rus tiliga ham kirgan. Sug'urning beso'naqay yirik turini ruslar *baybak* deyishadi. Boysun, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlarida **Baymoqli** qishloqlari bor.

Baliq (balig') – qadimiy turkiy tilda «shahar» ma'nosini beradi Turkiy runik yozuvlarda, «Devonu lug'otit turk»da qayd qilingan. Qadimiy joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi: **Beshbaliq** (Sharqiy Turkiston), *Xonbaliq* (Pekin shahrining qadimiy turkiy nomi). Qozoq, qirg'izlarda *baliq* urug'i qayd etilgan.

Baliqchi – o'rta asrlarda tilga olingan qabilalardan biri. Qirg'izlarning mendi, saruu qabilalari tarkibida, tuva, turkmanlarning ersari qabilasi tarkibida *baliqchi*, boshqirdlarda *baliqsi* urug'i qayd qilingan.

Baliqchi, Chust tumanlarida **Baliqchi** qishloqlari bor. Baliqchi «baliq tutuvchi» yoki «shahar qo'riqchisi», «shaharlik» ma'nosida ham tushuniladi.

Balxi – o'zbeklarning kenagas, qutchi (qovchin), saroy qabilalari, turkmanlarning ersari qabilasi tarkibiga kirgan urug' («Balx shahridan kelgan kishidan, balxlikdan tarqalgan urug'» ma'nosida). O'zbekistonda **Balxi, Balxiyon, Balxibog'ot, Balxilar, Balxiya, Balxiquduq** kabi toponimlar mavjud.

Band – O'zbekiston va Tojikistonda joy nomlari tarkibida uchraydigan atama. Bir necha ma'noda keladi: 1) *bandi ob* – to'g'on (**Abdullaxon bandi, Xonbandi**); 2) *bandi reg* – qum to'sig'i, ko'chma qum yo'lidagi har xil to'siqlar; 3) *bandi mufsidon* – fitnachilar, qo'zg'olonchilardan saqlanish uchun qurilgan g'ov, devor.

Band, avvalo, irrigatsion atama; tog' daralariga qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot *band* deyilgan. Masalan, X asrda hozirgi Forish tumanida Pasttog' darasiga toshdan qurilgan to'g'on **Xonbandi**. Jom qishlog'i yaqinidagi suv omborining to'g'oni (XII asr) **G'ishtband**, Qo'shrabot tumanida bunyod etilgan (1557–1598) **Abdullaxon bandi** ana shular jumlasidan. Daryolarga qurilgan har qanday to'g'on ham *band* deyilgan.

Navoiy shahri yaqinida Zarafshon bo'yida **Band** nomli qishloq bor.

Baraq – o'zbeklarning qatag'on, qo'ng'irot, turkman qabilalari tarkibidagi urug'. Qozoqlarning jaloyir, jetiruv, alimuli qabilalari, turkmanlarning go'klen, yo'mut qabilalari, qirg'izlarning adigine, sayaq qabilalari tarkibida ham *baraq* urug'i qayd qilingan.

Nurota, Xatirchi tumanlarida **Baraq**, Ishtixon tumanida **Baraq-qishloq** qishloqlari bor.

Barlos – o'zbek qabilalaridan biri. Barloslar Respublika hududida ko'chmanchi o'zbeklardan (XV–XVI asrlardan) oldin yashab kelgan qabilalardan biridir. Hozirgi paytda barloslarning avlodlari Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida yashaydi. *Barlos* so'zi Xiva xoni Abulg'ozi Bahodirxon fikricha «qo'mondon», Alisher Navoiy asarlariga yozilgan «Badoye ul-lug'at»ga ko'ra «bahodir» degan ma'noni bildiradi.

Bulung'ur, Baxmal, Sariosiyo tumanlarida **Barlos**, Sariosiyo tumanida **Barlosguzar**, Kasbi, Chiroqchi tumanlarida **Barlosto'p** nomli qishloqlar mavjud.

Baroz, baraz – qirlarning yassi tepasi. Eroncha so'z. Eroniy tillar tarkibiga kiradigan osetin tilida ham barz so'zining bir ma'nosi «balandlik» degani. Eronshunoslar *barz* so'zini sug'diycha deb biladi. Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi **Varziminor** toponimini «baland minora» deb izohlaydilar. Qadimgi arman tilida yassi tog'lik *barzarvandan* deyilgan (arman tili leksikasida eroniy so'zlar ko'p). Baroz so'zining «dovon» ma'nosi ham bo'lishi mumkin. Zomin tumanida **To'pchiboybaraz, Kattabaraz, Kichikbaraz** kabi toponimlar bor. Eroniy tillardan bo'lgan shug'non tilida bar – «tog' yonbag'ri» ma'nosini anglatadi. Tog'li Badaxshon muxtor viloyatidagi Yuqori Xorug' toponimini shug'nonlar **Bar-Harag** deyishadi. Eronda *Baroz-ar-ruz* degan kanal bor.

Batash, batosh – o'zbek qabilalaridan biri. Ular Qashqadaryo viloyatining Qarshi, G'uzor, Surxondaryo viloyatining Sho'rchi, Qltinsoy tumanlarida, shuningdek, Buxoro viloyatining ayrim hududlarida yashagan.

Yakkabog', Qarshi, Sho'rchi, G'uzor tumanlarida **Batash** (Batosh), **Odokbatash, Bevabatash, Bo'ribatash, Sariqbatosh, Yakkaog'ochbatash** nomli qishloqlar, Qamashi tumanida **Batashariq**

degan ariq bor. O'zbeklar tarkibiga kirgan turkmanjuz qabilasi, turkmanlarda *batash* urug'i qayd qilingan.

Baxshi – 1) badihago'y oqin, shoir; 2) emchi, sehrgar, shomon; 3) Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablag'larning hisob-kitobini yurituvchi lavozim egasi.

Baxshi so'zi sanskritcha *bxikshu* «budda qalandari» so'zidan kelib chiqqan. Mo'g'ullar davrida *baxshi* deganda «mirzo, kotib, katta amaldor» tushunilgan. 1920 yilda Kalkuttada bosilgan chig'atoycha lug'atda *baxshi* so'ziga «noib, jarroh, nozir, ovchi» deb izoh berilgan. Qo'ng'irot qabilasining bir bo'g'ini, taka turkmanlarning bir urug'i *baxshi* deb ataladi.

Demak, bu so'zdan tarkib topgan toponimlar qaysi davrda nima uchun shunday atalganiga qarab turli ma'nolarni anglatgan. Xoja Ahrorning vaqf hujjatlarida Samarqand yaqinida **Baxshikent** degan kanal tilga olingan. Sho'rchi tumanida **Baxshitepa** qishlog'i bor.

Bashat – suvi uzoqqa oqib bormasdan yerga singib ketadigan kichik buloq. Bunday buloq *tosh bashat* ham deyiladi. Namangan viloyatida, ayniqsa Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatida bunday mikrotoponimlar ko'p uchraydi. Ba'zi bir joylarda, masalan, Janubiy Qozog'istonda bunday kichik buloqlar *mashat* deyiladi.

Baqirchi – mang'it qabilasining bir urug'i. *Baqir* – qadimiy turkiy tilda misni anglatadi. «Chelak» va «mayda chaqa» ma'nosidagi *paqir* so'zi ham shundan kelib chiqqan (ilgari chelak va mayda chaqalar misdan yasalgan). Hunar-kasb nomi etnonimga aylangan. Qarshi, Qamashi, Nishon, Dehqonobod tumanlarida **Baqirchi** toponimlari qayd qilingan.

Bag'anali – o'zbeklarning yuz qabilasining urug'laridan biri. Qozoqlarning *arg'in* va *nayman* qabilalari, qoraqalpoqlarning *qipshaq* qabilasi tarkibida ham *bag'anali* urug'i bo'lgan. Shuningdek, turkmanlarning ersari qabilasida *bagana* urug'i qayd qilingan. *Bag'ana* «qorako'l teri», «yosh qo'zi terisi» demakdir.

Narpay, Pastdarg'om tumanlarida **Bag'anali** (Bog'onali) degan qishloqlar uchraydi.

Bag'ish – qirg'iz urug'laridan biri. Farg'ona vodiysida urug'ning bag'ish, boybag'ish, saribag'ish, cho'ngbag'ish tarmoqlari nomi bilan atalgan toponimlari uchraydi. Tarixchi V.P. Nalivkin nayman,

qurama urug'lari qatorida bag'ishni ham o'zbek urug'lari qatoriga kiritgan. Andijon viloyatida **Bag'ish, Boybag'ish** qishloqlari qayd qilingan.

Bahrin (baarin) – turklashgan mo'g'ul qabilalaridan. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashtiqipchoqqa o'rnashgan. XVII–XIX asrlarda katta bir qismi Toshkent vohasiga, Farg'ona vodiysiga, bir qismi Zarafshon vohasiga, Qashqadaryoning o'rta oqimiga o'rnashgan. Asaka, Ishtixon, Qamashi, Uchko'prik tumanlarida **Bahrin**, Qorako'l tumanida **Bahrinbayot** qishloqlari bor. Bahrin – ov qushi, lochinning bir turi. Bu parranda urug'ning totemi, ya'ni muqaddas jonivori bo'lgan bo'lishi mumkin.

Bahrin qabilasi mo'g'ullarning afsonaviy ajdodi Bo'do'ncharning katta o'g'li Baaridaydan tarqalgan va uning nomi bilan atalgan, degan fikr ham bor.

Bevatan – Xiva xonligida yer-suvdan mahrum eng qashshoq dehqon, uy-joysiz, oilasiz kishi. Ijtimoiy ma'noda davlat (podsholik) yerlarini ijaraga olib ishlagan nisbkor. Bevatanlik otadan bolaga meros qolgan.

Yangiariq, Qo'shko'pir tumanlaridagi **Bevatan** qishloqlari shu atama in'ikosidir.

Bekat – temiryo'l stansiyasi, pochta stansiyasi (fransuzcha piket – «harbiy post», «qorovul»). Fransuzcha piquet ruschaga *beket* shaklida o'tgan. Beketov degan familiya shundan kelib chiqqan. Chor Rossiyasi davrida O'rta Osiyoda o'rmonlarni qo'riqlash harbiylar qo'lida bo'lgan va o'rmon qorovulining uyi *bekat* deyilgan. Temiryo'l stansiyasi ham rus harbiylari tomonidan qo'riqlangani uchun *bekat* deb atala boshlagan. Jizzax viloyati Forish tumanida, Samarqand viloyati Samarqand tumanida, Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida **Bekat**, Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida **Chuqurbekat** degan toponimlar bor.

Belas – qirsimon balandlik. Zomin tumanida **Belasadir**, **Belasmozor**, Dehqonobod tumanida **Belassirt** degan joylar bor (sirt – belasdan ko'ra yirikroq balandlik, Qirg'izistonda tog'lardagi usti yassi qirlar).

Beshkubi – xitoyyuzi (xitoyizi) urug'ining bir tarmog'i. Zomin, Pastdarg'om, Bulung'ur tumanlarida **Beshkubi** degan qishloqlar bor.

Biyobon – suvsiz cho'l, sahro. Forscha-tojikcha *be-* (old qo'shimcha) biron narsaning mavjud emasligini bildiradi, *ob* – suv, -on toponim hosil qiluvchi qo'shimcha; biyobon (beobon) «suvsiz (joy)» degani. Bu atamadan tarkib topgan toponimlar O'bekistonda, Tojikistonda, Eronda, Hindistonda, Afg'onistonda va Kavkazda uchraydi.

Bovurchi – Chingizxon davrida ta'sis qilingan saroy amallaridan biri, aniqrog'i oziq-ovqat va ichimlik mutasaddisi. Keyinchalik u (oziq-ovqat tayyorlash, tatib ko'rish va tortish uchun mas'ul amaldor) *bakovul* deb atalgan. Qarshi tumanida **Bovurchi** qishlog'i qayd qilingan. Bu so'z etnonimga ham aylangan.

Bodiya (arabcha) – cho'l, sahro, dasht. Alisher Navoiy asarlarida, "Boburnoma"da va boshqa tarixiy asarlarda ko'p uchraydi. Navoiy viloyatidagi Karmana shahrining qadimiy nomlarida biri **Bodiyai Xurdak** bo'lgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi"da, V.V. Bartold asarlarida bu nom «ko'zacha» deb izohlangan. Haqiqatan ham *bodiya* so'zining bir ma'nosi "ko'za", "qumg'on" demakdir. Aslida Bodiyai Xurdak "kichik cho'l", "kichkina dasht" ma'nosini anglatadi. Joy nomlari uy-ro'zg'or asboblari nomlaridan ko'ra ko'proq tabiiy geografik atamalar bilan ataladi. Eronda **Sarobbodiya** degan cho'l bor.

Bedav (uchqur ot) so'zi *bodiya* atamasidan yasalgan badaviy "sahroyi" sifatidan kelib chiqqan.

Bektemir – kenagas qabilasining kichik bir urug'i. Toshkent shahrining bir qismi, tuman markazi, O'rta Chirchiq, Kitob tumanlaridagi bir necha qishloq **Bektemir** deb ataladi. Turkmanlarning chovdur qabilasi tarkibida ham *bektemir* degan urug' bor.

Bel – ko'pgina turkiy tillarda «past tog'», «tog' tizmasining pasaygan joyi», «dovon» ma'nolarida joy nomlari tarkibida uchraydi.

Aslida *bel* (turkiy), *dovon* (mo'g'ulcha), *aqba* (arabcha), *ko'tal* (forscha-tojikcha), *oshuv* (turkiy) atamalari ma'nodosh bo'lib, «tog'dan oshib o'tiladigan qulay yo'l» ma'nosini anglatadi.

Beshbola – o'zbeklarning qovchin, kenagas, qo'ng'irot, yuz qabilalari tarkibiga kirgan urug'. Bulung'ur, Pastdarg'om, Farg'ona tumanlarida **Beshbola** degan qishloqlar bor.

Qirg'izlarning kesek, tinimseyit qabilalari tarkibida, shuningdek, qoraqalpoqlar tarkibida ham *beshbola* urug'i qayd qilingan.

Beshog'och – o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi tarkibiga kirgan

urug'. Toshkentning 4 dahasidan biri Beshog'och deb yuritilgan. Qashqadaryo viloyatida **Beshog'och** degan qishloq bor.

Boyovut – Respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug'lardan biri. Rashid ad-dinning «Jome ut-tavorix», Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham *boyovut* urug'i tilga olingan. Boyovut «boy», to'g'rirog'i «boylar» demak. Qozoqlarning *arg'in* qabilasi tarkibida ham *bayaut* urug'i qayd qilingan. Ba'zi bir olimlar (masalan, boshqird olimi R.G. Kuzeyev) *boyovut* bilan *bayot* aslida bir qabila deb hisoblaydi.

Boltali, boltachi, bolta – umumturkiy etnonim. Qozoq, ozarbayjon, qoraqalpoq, tatar, o'zbeklarda qayd qilingan. Tamg'asi shaklan boltaga o'xshagani uchun shunday atalgan. Beshariq, Pastdarg'om, Sariosiyo tumanlarida **Boltali** oykonimlari qayd qilingan.

Bolqon – tog', o'rmon bilan qoplangan tik tog'lar. Bolgariyadagi Bolqon, Turkmanistondagi Balxan, Buxoro, Samarqand viloyatlaridagi Bolqon oronimlari shu so'zdan yasalgan.

Bolg'ali – umumturkiy etnonim, o'zbeklarning jaloyir, kenagas, qurama, qo'ng'irot qabilalari tarkibida qayd qilingan. Narpay, Yakkabog', Oqqo'rg'on tumanlarida **Bolg'ali** oykonimlari qayd qilingan.

Botin – ich, qalb; yashirin-botin, ichki ko'z, aziz-avliyolarda bo'ladigan yashirin ko'z. Toponimiyada ko'milib ketgan, ishlatilmay qolgan ariq, quduq ma'nosida saqlangan. Koson tumanida **Botinariq** arig'i bor.

Bog'iston – bog'lar o'lkasi, bog'i-bo'ston. **Bog'iston** degan toponimni akademik V.V. Bartold «Xudo vatani» deb tarjima qilgan (islom dinidan oldin *bog'* (fog') so'zi eroniy tillarda «xudo» ma'nosini ham anglatgan). **Bog'iston** qishlog'ini prof. H. Hasanov «bug'uli yer» deb izohlagan. Farg'ona vodiysida *bog'ostan*, *bug'uston* degan qirg'iz urug'i bo'lgan.

Buloq – «chashma», «jilg'a», «ariq» ma'nolarida Sibirdan Mo'g'uliston orqali Qozog'iston, Qirg'izston, O'zbekistongacha, g'arbda Kavkazgacha, shimolda Tatariston va Boshqirdiston Avtonom Respublikalarigacha, sharqda *XXR Shinjan avtonom* rayonigacha, janubda Eron va Afg'onistongacha toponimlar tarkibida takror-takror uchray-

digan geografik atama. Turkolog E.V. Sevortyan *buloq* so'zi «oqmoq», «aralashtirmoq» ma'nosidagi *bula* fe'lidan kelib chiqqan degan fikrni bildirgan.

Burlaq – ko'chmanchi o'zbeklar tarkibida qayd qilingan urug'. Qo'shko'pir, Shovot, Jomboy tumanlarida Burlaq, **Otaniyozburlaq, Navro'zburlaq, Xudoyqulburlaq** degan qishloqlar bor.

Burqut – turklashgan mo'g'ul urug'laridan biri. Burqutlarning bir qismi XIII–XVI asrlarda Movarounnahrga kelib o'rnashgan. Asosan Zarafshon vohasida (hozirgi Payariq, Narpay, Navoiy, G'ijduvon tumanlarida), qisman Mirzacho'lda (Jizzax sh. atroflarida) joylashgan. Xatirchi tumanida **Burqutsoy** degan soy, Navoiy, Paxtachi, Vobkent, Payariq, Xatirchi, Kattaqo'rg'on tumanlarida **Burqut** degan qishloqlar bor. Turkmanlarning arsari (ersari) qabilasi tarkibida *burgut* urug'i qayd qilingan. Qozoqlar tarkibida *burqut*, qirg'izlarning sayaq qabilasi tarkibida *burkutcha*, saribag'ish qabilasi tarkibida esa *burquchi* urug'i bor.

Bo'gajil (bo'g'ajili) – etnonim bo'lib, achamayli, vahtamg'ali, kenagas, g'ozoyoqli qabilalar tarkibidagi urug'. Oqdaryo, Kitob, Boysun tumanlarida **Bo'gajili** qishloqlari bor.

Bo'ktar – tog' etagi, tog' oldi. «Devonu lug'otit turk»da «bo'ktir – tog'lardagi baland-pastlik yer». Qirg'iz tilida *bo'kto'r* – «tog' oldidagi tepaliklar». Zomin tumanida **Bo'ktaryul** («Tog' etagidan o'tgan yo'l») degan toponim bor. Qozoq tilidagi *bo'kter* ham o'sha ma'noda. Bunga qozoq olimi G'. Qo'nqashpayev **Omonbo'kter** degan toponimni misol qilib keltiradi.

Bo'm, bo'o'm – dara, daradan o'tgan yo'l, darband. Bu so'z asli mo'g'ulcha bo'lib, ***bo'o'*** «yo'lni to'sib qo'ymoq», «qarshilik qilmoq» fe'lidan kelib chiqqan. Sibirda toponimlar tarkibida ayniqsa keng tarqalgan bu atama turli ma'nolarda O'rta Osiyoda, xususan, Qirg'izistonda, shuningdek, O'zbekiston, hatto Eronda ham qayd qilingan. Sibirda, xususan, Tog'li Oltoy avtonom oblasti hududida uchraydigan Ar-Boom, Ak-Boom, Bert-Boom, Kok-Boom, Koo-Boom, Uzun-Boom kabi toponimlar tarkibidagi *boom* (bo'o'm) komponentini oltoyshunoslar «qoya» deb izohlagan. Demak, *bo'm (bo'o'm)* so'zining asosiy ma'nosi «tor tog' darasi» bo'lsa ham, u yana «tik tumshuq», «tor vodiy», «baland qoya» degan tushunchalarni anglatadi.

Qirg'izstondagi To'qmoq shahri bilan Issiqko'l orasida, Chuy daryosi oqib o'tadigan tor **Bo'o'm** darasi ayniqsa mashhur. Qashqadaryo viloyatida **Bo'm** nomli mikroobyektlar, tik qoyali tor daralar uchraydi. Eronda *bo'm* atamasi tog'li hududlarda «chegara», «hudud», «zamin», «aholi punkti» ma'nolarini anglatadi.

Bo'ri – etnonim (totem – qabila-urug'ning muqaddas jonivori). Zarafshon vodiysidagi qipchoqlarning *bo'ri* degan urug'i bo'lgan. Qirg'izlarning adigine va aziq qabilalari tarkibida ham *bo'ri* urug'i qayd qilingan. *Bo'ri* so'zidan tarkib topgan toponimlarning etnotoponim yoki zootoponim ekanini aniqlash oson emas. **Bo'risoy** bo'lsa zootoponim, **Bo'riqishloq** bo'lsa etnotoponim sanaladi.

Bo'ston (bog'i-bo'ston) – gullab-yashnagan bog'. Uning «poliz» ma'nosi ham bor. Asli forscha-tojikcha *bo'yiston* «hidlar maskani», «muattar o'lka» degani. Bu atamadan tarkib topgan toponimlar Sharqiy Turkistondan Eron va Hindistongacha, Kavkazdan Ozarbayjon va Gruziyagacha tarqalgan.

Biroq Farg'ona vodiysida qirg'izning *bo'sto'n* urug'i nomi bilan atalgan toponimlar anchagina uchraydi. Bo'sto'n-bo'ston (bo'z to'nli) umumturkiy etnonim sanaladi. Qozoq, ozarbayjon va o'zbeklar orasida toponimga aylangan. Toshkent viloyatidagi **Bo'stonliq** toponimi ham *bo'ston* urug'i nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin: bunda *-lik* suffiksi etnonimga qo'shilib toponim yasaydi: **Chimboylik, Boltalik**. Bobur ming qabilasi vakilini minglig' deb atagan. Bo'stonliq tumanida qozoqlar ham yashaydi. Bo'stonliqni qozoqlar Bo'standiq deyishadi. Qozog'istonning Jambil va Ko'kchatov oblastlarida **Bostando'k** degan toponimlar bor.

Var, vara – «qal'a», «istehkom», «mustahkamlangan shahar, qishloq», «devor bilan o'ralgan joy» ma'nosida toponimlar tarkibida uchraydigan atama (sug'dcha). Eronshunos M.N. Bogolyubov **Xorazm** toponimining ma'nosini «yaxshi mustahkamlangan istehkomlari, shaharlari bo'lgan va atrofi devorlar bilan o'ralgan mamlakat» deb izohlaydi (hu – yaxshi, vara – istehkom, zam – o'lka).

Vaqf – joy nomlari tarkibida uchraydigan yoki mustaqil ravishda toponim hosil qiladigan ijtimoiy atama. *Vaqf* so'zi arabcha bo'lib «vasiyat qilingan, inoyat qilingan, bag'ishlangan» ma'nosini anglatadi. O'rta asrlarda va undan keyin ham katta-katta yerlar, do'konlar, hunarmandchilik rastalari, tegirmonlar, hammomlar, objuvozlar va

boshqa mulklar masjid-madrasalarga, musofirxona-shifoxonlarga (xonaqohlarga) vasiyat qilib berilgan, ya'ni vaqf qilingan, ulardan olingan daromadlar shu muassasalarning ehtiyojlariga sarflangan. Respublikamiz toponimiyasini o'rganishda vaqf hujjatlarining ahamiyati katta. Bunday hujjatlarda vaqf qilingan yerlarning chegaralari aniq ko'rsatilgan va qo'shni qishloqlar va ariq-kanallar sanab o'tilgan.

O'zbekistonda, xususan, Zarafshon vodiysida **Burqut Vaqf, Vaqf, Vaqbi Gijbak, Vaqfi Qo'rg'on, Eski Vaqf, Vaxim, Voxim, Voqim** kabi toponimlar bor; Qo'qon shahridagi **Vaqmchorsi** mahallasi nomi ham *vaqf* so'zidan kelib chiqqan.

Vodiy – «tog'lar orasidan oqadigan soylik», «obod voha» ma'nolaridagi geografik atama. Bu atama asli arabcha (vad, vodiy) bo'lib, Shimoliy Afrikada «vaqt-bavaqt suv bo'ladigan yoki umuman suvsiz qaqrab yotgan o'zan», «uzunasiga cho'zilgan soylik», «mavsumiy oqqan suv», ba'zan «daryo» ma'nolarini anglatadi.

Gaza – tog' tepasi, tog' qirrasi (*to'q gaza* – «tog' tepasi», *och gaza* – tog' qirrasining pastroq, kemtik joyi, *adir-gazalar* – «tog'-adirlar»). Bu atama O'zbekistonda bir qancha toponimlar tarkibida uchraydi: **Gazoi Kalon** – Turkiston tizmasidagi cho'qqilardan biri (Zomin tumani); Janubiy O'zbekistonda **Gaza** degan qishloq, **Ko'kgaza, Qizilgaza, Qoraqulgaza** degan dovonlar bor. Movarrounnahrda Iskandar Zulqarnaynga qattiq qarshilik ko'rsatgan yettita qal'aning biri **Gaza** deb atalgan (Tojikistonning Xo'jand viloyatida Nov va Shahriston qishloqlari orasidagi tog'lik joy).

Bundan tashqari, ilgarilari baland tog' tepalarida ovchi qushlar ushlash «gaza tutish» deyilgan. Tojikcha *koza* – «crayfa, kapa» so'zi o'zbekchada *gaza* bo'lib ketgan. Gaza so'zidan tarkib topgan toponimlarning ayrimlari shunday ov jarayonini bildirgan so'zdan tarkib topgan bo'lishi mumkin.

Samarqand vilotida bir dovon **Turpagaza** deb, Ohangaron havzasida soy (Namangan viloyati Pop tumani) **Gazaxona**. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi qishloq **Gazaqishloq** deb ataladi (gaza – daralar o'rtasidagi qirlar, tepaliklar. B. Jurayev, «Yuqori Qashqadaryo», Toshkent, 1964, 127-bet). (Gaza – ovchilarning, xususan ov qushlari tutadigan ovchilarning yashirinadigan joyi, chayla, «Badoi al-lug'at». M., 1961, 229-bet).

Guzar – tog' yo'li, daryodan kechib o'tiladigan joy (kechik), ko'cha, Samarqand va Buxoro shaharlarida «mahalla», boshqa joylarda shahar-qishloqning «gavjum qismi» (tojikcha guzashtan «o'tmoq», «kesib o'tmoq», «kechib o'tmoq» fe'lidan). O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron va Afg'onistonda mustaqil holda yoki boshqa so'zlar bilan birga toponimlar hosil qilgan.

Gul – chechak. Har bir so'z o'z oldiga bir dunyo. So'z ham har qanday mavjudot singari tug'iladi, kamol va fano topadi, goho bir necha ming yillik umr kechirib bir o'lkadan boshqa yurtga, bir tildan boshqa tilga ko'chib, uzoq yo'lni bosib o'tadi. Zamon gardishi bilan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar ta'sirida hamda o'zga tillar sababida o'z qiyofasini shu qadar o'zgartiradiki, avvalgi shakli kishi-ni xotirasidan o'chib, unutilib ketadi.

Gul ana shunday so'zlardan biri.

Otashparastlarning muqaddas kitobi «Avesto»da qizil atirgul *varedzha*, qadimgi hind tili – sanskritda esa *vardhate* deb atalgan. Bu so'zning birinchi qismi, ya'ni vard tojik va o'zbek mumtoz adabiyotida, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida vard shaklida (atirgul ma'nosida) uchraydi.

Endi vard so'zining gul shaklini olishi haqida. Eski eroniy tillar mutaxassisi adib Muhsin Umarzoda fikricha dastlab *r* tovushi *l* tovushiga aylangan va milodning ilk asrlarida *vard* so'zi *val* shaklini olgan (d tovushi tushib qolgan). Keyinchalik *v* nihoyat *vul* deb talaffuz qilinadigan bo'lgan. Vul so'zidagi *v* tovushining g tovushiga o'tishi ham o'sha davrlarda ro'y bergan. Shunday qilib vard so'zi gul bo'lib ketgan va turkiy tillardagi chechak so'zini sunib chiqargan.

Ruscha roza (atirgul) so'zi ham o'sha Avestodagi «*varedzha*» so'zining lotin tilidagi talaffuzi oqibati. Dastlab «va» qismi tushib qolib «*rodzha*» shaklini olgan, keyinchalik «roza» deb talaffuz qilinadigan bo'lgan. Arabcha «ravza» (guliston) so'zi ham o'sha «rodzha» talfimasidan kelib chiqqan. Buyuk kishilarning qabrlari ham «ravza» (gulzor, guliston) deb ataladi.

Gul so'zining ibtidoiy shakli toponimlarda mixlanib qolgan. Masalan, qadimda podsholarning qarorgohi «vardani», «vardona», «vardonzi» (gulxona, gulzor) deb atalgan. Shofirkon tumanidagi Vardonzi xarobasi shu kishvarning oxirgi hokimi Vardonxudotning qarorgohi.

(Vard – qizil atirgul, – «on» ko'plik qo'shichasi, ze, zi – yer, zamin).

Gul toponimlar tarkibida eng ko'p uchraydigan so'zlardandir (Gulzor, Guliston, Gulbog', Chamangul va hokazo).

Gum – chuqurlik, jarlik. **Gumbuloq** (Dehqonobod tumani), **Gumsoy** (G'allaorol, Zomin tumanlari) toponimlari tarkibidagi *gum* so'zi «chuqurlik», «tevarak-atrofga nisbatan pastroq» ma'nosini bildiradi.

Gumbaz, Gunbaz, Gunbad (Eronda Gumbez, Gumbed) – qubbali bino, sag'ana, ibodatxona, sardoba (toza suv saqlanadigan sardobalar ustiga gumbaz qurilgani uchun *gumbaz* deb ham atalgan). Zarafshon vodiysida yashaydigan qoraqalpoqlarning bir urug'i *gumbaz* deb atalgan. **Gumbaz** degan toponimlar O'rta Osiyoda, Eron va Afg'onistonda ko'p uchraydi.

Dalvarzin – qadimiy shaharning xarobalari. Professor K.K. Yudaxin Qirg'izistondagi **Do'lbo'rjun** qishlog'i nomini **Choldevor** degan joy nomi va *to'rtkul* so'zi bilan ma'nodosh degan. Chindan ham O'zbekistondagi **Dalvarzin cho'li,** shuningdek Oltinko'l, Bekobod, Jalaquduq, Sho'rchi, Qo'rg'ontepa tumanlaridagi **Dalvarzin** qishloqlari, Andijon viloyatidagi **Dalvarzintepa** arxeologik yodgorligi Afg'onistonning Balx viloyatidagi **Dilberjin** toponimi, Qirg'izistondagi **Do'lbo'rjun** mo'g'ulcha *do'rbo'ljin* «to'rtburchak» so'zidan kelib chiqqan (mo'g'ullar qadimiy shaharlarning harobalarini ham *dorvoljin* – «choldevor» deyishgan). Do'rbo'ljin o'zgarib dilbarjin, dilvarzin va nihoyat Dalvarzin shaklini olgan (Dalvarzin cho'lini tojiklar **Dilvarzin** deyishadi).

Dam – suv ravon oqmasdan, to'planib qoladigan joy. Suvi yaxshi oqmaydigan, damlanib turadigan ariq *damariq* deyiladi. *Dam* so'zining «to'g'on», «ko'l», «ariq» ma'nolari ham bor. Toshkent shahri biqinida Damashi ko'li bo'lgan (qozoqcha *ashshi* «achchiq», «sho'r»). **Damiarab**, **Damisaroy, Damichuyut**, **Damiqirg'iz** ariqlari etnotoponimlar sanaladi («saroy urug'ining arig'i», «chuyut urug'ining arig'i»). **Damcha** toponimi esa *dam* atamasi hamda toponim yasovchi *-cha* qo'shimchasidan hosil bo'lgan.

Dapsan (depsan) – tog' etagidagi kichik bir tekis joy. Qirg'iz tilida ***depsen*** **tog'lardagi** tekisroq maydon. Qozoq tilida *tepsen* – pastroq **qirning yonbag'ri**. G'arbiy Qozog'istonda tekis joy. Qozoq

geografi G'. Qo'nqashpayev Qozog'istonda **Oqtepsen** degan joyni tilga olgan. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida **Dapsan** degan qishloq bor. Zominlik Bibiniso baxshining «Eshik oldi dapsanimdir, dapsanga gul ekanimdir» degan qo'shig'idan ham qir-adirdagi tekis maydonchaning *dapsan* ekanligini bilsa bo'ladi. Taqqoslang: Xitoy bilan Hindiston hududidagi Qoraqo'rum tog'larining eng baland cho'qqisi *Depsan (Depsang)* deb ham ataladi.

Dara – tog'lik o'lkalardagi tik yonbag'irli soylik. Bu atama *dara, dere* shakllarida O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim, Eron, Afg'oniston, Pokistonda «kambar vodiy», «jar», «soylik», «o'zan» ma'nolarda ko'plab toponimlar hosil qilgan; q. *Tangi.*

Darband – tog' yo'li, dara, tangi, ozarbayjon va tojik tillarida yana «qal'a», «dovon» (*dar* – eshik, kirish, *band* – «to'g'on», «bo'g'ov»). Kavkazda (**Derbent** Dog'istonda, **Derbend** Armanistonda va Ozarbayjonda), O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida (**Derbent** – Turkiya va Iroqda), O'rta Osiyoda (**Darband** – Surxondaryo viloyati Boysun tumani) bir qancha toponimlar hosil qilgan.

Darvoza – tog'larda o'tish oson bo'lgan tor dara, vodiy: **Amir Temur darvozasi, Temirdarvoza.**

Daryo – doimo oqib turadigan katta suv, ulkan soy (shevada – *dayra*).

Darxon – o'rta asrlarda majburiyatlardan, oliq-soliqlardan ozod kishiga berilgan unvon. Geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydi. Masalan, Samarqand viloyati Ishtixon tumanida **Boshdarxon, Jo'rabaydarxon, Ozoddarxon, Naymandarxon, Po'latdarxon, Qirqdarxon**, Dehqonobod, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq, Navoiy, Andijon, Yakkabog', Koson tumanlarida **Darxon** degan qishloqlar bo'lgan. Toshkentda Bo'zsuvning bir tarmog'i **Darxonariq** deyiladi. Mo'g'ulshunos T.D. Nominxanov «Darxon» so'zini mo'g'ulcha («majburiyatlardan ozod temirchi») deb izohlaydi. Toshkent shahri atroflarida *darxan* degan qozoq urug'i ham bo'lgan, qirg'izlarda *darqan* urug'i qayd qilingan. ***Darxon*** degan ism ham bor. Tarixiy manbalarda, chunonchi, Navoiy, Mirxond asarlarida *tarxon* shaklida qayd qilingan.

Firdavsiyning «Shohnoma»sida Turkiston podshosi lashkarboshisining ismi Tarxon bo'lgan. Tarxon unvoniga sazovor bo'lganlar xohla-

gan narsasini qila oladigan, butunlay mustaqil, harbiy xizmatdan ozod kishilar bo'lgan. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsa ham, to'qqiz avlodigacha afv etilgan.

Tarxonlik XV asrda ayniqsa avj olgan va feodallarga keng imtiyoz berishning bir vositasi bo'lib xizmat qilgan. Temuriylar davrida tarxonlar qo'lida yirik yerlar va katta hokimiyat bo'lgan. Ba'zi bir obro'li tarxonlar katta-katta hududlarga (Miyonkol, Toshkent, Buxoro) hokimlik qilganlar va deyarli butunlay mustaqil ish ko'rgan.

Tarxonlik O'rta Osiyoda keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan edi. Ba'zan ayrim kishilargagina emas, balki butun bir qabilaga, qavmga, butun bir shahar aholisiga tarxonlik huquqi berilgan. Chunonchi, Shoh Murodxon Buxoro shahri aholisi orasida katta obro' qozonish uchun shahar xalqini oliq-soliqlardan butunlay ozod qilgan va tarxon yorlig'i bergan.

Zarafshon vodiysida **Tarxon, Tarxonon, Tarxononbolo, Tarxononpoyon, Tarxonsayot** kabi ariq hamda qishloqlar uchraydi. *Tarxon* degan o'zbek urug'i ham bor.

Darg'a, dorug'a – qo'mondon, boshliq (mo'g'ulcha). Dorg'a mansabi Chingizxon davrida paydo bo'lgan va dastlab *daruxachi* (darugachin) deb atalgan. Dorg'a mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar davrida (XIV–XVI asrlarda) viloyat, shahar hokimi hisoblangan. Buxoro, Qo'qon xonliklarida esa *dorg'a* oliq-soliq ishlari bilan shug'ullangan. Qo'qon xonligida *dorg'aboshi* xonning boshqa mamlakatlarga mol olib chiqadigan sarbonlariga (tuyakashlariga) boshchilik qilardi.

Xiva xonligida dorg'alar saroyda amaldorlik vazifasini ado etgan. Kishi va yuklarni Amudaryodan o'tkazib qo'yish ishlari ham dorg'alar zimmasida bo'lgan. Xorazmda kema kapitani ham *dorg'a* deyiladi. **Abdullatifdorg'a, Bobodorg'a, Yoqubdorg'a** kabi qishloqlar bo'lgan.

Suv darg'asi – suv taqsimlovchi mirob *darg'ob* (dorg'ai ob) deb atalgan. Ba'zan mirshab (politsiya), bozor hokimi, xon kutubxonasining mudiri ham dorg'a (dorug'a) deyilgan.

Darg'at, darg'ot – suv taqsimlagich inshooti bo'lgan to'g'on. Jizzax, Jomboy, Zangiota tumanlarida **Darg'at** (Darg'ot) qishloqlari bor.

Dasht – dala, tekislik, toshloq cho'l, suvsiz cho'l, keng yassi maydon (Qoraqum cho'li **Dashti Xorazm** deb atalgan). O'rta Osiyo,

Kavkaz, Afg'oniston (Dashti Marso, Dashti Ziyorat cho'llari) va Eronda (Dashti Kavir, Dashti Lut cho'llari) bir qancha joy nomlari hosil qilgan. O'zbekistonda **Dashtakibolo, Dashtiso'xta** (Samarqand tumani), **Dashtig'oz** (Boysun tumani), **Dashtmahalla** (Izboskan tumani) kabi toponimlar bor.

Janubda Sirdaryoning quyi oqimi, sharqda Balxash ko'li va g'arbda Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud XI–XVI asrlarda **Dashti Qipchoq** deb atalgan.

Daha – shahar, tumanning bir qismi, ma'muriy-hududiy bo'limi. Sovet davrida «selsovet» – qishloq kengashi ma'nosida ham ishlatilgan. O'n kishilik harbiy qism ham *daha* deyilgan. Dehho «qishloqlar» so'zi *daha* bo'lib ketgan degan fikr bor. Yangiariq tumanida **Daha** toponimi qayd qilingan.

Dahana – daraga kiraverish, dara, daryoning quyilish joyi, bo'g'oz, to'g'on-ariq yoki kanal boshlanadigan joy, ko'chaning og'zi (*dahna* shakli ham bor). Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida **Bo'zrabotdahana, Gumdahana, Dahanajom, Kattadahana, Nandahana, Oqdahana, Koradahana** kabi joy nomlari (aksari daralar) uchraydi. Bu atama O'zbekistondan boshqa Tojikiston (**Dahana, Dahansoy** soylari, **Daxanai Kiyik** darasi), Ozarbayjonda (**Dahnachay** soyi), Eronda (**Daxanayi-Shirin, Dahanasar, Dahnashur** soylari) ham uchraydi. Dahana asli *dahan* «og'iz» so'zidan kelib chiqqan.

Dahyak (forscha-tojikcha «o'ndan bir») – Buxoro amirligida vaqf yerlaridan olingan daromadning madrasa mullavachchalariga va mudarrislariga beriladigan qismi (nafaqa). Uychi tumanida **Dahyakota**, Shahrisabz tumanida **Dayak, Dahayak** qishloqlari bor.

Degrez (forscha-tojikcha *deg* – qozon, *rez* – rextan – «quymoq» so'zlaridan) – qozon quyuvchi, cho'yan, jez, – bronzadan qozon, asbob va buyumlar yasaydigan usta. Oltinsoy, Navbahor, Kogon, Sherobod tumanlarida **Degrez**, yirik shaharlarda **Degrezlik, Degrezi, Degrezxona** kabi mahallalar bo'lgan.

Deh, de – qishloq, shahardan kichik aholi punkti. *Dexiston* dashti-biyobondan farqli o'laroq xalq yashaydigan joy, qishloqlar bor obod joy; *dehot* – qishloq joy, serqishloq joy. O'zbekistonda **Denav, Denov, Dehimirzoyi, Desuxta** kabi yuzlab toponimlar shu atamadan yasalgan. Deh so'zi *diz* atamasi bilan o'zakdosh deyishadi *(q. Diz)*.

Dehqon – ekin ekish bilan shug'ullanadigan kishi. O'rta asrlarda yirik yer egasi, zamindor *dehqon* deyilgan. Bundan tashqari, bu so'zning «ajam», ya'ni fors-tojikcha, «qissago'y» ma'nolari ham bor. Dehqon so'zidan tarkib topgan aksari toponimlar, xususan, ko'plab **Dehqonobod**lar mehnatkash dehqonlar sha'niga qo'yilgan.

Diz (sug'dcha) – qal'a, qo'rg'on. Mahmud Koshg'ariy fikricha forslar «baland yer» ma'nosidagi turkiy *tayiz* so'zini o'zgartirib shaharlarni **diz** deb atagan («Devonu lug'otit turk», III tom, 135-b.). Bu so'z tojik tiliga *dij* shaklida kirgan. Jizzax, Jizza kabi toponimlar *diz* atamaidan hosil bo'lgan. Masalan Jizzax shahri nomi tarixiy manbalarda **Dizak** shaklida qayd qilgan (O'rta Osiyoda bir necha **Dizak** bo'lgan. Xususan, Turkmanistonda Murg'ob daryosi bo'yida, Samarqand shahri yaqinida, Usrushonada, ya'ni hozirgi Jizzax shahri).

Dovon (mo'g'ulcha daban) – tog'ning oshib o'tish qulay bo'lgan joyi, *art* (qadimiy turk so'zi), *aqba* (arabcha), *bel* (turkiy), *ko'tal* (forscha) so'zlari ma'nodosh.

Dodxoh – Buxoro xonligida XIX asrgacha bo'lgan yuksak harbiy unvon, ma'nosi «adolat talab qiluvchi, adolatparvar» demakdir. Dodxoh Buxoro xonligida alamzada (ranjigan) kishilarning arzlarini mamlakat hokimiga va uning javoblarini arz qilganlarga yetkazib turgan, Qo'qon xonligida esa qozilarning faoliyati ustidan nazorat qilib turgan. Dodxoh katta hurmat-e'tiborga ega bo'lgan. Bu atama toponimlar shaklida uchraydi (Qo'shrabot tumanida **Dodxo** qishlog'i bor).

Dolon – darvozadan boshlangan usti yopiq yo'l, yo'lak, geografiyada – tog' yo'li. Tojikiston va Eronda keyingi ma'noda toponimlar hosil qilgan. Masalan, **Eronda Doloni Darradiz, Doloni Mashxad-Bojmurd** darbandlari bor. Qirg'iz tilida *do'lo'n* – «ulkan, katta» degan ma'noni anglatadi. Norin vodiysida **Do'lo'n** nomli dovon bor.

Duglat, duvlat, dulat – etnonim. Dastlab mo'g'ul qabilasining nomi bo'lgan. Duglatlar Duklan degan kishidan tarqalgan ekan. Duklan (*dugulan*) mo'g'ul tilida «cho'loq» degani, *duglat* esa bu so'zning ko'pligi.

O'zbek, qozoq, qirg'izlar tarkibida duglat (duvlat, dulat) degan urug' qayd qilingan. Baxmal tumanida **Duvlat** degan qishloq bor.

Duob, duoba, duvoba, dug'oba – tog'lik hududlarda ikki suv bir-

biriga qo'shilgan joy. Dehqonobod, Shahrisabz, Narpay tumanlarida **Duob**, Dehqonobod tumanida **Dug'ob**, Zomin, Boysun, Oltinsoy tumanlarida **Dug'oba** qishloqlari bor.

Do'lta, do'ltabo'ri – adabiy tilda *sirtlon* deb ataladigan o'limtikxo'r yirtqich hayvon. Samarqand tumanida **Do'lta**, G'uzor, Qamashi tumanlarida **Do'ltali**, Shahrisabz, Dehqonobod, Denov tumanlarida **Do'ltaxona** degan toponimlar bor. T. Nafasov do'lta «yerto'la», «o'ydim-chuqur», «past-balandlik» ma'nosini bildiradi deydi. Biroq do'ltaxonani «erto'la» deyish to'g'ri emas, chunki *xona* qo'shimchasi tabiiy obyektlar nomlaridan toponim yasamaydi.

Do'rman (do'rmon) – XVI–XVIII asrlarda Dashtiqipchoqdan kelgan o'zbek qabilalaridan birining nomi. Do'rmonlar Zarafshon vodiysida, Surxondaryo va Toshkent vohalarida, qisman Xorazmda yashagan. Qabila *qo'yli, uchurug', ko'kchelak, sakson, no'g'oy, gurdak, oytamg'ali* kabi urug'larga bo'lingan. Qiziltepa, Samarqand, Narpay, Romitan, Asaka, Kitob, Kasbi, Qamashi, Qibray, Jomboy, Qorako'l, Ishtixon, Jondor tumanlarida **Do'rman, Do'rmoncha, Do'rmonon** qishloqlari bor.

Yetim – tabiiy geografik obyektlarning yakka-yolg'iz, kichikroq ekanligini bildirgan atama: **Yetimtog', Yetimcho'qqi, Yetimsoy, Yetimqir, Yetimko'l, Yetimtepa**.

Yob (yop), yap – Xorazmda o'rta va kichik kanallar, ba'zan ariqlar *yop* deyiladi; V.V. Radlov yop so'ziga «qazilgan ariq» deb izoh bergan. V.V. Bartold bu atamani xivaliklar va turkmanlardan boshqalar bilmasalar kerak deb taxmin qilgan. Lekin bu so'z boshqa yerlarda ham uchraydi. Masalan, G'arbiy Qozog'istonda, Qoraqalpog'istonda *jab, jap* deyishadi. Toponimist E.M. Murzayev ma'lumotlariga ko'ra Tojikistonda ba'zan daryo *yob* deb ataladi. Yob (yop) elementidan tuzilgan toponimlar O'zbekistonda ko'p: **Bo'zyob, Kaltaminoryob, Oltiyob, Otayob, Polvonyob, Sakkizyob, Saribiyyob, Xonyob, Yangiyob** va b.; Turkmanistonda: **Oqyop, Qorayop, Qodiryop, Ajiyop,** Amudaryo deltasidagi kanallar – **Qorayob, Permetyob, Chermenyob** va b. E.M.Murzayev *yob* atamai *ob* so'zidan kelib chiqqan deydi.

Yobon, yovon – dasht, dala, sayxonlik. Yoboni «sahroyi», «dalachi», «yovvoyi» degani. Ko'proq *yovon* shaklida toponimlar hosil qilgan: *Yezyovon* (O'zbekiston), *Yovon, Yovonsuv, Yovonuru, Yovon-*

dashti (Tojikiston). Zarafshon daryosi vodiysida (Samarqand viloyati) dashtda bunyod bo'lgan qishloq *yovon* deyilgan.

Yozyovon – bu atamaning har ikki elementi, ya'ni *yoz* ham, *yovon* ham «cho'l», «dala», «tekislik» degan ma'noni bildiradi. Mazkur atama yaxlit holda Markaziy Farg'onadagi *Yozyovon* toponimini hosil qilgan. Bu nomning kelib chiqishi haqida ilgarilari bu yerga Isfayram-soydan kelgan suv yetishmas ekan, xalq quduqlardan suv ichgan yoki marg'ilonliklar Yozyovonga qovun-tarvuzlar ekib, kapa tikib dalaga ko'chib chiqishar ekan, degan turli izohlar bor. Yozyovon, ya'ni «Yozlik ayvon» ana shundan qolgan deyishadi. Yozyovon – «Yozi yomon (ya'ni issiq)» degan izoh to'g'ri emas; q. *Yobon* va *Yozi*.

Yozi – dasht, tekislik, dala; qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noni anglatadi. Oltoy tilida *azi*, xakas tilida *chazi* shaklida talaffuz qilinadi. «Yoyilmoq», «yastanib yotmoq», «cho'zilib yotmoq» ma'nosidagi yoz (yoy) fe'lidan kelib chiqqan bo'lishi kerak. O'zbekistonda **Yozyovon**, Ozarbayjonda **Qorayoz** tekisligi, **Agujayozi**, **Gilyozi**, Oltoyda **Sur-yazi** toponimlari shu so'zdan yasalgan. *Yoz* shakli ham bor (bir ma'nosi «yaylov).

Bu so'zning *jaziq*, ya'ni «yoyiq», «yastangan», «keng yoyilgan» shakli qayd qilingan. Qozog'istonda *Oqjaziq* «Oq sayxonlik» degan toponim bor. Rossiya hududidagi Ural daryosining turkiy nomi – **Yoyiq** «keng yoyilib oqadigan (daryo)» demakdir. Qadimgi yunon geograflari asarlarida uchraydigan Daiks (Yoyiq) daryosi nomini akademik V.V. Bartold «yozma yodgorliklarda qayd qilingan birinchi turkiy so'z» degan edi. «Taypoq», «chuqur emas» ma'nosidagi *yassi* sifati ham o'sha *yozi* so'zidan kelib chiqqan degan fikr bor.

Yoyilma – daryo-soylar, sel suvlari tog'-adirlardan tekislikka oqib chiqqan joylarda oqiziq jinslar cho'kib hosil bo'lgan qabariq qiya tekislik, oqar suvlar yoyilib oqadigan yer. Uchko'prik, Rishton, Farg'ona, Bekobod, Parkent, Jizzax tumanlarida **Yoyilma** qishloqlari bor. Yana q. *Jayilma*.

Yom – bekat, pochta stansiyasi. Klassik mo'g'ul yozma tilida, shuningdek, hozirgi mo'g'ul tili shevalarida *yom* so'zi *jam, zam, yam* shakllarida uchraydi va «yo'l» degan ma'noni anglatadi. Mo'g'ullar imperiyasi davrida esa «pochta stansiyasi», «bekat» degan ma'noni bildirgan. *Yom* so'zi yoqut, rus, turk, mo'g'ul, xitoy, anamit, tibet

kabi ko'plab xalqlarning tillarida turli fonetik shakllarda uchraydi va hamma xalqlarda deyarli bir ma'noda keladi.

Yom so'zi mo'g'ullarda XIII asrga kelib paydo bo'lgan va turkiy tillarga o'tib, mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda keng tarqalgan va usmoniy turklarga yetib borgan. L.Z. Budagovning «Turkcha-tatarcha shevalarning qiyosiy lug'ati»da shunday izohlanadi: «Yom – chopar minadigan ot». yomchi – chopar (ruschasi *yamshik* so'zi shundan kelib chiqqan). V.V. Radlov «Turkiy shevalar lug'ati tarjimasi»: «Yom: 1) (uyg'urcha, pochta stansiyasi; 2) (usmoniy turkcha-chig'atoycha) «pochta otlari». Elchi va choparning bir bekatdan ikkinchi bekatga almashtirib, minib ketadigan otlari saqlanadigan joy *yomxona* deyilgan. Ruslarga *yam* atamasi turkiy tillardan Oltin O'rda orqali o'tgan».

Yomlar chingiziylar davrida qurila boshlagan. Yom qurishga Chingizxonning kichik o'g'li Ugedey ayniqsa katta ahamiyat bergan. Masalan, Qoraqo'rum shahridan Xitoyga boradigan yo'lda har 5 farsaxda (taxminan 30 chaqirimda) bittadan hammasi bo'lib 37 yom qurilgan, har bekatda 100 kishi xizmat qilgan. Har kuni shu yo'ldan 500 arava oziq-ovqat keltirilib omborlarga to'kilar edi.

Mo'g'ullar o'zlari bosib olgan boshqa hududlarda ham ko'pdan ko'p yomlar qurganlar. O'rta Osiyoda mo'g'ullardan keyin ham yomlar bo'lgan. Masalan, Bobur Hindistonning Agra shahridan Afg'onistondagi Kobul shahrigacha har 18 kuruh joyda (bir kuruh 2 chaqirimga yaqin) bir yom qurdirgan. Bu so'zdan tarkib topgan toponimlar yozma tarixiy yodgorliklarda qayd qilingan. Samarqand atrofida bir necha *yom* bo'lgan. Chunonchi, Siyob arig'i yaqinidagi hozirgi Cho'michli qishlog'i XVII asrda **Yom** deb atalgan. «Boburnoma»da ham Samarqand atrofida **Yom** degan joy tilga olingan. Zomin tumanidagi **Yom** qishlog'i ham qadimiy aholi punktidir. Eronda ham «**Yom**» degan joy bor.

Yomdan tashqari **Jom** degan joylar ham bor. Bunga misol sifatida Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi, Samarqand bilan Shahrisabz orasidagi **Jom** qishloqlarini, Samarqand viloyatidagi **Jom cho'li**ni aytib o'tish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»da, Muhammad Solih «Shayboninoma»da bu so'zning har ikkala variantini ham ishlatishganlar.

Buyuk fors-tojik shoiri Abdurrahmon Jomiy dunyoga kelgan Jom shahri nomi ham o'sha *yom* ma'nosini anglatadi.

Forish, Shahrisabz tumanlari, Buxoro shahri yaqinidagi, Erondagi **Yomchi** toponimlari yom otlarida «choparlik qiluvchi» yoki «yom xizmatchisi» demakdir.

Rossiya Federatsiyasining Yevropa qismi oblastlarida *yam* so'zidan tarkib topgan bir necha toponim uchraydi.

Bularning hammasi *yom* atamasi arealining naqadar keng ekanligini ko'rsatadi.

Yor – *jar* so'zining dialektal shakli: **Yorqishloq, Yorquduq, Yorboshi, Yorto'ba**. Jar so'zining *yar* shaklida talaffuz qilinishini bundan 10 asr oldin Mahmud Koshg'ariy aytib o'tgan edi; q. *Jar*.

Jabg'u – G'arbiy Turk xoqonligida qabila-urug' oqsoqoliga berilgan oliy unvon bo'lib, «hokim» degan ma'noni bildirgan. Bundan 9–10 asr oldin Toshkentdan 2 farsax (13–15 km) yuqorida **Jabg'ukat** – «Jabg'u shahri» bo'lgan V.V. Bartold **Jabg'ukat** sobiq Niyozbek qal'asi o'rnida bo'lganligini qayd etgan.

Jayilma – tog' daryosi tekislikka chiqqach keng yoyilib oqib loyqa, bo'tana qoldiradigan joy, yoyilma; bunday joylar **loyqa** ham deyiladi. **Jayilma, Katta Jayilma, Kichik Jayilma** kabi mikrotoponimlar tog'li hududlarda ko'p uchraydi; q. *Yoyilma*.

Jaloyir (Jalair) – o'zbek, qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-mo'g'ul qabilasi. O'zbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota tog'lari etaklarida, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Navoiy, Qorako'l tumanlarida, Xorazmda yashagan va ikkita katta – *qaychili* va *bolg'ali* hamda boshqa mayda urug'larga (qarg'ali, boshqird, qoraabdal, qorako'li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban) bo'lingan. Zomin, Kattaqo'rg'on, Narpay, Xatirchi, Jarqo'rg'on, Sho'rchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida **Jaloyir**, Rishton tumanida **Jaloyirchek** qishloqlari bor.

Jangal – sernam joylarda uchraydigan daraxt – buta aralash to'qay, o'rmon, changalzor. Tojikistonda daryo bo'ylaridagi daraxtzor. Ozarbayjon, turkman tillarida *jengel*; Afg'oniston, Hindistonda *jangal*, Eronda *jengel* (o'rmon) deyiladi. «Boburnoma»da ham *jangal* so'zi «o'rmon» ma'nosida keladi. Masalan, o'rmonda yashaydigan to'tiqushni Bobur «jangaliy to'ti» deb atagan. «Boburnoma»da o'rmon so'zini uchratmadik; *to'qay* so'zi esa «daryo muyulishi, tirsagi» ma'nosida keladi. *Jangal, changal, jengel* atamasi O'zbekistonda, Tojikistonda, Eronda, Hindistonda joy nomlari tarkibida uchraydi. Ruscha *jungli* so'zi ham shu so'zdan olingan *(q. To'qay)*.

Jar – suvning yerni o'yishidan hosil bo'lgan, ikki tomoni tik chuqurlik. Dengiz, daryo, ko'lning tik qirg'og'ini ruslar *yar* deyishadi. Xorazmda, Farg'onaning ba'zi hududlarida jar o'rniga *yor* deyiladi: **Yordon, Kuyganyor, Yorboshi**. Asli ham *yor* bo'lishi kerak. Bu atama yormoq, ya'ni «bo'lmoq», «ajratmoq» fe'lidan kelib chiqqan.

Jag'albayli – o'zbek qipchoqlar orasidagi urug'. Payariq, Urgut, Pastdarg'om, Narpay, Xatirchi, Oqqo'rg'on tumanlarida **Jag'albayli**, Oqdaryo tumanida **Jag'altoy** qishloqlari bor. Qozoqlar tarkibida ham *jag'albayli*, qirg'izlar tarkibida *jagalmay*, boshqirdlar tarkibida *yagalbay* urug'i qayd qilingan. Hamma hollarda bu urug' tamg'asi shaklan uchib borayotgan ovchi qush – jag'albay (jig'oltoy) qushiga o'xshagani uchun shunday nom olgan.

Jilvon – Buxoro xonligidagi amallardan biri. *Jilvon* kishilarni o'g'ri, qaroqchi, yo'lto'sar va boshqa qonunbuzarlardan himoya qilib turgan. Buxoro viloyati Shofirkon tumanida **Jilvon** qishlog'i, G'ijduvon va Shofrikon tumanlarida **Jilvonariq** degan kanal bor.

Jilg'a, yilg'a – jildirab oqadigan soy. Deyarli barcha turkiy tillarda *jilg'a, yilg'a, ilg'a, yelg'a, jalg'a* kabi fonetik shakllarda «soy», «sayoz jarlik» singari ma'nolarda ishlatiladi va ko'plab joy nomlari tarkibida uchraydi. Jilg'a «jilmoq», «siljimoq», «surilmoq» ma'nosidagi *jil, yil* fe'lidan kelib chiqqan. «Suv» ma'nosidagi qadimgi turkiy *yil* so'zidan hosil bo'lgan degan fikr ham bor. O'zbekistonda **Qorajilg'a, Sarijilg'a, Kaltajilg'a** kabi mikrotoponimlar uchraydi (Konimex tumanida **Jilg'a** degan ovul bor).

Shu bilan birga «soylik», «vodiy» ma'nosidagi *jo'lga* so'zi ham *jilga* bilan o'zakdosh bo'lsa kerak. Jo'lga atamasi «Boburnoma»da xuddi shu ma'noda keladi. Fors-tojik klassik adabiyotida jo'lga «vodiy», «o'tloq» ma'nosida qo'llanilgan.

Jing'il – *yulg'un* butasining mahalliy nomi. **Jing'illi, Jing'ilsoy, Jing'iljar** mikrotoponimlari uchraydi.

Jig'a – sallaga taqiladigan bezak. U bir-biriga yopishtirilgan ikki pallali yupqa kumushdan iborat bo'lgan. Ustiga bosma naqshlar ish-

...rib, tilla suvi yuritilgan, marvarid, feruza va boshqa asl toshlar ... shishalar qadalgan, ustiga ukki pari qistirilgan, ichiga mum ... ldirilgan. Jig'aga aksariyat xon va xonzodalar taqqan. Jig'a yasov... usta *jig'achi* deyilgan. Andijon viloyati Andijon tumanida **Jig'achi** ...yan qishloq bor.

Jomboy – etnonim. Qozoqlarda *jambay* degan urug' bor. O'zbeklarda ... shunday urug' bo'lishi kerak. Pastdarg'om tumanidagi **Jomboyli**, ...rgut tumanidagi **Jombeyliravot** toponimlari fikrimiz isboti bo'la oladi. Jomboyli komponenti «jomboy urug'ining vakili» ma'nosini bildiradi.

Jondor – Buxoro xonligida «jallod», «yassovul (politsiya) boshlig'i». Bu so'zning asosiy ma'nosi «turk mavjudot», «jonli jonivor». Buxoro viloyatidagi **Jondor** shaharchasi Jondor tumani markazi, Jizzax viloyati Baxmal tumanida *Jondor* (Jondorning qiri) degan joy bor. Komitan tumanida **Bozorboyjondor**, **Kattajondor** degan qishloqlar qayd etilmoqda.

Juvozpag'oz – qo'lda tayyorlanadigan qog'oz dastgohi, qog'oz ...uvozi. Bu juvoz *qog'oz regimenti* deb ham yuritilgan. Bobur bunday deydi: «Olamda yaxshi qog'oz Samarqandidan chiqar. Juvozi qog'ozlar ...yi tarafdin Konigildin kelgusi. Konigil Siyob yoqasidadur».

Qog'ozni arablar kag'oz, tatarlar kiyag'az deyishadi. Samarqand ...aqinlari **Juvozpag'oz** degan toponim bo'lgan.

Juriyat, jurat, juyrot – o'zbeklarning o'zbek urug'laridan biri. Qarluq, Barlos, Jomboy tumanlarida **Juriyat** degan qishloqlar qayd qilingan.

Jo'gi – O'rta Osiyo hindlarining bir qavmi. *Jo'gi* so'zining «tirib... gar», «ayyor», «kambag'al», «darvesh» ma'nolari ham bor. Narpay tumanida **Jo'gi** Jarqo'g'on tumanida **Jo'gidapsar**, Qarshi shahri yaqinida **Jo'gixona** qishloqlari bor.

Jo'y, jay-ariq – kichikroq kanal. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'zning kichraytirilgan shakli – *jo'yak* saqlanib qolgan. **Jo'ydaw** (Farg'ona tumani), **Jo'ydeq** (Buxoro tumani), **Juvaav** (Shofirkon tumani) toponimlari ma'lum.

Jo'ybor, jo'bor – ariq-kanallar, soy-jilg'alar serob joy; soy-jilg'alardan hosil bo'lgan daryo, ariq, daryo soniali. Buxorodan g'arbroqdagi sersuv joy **Jo'ybor** deb atalgan. U erda «Jo'ybor shayx...», ya'ni «Jo'ybor xo'jalari» deb atalgan badavlat sulola yashagan.

Zarafshon vodiysida **Jo'ybor** degan aholi punkti ko'p edi. Buxoro, Nasaf (Qarshi). Toshkent shaharlarida **Jo'ybor** nomli guzar va ko'chalar bo'lgan. *Jo'y* – («qarang») va *bor*, ya'ni «serob» so'zlaridan olingan.

Jo'n, jo'na – tog' orqasi, yelkasi, uzunasiga cho'zilgan pastak tog'ning qirra qismi; jo'nag'ar (*g'ar* – sug'dcha «tog'») – tog'da yolg'izoyoq og'ir yo'l: *Yurgan yo'ling adir emas, jo'nag'ar* («Alpomish» dostoni). Jizzax viloyati Zomin tumanida **Yo'ljo'na, Suluvjo'na**, Qozog'istonda **Oqjo'n, Suluvjo'n** toponimlari bor.

Jo'sha – O'rta Osiyoda uchlamchi geologik davrda paydo bo'lgan qizil tuproq. *Jo'sha* degan qizil bo'yoq ham bo'lgan (ruschasi surik). U kulolchilikda sopol idishlarga qizil rang va naqsh berish uchun ishlatilgan. Jo'shani Marg'ilon va Andijonda *ro'sha* ham deyishgan. **Jo'shalijar, Jo'shatepa** degan mikrotoponimlar bor.

Zax – sernam, zaxkash (yer, tuproq), tojik tilida zah – «sernam», Eronda (zahob) «buloq» ma'nosini anglatadi. Bu atamaning *zak, zey* (Xorazm), *siza* variantlari ham bor. q., **Zaxkash, Zag'orkash, Zovur**.

Zaxkash – (tojikcha zah – «zax», *kash* – «tortmoq», zahkash («zax tortqich») – botqoq va zax suvi oqadigan ariq. Bu so'zning «sernam (yer)» ma'nosi keyin paydo bo'lgan. Toponimlar tarkibida uchraydi.

Zayak – bir necha yil g'alla ekilmay yotgan lalmi yer, qirg'iz tilida *zayek* – hosili yig'ib olinib, o'sha yili yoki keyingi yili ham ekin ekilmay yotgan bug'doy yoki arpa angori (ang'iz). Prof. M.S. Andreyevning tadqiqotlariga ko'ra, *zayak* so'zi sug'diycha bo'lib, ikki qismdan iborat: *zoy* (yer), -ak (qo'shimcha). Sug'd tilining davomi hisoblangan yag'nob tilida *zoy* «tuproq, dala, ekinzor» demakdir. Tojikistondagi Yag'nob o'lkasida **Zoyak, Dumzoy, Zoyti** kabi joy nomlari uchraydi (*zoy* "yer", "joy").

Jizzax viloyati Zomin tumanida zayak so'zidan tarkib topgan mikrotoponimlar uchraydi **(Oqzayak, Isoning zayagi)**.

Zag'orkash – zovur, oqova suv tushadigan ariq. Bu atama va toponim XIV asr Buxoro hujjatlarida ko'p uchraydi. Buxoro yaqinida, Qorako'l vohasida **Zag'orkash** degan qishloqlar hozir ham bor. Zag'or deb dastlab selni aytishgan. O'rta asr fors tilida sernam tuproq *zag'or* deyilgan. Keyingi asrlarda *zag'or* (zag'orkash) o'rniga *zaxkash* atamasi qo'llanila boshlaydi.

Zov – tik qoya. Toponimlar. **Zovetak, Ko'kzov, Qizilzov** (Zomin tumanida), Qirg'izistonda *zoo* (zo'o') shaklida ko'plab toponimlar hosil qilgan; Andijon viloyatida *zovlin* "tik jarlik"; fors tilida *zov* "dara": **Surxzov, Sarezov, Gerezov, Qulezov** (Eron).

Zovur (tojikcha zah – "zax", bur – buridan "kesmoq") – zaxob yerlarni quritish, zaxni qochirish uchun qazilgan chuqur ariq, *zakan*. Ko'plab toponimlar hosil qilgan.

Zok – temir kuporosi, temir sulfat, suvda oson eriydigan och yashil kristal modda. Qadimda temir kuporosidan bo'yoq olingan. Nurota tog'larining shimoliy yonbag'rida **Konizok** degan joy bor.

Ilonli – o'zbek qavmlaridan biri. *Ilonni, jilonni, jilontamg'ali* deb ham atalgan. Tamg'asi ilon shaklida bo'lgani uchun shunday nom olgan. Forish, Urgut, Baxmal, Narpay tumanlarida **Ilonli, Ilonchi,** Nurota tumanida **Jilontamg'ali** qishloqlari bor. Ilon ko'p joylar esa **Ilonliqal'a, Ilonsoy** deb ataladi.

Irmoq – katta daryo yoki soyga kelib qo'shiladigan kichik soy, jilg'a. Usmonli turk tilida *irmaq* (daryo) deyiladi. Bu so'zning «oqar suv», «jilg'a», «qo'ltiq», chuvash tilida «jar» ma'nolari bor. Atama *yirmoq* «kuch bilan orasini ochmoq», «ikki yoqqa ajratmoq» fe'li negizi (yir-, yo'r)ga -moq qo'shimchasi bog'lanib yasalgan degan fikr bor. Bu atama Turkiyada bir qancha gidronimlar hosil qilgan: **Irmaq, Yeshilirmaq, Qizilirmaq.**

Kaltatoy – o'zbeklar tarkibidagi turk deb atalgan etnik guruhning bo'linmalaridan biri. Kaltatoy, o'z navbatida *muazzamini, maxatori, mirzakaltatoy, qanglikaltatoy, kaltatoymoshat* kabi kichik urug'larga bo'lingan. Farg'ona vodiysi, Nurota va Molguzar tog'larining shimoliy yonbag'irlarida, Zarafshon daryosining o'rta oqimida, Surxon vohasida yashashgan. Baxmal, Qamashi, Uchko'prik tumanlarida **Kaltatoy** qishloqlari bor. Yoli, dumi kesib qo'yilgan ikki yashar toychoq *kaltatoy* deyiladi. Toy ushbu urug'ning muqaddas jonzodi (totem) bo'lgan.

Kam – qir, tog' qirrasidagi pastroq, kamtik (kemtik) joy. Zomin tumanida tog'dan oshib o'tadigan Sarikam degan joy bor. Samarqand viloyatida **Darvozakam, Darvozkam** degan toponimlar qayd qilingan. Toshkent–Farg'ona avtomobil yo'lining Qurama tog'laridan oshib o'tiladigan qismidagi **Kamchik** nomli dovon ham shu so'zdan hosil bo'lgan («Kichikroq kam»). Uni Qamchiq deb atash to'g'ri emas.

Kamar – bir necha ma'noni anglatadigan geografik atama; 1) O'zbekistonda: suv qirg'og'ida, jarlikda, tepalik yoki tog' bag'rida o'pirilish, yuvilish natijasida hosil bo'lgan g'orsimon o'yiq joy: **Kattakamar, Yerkamar, Oqchepkankamar** (Zomin tumani); **Davkamar, Otkamar, Qorakamar, Qo'shkamar**; 2) adirda tevarak-atrofdan pastroq, chuqurroq joy: **Sari(k)kamar, Mulla Qoraning kamari**; 3) Kamar (kemer) – tog', tog' yonbag'ri, tepalik (Eron va Ozarbayjon), atrofi baland qirlar bilan o'ralgan pastlik (Ozarbayjon, Qozog'iston), qiyalik (Afg'oniston), jarlik, daryo o'ygan g'orsimon o'yiq, dara: **Qizilkamar, Zarkamar, Qorakamar** (Tojikiston), **Kemerli, Kemervan** (Ozarbayjon), **Kemertuz** ko'li (Qozog'iston Pavlodar oblasti). Rossiya Federatsiyasidagi oblast markazi **Kemerovo** shahri nomi ham shu atamadan kelib chiqqan. Eronda **Siyohkamar, Kamar Xarpushte, Kamar Charx** degan tog'lar bor.

Eronshunos V.I. Savina fikriga ko'ra, *kamar* geografik atamasi "belbog'", "qayish" ma'nosidagi *kamar* so'zi bilan sinonim bo'lib, "biron narsaning o'rtasi, markazi" degani.

Kapa – chayla hamda urug' nomi (masalan, kapasaroy). *Kapa* komponentli toponimlar Farg'ona vodiysida ko'p uchraydi. Xatirchi, Payariq, Jalaquduq, Beshariq tumanlarida **Kapa**, Yangiqo'rg'on, Urgut, Beshariq, Uchqo'rg'on, Asaka tumanlarida **Beshkapa** qishloqlari bor.

Kaptarxona – kaptarlar turadigan, yoki kaptar ko'p joy. Ilgarilari xon va zodagonlarning kaptar boqiladigan binolari bo'lgan, kaptarlardan pochta aloqasida foydalanilgan. Bundan tashqari, parilar ko'pincha kaptar ko'rinishida tasavvur qilingan. Shu bois «dev-pari ko'rinadigan» joylar *«Kaptarxona»* deb atalgan bo'lishi mumkin. Samarqand, Termiz, Denov, Farg'ona tumanlarida **Kaptarxona** qishloqlari bor.

Kat (ket, kand (kent) – O'rta Osiyo, Qozog'iston, Kavkaz, Sharqiy Turkiston, O'rta Sharq, Kichik Osiyoda geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydigan geografik atama. Eronshunos V.A. Livshits, A.A. Freyman va b. *kat* so'zi bilan *kand* so'zining genezisi bir, tafovut shevaviy talaffuzi oqibatidir, degan fikrni bildirishgan.

Akademik V.V. Bartold fikricha, *kat* (kad) yoki *kada* (kede) eroncha so'z bo'lib, dastlab «uy» degan ma'noni anglatgan. *Kat* tu-

shunchasiga oila boshlig'ining uyidan tashqari, uning o'g'illari hamda qarindoshlarining uy-joylari, yordamchi binolar ham kirgan va binolar atrofi uzun devor bilan o'ralgan. Xorazmda ham shunday, atrofi devor yoki marza bilan to'sib olingan maydon *'at* deyilgan. Chunonchi, Xorazmning qadimiy poytaxtining nomi **Kat** (Kot) bo'lgan (Qoraqalpog'istondagi hozirgi Beruniy shahri).

Kat so'zi asli sug'diycha. *Kat* yoki *kata* qadimiy eroncha atamashunoslikda urug' vakillari bir bo'lagi yashagan va devor bilan ajratib olingan katta hovlini bildirar edi. O'rta Osiyoda keng tarqalgan va «qishloq» ma'nosini anglatgan *kat* (kad) atamasi, shubhasiz, ibtidoiy *kad, kat* yoki *kata* so'zidan kelib chiqqan. *Kadxudo* «kat hokimi» atamasi esa bizning zamonamizgacha saqlanib qolgan va ma'lum bir jamoa doirasida boshchilik qiluvchi kishini, hatto oila boshlig'ini anglatadi.

Kadxudo so'zi «Boburnoma»da bir necha bor «uylanish» ma'nosida uchraydi. Xorazmda **Katxudo** degan qishloq bor.

Kent – «shahar», «aholi punkti». *Kend* (kent) atamasi asli *kat* (qarang) so'zining dialektal shaklidir. V.V. Bartold *kend* so'zi eroniy aholidan turkiy xalqlarga o'tgan deydi. Ana shuning uchun ham Mahmud Koshg'ariy bu so'zni turkiy so'z deb biladi: «Kend – o'g'uzlar va ularga yaqin turuvchilar tilida «qishloq» shaklida» deya izohlaydi.

Shunday qilib, shahar va qishloq nomlari tarkibida xozir ham uchraydigan *kan* komponenti o'sha davrda ham bo'lgan.

Devonning ba'zi o'rinlarida (I tom. 239-bet) *kend* so'zi «qo'rg'on» ma'nosida keladi va bu tushunarli hol. Chunki *shahar* so'zining etimologiyasi ko'pchilik tillarda «qo'rg'on», «qal'a» ma'nosini bildiradi. Aslida esa har bir shahar o'ziga xos qal'a bo'lgan. Qozoqlar va ba'zi bir xalqlar shaharni hamon qal'a deyishadi. Bir vaqtlar o'zbeklar ham shaharni shunday atashgan. *Qal'akovush* – «rezinka galosh», ya'ni «shahardan (rus shahridan) keltirilgan kalish» ma'nosida qo'llanilgan.

Kend (kent) atamasi ham shahar, ham qishloqlarga nisbatan ishlatilgan. Shuning uchun ham X asrda Sirdaryo havzasidagi ko'pgina aholi punktlari nomlari *kend* (kent) bilan tugagan. Bu haqda V.V. Bartold bunday deydi: «X asr geograflari Turkistonni tavsif qilganlarida *kat* va *kad* so'zlaridan tuzilgan talay joy nomlarini keltiradilar. Ammo bunday nomlar Murg'ob atroflarida hali uchramaga-

ni holda Zarafshon vodiysida, ko'proq esa Sirdaryo havzasida, ayniqsa Ohangaron va Chirchiq atroflarida paydo bo'lgan. Geograf Istaxriy Ohangaron bo'yidagi madaniy mintaqada 14 shahar va qishloq nomini tilga oladi, **shulardan** 7 tasi *kat* so'zidan tarkib topgan. **Choch,** ya'ni Chirchiq bo'**yidagi** madaniy mintaqada Istaxriy qayd qilgan 27 shahar va qishloq nomlaridan 14 tasi *kat* so'zidan yasalgan.

Hozir ham aholi ko'pgina punktlari mahalliy xalq tilida hamon bundan ming **yilcha** oldingiday **Zarkat, Parkat, Piskat, Xo'jakat, G'azalkat** kabi talaffuz qilinadi. 30-yillarda *kent* komponentiga **nisbat** berilib, ular **Zarkent, Parkent, Piskent** shaklida yoziladigan bo'ldi. Bu **ham** ikki atamaning aslida bir ekanligini ko'rsatadi.

Katovul (kutvol) – Buxoro va Xiva xonliklaridagi yuksak lavozim. U xon mablag'i hisobiga imorat qurish ishlariga boshchilik **qiladigan** shaxs bo'lgan. Kutvol (katovul) so'zi hindcha bo'lib, «qo'rg'on boshlig'i» (komendant) demakdir. Hazorasp tumanida **Abdixoliq-katovul, Mamatkatovul** qishloqlari bor.

Kashar – ayvon **shaklida** qurilgan yarmi yopiq qo'yxona, chorva **qishlaydigan joylarda** chorvachilik xodimlari (cho'pon, zootexnik, **vetvrach) yashashi** va **qishlashi** uchun moslangan bino. Bunday binoni **ruslar** *koshara* deydi, ukrainlarda esa bu so'zning «chayla», «kulba» **ma'nosi** ham uchraydi. Qo'shrabot tumanida **Kashar**, Konimex tumanida **Kasharquduq** degan **qishloqlar** bor.

Kerayit – 92 bovli o'zbek qavmlari orasida tilga olingan qabila. Qozoqlar, qirg'izlar tarkibida **ham** uchraydi (*kerey* shakli ham qayd qilingan).

Turli manbalarda ***kerayit*** so'zi «qora qo'y», «qora odam» yoki «qarg'a» deb izohlangan. Etnonim oxiridagi «t» harfi ko'plik affiksi.

Navbahor, Koson, **Ishtixon**, G'uzor, Oqqo'rg'on tumanlarida **Kerayit** qishloqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus tumanida **Kereyit** ovuli bor.

Kesak – turkiy xalqlarda keng tarqalgan etnonim. Qirg'izlarda *kesek, jo'o'kesek*, qozoqlarda *qorakesak* degan urug', o'zbeklarda *mullakesak* va *mirzokesak*, boshqirdlarda *kese* urug'lari bo'lgan. *Kesak* so'zi «urug'larning bo'lingan, kesilgan parchasi» demakdir. Xo'jaobod, Jalaquduq tumanlarida **Kesak**, Qorako'l tumanida **Kesakli**, Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlarida **Qorakesak** qishloqlari bor.

Kechuv, kechik – daryo-soylarda piyoda, otda o'tish mumkin bo'lgan sayoz joy. **Yettikechuv** (Zomin tumani), **Qizilkechuv** (Yangiyo'l tumani), **Qorakechuv** (Piskent tumani) toponimlari bor.

Kiyikchi – o'zbek urug'laridan bo'lib, ko'chmanchi o'zbeklar, kesamirlar, mang'itlar tarkibida qayd qilingan. Qozoqlarda *kiyikshi*, turkmanlarda *kiyikli* urug'lari uchraydi. Kiyik – tog' echkisi (totem – urug'ning muqaddas hayvoni). Kasbi, Qamashi, Denov tumanlarida **Kiyikchi, Kiyikchiovul, Ovulkiyikchi** toponimlari bor.

Kom – «katta ariq», Buxoro yaqinidagi **Komizar, Komot, Shopurkom** gidronimlari ana shu atamadan tarkib topgan.

Koriz – yerosti suvlarni yer yuzasiga chiqarish uchun qazilgan murakkab inshoot, yer ostida qazilgan ariq, yopiq kanal. Koriz qazishda ko'plab quduqlar lahm (tunnel) bilan birlashtiriladi. Korizdan chiqqan tuproqni olib tashlash va keyinchalik korizni tozalash maqsadida har 7–10 metrda quduq qaziladi. Korizlarning uzunligi bir necha yuz metrdan bir necha kilometrgacha bo'lgan. Korizlar Turkmanistonning Kopetdog' tog'lari etaklarida, O'zbekistonda asosan Nurota tog'lari etaklarida, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Afrika (Sahroi Kabir) uchraydi. Koriz ba'zi joylarda *koxrez, kariz, qanat* (arabcha, ko'pligi qanavot) ham deyiladi.

Nurota, Xatirchi, Forish, Qo'shrabot tumanlarida **Koriz, Korizgoh, Qorizbuloq, Koriziston**, Xatirchi tumanida **Korizarab, Korizqiyot** degan qishloqlar bor. Zarafshon bo'yida (Panjakent shahri) yaqinida **To'qsonkoriz** degan ariq bo'lgan. Samarqand shahrining oltita darvozasidan biri **Korizgoh** deb atalgan.

Kunash (kunas) – quyoshga qaragan, oftob ko'p tushib turadigan joy, kungay, oftobro'y.

Kungay – tog'-qirlarning janubga qaragan, oftob tushib turadigan yonbag'irlari, umuman quyosh nurlari ko'p tushadigan joy, kunash (q. Oftobro'y). Masalan, Qirg'izstondagi Kungay Olatovi.

Kuran – ko'chmanchilar manzili (mo'g'ul tilida «halqa» demakdir). Ko'chmanchi mo'g'ullarning o'tovlari va arava uylari halqa shaklida o'rnatilib, kechasi chorva mollari va kishilar ana shu halqa ichida panoh topgan. Keyingi asrlarda bu so'z boshqacharoq ma'no kasb etgan. Masalan, Xiva xonligida atrofi devor bilan o'ralgan istehkom *kuran* deyilgan. Kuran so'zining «olomon», «qabila», «manzilgoh»,

«istehkom» ma'nolari ham bor. Ruscha *kuren* «uy (izba)» so'zi ham o'sha *kuran* so'zidan olingan. O'zbekcha *ko'ch-ko'ron* qo'shma so'zi tarkibidagi *ko'ron* mo'g'ulcha so'zdan kelib chiqqan.

Turkmanistonda **Kurandog'** tog'i, Navoiy viloyati Konimex tumanida **Kuran** qishlog'i bor. Lekin Buxoro tumanidagi *Ko'ron* qishlog'i nomi asli tojikcha «ko'rlar» (laqab) bo'lsa kerak.

Ruscha kuren so'zi Rossiya, Ukraina va Belorussiyada bir qancha toponimlar hosil qilgan.

Kutvol (katovul) – Buxoro va Xiva xonliklaridagi lavozim (q. *Katovul*).

Ko'l – quruqlikdagi chuqurliklarni to'ldirib turgan suv havzasi. **Qorako'l, Sho'rko'l, Ko'kko'l** kabi ko'plab gidronimlar hosil qiladi. Ba'zan suvsiz katta chuqurlik ham *ko'l* deyiladi. Masalan, Zomin tumanida tog'lar orasida Ko'l (Ko'lsoy) degan katta chuqur soylik bor. Ehtimol bu yerda bir vaqtlar ko'l bo'lgan.

Ko'rpa – joy nomlari shaklida uchraydigan qadimiy atama va etnonim. bu so'zning «qavilgan yopinchiq» ma'nosidagi forscha-tojikcha so'zga aloqasi yo'q. Qadimiy turkiy tilda *ko'rpa* so'zi bir necha ma'noni anglatgan. Tarixiy yodgorliklarda *ko'rpa* so'zining «barra o't», «yosh bola», «qo'zichoq», «uloqcha», «buzoqcha», «kepak» ma'nolari qayd qilingan. Lekin bu so'zning ko'pgina ma'nolari unutilgan, shunga qaramasdan ba'zi joylarda barra bedani «beda ko'rpa bo'lib qolipti» deyishadi.

Ko'rpa, Ko'rpasoy, Ko'rpaqishloq, Ko'rpacha, Yangiko'rpa kabi toponimlar *ko'rpa* degan urug' nomidan olingan. Urug'larning hayvon nomlari bilan ham atalganini hisobga olsak, ko'rpa etnonimi «qo'zichoq» degan ma'noni bildiradi. Chunonchi, mashhur tilshunos Abu Xayyon al-Andalusiy (XIII asr) asarlarida ko'rpa so'zi ana shunday izohlangan.

Qirg'iz tilida qo'zichoqning jingalak terisi (mo'ynasi) *ko'rpo'* deyiladi.

Ko'tal – «dovon», «tog' yo'li». Shuningdek, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston, Eron va Ozarbayjonda *ko'tal, ko'tel, xutel* shakllarida joy nomlari tarkibida uchraydigan geografik atama. *Ko'tal* so'zi ham dovon atamasi kabi mo'g'ulcha degan fikr bor. *Ko'tal* pastroq dovonni bildiradi.

Ko'h – tog', tog' cho'qqisi. Jonli tilda va toponimlar tarkibida *ku, kuy, ko'y,* Badaxshonda *xuf* shakllarida uchraydi. Osiyoning janubiy tog' o'lkalarida ko'plab toponimlar hosil qilgan. Farg'ona vodiysi bilan Janubiy Tojikiston orasidagi ulkan tog'li maydon **Ko'histon** («tog'lar o'lkasi») deb atalgan. *Ko'h* atamasining kichraytirilgan shakli – *ko'hak* «qir», («kichik tog'», «tepalik») ko'plab toponimlar tarkibida uchraydi. Masalan, Samarqand shahri yaqinidagi mashhur Cho'ponota tepaligi **Ko'hak** deb atalgan; shuning uchun ham Zarafshonning bir nomi **Obi Ko'hak** edi. Bo'stonliq tumanida ham **Ko'hak** degan joy bo'lgan.

Lab (forscha-tojikcha) – dudoq, irin (turkiy). Toponimiyada «qirg'oq», «yoqa», «chet» ma'nosida keladi. Zarafshon vodiysida **Labiob** («suv labi»), **Labijo'y** («ariq labi»), **Labirut** («daryo labi») kabi toponimlar uchraydi (Buxoro shahridagi **Labihovuzni** eslang).

Lalmi – sug'orilmaydigan, yog'in-sochindan suv ichadigan, bahori; lalmikor, bahorikor – yog'in suvidan foydalanib dehqonchilik qilinadigan, yog'in suvi bilan unadigan, sug'orilmaydigan. **Lalmikor, Lalmipoya** kabi toponimlar oz emas.

Langar – joy nomlari tarkibida uchraydigan ko'p ma'noli atama: 1) kema langari; 2) langar cho'p (darboz tayog'i); 3) soat kafgiri; 4) ibodatxona; 5) mashhur kishilarning qabri, mozor; 6) karvonsaroy; 7) bekat; 8) kambag'al, yetim-esirlarga ovqat ulashiladigan joy, g'aribxona. Langar so'zi «Boburnoma»da qabr, ibodatxona ma'nosida uchraydi. Langar degan o'zbek urug'i ham bor.

Laqay (loqay) – o'zbek qabilalardan biri. Laqaylar hozirgi Tojikistonning janubiy tumanlarida, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida, shuningdek, Shimoliy Afg'onistonda yashashgan. Ko'plab tarmoqlarga bo'lingan. Etnograf B. Karmisheva laqaylarning 155 urug'-shoxlarini yozib olgan. Toponimlar shaklida uchraydigan urug'-tarmoqlardan *esonxo'ja, bodroqli, baljuvon, suyunduk, kuyunduk, burunduk, norin, bayram, to'rtovul, o'tarchi, tuyachi, mirzagul, oltmish, malish, qarmish, qizilboy, shekey, devet, chegana, chol, gurguru* kabilarni aytib o'tish mumkin.

Qabila nomi Chingizxonning lashkarboshisi Loqay ismidan olingan degan rivoyat bor.

Loy – yumshoq va yopishqoq ho'l tuproq, botqoq. O'rta Osiyoda *loysuv* yoki *loyob* – ko'plab qum va mayda jinslarni oqizib keladigan

muzlik va toshqin suvlari. Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida **Loyliq**, Qashqadaryo viloyati Qamashi, Jizzax viloyati Baxmal, Jizzax tumanlarida, Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida **Loyqa** («botqoqlik») toponimlari uchraydi. Samarqand shahri yaqinida loy uchun tuproq olinadigan **Loyiston** koni bor.

Mavze (arabcha «dala») – muayyan joy, o'rin. Tarixiy asarlarda shaharlardan uzoqdagi kichikroq maydon, jang qilish uchun qulay joy mavze ma'nosida keladi. Toshkentda shahar atrofidagi dala-bog'lar mavze deyilgan.

Mazang – baqqolchilik, shuningdek, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan to'li. G'ijduvon tumanida **Mazangko'cha**, Uchko'prik tumanida **Mazanglik** qishloqlari qayd qilingan.

Maydon (arabcha) – sayxonlik, ochiq yer. Atama ayniqsa Kavkaz va O'rta Osiyoda «dala», «yalanglik», «bozorjoy», «tekislik» kabi ma'nolarda tushuniladi. Turkiy tillar orqali rus tiliga «guzar», «shahar maydoni» ma'nolarida kirib borgan. *Maydon* so'zi Ukraina, Belorusiya, Ruminiya, Polsha, Bolgariya, Yugoslaviya kabi mamlakatlarda ham orfografik va semantik tovlanishlar bilan qo'llaniladi. U barcha mamlakatlarda ko'plab toponimlar hosil qilgan (**Maydon, Maydonsoy, Maydontol**).

Mang'it – qabila. Mang'itlar Zarafshon vohasi, Qarshi atroflari, Xorazm vohasida, Jizzax atroflarida yashagan va *oq mang'it, qora mang'it, och mang'it, chala mang'it, boyg'undi mang'it, temirxo'ja, isoboy, gadak, ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula tamg'ali, mang'it qozoq, o'n ikki, cho'qay, galabotir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay* kabi urug'larga bo'lingan.

Xatirchi, Jondor, Ishtixon, Xo'jaobod, Jomboy, Bulung'ur, Qamashi, Qarshi, Chiroqchi, Xiva tumanlarida **Mang'it**, Buxoro, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Peshku, Xatirchi tumanlarida **Mang'iton**, Urgut tumanida **Mang'itobod** toponimlari qayd qilingan.

Marza – ekin dalalari. Pollar orasida tevarak-atrofdan balandroq uzunasiga ketgan chegara, uvat. Arabcha *marz* (yoki *mazraa*) «yer», «hudud», «dala». O'zbeksiton, Tojikiston, Eron, Ozarbayjonda ko'plab toponimlar, mikrotoponimlar hosil qilgan.

Marqa – yuz qabilasining bir tarmog'i *marqayuz* ham deyiladi. Marqa «katta, ulkan» degan so'z. Marqa qo'zi – ertaroq, mart oyidan

oldin tug'ilgan qo'zi, egiz qo'zilarning oldin tug'ilgani (qirg'iz tilida buning aksi, marqa – «kenja qo'zi», marqa qo'zi «qo'zichoq»). Etnograf M.F. Gavrilovning materiallariga ko'ra, *marqa* (marqa yuz) yuz qabilasining eng katta tarmog'i, urug' boshining katta xotini – boybichadan tarqalgan. Rus geografi G.Y. Grumm-Grjimaylo, qozoq olimi M. Tinishpayevlar qozoqlarda ham *marqa* urug'i borligini qayd etgan.

Turkman urug' nomlari orasida *marxa* degan etnonim qayd qilingan (ma'nosi «soddadil»). Andijon viloyati Asaka tumanida **Marqayuz** degan qishloq bor.

Marg'zor – o'tloq, maysazor. Norin, Pop tumanlaridagi **Morguzar** qishloqlarining asli nomi **Marg'zor** bo'lsa kerak.

Masjid, machit – ibodatxona. Bundan tashqari qadimda uning *machit* shakli bir necha ma'noga ega bo'lgan: 1) bir-biridan uzoqroq joylashgan bir necha tarqoq xonadonlarni birlashtirib turgan muassasa. Bunda machit xonadonlar qaysi manbadan suv ichsa, o'sha suv nomi bilan atalgan; chunonchi, Xorazmda ana shunday bo'lgan; 2) katta qishloqlarning bir qismi, ba'zan shaharlarning mahalla yoki guzari ham machit nomi bilan atalgan; 4) qishloq bilan machit bir ma'noda ishlatilgan, ya'ni ikkalasi bir nom bilan yuritilgan.

Mashat – kamsuv buloq; q. Bashat.

Mahalla (arabcha *hal* – "joylashmoq, o'rin olmoq", *ma* – "o'rin", "joy" ma'nosidagi old qo'shimchasi) – shaharning yoki katta qishloqning bir qismi, ba'zi bir tillarda – shahar chekkasi, shahar atrofi; ko'plik shakli mahallot tarixiy manbalarda, masalan, «Boburnoma»da «shahar atrofi» ma'nosida keladi. E.M. Murzayev bu so'z Tyanshan tog'lari va Hindistondan tortib Pireneya yarim oroligacha uchraydi deydi va Hindiston bilan Pokistonda «saroy» toponimi ham shu atamadan yasalgan deb biladi (Toj Mahal saroyi). Aslida arabcha «vaqt», «fursat» ma'nosidagi *mahal* so'zining ham «o'rin», «joy» ma'nosi bor. Shuning uchun bo'lsa kerak O'zbeksitonda bu so'zning *mahalli* shakli ham uchraydi: **Mahallibolo, Mahalliqozi, Mahallipoyon, Mahallishexon** va b. Bu o'rinda tojikcha izofaning (masalan, mahallai qozi) o'zgargan shakli bo'lishi ham mumkin.

Mesit, masit, misit – o'zbek urug'laridan biri. Mesit, yobu (jobu), tama urug'lari birlashmasi tarixda «uch urug'» deb atalgan. XIX asr

oxiri, XX asr boshlarida mesitlar Buxoro vohasida, Narpay tumani hududida, Qashqadaryoning quyi oqimida yashagan.

Kasbi, Navbahor tumanlarida **Mesit** qishloqlari bor.

Mextar – Buxoro xonligida musulmonlardan zakot yig'ish. Musulmonlarga bo'ysungan g'ayridinlar mulkidan 20/1, qurol ishlatib zabt qilingan kofirlardan 1/10 bo'lak miqdorida soliq olish, shuningdek, egasi noma'lum bo'lgan mulklarni tasarruf qilish ishlari bilan shug'ullangan mansabdor (mextari kalon). Bulung'ur tumanida **Mextar** degan qishloq qayd qilingan.

Ming (mingli), minglar – o'zbeklarning yirik qabilalaridan biri. XIX asr boshlarigacha minglarning ko'pchilik qismi hozirgi Samarqand, Jizzax viloyatlari, qisman Farg'ona vodiysi hamda Buxoro vohasida, tarqoq holda Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida, Tojikistonda esa Hisor vodiysida yashagan. Minglarni ba'zan **tumon** yoki **tumonming** deb ham atashgan. Zarafshon vodiysida minglar uch urug'ga va bir qancha tarmoqlarga bo'lingan: 1) *to'g'ali* (ahmat, chag'ir, to'yinamoz, oqshiq va b.); 2) *uvoq tamg'ali* (alg'ol, chaut, jayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyuxo'ja, yarat); 3) *bog'lon* (chubli, qora, mirza va b.).

Minjir – o'zbeklar va qoraqalpoqlar tarkibidagi *kenagas* qabilasining bir urug'i. Yakkabog', Kitob, Shahrisabz, Urgut, Chimboy tumanlarida **Minjir** qishlog'i qayd qilingan.

Minor, Minora – baland bino. Joy nomlari shaklida ko'p uchraydi. Masalan, Jarqo'rg'on tumanida **Minor**, Denov tumanida **Minora** qishloqlari bor. Toshkent shahrida **Minor** mahallasi mavjud. Eronda Menor (Menore) shaklida «mash'al», «fonus», «ustun», «minora» ma'nolarida ko'plab toponimlar hosil qilgan.

Mirishkor, merishkor, murushkor – o'zbek millati tarkibiga kirgan qadimiy qabila, aniqrog'i ijtimoiy va hatto professional guruhlar. Miri shikor – «ov hokimi», amiri.

Kasbi, Namangan, Uchqo'rg'on, Qorako'l, Qarshi tumanlarida **Mirishkor** qishloqlari qayd qilingan.

Miroxur – xonliklarda saroy otxonalariga boshchilik qilgan mansabdor yoki xiroj va boshqa daromadlarni nazorat qiluvchi amaldor (aynan «oxurning boshlig'i»). Xiva, Buxoro shaharlari atroflarida **Miroxur**, Samarqand shahri yaqinida **Miroxuri** qishloqlari qayd qilingan.

Mitan – Zarafshon vodiysida toponimlar shaklida uchraydigan va «qishloq» ma'nosini anglatuvchi atama. Tarixchi O.I. Smirnova shunday yozadi: «Bu komponent eroniy *mayedana* so'zidan olingan bo'lib, «turar joy», «uy» degan ma'noni anglatadi. Yangi fors tilidan *mehan* (arabcha *vatan*, sug'diycha *medan* – «turar joy», «uy») ana shu *mayedana* (mediana) so'zidan kelib chiqqan».

Arxeolog va tarixchi V.Y. Vyatkin «Farmitan toponimi tarkibidagi mitan so'zi «istehkom», «qal'a» degan ma'noni anglatadi» degan edi. Mitan atamasining asl ma'nosi manbalarda turlicha. Bir o'rinda «qishloq» deyilsa, ikkinchi bir manbada «turar joy», «vatan», uchinchi bir asarda esa «qal'a», «istehkom» deb izohlangan.

Shuni unutmaslik kerakki, qadim zamonlarda har bir shahar, har bir qishloq va hatto har bir ko'cha o'ziga xos qal'a, qo'rg'on hisoblangan va o'zbek xo'jaliklari soni qancha bo'lsa, mamlakatda qal'alar ham deyarli shuncha bo'lgan, deb ta'kidlanadi 20-yillar tarixiy manbalarida.

Mitan komponentli toponimlar juda qadimiy. Masalan, **Romitan** haqida akademik V.V. Bartold shunday deydi: «Hozirgi vaqtgacha o'z nomini saqlab kelgan Romitan istehkom qishlog'i Buxoro atrofidagi eng ajoyib qishloqlardan biridir. Bu qishloq «qadimgi Buxoro» hisoblangan, ya'ni Buxoro hokimining qadimgi rezidentsiyasi shu yerda bo'lgan. Buxoro barpo qilingandan keyin ham mahalliy hokimlar ko'pincha Romitanda qishlab qolar edi. Romitanni afsonaviy Afrosiyob barpo qilgan deb hisoblaydilar. Afrosiyobning raqibi Kayxisrav Romitanning ro'parasida, ya'ni ariqning narigi betida Romush degan qishloq barpo qilgan va bu qishloqqa otashparastlar ibodatxonasi qurgan. Bu ibodatxonaga somoniylar davrida ham cho'qinishgan».

Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida Romitanni (Romtinni) «Qadimgi Buxoro» deb emas, balki «Buxorodan qadimiyroq» degan. Bu qishloq nomi shunday yozadi: «Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo'lib, uning doimo boshi og'rir edi. Romitanga kelib turib qolgandan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan xalos bo'ldi va bu joyga Oromitan «tan oromi» deb nom qo'ydi. Oddiy xalq tilida esa bu «Romtin» bo'lib ketgan».

Zarafshon vodiysida **Urmitan** (Tojikiston), **Farmitan**, **Shirmitan**, **Navmitan, Sanjamitan, Chormitan** kabi toponimlar (ariqlar va qishloqlar) qayd etilgan (bu atama *mitan, metan, meton* shakllarida talaffuz qilingan).

Bir xil talaffuz qilinadigan so'zlar har doim ham bir xil ma'noni anglatavermaydi.

Mitan atamasidan tashqari *titan* degan qabila (etnonim) ham bo'lgan.

Quyidagi toponimlar *mitan* qabilasi nomi bilan bog'liq deb hisoblaymiz: **Bo'rimitan, Mitanazizxo'ja** (Kitob tumani), **Oqtepamitan, Qo'shtepamitan, Qoraariqmitan** (Bulung'ur tumani).

Respublikada bir qancha tumanlarida (Ishtixon, Jomboy, Oqqo'rg'on) **Mitan** nomli qishloqlar bor. Bularning ko'pchiligi ham o'sha qabila nomi bilan atalgan.

Mitan (muyten) qabilasi qoraqalpoqlar tarkibida ham bor (**Muytenovul** toponimi).

Mitan (muyten) so'zini mitanlar o'zlari mo'ytan (sermo'y, serjun) so'zidan olingan deb izohlaydi.

Mojor – ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi qabila. Mojorlar XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Samarqand atrofidagi tog' etaklarida, Shahrisabz vohasida yashagan. Ular Vengriyaning asosiy xalqi madyarlar (mojorlar) bilan qon-qardosh qavm deb hisoblanadi.

G'uzor, Chiroqchi, Paxtachi, Narpay tumanlarida **Mojor** degan qishloqlar qayd qilingan.

Mozor – qabriston, go'r, qabr (mozoriston, mozorot ham deyiladi). Musulmon mamlakatlarida ko'plab toponimlar hosil qilgan. O'zbekistonda **Mozor, Mozorbuva, Mozorko'cha, Mozortagi, Mozorboshi, Qoramozor** kabi toponimlar uchraydi. Arabcha *zara* «ziyorat qilmoq», «borib yo'qlab turmoq», *mo-* old qo'shimcha «o'rin», «joy» ma'nosini bildiradi.

Mozorguzar, asli *marg'zor* – o'tloq, pichanzor. Pop, Norin tumanlarida **Morguzar** degan qishloqlar qayd qilingan.

Mumlay – shevalarda mumiyoni shunday deyishadi. Sherobod tumanida **Mumlayxona** degan tog' bor.

Musobozori, muso – O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelgan o'zbek qabilalaridan biri. 20-yillarda musobozorilar Hisor tizmasining janubiy yonbag'irlaridagi 30 dan ortiq qishloqda yashagan va *chori, kulobi, yulmo, kaltatoy, tojik* kabi mayda urug'larga bo'lingan. Qashqadaryo

(Kitob, Shahrisabz tumanlarida), Surxondaryo viloyatlarida **Musobozor** (Musobozori), **Musobozorcha** degan qishloqlar bor.

Mutavalliy (arabcha «ish boshi», «boshqaruvchi» demak) – diniy muassasa ixtiyoriga foydalanib turish uchun berilgan yoki vasiyat qoldirilgan vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Xiva tumanida **Musamutavalliy**, Hazorasp tumanida **Haydarmutavalliy** degan qishloqlar bor.

Mug'ot – O'rta Osiyo lo'lilari o'zlarini shunday aytadi. *Mug'* «otashparast» so'ziga arabcha ko'plik affiksi *-ot* qo'shilib yasalgan. Vobkent tumanida **Mug'ot** degan qishloq qayd qilingan.

Mo'la, mo'latosh – tosh-qumdan yasalgan belgi bo'lib, kamida odam bo'yi keladi. Ba'zan *qorovul* ham deyiladi. Turli masofalar belgisi yoki mulkchilik chegarasi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa kerak. Mo'la so'zining *burj*, ya'ni «minora» ma'nosi ham bor. Qozoqlar qabrni *mo'la* deyishadi. Hisor tog'larida *mo'la* deganda dovonni tushunishadi. Forish, Koson tumanlarida **Mo'lali** qishloqlar bor.

Mo'ltoni – O'rta Osiyo lo'lilarining bir nomi. Mo'lton – Pokistonning shimoli-g'arbidagi shahar; Eron bilan Turon orasidagi karvon yo'li yoqasida bo'lgan shu shahardan lo'lilar O'rta Osiyoga o'tgan. Yangiariq tumanida **Multoni** degan qishloq uchraydi.

Mo'yun, bo'yin toponimiyada – daryoning muyulishi, tog'ning burilish joyi, kambar akvatoriya. Qozoq va qoraqalpoq tillarida *mo'ynoq* (mo'yun so'zining kichraytirilgan shakli) ham shu ma'noni anglatadi (mo'ynoq it – bo'yni oq it). Tuyamo'yun, tuyabo'g'iz – daryoning burilib oqqan, tuyaning bo'yniga o'xshab egilib ketgan joyi. Toponimlar: Amudaryoning quyi oqimidagi muyulishi Tuyamo'yin, Ohangaron daryosining muyulishi – Tuyabo'g'iz (suv ombori, qishlog'i), Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Mo'ynoq shahri.

Navkar – xon, podsholarning harbiy xizmatchisi. U hukmdorning mol-mulkini qo'riqlagan va harbiy yurishlarda ishtirok etgan. *Navkar* mo'g'ulcha *no'kar* so'zidan bo'lib, «do'st», «yo'ldosh» demakdir. Navbahor, Kogon, Navoiy tumanlarida **Navkar** qishloqlari qayd qilingan.

Nay – qamish. **Nayiston** – «qamishzor» (qishloq), **Naynova** – «qamishdan, g'aroyдan qilingan quvur» (mikrotoponim).

Nayman – yirik qabila uyushmasi. Ko'plab turkiy xalqlarning

tarkibiga kirgan. XIX asrning 70-yillarida o'zbek-naymanlar Zarafshon vodiysida, Farg'ona vodiysi va Xorazmda yashaganlar.

O'zbek-naymanlar XIX asrning oxirida 3 ta yirik urug'ga bo'lingan: jo'shtamg'ali, sadirbek va uvoxtamg'ali. Bulardan tashqari o'zbek-naymanlarning toponimlar shaklida qayd qilingan ko'pdan ko'p urug'lari bo'lgan: ag'ran, ayronchi, badir, biya, bag'anali, boltali, bo'qalay, burunsov, jag'albayli, jastavon (jeztovon), jilonni (ilonli), jumaloqbosh, oltiota, oltio'g'il, oqto'nli, po'latchi, sagizuruv (sakkiz urug'), sarinayman, to'rtuul (to'rt o'g'il), to'rttamg'ali, urguch, ukrash, changali, cho'michli, qarg'ali, qozoyoqli (g'ozoyoqli), qorabayman, qoragadoy, qorasira (qorasiyroq), qiltamg'ali, qo'ltamg'ali va boshqalar.

Etnograf N.A. Aristov *nayman* so'zi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan edi. Ko'pgina olimlar fikrlariga ko'ra naymanlar asli turkiy qabila bo'lib, *nayman* so'zining ma'nosi «sakkiz» demakdir: sakkiz o'g'izlarni mo'g'ullar o'z tiliga moslab *nayman* deb ataganlar.

Nayman etnonimi toponimlar shaklida boshqa turkiy xalqli respublikalarda ham uchraydi.

Namak – tuz, turkmanchada *namag* – «sho'rxok botqoqlik», forscha-tojikchada – *namakzor, namaksor* (sho'rxok, sho'r ko'l, tuz koni). Tojikistonda **Darainamak** degan soylik va soy, Turkmanistonda **Namaksar** nomli sho'rxok, Eron va Afg'onistonda **Namakzor** («tuz koni») degan sho'rxoklar va ko'llar bor.

Naqib – Buxoro xonligidagi harbiy lavozim. Ma'nosi «biron jamoa va qabilaning e'tiborli kishisi» degani. XVII–XIX asrlarda Buxoro xonligida naqib qo'shinning tuzilishi, qurol-yarog'i, yurishi, uning old va orqa qismi, markazi, o'ng va so'l qanotlari qayerda ekanini yaxshi biladigan shaxs bo'lgan. Samarqanddan quyiroqda Zarafshon bo'yida **Mulkinaqib** («naqibning mulki») degan qishloq bor.

Nahr (arabcha, ko'pligi anhor) – kanal, daryo. Farg'ona viloyatidagi **Ulug'nor** kanali nomining asli **Ulug'nahr**.

Nebo'sa – o'zbeklarning yuz qabilasi tarkibidagi urug'. Zomin, Bulung'ur tumanlarida **Nebo'sa** degan qishloqlar va mikrotoponimlar bor.

Nekuz, nekus, nukus – o'zbeklar tarkibiga ham kirgan umum-

turkiy etnonim. Abulg'ozi Bahodirxon o'zining «Shajarai turk» asarida **nuguzlarning** mo'g'ullar avlodi ekanligini qayd etgan.

Koson, Shahrisabz tumanlarida **Nekuz** qishloqlari, Amudaryo, Chimboy tumanlarida **Nukusovul** ovullari bor.

Nov, nova, novdon – soylik, pastlik, jilg'a ariq, kanal; *novadon* – usti yopilgan ariq. Yakkabog', Chortoq, Yangiyo'l tumanlarida **Nov**, Marhamat, Shofirkon, Bo'z, G'ijduvon tumanlarida **Novboshi** qishloqlari bor. Biroq **Navobod, Navbog'** kabi toponimlar bu jumlaga kirmaydi (*nav* – yangi).

Novur – tog' yonbag'ridagi tik soylik. Novurda ko'pincha tepadan tushgan katta-kichik tosh parchalari – *g'o'rum* (q. *Qo'rum*) hosil qilgan bo'ladi. U toponim va mikrotoponimlar shaklida uchraydi, masalan, Boysun tumanida **Qizilnovur**, Turkmanistonda *Murg'ob* va *Tajan* daryolari havzasida **Nobur** («katta kanal») toponimlari bor.

Nur – yorug'lik, shu'la, ziyo, yog'du. Prof. E.M. Murzayev aytganidek, bu arabcha so'z aslida geografik atama emas, lekin O'rta va Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning geografik nomenklaturasida mavjud. Masalan, Nurota toponimi asli **Nuri Buxoro** bo'lgan, chunki Samarqand yaqinida **Nuri Miyonkol** degan joy bor edi.

O'zbekistonda **Nurafshon, Nuriston, Nurchilar** kabi toponimlar keyingi davrlarda elektr tarmoqlarining rivojlanishi bilan paydo bo'lgan.

Nura – jar, o'pirilib ketgan jarlik. «Yemirilmoq, o'pirilmoq» ma'nosidagi *nuramoq* fe'lidan. Yakkabog', G'uzor tumanlarida **Qo'shnura, Oqnura** degan toponimlar qayd qilingan.

Ob – suv, daryo, soy. Joy nomlari tarkibida *op, ov, ou* shakllarida ham uchraydi. Yag'nob tilida *ov* – «suv», tojik va yagob tillarida *oba* – «sel», «toshqin tog' suvi», urdu tilida *ab* – «toshqin». Kopetdog'da «issiq buloq suvi»; fors tilida *obdara* «tor dengiz qo'ltig'i», Tojikistonda «suv to'lib qolgan dara», «tabiiy suv ombori» ma'nolarini bildiradi. Shuningdek, mazkur so'zdan toponimlar tarkibida uchraydigan bir qancha qo'shimchalar yasalgan. Masalan, *obod* «o'zlashtirilgan suvli hudud», *obikor* – «sug'orma dehqonchilik», *biyobon* – «suvsiz cho'l», *obiravon* – «oqar suv», *obi rahmat* – «rahmat yog'diruvchi suv» (qor-yomg'ir suvi), *ob raha* – «suv yo'li», «ariq», *duoba* – «ikki suv qo'shilgan joy»; Xorazmcha «ariq» ma'nodagi *yop* so'zi ham asli *ob* so'zidan kelib chiqqan.

Shu atamadan va uning talaffuz shakllaridan tarkib topgan toponimlar Osiyo qit'asining deyarli hamma hududlarida: Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston, G'arbiy Xitoy, Eronda, Afg'onistonda, Hindistonda, Sibirda, hatto Rossiyaning Yevropa qismida ham ko'plab uchraydi.

Obdon – «suvxona», «suv ombori», «sersuv joy». Suv inshooti, sardobaning kichikroq turi ham *obdon* deyilgan. Toshkent viloyati Piskent shahri yaqinida **Obdon** (sersuv) degan tog' bor.

Obod – «o'zlashtirilgan», «obodonlashtirilgan» ma'nosidagi so'z-affiks. Sovet hokimiyati yillarida bu grammatik qo'shimchadan mafkuraviy niqob sifatida foydanildi. Respublikamizda *obod* unsuri 400 dan ortiq shahar-qishloq nomlari tarkibida takrorlangan edi.

Aslida bunday nomlar XI–XIII asrlarda yashagan geograflarning asarlarida ham uchraydi. Masalan, XIII asr boshlarida Yoqut Hamaviy tomonidan yozilgan ko'p jildli «Mu'jam ul-buldon» asarida bunday deyilgan: «*Obod* unsuri shaharlar, qishloqlar va rustoqlar (bir guruh qishloqlar) nomlari tarkibida uchraydi. Masalan, Asadobod, Rustamobod, Husnobod...» *Asad* odamning ismi, *obod* esa fors tilida aholi punkti nomi, binobarin, bu nomning ma'nosi «Asadning qishlog'i» demak. *Obod* asli *ob* «suv» so'zidan kelib chiqqan.

Ovloq – ov qilinadigan jonivorlar ko'p joy; markazdan uzoq, chet joy. Mikrotoponimlar hosil qilgan.

Ovul – «qishloq va boshqa ma'nolarda hamda Kichik Osiyodan Tinch okeangacha avul, aul, avo'l, ayo'l kabi fonetik variantlarda uchraydigan atama. Xronologik jihatdan *qishloq* so'zidan oldin paydo bo'lgan bu atama XV–XVI asrlarda kelgan ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlashishi (*qishlov* – «qishlanadigan joy»), oqibati bo'lsa, *ovul* ko'proq *ayil* shaklida «o'tov», «bir to'p o'tov» ma'nosida ancha oldin mavjud bo'lgan. O'zbekistonda *ovul* so'zidan tarkib topgan o'zbek qishloqlari ko'p; Janubiy O'zbekistonda *ovul* so'zi «qishloq», «kichikroq qishloq» ma'nosida hamon ishlatiladi. «Molxona», «qo'ra» ma'nosidagi *og'il* so'zi ham genetik jihatdan *ovul* so'zi bilan ma'nodosh.

Odoq – biron narsaning past tomoni, etak tomoni, soy-daryoning quyi oqimi. G'ijduvon tumanida **Odoq**, Vobkent tumanida **Odoqariq,** Qamashi tumanida **Odoqjonboz** toponimlari bor. *Odoq, oyoq, etak* so'zlari asli bir so'zning fonetik shakllari. *Oyoq* so'zining toponimi-

yada «etak»dan tashqari «idish-tovoq» ma'nosi ham bor. Masalan, itga ovqat berish uchun yerni o'yib yoki loydan yasalgan chuqurcha *itoyoq* deyiladi. Tojikistonning Jergetol vodiysidagi qirg'izlar o'ta badavlat, idish-tovoqlari ham tilladan bo'lgan boylarni *qiziloyoq* deyishadi («qizil» – oltin, tilla). **Qiziloyoq** degan toponim ham bor.

Oybek – o'zbek urug'laridan biri, qirg'izlarda adigine qabilasining bir urug'i. Chinoz tumanida **Oybek,** Bulung'ur tumanida **Oybekto'p** qishloqlari bor. Surxondaryodagi To'polondaryoning bir irmog'i Oybeksuv deb ataladi. Afg'onistonda **Aybak** degan shahar bor. *Aybaki charm* shu shahardan keltirilgan bo'lsa kerak (aybaki maxsi).

Oyinli, oyinni – qo'ng'irot qabilasining bir bo'limi. Etnonimga *oy* so'zi asos qilib olingan. Urug' tamg'asi yarim oy – hilol (o'roq) shaklida bo'lgan ekan. Sherobod, Termiz, Jarqo'rg'on tumanlarida **Oyinni, Oyinniariq, Oyinnishoh** toponimlari uchraydi.

Oytamg'ali – do'rmon, qipchoq, qurama, qo'ng'irot kabi o'zbek qabilalari tarkibiga kirgan urug'. Tamg'asi yangi oy (hilol) shaklida bo'lgani uchun shunday atalgan.

Narpay, Payariq, Go'zalkent, Forish, Oqqo'rg'on, Oqdaryo tumanlarida **Oytamg'ali** qishloqlari bor.

Olatov, Olatog' – qorli baland tog'. Asli *ola* rang ma'nosida emas, balkim ulug' (ulu) so'zining fonetik varianti bo'lib, «yuksak», «baland» demakdir. Mo'g'ul tilida *ola* – «tog'» degani.

Olish, alish – ariq yoki soyning suv chiqarish uchun to'silgan joyi, suv taqsimlagich, quloq, dahana. Pop tumanida **Olish**, Toshloq tumanida **Ucholish** qishloqlari Isfayramsoy-Shohimardonsoy suv tizimining **Besholish** tarmog'i bor.

Olchin (alchin) – bir qancha turkiy xalqlar, jumladan, qozoq, tatar, no'g'ay, o'zbek (qovchin, qatag'on) qabilalari tarkibiga kirgan qabila ittifoqi. Olchin o'zbeklar Buxoro vohasida, Qashqadaryo viloyatining hozirgi Kasbi tumanida yashaganlar va alimuli, boyuli, jetiuruv urug'lariga, ularning har biri, o'z navbatida, 6 ta urug'ga bo'lingan. Bog'dod, To'raqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Navbahor, Navoiy, Gurlan, Bag'dod, Payariq, Narpay, Xatirchi tumanlarida **Olchin,** Bog'ot tumanida **Olchinsolma**, Oqdaryo tumanida **Olchintepa** qishloqlari bor.

Otaliq – ijtimoiy atama; 1) Xiva xonligida eng obro'li kishi, biy.

Xorazmda **Gadoyotaliq, Do'smonotaliq, Tangriotaliq, Eshniyozotaliq** kabi qishloqlar bo'lgan; 2) Buxoro xonligida «ota kabi aziz kishi», xonlikdagi eng katta amal – vazir. *Otaliq* Buxoro xonligi hayotida XVII–XVIII asrlarda ayniqsa katta rol o'ynagan va xonlarning (amirlarning) tayanchi hisoblangan. Xon davlatni boshqarishda otaliq maslahatlari bilan ish ko'rgan. Otaliq mamlakatda sug'orish va qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

Otchopar – otlarni minib ko'pkari (uloq) chopish musobaqasi o'tkazish uchun qulay tekis maydon. Ba'zi joylarda *uloqchopqich* yoki *ko'pkarichopqich* deyiladi. Mikrotoponimlar shaklida ko'p uchraydi. Andijon, Navbahor, To'rtko'l tumanlarida **Otchopar**, Taxtako'pir tumanida **Otshabar** degan qishloqlar bor.

Oftobruy, oftobruya – oftobga, ko'proq janubga qaragan yonbag'ir. O'zbekchasi *kungay*, oftob kam tushadigan, shimolga qaragan tomon esa soyaro'y, o'zbekchasi *teskay* (terskay).

Koson tumanida **Oftobro'y**, Kitob tumanida **Oftobro'ya** qishloqlari, Dehqonobod tumanida **Terskay** qishlog'i bor. Qishda oftob ko'p tushadigan joy *kunchuvoq* (Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalarida *kunshuvoq*) yoki *oftobchuvoq* (qisqartirilgan holda *chuvoq*) deyiladi.

Oqbuyra – o'zbek qipchoqlarning urug'i. Qozoqlarning arg'in, nayman, suan qabilalarida oqbo'ra (aqbura), qirg'izlarning adigine qabilasida *oqbuura* (*akbuura*) urug'lari bo'lgan. Oqdaryo tumanida *Oqbuyra*, Tomdi tumanida *Oqbura* oykonimlari qayd qilingan. Shu bilan birga o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasining bir urug'i, shuningdek, qozoqlarning jetiru va boyuli qabilalarining bir urug'i *qorabura* (qorabuvra, korabuyra) deb atalgan. **Qorabug'ra** (Qorabuvra) degan toponimlar bor: ***Buvra, bugra, bura*** – erkak tuya urug'ning muqaddas jonivori hisoblangan.

Oqlar – turkmanlarning ersari qabilasida *oqlar* (aqlar) degan urug' bo'lgan. Denov tumanida **Oqlar** (Yuqori Oqlar, Past Oqlar) degan qishloq bor. Umuman *oq* (okcha), *qora* (qoracha) toponimlar tarkibida etnonim shaklida uchraydi.

Oqmachit – XVIII–XIX asrlarda Buxoro xonligida qurilgan masjid. *Oq* so'zi xonlikka qarashli ekanligiga, hajmi kattaligiga ishora. Urgut, Qiziltepa, Samarqand, O'zbekiston tumanlarida **Oqmachit** degan qishloqlar bor.

Oqsuv – muz tagidan oqib chiqadigan jo'shqin tog' suvi. Suv tarkibida muz va oqish tog' jinslarining zarralari va tog' jinslari tufayli ko'pirib oqqanidan bunday suv oqish ko'rinadi. Ba'zan o'z o'zanida oqadigan suv *oqsuv* yoki *oqdaryo*, kanal qazib oqizilgan suv *qora suv* yoki *qora daryo* deyiladi. Oqsuv – *oqar suv* degan fikr ham bor (q. Qorasuv.).

Oqto'nli – qanglı qabilasining bir urug'i *oq to'nli*, qo'ng'irot qabilasining bir urug'i *oqto'nni* deb atalgan, bu urug' qirg'izlarda ham bor – saribag'ish qabilasining *oqto'ndu* (Aqto'nduu) degan urug'i bo'lgan. Qo'ng'irot va qang'li qabilalarining *qorao'nli* urug'i ham ma'lum.

Bundan tashqari *Oqto'nli (ota)* degan boy avliyo (tojikchasi **Safedpush**), **Ko'kto'nli** (ota) degan kambag'al avliyo (tojikcha **Kabudpo'sh**) ham ma'lum.

Asaka, G'uzor, Chiroqchi tumanlarida **Oqto'nli** qishloqlari bor.

Oqchelak – chelak urug'ining bir tarmog'i (qirg'izlarning bugu qabilasining bir urug'i ham *chelek* deb atalgan. Sarichelak ko'li shu etnonimdan nom olgan bo'lsa kerak). Payariq tumanidagi **Oqchelak** oykonimi chelak urug'ining boshqa tarmoqlari bo'lganini ko'rsatadi.

Og'aliq – xon maslahatchisi, shahar begi bilan aholi o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik qilgan mansabdor shaxs unvoni. Asaka, Samarqand tumanlarida **Og'aliq** degan qishloq, Qarshi shahrida **Og'aliq** guzari bor. Biroq Samarqand shahri yaqinidagi **Og'aliq** asli **Ohaklik** bo'lgan. Amir Temur zamonida bu yerdan Samarqand shahrida Jome masjid qurish uchun ohaktoshlar keltirilgan.

Farg'ona vodiysida *og'alik* degan urug' ham bo'lgan.

Og'il – molxona, og'ilxona. Tojik tilida bu so'z qishda qo'y podasi qishlaydigan qo'tonni bildiradi. Turli turkiy tillarda agal, avil, aoul kabi fonetik shakllarda «ovul», «uy», «hovli», «turar joy» kabi ma'nolarni anglatadi (yana *q. Ovul*).

Og'och – qadimiy turk tilida va bir qancha hozirgi turkiy tillarda daraxt, o'rmon. Bu so'z 30-yillargacha o'zbek tilida ham shu ma'noda iste'molda bo'lgan: «Xon shunday og'ochki, qon bilan ko'karur» (Fitrat). Keyinchalik turkiy *og'och* (*yog'och*) o'rnini forscha-tojikcha *daraxt* so'zi olgan. Og'och (ag'ach) so'zi «daraxt», «o'rmon» ma'nosida deyarli barcha turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda toponimlar

tarkibida uchraydi. Bu holatni O'zbekistonda ham ko'rish mumkin: **Uchog'och, Beshog'och, Qo'shog'och**. Shu bilan birga *beshog'och* degan qavm ham bo'lgan. Toshkentdagi **Beshog'och** toponimini **Beshyog'och** deyish tarixiy voqealikka zid; Beshog'ochliklar o'z mahallasini **Bechog'osh** deb talaffuz qilgan.

Paykal – sug'oriladigan ayrim ekin maydoni, pol, chek. Bu so'z turkiy *pay* («bir qism, ulush») va forscha-tojikcha *kol* («kanal») unsurlaridan iborat. *Kol* so'zi, o'z navbatida, forscha «kavlamoq», «qazmoq» fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, dastlabki ma'nosi «handak» edi.

Ilk o'rta asrlarda ariq qulog'iga o'rnatilgan yog'och kundaning ko'zday teshigidan bir kecha-kunduzda o'tadigan suv bir *paykal* hisoblangan.

Demak, *paykal* dastlab suv o'lchov miqdori bo'lgan. Keyingi asrlarda *paykal* sath o'lchov miqdoriga aylangan. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 50 tanob yoki 12,5 gektar yer bir paykal, Shimoliy Afg'onistonda Fayzobod shahri atroflarida 400 tanob yer, Mozori Sharif tegralarida 65 gektar yer bir paykalga teng bo'lgan.

Ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda bir kecha-kunduzda sarf bo'ladigan suv va sug'oriladigan yer *paykal* hisoblangan.

Bir xil yerlarda *paykal* deganda muayyan ariqdan suv ichadigan chek yerlar tushunilgan. O'rta Osiyoning bir qancha hududlarida yerni shirkat bo'lib ishlatish *paykal* deb atalar edi. XX asrga kelganda boylarning paykal yerlari ularning xususiy mulki bo'lib qoldi.

Qorako'l tumanida **Nimpaykal**, Eronda **O'tqaykal** degan toponimlar bor.

Parpi – tarkibida alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simlik. *Parpiosh* degan mineral (tosh) ham bor. Bular jismonan nogiron bo'lgan (parpi kasalligiga yo'liqqan) kishilar uchun davo hisoblangan. Bunday kasallarni tuzatadigan avliyoning qadamjosi **Parpiota** deyilgan.

Zomin tumanidagi Uvol qishlog'ida **Parpiota** degan teshiktosh, **Parpioyim** degan muqaddas joy, Yuqori Chirchiq tumanida **Parpisoy** qishlog'i bor.

Ponsot – xonlik davridagi lavozim, asli **ponsadboshi** – 500 askarga boshliq bo'lgan mansabdor. Qo'qon xonligida – qo'mondon, polk (dasta) komandiri (tojikcha panjsad – besh yuz). Buvayda, Marhamat tumanlarida **Ponsot** degan qishloqlar bor.

Posira – katta yer egalari tomonidan batraklarga vaqtincha foydalanish uchun berilgan yer. Toshkent shahrining **Shayxontohur** dahasidagi mahallalardan birining mavzesi (shahar tashqarisidagi ekin joyi) **Posira** deb atalgan. Yakkabog' tumanida **Posira** degan qishloq bor.

Pushta – 1) yonbag'ir, tepalik, tog', qir, ko'tarma, uyum, to'plam; 2) ikki jo'yak orasida qoldirilgan bo'shliq. E.M. Murzayev Tojikistondagi **Safedpushta**, **Surxpushta** tog'larini, Ozarbayjondagi **Pushtatala** toponimini tilga oladi. Bu atama pushta (pushte) shaklida Eronda ayniqsa ko'p toponimlar hosil qilgan.

Rabot. Bu so'zga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da (1981) quyidagicha izoh berilgan: 1) mustahkamlangan qo'rg'onlarda soqchilar turadigan joy yoki istehkom qo'rg'on; 2) savdo yo'llaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy; 3) shahardan chetroqdagi turar joy.

Bu atama haqida mutaxassislar turlicha fikr bildirgan. Jumladan, akademik V.V. Bartoldning ma'lumotlariga qaraganda, musulmon dunyosi kabi Turkistonda ham diniy urush – **g'azovot** uchun devor va g'ovlardan tashqari *ribotlar* (to'g'ri talaffuzi shunday) yoki *rabotlar* qurilganlar. Buni Turkistondagi *rabod* so'zi bilan adashtirmaslik kerak, deydi akademik. *Rabot* so'zining ma'nosi «ot bog'lanadigan joy» demak. *Rabot* muqaddas, ya'ni diniy urush uchun kurashadigan g'oziylar uchun mo'ljallab qurilgan. G'oziylar rabotda dushmanlar bilan yuzma-yuz yashab, ularning hiyla-nayranglarini, hujumlarini daf qilib turganlar. Ribotlar (rabotlar) otliq askarlar dastalari uchun kazarma rolini bajargan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda *rabod* yoki *rabaz* atamasi ham bo'lgan. Tarixchi A.A. Semenovning gaplariga qaraganda, shaharga tutash mahallalar *rabaz* deb yuritilgan.

Shunday qilib, dastlab **rabaz** deganda ichki shaharni emas, balki shahar atrofidagi devor hamda shaharga tutash qishloq-mahallalar tushunilgan.

Keyinchalik bu ikki atama bir-biriga qo'shilib, ham *karvonsaroy*, ham *rabot* yoki *rabod* deb ataladigan bo'ldi. Buning sababi shu ediki, deb yozadi V.V. Bartold, istilochilar qurgan rabotlar bu yerda oldindan mavjud bo'lgan g'aribxonalar va ibodatxonalarga juda o'xshab

ketar edi. Shuning uchun ham bunday tayyor binolar rabotlarga moslashtirilgan. Buning ustiga rabot qurish ham masjid solish kabi savob ish hisoblangan. Bu so'zlarning yaqinlashishini shundan bilsa ham bo'ladiki, Buxoro yaqinida yashab o'tgan Juybor shayxlari (xo'jalari)ning arxivlarida (XV–XVI asrlar) bu atamalar bir-biridan deyarli farq qilmagan: *rabaz* – og'ilxona, hovli joy, *rabot* – qo'rg'on, qo'ra.

A.R. Muhammadjonov *rabot-ravot* so'zini sug'dcha deb hisoblaydi: *ro*(x) – yo'l, *bat* (bata, vata) – manzil, mazgil. U Buyuk ipak yo'li bo'ylab qurilgan ko'pdan ko'p bekatlar ana shu atama bilan atalgan deb hisoblaydi.

Rabot – (ravot, rabod) so'zidan tarkib topgan toponimlar, aksari oykonimlar O'zbekistonda 200 dan ortadi va ularning deyarli hammasi Zarafshon vodiysida (Buxoro viloyatida 100 ga yaqin, Samarqand viloyatida 60, Navoiy viloyatida 20).

Bundan tashqari, yag'nobshunos olim A.L. Xromov «yaylov sifatida foydalaniladigan sero't adir joy» ma'nosida *ravad* (ravod) so'zi borligini aytadi va uni qadimgi eroniy *ravati*, yagnobcha *rovut*, xorazmcha *rwyn* («yer», «joy») so'zlari bilan bog'laydi.

Ramadon – ko'chmanchi o'zbek urug'laridan biri, masalan, mang'itlar tarkibida qayd qilingan. Qozoqlarning *alchin*, jetiruv qabilalari tarkibida ham *ramadan* urug'i qayd qilingan. Toshkent, Bo'ka, Zangiota, Chinoz, Toshloq tumanlarida **Ramadon** qishloqlari bor.

Reg, rig – qum, mayda shag'al, qumli cho'l. Shofirkon tumanida **Regishoyi** degan qishloq bor. Bu toponim asli *regi sho'yi* («qum yuvish») bo'lgan. Ilgarilari Zarafshon daryosi o'zanidagi qumlarni yuvib oltin zarralarini ajratib olishgan. *q. Regzor, Registon.*

Regzor – qumloq joy, qumli cho'l, qum tushalgan maydon. **Regzor** degan joylar ko'p.

Registon – qumloq, qumli cho'l, qum yotqizilgan maydon. Yirik shaharlarda (Buxoro, Samarqand, Toshkent) qum to'shab tekislangan markaziy maydon **Registon** deb atalgan va bozor bo'lib xizmat qilgan. Toshkentda **Registon** bozori bo'lgan (hozirgi «Tohir va Zuhra» magazini atroflari), hatto ariqlardan biri ham shu bozor nomi bilan atalgan.

Regsho'y, regrez – qumlarni yuvib oltin ajratib olgan kishi.

Zarafshon vodiysida, xususan uning bosh tomonlarida qumni po'stak yoki gilam ustida yuvib oltin olish qadimdan rasm bo'lgan (oltin zarralari og'ir bo'lganidan jun orasiga kirib qolgan). Shofirkon tumanida **Regshoyi** (asli Regsho'y), Navoiy tumanida **Regrez** qishlog'i bor.

Rud, ro'd – kanal, katta ariq, daryo. O'rta Osiyoda ko'plab toponimlar hosil qilgan: **Miyon Ro'don** («ikki suv orasi». Qoradaryo bilan Norin oralig'i), **Rudi Zar** (Buxorodagi Shahrud kanalining eski nomi), **Rudi Masof** (Zarafshonnning eski nomlaridan biri). Toshkentdagi Salor arig'ining eski nomi **Ro'dak** bo'lgan.

Eronshunos olim V.I. Abayev bu so'zning etimologiyasi tojikcha *ro'da* (ichak, yo'g'on ichak) so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan.

Rudbor, ro'dbor – daryo, daryo bo'yi, daryo sohili, ariq-soylar ko'p joy. *Jo'ybor* so'zi bilan ma'nodosh, lekin *ro'd* deganda jo'ydan ko'ra kattaroq ariq tushunilgan.

Ruda – qipchoqsaroy urug'laridan birining shoxobchasi. Chiroqchi tumanida Ruda qishlog'i, Koson tumanida **Rudasoy** degan soy bor.

Sayot, sayat – ko'chmanchi o'zbeklarda *sayot*, turkmanlarda sayat (sayatli) qabilasi bo'lgan. Xiva, Forish, Qorako'l, Shumanay, Qo'ng'irot tumanlarida **Sayot**, Hazorasp tumanida **Sayotlar** qishloqlari bor.

Sangzor – toshloq yer, toshzor, g'o'la toshlardan tashkil topgan maydon. Baxmal tumanidagi mashhur **Sangzor** (Sanzar emas) vodiysi bunga bir misol. q. *Sangiston.*

Sangiston – toshloq joy, qoyali tog'; *sangin* – sertosh, tosh yotqizilgan (yer), *sangob* – daryoning toshloq o'zani, *sanglox,* (q.) – **Toshloq.**

Sanglox, sangloq – toshloq. Lug'atlarda bu so'zning bir necha ma'nosi keltiriladi: 1) toshloq joy; 2) tosh uyumi; 3) maydalangan tosh; 4) tog' daryosi yoki selning sertosh o'zani. O'zbekcha *toshloq* va tojikcha *sanglox* so'zlari etimologik jihatdan bir xil, lekin semantik jihatdan farq qiladi. *Toshloq* deganda ko'pincha umuman tosh ko'p joy, sertosh tuproq. *sanglox* deganda esa soylik ichida yig'ilib qolgan silliq toshlar tushuniladi.

Sanglox so'zi joylarda turlicha talaffuz qilinadi: *Sanglox, Sangloq, Sang'anaq, Sag'anaq, Sangalaq* kabi.

Nurota tumanida **Sangloq**, Parkent tumanida **Sang'anak**, Zomin tumanida **Oqsang'alak** degan toponimlar bor.

Sanchiqli, chanchiqli – o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi tarkibidagi urug'lardan biri. Tamg'asi uzun nayza, *sanchqich* shaklida bo'lgani uchun shunday atalgan. Respublikada **Sanchiko'l** (Urgut, Paxtachi, Ishtixon tumanlari), **Sanchiqul** (Pastdarg'om tumani), **Sanchqil** (Boysun tumani), hatto **Chanchikli** kabi qishloqlar shu etnonim bilan atalgan.

Sardoba – suv kam joylarda suvning bug'lanib ketishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun qurilgan gumbazli hovuz. Sardoba ustiga qurilgan gumbazi uchun ba'zan *Gumbaz* deb ham atalgan. Sardobalar qadimda dashtlardagi chorva mollarini va savdo karvonlarini suv bilan ta'minlashda katta ahamiyatiga ega bo'lgan. Qarshi cho'lida 29 ta, Mirzacho'lda 3 ta, Toshkent bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida 3 ta, Cho'limalikda (Karmana yaqinida) 1 ta sardoba bo'lgan.

Paxtachi, Guliston, Oqoltin tumanlarida **Sardoba** degan qishloqlar bor.

Forscha-tojikcha *sardoba* "sovuq suv" degani.

Sarik – turkman, qirg'iz, boshqird xalqlari tarkibiga kirgan qabila (qirg'izlarda sariq *saruu* deb ham ataladi). *Sariq* nomi bir qancha qabila-urug'lar nomlariga *sari* shaklida qo'shilib ketgan: *sari-uyshun, sari-uyg'ur, sari-nayman, sari-qangli, sari-qirg'iz* va hokazo. Qiziriq, Muborak tumanlarida **Sariq** qishloqlari qayd qilingan.

Saroy – yirik o'zbek qabilalaridan biri. Uning vakillari asosan Buxoro vohasida, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Andijon viloyatlarida yashagan. Qabila *azsaroy, qipchoqsaroy, qirg'izsaroy, qo'ng'irotsaroy, majarsaroy, qorabog'saroy, naymansaroy, chemsaroy, jomonsaroy, oltintamg'alisaroy, jolong'och (yalang'och)saroy* kabi yirik tarmoqlarga bo'lingan.

Respublikada 50 dan ortiq qishloqlar *saroy* urug'i nomi bilan atalgan.

Sarrof – pul maydalaydigan va valyuta almashtiradigan shaxs. O'rta

Osiyod xonliklarida sarroflik serdaromad kasb hisoblangan. Yirik shaharlarda, masalan, Buxoroda **Sarrofon** mahallasi bo'lgan.

Saqa, sag'a – to'g'on boshi, magistral kanalning bosh qismi, sug'orish uchun suv taqsimlaydigan qurilma (Xorazm). *Saqa* (saqo) arabchada «sug'orish» demak. Eron va Afg'onistonda suv tashiydigan, ya'ni boshqalarni suv bilan ta'minlaydigan kishilarni – (meshkobchilarni) *saqo* deyishgan. Tumshug'i ostida xaltachasi bor *saqoqush* ham deyiladi.

Misr va Mesopotamiyada chig'irni *soqiya* (suv bilan ta'minlovchi) deyishadi. Xorazmda 1828-yilda Olloqulixon tomonidan toshloq yerda qurilgan kanal Toshsaqo deb ataladi.

Bu atama O'zbekistonning boshqa joylarida ham toponimlar hosil qilgan. Buxoro viloyatida **Saqoquduq** degan quduq bor; XIV asr Buxoro vaqfnomalarida **Saqoyai Amirak** degan joy tilga olingan.

Sahro – cho'l, dasht, biyobon. Arabcha *ashar* – «qizg'ish sariq» so'zidan hosil bo'lgan. *Sahroi, sahronishin* – «cho'llik», «cho'lda yashovchi» degani. Afrikadagi **Sahroi Kabir** cho'li, Erondagi **Oqsahro, Sahrosho'r**, Ozarbayjondagi **Sehra** toponimlari shu so'zdan paydo bo'lgan.

Selga (selgoh) – sel olib kelgan loyqa-qumlardan hosil bo'lgan unumdor yerlar (selga yerlari). Tojikistonning Panj tumanida **Selgoh** qishlog'i bor. Selgani ba'zi bir yerlarda *seldara, selsoy* ham deyishadi. Nurota tumanida bir dara va qishloq **Selsoy** deb ataladi. Bahorda jo'shqin t oshqin suvlari keladigan o'zan *selroha* («sel yo'li») deyiladi. **Selbur** degan toponim «sel olib ketgan, sel urib ketgan» demak. Sel ko'p keladigan yoki sel suvi yig'ilib qoladigan joy *selxona* deb yuritiladi.

Sengir, sangir, singir – cho'qqi, qoya. Qadimiy turk tilida «tog' tumshug'i», qirg'izchada *sengir* «o't bilan qoplangan baland tog' qirrasi», qozoqchada «tik jarlik», «baland tog' tizmalari», ozarbayonchada *(senger)* «tik qoya» ma'nosini anglatadi. Boburning yozishicha, tog'da istehkom qurish, harbiy kuch bilan mustahkamlash *singir* deyilgan.

Munis va Ogahiy asarlarida uchraydigan *singir* (sengir, sangir) so'zini V.V. Bartold «istehkom» deb tarjima qilgan.

Sengir atamasi asli tojikcha *sang* – «tosh», «tog'» so'zidan bo'lsa kerak. Bu atama O'rta Osiyoda, Qozog'istonda, Kavkazda, Eron

Afg'onistonda bir qancha toponimlar hosil qilgan (Ozarbayjonda **Qorasengir**, Qozog'istonda **Oqsengir**, Tojikistonda **Qumsangir**).

Sergeli, sergali, sirgali, sirgeli – qabilalar uyushmasi asosan qozoqlar tarkibida uchraydi; o'zbeklarning yuz, qipchoq qabilalari tarkibida ham *sirgali* (sergali) urug'i qayd qilingan. Sergeli qozoqlar Toshkent vohasida, Kalas, Chirchiq, Oqsoqota daryolari bo'ylarida yashaganlar. Quyi Chirchiq, Qibray, Zangiota, Oqqo'rg'on tumanlarida **Sergeli**, Oqoltin, Zarbdor, Zomin tumanlarida **Sirgali** oykonimlari uchraydi. Zomin tumanidagi bu ikki qishloqda o'zbeklar yashaydi. Toshkent shahridagi **Sergeli** urbonimini **Sirg'ali** deb yozish to'g'ri emas.

Siyna – ko'krak, ko'ks. Toponimiyada – ayolning ko'kragiga o'xshatilgan Denov tumanidagi **Sina** tog'ini shoira Muzayyana Alaviya «aynan qiz bolaning ko'kragiga o'xshaydi» degan edi. Demak, sina, siyna fonetik tafovut, xalos. Shahrisabz tumanidagi **Sinabog'** qishlog'ining nomi ham shu so'z bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Sin – bo'y, qad-qomat (*tog'day sin bersin*). Oltoydagi turkiy xalqlarning tillarida *sin, so'n* – «tizma tog'», «tog' qirrasi», «yolg'iz tog'». Sibirda *sin* so'zidan tarkib topgan toponimlar ko'p. **Sayan sini** («Sayan tog'lari»), **Sintag'** va b. Boysun toponimi ham shu so'zdan tarkib topgan bo'lishi mumkin (T. Nafasov).

Soz – botqoqlik, to'qay, qamishzor, zax o'tloq, sozlik. Deyarli barcha turkiy tillarda botqoqlik; *soz silovsin* – qamishzorda yashaydigan silovsin ma'nolarida uchraydi.

Chotqol tumanida **Sozsoy** degan qishloq va soylik bor. Qibray tumanidagi **Sozbaqa** ovuli «botqoqlik baqasi» demak (etnotoponim). *Soztuproq* so'zi ham asli «zax joyning tuprog'i» ma'nosida bo'lishi kerak.

Soy – suv oqadigan pastlik, suv yo'li, vodiy. Kichik daryo ma'nosini ham anglatadi. Turkiy xalqlar yashaydigan barcha hududlarda bir-biriga yaqin ma'nolarda ishlatiladi va sanoqsiz toponimlar hosil qilgan. Andijon viloyatida eski o'zanlardan foydalanib ochilgan kanal *soy* deyiladi: **Andijonsoy, Shahrixonsoy**. *Say* atamasi «kichik daryo» ma'nosida rus tiliga ham kirgan.

Usmonli turklar, ozarbayjon tillarida va Eronda *chay* (daryo) shaklida talaffuz etiladi.

Ozarbayjonda *chaylag'* (quruq o'zan), *chaybosar* (qayir), *chayog'zi* (daryoning etagi), *chayg'o'lu* (daryo tarmog'i) shakllarida uchraydi.

Tilshunos O.T. Molchanova *soy (say)* turkiy, *choy (chay)* esa forsiy talaffuz shakli deb hisoblaydi.

Solin – o'zbek qabilalaridan biri yoki yuz qabilasining bir tarmog'i. Solinlar asosan Zarafshon daryosining o'rta qismida, Jizzax, Zomin, G'allaorol tumanlarida yashaganlar. Bulung'ur tumanida **Solin** degan qishloq bor.

Quloqning uchki yumshoq qismi *solin* (solinchoq, solinchak) deyiladi.

Solma – kichik kanal, ariq. Masalan, *oyoq solma* – oxirgi ariq (Xorazm). Pop tumanida **Solma** qishlog'i bor.

Sulduz – XIII–XIV asrlarda Ozarbayjon, Eron, Xuroson va Movarounnahrda yashagan turklashgan mo'g'ul qabilasi. Sulduz 92 bovli o'zbek qavmlari orasida qayd qilingan. Oltinko'l tumanida **Sulduz** qishlog'i bor (uni **Suvyulduz** shaklida yozish to'g'ri emas), Sulduz mo'g'ulcha *suldes* (bayroqdorlar) so'zidan hosil bo'lgan: *sulde* – bayroq, -s ko'plik affiksi.

So'loqli – yuz qabilasining urug'laridan biri. So'loqliklar Toshkent, Sirdaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida qayd qilingan. Bulung'ur, Zomin, Jizzax tumanlarida **So'loqli** qishloqlari bor. So'loq – qo'y-echki quloqlarining bir joyini kesib en solish, ya'ni tamg'alash usuli. Quloqning oldingi tomoni o'yib kesilsa, *oldingi so'loq*, keyingi tomoni o'yib kesilsa, *keyingi so'loq* deyilgan.

Tak'ya, takiya – odamlar to'planib ulfatchilik, bangilik qiladigan joy, darveshlarning yotoqxonasi. Dastlab darveshlar maskani muqaddas joy *tak'ya* (xonaqoh) deyilgan (asl ma'nosi "boshpana"). Kitob, Qiziriq, Sherobod, Angor tumanlarida **Tak'ya** qishloqlari, Buxoro, Qo'qonda **Tak'ya** guzarlari bo'lgan.

Tal (arabcha) – tepalik, do'nglik, pastak tog', tuproq va qum uyumi. Eron, Afg'oniston, Ozarbayjonda ko'plab toponimlar hosil qilgan. O'rta Osiyoda, shu jumladan, *tall* atamasi bilan *tol* daraxti nomi chalkashib ketgan. **Tallimarjon, Tallimoron, Talisafed, Talliyulg'un, Taltepa** kabi toponimlar o'sha "tepalik" ma'nosini anglatadi; **Toldi, Tolli, Tollisoy** singari geografik nomlar esa "tol daraxti

sadigan joy" demakdir. Biroq ruscha xaritalarda va hatto o'zbekcha manbalarda ham buni farqlash qiyin.

Tama – o'zbek urug'i. Tamalar mesit va jobu (yobu) urug'lari bilan *uchurug'* birlashmasini tashkil etgan. Qozoq, qirg'iz, quramalar tarkibida ham *tama* urug'i bo'lgan. Navoiy, Xonqa, Ellikqal'a, Narpay, Quyi Chirchiq, Amudaryo tumanlarida **Tama**. Xatirchi tumanida **Tamabahrin**. Bo'ka tumanida **Tamaovul** qishloqlari qayd qilingan.

Tangi – tor dara (tojikcha *tang* – "ensiz"). Kambar soylik, tangida ko'pincha suv oqib yotadi. Tangining zo'rg'a o'tib bo'ladigan eng tor qismi *qisiq* deyiladi. Bu atama *tangi, tengi* shakllarida O'zbekiston, Tojikiston, Eron, Afg'oniston va Pokistonning tog'li hududlarida toponimlar hosil qilgan. Zomin tumanida **Kattatangi, Chortangi, Tortangi, Ichkaritangi** kabi toponimlar bor.

Tarag'ay – o'zbeklarda qayd qilingan urug' nomi. Qozoqlarda, yoqutlarda ham *tarag'ay* urug'i bo'lgan. Chiroqchi tumanida **Tarag'ay (Bosh Tarag'ay, O'rta Tarag'ay, Past Tarag'ay)** qishlog'i bor (Amir Temur tug'ilgan joy). Qirg'iz tilida qarag'ay o'smaydigan balandlik *tarag'ay* deyilar ekan, qozoq tilida esa *talagay* – qir, balandlik degani.

Tarma (tojikcha) – qor ko'chkisi. Sharros yomg'irni "sel yog'ayapti" deyishgani kabi, gupillab qor yog'sa, "tarmalab qor yog'ayapti" deyishadi. Tik tog' yonbag'irlarida qishi bilan to'planib qolgan qalin qor qoplami fevral oyi oxirlarida eriy boshlaydi va shiddat bilan ko'chib tushib vodiyni to'sib qo'yadi. Tarma ko'chish xavfi bo'lgan joylarda hatto ovoz qattiqroq chiqarish ham mumkin emas, chunki saigina tovush to'lqini ham qor ko'chkisiga – tarmaga sabab bo'lishi mumkin. Zomin tumanida **Tarmako'chgan, Tarmabosgan** degan mikrotoponimlar bor.

Taroqli, taroxli – o'zbeklarning qo'ng'irot, kenagas, qangli qabilalari tarkibidagi urug'. Bu urug' qozoqlar, qoraqalpoqlar tarkibida ham bor. Shahrisabz, Denov, Sherobod, Ishtixon, Urgut tumanlarida **Taroqli** oykonimlari qayd qilingan.

Tarxon, darxon – o'rta asrlarda soliqdan va har qanday majburiyatlardan ozod qilingan imtiyozli, daxlsiz (qabila, urug', ulug' zot yoki mansabdor, butunlay mustaqil harbiy xizmatdan ozod) shaxs. Tarxonlar har qanday jinoyat qilsa ham, to'qqiz avlodigacha afv

etilgan. Temuriylar davlatida tarxonlar qo'lida yirik yerlar va katta hokimiyat bo'lgan. Tarxonlik O'rta Osiyoda keyingi asrlarda ham saqlanib qolgan edi. Ba'zan ayrim kishilargagina emas, balki butun bir shahar aholisiga ham tarxonlik huquqi berilgan.

Tarxon qadimiy so'z. "Qadimgi turkiy til lug'at"ida (1969) *tarqan, tarxan* – "hokim unvoni" deyilgan. Bu so'zning *darxan* (darxon) shakli ham bor, u mo'g'ul tilida "temirchi", "usta", "erkin kishi" ma'nolarini anglatgan.

O'rta Osiyoda ko'proq *tarxon* shaklida iste'molda bo'lgan. Qadimiy o'zbek qavmlaridan biri *tarxon* deb atalgan. "Shohnoma"da Turkiston podshosi lashkarboshilaridan birining ismi **Tarxon** bo'lgan. Sug'd hujjatlarida ham *tarxon* so'zi "imtiyozli shaxs" ma'nosida qayd qilingan. Ko'pchilik mualliflar o'rxun yozuvlaridan uchraydigan bu so'zni turkiy deb, ba'zi bir olimlar mo'g'ulcha deb biladilar. Eronshunos olim V.I.Abayev *tarxon* atamasini turkiy, mo'g'ul va xitoy tillari vositasida izohlash u qadar ishonchli emas, u hind-yevropa tillariga borib taqaladi, deydi. E.M. Murzayev fikricha, "*tarxan* ming yillardan buyon iste'molda bo'lgan va Yevrosiyoning bepoyon hududlarida tarqalgan hamda turkiy-mo'g'ul, tungus-manchjur kabi ko'plab tillarda ishlatiladigan juda qadimiy atamadir".

Zarafshon vodiysida **Tarxon, Tarxonon, Tarxononbolo, Tarxonon-poyon, Tarxononsayot** degan ariq hamda qishloqlar qayd qilingan. Ishtixon tumanida esa **Boshdarxon, Jo'raboydarxon, Ozoldarxon, Naymandarxon, Po'latdarxon, Qirqdarxon** nomli qishloqlar bo'lgan. Toshkent shahrida va viloyatida **Darxon, Darxonariq** toponimlari uchraydi. Toshkent viloyatida *darxan* degan qozoq urug'i ham bo'lgan. Yana q. **Darxon.**

Telov – qurama toifasining beshta urug'idan biri. Bu urug' qozoqlarning *jetiruv* qabilasi tarkibida ham uchraydi. O'zbekiston, Beshariq, Ohangaron tumanlarida **Telov** oykonimi qayd qilingan.

Temirqovuq – «temir darvoza», yo'l o'tgan daraning tor qismi. Qadimiy turk tilida **Temirqopuq**, tojikcha **Darbandi Ohanin**, arabcha **Bobil hadid**. Surxondaryo viloyatidagi **Buzg'alaxona** (Qohlug'), Jizzax yaqinidagi **Ilono'tti** daralari ham **Temirqopug'** deb atalgan. Nurota tumanida **Temirqovuq** qishlog'i bor.

Tim – usti yopiq bozor yoki rasta; bozor qorovuli – *timbon*. Bu

so'zning «karvonsaroy» ma'nosi ham bo'lgan. Narpay, Nurobod tumanlarida **Tim** qishloqlari bor.

Tepa – do'nglik, tepalik, cho'qqi, biron narsaning uchi. Qadimgi turkiy tilda *to'pu* – kallaning cho'qqisi. Turkiy tillarda *tepa, do'bo', depe, to'be, do'ba, to'bu*, tojik tilida *teppa*, o'zbek shevalarida *teva, to'ba* shakllarida talaffuz qilinadi. E.M. Murzayev aytganidek, bu atama turlicha fonetik shakllarda Kavkaz, Volga bo'yi, Ural tog'lari atroflari, Sibir, Yaqin Sharq, Bolqon yarim orolida ko'plab toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga tepa *teva* – *tuya* shaklini olgan (**Tuyaboshi, Tuyaguzar**) yoki urug'-qabilaning tarmoqlari – to'p yoki to'pa o'zgarib *tepa* bo'lib ketgan. Etnonimlar yonida keladigan *tepa* elementi asli *to'pa* bo'lishi kerak. **Naymantepa, Naymanto'ba** kabi.

Terskay – quyoshga teskari, oftob tushmaydigan, shimolga qaragan (yonbag'ir). Dehqonobod tumanida **Terskay** degan adir va qishloq bor. Shevalarda bu atama *teskay* shaklida talaffuz qilinadi.

Tirsak – qo'lning bilak suyagi bilan yelka suyagi qo'shilib, burchak hosil qiladigan joyi, toponimiyada «muyulish», «daryoning burchak hosil qilib oqadigan joyi». Masalan, Amudaryoning muyulishi *tirsak* deyiladi (q. To'qay).

Ba'zi joylarda (Namangan va O'sh shaharlarida *chig'anoq* yoki *chag'anoq* deydilar. O'rta Chirchiq tumanida **Tirsak** degan toponim bor (q. *Chig'anoq*).

Toyloq, taylaq – qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar tarkibida *taylaq*, turkmanlarda *taylaqlar*, o'zbeklarda *toyloq* urug'lari bo'lgan. O'zbeklarning *toyloq* urug'i *oqtoyloq* va *qoratoyloq* shoxobchalariga bo'lingan. Toyloq – tuyaning bir yoshdan oshgan bolasi (bir yoshgacha bo'ta, bo'taloq). Toyloq urug'ning muqaddas jonivori (totem) bo'lgan.

Chimboy tumanida **Taylaq**, Romiton, Bog'ot tumanlarida **Toyloqon**, Samarqand yaqinida ham **Toyloq** degan toponimlar qayd qilingan.

Tom – uy, bino, devor, tom. Qadimiy turkiy tilda *tom* – «devor», ozarbayjonchada *dam* – «uy», «bino», turkmanchada *dam* – «doimiy turar joy» (o'tovdan farqli o'laroq), qirg'izchada ham *tam* – «g'ishtli yoki loytuproq uy» ni bildiradi. *Tom* bilan ruscha *dom* so'zining kelib chiqish o'zagi bitta. Sanskritchada *damas*, yunonchada va lotinchada

domus «uy», «bino», «turar joy» degani. Qorako'l tumanidagi **Tomqishloq**, Sharaf Rashidov tumanidagi **Uchtom** toponimlari shu so'zdan tarkib topgan ko'p sonli geografik nomlar jumlasidan.

Tortuvli – urug', qo'ng'irot qabilasining ajdodi bo'lib, Qo'ng'irot otaning kichik xotinidan tarqalgan. Qo'ng'irot ota keksayganda kichik xotini o'g'il tug'ib, tortuv (tortiq – sovg'a) qilgani uchun undan tarqalganlar *tortuvli* deb atalgan ekan. Nurobod, Narpay, Oqdaryo, Oqqo'rg'on, Xatirchi, Denov, Sariosiyo tumanlarida **Tortuvli** nomli qishloqlar bor.

Qoraqalpoqlarning *qiyot* qabilasi tarkibida ham *tortuvli* urug'i bor.

Tosh – qoya, tog'. Masalan, **Qoratosh** («Qoraqtir qoya»), **Cho'qmortosh** («Shaklan cho'qmorga o'xshash ulkan qoya»), **Ayritosh** («Ayricho'qqi») (Zomin tumani). Qoyalarda o'sadigan piyoz *toshpiyoz*, tog'larda yashaydigan sassar *toshsassar* (ruschasi каменная куница), chilkaklik (asli «cho'l kakligi»)dan farqli o'laroq tog' kakligi – *toshkaklik* (ruschasi каменная куропатка) deyiladi. Rossiyada, masalan Sibir va Uralda ayrim tog', cho'qqi, qoyalarni Kamen («tosh») deyishadi.

Toqchi, tog'chi – ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan biri. Ular asosan Janubiy O'zbekistonda yashagan. Saroy, qo'rchi qabilalari tarkibida ham *toqchi* urug'i qayd qilingan. Sariosiyo, Chiroqchi tumanlarida **Toqchi**, Sariosiyo tumanida **Toqchiyon**, Jizzax tumanida **Toqchilik** oykonimlari qayd qilingan. Toqchi «tog'lik» degan so'z *q. Tog'lik*.

Tog', dog', dag' – yer yuzasining tevarak-atrofga nisbatan baland ko'tarilgan joylari. Prof. E.M. Murzayev turkiyzabon xalqlar yashaydigan hududlarning g'arbiy qismlaridan sharqqa tomon *dog', dag', tog', tov, tau, to'o', tuu, tia* shakllarida o'zgarib boradi, *t* tovushi Turkmaniston hududidan boshlanadi, deydi. Afg'onistonda *dog'* so'zi «tog'», «dasht», «dala». Qrimda *dag'* – «tog'» va «tog' o'rmoni» ma'nolarida keladi.

Tog'liq, tog'iliq – etnik guruh nomi, etnonim, ko'proq Sharqiy Turkistonda qayd qilingan. Bu etnonim qadimgi 40 ta qirg'iz qabilalari tarkibida «Manas» eposida ham tilga olingan. Dang'ara, Toshloq, Uchko'prik, Buvayda tumanlarida **Tog'liq** oykonimlari qayd qilingan; *q. Toqchi*.

Tuz – tekislik, dala. Bu so'z Mahmud Koshg'ariyning «Devon»ida

qayd qilingan, tarixiy manbalarda, jumladan, «Boburnoma»da, shevalarda uchraydi. Xorazm viloyatida **Tuzqir**, Jizzax viloyatida **Tuzbel** («oshib o'tish oson tekis dovon»), Qirg'izstonda **Tuzoshuv** («tekis dovon») kabi toponimlar bor.

Qirg'ovulning ikkinchi nomi *tustovuq* – «tuzda, dalada yashaydigan» ma'nosini anglatadi.

Tuma – qirg'iz urug'laridan biri (oq tuma, qora tuma). O'zbeklarning laqay qabilasi, o'rta juz qozoqlari, boshqirdlar tarkibida ham *tuma* urug'i qayd qilingan. Marhamat tumanida **Tuma** qishlog'i bor.

Tunqotar – ilgarilari podsho turgan joyni kechasi qo'riqlab turadigan soqchi, tungi qorovul. *Tunqotar* degan urug' ham bo'lgan (masalan, qirg'izlarda; qoraqalpoqlarda *tungatar* deb ham atalgan). Bag'dod, Vobkent tumanlaridagi **Tongotar** oykonimi o'sha *tunqotar* atamasining o'zgargan shakli.

Turbat – tuproq, xok, qabr (turob so'zligining ko'pligi – ahli turob «marhumlar»). Ulug' kishilarning qabrlari ustiga qurilgan bino, maqbara ham *turbat* deyilgan (**Turbati Temur** – Go'ri Amir). Turbat nomli joylar aziz-avliyolarning mozori, qadamjolari yonida bo'ladi. *turbat* degan turk-mo'g'ul qabilasi ham bo'lgan. Toshloq tumanida **Turbat** qishlog'i bor.

Turg'oq – ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi urug'. Abulg'ozi Bahodirxon o'zining «Shajarai tarokima» asarida *turg'oq* so'zini «qo'riqchi, soqchi» deb izohlagan. Uchko'prik tumanida **Turg'oq** qishlog'i bor.

Tutak – Sug'dda harbiy lavozim. VIII asrda oliy hokim, ya'ni *ixshiddan* keyingi harbiy tashkilot boshlig'i, harbiy vazir. Qarshi, Nurota, Sariosiyo, Forish, Yakkabog' tumanlarida **Tutak**, o'sha Yakkabog' tumanida **Tutaktepa** qishloqlari qayd qilingan.

Tutamg'ali – qozoqlarning sergeli (sirgali) qabilalar uyushmasi tarkibiga kirgan 12 qabiladan biri. O'rgeli qabilasining bir urug'i ham *tutamg'ali* deb ataladi (*tu, tuv, tug'* «bayroq», *tutamg'ali* «tamg'asi bayroq shaklidagi qabila»). Quyi Chirchiq tumanida **Tutamg'ali** ovuli bor.

To'rtko'l – vayrona, qo'rg'on xarobasi. *To'rtko'l* – to'rtburchak, kvadrat, aynan chordevor, ya'ni choldevor. Amudaryo etagidagi supasimon tepaliklar ham choldevorlarga o'xshaganligi uchun *to'rtko'llar*

deb atalgan. Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahri, Shovot, Izboskan, Urgut, Payariq, Bo'zo'tov tumanlaridagi **To'rtko'l** qishloqlari nomlari shu atamadan hosil bo'lgan.

To'qay – daryo bo'yidagi qalin changalzor, qamishzor, umuman o'rmon (masalan, qirg'izchada). To'qay (to'xo'y) mo'g'ulcha so'z bo'lib, asl ma'nosi «qo'l tirsagi», «bilak» demak. Bu so'z keyinchalik turkiy xalqlarga «daryo muyulishidagi o'rmon» ma'nosida o'tgan. «Boburnoma»da ham to'qay so'zi «daryo tirsagi» ma'nosida kelgan. Respublikamizda **To'qay, To'qaytepa, Kattato'qay, Kichikto'qay, To'qayqishloq, Chaqirto'qay** kabi toponimlar uchraydi.

To'qsabo. Bu atamaning bir necha ma'nosi bor. Buxoro xonligidagi (amirligidagi) yuksak harbiy mansablardan biri. Lug'aviy ma'nosi ham *tug'* (tuq) – «bayroq» so'zidan olingan bo'lib, «o'z bayrog'i bor (qo'shin)» degan ma'noni bildiradi. O'zbekiston, Jondor tumanlarida **Tuksava (Tuxsava)**, Romitan tumanida **Qo'shto'qsoba** qishloqlari qayd qilingan.

2) O'rta asrlarda qipchoq qabilalaridan biri. U keyinchalik parchalanib turli urug'-qabilalar tarkibiga qo'shilib ketgan. Masalan, qozoqlarning baybaqti urug'i, o'zbeklarning laqay qabilasi tarkibida *to'qsoba* shoxi qayd qilingan. *To'qsoba* etnonimi *to'q* va *saba* degan ikki urug' nomidan olingan bo'lishi mumkin. *To'q* so'zi etnonimlar tarkibida uchraydi: *to'qmang'it, to'qsaroy, to'qboy, to'qmon* kabi. *Saba* «mesh», «sanoch» demak.

Uzun – umumturkiy etnonim. O'zbeklarda, masalan, Zarafshon va Farg'ona qipchoqlarida, qozoqlarning o'rta juzida, qirg'izlarning bag'ish qabilasida *uzun*, turkmanlarning teke qabilasida *uzin* urug'i qayd qilingan. Paxtachi, Yakkabog', Qamashi, Sariosiyo, Zafarobod tumanlarida **Uzun** qishloqlari bor.

Uyrat – ko'chmanchi o'zbeklarda, Farg'ona qipchoqlarida qayd qilingan urug'. Kogon, Rishton, Yangibozor, Navoiy, Koson tumanlarida **Uyrat** qishloqlari bor.

Uyshun, usun, uysun – qadimgi umumturkiy etnonim. O'zbek, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoqlar tarkibida *uyshun* (uysun) qabilasi (urug'i) qayd qilingan. Urganch, Amudaryo, O'rta Chirchiq, Kattaqo'rg'on, Xatirchi tumanlarida **Uyshun** (Uyshin), Andijon tumanida **Uyshunmahalla, Uyshunchek** qishloqlari bor.

Ulus – xalq, davlat, yurt, mamlakat (saltanat). O'rta Osiyodagi ulkan qabilalar uyushmasi (Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» kitobida shu haqda gap boradi). Ko'hna turkiy yodnomalardan birida bunday deyilgan: «Har bir ulus necha ela (elga) va har el necha o'ymog'a (aymoqqa), har o'ymog' necha bo'ya (bo'y – bov, bog' «shox», «tarmoq») va urug'a (urug'ga) taqsim o'linur». **Ulus** qadimgi turkiy tilda «qishloq» degani, hozir ham ba'zi tillarda «qishloq», «ovul», «manzil» ma'nolarida ishlatiladi. Go'zalkent, Nurota, Pastdarg'om tumanlarida **Ulus** qishloqlari bor.

Urganji – topoetnonim, ya'ni joy nomi bilan atalgan qavm. Urganjilar Xorazm poytaxti Urganchni Chingizxon yer bilan yakson qilib tashlagandan keyin Buxoro tomonga kelib o'rnashib qolgan hunarmandlarning avlodlari. Boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra XVII asr oxirlarida Urganchdan ketib Buxoro va boshqa yerlarga o'rnashgan o'zbeklar. Turkmanlarda ham *urgenji* (*urgenchli)* etnonimi bor. Samarqand, Buxoro, Navoiy, Andijon, Namangan viloyatlarida **Urganji** (Urganjilar, Urganjiyon, Urganjixona) qishloqlari anchagina uchraydi.

Uyas, uyaz – marqa urug'ining 16 tarmog'idan biri. Boshqa urug'lar tarkibiga ham kirgan. Masalan, solin urug'ining bir shoxi *uyassolin* deyiladi.

Bekobod, Baxmal, Jomboy, Bulung'ur, Qumqo'rg'on tumanlarida **Uyas** nomli qishloqlar bor. Qadimiy tilshunos olimlardan Abu Hayyon al-Andalusiy va Jaloliddin Tusiy asarlarida *uyaz* so'zi «pashsha, chivin» deb izohlangan.

Xalaj (xalach) – qadimiy turk qabilasi. Vakillari Tojikiston, Ozarbayjon, O'zbekistonning ba'zi joylarida yashagan. Vobkent tumanida **Xalaj**, Shofirkon, Vobkent tumanlarida **Xalajiyon**, Ishtixon tumanida **Xalajon** qishloqlari qayd qilingan.

Mahmud Koshg'ariy *xalach* asli «qol och», ya'ni «och qol» degan ma'noni bildiradi degan edi. Xalajlar husnli, chiroyli kishilar bo'lar emish.

Xaros – «eshak tegirmon», umuman ot-ulov harakatga keltiradigan tegirmon, (*osyob* – «suv tegirmon»). Zarafshon vodiysida **Xaros** toponimlari qayd qilingan. Buxoroning bir guzari **Chorxaros** deb atalgan.

Xarrot – yog'ochdan har xil asboblar yasaydigan usta, taroqchi. Hazorasp, Bog'ot tumanlarida **Xarrotlar** qishloqlari, Buxoro shahrida Xarroton guzari bo'lgan.

Xona – uy, uyning bo'lmasi, turar joy, qishloq, biror narsa mo'l bo'lgan joy. **Yomxona** – «yomlar (bekatlar) ko'p joy», **Bo'rixona** – «bo'ri ko'p joy», **Cho'chqaxona** – «cho'chqa ko'p joy»; **Arabxona** – «arablar qishlog'i», **Yobuxona** – «yobu qabilasi vakillari yashaydigan qishloq» va hokazo. *Xona* so'zining *xon* varianti ham bor. O'rta asrlarda bu so'z «xona»dan tashqari «karvonsaroy», «mehmonxona» ma'nolarini ham anglatgan. «Bisot» ma'nosidagi *xonumon* ham shu so'zdan kelib chiqqan «uy-joy, mol-mulk».

Xonaqoh – shayxlar, darveshlar zikru samo qiladigan xona, g'arib va miskinlar kun ko'radigan uy, g'aribxona. **Xonaqohmaydon, Uyshunxonaqoh** toponimlari, Xorazm viloyatidagi Xonqa shahri nomi shu atamadan tarkib topgan.

Xotinsuv – sekin oqadigan soy. Baland tog'lardan boshlanib tik yonbag'irlardan shiddat bilan oqib tushadigan soy-jilg'alar *ersuv* deyiladi. Har ikkala atama ham toponimlar, aksari mikrotoponimlar shaklida uchraydi.

Chalchiq – balchiq, suyuq botqoq. Toshkent, Qo'qon shaharlarida **Chalchiq** degan joylar bor.

Chambil – dostonlarda afsonaviy yurt nomi. *Chambil* degan etnonim ham bor. Qo'ng'irot qabilasining qanjig'ali va qo'shtamg'ali urug'larining bir bo'limi *chambil* deb atalgan. Xovos, Denov, Ishtixon, Norin tumanlarida **Chambil**, Bulung'ur tumanida **Chambiltepa** qishloqlari ana shu etnonimdan nom olgan.

Chandir – turkman qabilasi, Nurota turkmanlarining urug'i. Baxoriston, Payariq, Pastdarg'om, Shofirkon, Jondor, Qorako'l, Romitan tumanlarida **Chandir** qishloqlari qayd qilingan. Etnonim «go'shtning pay qismi» ma'nosidagi chandir so'zidan kelib chiqqan degan fikr bor. Sharqning mashhur filologi Abu Xayyon **chandir** so'zini «duragay», «qurama» deb izohlagan.

Chaparashli, chaprashli – Zarafshon vodiysidagi qipchoqlarning bir urug'i. Payariq, Zomin tumanlarida **Chaparashli** qishloqlari bor.

Chaqar – shaharning qal'a devoridan tashqaridagi istehkom. Zahiriddin Muhammad Bobur bunday deydi: «Temurbekning (ya'ni

Amir Temurning) nabirasi Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzo Samarqandning tosh (tashqari) qo'rg'onida – chaqarda bir madrasa solibtur». Bundan tashqari, tojik tilida (Xo'jandda) *chaqar* deganda «ko'cha, jin ko'cha» tushunilgan. Mo'g'ulshunos T.D. Nominxanov esa **Chaqar** toponimi mo'g'ullarning urug' nomi bilan atalgan deydi. Turkman-o'zbeklarning bir urug'i ham *chaqar* deb atalgan.

Narpay, Yakkabog', Shahrisabz, Sariosiyo, Shofirkon, Ishtixon, Xo'jaobod, G'uzor tumanlarida **Chaqar** qishloqlari, Toshkent shahrida **Chaqar** mahallasi bor. Bu toponimning «xizmatchi», «askar» ma'nosidagi *chokar* so'ziga aloqasi yo'q.

Chag'at – O'rta Osiyoda past tog'larning o'simlik kam o'sadigan va oftobda qaqrab yotgan tik yonbag'irlari. *Chag'at* ko'pincha yupqa mayda tosh-gilli slanets parchalari bilan qoplangan bo'ladi. Zomin tumanida **Qizilchag'at, Qoraqulchag'at** degan toponimlar uchraydi. Shimoliy Kavkazdagi **Cheget** toponimi ham shu ma'noda («oftobro'y tik yonbag'ir»).

Chag'atay – o'zbeklarning qatag'on, kenagas, qarluq qabilalari tarkibida qayd qilingan urug'. Bu urug' turkmanlar tarkibida ham uchraydi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlarida **Chag'atay** qishloqlari bor. Mazkur etnonim Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyning ismi bilan bog'liq: Chig'atoy ulusi, undan so'ng esa shu hududdagi Temuriylar davlatining turkiy aholisi *chig'atoylar* deyilgan. O'zbekistonning Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Tojikistonning janubiy qismida yashagan o'zbeklar va tojiklar ham o'zlarini *chag'atoylar* deyishgan.

Chig'atoy ismi va undan hosil bo'lgan tushunchalar butun dunyoda *chag'atay* shaklida yoziladi va talaffuz qilinadi. Chag'atoy qishloqlarini **Chig'atoy** shaklida o'zgartirish nomaqbul.

Chek – ulush, hissa, toponimiyada xususiy yer uchastkasi, xonning va oila a'zolarining, amaldorlar, ruhoniylar, mashhur shaxslarning, umuman, har qanday kishilarning xususiy yerlari. 1909-yilgi ro'yxatga ko'ra, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, O'sh uyezdlarida 50 dan ortiq joy nomi tarkibida *chek* so'zi uchraydi. Bu atama hozir ham ko'pgina toponimlar tarkibida takrorlanadi: **Cheksaroy** (Bag'dod tumani) – «saroy qabilasi vakillarining chek yerlari», **Chekchuvuldoq**

(O'zbekiston tumani) – «chuvuldoq urug'i vakillarining chek yerlari» va h.k. Arabcha *sak* va forscha *chak* – «hujjat», «shartnoma» so'zidan olingan.

Chelak – etnonim. Do'rman qabilasining bir shoxobchasi *ko'kchelak* deb atalgan. Payariq tumanida **Oqchelak** degan qishloq bor. Janubiy Qirg'izstondagi **Sarichelak** ko'lini eslang. Qator qonuniga ko'ra *chelak* degan urug' bo'lishi shart.

Chem – mustahkam devor sadd; tevarak-atrofi devor, chuqur xandak bilan o'ralgan joy, qo'rg'on. Shahrisabz (Kesh) shahrining qadimiy devori o'rni hozir ham **Chem** deb ataladi. Andijon tumanida **Chem**, Qamashi tumanida **Chemqamay** degan qishloqlar bor. **Chimqishloq, Chimqo'rg'on** kabi toponimlar tarkibidagi *chim* komponenti asli *chem* bo'lishi kerak.

Chep – to'siq, g'ov, barrikada, istehkom. «O'q o'tmas bek bo'l, yov o'tmas chep bo'l» deyishar ekan yovgarchilik zamonlarida. Oltinsoy, Urgut tumanlarida **Chep** degan qishloqlar bor.

Chiljivut – kenagas qabilasining bir tarmog'i. Chiroqchi tumanida **Chiljivut** qishloqlari bor. *Choljivut* (*choljuyut, soljuyut*) degan urug' ham bo'lgan. Asli ikkalasi bir urug' bo'lishi mumkin.

Chimboy – ko'chmanchi o'zbeklarda urug' nomi. Go'zalkent, Kitob, Beshariq, Quva tumanlarida **Chimboy**. Bo'stonliq tumanida **Chimboyliq** qishloqlari bor. Qoraqalpog'istondagi **Chimboy** shahri Shiniboy-Shimboy (o'zbekcha talaffuzda Chimboy) shu yerni obod qilgan kishining ismi emish. Aslida bu ham etnonim.

Ching – qir va balandliklarning, supatog'larning tik tushgan yonbag'irlari, tik jarliklar. Qozoqlar *shing*, oltoyliklar va qirg'izlar *ching* deyishadi. Rus geografik adabiyotida *chink* shaklida ishlatiladi. Qirg'iz tilida tog'ning chiqib bo'lmaydigan tik yonbag'ri ham *ching* deyiladi. Eronda *cheng* deganda tog', tog' tepasi, tepalik ham tushuniladi. Bu atama *ching* shaklida Zomin tumanida uchraydi.

Chindovul – 1) suv tashuvchi, meshkob; 2) qo'shinning eng orqadagi soqchi qismi – arergard. Chust tumanida **Chindovul** qishlog'i bor.

Chirqirovuq – qipchoq o'zbeklar va yuz qabilasining bir urug'i. Zomin, Ishtixon, Pastdarg'om tumanlarida **Chirqirovuq** qishloqlari bor.

Chig'anoq, chag'anoq – ba'zi turkiy tillarda (mas., qirg'iz tilida), o'zbek tilining ayrim shevalarida qo'lning tirsagi, toponimiyada «muyulish», «daryoning burchak hosil qilib burilib oqadigan qismi». Kattaqo'rg'on tumanida **Chig'anoq**, Pop tumanida **Chaganoq** qishloqlari bor (q. *To'qay*).

Chig'atoy – q. *Chag'atoy*

Chorbog' – aynan «to'rt bog'», ya'ni tokzor, mevali bog', tabiiy istirohat bog'i va poliz. XIV–XV asrlarda Amir Temurning Samarqandda 14 chorbog'i bo'lgan. Bog'larning gir atrofi saroylar bilan o'ralgan edi. XV–XVI asrlarda *chorbog'lar* boy-feodallarning mulki hisoblangan. Ba'zan shaharning ikki tomoniga teraklar ekilgan bosh xiyoboni *chorbog'* deyilgan. Hozir ko'p joylarda gir atrofi devor bilan o'ralgan har qanday bog', shuningdek, shahar chekkasidagi bog'lar *chorbog'* (chorvoq) deyiladi. Farg'ona vodiysida *chorvoq* degan urug' bo'lgan. Boysun, Narpay, Samarqand, G'ijduvon, Xiva, Baliqchi, Uchqo'rg'on tumanlarida **Chorbog'**, Vobkent tumanida **Chorbog'kent**, Samarqand tumanida **Chorbog'tepa**, Beshariq tumanida **Chorbog'turang'i**, Qiziltepa, Bulung'ur tumanlarida **Chorboq**, Kogon tumanida **Chorbog'kent** qishloqlari, Bo'stonliq tumanida **Chorvoq** suv ombori bor.

Chordara – to'rt eshikli (ikki eshigi shimolga, ikkitasi janubga qaragan) xona yoki boloxona. Podsholik chegaralaridagi minora, ya'ni qorovulxona ham *chordara* deyilgan (*dar* – eshik). Prof. M.Y. Masson chordara so'zi *chaldivor* «vayrona» ma'nosini bildiradi deydi.

Ishtixon, Samarqand, Narpay, Konimex, Navoiy, Oltiariq, Amudaryo tumanlarida **Chordara** qishloqlari bor; Qozog'iston bilan O'zbekiston chegarasida **Chordara** suv ombori joylashgan.

Chorsu – markaziy bozor. Dastlab bu so'z «Avesto»da chovrusuk («to'rt tomonlama») shaklida uchraydi va «bozor» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu so'z *chaxorsu*, nihoyat *chorsu* shaklini olgan va «gumbazli bozor» ma'nosini anglatgan.

Bundan tashqari, tarixiy asarlarda *chorbozor* yoki *chorsuq* so'zi ham uchraydi (arabcha *suq* – bozor). Shunday qilib, ko'chalar kesishgan joydagi bozor maydoni, ya'ni markaziy gumbaz *chorsu* deb atala boshlagan.

Chot – ikki son orasi, but. Toponimiyada daryo (soy) yoki tog'ning

ikki tarmoqqa ajralgan joyi. U soy (daryo) yoki ikki tog‘ bir-biriga qo‘shilgan joyini ham anglatadi. Bu so‘zning «daryo tarmog‘i», «delta», «serdara», «serjar», «supatog‘» ma’nolari ham bor. E.M. Murzayev ma’lumotlariga ko‘ra, *chot* (chat, shat) atamasining toponimik areali: Kavkaz, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Volgabo‘yi, Yaqin Sharq.

Choshtepa – tuproqqo‘rg‘on, qo‘rg‘ontepa, sun’iy tepalik, qorovultepa. Paxtachi, Urgut, Payariq, Sariosiyo, Xatirchi, Shahrisabz, Dehqonobod tumanlarida **Choshtepa** degan qishloqlar bor. *Choshtepa*, *Shoshtepa*, *Shishtepa* kabi tepaliklar O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda, Tojikistonda ko‘p uchraydi.

Chuyut – ko‘chmanchi o‘zbeklar, kenagas qabilasi, qirg‘izlarning *basiz* qabilasi tarkibida qayd qilingan urug‘. Shahrisabz, Bulung‘ur, Navoiy, Navbahor tumanlarida **Chuyut** qishloqlari qayd qilingan.

Cho‘michli – etnonim. Qo‘ng‘irot qabilasi vaxtamg‘ali bo‘limining bir urug‘i *cho‘michli* deb atalgan (tamg‘asi cho‘mich shaklida bo‘lgan – urug‘ning to‘liq nomi *cho‘mich tamg‘ali*). Paxtachi, Narpay, Payariq, G‘uzor, G‘allaorol tumanlarida **Cho‘michli** qishloqlari qayd qilingan.

Shag‘al – shoqol, chiyabo‘ri. Shag‘al toponimi ko‘proq etnonimdan nom olgan: o‘zbeklarning qo‘ng‘irot qabilasining bir bo‘limi *shag‘al* deyilgan. Turkmanlarning ersari va teke qabilalar takribida ham *shag‘al* urug‘i qayd qilingan. Shag‘al (shaqal) urug‘ning muqaddas jonivori (totemi) bo‘lgan. Qorako‘l, Qo‘shrabot, Nukus tumanlarida **Shag‘al**, G‘ijduvon, Narpay tumanlarida **Shag‘alon**, Gurlan tumanida **Shagallar** oykonimlari qayd qilingan.

Shahar – yirik aholi punkti. Turli tillarda *shahar, shahr, shaher, shehar, shar, sher* shakllarida talaffuz qilinadi. Sanskritcha *kshatra* «davlat», «hokimiyat» so‘zidan olingan. Dastlab shahar «hokim, hokimi mutlaq qarorgohi» ma’nosini anglatgan. Chunki har bir shahar o‘z oldiga kichik bir davlat hisoblangan. *Shahrizoda* ismi «shohzoda» degani. Tojik publitsisti M. Umarov fikricha, *shoh* (podshoh) so‘zi ham o‘sha *shahr* (shahar) atamasidan kelib chiqqan. Sher (turkiychasi «arslon» so‘zi) ham *shahr* («podsho») kalimasiga borib taqaladi, chunki *sher* «darrandalar podshosi» hisoblangan. Bu so‘zdan *Shahriston* «ichki shahar», shoh qarorgohi, shuningdek, «shaharning qadimiy qismi», keynchalik «shaharlar o‘lkasi», *shahriband* – «shahar devori», *shahriyor* «hokimi mutlaq», «imperator» kalimalari paydo bo‘lgan.

Shahriston (asl ma’nosi «hokimi mutlaqning qarorgohi») – 1) ichki shaharning mudofaa devori bilan mustahkamlangan asosiy qismi; 2) bir qancha shaharlar va boshqa aholi punktlarining birbiriga qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan bahaybat shahar, *megapolis*. O‘ratepa shahri yaqinidagi **Shahriston** dovoni qadimiy shahar o‘rnida paydo bo‘lgan **Shahriston** qishlog‘i nomi bilan atalgan. Ilk o‘rta asrlarda Xorazmning poytaxti bo‘lgan **Kat** shahri oldin **Shahriston** deb atalgani borasida fikr bor.

Sher – etnonim. O‘zbeklarning saroy, qirg‘izlarning saruu qabilasi tarkibida *sher, sherbachcha* shoxobchalari bo‘lgan. **Sherobod, Sherkent, Sherqishloq, Sherqo‘rg‘on, Shertepa** kabi oykonimlar o‘sha *sher* etnonimi in’ikosidir.

Shiber, shiver, shibar – 1) botqoqlik, loytuproq; 2) sernam joylarda o‘sib yotgan bo‘liq ko‘kat. Zomin tumanida **Kattashiver, To‘garakshiver**, Shahrisabz tumanida **Shibarikalon** toponimlari bor.

Shirin – ko‘chmanchi o‘zbeklar tarkibidagi qavmlardan biri. Vobkent, Xonqa, Xatirchi, Xovos, Ishtixon tumanlaridagi **Shirin**, Xatirchi, Nishon tumanlaridagi **Shirinobod** qishloqlari etnotoponimlar. **Shirinbuloq**, **Shiriquduq** kabi toponimlar «suvi chuchuk» degan ma’noni anglatgan. Shuningdek, **Shakarteri, Shakartepa, Shakarqishloq** oykonimlari ham etnotoponimlar sanalgan. Masalan, **Shakartepa** asli Shakarto‘pi bo‘lgan. Biroq **Shakarbuloq, Shakarjo‘y** kabi gidronimlar obyektning suvi «shirin-shakar, chuchuk» ekanligiga ishoradir.

Shig‘ovul (ma’nosi «elchini boshlab yuruvchi») – xon yoki podshoning saroyida tantana marosimlarini boshqarib turgan katta amaldor. Xiva shahri yaqinida **Shig‘ovul** toponimi qayd qilingan.

Elatan – o‘zbek qipchoqlarning va qirg‘iz qipchoqlarning bir urug‘i, laqay qabilasi tarkibida ham uchraydi. Jomboy, Dehqonobod, Namangan, Uchqo‘rg‘on, Izboskan tumanlarida **Elatan** qishloqlari qayd qilingan.

Yuziya – yuz qabilasining umumiy nomi, «yuzlar» degan so‘z. Asaka, Quva tumanlarida **Yuziya** degan qishloqlar qayd qilingan. Shu bilan birga **Yuzlar** degan qishloqlar ham bor (Asaka, Oltinko‘l tumanlari).

Yut – 1) don-g'alla (oshlik) unmagan yil, ocharchilik, qahatchilik; 2) tabiiy ofat – qurg'oqchilik bo'lganidan (**qora yut**), qor ko'p yoqqanidan (**oq yut**) yoki *yaxvonlik*, ya'ni yer yuzasining o't-o'lanlar bilan birgalikda yoppasiga yaxlab qolishi oqibatida chorva mollarining yaylovlarda oziqsizlikdan qirilib ketishi.

Yayla, yaylov – yaylov, yozda ko'chib chiqiladigan baland tog' yaylovi. Qadimiy turkiy tilda yay (yoy), qirg'izchada *jay* – yoz (jaz – «bahor»). Bu atamaning *ayloq*, *yayloq* variantlari turkiy tillar bilan tojik tilida ham ishlatiladi (*devlox* atamasi bilan bir qatorda).

Yayla komponenti Qrim, Ozarbayjon, Turkmanistonda toponimlar hosil qilgan. O'zbekistonda **Tuyayaylov** (Jizzax tumani), Qirg'izstonda **Jaylovbuloq**, Qozog'istonda **Terejaylov** toponimlarini aytib o'tish mumkin.

Yaylov – chorva mollari o'tlaydigan keng maydon, o'tloq. Yaylov (jaylau, jaylov) umumturkiy so'z. Jay-ey qadimgi turk tilida yoz-yaz deb bahorni aytishgan, *yaylag'* – «yozloq», «yozda ko'chib chiqib yashaydigan keng yaylov», turkmanchada *yayla* yoki *yaylag* – «yozgi yaylov», «yozda o'tovlar tikilgan joy», Qrimda *yayla* – «tog' yaylovi», «yassi tog'» ozarbayjonlarda, usmonli turklarda ham (*yayla, yaylag, eylag*) «yassi tog'», yozloq. Eronda *yayloq, yaylo* «yozloq», «yozgi qishloq», «yozda ko'chib chiqiladigan joy» (yoz-yaz deb bahorni aytishgan).

Tojikistonda *ayloq, yayloq* va *devlox* bir ma'no – «tog' yaylovi»ni bildiradi. Qirg'izston, Oltoy va Kavkazda 2000 metrdan balandda joylashgan tog' yaylovlari, mahalliy aholi bilan birga rus adabiyotida ham *jeylav*, *djaylau* deyiladi. Bu so'zning *aylaq-ayloq* shakli shevalarda va tarixiy yodgorliklarda saqlanib qolgan. So'z boshida keladigan *j-y* tovushining tushib qolishi turkiy tillar uchun xarakterli: *jagach – yagach – agach-og'och*, *yenju* – inju «marvarid», *jo'par – yipar – ipor* (mushk).

Toshkent viloyatidagi Ohangaron vodiysi va shu yerda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan davlat **Iloq** deb atalgan. Ba'zi bir adabiyotlarda bu nom **Ayloq** deb yozilgan. Alif va yoy harflari birikmasini *ay* yoki *i* deb ham o'qish mumkinligini hisobga olib bu tarixiy o'lkaning nomi **Iloq** bo'lganligiga ishonch bildirish mumkin.

Yalama – yalang sho'rxok, shamol yalab ketadigan yoki ehtiyoj yuzasidan hayvonlar yalaydigan sho'r tuproqli yer. Chinoz shahri

yaqinida, Sirdaryo bo'yida **Yallama** degan qishloq bor. Bu toponim XIX asr oxirlaridagi ro'yxatlarda **Jalama** shaklida qayd qilingan. Samarqand viloyatining Jomboy tumanida ham **Jalama** qishlog'i bor. **Jalama** oldin Yalama, keyin tushunarliroq bo'lsin uchun **Yallama** deb atala boshlagan.

Yap, yab, yop, yob, jap – ariq (Xorazm, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston). V.V. Bartold uni eroncha *ob* (suv) so'zidan kelib chiqqan deydi. Urganch tumanida **Qorayop**, Hazorasp tumanida **Kattayop**, Turkmanistonda **Ajiyap** toponimlari bor; q. *Yob (Yab)*.

Yaxvonlik – yer yuzasining o't-o'lanlar bilan birga yoppasiga yaxlab qolishi (ruschasi гололедица). Bunday paytlarda chorva mollari yaylovlarda oziqsizlikdan qirilib ketadi; q. *Yut*.

Yashiq – o'zbek qipchoqlarning bir urug'i. Norin, Uchqo'rg'on tumanlarida **Yashiq** qishloqlari qayd qilingan.

O'ba, o'va – baland joyga, ba'zan tekislikka terib qo'yilgan tosh uyumi, tepalik (G'arbiy Sibir, Qozog'iston). Rus adabiyotida *obo* (obon) – biron muqaddas joydagi suyak, shox, tosh uyumi, shuningdek daraxt yoki tayoq boshiga osilgan latta-puttalar (qarang: *alam*); Oltoy, Qozog'istonda *o'ba* (oba) atamasidan hosil bo'lgan toponimlar kam emas; masalan, Qozog'istonda *Beso'ba, Qorao'ba, O'bali, O'baliko'l, O'balisoy, O'balisarijal* degan joylar bor. Mo'g'ul tilida *o'bo'* (o'bo'n) – uyum, qo'rg'ontepa (tepaqo'rg'on, tuproqqo'rg'on) demakdir.

Bu atamaning turkiy tillarda «turarjoy», «qishloq», «o'tov», «urug'» ma'nolari ham bor. Turkman tilida doimiy yaylovlari hamda chorva mollarini sug'orish uchun quduqlari bo'lgan ko'chmanchi qabila-urug' ***o'ba*** deyilgan.

Buxoro, Jondor, Romitan, G'ijduvon tumanlarida **O'ba, O'babolo, Yuqorio'ba,** Kogon tumanida **O'bazulfiqor**, Romitan tumanida **O'basaroy** degan qishloqlar bor.

Turkmanistonda **Paxtao'ba, Go'shao'ba, Kyaxrizo'ba, Kalantaro'ba** kabi toponimlar qayd qilingan. Qadimgi turkiy tilda *o'ba* – «urug'», «qabila», mo'g'ul tilida *o'bag* (ovog) «qabila», «sulola» ma'nosini anglatadi.

O'gay – yakka-yolg'iz, hajman u qadar katta bo'lmagan georafik obyekt. Masalan, **O'gaytosh** – kichikroq yolgiz qoyatosh, **O'gaytepa** – «alohida turgan kichik tepalik».

O‘guz – daryo. Olimlar Amudaryoning qadimiy nomi (O‘ks. O‘ksus, O‘xsus) shu so‘zdan kelib chiqqan deb biladilar. Buni Mahmud Koshg‘ariy ham isbotlaydi: «O‘kuz – Jayxun, Firot kabi daryolarga berilgan nom. Turk mamlakatlaridagi bir qancha boshqa daryolar ham shu nom bilan yuritiladi («Devonu lug‘otit turk», I tom, Toshkent, 1960, 91-bet). Demak, O‘kuz «katta daryo» demak.

O‘zak, o‘zek – 1) soy, daryo tarmog‘i, jarlikdagi jilg‘a, jar; 2) Amudaryo bilan Sirdaryo deltalaridagi tarvaqaylab ketgan ariq-tarmoqlar. Oltoydan Qozog‘iston orqali Boshqirdiston va Tatariston-gacha, O‘rta Osiyodan Shimoliy Kavkazgacha bo‘lgan keng hududda toponimlar hosil qilgan.

Qoraqalpog‘istonda **Qorao‘zek, Ko‘ko‘zek,** Oltoyda va Qozog‘istonning Toldiqo‘rg‘on viloyatida **Sario‘zek**, Boshqirdistonda **Tosho‘zek** degan toponimlar bor. Mirzacho‘lda suv jildirab oqib yotgan jilg‘a *o‘zak* (o‘zek) deyiladi. Qadimiy turkiy tilda *o‘z* – «dara», «vodiy», *o‘zak* – «tog‘lardagi tor o‘tkil», «tor tog‘ yo‘li». Shu bilan birga *o‘kuz +ak* «kichik daryo» ma’nosida bo‘lishi ham mumkin.

O‘zan – daryo, soy, vodiy. O‘zen, o‘zun, o‘zin, o‘zen kabi fonetik variantlarda yana «soylik», «dara», «jar», «sel», «tog‘ vodiysi», «daryo tarmog‘i» ma’nolarida turkiy xalqlar yashaydigan deyarli barcha hududlarda ishlatilgan va toponimlar hosil qilgan. Eronda ham *o‘zan* daryo ma’nosida uchraydi. Janubiy Uraldagi rus shevalarida *uzen* «daryo tarmog‘i», «soy»ni anglatadi.

Etimologiyasi haqida ma’lumot olish uchun *o‘zak* so‘ziga qarang.

O‘y – chuqurlik, pastlik, botiqlik, o‘yilgan yer. Turkiy xalqlar yashaydigan barcha hududlarda *o‘y, o‘ydung, o‘ypat, o‘yluq, o‘yjuq, o‘ytaq* kabi shakllarda ko‘plab toponimlar hosil qilgan. O‘zbekistonda ham **Qorao‘y** (Konimex, Tomdi, Kegayli tumanlari), **Qizilo‘y** (Uchquduq, Navbahor tumanlari), **Kattao‘y, Kichiko‘y** kabi toponimlar, va mikro-toponimlar uchraydi.

Zomin tumanidagi Tamtum qishlog‘ida **Ishtono‘y** degan joy bor. O‘rtadagi suyri tepalikka chiqib qarasangiz jarlik orasidagi shu maydon shaklan xuddi shimga o‘xshaydi.

O‘y so‘zi *o‘ymoq* «kavlab yoki zarb bilan urib chuqur hosil qilmoq» fe’lidan kelib chiqqan, «o‘ydim-chuqur, o‘nqir-cho‘nqir» bilan ma’nodosh.

O‘ymovut, uymovut – ko‘chmanchi o‘zbeklar, kenagas, qozoq-larning dulat, qoraqalpoqlarning keneges qabilalari tarkibidagi urug‘. G‘allaorol, Chinoz, Shahrisabz, Chiroqchi, Qibray, Dang‘ara, Payariq tumanlarida **O‘ymovut** qishloqlari qayd qilingan.

O‘r – (1) chuqurlik, xandak, uzun o‘ra. O‘rda atrofiga xon saroyi tevaragiga xandak olmoq (kavlamoq). *O‘r* so‘zining «jarlik», «botiqlik» ma’nosi ham bor. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda bir qancha toponimlar hosil qilgan.

O‘r – (2) (til oldi «*o‘*» tovushi bilan) yuksaklik, balandlik. Masalan, *tutun o‘rladi* – yuqoriga ko‘tarildi, *yilqi o‘rladi* – yilqi tepaga ketdi kabi. O‘jar odamni *o‘r odam* deyishadi.

«Tepalik», «balandlik», «yuksaklik» ma’nosida mikrotoponimlar hosil qilgan.

O‘rda – davlat boshlig‘i qarorgohi, poytaxti. *O‘rda* so‘zining dast-labki ma’nosi «xon o‘tovi», «podshoh saroyi». Qirg‘izchada *o‘rdo‘* – «boy o‘tovi», «saroy», qozoqchada *o‘rda* – «o‘tov», «qo‘nar joy», o‘zbekchada «ark».

Joy nomlari shaklida uchraydi: Quva, Toshloq tumanlarida **O‘rda** degan qishloqlar bor. Toshkentda shahar qal’asi o‘rta asrlarda **O‘rda** deb atalgan. Qo‘qon xoni Toshkentni bosib olgandan keyin XIX asrning 30-yillarida Anhor kanalining chap sohiliga yangi O‘rda barpo etgan. O‘rdada mustahkamlangan qasr, aslahaxonalar, lashkargohlar, ma’muriy binolar bo‘lgan.

O‘roqli, o‘roq – o‘zbeklarning yuz qabilasi, qozoqlarning jaloyir qabilasi (o‘raqti), no‘g‘aylar, Volgabo‘yi tatarlari tarkibida qayd qi-lingan urug‘. Tamg‘asi o‘roq shaklida bo‘lgan. Bulung‘ur, Jomboy tumanlarida **O‘roqli** oykonimlari qayd qilingan. «So‘loqlining to‘yida o‘roqlining ne ishi bor» degan matal bor (*q. So‘loqli*).

O‘tar, otar – qo‘y podasi, suruv. Asli *o‘tar* – «yaylov» (o‘t – «yashil o‘simlik») degani. Uning «ovul», «og‘ilxona» ma’nolari ham bo‘lgan. Tomdi tumanida **O‘tar**, Qonliko‘l tumanida **O‘tarovul** aholi punktlari qayd qilingan. Qozog‘istonda, Sibirda va Kavkazda joy nom-lari shaklida uchraydi.

O‘tarchi – ko‘chmanchi o‘zbeklar, jumladan, laqay qabilasi tarkibiga kirgan urug‘. Urug‘ vakillari Farg‘ona vodiysida, Buxoro va Samarqand viloyatlarida tarqoq holda yashagan. Oqdaryo, Ishtixon,

Go'zalkent tumanlarida **O'tarchi** degan qishloqlar bor. Qadimgi turkiy tilda *o'tarchi* «vaqtincha yashovchi» (ko'chmanchi) ma'nosini anglatgan. Bu so'zning «sinchi», «ot tabibi» degan ma'nosi ham bor.

O'tov, o'toq – turar joy, yengil ko'chma uy. Qirg'izchada *o'to'o', o'to'q* – «yangi kelin-kuyov uchun tikilgan o'tov». Ko'pchilik olimlar *o'tov* – turkiy *o't* – «olov» so'zidan olinganligini ta'kidlashgan. Akademik B.Y.Vladimirsov fikriga qaraganda, *o'tag'* so'zi sug'diylarning madaniy atamalaridan bo'lib, «mamlakat», «hudud» ma'nosini anglatgan. O'tmishda muayyan hududdagi bir to'p o'tov mo'g'ullarda *o'to'q* deb atalgan. Keyinchalik turkiy xalqlarda kigiz uy *o'tov, o'toq* deyiladigan bo'lgan. Joy nomlari, xususan, mikrotoponimlar shaklida ko'p uchraydi.

O'choq – olov yoqiladigan qurilma. Toponimiyada otashparastlarning cho'qinadigan, sig'inadigan muqaddas joyi. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda *o'choq, o'cho'q, o'jak, o'chaq* kabi shakllarda toponimlar hosil qilgan. Bunday toponimlar O'zbekistonda ham uchraydi. Bo'ka, O'rta Chirchiq tumanlarida **O'choqli** degan qishloqlar bor. Zomin tumanida bir tog' **Ucho'choq** deyiladi. Samarqand viloyatida ham **Ucho'choq** degan tog' bo'lib, bu «uch cho'qqi»ning o'zgargan shakli bo'lishi ham mumkin.

Turkolog E.V. Sevortyan *o'choq* so'zi *o't+chaq* «kichik o't (olov)» so'zidan kelib chiqqan deydi. O'choq so'zi rus tiliga *ochag* shaklida o'tgan.

Qavchin, qovchin – o'zbek qabilalaridan biri. Qovchinlar asosan Qashqadaryo viloyatida yashaganlar va *beguzuv, balxi, ko'rpachiyvish, bo'zchi, kashmiri, sulaymon, imom, bo'yin, tugal, pula, sherila, tuyabo'yin* kabi yirik urug'lari toponimlar shaklida uchraydi.

Ba'zi bir farazlarga ko'ra *qovchin, qutchi* yoki *qushchi* bir urug'. V.V. Bartold fikricha, *qovchin* so'zi dastlab urug' yoki qabila nomi bo'lgan emas, balki «qo'shin qo'mondoni» yoki «qo'shin» ma'nosini anglatgan. *Qovchin* so'zining «xo'jayin», «mehmon» degan ma'nolari ham bor.

Qovchin joy nomlari shaklida uchraydi. Chunonchi, Yangiyo'l shahrining oldingi nomi **Qovunchi** ham aslida Qovchin bo'lgan. Samarqand tumanida **Qovchinon** («qovchinlar») nomli qishloq bor.

Qaychili – o'zbeklarning qo'ng'irot, jaloyir qabilalarining bir

urug'i. Bu urug' (qayshili) qozoqlar, qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi. Ishtixon, Jomboy tumanlarida **Qaychili** qishloqlari bor. Urug'ining tamg'asi qaychi shaklida bo'lgan.

Qal'a (arabcha) – Yevropa, Afrika va Osiyoning katta qismida «istehkom», «qasr», «qalin va baland devor hamda xandaklar kabi mudofaa vositalari bilan mustahkamlangan joy», «shahar», «qishloq» ma'nolarida toponimlar tarkibida keladigan geografik atama.

Xorazmda *qal'a* – bu atrofi qalin devor bilan o'ralgan joy: **Ichanqal'a** – ichki shahar (forscha-tojikcha *qal'ai darun*), **Dishanqal'a** (forscha-tojikcha *shahri berun*). Xorazmda **Burgutqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Jonbosqal'a** kabi shahar xarobalari uchraydi.

Qozoqcha *qal'a*, qirg'izcha qalaa – «shahar». O'zbekchada ham *qal'a* deganda rus shaharlari tushunilgan, Rossiya shaharlariga borib, savdo-sotiq qiluvchi savdogarlar «qal'achi» deyilgan. *Qalakovush* (qal'akovush) deganda rezinka kalish (rus shaharlaridan keltirilgan) tushunilgan. Bu atama turlicha fonetik va semantik shakllarda uchraydi. Tojikstonda *qal'a* (istehkom, qasr, shahar), Kavkazda *qala* (Shimoliy Kavkaz), *kalaki* (gruzincha), *kalak* (armancha), *gala* (ozarbayjoncha), Eronda qal'a (istehkom, devor bilan o'ralgan qishloq), Afg'onistonda qal'a, qil'a (qasr).

Professor E.M. Murzayev tarkibida *qal'a* atamasi uchraydigan geografik nomlar Avstraliya bilan Antarktidadan tashqari barcha qit'alarda qayd qilinganligini ta'kidlaydi.

Qangli (qangni, qa'ni) – o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va b. turkiy xalqlar tarkibiga kirgan qabilalar. **Qanglilar tarixiy** manbalarda *qanguy, qangar, kengeres* shakllarida tilga olingan. VII–VIII asrlarda qanglilarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta oqimlarida yashab, keyinchalik Xorazmga, Zarafshon vodiysiga, Toshkent vohasiga, Farg'ona vodiysiga kelib o'rnasha boshlagan. O'zbek qanglilar yirik tarmoqlarga bo'lingan: *sari qangli, qora qangli, oq qangli (oq to'nli), ko'k qangli (ko'k to'nli)*. Bular ham o'z navbatida ko'pdan-ko'p mayda shoxobchalarga ajralgan. Shovot, Bog'ot, Gurlan, Bo'stonliq, Ishtixon, Jomboy, Oqdaryo, Kitob, Parkent, Quyi Chirchiq, O'rta Chirchiq, Jizzax, Chimboy, G'allaorol, Nurota, Xatirchi, Yangiyo'l tumanlarida **Qangli** qishloqlari qayd qilingan. **Tutliqangli** (Jomboy tumani), **Jilkashqangli** (Quyi Chirchiq tumani), **Qizilqangli** (O'rta

Chirchiq tumani), **Oltmishqangli** etnotoponimlari ham uchraydi. *Qangli* so'zi tarixiy manbalarda (masalan, «Devonu lug'otit-turk»da) «aravali» (qanqli) deb izohlangan.

Qapchig'ay, qopchig'ay – tik qoyali dara, tog'lardagi tor dara, tangi, o'tkil (turkiy-mo'g'ulcha). Mo'g'ulcha *xavtsal* – «dara», «tangi»; xavtsgay – «zov», «tik qoya», qirg'izcha *qapchig'ay* «tog' darasi», «tor va uzun tog' vodiysi», *qapchal* – «qoyali dara»; qozoqcha qapshag'ay (*qapshig'ay – qapsag'ay*) – «suvli chuqur dara», «siqiq».

Sharqiy Sibirdan, Mo'g'uliston, Tyanshan tog'larida, Janubiy O'zbekistonning tog'li hududlarida (Boysun va Qamashi tumanlarida) toponimlar hosil qilgan.

Qarapchi – ba'zi bir ro'yxatlarda 92 bovli o'zbek qavmlaridan biri sifatida tilga olingan, ba'zan esa yuz qabilasining katta bir bo'lagi sifatida qayd qilingan.

Jomboy, Bekobod, Baxmal, G'ailaorol, Samarqand tumanlarida **Qarapchi** degan qishloqlar bor.

Qarluq, qorluq – qadimiy turk qabilalari. IV–VI asrlargacha qarluqlar Sibirda yashagan, keyinchalik qarluqlarning bir qismi Yettisuvga ko'chib kelib, VIII asr oxirida Qarluq davlatini barpo qilgan. X asr oxirida qarluqlar Movarounnahrga – Farg'ona va Zarafshon vodiylariga ko'chib kelgan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Zarafshon vodiysining o'rta va quyi oqimlarida, Surxondaryo viloyati hududlarida yashagan. Paxtachi, Olot, Muborak, Oltinsoy, Sho'rchi tumanlarida **Qorluq, Qorliq** qishloqlari qayd qilingan.

Qarshi – shoh qasri, xon qo'rg'oni, saroy, xon qarorgohi. Mahmud Koshg'ariydan tortib Hofizi Abru, akademiklar V.V. Radlov, V.V. Bartoldgacha turkiy *qarshi* so'ziga shunday izohlar berilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur esa shunday izoh beradi: «Qarshi – mo'g'ulcha so'z, go'rxonani (sag'anani) mo'g'ul tili birla qarshi derlar». T. Nafasov yozganidek, XV–XVI asrlarda xon avlodi, ulug' ruhoniy va boshqa mo'tabar shaxslar qabri uchun qurilgan daxma, maqbara ham *qarshi* deyilgan, chunki o'sha davr odatiga ko'ra bunday kishilar jasadi maqbara ichiga qo'yilgan, maqbara esa saroy, ya'ni *qarshi* ichida bo'lgan (*ravza* – «gulzor», «gulshan» degan so'z, lekin ulug' zotlarning qabrini ham gulistonga o'xshatib, *ravza* deyishgan).

Hozirgi Qashqadaryo viloyatining markazi **Qarshi** shahridan tashqari, shu so'z bilan atalgan boshqa toponimlardan qadimgi Mo'g'ulistondagi mo'g'ullarning yozlik o'rdasi **Qarshi** shahrini (Ili daryosi bo'yida), Turkmaniston Respublikasining Turkmanboshi shahri yaqinidagi **Qarshi** toponimini, Rossiya Federatsiyasi *Xakasiya* avtonom oblastidagi **Karshi** (Xarshi) aholi punkti nomlarini aytish mumkin. Denov, Yuqori Chirchiq, Jarqo'rg'on, Pastdarg'om tumanlaridagi **Qarshi (Qarshiyon, Qarshilik)** toponimlari viloyat markazi nomi in'ikosidir.

Qarg'a – umumturkiy etnonim: oltoyliklar, boshqirdlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, xakaslar, o'zbeklar (qo'ng'irot va yuz qabilalari) tarkibida qayd qilingan urug'. O'zbek qipchoqlar va saroylar ichida *qarg'aoyoq* yoki *qarg'aoyoqli* urug'i uchraydi.

Qorako'l tumanida **Qarg'a**, Gurlan, Bog'ot tumanlarida **Qarg'alar**, Go'zalkent, Sariosiyo tumanlarida **Qarg'ali** toponimlari uchraydi (**Qarg'ali** toponimi «qarg'a ko'p joy» ma'nosida bo'lishi ham mumkin).

Qasaba (arabcha) – katta qishloq, kichik shahar, yirik aholi punkti. Arab geograflarining asarlarida ko'p uchraydi. Tojikstonda **Qasaba** dovoni, Tomdi tumanida **Qasava** ovuli bor.

Qasr (arabcha) – qal'a, hashamatli saroy, ko'shk (asli lotincha kastra, kastrum so'zidan). Mashhur shayx, naqshbandiylik tariqati asoschisi Bahovuddin Naqshband Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Bu qishloq keyinchalik buyuk shayx sharafiga **Qasri Orifon** – «Bilimdonlar qasri» deb atalgan. *Qasr* atamasidan tarkib topgan toponimlar arab va Yaqin Sharq mamlakatlarida, shuningdek Eron, Afg'onistonda ko'p.

Professor E.M. Murzayev Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya), hatto Lotin Amerikasi, AQSh va Kanadada *kastellum, kastrum, kastel* elementlaridan tarkib topgan talay toponimlarni *qasr* atamasi bilan ma'nodosh deb hisoblaydi.

Qashqa – geografik nomlar tarkibida uchraydigan atama. Janubiy Sibirdan boshlab O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eronda **Qashqa, Qashqabuloq, Qashqayo'l, Qashqaoshuv, Qashqasoy, Qashqasuv, Qashqatepa, Qashqatov, Qashqaqum** kabi ko'plab toponimlar (Ozarbayjonda – gashka) qayd qilingan. Gidronimlar tarkibida *qashqa* – «tog' suvi»,

«tez oqar toza suv»; qirg'izchada *ko'k qashqa suv* – «zilol tog' suvi», *qashqa yo'l* – «to'g'ri tog' yo'li», *qashqayo'l bilan yurish* – «aylanib yurmasdan to'ppa-to'g'risiga yurish», *otliq qashqadan chiqdi* – «otliq kishi tepa ortidan chiqib kelayotir».

Qashqa so'zidan tuzilgan toponimlarni 3 ga bo'lish mumkin: 1) *qashqa* urug'idan nom olgan toponimlar; 2) tog' suvi, tiniq suv; 3) ayrim tog' yoki tepalik (*qashqa yo'l* – tik tog' yo'li).

Qashqa atamasining o'zagi *qash, qosh* – «qir», «tepalik», «tik qirg'oq», «marza», «alohida ajralib turadigan» degani. *Qashqa tish* – kurak tish, *qashqo qum* – «baland yalang qum tepaliklari», *qashqa tov* – «boshqalardan ajralib turgan yuksak tog'», *qashqa ot, otning qashqasiday* iboralari ham buni isbotlaydi.

Qirg'izlarda *qashqa* (yo'lboshi) degan urug' bor (bu urug' o'zbeklarda ham bo'lsa kerak). Farg'ona vodiysidagi **Yettiqashqa**, Yuqori Chirchiq tumanidagi **Beshqashqa**, Bog'ot tumanidagi **Qashqalar** degan toponimlar o'sha urug' nomi bilan atalgan.

Qashqadaryo gidromiga kelganda shuni aytish kerakki, u qadimgi **Kesh** shahri (Shahrisabz) nomining fonetik jihatdan o'zgarishi oqibatidir. Qashqadaryo avval **Kesh** (Kash) daryosi, Amir Temur davrida **Xashqa** (Xashqarud) deb atalgan va keyinchalik **Qashqarud** – **Qashqadaryo** bo'lib ketgan.

Qiyot – qadimgi turkiy qabilalardan biri. Ko'pgina xalqlar, jumladan o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan. O'zbek-qiyotlar asosan Qashqadaryoning yuqori oqimida, Zarafshonning o'rta oqimida, Xorazm vohasida yashaganlar. Qorako'l, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Bulung'ur, Gurlan, Jomboy, Oqdaryo, Bekobod, Beshariq, Namangan, Navoiy, Shovot, Yangibozor, Narpay, Shumanay, Xo'jayli, Qorao'zak tumanlarida **Qiyot**, Qibray tumanida **Qiyotariq**, Qo'ng'irot tumanida **Qiyotovul** aholi punktlari bor.

Abulg'ozi Bahodirxonning fikricha, *qiyot* so'zi mo'g'ulcha «tog' seli» ma'nosidagi *qiyon* so'zining ko'pligidir. Bu fikrni akademik V.V.Radlov ham isbotlaydi. Demak, *qiyonni* (qiyonli) urug'ining etimologiyasi ham o'sha mo'g'ulcha *qiyon* so'zi bilan ma'nodosh.

Qir – uzunasiga cho'zilgan katta tepalik (qirga chiqdim), baland tekislik, sertepa dasht; «Qadimiy turk lug'ati»da *qir* – «yassi tog'», *qira* – «shudgor», «ekinzor» deb izohlangan. Oltoyda *qir* – «tog'»,

«tog' tizmasi». Bu so'zning *qirang* – «pastroq tog'ning qirrasi», E.M. Murzaev ta'kidlashicha, *qirat* – «pastroq supa tog'» kabi variantlari ham bor.

Qir so'zidan tarkib topgan toponimlar Yevroosiyoning ko'p joylarida uchraydi. O'zbekistonda **Qirliq** (Qo'rg'ontepa tumani), **Qirboshi, Qoraqir** (Zomin tumani) kabi toponimlar bor.

Qirq – yirik o'zbek qabilalaridan biri. Samarqand atroflarida, Tojikiston Respublikasi Panjakent shahrining janubida, hozirgi G'allaorol, Zomin, O'ratepa shahri atroflarida yashagan. **Qirq, Qirqovul, Qirqqishloq, Kattaqirq, Qirqlar** kabi toponimlar shu qabila nomi bilan atalgan. Bundan tashqari, qozoqlarda qor.

Qishliq – kenagas, qurama qabilalari tarkibidagi urug', 92 bovli o'zbek «qavmlari» ro'yxatida tilga olingan. Kitob, Qarshi, Amudaryo, Xiva tumanlarida **Qishliq** etnotoponimi qayd qilingan. Xiva tumanidagi **Qishliqqishloq** toponimining **Qishloqqishloq** shaklida yozilishi to'g'ri emas.

Qiya – bir tomoni baland, bir tomoni past joy, toshloq yonbag'ir. Shunday yerlardan yolg'izoyoq yo'l o'tgan bo'ladi. Masalan, Zomin tumanidagi Qizilqiyadan yo'l o'tgan. Dostondagi «karvonni horitar yo'lning qiyasi» deyishi shundan. Uyg'ur tilida *qiya tosh* «qoya». Shuning uchun ham qozoq geografi G.K. Qo'nqashpayev *qiya* bilan *qoya* ma'nodosh degan edi. Tojik tili shevalarida ham *qiya* – «qoya», «qiyalik», «tepalik» degani.

Qozoyoqli – qo'ng'irot qabilasining bir urug'i. Qabila tamg'asi g'oz oyog'iga – iziga o'xshash bo'lgani uchun shunday nom olgan. G'oz (qaz) qadimda *qoz* deyilgan, qozoqlar va tojiklar hamon *qoz* deyishadi. Xatirchi, Yakkabog' tumanlarida **Qozoyoqli**, Samarqand tumanida **Qozioyoqli** qishloqlari qayd qilingan.

Qovoq (qoboq) – O'zbekistonda daryo-ko'llarning baland qirg'og'i, jarlik, baland terassa (aslida *qovoq* – ko'z kosasini qoplab turgan teri). Qadimgi turk tilida *qabaq, qapaq*, Oltoyda *qabaq* «cho'ziq qir», Qozog'istonda «baland qirg'oq», Tuvada (xavak) «do'nglik» (asl ma'nosi «manglay»). Yoqutistonda (xabax) va Boshqortistonda (k'abak') «jarlik». Hamma joyda bu atama musbat relyef shakllarini, faqat Qirg'izistondagina salbiy relyef shaklini, ya'ni chuqurlikni, o'yiq joyni ifoda etadi. Qozoqlar (alimuli qabi-

lasi), qirg'izlar (tinim seyit qabilasi) tarkibida *qabaq* (qovoq), *oq qabaq*, *qora qabaq* urug'lari bo'lgan.

Qozon – ovqat pishiriladigan quyma idish. Toponimiyada relyef shakli – ulkan to'garak soylik. Prof.E.M. Murzayev qozon so'zi Dunay daryosi hamda Bolqon yarim orolidan Yenisey daryosigacha bo'lgan ulkan hududda ko'plab toponimlar hosil qilgan, deydi. Masalan, Turkmanistonda **Qozonjiq**, Ozarbayjonda **Qozonbuloq**, Bolgariyada **Qozonlik** (Kazanlik), Tataristonda **Qozon** va b. Bu toponimlarning etimologiyasi har xil bo'lishi mumkin: relyef shakli, urug' nomi (qozon yoki qoz etnonim), nihoyat qozon so'zining bevosita ma'nosi. To'p (zambarak)ning bir turi ham qozon deyilgan.

Qopqa – darvoza, shahar darvozasi. Toshkentning Sebzor daha-sida Teshikqopqa mahallasi bo'lgan. Toponimiyada *qopug, qapi, qovu* shakllarida (tor dara ma'nosida) uchraydi. Surxondaryo viloyatidagi Darband darasi **Darbandi Ohanin** (tojikcha), **Bobil Hadid** (arabcha), O'rxun yozuvlarida **Temirqopig'** shaklida qayd qilingan. Forish tuma-nida tor dara yonida **Temirqoviq** qishlog'i bor. Jizzax shahri yaqinidagi mashhur Ilono'tti darasi ham asli **Temirqoviq** bo'lgan, keyinchalik Amir Temur nomiga nisbat berilib, ruscha adabiyotlarda Tamerlanovi Vorota («Amir Temur darvozasi») shaklini olgan.

Qorabayir – etnonim. Zarafshon vodiysidagi mang'itlarning, o'zbek qipchoqlarning bir urug'i *qorabayir* deb atalgan. Payariq, Koson, Qarshi tumanlarida **Qorabayir** qishloqlari bor. Qovchin qabilasi tarkibida *qorabovur* urug'i qayd qilingan.

Qorabov, qorabog', qoraboq – o'zbeklarning saroy qabilasi tarki-bida qayd qilingan urug'. *Qora* etnonimi deyarli barcha turkiy xalqlar-ning urug'-qabilalari orasida uchraydi. Turkiy xalqlar urug'-qabilalar-ning nomlari keltirilgan bir ma'lumotnomaga ko'ra, *qora* komponenti 500 dan ortiq etnonimlar tarkibida takrorlanadi. *Qorabog'* etnonimi tarkibidagi *bog'* so'zining «mevazor» ma'nosidagi forscha-tojikcha so'zga aloqasi yo'q. Qipchoq-o'zbek shevalarida «dasta», «qabila», «qavm», «urug'» ma'nolarini anglatgan *bov* so'zi mavjud bo'lgan, *92 bovli o'zbek* tushunchasi *«o'zbeklar 92 qabiladan iborat»* degani. Bo'stonliq tumanida **Bo'stonbov, Uchbov**, Ohangaron tumanida **Qorabov** etnoto-ponimlari bor. Bunday nomlar tarkibidagi *bov* so'zi keyingi paytlarda *bog'* shaklida o'zgartirilgan, holbuki **Qorabov** «qora qavmi» demakdir.

Qoraboy – etnonim. O'zbeklarning yuz qabilasi, qirg'izlarning munduz qabilasi tarkibidagi urug'. *Qoraboy* asli turnaga o'xshash qush (ruscha – baklan). Bo'stonliq, Forish tumanlarida **Qoraboy** etnooyko-nimlari qayd qilingan. *Qoraboy* bu urug'ning muqaddas parrandasi (totemi) bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq va Xo'jayli tumanlaridagi **Qarabayli** ovullari *qoraboy* parrandasi ko'p bo'lganidan shunday atalgan.

Qorasiyroq – etnonim. O'zbeklarning qo'ng'irot, laqay qabilalari tarkibida, qoraqalpoqlarning qo'ldavli, mang'it qabilalari tarkibida *qorasiyroq* (qorasiyraq) urug'i bo'lgan. L.S. Tolstova fikricha, *juvon-siyroq, qorasiyroq* kabi etnotoponimlar qadimgi sarmat xalqining sirak qabilasi nomidan kelib chiqqan. Narpay, Chimboy, Jizzax, Kegayli, Oqqo'rg'on, Bo'ka tumanlarida **Qorasiyroq** qishloqlari bor.

Qorsuv – tog' etaklarida, vodiylarda yerosti suvlaridan to'yinadigan soylar. Ba'zan zaxob yerlardan, to'qaylardan oqib o'tadi. Tashlama va zovur ham *qorasuv* deyiladi. Qorasuv sekin oqadi va oqimining chuqur joylari qoramtir ko'rinadi. Akademik A.N. Kononov *qora* atamasini toponimiyada «yer, quruqlik» ma'nosida keladi, shunga ko'ra *qorasuv* «yerdan chiqqan suv» (ya'ni buloq suvi), *oqsuv* esa tog'dan kelgan «oqar suv» degan ma'noni bildiradi, deydi.

Qoraterі – qatag'on qabilasining bir urug'i *qorateri* deb atalgan, urug'ning shoxlari tira (tire) deyilgan, tira bora-bora *teri* bo'lib ketgan. Norin, Oqdaryo tumanlarida **Qorateri** oykonimlari ma'lum.

Qoraunas – etnonim, masalan, Zarafshon daryosining tarmog'i – **Qoraunas** arig'i (Samarqand viloyati), keyinroq **Qozonariq** deb atal-gan. Yettisuvdagi Mo'g'uliston mo'g'ullari Movarounnahr chig'a-toylarini *qoraunas* (qurama) deb atagan. O'zbekistonda *qoraunas*, qirg'izlarda *qaraunas* (qoraunas) urug'lari bo'lgan. Quva, Toshloq tumanlarida **Qoraunas** qishloqlari bor.

Qorovul – posbon, soqchi. Turkiy tillarda «qarab, qo'riqlab tur-moq» ma'nosidagi *qara* fe'lidan olingan. Ba'zi bir turkshunoslar «vul» qo'shimchali so'zlar mo'g'ul tilidan o'tgan deyishadi. Bu so'z rus tiliga ham kirgan. Har xil fonetik variantlarda Rossiya hududida (ayniqsa Sibirda), Qozog'iston, Turkmaniston, Eron, Afg'oniston, Kavkazda **Qoravul, Qoravultepa** singari nomlar ko'p uchraydi. Qadimda yov-

...ning qavoqdan kelayotganini ko'rish uchun tosa tuproq uyib ...o'tarilgan sun'iy tepaliklar **Qorovultepa** deb atalgan.

Ana shunday tepaliklar qisqarib **Qoratepa** bo'lib ketgan. Ba'zi ...oylarda esa **Qoratepa** qora qavmi nomi olingan *qora xo'ji — qoraxo'p* so'zining o'zgargan shakli.

Qoraxoni — urug' nomi. Urug' vakillari o'zlarini Avliyoota nomi bilan mashhur bo'lgan Qoraxon Avliyoning avlodlari hisoblaydi. Bu avliyoning mozori Qozog'i tomdagi Taraz shahrida. Shuning uchun bu shahar 1936-yilgacha Avliyoota deb atalgan. Ishtixon, Denov, Termiz, Forish tumanlarida **Qoraxon**, Romiton, Ishtixon, Qorako'l G'ijduvon, Payariq tumanlarida **Qoraxoni** qishloqlari bor.

Qoracha — etnonim. O'zbeklarda qatag'on, qirq, kolay, soroy qabilalari tarkibida, qozoqlarning jetimiy, qirg'izlarning mundiz, sarat qabilalari tarkibida *qoracha (qarachai)* urug'i qayd qilingan. Ishtixon, Narpay, Xatirchi, Jalaquduq tumanlarida **Qorach**a qishloqlari bor.

Qoraqo'yli — ilk o'rta asrlarda o'g'uz tumanida tarkibidagi qabilalardan biri. XI asrda qoraqo'ylilarning katta qismi g'arbga — Xuroson, Kichik Osiyoga siljib ketadi. Bu qabilaning bir qismi Sirdaryo tiqi pchoqda qolib, keyinchalik hozirgi O'zbekiston hududiga kelgan. ...dan Toshkent vohasiga kelib o'rnashadi. Zamonlar o'tishi bilan ...Surxondaryo vohasida qo'ng'irot qabilalari tarkibida uchraydi. ...*qoraqo'yli* etnonimi o'sha qabila nomi bilan bog'liqdir.

Qoya — tik yonbag'irli baland tog'. Turkiy *qoya* so'zi fors-tojik (qoya), usmonli turklar arayti esa bolqar tiliga xos (qoya) so'zlarda esa *vaya* deyiladi. O'rta Osiyo va Sibirda **Qoyaqoya**, *Qoziqoya* kabi toponimlar uchraydi.

Qudoq — suv olish uchun qazilgan to'g'on. Turkiy xalqlarda tashqari Volgabo'yi, Qrim, Shimoliy Kavkazdagi ...hevanizida (Sharqiy Sibirgacha), Ukrainaning janubida ham ishlatiladi. Turkiy tillarning ...shevalarida *qudaq* deganda baland ham tushuniladi. Turkmanistonda ...nine bir necha turi ma'lum. Ko'ndalang *qudaq*, qudaq-*ayri*, asosan turlarida *kurak* deyiladi. Boshqa turkiy tillarda o'xshash nom *qudaq* deyishadi. O'zbekistonda Qudaq, Qurama, Qudaqcha, **Qo'shqudu**q, Uchqudug kabi yuzlab toponimlar bor.

Qulon — ko'chmanchi o'zbeklar, turkmanlar qipchoqlarda, qozoq, ...ning arg'in qabilasi tarkibidagi urug'. O'zbeklarda *qulon, qulq*, turk...

...manlarda *qulonchi* urug'i bo'lgan. Buxoro tumanida **Qulonxona**, ...vatidaryo tumanida **Qulonovul**, Jondor, Qorako'l tumanlarida **Qulonchi** ovkonimlari qayd qilingan. Qulon — urug'ning muqaddas ...onivori (totemi) bo'lgan. Lekin **Qulonqoq** yovvoyi ot — *qulon* nomi bilan bog'liq: "Qulon suv ichadigan qoq — ko'lmak" demakdir. **Qulonxona** esa "qulon urug'i vakillari vashaydigan ovul" ma'nosida ham, "qulon ko'p jov" ma'nosida ham bo'lishi mumkin.

Qum — qattiq nisbatallar va tog' jinslarining sochiluvchan maydaroq ...donachalari, qumli cho'l, qumli sahro (Qizilqum, Qoraqum, Oqqum). ...Shuning uchun, bunday qumli cho'lda yashaydigan aholini *qumli* deyishgan (cho'lliklarni sahrolikmi degan kabi). **Qum, Qumariq, Qumbel, Qumbosdi, Qumtog', Qumtepa, Qumqo'rg'on, Qumrabot, Qumtog, Qumzor, Qumoq, Qumloq** degan toponimlar ko'p.

Quriqozon, qaruqqozon — yuz qabilasi tarkibidagi urug'. Shu bilan birga *qurqozon, qoraqozon, qozonsherik* deganda qishloq jamoasi birgalashib ishlash tizimi tushunilgan. Zomin, Bulung'ur, Jomboy tumanlarida **Qurqozon** (Quriqozon) degan qishloqlar bor.

Qurum — tog' yonbag'irlarida tepadan tushgan tog'lar uyumi; q. *Qurum, G'o'rum*.

Qo'ytosh — yumaloq qattiq xarsang tosh. Unda-bunda sochilib yotgan toshlar tizoqlardan qaraganda yoyilib yurgan qo'y podasiga o'xshaydi. O'zbekistonda Jizzax viloyati G'allaorol tumanida, O'rg'izistonda **Qaytosh**, Qozog'istonda **Qo'ytas** toponimlar bor.

Qo'l — daryo, soy, daryo tarmog'i, soylik, vodiy. Qadimgi turkiy tilda qo'l — "vodiy", "quruq soylik". O'rxon-Yenisey yodgorliklarida *g'ul* — "daryo havzasi", "past tekislik". Shimoliy Kavkazda *qo'l* "yassi jar", Ozarbayjon, Turkiyada "daryo tarmog'i", turkmanlarda (go'l) "qum tepalari orasidagi pastlik joy", mo'g'ul tilida *go'l* — "daryo", ba'zan "botiqqa ko'l", Gobi cho'lida "quruq o'zan", Tataristonda *qo'l* — daryo tarmog'i, "o'zan", "soylik". Bobur mirzoning mana bu gaplariga e'tibor qiling: "Qo'lning ichi kishi mamaridin yirog' xilvat yo'l. qo'l yuqori-o'q yurub, suvni o'ng qo'lga qo'yub, yana bir quruq qo'lga kirduk. Erta namozdigar bor edikim, qo'ldan tuzga chiqildi". Bobur bunda *qo'l* deganda "o'ng tomon"ni tushungan, ikkinchi ma'noda *qo'l* deganda suv oqadigan soylikni tushungan. Suv bo'lmagan soylikni ifoda etish uchun "quruq qo'l", "suvsiz qo'l" iboralaridan

ishlatgan: "Ul domanadin ko'chub, g'arbka boka yurub, bir suvsiz qo'lda tushuldi".

Professor K.K. Yudaxin qirg'iz tilida *qo'l* so'zi mustaqil holda ishlatilmaydi, faqat geografik nomlar tarkibida uchraydi deydi. Fikrimizcha, qirg'iz va qozoq tillarida *qo'l* so'zi mustaqil ma'noga ega. Masalan, *qo'l ariq* o'sha *qo'l*, ya'ni "tarmoq" so'zidan tarkib topgan: bosh ariqdan chiqariladigan "kichik ariq" – shoxobcha ariq demakdir. Qozoqlarda *qo'lat* – "tog' vodiysi", qirg'izchada *qo'lo't* "ikki qir orasidagi cho'zinchoq soylik" degani. Qashqadaryo viloyatida kichik bir ariq suvni *bir qo'l suv* deyishadi.

Qo'l so'zidan tarkib topgan toponimlar, asosan gidronimlar Qirg'iziston bilan Qozog'istonda ayniqsa ko'p: **Muzqo'l, Norinqo'l, Oqqo'l, Mariqqo'l, Qoraqo'l** va b. Bunday nomlar O'zbekistonda ham bor: **Norinqo'l** (Samarqand viloyati), **Qizilqo'l** (Buxoro viloyati), **Qumqo'l** (Ohangaron tumani). Tojikistonda Shahriston dovoni yaqinida esa **Oltinqo'l** degan soylik bor.

Tog'li Oltoy avtonom oblasti hududida ham *qo'l* so'zidan tuzilgan daryo nomlari uchraydi: **Boyqo'l, Oraqo'l, Qoraqo'l** va h.k. Bunday komponentli gidronimlar Mo'g'ulistonda ayniqsa ko'p: Orxon-gol, Tola-gol, Onon-gol, Tuin-gol, Xalxin-gol, Ider-gol va b.

Shunday qilib, *qo'l* (gol-go'l) komponentli toponimlar juda katta hududda – Sibir va Mo'g'ulistondan tortib Qozog'iston va O'rta Osiyoda, shuningdek, Shimoliy Kavkaz va Zakavkazeda ham uchraydi (Arazin golu – Araks daryosining tarmog'i).

Qo'ng'irot – o'zbek qabilalaridan biri. Qo'ng'irotlarning asosiy qismi hozir ham Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yashaydi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibida ham qo'ng'irotlar bor. Respublikamizda, xususan, Zarafshon vodiysida 20 ga yaqin aholi punkti **Qo'ng'irot** deb ataladi.

Qo'riq – taqiqlangan, daxlsiz, qo'riqxona. Chingizxon hamda uning avlodlari dafn qilingan va sir saqlangan qabriston «buyuk qo'riq» deyilgan. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda kirish man etilgan har qanday yer (xon yaylovi va ov qilinadigan, o'tin tayyorlanadigan joylar) *qo'riq* deb atalgan. Zomin, Forish, Baxmal tumanlarida daryo bo'yidagi bo'liq o'tloqlar *qo'riq* deyiladi.

Qo'riq, qo'ra, qo'rg'on so'zlarining ildizi *qo'r* (qo'rimoq,

qo'riqlamoq, himoya qilmoq, mudofaa qilmoq). Venger olimi L. Ligeti ma'lumotlariga ko'ra qadmgi mo'g'ul tilida *kuriya*, kuriyan – «hovli», «qarorgoh», qalmoq tilida *xura, xuru* – «qo'ton», «molqo'ra», «g'ov», «xon qarorgohi», «kazarma», buryat tilida *xuryu(n)* – «devor», «qo'ra», «ihota».

Eronda podshoning o'z xotinlari bilan ovga chiqishi ham *qo'ruq* deb atalgan. Bu atamadan «zapovednik» ma'nosidagi *qo'riqxona* so'zi paydo bo'ldi. *Qo'ra, qo'riq, qo'rg'on* so'zlari ko'plab toponimlar hosil qilgan.

Qo'rchi – 1) o'rta asrlarda saroy gvardiyasi; 2) Temuriylar davlatida ekinzor qo'riqchisi. Harbiy qismlar boshlig'i *qo'rchiboshi*, qurol-yarog'lar ombori *qo'rxona* deyilgan. Shahrisabz, Olot, Peshku tumanlarida **Qo'rchi** qishloqlari qayd qilingan.

Qo'rum, qo'rum – tog' yonbag'irlarida va yassi tog' tepalarida to'planib qolgan tosh uyumlari. Oltoyda, Sayan, Tyanshan tog'larida toponimlar tarkibida keng tarqalgan. Fonetik shakllarda esa Turkmaniston va Shimoliy Kavkazda ham uchraydi. Osiyodagi eng katta tog' tizmalaridan biri **Qorako'rum**ni eslang. Ko'proq qo'rum (shevalarda g'o'rum, g'o'rim) shakli keng tarqalgan; q. *G'o'rim*.

G'alcha – tog'lik; q. *G'ar*.

G'anchi – it g'ajib uzmasligi uchun arqonga bog'lanadigan yog'och; *'ul* – to'qimini tishlab iflos qilmasligi uchun otning bo'yniga bog'lanadigan tayoq. Xon yoki bekning mollariga qaraydigan cho'pon ham *g'anchi* deyilgan. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" asarida *g'anchi* so'zi o'rniga ba'zi kotiblar *qo'ychi* so'zini ishlatganlar. *Anchi* so'zining ana shu ikkinchi ma'nosi joy nomlari shaklida saqlanib qolgan. Kogon tumanida **G'anchi**, Olot tumanida **G'anchichandir**, Uchko'prik tumanida **G'anchiqishloq**, Asaka tumanida **G'anchiyuz** toponimlari qayd qilingan.

G'ar – yagnob tilida "tog'". Tojikistondagi Murg'ob daryosining bosh tomoni o'rta asrlarda **G'archiston** – "tog'li o'lka" deb atalgan. Samarqand G'archistoni deganda Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi tog'lar tushunilgan. O'zbekistonda **G'alcha** degan qishloqlar asli **G'archa** – "tog'lik" ma'nosini anglatgan. Tojikistonning tog'li qismlarida, xususan, Pomir va Yagnobdan kelgan tog'liklarning tojikchadan ham farq qiladigan tillari tekislikdagi xalqlarga tushuniksiz

bo'lganidan ularni *g'alcha* (churchut) deb atashgan. Baxmal tumanidagi **G'alchabuloq** toponimi ham shu so'zdan kelib chiqqan.

G'o'rim – tog'dan qulab tushgan toshlar uyumi (qo'rum – qurum, g'o'rum, g'o'rim). Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida **Kattag'o'rim, Kichikg'o'rim, Sarig'o'rim, G'o'rim** mikrotoponimlari uchraydi; q. *Qo'rum*.

Hazora – Amir Temur davrida mingta jangchi yetkazib beradigan ma'muriy-hududiy birlik yoki olingan hosil bilan ming jangchini boqish mumkin bo'lgan hudud. Samarqand, Shahrisabz tumanlarida **Hazora** qishloqlari bor.

Hisor (arabcha) – tekislikdagi qo'rg'on, qal'a; devor bilan o'ralgan istehkom. Turkiy tillarda *hasar* (ozarbayjoncha), *asar* (qozoqcha), *isar* (qirg'izcha), shevalarda esa *zar* kabi shakllar olgan. Atamashunos T. Nafasov **Zartepa** ham asli **Hisortepa** ("qo'rg'on o'rnida paydo bo'lgan tepalik") demakdir, deydi.

Hovuz – suv saqlash uchun qazilgan chuqurlik, ko'l, qadimda *havza* deyilgan. Asli, arabcha *havd*, tojik shevalarida *havd*. Dostonlarda tilga olingan **Havdak ko'li** «hovuzcha» demakdir. G'ijduvon, Samarqand tumanlarida **Havzak**, Pop tumanida **Hovuzak** toponimlari qayd qilingan. Samarqand viloyatining ayrim hududlarida hovuzni *hovut* deyishadi. Bu so'z Yaqin Sharq, O'rta Osiyo, Ozarbayjonda turli fonetik variantlarda ko'plab toponimlar hosil qilgan.

IV bob.
AMALIY TOPONIMIKA

Geografik nomlar – toponimlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega o'laroq muhim ijtimoiy funksiya bajaradi.

Toponimlarda o'lka tabiatining ko'pgina xususiyatlari, aholining xo'jalik faoliyati va etnografiyasi, asrlar davomida mamlakatlarda ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar hamda voqea-hodisalar aks etgan bo'ladi.

Toponimlar o'tmishning ma'naviy obidalari sifatidagina qimmatli emas. Geografik nomlar bugun ham jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qiladi.

Geografik nomlarning *nominatsiya* – atalish qonuniyatlarini o'rganish, ularni tizimga solish, ularning yozilish qoidalarini yaratish, yozilishini milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish masalalari bilan YUNESKO va boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar shug'ullanmoqda.

Geografik nomlar bir-birlaridan talaffuz hamda yozilishiga ko'ra farq qilgani, adreslik vazifasini bajargani uchun ularni rasmiy hujjatlarda, xaritalarda, darslik, qo'llanmalarda va boshqa nashrlarda to'g'ri hamda har doim bir xil yozlishi kerak bo'ladi.

Jahondagi davlat idora organlari, transport va aloqa muassasalari, fan, maorif hamda madaniyat idoralari, matbuot, radio va televideniye joy nomlarining xalqaro tillarda, xususan milliy tillarda to'g'ri va qat'iy yozilishidan manfaatdor.

Har qanday geografik obyekt nomi yozilishining rasmiy va umumiy iste'mol uchun yagona shaklini aniqlash va qat'iylashtirish geografik nomlarni standartlashtirishning mohiyati va vazifasi sanaladi.

Hozirda dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida geografik nomlarni milliy standartlashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Bu mamlakatlarda geografik nomlarni o'rganadigan maxsus muassasalar bo'lib, ular davlat kartografiya muassasalari bilan hamkorlikda ishlaydi.

Ma'lumki, uzoq davr davomida mustamlaka bo'lib kelgan va yaqin vaqtlardagina mustaqillikka erishgan bir qancha mamlakat-

larda geografik obyektlarning nomlari metropoliyalardan kelgan mustamlakachilar hamda topograflar tomonidan belgilangan. Bunda mahalliy nomlar e'tiborga olinmagan yoki Yevropa tillaridan birining qonun-qoidalariga moslab yozilgan. Oqibatda tub joy xalqiga yot bo'lgan geografik nomlar xaritalarda, geografik ma'lumotnomalarda va boshqa nashrlarda muhrlanib qolgan, hatto xalqaro maydonga chiqqan.

Shu narsa ma'lumki, geografik nomlarni tashkil etadigan so'zlarni, ya'ni toponimik leksikani, xususan, geografik atamalarni, atoqli otlarning, ayniqsa toponimlarning nomlanish qonuniyatlarini va strukturalarini chuqur o'rganmasdan turib joy nomlarini to'g'ri yozishga erishib bo'lmaydi.

Sho'ro yillarida O'zbekistonning mukammal xaritasi biron marta o'zbek tilida chop etilgan emas (o'quv xaritalari bundan mustasno). Eng achinarlisi shuki, respublikamizdagi millionlab geografik nomlarni o'z ichiga olgan topografik xaritalar o'zbek tilini bilmaydigan mutaxassislar tomonidan tuzilgan. Bunday kartalarda mikrotoponimlar (kichik obyektlarning nomlari)gina emas, balki makrotoponimlar (katta ob'eklarning nomlari) ham ba'zan tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketgan.

Bordi-yu tog'u tosh, cho'l-u biyobonlarni kezib, nomlarning mahalliy talaffuz shakllarini aniqlab, to'g'ri yozish ehtiyoji tug'ilsa, ko'p sonli mutaxassis topograflar va toponimistlar bir necha o'n yil ter to'kib xizmat qilishi kerak bo'lardi (afsuski qog'ozga noto'g'ri tushib qolgan ana shu bebaho yodgorliklarning ko'plari unutilgan).

Afrika va Osiyodagi bir qancha mamlakatlarda shunday bo'ldi ham. Buzilgan va o'zgartirilgan nomlarni tiklash uchun topograf va mahalliy mutaxassislar katta tadqiqot ishlarini olib bordi.

Geografik obyektlarning standartlashtirilgan nomlarini, ya'ni qo'llash uchun majburiy bo'lgan atoqli otlarni aniqlash va belgilash har bir davlatning ichki ishi. Lekin shu narsa ma'lumki, joy nomlarining milliy shakli ularning xalqaro standartlashtirilishi uchun negiz bo'lib xizmat qiladi. Buning ma'nosi shuki, mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlargina xalqaro iste'mol uchun tavsiya etilishi mumkin.

TOPONIMLARNING TARIXIY IMLOSI

Toponimlar shunday so'zlarki, ular uzoq davr davomida iste'molda bo'lganidan grammatik va fonetik jihatdan o'zgarishlarga uchragan. Ana shu o'zgarishlarning xarakteri haqida tasavvur hosil qilish toponimlarning, aytaylik, bundan bir necha asr oldin qanday talaffuz qilinganini aniqlashda juda qo'l keladi. Chunki toponimlarning ko'hna yodgorliklardagi shakli ularning dastlabki holatini aniqlash uchun qo'shimcha material bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekistonda *Voxim, Vaxim, Uvaqim* kabi toponimlar bir necha marta takrorlanadi.

F tovushining turkiy tillarda xarakterli emasligini hisobga olsak, *V* tovushining so'z boshida kelmasligini, shuningdek, *f* tovushining *p* tovushiga, so'ngra *b* tovushiga, hatto *m* tovushiga aylanishi mumkin ekanligini tasavvur qilsak, yuqoridagi toponimlarning arabcha *vaqf* («diniy muassasa ixtiyoriga o'tkazilgan muik yoki daromad») atamasi ekanligi ayon bo'ladi. Yoki Namangan viloyatidagi *Pop* shahri arab geograflari asarlarida (XI–XII asrlarda) *Bob* (arabcha «darvoza») shaklida qayd qilingan. «Boburnoma»dan boshlab esa *Pop* shaklini olgan va transformatsiyaga uchragan. Andijon shahri esa arab geograflari asarlarida va boshqa ko'hna tarixiy manbalarda *Andiyon, Andikon, Andigon* shakllarida tilga olingan, Bobur zamonida Andijon deb «turkiy» shakl olgan.

Samarqand shahri yaqinida Samarqand hokimi Gurakning ukasi Ofarun tomonidan bunyod etilgan (VII asr) Ofarinkat shahrining nomi fonetik o'zgarishga uchragan va dastlab *Farankat, Frinkent,* so'ngra *Prinkent,* nihoyat *Primkent* shaklida talaffuz qilinadigan bo'lgan (Oqdaryo tumanidagi hozirgi Primkent qishlog'i). Bunda *kat* unsurining keyingi asrlarda turkiylashib «kentlashish» jarayoni yaqqol ko'rinadi.

Qashqadaryo viloyatidagi *Shahrisabz* tarixi manbalarda K.sh shaklida berilgan. Uni *Kesh* deb o'qishadi. To'g'risi *Kash* bo'lsa kerak, chunki shaharning epiteti «Kashi – dilkash» bo'lgan.

Yana bir misol. Samarqand bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi tarixiy o'lka arabinavis va forsinavis manbalarda *Istaravshan, Osrushona, O'srushona, Sutrushna, Usrushna, Ustaravshon, Ustrushona, Sutrushana* kabi shakllarda qayd qilingan. Eronshunos V.A. Livshits Mug' tepaligidan (Tojikiston) topilgan sug'd hujjatlari (VIII as-

ning birinchi choragi asosida Sharqning asl nomi *Sarvon* ekanligini aniqladi.

Arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal asarlarida Samarqand viloyatining 12 ta rustoqlaridan (dehalaridan) biri *Sangarfag* deb atalgan. Akademik V.V.Bartold va tarixchi V.L.Vyatkin o'sha Sanjarvarni toponimi Yangiariq kanalining o'ng tomonidagi *Zanjabog'* qishlog'i atrofida saqlanib qolgan, degan edi. Vaqf hujjatlarida ham «Sanjarvar» degan joy Zangibog' nomi bilan mashhurdir» deyiladi. Bu fikrni tarixchi O.F.Sultonov ham tasdiqlaydi.

Tildagi har qanday tarixiy o'zgarishlar nomlarda ham albatta tadrijiy ravishda sodir bo'ladi. Bu tarixiga oid har qanday izohdan ham qonuniy hodisalarning hisobga olinishiga, ularni bir-biriga qiyoslab qarashga, qonuniyatlarning ushlab qolinishiga, tegishli o'rinning ajratishlarga, ko'proq misollar topish mumkin.

Nutqda fonetik vositalarni tejash qonuniyati toponimlarda ham sezilarli darajada yaqqol ko'zga tashlanadi.

XI—XII asrlarda Buxoroda biron kishiga qarashli yer *asbob* deb atalgan (bu arabcha so'zning birligi = *sabab*). XV—XVII asrlarda yerdan tashqari mulk *asbob* deb atala boshlagan. Bu so'zning tarixiy ma'nosi (qurol-yarog' yoki buyum) keyingi asrlarda paydo bo'lgan va mazkur atama tarixiy nomlar tarkibida ko'p uchraydi. Chunonchi, Jo'yorsoy (Buxoro) arxivlarida *Asbobi Ali Yonchi*, *Asbobi Bog'ikaan*, *Asbobi Iarmiar*, *Asbobi Kofiron*, *Asbobi Sea-ruhe* kabi bir qancha joy nomlari tilga olinadi. Ko'rinadiki, *asbob* so'zidan keyin bir yer kishining yoki qandaydir joy egasining bildiradigan aniqlovchi bo'lgan. Masalan, Asbobi Kofiron, ya'ni «Kofirlar yeri» kabi. Keyingi asrlarda aniqlovchi so'zi tushib qolib, *asbob* atamasi toponimga aylangan. Shunday qilib, bunday toponimlar 6—7 asr oldin paydo bo'lgan. Ko'rinadiki, bu o'rinda fonetikaning roli yo'q.

Cho'lda gala-gala bo'lib, uchib yuradigan ***qorabovur*** degan qush bor (bag'ri, ya'ni ko'kragi qora bo'lgani uchun shunday deb ataladi; qorabayir zotli ot nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan).

Qorabovur yoki *qorabayir* degan urug' ham bo'lgan. Qorabayir nomli qishloqlar shu urug' nomi bilan atalgan. Qorabovur qushni ilgarilari *bag'ri qaro* ham (masalan, «Boburnoma»da) deb atalgan. Har ikkala tarkibiy qismi o'zbekcha, faqat o'rin almashgan, *qaro*

shakli esa tojik tili grammatikasiga xos. Aslida hozirgi paytda *bag'bicor* degan joy ham bor. So'zlarning tojikcha tilga xos o'rin almashuvi toponimikada uchraydi. Masalan, Xonqaning qadimiy portreti ko'chirilgan qishloq Amudaryodan chiqarilgan katta bir ariq *Qorasuv* deb atalgan. Shu kanal XIII asr muallifi Ibn al-Asirning arab tilida yozilgan bir asarida *Nahr al-aswad* deb atalgan va kanalning qora suvga boy degan ma'no berishi ham qo'shilgan.

Komponentlarning almashib turishiga toponimlardan emas, [illegible] misollar keltirish mumkin. *Qo'rg'onpoya* — *Poyqo'rg'on*, *Sangibastar* — *Bastarsang*, *Qorabuloq* — *Buloqqora*, *Qorabosma* — *Boshqora*, *Yorbek* — *Beyorli*, *Boyovul* — *Sarbo-yovul* va h.k.

Yuqorida [illegible] ko'rsatilganidek, bundan ikki asrcha [illegible] tilga olingan toponimlar joy atamalari eng qadimiy nomlar hisoblanadi. [illegible] ko'rsatadi. Mirza Ulug'bek [illegible] Zog'ishon [illegible] asosiy qismi Sharq [illegible] nomlari [illegible] atamalar [illegible] Bu [illegible] nomlari [illegible] atamalar [illegible] ko'p [illegible] Jo'yorsoy [illegible] *Asbobi Ali Yonchi*, *Asbobi Bog'ikaan*, *Asbobi Iarmiar*, *Asbobi Kofiron*, *Asbobi Sea-ruhe* [illegible] Ko'rinadiki, *asbob* [illegible] aniqlovchi bo'lgan. Masalan, Asbobi Kofiron, ya'ni «Kofirlar yeri» kabi. Keyingi asrlarda aniqlovchi so'zi tushib qolib, *asbob* atamasi toponimga aylangan. Shunday qilib, bunday toponimlar 6—7 asr oldin paydo bo'lgan. Ko'rinadiki, bu o'rinda fonetikaning roli yo'q.

Cho'lda gala-gala bo'lib, uchib yuradigan ***qorabovur*** degan qush bor (bag'ri, ya'ni ko'kragi qora bo'lgani uchun shunday deb ataladi; qorabayir zotli ot nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan).

Qorabovur yoki *qorabayir* degan urug' ham bo'lgan. Qorabayir nomli qishloqlar shu urug' nomi bilan atalgan. Qorabovur qushni ilgarilari *bag'ri qaro* ham (masalan, «Boburnoma»da) deb atalgan. Har ikkala tarkibiy qismi o'zbekcha, faqat o'rin almashgan, *qaro*

qo'yganlar. Masalan, «Arab geograflari kutubxonasi» seriyasiga oid (IX–XI asrlar) mashhur tarixiy geografik asarlarda Movaraunnahr, jumladan, O'zbekistondagi bir necha yuz geografik nom tilga olingan. Boshqa manbalardan farqli o'laroq, bu seriyadagi «Kitob ul -masolik va ul-mamolik» (Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob) nomli asarlar to'plamida (mualiflar Ibn Xurdodbeh, Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy asarlari) shahar-qishloqlar, daryo va tog'lar, shahar darvozalari, bozorlar, tarixiy-me'moriy va boshqa yodgorliklarning nomlarida unli tovushlarni berishda zeru zabardan ham foydalanilgan va mahalliy talaffuzni to'g'riroq ifodalashga harakat qilingan. Shunga qaramasdan, joy nomlarining yozilishi milliy talaffuzni to'la aks ettira olgan emas. Nomlarning haqiqiy talaffuzini aniqlash shuning uchun ham qiyinki, arab mualiflari bu nomlarni arabcha talaffuz qonunlariga bo'ysundirishga harakat qilganlar, holbuki arabcha talaffuzda cho'zinchoq unlidan so'ng ikki undoshning va qisqa unlidan keyin ham uchta undoshning kelishi mumkin emas. Shuning uchun ham Sam'oniy *Sangbad* o'rniga *Sangabad*, *Surxkat* o'rniga *Surxakat*, *Sutxon* o'rniga *Sutaxon* deb yozishgan. Ko'pgina nomlar tarkibida takror-takror uchraydigan oxirgi qo'shimchalarning talaffuzini aniqlash ayniqsa muhim. Chunki bular turdosh otlar. Sug'dcha joy nomlari tarkibida keladigan *varq* (to'g'on) so'zi arab geograflari asarlarida *varaq* deb, *fag'n* «ibodatxona» so'zi esa *fag'an* shaklida yozilgan.

Shundan ko'rinadiki, arab mualliflari, hatto arab yozuvida yozgan mahalliy mualliflar ham geografik nomlarni yozishda mahalliy sharoitni, milliy talaffuzni yetarlicha inobatga olishmagan. Bunda turkiy tillar uchun xos bo'lmagan tovushlarni ifodalaydigan harflarning ishlatishi ham rol o'ynagan.

Arab tilida va arab yozuvida bitilgan tarixiy yodgorliklar geografik nomlar transkripsiyasi nuqtayi nazaridan sinchiklab o'rganilmas ekan, tarixiy transkripsiya masalasi yuzasidan uzil-kesil fikr bildirish amri mahol. «Arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvida, – deb yozgan edi yirik tilshunos, filologiya fanlari doktori, prof. S. Ibrohimov, – orfografiyaning rasmiy qonun-qoidalari yo'q edi... So'zlarning yozma shakllari uzoq mashqdan keyin xotirada o'rnashib qolar edi»

«O'zbek tilining shevalarida yettitadan o'ntagacha unli fonemalar bor, – deb davom etadi muallif, – arab alfavitida esa unli fonema-

larni ifodalash uchun atigi uchta harf – *alif*, *vov* va *ya* harflari ishlatigan. Birgina orfogramma turlicha o'qilishi mumkin edi. Masalan, *gr* orfogrammasini «*gar*» (agar) deb ham, «*kar*» (karqo'loq) deb ham, «*kir*» (uyga kir) deb ham, tovushga taqlid qilish ma'nosidagi «*gur*» (gur-gur) deb ham o'qish mumkin edi».

Arab yozuvining katta kamchiliklaridan biri shu ediki, so'zlarni, jumladan, atoqli otlarni yozishda bir qancha hollarda unli tovushlar o'z aksini topmas edi. Masalan, *Samarqand* harfma-harf o'qiganda, *Smrqnd*, *Buxoro – Bxoro*, *Farg'ona – Frg'ona* shakllarida yozgan. Joy nomlarini yozishda, ayniqsa, u qadar mashhur bo'lmagan geografik nomlarni xatga tushurishda muayyan qonun-qoidalarga amal qilinmas, ko'pgina hollarda har bir xattot o'z bilganicha yozar edi. Buning ustiga toponimlarning mahalliy talaffuz shakli inobatga olinmas edi: *Qo'qon – Xo'qand*, *Xuvaknd*, *Jizzax – Dzak*, *Zarafshon – Zrfshon*, *Toshkent – Toshknd*, *Nayman – Nyman*, *Quva – Qubo*, *Tuyamo'yin – Tva buyni* yoki *Tuyamuin* holida yozilar edi.

«Arab yozuvi tufayli, – degan edi akademik V.V.Bartold shaharlarning va boshqa obyektlarning nomlari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketadi».

Gap shundaki, sho'rolar davrida (1923-yilda) isloh qilinmasdan oldin bu yozuvda ***ch*** bilan ***j***, ***k*** bilan ***g***, ***o'*** bilan ***u*** va ***v***, ***ye*** bilan ***e*** va hatto ***i*** tovushlari bir xil harflar bilan ifoda etilar edi. Shunday qilib, geografik nomlarning yozma shakllari ularning talaffuz o'zgachaliklarini to'la aks ettira olmas edi.

Arab yozuviga ko'proq to'xtashimizning sababi shundaki, tarixiy toponimlarning ko'pchiligi, arab grafikasida yozilgan edi.

Lotin grafikasiga, keyinroq esa rus alifbosiga o'tilishi bilan ahvol o'zgardi: yer-suv nomlarining yozma shakli ularning talaffuziga yaqinlashdi.

Shunga qaramasdan, geografik nomlarning, xususan, yirik obyektlar nomlarining yozma shakli ko'proq tarixiy an'ana mahsuli bo'lib, mahalliy talaffuzdan hamon yiroqdir. Masalan, andijonliklar o'z shahrini *Anjan*, namanganliklar *Nomongon*, farg'onaliklar – *Parg'ona*, toshkentliklar – *Toshkand*, nukusliklar – *No'kis*, termizliklar – *Tirmiz*, hazoraspliklar – *Hazaras* deyishadi va hokazo. Bu bejiz emas, albatta. Mahalliy talaffuz zamirida qandaydir tarixiy haqiqat, qonu-

niyat yotadi. Yana shuni ham eslatib o'tish kerakki, an'ana shaklini olmagan kichik obyektlar nomlarining mahalliy talaffuz shakli ularning imlosi uchun asos hisoblanishi kerak.

Ko'pgina geografik nomlarning o'zbek tilida hozirgi yozilishi tarixiy shakldan farq qiladi. Masalan, *Jizzax* shahri arab yozuvi bekor qilinguncha qadar *Dizak* deb (to'g'risi ham *Diz-ak* «qo'rg'oncha», «qasrcha», «qal'acha»), Xorazm esa *Xuvarazm* deb, Qo'qon yuqorida aytilgandek *Huqand*, *Xuvaqand* shaklida, Sho'rchi, esa *Sho'rja*, G'uzor shahri nomi *Huzor*, Chotqol tog'lari nomi *Jidg'ol*, So'qoq qishlog'i va tog'i *So'xox* shaklida yozib kelingan va hokazo.

Bekobod shahri qadimda *Begovot* deb yozilar edi. Begovot nomli qishloqlar O'zbekistonda bir nechta bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *bek* shaklida talaffuz qilinadigan so'zning to'g'risida asli *beg* bo'lgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»asarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida bu so'z *beg* shaklida yozilgan. Akademik V.V. Bartold ham bu so'zni *beg* shaklida yozish va talaffuz qilish to'g'riroq deb yozadi. Bu kabi misollar toponimlarning hozirgi o'zbekcha yozilishi mukammal emasligini ko'rsatadi.

Demak, toponimlarning turli davrlardagi o'zbekcha yozma shakllari bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi.

Masalan, arab yozuvidagi manbalarda, jumladan, Xudoyorxon arxivida hozirgi Buvayda qishlog'i – Bibi Ubayda (hijjalab o'qiganda Bibi Abida), Marg'ilon shahri – *Marg'inon* (harfma-harf o'qiganda *Marg'non*), *Yozyovon – Yoziyobon, Laylakxona – Laklakxona, Yaypan – Iyfon, Qaqir – Qqir, Baliqchi – Bliqchi, Nayman – Niyman-Nmin* yozilgan (Nayman qishlog'i va qabilasi Farg'ona vodiysida Neyman shaklida talaffuz etilishini eslang).

Respublikamizdagi joy nomlarining hozirgi imlosi ularning an'anaviy shakliga, ba'zan asliyatiga, mahalliy talaffuziga yaqin bo'lsa ham, hamon ularning imlosi uzil-kesil tartibga solingan deb bo'lmaydi.

Bir qancha hollarda esa joy nomlaridan ma'no qidirib, yozishga intilish hollari uchraydi. Masalan, turklashgan mo'g'ul qabilasi nomi bilan ataladigan Sulduz qishlog'ini *Suvyulduz*, Kampirak devorini *Kandipirak*, Beshog'ochni – *Beshyog'och*, Begovatni *Bekobod*, Molguzar tog'ini *Morguzar* (yonidagi Ilon o'tti darasiga ma'nodosh deb hisob-

lab), Yalama (Jalama) qishlog'ini ashula nomiga o'xshatib *Yallama* tarzida yozish hollari uchraydi.

Shahar, qishloq nomlari, umuman geografik nomlarning o'zbekcha imlosi o'sha davrda hech kimni qiziqtirmagan. Geografik nomlarning ruscha yozuvi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Sohadan ancha xabardor rus ziyolisi bu haqda bunday deb yozgan edi: «Chor davrida O'rta Osiyo geografik nomenklaturasining rus tilida rasmiylashtirilgan shakli geografik obyektlarning mahalliy aholi tomonidan qabul qilingan nomlari shaklidan juda katta farq qiladi» (N.P. Arxangelskiy, Среднеазиатские вопросы географической атамаологии и транскрицции. Ташкент 1934 г, с. 14).

Shunday qilib, geografik nomlarning ruscha yozilish shakli u yoqda tursin, milliy, o'zbekcha yozilishi ham talaffuzidan jiddiy farq qilardi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, topografik xaritalar, geografik xaritalar ham, ulardagi boshqa yozuvlar bilan bir qatorda geografik nomlar ham, aholi punktlari ro'yxati kabi ma'lumotlar odatda ko'pincha o'zbek tilini yaxshi bilmaydigan kishilar tomonidan rus tilida to'ldirilar edi. Keyinchalik zaruriyat tug'ilgan paytda ro'yxat o'zbekchaga «tarjima» qilinar edi. Oqibatda mahalliy sharoit hisobga olinmasdan ko'plab xatolarga yo'l qo'yilgan.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili tarixiy fonetikasining muhim muammolaridan biri shu tillar uchun xarakterli bo'lmagan tovushlar (fonemalar)ning o'zaro munosabatidir. Bu o'rinda birinchi galda sug'dcha toponimlar tarkibida tez-tez uchraydigan tovushlar – tishlar orasidan sirg'alib chiqadigan **s** tovushi bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda ***kat, kent*** (kand) shaklida uchraydigan formant sug'd tilida ***kens*** (kans) tarzida talaffuz qilingan va «uy», «qishloq» ma'nolarini anglatgan. Aksari shahar, qishloq nomlari tarkibida keladigan bu qo'shimcha arabcha-forscha manbalarda arab grafikasida *kand* deb yozilgan. Arabcha ***se*** tovushi sug'd tilidagi ***s*** tovushiga aynan to'g'ri keladi (so'z oxiridagi harf ***se).*** Yuqorida aytilganidek, ana shunday sug'dcha toponimlar turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalarda ***kat*** (ket), k***ent*** (kant, kand) shakllarida o'zlashgan. Biroq bu leksema oxiridagi tovush turdosh otlar tarkibidagi ***d*** yoki ***y,*** shuningdek, ***t*** yoki ***s*** tovushiga aylangan. Masalan, «oila boshlig'i», «qishloq oqsoqoli», «qabila boshlig'i», «davlat boshlig'i» ma'nolaridagi tojikcha-o'zbekcha leksema *katxudo* (sug'dchasi kasxudo, «uyning xo'jayini») yoki «uy beka-

si» ma'nosidagi *kaybonu, kayvoni* (sug'dcha shakli kasbonu) so'zlarini eslang. O'zbek tilida *kasana, kasanachilik* («uyda ishlab berish») degan so'zlar bor. Bu so'zlar ham sug'dcha *kas-kat* unsurining o'zgargan shaklidir. Qiyoslang: lotinchadan *kas* «kulba», «qishloq uyi», «xutor» fransuzcha *kasa* – «kulba», italyancha *kasa* – «uy», «bino», «oila», «ro'zg'or». Dastlab «uy», «oila», «qabila» keyinchalik, «qal'a», «qishloq» ma'nolarini bildirgan, qadimiy eroncha (parfyanma) *misan* (bunda *s* tovushi tishlar orasida sirg'alib chiqadi) so'zi ham xuddi shunday fonetik o'zgarishlarga uchragan. Endilikda bu atama *mitan, meton* kabi ko'pgina toponimlar tarkibida uchraydi.

Z, d, j, t, y tovushlarining o'zaro almashishi va munosabati ham toponimda katta ahamiyatga ega. Masalan, *ozoq – odoq – etak – oyoq.* Yoki afsonaviy payg'ambar nomi *Xizr,* bir qancha shevalarda *Xidir* shaklida talaffuz etiladi. *Xidirota, Xidireli, Xidirsho* nomli qishloqlarning nomlari ham shu so'zdan olingan.

Dizak nomining *Jizzax* shaklini olishi ham ana shu qonuniyat mahsulidir.

Shuni aytish kerakki, joylarga nom qo'yishda xalq ijodi va jonli til katta rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, geografik nomlarda shevaning izlari sezilarli darajada saqlanib qolgan. Tojikcha «yangi ariq» ma'nosidagi *Jui nav* toponimi bir joyda *Jeynav* yoki *Jenov* shakllarida uchraydi. Yoki ikki suv qo'shilgan joyi tojikchasiga *Duob* deyiladi. Bu toponim bir joyda *Duob*, boshqa joyda *Duoba,* uchinchi bir xil yerda *Dug'oba* yoki *Duvova* tarzida talaffuz qilinadi. Bu kabi xilma-xilliklarni bartaraf qilish oson emas.

Kitobiy tilda *shalola* deb yoziladigan geografik atama respublikaning turli joylarida *sharilloq, sharildoq sharillovuq, sharlovuq* kabi shakllarda talaffuz qilinadi va shu kabi toponimlar hosil qilgan. Respublikada *Jarboshi, Yorboshi, Yortepa, Jartepa, Oqjar, Oqyor* degan qishloqlar bor.

Bunday nomlar tarkibidagi *yor* komponenti *jar* so'zining shevadagi shakli. *Xuddi* shuningdek, *Ilonli – Jilonli, Ilontamg'ali – Jilon tamg'ali, Yoyilma – Jayilma* degan qishloqlar bor.

Umuman atoqli otlar, jumladan antroponimlar, xususan, toponimlarning yozilishi va talaffuzidagi xilma-xilliklar faqat shevalar **oqibat**igina emas, balki turli tillarga oid leksik birliklarning boshqa lisoniy sharoitlarda qo'llanishi, ishlatilishi natijasida fonetik va boshqa

grammatik jihatdan o'zgarishi samarasi hamdir. Bunday farqlanishni bir necha turga bo'lish mumkin. Masalan, arabcha geografik, ijtimoiy atamalar O'zbekiston sharoitida transformatsiyaga uchragan.

Namangan viloyatidagi Pop shahri bundan ming yilcha oldin bitilgan yodgorliklarda. *Bob* shaklida bitilgan, «Boburnoma»da *Pop* (qo'rg'on) shaklida tilga olingan. (Buxoro shahri yaqinida ham *Bob* degan joy bo'lgan). Arabcha *bob* – «darvoza» degan so'z (ko'chma ma'noda «islom dinini tashviq-targ'ib qilgan mashhur ulamolar ham *bob* deyilgan). *Bob* bora-bora *Pop* shaklini olgan.

Arabcha *shayx* so'zi (aynan «keksa», «oqsoqol») islom mamlakatlarida ulamolar, ruhoniylarni bildirgan. O'rta Osiyoda *shayx* deganda ko'proq muqaddas mozorlarda va qabristonlarda sadaqa va nazr-niyoz hisobiga kun ko'radigan ruhoniylar nazarda tutilgan.

O'zbekiston hududida bu so'z *shayx, shix, shex, sheyx* shakllarida toponimlar hosil qilgan. Shu bilan birga o'zbeklar, turkmanlar tarkibida *shix* (*shex, shayx*) nomli qavm ham bo'lgan. Bu qavm vakillari o'zlarini ulamo shayxlar, xo'jalar, sayyidlarning avlodlari deb bilishgan.

Arabcha *amir so'zi* («lashkarboshi», «amru farmon beruvchi») O'rta Osiyoda *mir* shaklini olgan. Bu o'z ma'nosidan tashqari O'zbekistonda ijtimoiy guruhni, Turkmanistonda kichik bir urug'ni bildirgan va bevosita yoki kishi ismlari orqali amir va mir shakllarida bir qancha toponimlarda uchraydi.

Tall atamasi arab tilida «tepalik» degan so'z. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda, xususan, Zarafshon vodiysida *tal, tol* shakllarida ko'plab toponimlar hosil qilgan (*Tolimarjon, Tollimoron, Tolliqo'rg'on, Tolimarjon, Talaktepa, Toliborzu, Tallak, Tollig'ulon* va hokazo). *Tal* yoki *tol* deganda tepalik, qo'rg'ontepa, mozorqo'rg'on tushuniladi.

Arabcha *rabot* (asli ribot) deganda dastlab harbiy istehkomlar tushunilgan. O'rta Osiyoda ikki shahar tashqarisidagi shahar *rabod* deyilgan (Aslida *raboz* – zot harfi bilan yozilgan. Keyinchalik bu ikki so'z birlashib ko'proq karvonsaroylarni bildirgan. *Rabot, Rabotak, Rabotixo'ja, Rabotcha, Ravot, Ravotobod, Ravotcha* kabi toponimlar *Robot, Robod, Ravot* shakllarida uchraydi. *Turbat* (arabcha – «qabr») toponimining *turvat* shakli ham uchraydi.

Bu misollar ana shu arabcha atama bilan va tol daraxti nomi bilan atalgan tarixiy toponimlarni farqlash oson emasligini ko'rsatadi.

GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI

Toponimlar geografik xaritalar va planlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda talay toponimlar qonuniy hujjatlarda, hukumat qarorlarida, ma'muriy boshqaruv organlari faoliyatida, transport, aloqa ishlarida, xilma-xil ma'lumotnomalarda, ilmiy, ta'lim, axborotga oid va boshqa nashrlarda ko'plab uchrab turadi.

Geografik nomlarni nuqsonsiz to'g'ri yozish umumiy imloviy savodxonlikning uzviy bir qismidir.

Geografik nom – toponim ham so'z, lekin biron obyektni ifodalaydigan atoqli ot. O'zbekiston hududidagi barcha geografik nomlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yoziladi.

O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan (turdosh otlardan) iborat (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi. Bunga misollar keltiramiz.

Ot+ot. *Abdiqishloq, Qorovulbozor, Qumqo'rg'on.*

Sifat+ot. *Yomonjar, Kattaqishloq, Qiziljar, Qoratog', Uzunsoy, Sovuqbuloqchi, Torariq, Egriko'l.*

Son+ot: *Beshbuloq, Qo'shrabot, Yolg'iztol, Mingchuqur, Qo'shko'prik, To'qsonkamar, O'ttizadir.*

Ot+fe'l; *Soykeldi, Qo'yqirilgan, Tangatopdi, Qozonketgan.*

Birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Balandmachit, Balandravot, Oyoqishloq, Oqqo'rg'on, Oqtepa, Ko'kbuloq, Ko'kgumbaz, Sarisuv, Sariqtepa, Qizilsuv, Qizilsoy, Qizilqum, Yuqoriovul, Etakovul, Quyimahalla, O'rtachek, O'rtasaroy* kabi yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi sondan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda *Beshariq, Beshayvon, Yolg'izbog', Yolg'izqum, Yakkasaroy, Yakkatol* shaklida yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi tartib sondan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lgan hollarda *Ikkinchisolma, Yettinchiqo'tir* shaklida yozish maqsadga muvofiqdir.

GEOGRAFIK NOMLARNI QO'SHIB VA AJRATIB YOZISH QOIDALARI

Quyidagi hollarda qo'shib yoziladi:

O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan iborat qo'shma (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi.

Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi kishi ismi (familiyasi)dan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Abdiqishloq, Shofayziquloq, Rahimobod, Ismoiltepa.*

Ot+ot: birinchi tarkibiy qismi etnonimdan, ikkinchi tarkibiy qismi esa geografik atamadan iborat bo'lganda: *Naymanqishloq, Do'rmonariq, Qozoqovul, Yobuqo'rg'on, Arabband, Ko'rpamahalla.*

Ot+ot: har ikkala tarkibiy qism ham atamalardan – geografik va ijtimoiy-iqtisodiy atamalardan iborat bo'lganda: *Qumqo'rg'on, Bozorjoy, Qorovulbozor, Toshbuloq, Qumquduq, Sharloqsoy* (sharloq, sharilloq-sharshara):

Sifat+ot: birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Balandmachit, Balandravot, Bo'laksuv, Kattabuloq, Kichikqishloq, Yangibozor, Oyoqbog', Oqqo'rg'on, Ko'kbuloq, Sarisuv, Eskiquduq, Tozayop, Qiziljar, Qoratog', Uzunsoy, Sovuqbuloq, Torariq, Egriko'l, Sho'rquduq, Yuqoriovul, Etakmahalla, Pastqishloq.*

Son+ot: birinchi tarkibiy qismi sondan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: *Beshbuloq, Yolg'izqum, Yakkasaroy, Qo'shrabot, Qo'shko'prik, Mingchuqur, To'qsonkamar, O'ttizadir* kabi.

Ikkinchi tarkibiy qismi o'simlik yoki hayvon nomidan iborat bo'lganda: *Qo'shtol, Beshqayrag'och, O'narcha, Beshechki, Yolg'iztol.*

Quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda:

a) Katta Oqtepa, Katta Beshkapa, Katta Qorabog', Katta Naymancha;

b) Kichik Aravon, Kichik Ko'rg'oncha, Kichik Amirobod, Kichik

Toshloq, Past Olaqarg'a, Past Oqqo'rgon, Past Burqut, Past Sho'robod;

d) Pastki Oyoqchi, Pastki Qoraqiya, Pastki Sariqamish, Pastki Uyshun;

e) Quyi Janafar, Quyi Beshravot, Quyi Sho'robot, Quyi Navmetan;

f) Eski Haytobod, Eski Elbayon, Eski Xo'jaobod, Eski Haqqulobod;;

g) Etak Boybo'ta, Etak Saroy, Etak Oqqo'rg'on, Etak Qoramozor,

h) O'rta Qorabog', O'rta Rahimobod, O'rta Sho'rchi, O'rta Saydov;

i) Yuqori Arabxona, Yuqori Olot, Yuqori Qoraqiya, Yuqori Jirmiz;

j) Yangi Naynova, Yangi Baliqchi, Yangi Gulbog', Yangi Mirishkor.

Kishilarning ism-familiyalaridan, taxalluslaridan iborat geografik nomlar alohida (ayrim holda) yoziladi: *Kimyoxon Xo'jayeva, Parda Tursun, Usmon Yusupov, Hamza Hakimzoda, Alisher Navoiy ko'chasi, Habib Abdullayev ko'chasi* kabi.

General Uzoqov ko'chasi, Buyuk Ipak yo'li bekati, O'zbekistonning besh yilligi, Istiqlolning o'n yilligi shirkat xo'jaliklari kabi ko'p so'zli nomlar ayrim-ayrim yoziladi.

Quyidagi hollarda qo'shtirnoq ichiga olinadi:

Zavod-fabrikalar, shirkat xo'jaliklarining, firmalarning nomlari qo'shtirnoq bilan yoziladi: «Toshkent» shirkat xo'jaligi, «Zomin» jamoa xo'jaligi, «Malika» fabrikasi.

Geografik obyektlarning, matbuot organlarining nomlari bilan atalgan toponimlar xaritalarda qo'shtirnoqsiz yoziladi: *O'zbekiston ovozi gazetasi ko'chasi, Movarounnahr ko'chasi.*

Sonlar bilan yozilish tartibi:

Geografik nomlar tarkibiga kirgan tartib sonlar nomning oldida

birinchi o'rnida so'z bilan yoziladi: *Yettinchi qo'tir* (ruscha xutor so'zidan), *Beshinchi brigada* kabi.

Geografik atamalar

Geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik atamalar hisoblanadi. Masalan, *ko'l, cho'l, tog', adir, ariq, orol, quduq, muzlik, botqoqlik, qirg'oq, sharshara, qir, botiq, vodiy, soy, kanal, tekislik* va b.

Geografik atamalar turdosh otlar bo'lganida gegrafik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi.

Geografik atamalar toponimlar tarkibiga kirganda qo'shib yoziladi va shu geografik nomlardan keyin yana takrorlanishi mumkin: **Qoratog' tog'i, Oqtepa tepaligi, Sirdaryo daryosi, Kattaqishloq qishlog'i, Oqko'l ko'li, Tandirqum qumligi** kabi.

Xartalarga aholi punktlarining nomlari yonida ularning turlarini bidiradigan so'zlar (shahar, qishloq, ovul, shaharcha va boshqa) yozilmaydi.

Geografik nomlar tarkibidagi atamalar va boshqa so'zlarning talaffuz shaklidagi xilma-xillik

Geografik nomlar tarkibidagi atamalar jonli til so'zlaridan iborat bo'lishi mumkin. Ya'ni ular umumiy qabul qilingan atamalardan farq qilib, faqatgina shevalarda qo'llanilib kelishi mumkin. Bunday hollarda jonli til atamalari o'rniga adabiy til atamalari ishlatilmaydi. Jonli til so'zlari saqlab qolinadi.

Atamalar turli joylarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Jonli til so'zlaridan iborat atamalarning talaffuz shakli joy nomlari yozilishida saqlanib qoladi.

Geografik nomlar yozilishida defisning o'rni

Birinchi tarkibiy qismi ot yoki sifatdan, ikkinchi komponenti atoqli otdan iborat bo'lgan toponimlar defis orqali, har ikki komponenti ham katta harflar bilan yoziladi: Chig'atoy-Oqtepa, Ko'kcha-

Oqtepa, Ozod-Buxoro, Dasht-Azlartepa, Dasht-Jaloir, Bog'i-Samarqand, Do'ng-Qovchin, Isori-O'roqli, Qo'shtepa-Saroy, Tojik-Pistakent, O'qchi-Bozorboshi, O'qchi-Qushqo'noq, Xaroba-Qulonchi, Chorbog'-Boyqo'ndi, Chek-Nasriddin, Chek-Jo'rabek, Cho'ja-Arab, Cho'ja-Yuziya.

Ba'zi qo'shaloq so'zlardan iborat toponimlar orasida defis qo'yib, ikkinchi tarkibiy qismi kichik harf bilan yoziladi: Oppon-soppon, Ekin-tikin, Shirin-shirin, Ishchi-xizmatchi.

Birinchi tarkibiy qismi fe'l, ikkinchi tarkibiy qismi toponim bo'lgan geografik nomlar: Qolgan-Sir, Qolgan-Chirchiq kabi yoziladi.

Geografik nomlarning yozilishini standartlashtirish

Davlat hokimiyat organlari va o'z-o'zini boshqarish organlarida, aloqa, transport, statistika muassasalari, ommaviy axborot vositalarida, geografik xaritalar va atlaslarda hamda boshqa nashrlarda, shuningdek, iqtisodiyot, fan, madaniyat, jamoat birlashmalari xodimlari, yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan har qanday geografik nom – toponimning qat'iyan bir shaklda, standartlashtirilgan holda yozilishiga erishish davlatning suverenligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. Boshqacha qilib aytganda, har bir geografik obyekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xilda yozilishini qat'iylashtirish, qonunlashtirish geografik nomlarni ***standartlashtirish*** deyiladi.

Agar bunday vazifa birgina davlatning manfaatini ko'zlab bir til (ko'p millatli davlatda bir necha til) vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu geografik nomlarning ***milliy standartlashtirilishi*** deb yuritiladi. Bordi-yu bu ish xalqaro aloqalar tobora avj olayotgan hozirgi davrda ayni vaqtda bir necha davlatning mushtarak manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilsa, o'z-o'zidan geografik nomlarning ***xalqaro standartlashtirilishi*** vujudga keladi. Bunda ham xalqaro standartlashtirish milliy standartlashtirishga asoslanadi.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarni milliy standartlashtirish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida amalga oshirilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda davlat kartografiya xizmatlari (chunonchi, mahkamalararo geografik nomlar komissiyasi) ishlab turibdi. Geografik nomlarni standartlashtirish muammolari milliy tashkilot-

larninggina emas, balki xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlarning ham diqqat-e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Xalqaro onomastika fanlari komiteti (IGOS), Xalqaro fonetika assotsiyatsiyasi (IPA), Antarktikani o'rganish Ilmiy komiteti (SGAR), Xalqaro gidrografiya tashkiloti (IHO), Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti (IGAO), Jahon pochta uyushmasi (UPI), Xalqaro aloqa uyushmasi (ITV), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) ana shular jumalasidandir.

Keyingi yillarda geografik nomlarni standartlashtirish muammolariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) katta ahamiyat bermoqda. BMT tomonidan chaqirilgan va geografik nomlarni standartlashtirishga bag'ishlangan bir necha konferensiya, BMTning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhlari faoliyati shuning dalilidir.

Ma'lumki, uzoq vaqtlar mustamlaka bo'lib kelgan va mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan bir qancha mamlakatlarda geografik obyektlarning nomlari topografik kartalarda metropoliyalardan kelgan mutaxassislar va topograflar tomonidan aniqlangan shakllarda muhrlanib qolgan edi. Mustamlaka qaramligidan ozod bo'lgan mamlakat xalqlarining milliy ongi, madaniyatining o'sishi oqibatida geografik nomlarning milliy talaffuz va yozilish shakllarini tiklash jarayoni boshlandi. Chunki toponimlarning milliy doirada tan olingan shakllari xalqaro iste'mol uchun tavsiya etiladi.

Respublikamizda ham bu ishga qo'l urildi. Mamlakatimizda birinchi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Bosh boshqarmasi (O'zgeodezkadastr)ning Geoinformatika va kadastr milliy markazi Toponimika laboratoriyasi Respublikamiz geografik obyektlarining standartlashtirilgan, qat'iylashtirilgan nomlar lug'atini yaratish ustida ishlamoqda.

Chunki O'zbekistonning geografik nomlari ilmiy manbalarda ham, rasmiy hujjatlarda ham, biron marta ham milliy shakllarda to'laroq raqamlangan emas. To'g'ri, geografik nomlar borasida bir qancha tarixiy, lisoniy, rasmiy manbalar ma'lum. Chunonchi, Turkiston, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududi joy nomlari ko'hna yodnomalarda ham qayd qilingan. Masalan, IX–X asrlarda yashab ijod etgan, shu diyorda ham bo'lib o'lkaning bir qancha geografik nomlari haqida

ma'lumotlar bergan, arab geograflari Ibn Xurdodbeh (820–913), Ibn Havqal (tug'ilgan yili noma'lum – 976 yilda vafot etgan), Istaxriy (850–934 yillar), Muqaddasiy (946–1000) va boshqalarning 8 jildli «Arab geograflari kutubxonasi» nomi bilan mashhur asarlari, eronlik olim Rashid ad-dinning (1247–1318) «Solnomalar majmui», noma'lum muallifning «Hudud ul-olam» (982-983 yillarda bitilgan), Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va bir qancha tarixiy asarlar shular jumlasidan.

XIX asr oxirida arab alifbosida bitilgan va talay geografik nomlarni o'z ichiga Zarafshon vodiysi shahar va qishloqlari ro'yxati alohida diqqatga sazovor. («Населенные пункты Бухарского эмирата». Издательство «Университет», Ташкент, 2001). Biroq arab yozuvida raqamlangan yozma yodgorliklarni fonetik jihatdan ishonchli manba deyish qiyin. Chunki eski arab yozuvida ba'zi bir qisqa unli tovushlar va o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan ayrim undoshlar (masalan ch, p tovushlari) o'z aksini topmagan.

Lotin alifbosining qabul qilinishi (1929 – 1930), keyinroq (1940) rus yozuviga o'tilishi bilan ahvol butunlay o'zgardi, joy nomlarining yozuv shakllari ularning talaffuziga ancha mos kela boshladi.

Barcha turdagi geografik nomlar rus tilidagi topografik xaritalarda deyarli to'liq o'z aksini topgan edi. Biroq rus topograflari o'zbek tilini bilmaganlaridan nomlarni ko'pincha o'z tili qoidalariga moslashtirishga harakat qilganlar. Oqibatda talay geografik nomlar geografik xaritalarda buzib qayd qilingan. Masalan, **Kirakash** ruscha **Karakash** deb yozilgan, bu o'zbekchaga qayta **Qoraqosh** shaklida «tarjima» qilingan. Yoki olaylik, **Qorasuv** nomli soylar, ariqlar, buloqlar O'zbekistonda juda ko'p. **G'orasuv** bir o'rinda ruschada **Karasu** o'rniga **Karasi** bo'lib ketgan, natijada buni baliq nomidan olingan bo'lsa kerak degan taxminda **Karas** qilib o'zgartirishgan. Ba'zan joy nomlarini milliylashtirish o'rniga buzish hollari ham uchraydi. Farg'ona shahri yaqinidagi bir qishloq nomi Qo'qon xonligi arxivlarida arab yozuvida **Kirgili, Kirgil** shaklida qayd qilingan. Keyinchalik shu qishloq o'rnida paydo bo'lgan shaharcha **Qirguli** deb yoziladigan bo'ldi. Respublikamizda qabila nomi bilan atalgan **Sirgali, Sirgeli** degan qishloq, ovul, mahallalar uchraydi. Toshkent shahridagi Sergeli mahallasining **Sirg'ali** deb atalishi noo'rin.

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Respublikamiz hududidagi

minglab geografik obyektlarning nomlarini standartlashtirish oson ish emas.

Buning uchun mamlakatimiz hududidagi jamiki geografik nomlarni to'plab muayyan til qonun-qoidalari asosida qat'iylashtirish kerak bo'ladi.

Toponimika laboratoriyasida keyingi yillarda 1:1000000, 1:500000 va 1:200000 masshtablardagi topografik xaritalarda uchraydigan barcha geografik nomlar qog'oz kartochkalarda va kompyuter xotirasida hisobga olindi. Ana shu axborotlarda geografik obyektning o'rni, turi, nomining davlat tilida kirill va lotin yozuvlaridagi shakllari aniqlandi. Bu esa Respublikamizdagi yirik obyektlar nomlarining qat'iylashtirilgan shakllari yuzasidan davlat hokimiyati organlari va kartografik korxonalarning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi.

Yaqin yillarda 1:100000 masshtabdagi topografik xarita varaqalarining geografik obyekt nomlari, so'ng 1:50000, masshtabdagi topografik kartalarining geografik nomlari borasida ma'lumotlar jamlanadi.

Shunday qilib, Geografik nomlarning avtomatlashtirilgan davlat katalogi vujudga keladi. Bunday katalogni yaratish jarayonida uning axborot, dasturiy va texnikaviy ta'minotlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Axborot ta'minoti deganda hujjatlarning ko'rsatkichlari, axborot kodlari va geografik nomlarning majmuyi, shuningdek, ularni uyushtirish, saqlash va nazorat qilish usullari tushuniladi.

Dasturiy ta'minot katalogning bekamiko'st ishlab turishiga imkon beradigan dasturiy vositalarni o'z ichiga oladi.

Texnikaviy ta'minot axborotlarni kiritish, saqlash va qayta ishlashga mo'ljallangan va bir-biriga ulangan texnikaviy vositalar, jumladan, eng yangi kompyuterlar yig'indisi nazarda tutiladi.

Geografik nomlarning yozilish shakllarini standartlashtirish, ya'ni xarita, atlas, rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar, darsliklar, matbuot organlarida bir xilda yozilishini ta'minlash mamlakatimiz tarixida birinchi bor amalga oshirilayotgan o'ta qiyin va mas'uliyatli vazifa.

Bu ishning qiyinligi shundaki, necha minglab joy nomlari shaklida uchraydigan yoki ularning tarkibida keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, geografik atamalar, o'simliklar va hayvonlar, urug'-aymoq nomlari, hatto kishi ismlari ham turli joylarda turlicha fonetik, semantik shakllarda

muhrlanib qolgan. Boz ustiga toponimlar tarkibidagi qadimiy so'zlar hozirgi vaqtda butunlay tushunarsiz bo'lib qolgan.

Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar o'rnatayotgan ekanmiz, yurtimizdagi geografik nomlarning milliy shakllarini o'zbek tilida va yangi yozuvimizda yetkazish kerak bo'ladi.

Buning uchun birinchi galda toponimlar tarkibida keladigan barcha toponimik, leksik birliklarni to'plash, sinchiklab o'rganish kerak bo'ladi. Bu sohada 13 mingga yaqin geografik nomlar negizida yaratilgan «Joy nomlari tarkibida uchraydigan geografik atamalar va boshqa so'zlar» lug'ati juda qo'l keladi. Lug'atda uch mingga yaqin toponegizlarning ma'nosi, talaffuz shakllari qayd qilingan. O'zgeodezkadastr arxivida saqlanayotgan bu lug'at bir necha o'n ming toponim uchun «kalit» bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshqa leksik birliklardan farqli o'laroq, toponimlar bir qancha hollarda hozirgi adabiy til me'yorlarini tan olmaydi. Masalan, *soylik* atamasi – **Soyliq,** *xo'jalik* atamasi – **Xo'jaliq**, *boylik* atamasi – **Boyliq** shaklida toponim hosil qilgan (**Boyliq** «boylar yoki boy urug'i vakillari yashaydigan qishloq», **Xo'jaliq** esa «xo'jalar qishlog'i» degani). Bunday hollarda toponimning mahalliy talaffuz shakliga ahamiyat beriladi. Shu bilan birgalikda ma'lum va mashhur geografik nomlarning mahalliy talaffuzi inobatga olinmaydi: **Toshkan** emas – **Toshkent, Anjan – Andijon, Nomongon – Namangan, Tirmiz – Termiz** yoziladi va h.k. Bunda an'anaviy nomlar saqlanib qoladi.

Umuman ham joy nomlarini standartlashtirishda o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilinadi, istisnolar esa hamma tillarda, hamma leksik qatlamlarda uchraydi.

Toponimlarning yozilish shakllarini aniqlashda Toponimika laboratoriyasida tayyorlangan «O'zbekcha geografik nomlar yozilishining asosiy qoidalari»ga amal qilinishi lozim.

Geografik nomlar transkripsiyasi

Joy nomlarini to'g'ri talaffuz etish, hamma manbalarda xatosiz bir xil yozish madaniyatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Darsliklar, ilmiy va ommabop kitoblarda, kundalik matbuot, xarita va atlaslarda, radio va televizion eshittirishlarda ming-minglab joy nomlari qayd etiladi. Shahar-shaharchalarda bir kunda qancha-qancha

ko'cha-ko'ylar, bekatlar, idora nomlariga ko'zingiz tushadi. Masalan, birgina poytaxtimiz Toshkent shahrida 3000 ga yaqin ko'cha, mahalla, maydon bor. Respublikamizda bir necha yuz ming uchraydi.

Bunday son-sanoqsiz geografik nomlarning o'zbek va boshqa tillarda qanday yozilishi hammani qiziqtiradi. Biroq toponimlarni to'g'ri yozish murakkab ish, buning uchun joy nomining tarixidan xabardor bo'lish, etnonimlar – urug'-qabila nomlarini farqlash, ba'zan nomning etimologiyasi haqida tasavvurga ega bo'lish, o'zbekcha va xorijiy transkripsiya qoidalarini o'rganib olish kerak bo'ladi.

Trankripsiya lotincha *transcripto* so'zidan olingan bo'lib, «ko'chirib yozish» demakdir. Transkripsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushuniladi.

Transkriptsiya 2 xil bo'ladi: 1)*ilmiy transkripsiya* 2) *amaliy transkripsiya*. Ilmiy transkpirtsiya nutqni lisoniy (lingvistik) tadqiq qilishda ishlatiladi.

Geografik nomlarni ifodalashda amaliy transkripsiyadan foydalaniladi. Bu – so'zlarni talaffuziga qarab yozish, quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa, shunday yozish demakdir. Amaliy transkripsiyani mukammal deb bo'lmaydi. Chunki bir xil tillarda mavjud bo'lgan harf va tovushlarning ba'zilari boshqa tillarda bo'lmasligi mumkin. Bunday tovushlar o'zbekchada ularga yaqinroq tovushlar (harflar) bilan yozilaveradi. Masalan, ruscha **ы** harfi o'rniga o'zbekchada **i** harfi ishlatiladi. Respublikamizda geografik nomlar transkripsiyasi deganda quyidagi masalalar tushuniladi:

1. O'zbekistondagi joy nomlarining o'zbekcha imlosi.
2. O'zbekistondagi joy nomlarining xorijiy tillarda yozilishi.
3. Xorijiy mamlakatlardagi geografik nomlarning o'zbekcha yozilishi.

Respublikamizdagi geografik nomlarning ruscha yozilish masalasiga alohida to'xtashga to'g'ri keladi. Bunda umuman Markaziy Osiyodagi ba'zi toponimlarning transkripsiyasi haqida ham fikr yuritish lozim deb o'ylaymiz, chunki tili va yozuvi bir bo'lgan xalqlar o'rtasidagi lisoniy mushtarakliklar tobora barham topmoqda. Birgina misol keltiramiz. Qozog'iston Respublikasining sobiq poytaxti qozoq tilida **Almati**, uyg'ur tilida **Almuta**, rus tilida **Alma-Ata** shaklida yoziladi, ta-

rixiy manbalarda esa **Almatu** va **Olmalig'** tarzida tilga olingan. Bu toponim negizi *olma* so'zi bo'lganidan shahar nomini respublikamizda o'zbekchada **Olmati** shaklida yozgan ma'qul.

Respublikamizda xorijiy mamlakatlar geografik nomlarini bevosita asliyatidan o'zbekchaga transkripsiya qilish ishiga qo'l urildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Bosh boshqarmasining Geoinformatika va kadastr milliy markazi Toponimika laboratoriyasida 2001–2002 yillarda Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikiston respublikalari geografik nomlarining o'zbekcha yozilishi yo'riqnomalari yaratildi va qo'llanma sifatida tavsiya etildi. Kelajakda hamdo'stlik mamlakatlari geografik nomlarining transkripsiyasi bo'yicha bu tajriba davom ettiriladi.

Dunyoda 200 dan ortiq mamlakat bor. Ularning har biri uchun geografik nomlar transkripsiyasini yaratish oson ish emas, qo'shni turkiy tilli respublikalarni istisno qilganda biz hozircha ko'pchilik mamlakatlar joy nomlarini o'zbekcha yozishda rus tili transkripsiyasidan foydalanishga majburmiz.

Aslini olganda, bu prinsip to'g'ri emas. Aslida, Sharq davlatlari, xususan, arab va fors tilli mamlakatlarning geografik nomlarini bevosita shu o'lka tillaridan transkripsiya qilish vaqti keldi.

Joy nomlarini yozishda, talaffuz qilishda ba'zan xilma-xilliklar, hatto kamchiliklar uchrab turadi. Masalan, Arabiston yarim orolidagi **Kuveyt** respublikasini **Quvayt** deb yozib talaffuz qilishadi. Afg'oniston poytaxti **Kobul** shahrini **Qobil** deb nomlash to'g'ri emas. Yevropani **Ovro'pa**, Germaniyani **Olmoniya** deyishga ham asos yo'q.

Geografik nomlar standartlashtirilsa va qonunlashtirilsa, xatoliklarga chek qo'yilgan bo'lar edi.

O'zbekistondagi joy nomlarining ruscha yozilishida ham nuqson ko'p. **Farg'ona, Gurlan, Muborak, Termiz, Urganch** kabi shahar va kentlarimizning *Fergana, Gurlen, Mubarek, Termez, Urgench* shaklida yozilishi va talaffuz qilinishiga hech ham qo'shilib bo'lmaydi. Rus tili ta'sirida **Ohangaron** shahri o'zbekchada ham **Angren** shaklini oldi.

Zomin nomini ruschada **Zaamin** tarzida, Vodil qishlog'i nomini **Vuadil**, Arg'in qishlog'i nomini **Argen**, Obiraxmatni **Auraxmat**, Sangzor vodiysi va daryosi nomini **Sanzar** yozish esa biron grammatik qoidaga to'g'ri kelmaydi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida qayd qilinganidek, Turkistondagi, jumladan O'zbekistondagi joy nomlarini, shuningdek, kishilarning ism-familiyalarini buzib yozish o'tgan asrning oxirgi choragidan chor Rossiyasi Turkistonni bosib ola boshlagan davrdan boshlangan. Bunda Turkistonni **Turkestan**, Nurota tog'larini **Nuratau**, Binokat shahri **Benaket**, Hisor – **Gissar**, Jilolobod – **Djelalabad**, Zarafshon – **Zeravshan**, Ko'hak – **Kuxek**, Movarounnahr – **Maverannaxr** deb yozish an'ana tusini olgan edi. Buning asosiy sabablari shundaki, rus olimlari va missionerlari arab yozuvining nozik jihatlarini tushunmas edilar.

O'zbek tilshunoslari, geograflari, tarixshunos va sharqshunoslari o'zbek toponimlarining ruscha yozilishi masalasini tubdan qayta ko'rib chiqib, konkret geografik nomlarning asliyatga yaqin yangi variantlarini tavsiya etishlari kerak.

O'zbek tili davlat tili maqomini olgandan va Respublikamiz suveren deb e'lon qilingandan so'ng ham bu masala hal qilinganicha yo'q. Shuni unutmaslik kerakki, Respublikamizdagi va O'rta Osiyodagi aksari geografik nomlar xorijiy tillarda rus tilidagi shakllariga qarab yoziladi, masalan: **Mirzacho'l** nemis, ingliz va boshqa tillarda **Golodnaya step** shaklida, **Sandiqli** cho'li **Sundukli** deb yoziladi. Bunday misollar ko'p.

Keyingi vaqtlarda O'zbekistondagi joy nomlarining ruscha yozilishini o'zbekchasiga yaqinlashtirish tendensiyasi sezilmoqda. Gazeta-jurnal sahifalarida, har xil lavhalarda shahar-qishloqlar, ko'cha-ko'ylar nomlarini ruschada ham aynan o'zbekchasi kabi yozish hollari ko'zga tashlanmoqda: **ul. Abdulla Kodiriy, ul. Beshyogoch**. Gap shundaki, bizning **o** harfimizni butun dunyoda **o'** deb o'qishadi. 1940-yilgacha amal qilgan o'zbekcha lotin yozuvida hozirgi **o** harfi o'rniga **a** harfi yozilardi; **Toshkent, Buxoro, Qo'qon** toponimlari *Taskent, Buxara, Qoqan* shaklida yozilardi; xorijiy tillarga ham xuddi shunday transkripsiya qilinardi.

Transkriptsiya harfni emas shaklni, tovushni tan oladi. Tovushga emas, balki harflarga qarab yozish, ya'ni chet so'zlarni biron tildan ko'chirganda harfma-harf yozish, chet tillar alifbosidagi harflarni, masalan, o'zbekcha harflar bilan yozish, almashtirish esa ***transliteratsiya*** deyiladi.

O‘zbekiston Respublikasi geografik nomlarining ruscha yozilishi yo‘riqnomasi («Инструкция по русской передаче географических названий Узбекской ССР») oxirgi marta 1981-yilda nashr etilgan.

Buyuk bobolarimiz Abu Ali ibn Sino nomi Yevropa xalqlari orasida **Avitsenna,** Al-Farg‘oniy – **Al-Fraganus,** Amir Temir – **Tamerlan** shakllarida ma’lum bo‘lgan. Al-Xorazmiy nomidan *algaritm* shaklida yangi so‘z yaratilgan; Jizzax yaqinidagi **Temirqopuq** yoki **Temirdarvoza** darasi rus tilida **Tamerlanovi Vorota** deb, **Samarqand** Aleksandr Makedonskiy salnomalaridan buyon ko‘proq **Marakanda** tarzida yozilib kelgan. Bu misollar ism-sharif va joy nomlarini Yevropa tillariga transkripsiya qilishda qandaydir soxta an’ana mavjud bo‘lgan deyishga asos beradi.

O‘zbek olimlari toponimlar va kishi nomlarini boshqa tillarga transkripsiya qilishning mukammal qoidalarini ishlab chiqishlari, atoqli otlarning transkripsiya qilingan variantlarini tegishli instansiyalar nazaridan o‘tkazib, uzil-kesil tasdiqlatib olishlari kerak. Shundan so‘ng o‘zbekcha atoqli otlarning xorijiy tillardagi transkripsiyasi bilan qiziqib, ularning ham milliy talaffuzga naqadar yaqinligi masalasi bilan shug‘ullanish, shu bilan birga xorijiy joy nomlari va boshqa atoqli otlarni bevosita muayyan tildagi asliyatidan o‘zbekchaga transkripsiya qilish ham kun tartibida turibdi.

V bob.
AYRIM YOZMA YODGORLIKLARNING TOPONIMIK TAHLILI

Har qanday fan o‘z-o‘zidan birdan paydo bo‘lmaydi. Buning uchun jamiyatda tegishli talab-ehtiyoj vujudga kelishi, zaruriy ilmiy poydevor yaratilishi shart. Ana shunday mustahkam poydevor bu bebaho ilmiy asarlar, yozma yodgorliklar. Bir necha asr davomida toponimlar ko‘plab tarixiy, lingvistik, geografik asarlar yaratilgan, geografik nomlarni kompleks o‘rganishga sharoit hozirlangan.

Toponimikaning mustaqil fan sifatida oyoqqa turishiga imkon bergan son-sanoqsiz manbalardan ba’zi birlari haqidagina to‘xtalib, ularning toponimika uchun ahamiyatiga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir. Chunonchi bundan 10 asr oldin o‘rta osiyolik olimlar tomonidan yozib qoldirilgan bebaho asarlar – jahon geografiyasi hisoblangan «Hudud ul-olam», Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asarlari toponimiya jihatidan o‘rganildi. O‘rta Osiyoda memorial asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»ga toponimik sharh berildi. Yuqorida tilga olingan ana shu asarlarning toponimik mohiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lmasdan turib O‘zbekiston toponimiyasini o‘rganish ko‘ngildagidek samara bermaydi.

Geografik nomlar kishilarning e’tiborini qadim zamondanoq, jalb qilib kelgan. Yunon tarixchisi Gerodot o‘z asarlarida mamlakatlar, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma’nosini tushuntirib berishga harakat qilgan. Antik dunyo mualliflari geografik nomlarni asosan etimologik jihatdan izohlagan. Biroq geografik nomlarni, ularning kelib chiqishi va tarixini ilmiy asosda o‘rganish, ularni tasnif qilish nisbatan yaqin vaqtlardan boshlangan. Nemis geografi A. Gumbold bu sohada ancha xizmat qilgan dastlabki olimdir. Rossiyada ilmiy toponimika asoschisi deb A.X. Vostokovni aytish mumkin.

1812-yilda Peterburg shahrida «Петербургский вестник» to‘plamining navbatdagi 1-sonida u bunday deb yozgan edi: «Yunon va lotin tarixchilarining asarlarida uchraydigan bir qancha atoqli otlarni hisobga olmaganda, Vatanimizning qadimgi dunyo tarixiga oid

durustroq yodgorlik qolmagan. Bu atoqli otlar ham boshqa til vakillari tomonidan juda buzib yozilgan. Ana shu nomlarga qarab biron ilmiy xulosa chiqarish amri mahol. Lekin juda ishonchli yodgorliklar bor. Bu yodgorliklar mamlakatlar, o'lkalar, shaharlar, daryolar, ko'llar va boshqa joylarning nomlaridir.

– Shu narsa e'tiborga sazovorki, – deb davom etadi muallif, – joylarga berilgan nomlar dastlab ana shu nomlarni qo'ygan xalq yo'q bo'lib ketgandan keyin ham ko'pincha bir necha ming yilgacha yashayveradi».

Professor E.M. Murzayev fikricha, shimoliy yarim sharning muzlik bosmagan janubiy kengliklarida dastlabki toponimlar bir necha o'n, va hatto yuz ming yil oldin paydo bo'la boshlagan.

A.X. Vostokovning quyidagi ilmiy xulosasiga e'tibor bering: «Har qanday mamlakatda daryolar, ko'llar va tabiiy geografik obyektlarning nomlari shaharlar, o'lkalarning nomlariga ko'ra qadimiyroqdir, chunki shaharlar qurilmasdan ko'p zamonlar oldin ibtidoiy kishilar suv bo'ylarida kichik-kichik guruh bo'lib yashay boshlaganlar va bu suvlarga o'z tillarida nom berganlar. Rossiyada ham xuddi shunday bo'lgan. Demak, ana shu tabiiy geografik obyektlarning nomlariga qarab Rossiyada dastlab qanday qabilalar yashagani to'g'risida haqiqatga yaqin xulosalar chiqarib bo'lmasmikin?

U geografik nomlarni old yoki oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab, bir necha guruhga bo'ladi, ya'ni u toponimlarni formantlarga qarab o'rganadi. Chunonchi, olim *d-n* guruhiga ***Don, Dvina, Dunay, Dnepr, Dnestr*** daryolarini kiritadi. Keyinchalik olimlar *don* so'zi eron tillari guruhida gaplashgan xalqlarning tillarida (A. Abayev ma'lumotlariga qaraganda esa, hozirgi osetin tilida ham) «daryo» (suv) degan ma'noni anglatishini aniqladilar.

Keyinchalik olimlar daryo nomlari tarkibidagi suffikslar (qo'shimchalar) asosida ilmiy tadqiqotlar olib borib, katta kashfiyotlar qilishdilar. Chunonchi, akademik A.M. Shvegren Shimoliy Rossiyadagi joylarga ruslardan oldin ugor-fin xalqlari nom bergan degan xulosaga keldi. Taniqli toponimist professor A.K. Matveyev esa Shimoliy Rossiya shevalari leksikasini chuqur o'rganib, bu yerda [illegible] xalqlari vakillari yashagan degan fikrga keldi. Tomsk pedagogika

[illegible] professori A.P. Dul'zon toponimik ma'lumotlar asosida [illegible] xalqi yashagan joylarni aniqladi.

Shunday qilib, A.X. Vostokov Rossiyada ilmiy toponimikaga birinchi bo'lib yo'l ochgan edi. Lekin keyinchalik toponimikada Vostokov yo'lidan bormadi. Buning uchun ham toponimika [illegible] o'z XIX asrda [illegible] boshlanib [illegible] bo'lgan toponimik [illegible] degan edi.

[illegible]

mad aka deyish o'rniga akayi Ahmad deyishadi (masalan, mashhur hofiz Akoyi Buxor). Birinchi qaraganda ahamiyatsizday tuyuladigan bu misollarni chuqur o'ylab ko'rish toponimlarni etimologik-semantik hamda so'z yasalishi nuqtayi nazaridan tadqiq qilganda katta yordam beradi.

XIII asr tarixchisi Izzaddin Ibn al-Asir (hijriy hisob bilan 630-yilda vafot etgan) Amudaryodan chiqqan **Suvqora** kanalini va arabchada «qora suv» deb izohlagan, xuddi shu kanal XIII asrdagi boshqa bir muallif – Minhojiddin Juzjoniy asarida **Qorasuv** deb atalgan. Demak, bu turkiy toponim o'sha davrda fors-tojik (eron) tilllariga xos tartibda ham talaffuz qilingan. O'rta Osiyoda, jumladan, Tojikistondagi ko'pgina shahar hamda qishloq nomlari so'z tuzilish jihatidan turkiy tillar qonuniga mos tushadi. Masalan, **Toshkent, Samarqand** kabi qadimiy shaharlar so'z yasalishi jihatidan tipik turkiy toponimlardir. **Kondibodom** (Konibodom), **Shahrituz, Bog'ibaland, Bog'ishamol, Ko'hitang** kabi toponimlar esa sof eroniy toponimlar jumlasiga kiradi.

Tarixiy hujjatlar, eski qo'lyozmalar sinchiklab tekshirilsa, yakka yagonaday tuyuladigan **Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Bekobod** kabi toponimlar yolg'iz emasligi ma'lum bo'ladi. Bunday nomlarning qaysi vo' bilan vujudga kelganini bilish oson ish emas, albatta. Lekin imkoni boricha ularni aniqlashga harakat qilish lozim. Tarixiy jihatdan asoslangan toponimik tadqiqotlargina ishonchli bo'ladi.

Mashhur toponimik asarlar haqida so'z yuritilganda V.N. Toporov va O.N. Trubachevning «Yuqori Dnepr bo'yi gidronimiyasining lingvistik tahlili» (Лингвистический анализ гидронимов Вернего Поднепровья. M., 1962) monografiyasiga qisqacha to'xtalib o'tish joiz.

Mualliflar ta'kidlaganidek, bu asar uchun asosiy manba sifatida Sankt-Peterburgda 1915 yilda bosib chiqarilgan «Dnepr havzasi daryolarining ro'yxatidan foydalanganlar. Kitob asosan uch qismdan iborat bo'lib, birinchi Yuqori Dnepr slavyan gidronimiyasining so'z yasalish tiplariga bag'ishlangan. Mualliflar Yuqori Dnepr bo'yi gidronimiyasini suffikslargaqarab 11 ta yirik tipga ajratadi. Undan keyingi qism gidronimlar etimologiyasiga bag'ishlangan. Gidronimiya materiali asosida Yuqori Dnepr bo'ylarini etnik va dialekt jihatdan regionlarga bo'lish uchinchi qismni tashkil etadi. Mualliflar bu hududda, ayniqsa uning janubi-sharqida eroniy elementlar anchagina

uchrashini aniqladi. Asarning yana bir qimmatli joyi shundaki, unda mualliflar Yuqori Dnepr bo'yida eroniy xalqlar bilan balt xalqlari til jihatidan bevosita aloqada bo'lganini aniqladilar.

Sobiq Ittifoqda toponimika fanining nazariy masalalari va toponimik tadqiqot metodlarining muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi natijasida ko'pdan-ko'p regional asarlar paydo bo'ldi. V.A.Nikonovning «Toponimikaga kirish», (Введение в топонимику), A.I. Popovning «Geografik nomlar» (Географические названия), V.A. Juchkevichning «Toponimika» kitoblari shular jumlasidan.

V.A. Nikonovning «*Qisqacha toponimik lug'at*»i (Kratkiy toponimicheskiy slovar. M., 1966). Sobiq Ittifoq va chet mamlakatlardagi 4 mingga yaqin toponimlarning tarixi va kelib chiqishi haqida hikoya qiladi. Muallif turli tillardagi xilma-xil adabiyotlardan foydalangan, toponimlar haqidagi har xil nuqtayi nazarlarni tahlil qilib, bu haqda o'z fikrini bayon etgan.

V.A. Nikonov o'z asarlarida toponimik tadqiqotlar uchun joy nomlari etimologiyasi ikkinchi darajali ahamiyatga ega, u birdan-bir tadqiqot usuli emas, deb takror-takror aytgan edi. U toponimlarda so'z yasalishiga, ko'pincha formantlarga asosiy e'tibor bergan. Biroq toponimik lug'atlar yozishda bu printsipga to'la amal qilib bo'lmas ekan. Chunki ayrim toponimlar ustida so'z borganida etimologiyasiz ish ko'rib bo'lmaydi, aksincha, toponimik lug'atda joy nomining kelib chiqishini aniqlash asosiy usul hisoblanadi.

Mazkur asarda O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistondagi ayrim toponimlar etimologiyasi haqida ham so'z yuritilgan. Lug'at muallifi Turkmanistondagi Bayramali shahri nomini musulmonlar avliyosi – **Ali** ismidan hamda *bayram* so'zidan kelib chiqqan, degan fikr bildiradi. Aslida bu shahar nomining choryorlardan biri hazrati Alining ismiga hech handay aloqasi yo'q. Shahar hijriy hisobda 1197-1200 yillarda Marvda hukmronlik hilgan Bayram Alixon nomiga qo'yilgan.

Lug'atda Afg'onistondagi **Herirud** daryosi nomi eroncha *harvaid* – «sersuv», *rud* – «daryo» so'zlaridan kelib chiqqan deyilgan va E.M. Murzayevning «tog' daryosi» degan etimologiyasi ham keltirilgan.

V.V. Bartold fikricha, esa bu gidronim qadimgi *ariy* qabilasi nomidan kelib chiqqan. Demak, Hirotning dastlabki nomi **Ariy** (heri). **Herirud** (ba'zi bir manbalarda Hirotrud) esa Ariy daryosi, hirot bo'lsa

arabcha ko'plik shaklida. **Badaxshonot, Hurosonot, Hindustonot, Rabotot** kabi nomlar oxiridagi *-ot* qo'shimcha arabcha ko'plik affiksi.

Lug'atda Qozog'istondagi **Kentov** shahrining «keng tog'» deyilishi to'g'ri emas (187-bet). *Ken* so'zi eroncha *kon* so'zining qozoqcha talaffuzi. O'zbekistondagi **Nurota** tog'larini mo'g'ulcha *nuru* («tog' tizmasi») so'zidan kelib chiqqan deyish ham noto'g'ri. Narshaxiy Nur qishlog'i bundan qariyb 1000 yil muqaddam, Buxoro shahri vujudga kelmasdan oldin ham bor edi, deya yozgan. Demak, **Nurota** mo'g'ullar kelmasdan oldin ham *Nur* (boshqa Nurlardan, masalan, Miyonkol orolidagi Nuri Miyonkoldan farqli o'laroq) **Nuri Buxoro** nomi bilan ma'lum bo'lgan.

V.A. Nikonov Tataristondagi **Shemordan** (daryo, posyolka) *shomort* (to'g'risi shomo'rt), ya'ni «cheremuxa» butasi nomidan kelib chiqqan deydi va I.A. Iznoskovning Shemordan «asli Shohimardon bo'lgan» degan fikrini asossiz deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha, I.A. Iznoskov haqli. Birinchidan, islom dini tarqalgan hududlarda **Shohimardon** degan joylar ko'p. Ikkinchidan, agar bu joy cheremuxa nomidan olinganda Shomirtli bo'lar edi.

O'rta Osiyoni, jumladan, O'zbekistonni tarixiy geografik jihatdan o'rganishda sharqshunoslarning xizmati katta. Yevropalik sharqshunoslardan Jyul Tonnele, A. Vamberining O'rta Osiyodagi joy nomlari to'g'risida aytgan fikrlarini X. Hasanov o'z asarida qayd qilib o'tgan. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingungacha kelgan rus sharqshunoslaridan N.V. Xanikov, N.F. Sitnyakovskiy, L.N. Sobolevlarning asarlarida O'zbekiston toponimikasiga doir materiallarni ko'plab topish mumkin. N.V. Xanikovning «Buxoro xonligining tasviri» (Описание Бухарского ханства, СПБ 1848) kitobida bir qancha joy nomlari bilan birga o'zbek urug'lari haqida ham ma'lumotlar beradi.

L.N. Sobolevning «Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе с приложениями списка населенных мест округа. (Санкт-Петербург, 1874) geografik xarakterga ega bo'lib, unda Zarafshon vodiysidagi joy nomlari ro'yxati ilova qilingan. Joy nomlari arab yozuvida va ruscha transkripsiyada berilgan, har bir qishloqda qaysi o'zbek urug'i yashashi aytib o'tilgan.

Harbiy polkovnik N.F. Sitnyakovskiy asarida (N.F. Sitnyakovskiy, Заметки Бухарской части долины Зеравшана. ИТОРГО, т.I,

вып.2, 1900) Zarafshon vodiysida, muallif yerlarni sug'orish, ekin ekish to'g'risida mufassal to'xtalib o'tadi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da aytib o'tilgan bir qancha ariqlar hozir ham mavjud ekanini aniqlaydi. Kitobga Zarafshon vodiysidagi ariqlar, qishloq hamda shaharlarning ro'yxati ilova qilingan. N.F. Sitnyakovskiyning bu «ro'yxati» toponimika uchun «xomashyo» sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki eski ro'yxatlardagi ma'lumotlar qimmatli tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston toponimikasini o'rganishda tadqiqotchi V. Vyatkin alohida o'rin tutadi. Uning tarixiy-geografik asarlari orasida Toshkent tumani hamda Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasiga oid tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor. (V.Vyatkin, К исторической географии Ташкентского района. ПТКЛА год, V, 1900, 156-159 бетлар. В.Вяткин. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаета. СКСО, вып. УП, 1902).

Muallif Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasini temuriylar hukmronligi davridan XIX asrgacha vaqf hujjatlari asosida bayon etadi. V. Vyatkin tarixiy hujjatlarda tilga olingan qishloqlarning qayerda ekanini, eski geografik nomlarning hozirgi qaysi shaklda talaffuz etilishini, yo'q bo'lib ketgan qishloqlarning o'rnini aniqlaydi. Muallif XVII asrning oxiriga qadar forscha geografik nomlar ko'pchilikni tashkil qilar edi va butun viloyatda hozir uchraydigan tarxiy geografik nomlarning aksari qismi asosan so'nggi asrda vujudga kelgan deb xulosa chiqaradi. V.Vyatkinning bu asari geografik nomlarning ruscha transkripsiyasida ham muhim rol o'ynaydi. U XIX asr oxirida Zeravshanni – Zarafshan, Agalik – Axaklik (Ohaklik), Sanzar emas – Sankzar (Sangzor), Angrenni – Axangaran (Ohangaron) shakl da to'g'ri yozgan edi. Shuningdek, *diz, mitan* kabi atamalarning ma'nosini («istehkom», «qal'a») aytib o'tgan va bu atamalardan tuzilgan joy nomlarini keltirgan.

Umuman V. Vyatkinning mazkur asari toponimik tadqiqotlarda, ayniqsa joy nomlari etimologiyasi va transripsiyasida katta yordam berishi mumkin.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlaridagi rus sharqshunoslaridan akademik V.V. Bartoldning asarlari toponimikada alohida o'rin tutadi. V.V. Bartold asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi.

V.V. Bartoldning 1900 yilda bosilib chiqqan «Turkiston to'g'risidagi hujjatni davrida» nomli asari, ayniqsa uning Movarounnahrning geografik ocherkiga bag'ishlagan bobi, toponimik ma'lumotlarga boy. Undan ushbu olimning tarixiy geografiyaga taalluqli bo'lmagan geografik xarakterdagi o'z ortiga olmagan birorta ham asarini topolmaysiz. Asarlarining toponimika uchun qimmati shundaki, u o'z g'arbiy Yevropa olimlaridagi adabiyotlarni o'qib o'rgan, kitoyalarning, balki arab, fors manbalarida tilga olingan yozlab joy nomlarining to'g'ri skriptsiyasini, etimologiyasini va o'rnini aniqladi.

V.V. Bartold joy nomlarini ayrim-ayrim emas, balki ularni bir-biri bilan bog'liq ravishda o'rganadi, shuning uchun ham birgina shakl yoki yoki nomi etimologiyasi bir necha joyda takrorlanadi. Masalan, Qarshi shahri nomining ma'nosini V.V.Bartold turli asarlarida turlicha, ya'ni uch joyda aytib o'tgan. Shu narsa xarakterliki, V.V. Bartold dastlabki asarlarida «*qarshi* ma'g'ulcha so'z bo'lib, saroy demakdir» deb yozadi. Keyinroq bu so'zni «Bu so'zni mag'ullar uyg'urlardan qabul qilgan» desa, «Islom ensiklopediyasi»da «Qarshi uyg'ur bo'lib, u keyinchalik mag'ul tiliga o'tgan», deb yozadi. Shuningdek, Buxoro, Movarounnahr, Marg'ilon, Shoptirkom kabi toponimlar etimologiyasi ham bir necha marta takrorlanadi.

V.V. Bartold etimologiyalarining hammasi ham o'zbek tiliga to'g'ri deb bo'lmaydi, albatta. Masalan, **Parkent** qishlog'i nomini **Barskent** ya'ni «bars (qoplon) shahri» deb izohlasa, shunday deyish to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki, birinchidan, Parkent bitta emas. Yana shunga yaqin bir joyda ham Parkent degan qishloq bor. Ikkinchidan, arabcha olingan **p** o'rniga ko'pincha **b** yozishgan. Masalan: **Panjakent** o'rniga **Bunjikat**, **Piskent** o'rniga **Biskent**, **Piskom** o'rniga **Biskom** va **Fareb** o'rniga **Barab** va h.k. V.V. Bartold Mang'ishloq yarim oroli nomini «mang qishloq» deb izohlagan. Qozoq olimi Musabayev Mang'ishloq – «qo'y qishlog'i» demakdir, deb yozadi, chunonchi, «Devonu lug'otit turk»da *man* (mang) «qo'y» degan ma'noda keladi. V.V. Bartold asarlarida ayrim xatoliklar, ba'zi bir chalkashliklar ham uchraydi. Masalan, **Zul-Kifl** rabotini (hozirgi Kelif) bir joyda Amudaryoning o'ng qirg'og'ida deyilsa, ikkinchi bir joyda (II tom, 160-bet) chap qirg'og'ida deyilgan. Qozoqlar

nomlar transkripsiyasida ham har xilliklar bor. Bunday xilma-xilliklar ko'p emas. Ular asarlar turli davrlarda va xilma-xil manbalar asosida yozilishi, so'ngra arab yozuvining turkiy hamda tojikcha nomlarni aynan ifoda eta olmasligi oqibatida kelib chiqqan.

V.V. Bartold joy nomlari etimologiyasi haqidagi xalq rivoyatlarini chala mullalarning turli bo'lmag'ur uydirmalaridan farq qilish kerak, deb ogohlantiradi. U joy nomlarining bora-bora butunlay o'zgarib, boshqa ma'no olishini ko'rsatib berdi. Chunonchi, «Qizilsuv»ni ruslar o'z tiliga moslashtirib «Kozelsi» shaklida talaffuz qilgan, Ko'handiz, ya'ni «ko'hna qal'a» o'zgarib *qunduz* shaklini olgan. V.V. Bartold asariga qarab Qashqadaryo nomi, «evolyutsiyasi»ni quyidagicha tasavvur qilish mumkin: Keshrud–Keshirud, Xashqarud–Xashqadaryo–Qashqadaryo.

V.V. Bartold eski qo'lyozmalardagi xatoliklarni ham aniqlagan. Masalan, «Boburnoma»dagi Tiroz shahri nomi N. Ilminskiy nashrida bir nuqta tushib qolishi natijasida Tiror bo'lib ketganini qayd qilgan edi. Taroz qanday qilib Taror, keyinchalik esa Atrar (O'tror) bo'lib ketganini H. Hasanov ham bir necha qo'lyozmalar asosida sinchkovlik bilan aniqladi.

V.V. Bartold asarlarida uchraydigan atamalar ham toponimik tadqiqotlarda e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Olim *arna, anqor, ariq, birun, vaqf, vixara (bxar), diz, yob, yom, juybar, kat, kent, kom, langar, ko'l, chorsu, shahriston, yayloq, qarya, g'alcha, qisor, o'rchin, qal'a, qo'rg'on* kabi yuzlab geografik atamalarni aytib o'tgan va ko'pincha ularning ma'nosini ham bergan. Bu atamalar ko'plab joy nomlari tarkibida uchraydi va ularning leksik-semantik xususiyatlarini tushunib olishda katta yordam beradi. Birgina misol keltiramiz. V.V. Bartold o'z asarida eron tillarida *bog'* so'zining «xudo» degan ma'nosi ham bor deb yozadi. «Eronning tarixiy-geografik obzori» asarida **Bog'iston** degan joyni «xudo maskani» deb izohlaydi. Bag'dod ham «xudo bergan» demakdir. Ana shu munosobat bilan Toshkent viloyatidagi **Bog'iston** qishlog'ining etimologiyasi haqida ham o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

V.V. Bartold joy nomlarini mamlakat tarixi va geografik muhiti bilan bog'liq ravishda o'rgandi, ayni vaqtda toponimlarning lingvistik tomoniga ham katta ahamiyat beradi. V.V. Bartold asarlari toponimistlar tomonidan tanqidiy ravishda chuqur o'rganilishi kerak. Har qanday tarixchi ozmi-ko'pmi toponimika bilan shug'ullanadi, beixtiyor joy nomlari tarixi, kelib chiqishi bilan qiziqadi. Shuning uchun ham har bir tarixiy asardan bir necha geografik nom to'g'risida ma'lumot topish mumkin. Tarixchilardan M.Ye.Masson, S.P. Tolstov, O.A. Suxaryeva, O.D. Chexovich, Y.G'. G'ulomov, A.R. Muhammadjonov asarlarida O'zbekiston toponimikasiga doir talay materiallar topish mumkin. Masalan, akademik Y.G'. G'ulomovning «Xorazmning sug'orilish tarixi»da geografik nomlar ham juda ko'p. Umuman olganda jamiyat tarixi, xususan, irrigatsiya tarixi ma'lum ma'noda toponimlar tarixidan iboratdir.

Muallif bir qancha joy nomlarining kelib chiqishini, etimologiyasini aytib o'tadi. Chunonchi, Qizilqum cho'lidagi **Sulton Uvays** tizmasi O'rta Osiyoda tasavvuf ta'limotiga asos soluvchilardan biri – arab Uvays Qorniy (VII asr) nomi bilan atalgan, «sulton» unvoni unga keyinchalik O'rta Osiyo xalqlari tomonidan berilgan. **Kaltepa** degan do'ng o'simliksiz, yalang bo'lgani uchun shunday nom olgan. V.V. Bartold kabi Y.G'. G'ulomov ham **G'azobod** (xalq talaffuzida g'azovot) kanali nomi muqaddas urush ma'nosidagi *g'azovot* so'zidan emas, balki *g'ozi* (g'olib) laqabli xonlardan Abulg'ozixon ismidan kelib chiqqanini aniqladi. Xonqa asli «xonaqoh» degan so'zdir. «Mo'g'ul istilosi davrida Xonqa shahri vayron qilinib, faqat xonaqo saqlanib qolgan edi. Bu xonaqo atrofida keyinchalik hayot tiklangan. O'sha vaqtdan boshlab shahar «Xon(a)qo» (Xonqo) deb atalgan».

Toponimistlar ko'pgina joy nomlari aslida oddiy geografik atamalardan iborat ekanini aniqladi. Y.G'. G'ulomov ham atamaologiyaga juda katta ahamiyat beradi. Bu esa ko'plab toponimlarning ma'nosini ochib beradi. Xorazmda *arna* (**Mang'itarna, Paxtaarna, Shovotarna, Otaliqarna, Polvonarna**), *yob (yop)* (**Bog'yop, Buzyop, Kaltaminoryop, Polvonyop, Tozayop, Xonyop, Saribiyop, Tozabog'yop, Yangiyop, Chirmonyop**), *qir (g'ir)* (**Manqir, Toyqir Tuzqir, Yassiqir, Qal'aqir, Ko'zaqir**), *qal'a* (**Beshtomqal'a, Bozorqal'a Burgutqal'a, Qabulqal'a, Qavatqal'a, Tuproqqal'a, Kofirqal'a**) kabi atamalardan tuzilgan geografik nomlar juda ko'p. Y.G'. G'ulomov bu atamalarni tushuntirib o'tadi. Masalan, *arna* so'zi Xorazmda hozir «magistral kanal» ma'nosida keladi. Y.G'. G'ulomov esa *arna* atamasining asl ma'nosi «daryo tarmog'i», «shoxobcha» ekanini aytadi. Olim *adoh, kat* (kent), *sanglox* (toshloq), *quyg'un* (tashlama suv), *qoq* (ko'lmak),

o'y (chuqurlik, botiq), *qayir, qo'rg'oncha, tal* (tepalik), *singir* (vaqtinchalik istehkom), *degish* (qirg'oqning yuvilishi, o'pirilishi), *bast* (to'g'on), *xaros* (aynan – eshak tegirmoni), *chordara* (shiypon), *ochi* kabi geografik atamalarni, *badoq, solma, doldarg'a, bedrov, to'qurtma, depma, sepma, nova, chig'iriq* kabi irrigatsion atamalarni izohlab o'tgan.

Eski tarixiy hujjatlar, vasiqalar, vaqfnomalar toponimika uchun katta ahamiyatga ega. Shu ma'noda tarix fanlari doktori O.D. Chexovich tomonidan tayyorlangan, XIII va XIV asrlarga doir «Buxoro hujjatlari» (Бухарский вакф XIII в., M, 1979; Бухарские документы XIV в., 1965), XV-XVI asrlarga oid «Samarqand hujjatlari» (Самаркандские документы XV XVI вв. о. владениях Ходжи Ахрара в Средней Азии и Афганистане. M., 1974) tengsiz toponimik asarlardir. Masalan, birgina «Samarqand hujjatlari»da mingdan ortiq toponim-geografik va tarixiy topografik nomlar tilga olingan. Shundan ikki yuzdan ortiq toponimning o'rni, hozir nima deb atalishi, ba'zan kelib chiqishi aniqlangan.

Bundan tashqari, O.D. Chexovich yer-suv muomalasi, vasiqa, vaqf hujjatlariga doir ko'plab atamalarni izohlab bergan (*afdoq, darg'ot, siqoya, tall, chorbog'*).

Sharqshunos **A.L. Troitskaya** Qo'qon xonlarining (XIX asr) arxividagi 3800 hujjatni tarjima va tahlil qilar ekan, ularda tilga olingan geografik nomlar ko'rsatkichini tuzdi. Geografik nomlarning ruscha transkripsiyasi yonida arabcha yozuvi ham keltirilganligi diqqatga sazovordir.

Hujjatlar bundan bir yarim asr oldin (XIX asrning 40–70-yillarida) yozilgani bilan ham qimmatli. Bu esa shu davr ichida geografik nomlarning yozilishda va talaffuzida ro'y bergan o'zgarishlarni payqab olishga imkon beradi. Toponimlarning hozirgi shakli bilan hujjatlarda qayd qilingan shakli ba'zan anchagina farq qiladi. Masalan:

Hozirgi yozilishi	**Qo'qon xonligi arxiv hujjatlarida qayd qilingan shakli**
Marg'ilon	Marg'inon
Qo'qon	Xuqand
Yozyovon	Yoziyobon
Quva	Qubo
Qashqarqishloq	Koshg'arqishloq
Oqbura	Oqburyo
Go'rtepa	Gurgtepa (tojikcha gurg – bo'ri)
Ulug'nor	Ulug'nahr
Yotiqtut	Yotuqtut
Yaypan	Yayfan

Bu o'rinda kotiblarning geografik nomlarni yozishda ularning mahalliy talaffuzidan ko'ra tarixiy an'analarga va arab yozuvi qoidalariga yon bosganini alohida qayd qilish kerak.

Toponimlarning hozirgi talaffuz shakli ularning asliyatini aynan to'g'ri aks ettiradi deb bo'lmaydi. Aksincha, toponim qancha qadimiy bo'lsa, uning talaffuz shakli shunchalik ko'p o'zgargan bo'lishi mumkin. Lekin nom shu shakl-shamoyilda ma'lum va mashhur hamda shunday standartlashtirishi mumkin.

Kitob oxirida bir necha yuz atamaning tarjimasi va izohi berilgan. Bunda atamalarning (*darg'a, qariya, g'anchi*) xonlikda qanday ma'noda ishlatilishi aniqlangan.

Bularning hammasi mazkur yodgorlikning O'zbekiston toponimikasi uchun katta ahamiyatga ega manba ekanligini ko'rsatadi.

Quyida O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston toponimiyasi uchun qimmatli bo'lgan ayrim tarixiy, lingvistik yodgorliklarning toponimik merosi haqida so'z yurtiladi.

«HUDUD UL-OLAM»

«Hudud ul-olam» («Dunyoning hadlari») tarixiy-geografik asar bo'lib, 982–983-yillarda fors-tojik tilida noma'lum muallif tomonidan yozilgan. Asarda Yer kurrasining inson yashab turgan (to'rtdan bir) qismidagi mamlakatlar iqlimi, tabiati, xalqlari, urf-odatlari, mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Qo'lyozmani 1892-yilda tarjimon Abulfazl Gulpayoganiy Buxorodan topib, 1893-yil sharqshunos A.G. Tumanskiyga bergan. 1930-yili V.V.Bartold «Hudud ul-olam» matnini so'zboshi va izohlar bilan rus tilida, 1937-yili rus sharqshunosi V.F. Minorskiy ingliz tilida nashr ettirgan.

Professor H .Hasanov o'zining «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» kitobida (Toshkent, 1964) «Hudud ul-olam» haqida katta maqola yozgan va talay qismining o'zbekcha tarjimasini keltirgan.

«Hudud ul-olam»ning mazmun-mundarijasi haqida va raqamlab chiqqan bo'limlari nomiga qarab tasavvur hosil qilish mumkin:

1. Muqaddima.
2. Yerning hadlari, obodonligi va vayronalari.
3. Dengizlar va qo'ltiqlar.
4. Orollar (jaziraho)
5. Tog'lar va ularning bag'ridagi ma'danlar.
6. Daryolar.
7. Cho'llar va qumliklar (biyobonho va regho).
8. Jahon viloyatlari (nohiyathoi jahon).
9. Chiniston viloyatining xosiyati.
10. Hindiston viloyati.
11. Tibet viloyati va uning shaharlari.
12. To'g'uzg'uz viloyati va uning shaharlari.
13. Yag'mo viloyati va uning shaharlari.
14. Xirg'iz (qirg'iz) viloyati.
15. Xallux (qarluq) viloyati va uning shaharlari.
16. Jikil viloyati.
17. Tuxsi viloyati va uning shaharlari.
18. Kimok viloyati va uning shaharlari.
19. G'uz viloyati.
20. Bajonaki Turk viloyati.
21. Xifchoq (qipchoq) viloyati.
22. Majg'ari viloyati.
23. Xuroson viloyati va uning shaharlari.
24. Xuroson chekkalari va uning shaharlari.
25. Movarounnahr viloyati va uning shaharlari.
26. Movarounnahr chekkalari va uning shaharlari.
27. Sind viloyati va uning shaharlari.
28. Kirmon viloyati va uning shaharlari.
29. Bors (Fors) viloyati va uning shaharlari.
30. Jibol viloyati va uning shaharlari.
31. Xuziston viloyati va uning shaharlari.
32. Daylamon viloyati va uning shaharlari.
33. Iroq viloyati va uning shaharlari.
34. Jazira viloyati va uning shaharlari.

35. Ozarbodgon viloyati va Arminiya hamda Arron viloyati.
36. Arab viloyati va uning shaharlari.
37. Shom viloyati va uning shaharlari.
38. Misr viloyati va uning shaharlari.
39. Mag'rib viloyati va uning shaharlari.
40. Andalus viloyati va uning shaharlari.
41. Rum viloyati va uning shaharlari.
42. Saqalob viloyati.
43. Rus viloyati va uning shaharlari.
44. Ichki Bulg'or viloyati.
45. Mirvat viloyati.
46. Bajanoki Xazar viloyati.
47. Olon viloyati va uning shaharlari.
48. Sarir viloyati va uning shaharlari.
49. Xazarlar viloyati.
50. Barados viloyati.
51. Burtos viloyati.
52. Vanandar viloyati.
53. Janubdagi obodon yerlar va viloyatlar.
54. Zangiston viloyati va uning shaharlari.
55. Zobaj viloyati va uning shaharlari.
56. Habasha viloyati va uning shaharlari.
57. Buja viloyati.
58. Nuba viloyati.
59. Sudon viloyati va uning shaharlari.
60. Kitob oxiri.

Mundarijadan ko'rinadiki, «Hudud ul-olam» jahonning barcha mamlakatlarini tasvirlab bergan geografik, etnografik va iqtisodiy ma'lumotnomadir. Asarning fors tilida yozilganligi o'sha davrda (X asr) mahalliy fors-tojik madaniyatining ancha yuksak bo'lganidan darak beradi.

«Hudud ul-olam» geografiyasidagi ayrim geografik nomlar haqida so'z yuritamiz.

Movarounnahr tog'lari. H. Hasanov yozishicha, «Hudud ul-olam»da O'rta Osiyoning janubidagi Bo'lur, Samarqand, Shiknon, ya'ni Xon Vaqon tog'lari, Buttamon ichkarisidagi va Movarounnahrga yoyilgan

Usrushona, Xuttalon, Chag'oniyon tog'lari, ularning tarmoqlari batafsil tasvirlangan. So'ngra Movarounnahrdagi ko'pgina tog' tarmoqlari nomsiz bayon etilgan.

Bu yerda keltirilgan oronimlardan ba'zi birlarini izohlaymiz. Bulardan toponimika uchun eng qiziqarlisi **Buttamon** tog'laridir. Arab geograflarida **Buttam** yoki **Butman** shaklida tilga olingan. V.V.Bartoldning gaplariga qaraganda, Amudaryo bilan Sirdaryoning yuqori oqimlari oralig'idagi katta tog'li o'lka shu nom bilan atalgan, shu bilan birga bu tog'li o'lkani *Birinchi Buttam*, *O'rta Buttam* va *Tashqi Buttam* deb uch qismga bo'lish rasm bo'lgan. V.V. Bartold Birinchi Buttam hozirgi **Hisor tizmasi,** O'rta Buttam **Zarafshon** tizmasi, Tashqi Buttam **Turkiston tizmasi** bo'lishi kerak deb hisoblaydi. To'g'risi Buttammi yoki Buttamonmi degan savolga shunday javob berish mumkin. Tog'larning nomlari odatda rus tilida ham, fors-tojik tilida ham ko'plikda talaffuz etiladi (*-on* ko'plikni ifodalaydigan qo'shimcha). Chunki tog' tizimi odatda bir qancha tog' tarmoqlaridan iborat bo'ladi. Xuddi shuningdek, Panj daryosi bilan Vaxsh daryosi oralig'i **Xuttal** yoki **Xuttalon** deb atalgan. Arab geograflarida ko'pincha **Xuttal** shaklida qayd qilingan. «Hudud ul-olam» muallifining o'zi o'rta osiyolik forsinavis olim bo'lganidan mazkur tog'larni **Xuttalon** shaklida yozgani grammatik jihatdan to'g'ridir. **Chag'oniyon** tog'lari Chag'oniyon tarixiy o'lkasi tegrasidagi hozirgi **Bobotog', Boysun, Ko'hitang** tizmalaridir. **Xon** tog'larini H. Hasanov Janubiy Pomirdagi hozirgi **Vahon tizmasi** deb hisoblaydi. **Usrushona tog'lari** esa Jizzax shahri bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi **Molguzar tizmasi** bo'lsa kerak. Shiknon tog'lari Pomirdagi hozirgi **Shug'non tizmasi**, Samarqand tog'lari esa Samarqand shahri atrofidagi tog'lar ekanligi aniq.

Movarounnahr daryolari.

«**Jayxun (Amu)** daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig'noni Vahon hududi orasidan o'tib, Xorazm dengiziga quyiladi».

«...Xarnob (Panj) Qasark tog'ining g'arbidan oqib chiqadi va Badaxshon va Porg'ar (Parxor) orasidan o'tib Jayxunga qo'shiladi».

«Yana bir daryoki, uni **Vaxshob** deydilar, Vaxsh tog'laridan chiqadi, *Vaxsh* (shahri) yaqinida *Jayxunga* quyiladi».

«*Chag'onrud* (Surxondaryo)ki, Chag'oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayxunga quyiladi».

«...Yana biri **O'zgand** suvidirki, Xallux tog'i (orqasi)dan boshlanib, O'zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo'jand, Banokat shaharlari yonidan o'tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so'ngra Xorazm dengiziga quyiladi».

Demak, muallif Sirdaryoni **O'zgand** (O'zgan) suvi degan, Xallux (Qarluq) tog'i – Tyanshan tog'lari bo'lsa kerak (ilk o'rta asrlarda, Yettisuvda Qarluq davlati bo'lgan). Hozirgi Axsi qishlog'i (Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani) o'rta asrlarda yirik shahar bo'lgan va Farg'ona vodiysining poytaxti hisoblangan. Bob hozirgi Pop tumanining markazi – Pop shahri. *Banokat* Amir Temur 1392-yilda tiklab o'zining katta o'g'li Shohruh Mirzo nomi bilan **Shohruhiya** deb atagan shahar, xalq tilida bora-bora **Sharqiya** bo'lib ketgan. Ohangaron daryosining bir tarmog'i hozir ham *Sharqiya* deb ataladi. Shahar xarobasi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan.

«Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) **Xurshob**dirki, Buttamon chekkasidan, shimoliy tog'laridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida O'zgandga (Sirdaryoga) quyiladi».

«Yana boshqasi **O'sh** suvidirki, O'zgandga quyiladi». «Yana bir daryo **Qubo** (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida O'zgand (suvi)ga quyiladi». **Qubo** – Farg'ona viloyatidagi Quva soyi va Quva shahridir. «Hudud»da *Norin* daryosi Xatlom shahri nomi bilan Xatlom deb atalgan. «Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan o'tadi, O'zgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qo'shilgandan keyin yaxlit suv **Choch** daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni **Sayxun** deb ataydilar».

Parak – Chirchiq daryosi. Demak, bosh tomondagisi O'zgand bo'lgan, Chirchiq quyilgandan keyin Sirdaryo **Choch** daryosi deb atalgan.

«Hudud» asarida Zarafshon **Buxoro** daryosi deyilgan. Shu ma'lumotlardan ko'rinadiki, daryolar ko'pincha shaharlar yoki viloyatlar nomlari bilan atalgan. Vaxsh daryosi – Vaxsh shahri, Chag'onrud (Chag'oniyon), O'zgand suvi – O'zgand shahri, Xurshob daryosi – Xurshob shahri, Xatlom daryosi – Xatlom shahri, Choch daryosi – Choch (shahri, viloyati), O'sh daryosi – O'sh shahri.

«Hudud ul-olam» muallifi Sirdaryoni bir o'rinda **Hasart** deb

otagan. Shunga asoslanib, H. Hasanov bunday xulosa chiqaradi: «Sirdaryo X asrda O'zbekiston tuprog'ida *O'zgand* va *Hasart* nomlari bilan atalgani ma'lum bo'ladi. Shunday qilib, *Yaksart* nomalliy nomlardan biri si, qadimgi greklarning kitoblarida yozilgan *Yaksart* shakli o'shandan o'zgartirilibroq olingandir» (H. Hasanov «Hudud ul-olam» geografiyasida tuzgan xaritada Sirdaryo Xasart deb yozilgan).

MOVAROUNNAHR VILOYATLARI VA SHAHARLARI

«Movarounnahar — keng, obod va juda ko'rkam o'lka. Turkistonning darvozasi va savdogarlar maskanidir». Asarda O'zbekistonning shaharlari va ayrim viloyatlari quyidagicha ta'riflanadi:

«**Buxoro** — azim shahar. Movarounnahrning eng obod shahri».

«**Paykend** — yuz tacha rabot (Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da mingdan ortiq rabot) bo'lgan kichik shaharcha». (Paykend, Baykend, Poykand nomi bilan ma'lum bo'lgan IX–X asr shaharining xarobalari Buxoroning janubi g'arbiy biqinida).

«**Sug'd** — sharqiy ellar orasida eng obod joydir. Oqar suvlari, bog' daraxtlari ko'p, iqlimi bahavo».

«**Tavovis** — Buxoroning Sug'd chegarasidagi kichik bir shahar. Bu yerda har yili bir kunlik bozor bo'ladi». Tavovis Buxorodan 7–8 farsax narida bo'lgan. Uning oldingi nomi **Arfud** yoki **Arqud** edi. Arabchada Tavovis «Tovuslar» demakdir (Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobining o'zbekcha nashrida shahar nomi Tavois deb berilgan).

«Karmina, Dabusi, Arbinjon Sug'dning kichikroq shaharlaridan. Kushoniya — Sug'dning eng obod shaharlaridan...»

«**Samarqand** — buyuk, obod va ne'mati bisyor shahar. Bu yerga dunyoning hamma mamlakatlaridan savdogarlar keladi...»

«**Kesh** — issiq mintaqa shaharlaridan biri. U yerda yog'ingarchilik ko'p bo'ladi...»

«**Termiz** — Jayxun bo'yidagi obod shaharlardan. Bu shahar Xatlon va Chag'oniyonning savdo markazidir...»

«**Chag'oniyon** — ziroatchilik va chorvachilik uchun qulay va keng joy, ammo xalqi juda kambag'al».

«Bu viloyatlarning poytaxti Chag'oniyon shahridir, tog' etagida bino bo'libdur».

«**Zomin** — Usrushno shaharlaridan. Xo'jand bilan Farg'ona yo'lida. Mustahkam qo'rg'oni bor».

«**Dizak** — kichik bir shahar, ... bo'yida...»

«**Farg'ona** — ulug', obod va juda go'zal viloyatdir. Uning tog'lari, tekis joylari, ... suvlari va shaharlari ko'p...»

«**Chatg'al** (Chotqol) — Farg'onaning bu qismi tog'lar orasida o'r-qir yerda joylashgan, kichik shahar va qishloqlari ko'p. Ot va qoy boqiladi, konlari ham bor».

«**Axsikat** — Farg'onaning poytaxti ... amirning qarorgohi. Bu katta shahar. Hasart daryosi (Sirdaryo) bo'yida».

«**Soy** — tog'lar orasida. Buttamon bilan Farg'ona chegarasidagi joy. 60 ta qishlog'i bor».

«**Qubo** (Quva) — Farg'onaning eng obod katta shahri...»

«**Shosh** — katta va obod, ko'rkam joydir. Shoshning poytaxti Binkat».

«**Nujkat** (Nujakat) — kichik bir shahar, bu yerda Parak (Chirchiq) va Hasart (Xashart — Sirdaryo) daryolarida suzadigan qayiqchilar yashaydi». (V.V. Bartold tarjimasida. Parak va Xashart o'rg'oqlarida ishlaydigan qayiqchilar Nujkatdan chiqqan)

«**Banokat** (singari va boshqa) kichik shaharlarda kamoni shoshiy yasaladi...»

«**Kot** — Xorazmning poytaxti. Bu shahar Turk, Turkiston, Movarounnahr va Xazarning savdo markazidir. Uning hokimi Xorazmshoh deb ataladi».

Bu shahar va viloyatlarning ko'plari hamon bundan ming yildan ko'proq oldingiday talaffuz etiladi yoki salgina farq qiladi: Buxoro, Samarqand, Termiz, Zomin, Farg'ona, Chatg'ol (Choiqol), Axsikat (Axsi), So'x, Avval, Qubo (Quva), Xiva, Karmina (Karmana), ba'zi birlari endi butunlay boshqacha nomlangan.

Kesh — Shahrisabz, **Chag'oniyon** (arablarda Sag'oniyon) viloyati — Surxon vodiysi, Chag'oniyon shahri — **Denov**.

Choch, Shosh — Toshkent shahri va viloyati.

Kot — Shayx — Abbosvali (Shabbos), hozirgi Beruniy shahri.

Gurganj, arablarda Jurjaniya — hozirgi Urganch shahri; Banokat — Shohruhiya (buzilib ketgan).

H. Hasanov ta'kidlaganidek, «Hudud-ul olam» muallifi O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonning geografik qiyofasini tog'lari, daryolari, sha-

harlarini o'z o'rnida tasvirlagan. Asarda keltirilgan ko'p sonli tarixiy toponimlar esa vatanimiz joy nomlarining naqadar qadimiy ekanligi isbotidir.

Quyida keltirilgan bir misol toponimlarning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib turadi. «Hudud» qo'lyozmasining 25-sahifasida shunday deyiladi: «Movarounnahrning chekkasida Samarqandak («Kichik Samarqand») qishlog'i bor edi, unda hindlar, tibetliklar, voxonliklar va musulmonlar yashaganlar».

Bu qishloqning qayerda joylashganligini bilish uchun tarixga murojaat qilaylik.

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin 721-yilda Sug'dda arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Sug'diylar endi arablar bizlarni turklarga yordamlashganlikda ayblab jazolashlari mumkin deb xavotirga tushadi. Sug'diylardan o'n ming kishi arablarga taslim bo'ladilar va islom dinini qabul qilishga qaror qiladi. Boshqalari esa Farg'ona podshosi Alatarga elchi yuborib, o'z shahridan boshpana berishini va zarur bo'lib qolsa arablardan himoya qilishini so'raydi. Biroq podshoning onasi o'g'liga sug'diylarni shaharga kiritmaslikni va ularga Farg'onaning tog' rustoqlaridan (bo'lislaridan) biriga joylashtirishni maslahat beradi. Shundan so'ng farg'onaliklar sug'diylarga Isfara rustog'idagi torgina Isom darasini bo'shatib beradi.

Tarixiy manbalarda Movarounnahrning janubi-sharqiy burchagida **Samarqandak** qishlog'i qayd qilingan (rus tilidagi xaritalarda Samarqandek deb yozilgan). Bu Qirg'iziston Respublikasi Batken viloyatining Batken tumanidagi **Samarqandiq** (qirg'izcha) deb talaffuz qilinadigan qishloqdir.

Ana shu – «Samarqandiq» «Hudud ul-olam»dagi Samarqandak qishlog'ining o'zginasi.

Gap shundaki, sug'diylar mirishkor dehqon, bog'bon xalq bo'lgan, shaharlarida hunarmandchilik, savdo rivojlangan. Ular Buyuk Ipak yo'li bo'yida barpo qilgan shahar, qishloqlarning ba'zilarini bosh shahri nomi bilan **Samarqand** deb atashganlar (masalan, Yettisuvdagi qadimgi Mo'g'ulistonda XIII asrdayoq **Samarqand** shahri bo'lgan, Qozog'istondagi Temirtov shahri **Samarqand** deb atalgan). Ana shunday aholi punktlaridan biri shubhasiz hozirgi Samarqandiq ovulidir.

Umuman, «Hudud ul-olam»da Movarounnahr, xususan, O'zbekiston geografiyasi, ayniqsa qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar olish mumkin.

«BUXORO TARIXI»

Mazkur manba O'rta Osiyo xalqlari tarixnavislik fanidagi dastlabki asarlardan biri. «Buxoro tarixi» O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi (VIII asr) hamda IX–XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-qishloqlar, xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Asarda Buxoro shahri va uning atrofidagi shahar-qishloqlar, anhor-ariqlarning bundan ming yil oldin qanday atalganligi bayon etilgan.

«Buxoro tarixi»ni asli Buxoroning **Narshax** qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far-an-Narshaxiy (to'la nomi – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik) 943–944 yillarda arab tilida yozgan.

Asarning bizgacha yetib kelgan forscha-tojikcha nusxasi 1128 yili Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy tomonidan arabcha asliyatidan qisqartirib qilingan tarjimadir. Oradan yarim asrcha vaqt o'tgandan keyin 1178–1179 yillarda Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors-tojikcha tarjimani ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan va unga 1220-yilgacha bo'lgan voqealar ham kiritilgan.

Asar chet ellarda ham bir necha bor chop etilgan. Jumladan, 1897-yilda A.I. Likoshin tarjimasida Toshkentda rus tilida, R. Fray tarjimasi 1954-yilda Kembrijda ingliz tilida nashr etilgan.

Biz 1966-yili Toshkentda A. Rasulyev tarjimasidagi o'zbekcha nashriga asoslandik.

Asardagi joy nomlari izohi

«Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni **Rudi Mosaf – Mosaf daryosi** deb ataydilar» (bu Zarafshon daryosi).

«Hali Buxoro shahri vujudga kelmagan, lekin qishloqlardan ba'zilari paydo bo'lgan edi. Nur, Xarqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna va Isvanalar o'sha qishloqlar jumlasidandir».

Bu qishloqlar kitobning o'zbekcha nashrida bunday izohlangan: **Nur** yoki **Nuri Buxoro** Nurota tumani markazi hozirgi Nurota shahridir. Xarqonrud – Zarafshon daryosidan chiqarilgan hamda Shopurkom va G'ijduvon tumanlarini sug'oradigan qadimiy kanal (rud, ro'd – kanal, ariq). **Xarqonrud** shu kanal bo'yida joylashgan qishloq. Hozir **Xarqona** deyiladi. Vardona qo'rg'oni Vardonzi nomi bilan hozir ham mavjud (Shofirkon tumani). Shu tumandagi Xo'jag'ulomtepa qishlog'i yaqinidagi katta tepalik ham shunday ataladi. Tarovcha Buxoro shahrining janubi-g'arbidagi Tarob qishlog'i nomining kichraytirib aytilgan shakli.

BUXORO VA UNGA QO'SHILADIGAN JOY NOMLARI IZOHI

Karmina Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan (Zarafshondan) keladi. Karminada (hozirgi Navoiy viloyatida) adib va shoirlar ko'p bo'lgan. Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karminani «Bodyayi xurdak» («ko'zacha») deb ataganlar (Karmina – hozirgi Karmana shahri. Bodyayi xurdak «ko'zacha» emas, balki «kichik dasht», «kichik cho'l» demakdir. Chunki bodya so'zining asl ma'nosi «cho'li biyobon»).

Nur katta joy. Unda masjidi jome bor, u ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga keladilar... Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar (hozirgi Nurota shahri).

Tavois (ko'pchilik manbalarda Tavovis). Bu Buxoro viloyatlaridan bo'lib, (asli) nomi Arquddir («Hudud ul-olam»da Arfud, «Buxoro tarixi»ning bir nusxasida «u Rabotimalik cho'lining g'arbida joylashgan» deyilgan). Unda boy va zeb-u ziynatni sevuvchi kishilar yashaganlar... Har bir kishi ziynat uchun bitta yoki ikkita tovus saqlagan. Arablar tovusni ko'rmagan ekan, u yerda ko'p tovuslarni ko'rib, u qishloqni «Zot ut-tavois» – «Tovuslar egasi» deb ataganlar. Undan keyinroq «zot» so'zini tashlab Tavois deb qo'ya qolganlar... Tavois Samarqandga boradigan katta yo'l ustida bo'lib, undan Buxorogacha yetti farsangdir...

Iskajkat. U bir katta ko'handizga ega (ko'handiz – qal'a, ark, ma'nosi «eski qal'a» demak: sug'dcha *diz* – «qal'a», ko'han, ko'hna – «eski»). Uning aholisi boy kishilar bo'lgan.

Yoqut Hamaviyning «Mu'jam ul-buldon» asarida qishloq **Iskijkat** yoki **Sikijkat** shaklida tilga olingan.

Sharg' qishlog'i Iskajkat ro'parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa hech bir bog' va bo'sh yerlar yo'q. U daryoni Rudi Somjan deb ataganlar. Hozirda Sharg' daryosi, ba'zi kishilar bo'lsa, Haromkom deydilar. Sharg' yoki Jarg' qishlog'i Yoqutning «Mu'jam ul-buldon»ida ham tilga olingan va Buxorodan 4 farsax uzoqda, *Somjan* arig'ining bo'yida edi, Somjan arig'i keyinchalik Haromkom (buxorochasiga *kom* – ariq) deb atalgan. Sharg' yoki Jarg' qishlog'i va arig'i nomini *Charg'* shaklida yozish to'g'riroq deydi akademik V.V. Bartold.

Zandana. Bu qishloq katta qal'aga, ko'pgina bozorlarga va masjidi jomega ega. Bu qishloqda to'qib chiqariladigan bo'z – karbosni «zandaniychi», ya'ni «Zandana qishlog'idan chiqadigan» deb ataydilar. (hozirgi Peshku tumanidagi Zandoni qishlog'i bo'lsa kerak).

Vardona. Bu katta bir qishloq bo'lib, ko'handizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim vaqtlardan podsholarning qarorgohlari bo'lgan, lekin hozirda unda podshoh o'tiradigan qarorgoh yo'q. Vardona Buxoro shahridan qadimroq barpo bo'lgan.

Vardona (Vardani, Vardanzi, Vardanze) qishlog'i Shofirkon tumanidagi **Qo'rg'oni Vardanzi** nomi bilan mashhur tepalik atrofida bo'lgan. Pahlaviy tilida *vard* – «gul», *-on* ko'plik qo'shimchasi, ze(zi) – «yer», *Vardonze* – «sergul joy» degani.

Afshina. Katta shoriston (shahriston)ga va mustahkam hisorga ega. Bir qancha qishloqlar unga mansubdir. U yerda har haftada bir kun bozor bo'ladi. Bu qishloqning ekin yerlari va biyobonlari madrasa talabalariga vaqf qilingan.

Afshina – bu hozirgi Romitan tumanidagi **Afshana** qishlog'idir. O'sha davrlarda Samarqand yaqinida ham Afshina qishlog'i bo'lgan. Afshin – Jizzax bilan Xo'jand shaharlari oralig'idagi Usrushona tarixiy viloyati podshosining unvoni – «hukmdor» degani, bu so'z asli sug'dcha bo'lishi kerak.

Barkad. Bu qadimiy va katta bir qishloq, bir katta ko'handizga ega. Bu qishloqni «Barkadi alaviyon» – «Ali avlodining Barkadi» deb ataydilar. Bunga sabab shuki, amir Ismoil Somoniy bu qishloqni sotib olib, uning bir bo'lagini Muhammad payg'ambarning kuyovi xalifa Ali avlodiga vaqf qilgan. Bu qishloqning keyingi tarixi noma'lum.

Romtin (Romitan). Bu katta ko'handizga ega va mustahkam qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroq. Ayrim kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. U qadim vaqtlarda podsholarning turar joylari bo'lgan, keyinroq esa Buxoro shahri bino bo'lgandan keyin podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turganlar. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan.

«Buxoro tarixi»ning Buxoroda bosilgan nusxasida **Romtin** (Romitan) qishlog'i nomining kelib chiqishi haqida bir rivoyat keltiriladi. Aytadilarki, Afrosiyobning bir qizi bo'lib, uning doimo boshi og'rir edi. Romtinga kelib turib qolganidan keyin bu yerning havosi muvofiq kelib darddan xalos bo'ldi va bu joyga «Oromi tan» – «Tan oromi» deb nom qo'ydi. Oddiy xalq buni «Romtin» deganlar. Bu hozirgi Romitan tumani markazi Romitan shahridir.

Varaxsha. Bir nusxa [kitobda] Varaxsha o'rnida Rajfandum deb yozganlar. Katta qishloqlar jumlasidan bo'lib, Buxoro singari edi. U Buxoro shahridan qadimiydir, podsholar turadigan joy bo'lib, mustahkam hisorga ega bo'lgan.

Bu qishloqning nomi turli mualliflarda Baraxsha, Farahsha, Afraxsha, Faraxshan, Varaxshiy, Afraxshiy, hatto Rajfandum, Daxfendun shakllarida qayd qilingan. V.V. Bartold bu qadimiy qishloqning nomi Romitan qishlog'i yaqinidagi katta tepalik nomida saqlanib qolgan ko'rinadi, deydi. Varaxshaning qoldiqlari Buxorodan 30 km shimoliy-g'arbda joylashgan.

Baykand. Buni shaharlar jumlasidan deb hisoblashadi. Baykand aholisi biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga ruxsat bergan emas. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, ya'ni mingdan ortiq rabot bo'lgan. Buning sababi shuki, Baykand katta va yaxshi joy bo'lib, har bir qishloqning aholisi u yerda bir rabot qurib, unga bir to'da kishilarni joylab qo'ygan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish faslida kofirlar yig'ilib hujum qiladigan vaqt bo'lganida har bir qishloqdan u joyga ko'p xalq to'planib g'azot qilganlar. Shunda har bir odam o'z rabotiga kelib tushgan. Bu shahar «Hudud ul-olam»da va boshqa asarlarda ko'proq **Paykend** (Poykend) shaklida uchraydi.

Haromkom suvi Baykandga keladi. Baykandda qamishzorlar va katta-katta suv halqoblari tutashadi. Bularni «Borgini farox» – «Keng havz»

deydilar va Qaroko'l deb ham ataydilar. U ko'lning kengligi yigirma farsangdir, uni «Buhayrayi Somjan» – «Somjan ko'li» deb ataydilar.

Bu ma'lumotlar tarixiy geografiya va toponimika uchun o'ta muhim. Bundan 10 asr oldin hozirgi **Qorako'l** shahri atroflarida kengligi 20 farsax katta ko'l bo'lgan, bu ko'l Bargini farox, Buhayrayi Somjan va Qorako'l deb atalgan ekan.

Buxoroning turli nomlari haqida Narshaxiy u **Numijkat**, **Bumiskat**, arabchada «Madinat us-sufriya» («Mis shahar»), «Madinat ut-tujjor» («Savdogarlar shahri») kabi nomlar bilan atalganini qayd etadi va «Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir, deydi. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi Foxira bo'lib kelgan» deydi muallif va «Nega foxira deb ataydilar» degan savolga Jabroil: «Shuning uchunki, qiyomat kuni Buxoro shahri o'zida shahidlarning ko'pligi bilan faxr qiladi, deb javob beradi», deb yozadi.

Bu o'rinda shuni aytish kerakki, Numijkat aslida Buxoroda bo'lgan, so'ng bu ikki shahar bir-biriga qo'shilib ketgan.

Bu asarning toponimika uchun eng muhim tomoni shundaki, Buxoroning o'sha zamondagi bir necha yuz shahar hamda qishloqlari nomlari tilga olingan. Shunisi xarakterliki, Narshaxiy tilga olgan bir necha qishloq va shaharlar hozir ham o'sha nom bilan ataladi. *Nur* (hozirgi Nurota), *G'ijduvon, Romitan, Shopurkom, Karmana* ana shular jumlasidan. Bular juda qadimiy joylardir. Masalan, Romtin (Romitan) «Buxorodan qadimiyroq»dir. Narshaxiy aytib o'tgan ko'pgina ariqlar hozir ham o'sha davrdagi nomlari bilan yuritiladi. Narshaxiyning Shopurkom arig'i etimologiyasi to'g'risida aytgan rivoyati olimlar tomonidan to'la qabul qilingan (*Shopur* – ism, *kom* – ariq, ya'ni *Shopur arig'i*). Nurota mo'g'ulcha *nuru* – «tog'» so'zidan olingan degan fikrlar bor edi, holbuki bu joy nomi mo'g'ullar kelmasdan bir necha asr oldinoq Nur deb atalgan ekan.

«Buxoro tarixi»ning qiymati yana shundaki, unda keltirilgan nomlarning ko'plari arablardan oldingi nomlardir. Unda Ko'shki mug'on, *Mug'on* (mug'lar) ko'chasi kabi majusiy nomlar ham uchraydi, muallif «Bu viloyatlarda otashparastlarning ibodatxonalari ko'p bo'lgan»ligini ta'kidlaydi.

«DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARIDA TOPONIMLAR

Mahmud Koshg'ariyning bu nodir asari bebaho bir qomuski, undan har bir mutaxassis o'ziga kerakli material topa oladi. «Devon»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki bundan uch yuz-to'rt yuz yil oldin yozib olingan nomlar ham hozirgi talaffuzdan ko'ra qadimgi toponimiyaning dastlabki shakliga ancha yaqin bo'ladi. «Devonu lug'otit turk» esa bundan qariyib 10 asr oldin yozib qoldirilgan. Shuni aytish kerakki, toponim qanchalik ilgari yozib olingan bo'lsa, shunchalik qimmatli sanaladi. Chunki ana shu davrda joy nomlarining fonetik hamda grammatik xususiyatlarida qanday o'zgarishlar ro'y berganini aniqlash mumkin bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy asarining toponimika uchun ahamiyati undagi joy nomlari bilangina tugamaydi. Toponimlarning etimologiyasi, semantikasini aniqlash hamda grammatik xususiyatlarini hisobga olishda qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik, hayvonlarning o'sha davrdagi nomlari, toponimlarning grammatik tuzilishiga doir mulohazalar g'oyat zo'r ahamiyatga egadir. Bu jihatdan «Devon» nihoyatda boy material beradi.

«Devon»dagi toponimik ma'lumotlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. «Devon»da tilga olingan joy nomlari.
2. Etnonimlar, ya'ni turli xalq, elat, qabila, urug' nomlari.
3. Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari.
4. Geografik atamalar, o'simlik hamda hayvon nomlari.
5. So'zlarning fonetik va grammatik tuzilishiga doir fikrlar.

«Devon»da qayd qilib o'tilgan toponimlar haqida. Ma'lumki, «Devon»ga doira deb atalgan xarita ilova qilingan. Bundan tashqari, matnda ham bir qancha joy nomlari izohlab o'tilgan. Bizning hisobimizga ko'ra «Devonu lug'otit turk»da jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. Shu o'rinda aytish joizki, asarda ayrim joy, ba'zi o'simliklar, hayvonlar nomlari atamalar takroran berilgan. Bunday qaytariqlar hisobga kirmaydi, albatta.

Mahmud Koshg'ariyning «Devon»idagi xaritada tilga olingan nomlar to'g'risida I.I. Umnyakov, S. Umurzoqov, H. Hasanov kabi olimlar qator asarlar yozganlar.

«Devon»dagi nomlarning asosiy qismi O'rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Bu toponimlarning bir qanchalari hamma uchun tushunarlidir. Chunonchi, **Oqsoy, Oqterak** kabi nomlarni hozir ham uchratish mumkin. **Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Xo'jand, Xorazm, Talas, Tarim, Sayram, Manqishloq, Issiqko'l** kabi toponimlar deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan. **Ila, Qorayalg'a, Ala, Ertish** kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o'zgarib ketgan va hozir **Ili, Qorajilg'a, Olay, Irtish** shaklida yoziladi. **Beshbaliq, Yangibaliq, Tunkand, Yankand, O'zkand** kabi shahar nomlari, **Badalart, Buqachart, Zanbiat, Qavaqart, Yafg'uart** kabi dovonlar, **Ikkio'kuz, Qoraqosh O'kuz, O'rungqosho'kuz** kabi daryolar etimologiyasiga «Devon»ning o'zidan javob topish mumkin. **Bulg'or, Qifchoq, Uyg'ur, Tavg'ach, Yag'mo** kabilar etnotoponim, **Barsg'on, Barman, Qazvin** singarilar esa antrotoponimlardir. Ba'zi bir toponimlarning etimologiyasini taxminan aniqlash mumkin. Chunonchi, *ayiq* o'sha zamonlarda *azig'* deb atalgan. Mahmud Koshg'ariy *Azig'* degan joyni tilga oladi, bu nom «*ayiq*» degan ma'noni anglatgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o'rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur.

«Devonu lug'otit turk»dagi toponimlarning biz uchun yana bir qimmatli tomoni ularning grammatik xususiyatlaridir. Ma'lumki, joy nomlarining etimologiyasidan tashqari grammatik tuzilishiga qarab ham ularning qaysi tilga, qaysi davrga oid ekanligini ma'lum darajada aniqlash mumkin.

Hozirgi turkiy toponimlarning asosiy qismi ikki va uch komponentdan, ya'ni tarkibiy qismdan iborat. «Devon»dagi joy nomlarining yarmidan ko'pi bir komponentli nomlar. Masalan, **Yamak, Yofinj, Alush, Azig', Abul, Etil, Udun, Yamar, Ala, Urang, Qo'ju, Bukur, Talas, Qabus, Quya, Toman, Koson, Xuzar, Chog'la, Barxan, Sabran, Sitg'un, Tovg'ach, Barjug', Tartuq, Tayiz, Ko'rung, Qazvin** kabilar ana shular jumlasidan. Ikki komponentlilar u qadar ko'p emas: **Ikkiko'z, Oqsoy, Oqterak, Olayig'och, Beshbaliq, Yangibaliq, Qorayig'och, Badalart, Buqachart, Boyyig'och, Yulduzko'l** kabilar. Bu toponimlarning birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti esa ot (geografik atama). Ikki komponentlilar grammatik tuzilishi ji-

hatidan hozirgi toponimlardan farq qilmaydi. Uch komponentlilar esa atigi bir nechta: O'**rungqosho'kuz, Qoraqosho'kuz, To'rig'arttayiz**.

Yana shu narsa xarakterliki, «Devon»da qayd qilingan joy nomlarining yarmidan ko'pi ikki bo'g'indan iborat. Demak, ilgarilari joy nomlari ixcham, sodda bo'lgan. Ko'p komponentli, butun bir iboradan tuzilgan **Yo'ldoshning oti uchgan** (Zomin tumani), **Amin Mulla pichan chopgan** (Boshqirdiston), **Hasan toshtergan** (Baxmal tumani), **Chuqursoyning tangisi** (Zomin tumani) kabi mikrotoponimlar esa keyingi davrlarda vujudga kelgan.

Etnonimlar haqida. «Devon»da juda ko'p xalq, qabila, toifa nomlari — etnonimlar tilga olingan. Mahmud Koshg'ariy «Devon»ning bosh qismida turk qabilalari haqida so'z yuritib: **bajanak, qipchoq, o'g'uz, yamak, bashg'irt, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'ma, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xtoy**; kitobning lug'at qismida esa **kenjak, arg'u, qayig', bayot, chig'ay (chig'an), sug'doq, uch, qorluq, o'groq, kucha, bulaq, xalach, aramut, turkman, qiniq, salg'ur** kabi etnonimlarni ham tilga olgan.

Bizning fikrimizcha, toponimika uchun yana bir ahamiyatli manba «Devon»da anchagina uchraydigan etnotoponimlardir. **Aramut** (joy nomi), **Arg'u** (shahar), **Bulg'or** dengizi, **Bulg'or** shahri, **Kenjak sangir** (shahar), **Turk** (shahar), **Tavg'ach** (mamlakat), **Uyg'ur** (viloyat), **Yabaqu** (suv nomi), **Yag'ma** (qishloq nomi), **Yamak** (cho'l nomi) kabilar aslida etnotoponimlardir. Bundan tashqari, doira xaritada ham **G'uziya, Qipchoq yurti, Basmil cho'li** singari bir qancha o'lkalar tilga olingan. Demak, «Devonu lug'otit turk»dan ayni vaqtda etnonimlar va etnotoponimlar to'g'risida ham juda boy material topish mumkin.

Biroq etnonimlarning etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan rivoyatlarning hammasini ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Masalan, u *turkman* — «turkmonand», ya'ni «turkka o'xshash», *chigil* — «chi gil», ya'ni «bu qanday loy», *uyg'ur* «xud xo'r», ya'ni «o'zi topib yeydigan» degan so'z bo'lib, bu turk qabilalarining nomlari forscha degan xulosani bildirgan. Tanqidiy foydalanilsa, bu ma'lumotlar etnografiya, shuningdek, toponimika uchun ishonchli va boy material bo'lib xizmat qiladi.

Kishi ismlari haqida. Ismlar va toponimlar qadimdan bir-biri

bilan bog'liq. Qanchadan qancha toponimlar kishi ismlari bilan atalgan bo'lsa, bir qancha ismlar toponimlardan kelib chiqqan.

«Devon»dagi kishilar ismlari shu jihatdan qimmatliki, bir necha arabcha ismlarni istisno qilganda, kishi ismlarining deyarli hammasi qadimiy turkiy bo'lib, hozirgi vaqtda iste'moldan chiqib ketgan. «Devonu lug'otit turk»dagi 60 dan ortiq kishi ismlari orasida xonlarning, pahlavonlarning, urug' boshliqlarining, oddiy kishilarning ismlari, laqablari bor.

Akademik I.Y.Krachkovskiy musulmon mamlakatlarida qullarga va cho'rilarga **Yoqut, Zumrad, Kofur** (kamfara) kabi asl toshlar yoki xushbo'y moddalar nomlarini qo'yish rasm bo'lgan deb yozgan edi. Mahmud Koshg'ariy ham bu fikrni isbotlaydi. Demak, Kumush, Tilla (ba'zan Oltin) kabi qimmatbaho metall nomlari bilan atalgan ismlar ham dastlab qul va cho'rilarga qo'yilgan.

Mahmud Koshg'ariy ba'zi ismlarning etimologiyasini ham aytib o'tgan. *Bektur* — «o'rningda bek tur, uzoq yasha», *To'g'ril* — yirtqich qush nomi, *So'kman* — «jang saflarini sindiruvchi», *Burslan* — «qoplon», *Suli* — Sulayman so'zining qisqargani va hokazo. Bir qancha ismlarni izohsiz tushunish mumkin: Bug'raxon (*bug'ra, buvra* — erkak tuya), *Barsxon* (*bars* — qoplonning bir turi, bu so'z asli turkiy, yo'lbars esa «yo'l-yo'l bars» demak), *Qilichxon, Turumtoy* (yirtqich qush), *Arslon tegin* va hokazo. *Atish, Utush, Abi, Buluch, Tutush, Tekish* kabi ismlarning semantikasi esa biz uchun aniq emas.

Ismlarning grammatik xususiyati diqqatga sazovor: ularning 75—80 foizi bir bo'g'inli (Turk, Qaz, Shu va b.) yoki ikki bo'g'inli sodda, ixcham ismlar (Qavan, Qo'tan, Beklan, Chug'lan va h.k.). «Devon»dagi toponimlar bilan ismlar shu jihatdan bir-biriga o'xshaydi.

Qadimgi ismlar, ya'ni antroponimlar toponimikada juda katta ahamiyatga ega. A.I. Popov Dorogobi, Radonej, Jitomir, Ratmirovo singari toponimlar qadimgi sharqiy slavyan ismlaridan olingan deb yozadi. O'rta Osiyoda esa qadimgi turk ismlaridan kelib chiqqan nomlarni ajratish oson emas. Shu jihatdan Mahmud Koshg'ariyning antrotoponimlar haqidagi fikri juda qimmatli. Barman shahri Afrosiyobning o'g'li **Barman** nomi bilan atalgan, **Barsg'an** — Afrosiyobning o'g'li Barsg'an (to'g'risi — Barsxon) qurgan shahar. Ana shuning uchun ham shunday nom olgan. Ba'zi birovlar esa bu shahar uyg'urlar

begi otboqarining ismi Barsg'on ismiga nisbat berilib, Barsg'on deb atalgan deydilar (III tom, 424-bet). **Shu** – turklar shohi. U – fotih qilib qurdirgan shahar. **Qazvin** – Afrosiyobning qizi Qaz qurgan shahar bo'lib, asli «qaz o'yini» demakdir. Qaz suvi – Ila vodiysidagi katta bir yo'l. Afrosiyobning qizi – Qaz uning qirg'og'iga bir shahar qurgani uchun shunday nom olgan.

Qadimgi kishi ismlariga nisbat berib atalgan joy nomlarini O'rta Osiyo xaritasidan topish toponimchilar oldida turgan muhim vazifalardan.

Geografik atamalar, o'simlik hamda hayvon nomlari to'g'risida. «Devonu lug'otit turk» leksikasi toponimika uchungina emas, balki umuman til tarixi, dialektologiya uchun bitmas – tuganmas xazina. «Devon»da hozirgi vaqtda keng iste'molda bo'lgan so'zlarni ham, shaklan biroz o'zgargan atamalar hamda hozirgi vaqtda butunlay ishlatilmaydigan so'zlarni ham uchratish mumkin.

Biz geografik atamalarni bir necha guruhga bo'lamiz. O'zbek adabiy tilida keng ishlatiladigan atamalar: *aziz tog', ariq, o'ngir, qir, ang'iz, qayir* (qumli yer), *qoq* (qoq – ko'lmak suv), *ko'l, bulut, sag'iz tuproq* (sog' tuproq), *batig'* (daryo va boshqalarning chuqur joyi; ilgarilari *cho'kma* deb atalgan), *yar* (jar), *qo'rum* (qoya parchalari), *burun* (tog' burni, dengiz yoki ko'lga kirib borgan kambar yer), *suvlag'* (suvloq), *oqin* (sel), *qishlag'* (qishlanadigan joy, hozir ma'nosi o'zgarib qishloq shaklini olgan), *balchiq, yaylag'* (yozda turiladigan joy); *yayyoz* (hozir ma'nosi o'zgargan – yaylov), *yig'och* (yog'och – uzunlik o'lchovi), *yut* (yaxmalak, yutchilik), *soy, qoya, tupu* (tepa), *qorayog'* (neft), *qari* (o'lchov birligi), *o'y* (chuqur yer); *quzuq-quduq* va hokazo.

Asosan joy nomlari tarkibida qolgan atamalar: *art* – dovon, tog' tepasi (Og'ochart, Oqart, Qizilart, Qayinart, O'tizart, Ko'gart, Qizart, Qumart), *baliq* – shahar (Beshbaliq, Yangibaliq), *o'kuz* – daryo, *yoz, yozi* – cho'l (Yozyovon, Sariyoz, Qizilyoz), *tom* – devor, *kend, ken* – shahar, qo'rg'on, *qishloq, ulush*-ulus, qishloq, shahar, qarshisaroy, qasr (Qarshi, Katta Qarshi, Kichik Qarshi, Qarshilik, Qarshiyon), *tuz yer* – tekis, yer (Tuzbel, Kattatuz), *kechik* (Yettikechuv, Toshkechuv), *chimgan* – o'tzor, chimzor (ehtimol Chimyon cho'qqisi shu so'zdan olingan), *bo'ktir* – bo'ktar, tog' etagi va hokazo.

Ba'zi bir atamalarning ma'nosi butunlay o'zgarib ketgan. Mah-

mud Koshg'ariyning yozishicha, ilgarilari amirlarning mollari boqiladigan ko'katzor maydon, shuningdek, atrofi ihota qilingan har bir joy *qo'rig'* deyilgan. Hozirgi vaqtda butunlay haydalanmagan yer *qo'riq* deyiladi. Biroq ba'zi bir shevalarda, chunonchi, Zomin, Jizzax, G'allaorol va Forish tumanlarida daryo yoqalaridagi bo'liq o'tlarni *qo'riq* deyishadi. Mevalarni urib ketadigan qattiq sovuq «Devon»da *ushik* deyilgan. Bunday sovuq geografik adabiyotda *qora sovuq* deb kelinadi.

«Devon»da hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydigan atamalar ham bor: *bo'ynak* – tog' bo'yni, *o'trug'* – orol, *saqig'* – sarob, *esin* – shamol, *turug'* – tog'lardagi qal'a, turar joy, *qug'ush* – tarnov, *chig'ir* – tor yo'l kabi. Bu so'z «Boburnoma»da ham uchraydi. Hozirgi vaqtda shevalarda qorga tushgan iz *chiyir* deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, «Devonu lug'otit turk»dagi geografik atamalar sinchiklab o'rganilishi kerak. Chunki ular ko'pgina toponimlarning etimologiyasi uchun «kalit» bo'lib xizmat qilishi mumkin.

«Devon»da *qaraqan* (qarag'an), *anduz* (andiz), *alma, almila* (olma), *arpag'an, burchaq* (lo'viya), *sarmusaq* (sarimsoq), *apshan* (yavshan-shuvoq), *yilg'un* (yulg'un), *yandaq* (yontoq), *qaramuq* kabi o'simlik nomlari keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy davridan buyon ularning shaklida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Ayni paytda *qazin* (qayin), *charun* (chinor), *avya* (ayva – behi), *yag'aq* (yong'oq), *armut* (Navoiyda – *umrud*, Radlovda – *urmud*), *olmurut* (nok, nashvati), *azriq* (ayrih) *ajriq*, egir, *igir* – iyir singari o'simlik nomlari esa fonetik o'zgarish yoki metateza (harflarning o'rni almashishi) bilan yetib kelgan. *Aruk* (eruk) bir necha mevali o'simlikning nomi bo'lgan: *sariq aruk* – o'rik, *qora aru* – olxo'ri, *tulug* (ehtimol, tuklik) *aruk* – shaftoli; Asarda *ishg'un, ushg'un, qashg'un* – ravoch, *jag'mur* hamda *jamg'ur* – sholg'om (uyg'ur va qirg'iz tillarida chamg'ir – turp, rediska), *turma* – turp, *sarig' turma* – sabzi (Mahmud Koshg'ariy arg'ular sabzini «kizri», o'g'uzlar «kashur», «gashir» deydilar deb yozadi) kabi o'simlik turlari izohi ham keltirilgan.

Ammo ba'zi bir o'simlik nomlarining izohida chalkashlik borga o'xshaydi. Masalan, *so'kso'k* nima uchundir «yulg'un daraxti» deb izohlangan. Aslida *so'kso'k* yulg'un emas. Birinchidan, «Devon»da *yulg'un* so'zi ham bor. Ikkinchidan, qavs ichida «yaxshi yonadigan yog'och»

deb izoh berilgan. Demak, so'kso'k – *saksovul* Navoiyda ham *so'kso'k* so'zi saksovul ma'nosida uchraydi. Xorazmda saksovulni hozir ham so'kso'k deyishadi. Qorako'l tumanida So'kso'k degan qishloq bo'lgan.

Tavilqu so'ziga «qizil tol» deb izoh berilgan. Tovilg'i tol emas, buta. Bobur «tovilg'idan qushlarga qafas va tirgaz (kamon o'qi) qilinadi», deb yozgan.

Bir xil o'simliklarning nomi butunlay o'zgarib ketgan. Masalan, bug'doy, tariq, umuman g'alla ekinlari *tarig'* deyilgan. Jenshenning qadimiy turkiy nomi bo'lgan – *sig'un o'ti* (Navoiyda suyqun).

Mahmud Koshg'ariy o'simlik nomidan kelib chiqqan toponimni ham keltirgan: «Ar – ar daraxti – qora archa. Qashqarda bu nomdagi ikkita qishloq bor». Bundan tashqari har bir o'simlik nomi toponimga aylanishi mumkin. Chunonchi, tol, terak, o'rik, olma, sarimsoq, yulg'un, chinor singari o'simliklardan nom olgan toponimlar juda ko'p uchraydi.

«Devon»da o'simlik nomlariga qaraganda hayvon nomlari ancha ko'p. *Arslon, lochin, qulon, kirpi* (tipratikon), *qarg'a, burga, tilku* (tulki), *quzg'un, qarsaq* (tulkining bir turi), *tartar* (qush), *tavishg'an* (quyon), *qo'y-qo'yin, qoraqush, bars* (qoplonning bir turi), *it, to'ng'iz, o'q yilon* (o'q ilon), *atan* (axta tuya) kabi hayvon nomlari hozir ham shu shaklda talaffuz qilinadi. Ko'pgina hayvon nomlari hozirda boshqacharoq talaffuz etiladi: *tishak* (ikki yoshli qo'y), hozir – *shishak*, *chebish* (olti oylik uloq) – chivich, *chazan* hozir chayon, *chafli* – chovli, *qatir* – xachir, *qo'tuz* – qo'tos, *qo'ch, qo'chngar* – qo'chqor, *azig'* – ayiq, *azg'ir* – ayg'ir, *taqag'u* – tovuq, *qirqo'y* – qirg'iy, *sig'ir* – sigir, *eshkak, eshyak* – eshak, *qashg'alaq* – qashg'aldoq va hokazo.

«Devon»da bir qancha hayvonlarning eski, turkiy nomlari keltirilgan. Jumladan, *yag'an* – fil, *kish* – sobol, *tegin* – olmaxon, *inak* – sigir, *bulan* – los, *sanduvach* – bulbul, *chabaq* – mayda baliq va hokazo.

Hayvon nomlarining izohlarida ham ba'zi bir chalkashliklar bor ko'rinadi. Chunonchi, *o'qlug' kirpi* – «tipratikonning juda katta xili» deyilgan, holbuki u «jayra» bo'lishi kerak. V.V. Radlov lug'atida o'qlug' *kirpi* – «jayra» deb izohlangan (turkman tilida ham jayra shu nom bilan ataladi). Bug'ra II tomning 386-betida «nor tuya» deyilsa,

I tomning 196-betida «erkak hayvon» deyilgan. *Ular* so'zi «erkak kaklik» deb, *ularlig' tog'* esa «kakligi ko'p tog'» deb talqin qilingan. Aslida «*ular*» – kaklik emas, balki tog' kurkasi. I tomning 319 betida *qoraqush* – «burgut», III tomning 240-betida esa – «qirg'iy» deyilgan. Burgutning bir turi *qoraqush* deyiladi, lekin qirg'iyni qoraqush deyish xato. I tomning 344-betida *sug'ur* – «echkemar» deyilsa, 455-betida sug'ur – «mushuk kattaligida hayvon» deb izohlangan. II tomning 210-betida *qaz,* ya'ni g'oz «o'rdak» bo'lib ketgan. Bunday misollarga qaramasdan, «Devon» ko'pgina hayvonlarning qadimiy turkiycha nomlari etimologiyasini aniqlashda katta manba bo'la oladi.

«Devonu lug'otit turk»dagi so'zlarning fonetik va grammatik xususiyatlari. Toponimikada so'z tuzilishi va fonetika juda katta ahamiyatga ega. Toponimlar bir tildan ikkinchi tilga o'tganda yoki bir tilda uzoq zamonlar davomida iste'molda bo'lganda katta o'zgarishlarga uchraydi. Bunday o'zgarishlarni aniqlash uchun toponimning yoki shu toponim tarkibidagi so'zlarning bundan bir necha asr oldin qay shaklda talaffuz etilganini bilish juda muhim. Bu jihatdan «Devonu lug'otit turk»da nihoyatda boy materiallar topish mumkin. Chunonchi, z-d-y-g harflarining o'rin almashishini juda xarakterlidir. «Devon»da *oyoq* – ozoq, *quduq* – kuzuk, *qayg'u* – qazg'u, *kigiz* – kiziz, *quyi* – quzi, *ayri* (panjshaxa) – adri, *bayram* – bazram, *buyuk* – beduk, *qayish* (kamar) – qazish shaklida talaffuz etilishi aytib o'tilgan.

Shu munosabat bilan quyidagi ikkita toponimni ko'rib chiqish mumkin. Olimlar Azov dengizi nomini turkiycha azah – adoh, ya'ni «oyoq tomon», «quyi tomon» degan so'zdan chiqqan degan fikrni bildirishgan. Yana bir misol. Don daryosining *Bityug* nomli irmog'i bor (Rossiyaning Tambov va Voronej oblastlari). Bu daryo nomining etimologiyasi hamon ma'lum emas. Biroq V.P. Zagorovskiy bu gidronimning kelib chiqishi to'g'risida juda asosli bir fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, turkiy xalqlar – hazarlar, pecheneglar, qipchoqlar, tatarlar bu yerga turlicha nomlar qo'yganlar, eng katta suvni esa *beduk*, ya'ni «buyuk katta (suv)» deb atashan. XIV–XVII asrlarga doir rus hujjatlarida esa u Betyug shaklida uchraydi, keyinchalik Bityug bo'lib ketgan. Bu mulohaza haqiqatga juda yaqin. «Devonu lug'otit turk»da *beduk* — «har narsaning kattasi» deb izohlangan. Ilgarilari katta so'zi o'rnida *buyuk* ko'proq ishlatilgan.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida **j-v-y** tovushlarining funksiyasi va o'rni almashinishi ham diqqatga sazovor. Hozirgi vaqtda jelovchi shevalarda **y** o'rniga **j** ishlatiladi: yer-jer, yosh-jash, yuk-juk kabi.

Bu hodisa Mahmud Koshg'ariy zamonida ham mavjud bo'lgan. Chunonchi, u o'g'uz va qipchoqlar so'z boshidagi **y** tovushini **ch, j** ga almashtiradilar. Masalan, *yetmoq* fe'lini *jetmoq* tarzida talaffuz qiladilar deb yozgan edi (II tom, 364-bet). Bu haqda S. Mutallibov «Mahmud Koshg'ariyning «y» harfi haqidagi bu izohi turkologiya tarixiga katta aniqlik kirituvchi ahamiyatga ega», deb hisoblaydi. Masalan, *jar* Mahmud Koshg'ariy «Devon»ida *yar* shaklida berilgan. Bu so'z adabiy tilda *jar* shaklida ishlatiladi, lekin **Yorboshi, Yorariq** kabi toponimlar ana shu so'zdan kelib chiqqan. «Bekat», «stansiya» ma'nosidagi *yom* so'zining *jom* shaklida uchrashi ham bir qancha toponimlar etimologiyasini hal qilib beradi. **T** va **ch** tovushlarining o'rin almashinishiga misol sifatida «Devon»da *xachir-qatir, chodir-chatir, chachir* va hatto *jashir* shakllari keltirilgan.

So'z bo'laklarining yo'qotib qisqarishi yoki tarkibiy qismlari ortib cho'zilishi ko'plab so'zlarning, shuningdek, toponimlarning kelib chiqishi, shaklan o'zgarishini tushunib olishga yordam beradi. Mahmud Koshg'ariy zamonida to'g'on so'zi – *to'g', mushuk-mush, bo'xcha – bo'g', chibiq – chib, qashqa-qash, yashma – jash* shaklida talaffuz qilingan. Shuningdek, «kurak»ning – *kurgak*, «o'roq»ning – *o'rg'oq*, «taroq»ning – *targ'oq*, «qayiq»ning – *qayg'uq*, «tirsak»ning – *tirsgak* deyilishi ham toponimchilar nazaridan chetda qolmasligi kerak. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Qisqacha aytganda, «Devonu lug'otit turk» bir qancha toponimlarning ma'nosini tushunib yetishga, joy nomlarining uzoq davrlar davomida fonetik jihatdan o'zgarishini payqab olishga yordam beradi.

«BOBURNOMA»

«Boburnoma» XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatbaho materialdir.

Professor H. Hasanovning ta'kidlashicha, «Boburnoma»da 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. O'rta Osiyoga doir nomlarning

ko'pchiligi hamon o'sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi: **Farg'ona, Samarqand, Badaxshon, Olmaliq, Turkiston, Andijon, Buxoro, So'x, Axsi, Koson, Ars, O'ratepa, Xovos, Sayram, Xisor, Ispara, Oqqapchig'ay, Oqsuv** (O'ratepa yaqinida), **Zomin, Shahrisabz, Qorako'l, Amu, Kandirlik (dovon), Qarshi, Shahrisabz, Qorabuloq, Yom, Pop, Darg'am, Qorategin, Namangan, Sangzor, Alay** (Oloy), **Fon, Miyonkol, Piskent, Ilono'tti, Ohangaron** va hokazo. Ba'zi birlari esa shaklan o'zgarib yetib kelgan: **Olmatu – Olmaota** (to'g'risi – Olmati), **Marg'inon – Marg'ilon, Rushdon – Rishton, Toshkand – Toshkent, Mo'nug'il – Mo'g'ul** (tog'), **Kandibodom – Konibodom, Chir suyi – Chirchiq, Dizak – Jizzax, Masiho – Mascho-Mastchoh, Qubo – Quva, O'zgand – O'zgan, Oqar tuzi – Og'ar** (tekislik), **Tirmiz – Termiz, Xo'qon – Qo'qon, Siyohob – Siyob, Quzor – G'uzor, Karmina – Karmana, Chorju – Chorjo'y, Pashog'ar – Pishag'ar** kabi. Bir qancha joy nomlari esa butunlay boshqacha nom olgan: **Yangi** (Taroz) – Talas, Sayxun daryosi, **Xo'jand suyi** – Sirdaryo, **Baroko'q** – Taxti Sulaymon, **Darbandi Ohanin** – Temir Darvoza (dara) va boshqalar. «Boburnoma»dagi joy nomlaridan ko'pchiligining ma'nosini o'zbek va tojik tillari yordamida tushunsa bo'ladi. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan. O'sha davrda Zarafshon **Ko'hak** deb atalgan: «Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. Ko'hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun **Ko'hak** suyi derlar» (Ko'hak tojikcha so'z bo'lib, *ko'h* – tog', *-ak* kichraytirish affiksi, «tog'cha», ya'ni «tepalik» demak, hozir **Cho'ponota** deb ataladi).

Takasekretku (Takasekirgan) – «Bu jihatdan ul mavzu' bu ismga mavsumdurkim, tog' domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur, mag'lub bo'lib ilikka tushti». H. Hasanov Bobur tilga olgan Takasekretu Norin daryosining Uchqo'rg'on qishlog'i yaqinidagi tor qisig'i bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq S. Jalilov bu joyni «Qoradaryodan qidirmoq kerak», deydi. Shunday qilib, Takasekretku qayerda ekanligi ma'lum emas.

Asarda Konigil to'g'risida aytilgan gaplar ham e'tiborga molik. Ba'zi birovlar uni *Koni gil*, ya'ni «tuproq koni» desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro'zbexon «Mehmonomai Buxoro» asarida *Koni gul*, ya'ni «gullar koni» deydi. Bobur esa «o'langning oti Koni

obgir» deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki Siyob suvining «atrofi tamom obgir», ya'ni botqoq bo'lgan (obgir atamasi «Boburnoma»da bir necha joyda uchraydi). Demak, *Koniobgir* astasekin o'zgarib Konigil shaklini olgan.

Keshning Shahrisabz deb atalishining sababi: «Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun **Shahrisabz** ham derlar».

Qarshi shahri nomining etimologiyasi haqida «Boburnoma»da bunday deyilgan: «Qarshi mo'g'ulcha ottur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar. Qadimgi turk tilida qarshi «ko'shk», «saroy», «xon qarorgohi» demak. Lekin XV–XVI asrlarda bu so'z «mo'tabar shaxslar qabriga qurilgan dahma maqbara» ma'nosini olgan.

So'ngra «Yana bir Parvon yo'lidur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun haftbacha derlar».

«Ko'hi Safed Ningnahorning janubida voqea bo'lubtur, bu tog'din qor hargiz o'ksumas. Bu jihattin g'olibo Ko'hi Safed (Oh tog') derlar».

Bobur Lamg'on etimologiyasini grammatik asosda isbotlaydi: «Hazrati Nuh payg'ambarning otasi Mehtar Lomning qabri Alishang tumanidadir. Ba'zi tarixta Mehtar Lomni Lamak Lamkon debturlar. Ul elni xili mulohaza qililibturkim, ba'zi mahal «kof» o'runig'a «g'ayn» talaffuz qilurlar (k tovushi o'rnigi g' tovushi talaffuz etilar ekan). Bu jihattin g'olibo bu viloyatni Lamg'on debturlar».

G'urband haqida: «yana bir G'urband tumanidur. Ul viloyatlarda ko'tallarni band derlar. G'o'r sari bu ko'tal bila borurlar, g'olibo bu jihattin G'urband debturlar».

Seyoron: «Bu kentlardin quyiroq dashtdin bir kuruh-bir yarim kuruh yuqori boqa domanada tog'ning tubida chashma voqea bo'lubtur. Xoja Seyoron derlar. Bu chashmada va bu chashmaning atrofida uch nav daraxtlardur. Derlarkim, bu uch jins daraxt uch azizning karomatidir, Seyorong'a vajhi tasmiya buni derlar».

G'aznI shahri yaqinida Ravza degan joy bo'lgan. Boburning yozishicha Mahmud G'aznaviy ana shu yerga dafn etilgan: «Sulton qabri anda uchun Ravza derlar» (*ravza* so'zi arabcha bo'lib, chamanzor, bog' demak. Biroq buyuk kishilarning qabrini gulzorga nisbat berib ba'zan ravza deb ataydilar).

Go'spandliyorning ma'nosi: «Omma yo'l o'ng qo'limizda bir-ikki kuruh ekandur, bu yo'l otliq yo'li emas ekandur. Qo'ychi va cho'pon gohi gala va ramani bu yo'l va tangi bila indurur uchun bu yo'lni Go'spandliyor der emishlar. Yo'lni afg'on tili bila liyor derlar». Demak, Go'spandliyor – «qo'y yo'li» degan so'z ekan.

Nima uchun Havoli Qutiy deb atalishining sababi: «Ushbu tarih bila qor tepib, yo'l qilib, Injukon yerdin uch-to'rt kunda ko'tali Zarrinning tubiga Havoli Qutiy degan Qavolg'a kelduk.. Ul el tog'dag'i g'or va kovoklarni havol derlar».

Bobur Kashmir etimologiyasini quyidagicha taxmin qiladi: «...Bu tog' elini Kas derlar. Xotirg'a yettikim, Hindiston eli «shin»ni «sin» talaffuz qilur (ya'ni **sh** tovushini **s** talaffuz qiladilar), chun bu tog'da mo'tabar shahar Kashmirdur, balki Kashmirdin o'zga bu tog'da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo'la olurkim, Kashmir demish bo'lg'aylar».

Himolay tog'larini Bobur bunday izohlaydi: «Bu tog'ni hind eli Savo lak parbat derlar, hind tili bila «savo» – rub' (chorak), «lak» – yuz ming, «parbat» – tog', ya'ni rub' va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lg'ay».

Joy nomlarining grammatik xususiyatiga kelganda shuni aytish kerakki, «Devonu lug'otit turk»da uchraydigan toponimlarning aksariyati bir komponentli (bir tarkibiy qismli) bo'lsa, «Boburnoma»dagi joy nomlarining ko'pchiligi ikki komponentlidir. Affiksli (qo'shimchali) toponimlar ham anchagina uchraydi. Affikslardan, **-an** (yon), **-ob, -tu, -ot** eng xarakterlidir: **Ohangaron, Childuhtaron, Bog'izag'on, So'zangaron, Bishxoron, Charmgaron, Valiyon, Bomiyon, Seyoron** va boshqalar. **Andarob, Serob (Sarob), Tangob, Murg'ob, Nilob, Balxob, Dug'oba, Astarob, Xushob, Chanob, Siyohob, Surxob, Borixob** kabi. **Olmotu, Chiltu, Samtu (Shamtu), Chatu, Qayoqtu, Ulobatu, Neratu, Jarg'otu, Qammotu, Qo'ratu, Shibartu** va hokazo.

Bobur **-ot** affiksini ko'plik ma'nosida juda ko'p ishlatadi. *Bek – bekot, tuman – tumanot, aymoq – aymoqot, bo'luk – bo'lukot, bog' – bog'ot, pargana – parganaot.* Bunday so'zlar oxiridagi **-ot** qo'shimchasini A.M. Shcherbak mo'g'ulcha affiks bo'lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq bu yerda hech qanday mo'g'ulchaga o'rin yo'q, balki sof arabcha element.

Endi biz «Boburnoma»ning o'zbekcha («Bobirnoma», O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, Toshkent, 1960) hamda ruscha nashrlarida («Бабурнаме», Издательство Академии наук Узбекистана, Ташкент, 1958) O'rta Osiyodagi geografik nomlarni yozishdagi farqlarga to'xtalib o'tamiz. Shuni aytish kerakki, geografik nomlarning yozilishi toponimika uchun katta ahamiyatga ega, chunki joy nomlarining etimologiyasi, grammatik xususiyatlari ularning qanday yozilishiga qarab aniqlanadi. «Boburnoma»ning ikki nashri joy nomlarining transkripsiyasi jihatidan asosan bir-biriga to'g'ri kelsa ham, lekin bir qancha nomlarning yozilishiga ko'ra farq qiladi. Biz o'zbekcha va ruscha nashrlaridagi muhim tafovutlarni ko'rsatib o'tamiz:

Masiho	Mascha
Sira tog'	Sire-tak
Puli Mag'oq	Pul-i Mugak
Yakchirog' o'langi	Pul-i chirar
Motrid	Maturid
Ko'k saroy	Kak-saray
Bog'i Shamol	Bag-i Shamol
Pashog'ar	Peshagir
Ilamish	Aylamish
Bichrota	Baxrata
Archakent	Archikent
Asfidak	Isfiduk
Piskent	Bisket
Xoslar	Xas
Piskent	Bishkent
Olayluq o'rchini	Ala-yalukskiy orchin
Xoja katta	Xodja katta
Bichrota	Bixrata
Ko'li	Gil Koil
Xoja Imod	Xodja Xammad
Samtu	Shamtu

«Boburnoma»da hammasi bo'lib 150 ga yaqin joy nomlari transkripsiyasi o'zbekcha va ruscha nashrlarida bir-biridan katta farq qiladi.

Asarda geografik atamalar va o'simlik hamda hayvon nomlari.

«Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan. *Jar, yayloq (yaylov), tangi, tog', tepa, dara, dasht, koriz, dovon, sahro, soy, shoxob, orol, sel* kabi atamalar o'zbek geografik adabiyotida keng ishlatiladi. *Shayjo'y, kent, ko'xpoya, pushta, tuz, o'lang, qo'l, takob, bandar, band, qasaba, o'rdu (o'rda), yom, chordara, qorasuv* kabi atamalar asosan joy nomlari tarkibida qolgan yoki boshqa tillarda, chunonchi, tojik tilida uchraydi. *Brong'or, jvong'or, tunqotar* kabi harbiy atamalar ham bir qancha toponimlar hosil qilgan.

«Boburnoma»da tilga olingan asosiy geografik atamalar quyidagilar: *tarnov* (ariq), *qasaba* (shaharcha), *shayjo'y* (ariq), *kent, ko'hpoya* (tog' etagi), *pushta* (tepalik), *jar, yayloq* (yozgi qo'nish joyi), *botqoqlik, qorasuv, tuz* (tekislik), *tangi* (tor dara), *obgir* (botqoqlik), *qo'ruq* (qo'riqxona), *o'rchin* (okrug), *ko'xpoya* (tog' etagi), *uchma* (tik yonbag'ir), *yoz* (ko'klam), *dobon* (dovon), *ko'tal* (dovon, oshuv), *julga* (vodiy, soylik), *qo'l* (soy), *quruq qo'l* (quruq soylik), *dara, soy, tepa, tumshuq, bandar* (savdo shahri), *takob, tagob* (o'zan, zax yer), *pargana* (viloyat), *band* (dovon, tog' yo'li), *dara, parcha tog', gardona* (bo'yin), *liyor* (yo'l), *suvsiz qo'l* (soylik), *o'lang* (o'tloq, ko'kalamzor), *aymoq, aymoqot, quruq rud* (quruq o'zan), *sumj* (g'or), *tog' kamari, chig'ir* (chiyir, tor yo'l), *kimson* (oltin), *chopqun* (bo'ron), *uchma* (tik yonbag'ir), *langar, yozi* (dala, dasht), *o'rdu* (o'rda), *dasht, kadxudo, oila* (xo'jalik), *shoxob, jar, yakraqa* (yolg'izoyoq yo'l), *sahro, biyobon, balandi* (tepalik), *koriz, tog' etagi, yurt* (qo'nish joyi), *ushoq tog'lar, jangal* (o'rmon), *la'limi* (bahorikorlik), *jazoyir* (orol), *birinj* (bronza), *sel, ko'ra, chiyni* (chini), *qiyo* (qoya), *yomchi* (yom xodimi), *chordara* (korovulxona), *to'qay* (daryo tirsagi), *orol, jar, balchiq, sol.*

O'simlik hamda hayvonlarning bundan besh asr oldin qanday nomlar bilan atalishi ham toponimika uchun ahamiyatlidir. Bobur zamonida *kark* (karkidon), *qulon, bug'u maral, kiyik* kabi hayvonlar juda serob bo'lgan va bir qancha joylar shu hayvon nomlari bilan atalgan. Karkxona, Qulonlisoy, Maralboshi, Kiyikli va hokazo. Bobur davridan hozirgacha deyarli o'zgarmagan hayvon nomlari: *bo'dana* (bedana), *kiyik, maral, qulon, qo'ton, qoz* (g'oz), *tovuq, qarqara, qarchig'ay, tuyg'un* (oq qarchig'ay), *fil, arqar, kish* (sobol), *shag'al* (chiyabo'ri),

sor, olaqarg'a, qarlug'och (qaldurg'och), *zog'cha, itning kuchugi* (it-vachcha) va boshqalar. Ba'zi hayvonlar hozir boshqacharoq nom bilan ataladi: *ars* – oqsuvsar yoki oqsichqon, *govmish* – buyvol, *kark* – karkidon, *bag'riqaro* – qorabovur, *buqalamun* – xameleon, *uy* – sigir va hokazo. Bulardan tashqari *shahboz* (qush), *dang* (qush), *tupchoq ot, nilagov, sahroyi qo'tos, yozi galahrasi, shorak, kabki dariy, durroj, pulpakor, sahroyi tovuq, chalsiy, shom, chir, xarchal, charz, tug'dor, soras* (teva-turna), *uqor, bo'zak, zumaj, shahroh, sherri obiy, kels, sepsar, xuki obiy, karyol* kabi ko'pdan ko'p hayvon nomlari tilga olingan. Bular asosan Afg'oniston va Hindistonda uchraydigan hayvonlar.

«Boburnoma»da o'simliklardan *sebarga, tobulg'u* (tovilg'i), *qorayig'och* (qayrag'och), *chilg'o'za, sanjid, norunj* (apelsin), *turunj, amluk, emluk yig'ochi, butaki* (betaga), *xanjak* (janjaq), *qulon quyrug'i, ko'k shivoq* (shuvoq), *sunbul, omonqora, bodinjon* (baqlajon), *kishmish-maviz* (mayiz), *tol, g'aynolucha, funduk, biqi, g'o'za, limu* (limon), *qizilgul* (atirgul), *obnus yig'ochi* kabilar qayd qilingan. Bu o'simlik nomlaridan ko'plari hozir boshqacha ataladi.

Bobur juda ko'p urug', qabilalar nomini tilga oladi. Shunisi xarakterliki, kishi ismi bilan birga ko'pincha uning qaysi urug'dan ekani aytib o'tiladi: Masalan, Ibrohim soru minglig' urug'idan edi, Amir mo'g'ul, Zunnun arg'un va o'g'li Shoh Shujo' arg'un, Qosim qavchin, Oq qo'yluk uzun Hasan, Hamzabiy mang'it, Shayx Abdulla barlos, Qosim jaloyir, Tohir do'lday va hokazo. Barlos, jaloyir, do'lday qabilalari ayniqsa tez-tez tilga olingan, chunki Bobur armiyasining asosini ana shu uch qabila vakillari tashkil etgan. Bobur qabilalarning qaysi tilda gaplashishiga ham e'tibor bergan:

«O'n bir-o'n ikki lafz bila Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, mo'g'uliy, hindiy, afg'oniy, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lamg'oniy».

Hazora qabilasining tili to'g'risida quyidagi so'zlarni o'qiymiz: «G'azni tog'larida hazora va nakdaridur. Bularning orasida ba'zi mo'g'uliy til bila hikoyat qilurlar».

Venger olimi L. Ligeti Afg'onistondagi hazora shevalarida mo'g'ulcha so'zlar juda ko'p ekanligini aniqlagan.

«Boburnoma»dagi kishi nomlari maxsus tadqiqot manbayidir.

«TOPONIMIKA OCHERKLARI»

V.A. Nikonov aytgani kabi, toponimist tilshunos yoki faqatgina tarixchi, yoyinki faqatgina geograf bo'lmasligi kerak. Boshqacha aytganda, geografik nomlarni o'rganmoqchi bo'lgan olim toponimik tadqiqotlarning lingvistik uslubini ham, tarixiy uslubini ham, geografik uslubini ham chuqur egallagan keng qamrovli mutaxassis bo'lmog'i shart. E.M. Murzayev ana shunday toponimchi edi.

E.M. Murzayevning toponimika sohasidagi asarlaridan eng salmoqlilari xalq geografik atamalariga bag'ishlangan. Bu boradagi eng so'nggi va eng yirik ishi 1999-yilda Moskvada chop etilgan 2 jildli «Xalq geografik atamalari lug'ati»dir (rus tilida).

Olimning sof toponimik ishlari ham kam emas. U geografik atamalarning kelib chiqishi, toponimikaning umumiy masalalari to'g'risida, shuningdek, sobiq Ittifoqning va Xorijiy Osiyoning ayrim rayonlari toponimiyasi haqida asarlar yozgan.

E.M. Murzayevning «Toponimika ocherklari» («Очерки топономики, M., 1974) asari professorning geografik nomlarni o'rganish sohasidagi ko'p yillik mehnati samarasidir. Kitobning birinchi qismida toponimikaning ahamiyati, uning taraqqiyot bosqichlari, geografik nomlarning paydo bo'lish yo'llari bayon etiladi. Ikkinchi, kattaroq qismida esa sobiq Ittifoq tarkibidagi ayrim respublikalar va viloyatlarning, shuningdek, ba'zi bir xorijiy mamlakatlarning toponimlari haqida so'z boradi.

Muallif kitob boshida geografik nomlar to'g'risidagi ta'limot bo'lgan toponimikaning boshqa fanlar orasidagi o'rni haqidagi munozaraga o'z fikrini bildirar ekan, toponimikani ham lingvistik, ham tarixiy va ham geografik tahlil usullaridan foydalanadigan mustaqil fan deyish to'g'ri bo'lur edi deydi.

Kitobda toponimika tarixiga katta o'rin berilgan. E.M.Murzayev sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalarda olib borilgan toponimik tadqiqotlar sharhini Mahmud Koshg'ariy (X asr) va Abu Rayhon Beruniyning (X–XI asrlar) toponimik tadqiqotlarini tilga olishdan boshlaydi. Muallifi noma'lum bo'lgan «Hudud ul-olam»ni (X asr) va Zahiriddin Boburning «Boburnoma» asarini tarixiy toponimlarga boy asarlar sifatida tilga oladi.

Kitobning katta qismi Osiyo qit'asi toponimlari – O'rta Osiyo va Qozog'iston, Mo'g'uliston, Sintsyazn (Shinjon), Vetnamning geografik nomlari tadqiqiga bag'ishlangan. Rossiya Markaziy qismi toponimiyasi bo'limida ham turkiy toponimlar tahlili salmoqli o'rin tutadi. E.M. Murzayev bu mintaqaning turkiy toponimik qatlami ba'zi bir munozarali maqolalarni istisno qilganda eng kam o'rganilganicha qolayotir, deydi. «Holbuki», deb davom etadi muallif, – «Rossiya Federatsiyasining markaziy oblastlari toponimiyasida turkizmlar ildizi rus davlatining uzoq tarixiy o'tmishiga borib taqaladi va turkiy xalqlarning hozirgi joylashishi buni isbot qiladi». Mana bu dalil ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: «Voronej oblastining sharqiy rayonlarida talay turkiy geografik nomlar qolgan. Bu nomlar hazarlar tomonidangina emas, balki Don bo'ylariga keyinroq kelgan turkiyzabon xalqlar-pecheneglar, qipchoqlar, tatarlar tomonidan qo'yilgan. Bityug daryosi bo'ylarida deyarli barcha daryolarga turkiyzabon qabilalar nom berganlar. Buning ustiga shaharlar va qishloqlar daryolarning nomlari bilan atalganini hisobga olsak, bularning hammasi har doim turkiy (qipchoqcha, tatarcha) nomlar bo'lib kelgan» (В.П.Загоровский «Как возникли навзания городов и сел Воронежской области». Воронеж, 1966).

Markaziy Rossiyada *balo'k (baliq), karaul (qorovul), kurgan (qo'rg'on, qo'rg'ontepa, tuproqqo'rg'on), orda (o'rda), tarxan (tarxon, darxon – imtiyozli), urman (o'rmon), yar (jar)* kabi turkiy so'zlardan tarkib topgan toponimlar kam emas. Hatto Rossiyaning poytaxti Moskva shahrida ham turkiy so'zlarni uchratish mumkin: **Arbat** (asli arabcha rabot so'zidan), **Balchug** (balchiq).

«Mahalliy geografik atamalar va ularning toponimiyadagi roli», «Xalq geografik atamaologiyasida anatomik leksika» bo'limlari muallifning asosiy toponimik tadqiqot obyekti bo'lgan xalq geografik atamalariga bag'ishlangan.

Muallif har qanday toponimik tadqiqot xalq geografik atamalarini o'rganishdan boshlanmog'i kerak deydi va bir xil geografik obyektlar (daryolar, tog'lar, ko'llar)ning atoqli otlari tarkibida takrorlanadigan formantlar aslida substrat (qadimiy) atamalar bo'lib chiqishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Bunga O'zbekiston toponimlaridan misol keltirish mumkin. Respublikamiz hududida *dam* unsuri geografik nomlar tarkibida ko'p

marta takrorlanadi: *Dam, Damcha, Damko'l, Damariq, Damachchi Jo'yidam* va b. *Dam* so'zi dastlab «ko'l» va hatto «ariq», «kanal» ma'nosida bo'lgan, keyinchalik «suvi ravon oqmaydigan», «damlanib qoladigan (ariq, ko'l)» ma'nosini olgan. Yoki *qo'l* unsuri **Qizilqo'l, Oltiqo'l, O'chqo'l** singari bir qancha toponimlar, aksari gidronimlar tarkibida takrorlanadi. Bu formant dastlab «soy», «soylik», hatto «tog' tarmog'i» ma'nosida mustaqil so'z bo'lgan.

XOTIMA

Kitobdan toponimika fani va O'zbekiston toponimiyasi haqida ma'lum bir tushuncha oldingiz. Har qanday geografik nom – toponim qimmatli lisoniy (lingvistik), tarixiy, geografik yodgorlik. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda qadimiy, substrat toponimlar ko'p. Akademik V.V. Bartold O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadqiqotchi materialning kamligidan emas, aksincha ko'pligidan, tarqoqligidan qiynaladi degan edi.

Bizni son-sanoqsiz geografik nomlar dunyosi o'rab olgan. Geografik nomlar xalq tomonidan qo'yiladi va xalq mulki hisoblanadi. Xalq mulki esa muqaddas va daxlsizdir.

Sovet hokimiyati yillarida mamlakatimiz hududida yuzlab tarixiy shahar-qishloqlarning nomlari o'zgartirildi. Har qanday davlat, ayniqsa mustaqil davlat o'z hududidagi geografik nomlarga befarq qaray olmaydi.

Mustaqillikning shart-sharoiti, shakl-shamoili bo'ladi. Har bir davlat o'z mustaqilligini ta'minlash uchun dastlabki qadamlardan biri sifatida o'z milliy toponimiyasini, ya'ni yer-suvlarning, shahar-qishloqlarning milliy, azaliy nomlarini qaror toptirish, noto'g'ri o'zgartirilganlarini qaytadan tiklashga bel bog'laydi.

1989-yilda O'zbekiston Madaniyat fondi huzurida Toponimiya kengashi tuzildi. Toponimiya Kengashi joy nomlarini milliylashtirish va ilmiylashtirish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirdi. O'zbekiston istiqlol yo'liga kirgach, Respublika hududidagi joy nomlari chinakam xalq mulkiga aylandi.

Bu sohada O'zbekiston Oliy Kengashining «O'zbekiston Respub-